



**Akabr ABDULLAYEV,**  
Profi universiteti o'qituvchisi, PhD  
E-mail: [abdullayevakobir@mail.ru](mailto:abdullayevakobir@mail.ru)

DSc, dotsent D. Alimova taqrizi asosida

## A SOCIAL PSYCHOLOGICAL AND MODERN APPROACH TO PRODUCTIVITY

Annotation

In this article, socio-psychological and modern approaches to efficiency are scientifically analyzed, and socio-psychological technologies of achieving efficiency in areas such as management and education are considered. The socio-psychological description of the most important performance indicators is also considered.

**Key words:** Efficiency, social environment, modern approach, management, education, social psychology, EMSK, the most important performance indicator, KPI.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД К ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье научно анализируются социально-психологический и современный подходы к эффективности, а также рассматриваются социально-психологические технологии достижения эффективности в таких сферах, как менеджмент и образование. Также рассмотрено социально-психологическое описание важнейших показателей эффективности.

**Ключевые слова:** Эффективность, социальная среда, современный подход, менеджмент, образование, социальная психология, ЭМСК, важнейший показатель эффективности, КПИ.

## SAMARADORLIKKA IJTIMOY PSIXOLOGIK VA ZAMONAVIY YONDASHUV

Аннотация

Mazkur maqolada samaradorlikka ijtimoiy psixologik va zamonaviy yondashuvlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi hamda boshqaruv, ta'lim kabi sohalarda samaradorlikka erishishning ijtimoiy-psixologik texnologiyalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarining ijtimoiy-psixologik tavsifi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Samaradorlik, ijtimoiy muhit, zamonaviy yondashuv, boshqaruv, ta'lim, ijtimoiy-psixologiya, EMSK, eng muhim samaradorlik ko'rsatkichi, KPI.

**Kirish.** Samaradorlik insonning muayyan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyati bo'lib, bu faqat shaxsiy ko'nikmalar bilan cheklanmay, ijtimoiy muhit va jamiyat ta'sirida shakllanadi. Ijtimoiy psixologiya samaradorlikka katta ta'sir ko'rsatadigan omillarni o'rganadi, jumladan, guruh dinamikasi, ijtimoiy motivatsiya, hamkorlik va raqobat. Samaradorlik shaxsning o'zini tuta bilishi, boshqalar bilan muloqot va hamkorlikda namoyon bo'ladigan xatti-harakatlariga bog'liq. Ijtimoiy-psixologik yondashuv samaradorlikka shaxslararo munosabatlar va guruhlar ta'sirini tahlil qiladi. Banduraning o'rganish nazariyasiga ko'ra, odamlar atrof-dagilarni kuzatib, o'z xulq-atvorini shakllantiradi. Bu jarayon samaradorlikka ta'sir qiladi, chunki shaxsning motivatsiyasi va ishonchi jamiyatdagi boshqalar bilan muloqoti orqali rivojlanadi. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son Farmoniga asosan davlat fuqarolik xizmati tashkilotlarida yagona kadrlar siyosatini olib borish, zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash orqali davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini oshirish, xodimlarni samarali boshqarish va inson resurslarini rivojlantirishga mas'ul bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etilgani [16], kadrlar boshqaruvini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ishlar boshlanishiga, jumladan ilk bora eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari asosida davlat xizmatchilari faoliyatining natijadorligini baholash tartibi [17] ni amaliyotga joriy etilishi yuzasidan ishlarning boshlanishi [3] ga zamin yaratdi.

**Metodologiya.** Metodlar sifatida mazkur maqolani yozishda asosan kontent analiz, normativ huquqiy hujjatlarini o'rganish hamda mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilindi. Shu ma'noda, pedagog eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarining ijtimoiy psixologik tavsifini o'rganish hamda milliy ijtimoiy-psixologik kontentda mazkur masalani yoritishga urinish, oldimzda turgan ilmiy-amaliy vazifalardan biridir. Inobatga olish kerakki, o'zbek ijtimoiy-psixologiyasida va umuman ilmiy adabiyotlarda o'zbek kontentida nafaqat o'qituvchiga oid eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (EMSK), balki umuman professional faoliyatga oid eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar yo'q. Xorijlik tadqiqodlarda pedagog EMSK masalasining ijtimoiy-psixologik o'rganilishi, talqini va tavsifi haqida so'z bora ekan, shaxsning jamoada mehnat muhitini samaradorligini oshirish, ilk bor Kurt Goldshteyn, undan so'ng esa Karl Rojers va Abraham Maslou kabi olimlarning nazariyalariga, jumladan o'zini o'zi aktualizatsiya qilish (self-actualization) va motivatsiya nazariyalariga borib taqaladi [13].

**Natijalar.** Bugungi kunda eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari faqatgina mahalliy va hududiy hokimliklarning faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadiga amaliyotga joriy etilmoqda, biroq boshqa sohalarda (jumladan umumta'lim maktab o'qituvchilarining faoliyatiga) joriy etilishi, o'ylaymizki tegishli davlat idoralari yoki Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining istiqboldagi rejalariga kiritilgan.

Shu o'rinda, avvalo eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari o'zi nima va uning mazmun-mohiyatiga batafsil to'xtalish zarur. Eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (EMSK) kelib chiqishi jihatdan, ingliz tilidan

olingan so'z bo'lib "key performance indicators (ishlab chiqarishning kalit ko'rsatkichlari)" qisqartma shaklda esa "KPI" tarzida qo'llaniluvchi, muayyan faoliyatda maqsadlarga erishilganlik, jarayonning optimalligi, natijadorligi va samaradorligini aniq o'lchovlar yoki ko'rsatkichlar asosida baholash[5] ga yordam beruvchi o'ziga xos model (instrumentariy) sanaladi. Ta'kidlash o'rinliki, atamani EMSK sifatida o'zbek tiliga tarjima qilinishi, mazmuniy xususiytga ega hamda ingliz tilidagi tegishli so'zlar boshqa ma'nolarni anglatib o'zbek tiliga tarjima qilinishi mumkin, lekin bir vaqtning o'zida mazmunan EMSKni takrorlaydi. Tushuncha zamonaviy loyihalarni boshqarish, biznes boshqaruvi hamda menejmentga oid ekanligini, uning o'zbek tilidagi qo'llanilishi tegishli normativ huquqiy hujjatlar[17] (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4472-son qarori)da aks etganini inobatga olib, qo'chimcha muhokamaga xo'jat yo'q degan fikrdamiz. Maqsadimiz asosan pedagog EMSK ning ijtimoiy psixologik tavsifi hamda biz fikr yuritadigan masala EMSK (yoki KPI)ning fundamental sohasida qo'llanilishi, tavsiflanishidan muayyan ma'noda farq qilishi mumkin.

EMSK bo'yicha ekspertlar uning nafaqat samaradorlik balki natijadorlikni ham bir vaqtini o'zida baholashini ta'kidlaydilar[11], bunda natijadorlik – rejalashtirilgan natijalarga erishilganlik darajasi hamda natijaga yo'nalganlik qobiliyatini o'zida jamlaydi, samaradorlik esa – erishilgan natija hamda sarf etilgan resurslar o'rtasidagi mutanosiblik, maqsadlar va rejalariga erishish jarayonida sifat darajasini ta'minlay olish qobiliyati, muayyan talablar, jumladan vaqt reglamenti, resurslarni sarf etish reglamenti kabilarga muvofiq bo'la olishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari EMSK ning rahbarlarga hamda xodimlarga xos bo'lgan, jarayonga, maqsadga, loyihaga, mijozlarga, rivojlanishga, iqtisodga yo'naltirilgan turlari ham farqlanadi va EMSK asosan shu yo'nalishlarda qo'llaniladi.

**Muhokama.** Mutaxassislar tomonidan EMSKning quyidagi xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan: manzilli taalluqlilik, to'g'ri yo'nalganlik, erishish imkoniyati mavjudligi, harakatlar uchun ochiqlik, vazifalarning cheklanganligi, tushunish osonligi, muvozanatga va o'zaro aloqadorlikka egalik, o'zgarishlarga nisbatan tashabbuskorlik va qabul qilishga tayyorlik, sodda o'lchovga egalik, mantiqiylik, solishtirish imkoniyati mavjudligi, mos va muvofiqlik, nuqtai nazarlarni ifodalash imkoniyatini ta'minlanganligi, kerakli individual stimullar bilan qo'llab-quvvatlanishi[10]. Demak, muayyan faoliyatga nisbatan EMSK qo'llanilishida, yuqoridagi xususiyatlarga ega bo'lishga e'tibor berish asosiy talab xisoblanadi.

Olimlar tomonidan EMSKning quyidagi asosiy qoida va tamoyillari keltiriladi [12]:

1. EMSK soni maksimal 10-15 ta bo'lgani (ayrim manbalarga ko'ra 10 tadan ayrim manbalarga ko'ra 20 tadan oshmasligi) maqsadga muvofiq;

2. Muayyan EMSK uchun yetarli darajada moliyalashtirilishi, uni nazorat qilish va boshqarish tamoyili;

3. Hamkorlik tamoyili (ya'ni jamoa a'zolari tomonidan umumiy maqbul strategiyalarga ega bo'lish hamda maqsad va vazifalar uchun kerakli o'zgarishlarni qabul qila olish);

4. Asosiy nuqtaga urg'u berish tamoyili - bunda jamoada gorizontal hamda vertikal muloqot imkoniyatining yaratilishi, mutaxassisning o'z-o'ziga EMSK yaratishiga imkoniyat berish, zarur vaziyatda mutaxassislarning malakasini oshirish va ularni qo'shimcha ta'limini qo'llab-quvvatlash, ta'minlash.

5. Ko'rsatkichlarni monitoring qilib borish tamoyiliga ko'ra, muntazam ravishda har bir ko'rsatkich yuzasidan

xisobot yig'ilishlari hamda muhokamalarini tashkil etish kerak;

6. Joriy yoki ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining, strategik ko'rsatkichlarga nisbatan mos va muvofiq bo'lishi;

7. Har bir EMSK muayyan chegaraga ega bo'lishi kerakki, mazkur chegarani bosib o'tish, EMSK subyektini rag'batlantiruvchi "bonus"ni nazarda tutishi zarur.

Shu o'rinda, EMSK, bugungi kunda inson resurslari bilan ishlash (kadrlar siyosati yoki "HR-human resources") sohasida qo'llanilishini ta'kidlash joiz. Mazkur sohada EMSK jamoani motivatsiyasini oshirish jarayoni bilan birgalikda, xodimlardagi (yoki umuman ishlab chiqarishdagi) natijadorlik hamda samaradorlikni oshirish uchun keng qo'llaniladi[18].

Jamoani motivatsiyasini oshirish xodimlarda ishga hamda jamoaga qiziqish, taalluqlilikni oshirib, ijtimoiy psixologik muhitni muvofiqlashtiruvchi omil bo'lishi mumkin. Olimlar tomonidan jamoani motivatsiya qilishning quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:

moddiy motivatsiya;

ijtimoiy motivatsiya;

psixologik motivatsiya. Biroq zamonaviy tadqiqodlar [2], ushbu turlarning o'zaro aloqadorligiga ega, motivatsiya shakllarining ustunlikka ega ekanligi, bugungi kunda shunday "aralash" turdagi motivatsiyadan kompaniyalar foydalanib natijaga erishayotgani ta'kidlanadi. Bu moddiy va nomoddiy motivatsiya qilish mexanizmlaridan bir vaqtning o'zida qisman foydalanishga o'xshash, noyob, o'ziga xos yondoshuv degani. Albatta bu TOP menejerlar yoki EMSK hamda jamoani motivatsiyasini oshirish bo'yicha bilim va tajribaga ega rahbarlar tomonidagina amalga oshirilishi mumkin deb o'ylaymiz, chunki, boshqaruvdagi an'anaviy yondoshuvlar buni imkoniyatini bermaydi.

Ayrim ijtimoiy-psixologik tadqiqodlarda, kasbiy faoliyat samaradorligi bevosita o'rganilgan bo'lsada, ularda EMSK masalasi chetlab o'tilgan. Albatta buni zamonaviy atama hamda o'z navbatida zamonaviy boshqaruv hamda menejmentga oid masala ekanligi bilan izohlasa bo'ladi. Jumladan I.Aslonov[1] (2009) bojxona organlari mutaxassislari misolida samarali kasbiy muomala psixologik shart-sharoitlari hamda samarali kasbiy muomalala usullarini takomillashtirishga uringan bo'lsa, R.Gaynutdinov[6] (1992) o'z tadqiqotlarida o'zbek o'qituvchisining shaxsiga xos psixologik xususiyatlarni hamda uning kontekstida milliy uzluksiz ta'lim tizimimizdagi samaradorlikka salbiy ta'sir qiluvchi omillarni ochib bergan. Shu bilan birga R.Gaynutdinovning ishlarida pedagog faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha ham tavsiyalar berib o'tilganligi izlanishlarimiz uchun nodir metodologik xususiyat kasb etadi.

EMSK masalasida ijtimoiy-psixologik tadqiqodlar, rus olimlarining ishlarida ham ko'zga tashlanmaydi, albatta bu sobiq ittifoq davlatlariga mazkur tushuncha g'arbga xos uslubda loyihalarni boshqarish, strategik boshqaruv va menejmentning kirib kelganligiga uzoq vaqt bo'lmaganligi bilan izohlash mumkin. EMSK (KPI) rus tilida "Ключевые показатели эффективности" qisqartmada esa, "КПЭ" tarzida jaranglaydi hamda to'liq biz o'rganayotgan EMSK (KPI) ma'nosida qo'llaniladi.

Shu bilan birga, EMSK ga xos elementlar rus olimlari tomonidan bir qator yo'nalishlarda elementar jihatdan o'rganilgan deyish mumkin. Rus olimlari psixologiya fani doirasida EMSK masalasini bir qator yo'nalishlarda o'rganib kelishmoqda, jumladan: A.A.Novikov[7] (2013) harbiylashgan tibbiy muassasa rahbarlari faoliyatining determinantlari misolida EMSK hamda jamoani motivatsiyasini oshirish yo'nalishida, o'rgangan, hamda jamoani motivatsiyasini oshirish umumiy EMSK ga ijobiy ta'sir qilishi, maqsadga erishish hamda natijadorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ilgari surgan;

Ye.A.Xlevnaya [8] (2012) esa rahbarlarning emotsional intellektini, ularning faoliyat samaradorligini oshiruvchi omil sifatida tahlil qilar ekan, faoliyat samaradorligini baholashda EMSK ga tayangan; Ye.E.Tyan [9] (2007) masofaviy baholash (assessment) jarayonini amalga oshirishning ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarini o'rganar ekan, xavfsizlik va qo'riqlash xizmati xodimlarining EMSKga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini masofadan baholash jarayonini o'rgangan. Ye.E.Tyan o'z ishida EMSKning asosiy qoida va tamoyillariga ko'ra ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini baholagan, baholash jarayonida esa har bir lavozimga alohida xos EMSK ishlab chiqilishi muhimligini ta'kidlagan.

Rus olimlaridan E.O.Zorina[15] (2011) bevosita EMSKning boshqaruvdagi ijtimoiy samaradorligini inson resurslarini strategik boshqarish mavzusi doirasida o'rgangan. Biroq, olim masalani sotsiologiya fani qonuniyatlari asosida o'rganganligi bir tomondan biz uchun ijtimoiy psixologiya doirasidagi o'rganishlar uchun, muayyan ma'noda metodologik asos sifatida xizmat qilsa, ikkinchi tomondan masalaning psixologik, ijtimoiy-psixologik tomoni ochiq qolganligi izlanishlarimizning dolzarbligini oshiradi. Olimning o'rganishlarida, inson resurslarini strategik boshqarishda asosiy EMSK, bu xodimlarning mehnatdan qoniqqanligi sifatida ko'rib chiqiladi.

E'tiborga olish kerakki, EMSK masalasi sobiq ittifoq davlatlarida ijtimoiy-psixologik kontekstda o'rganishga ehtiyoj, huddi mamlakatimizdagi kabi endi yuzaga kelmoqda. O'ylaymizki, globallashuv ta'sirida mazkur masala psixologiya, xususan ijtimoiy psixologiyada ham (boshqaruv va menejment sohalaridagi kabi) o'z o'rniga ega bo'la boshlaydi.

**Xulosa.** Muayyan jamoada o'qituvchilar uchun belgilanadigan EMSK ularning o'zlari tomonidan, ijtimoiy tashabbus yoki innovatsiya tarzida ishlab chiqilishi, avvalo tajriba sinovdan o'tkazilishi, so'ngra barcha tomonidan qo'llab-quvvatlanganda to'liq belgilangan EMSK asosida ishlashga o'tilishi mumkin. Jamoadagi umumiy maqsadlar, jamoaga qo'yilgan strategik maqsadlarga mos bo'lgan, har bir pedagogning individual maqsadlari, qiziqish, intilish va qadriyatlar tizimini ijtimoiy psixologik jihatdan rivojlantirish, EMSKni joriy etishdan oldingi prioritet vazifa sanaladi.

Samaradorlik ijtimoiy-psixologik omillar, ya'ni guruhlararo muloqot va jamiyatdagi o'rganish jarayonlari orqali shakllanadi, zamonaviy yondashuvlar esa texnologiyalar va kognitiv jarayonlar orqali uni yanada takomillashtiradi. Ushbu yondashuvlar birgalikda inson samaradorligini har tomonlama rivojlantirish imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Aslonov I.N.. Bojxona tizimi faoliyati samaradorligini oshirishda kadrlarning shaxsiy psixologik tayyorgarligi omillari: psixol.f.n. ... 19.00.05. – TDP, 2009. – 164 b.
2. The Economics of Effective Leadership, UBS International Center of Economics in Society at the University of Zurich. [https://web.archive.org/web/20180131200632/https://www.ubscenter.uzh.ch/assets/publicpapers/PP3\\_the\\_economics\\_of\\_effective\\_leadership.pdf](https://web.archive.org/web/20180131200632/https://www.ubscenter.uzh.ch/assets/publicpapers/PP3_the_economics_of_effective_leadership.pdf)
3. Xalq so'zi gazetasi. 4-iyul, 2021-yil. Jamiyat rukni. <https://xs.uz/uz/post/davlat-fuqarolik-khizmatida-rahbarlar-faoliyati-samaradorligini-baholashning-kompleks-tizimi-ishga-tushdi>
4. Xalq so'zi gazetasi. 29-dekabr 2022-yil. Siyosat rukni. <https://xs.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoev-talim-korgazmasi-doirasida-bir-guruh-maktab-oqituvchilari-bilan-uchrashdi>
5. Вишнякова М. В. Мифы и правда о КРП / Худож. А. Васильева. — М.: ЛЕТОПИСЬ, 2017. — 18 с.
6. Гайнутдинов Р.З.. Психология личности учителя узбекской национальной школы и её формирование в системе непрерывного образования : автореферат дис. ... доктора психологических наук : 19.00.07.- Санкт-Петербург, 1992.- 34 с.
7. Гордеева Т.О. Теория самодетерминации: настоящее и будущее. Часть 1: Проблемы развития теории // Психологические исследования: электрон. науч. журн. : Электронный ресурс. — 2010. — № 4
8. Хлевная Е.А.. Роль эмоционального интеллекта в эффективности деятельности : на примере руководителей : автореферат дис. ... кандидата психологических наук : 19.00.01 / Хлевная Елена Анатольевна; [Место защиты: Нац. исслед. ун-т "Высш. шк. экономики"]. - Москва, 2012. - 27 с.
9. Тянь Е.Э., Социально-психологические условия реализации дистанционного ассессмента : диссертация ... кандидата психологических наук : 19.00.05. - Москва, 2007. - 190 с.
10. Ключков А. К. КРП и мотивация персонала. Полный сборник практических инструментов. — Эксмо, 2010. — 160 с.
11. Панов М. М. Оценка деятельности и система управления компанией на основе КРП. — М.: Инфра-М, 2013. — 255 с.
12. Панов М. М. Оценка деятельности и система управления компанией на основе КРП. — М.: Инфра-М, 2013. — 81 с.
13. Поляков А.Н. От кнута и пряника к самодетерминации. Краткая история мотивации. (рус.)// Management : журнал. — 2020. — № 1 (53). — С. 58 - 67.
14. С.А.Новиков. Психологические детерминанты труда руководителя военно-медицинского учреждения : диссертация ... кандидата психологических наук : 19.00.03 / Новиков Сергей Александрович; [Место защиты: Всерос. науч.-исслед. ин-т техн. эстетики]. - Москва, 2013. - 177 с.
15. Зорина Э.О.. Технология "Ключевые показатели эффективности" в обеспечении социальной эффективности стратегического управления человеческими ресурсами : диссертация ... кандидата социологических наук : 22.00.08 / Зорина Элина Олеговна; [Место защиты: Рос. ун-т дружбы народов]. - Москва, 2011. - 211 с.
16. <https://lex.uz/docs/-4549998>
17. <https://lex.uz/docs/-4552053>
18. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Мотивация\\_персонала](https://ru.wikipedia.org/wiki/Мотивация_персонала)
19. [https://ucrbp.ru/obuchenie\\_i\\_uslugi/razrabotka\\_i\\_vnedrenie\\_kpi/](https://ucrbp.ru/obuchenie_i_uslugi/razrabotka_i_vnedrenie_kpi/)



UDK: 2-6:008:31642

*Ibadulla ABDULLAYEV,*

*Ma'mun universiteti katta o'qituvchisi, O'zbekiston milliy universiteti tadqiqotchisi,*

*O'zMU dotsenti, DSc, J.K.Yusubov taqrizi asosida.*

**GLOBALLASHUV JARAYONIDA MILLIY VA DINIY BAG'RIKENGLIK MADANIYATINING UYG'UNLASHUVI**  
Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kunda globallashuv insoniyat jamiyati taraqqiyoti va ijtimoiy jarayonlarning jahon miqyosida integratsiyalashib borishi hamda uning jahon miqyosida olamshumul ahamiyat kasb etishi ijtimoiy-falsafat tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Globallashuv, bag'rikenglik, diniy bag'rikenglik, madaniyat, sivilizatsiya, din.

**ГАРМОНИЗАЦИЯ КУЛЬТУРЫ НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**  
Аннотация

В данной статье представлен социально-философский анализ современной глобализации, развития человеческого общества и интеграции социальных процессов в глобальном масштабе, а также ее глобальное значение.

**Ключевые слова:** Глобализация, толерантность, религиозная толерантность, культура, цивилизация, религия.

**HARMONIZATION OF THE CULTURE OF NATIONAL AND RELIGIOUS TOLERANCE IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION**  
Annotation

This article presents a social-philosophical analysis of today's globalization, the development of human society and the integration of social processes on a global scale, and its global significance.

**Key words:** Globalization, tolerance, religious tolerance, culture, civilization, religion.

Jahon hamjamiyati mutlaqo ziddiyatli tarixiy sharoitda yangi asrga qadam qo'ydi va bu ulkan ilmiy va madaniy o'zgarishlar va tub o'zgarishlarning yangi bosqichiga o'tish zarur. Ushbu asrning boshlarida biz evolyusiyaning yakuniy natijalariga guvoh bo'ldik, uning mazmuni va mantiqiy va moddiy jarayoni nuqtai nazaridan aniq rejalar va o'ziga xos qadriyatlar asosida ishlab chiqilgan. Ushbu qadriyatlarga modernizm, plyuralizm, individualizm va umuman olganda monoton bo'lmagan din, bir tomondan taraqqiyot va rivojlanishga olib kelgan, ikkinchi tomondan, ekstremizm fenomenini jahon sahnasiga va tarixiga olib kelgan. Shubhasiz, globallashuv insoniyatning tarixiy taqdiri va uning istiqbollari mohiyatiga tobora o'sib boruvchi va doimiy ta'sir ko'rsatadi. Darhaqiqat, aynan shu globallashuv odamlar farovonligini, yangi texnika va texnologiyalarni, ishlab chiqarish va iste'molni, ochiqlik va demokratik plyuralizmni amalda tatbiq etdi, sayyora xalqlarini bir-biriga yaqinlashtirdi, mamlakatlar va xalqlar rivojlandi. Ammo globallashuv o'z avtoritar maqsadlari bilan terrorizm va ekstremizmning tarqalishiga, bir-birlariga qarshi zo'rvonlik harakatlariga, obod shaharlarning vayron bo'lishiga, millionlab begunoh odamlarning o'ldirilishiga, o'lik iqtisodiy va ijtimoiy inqirozga olib keldi. Darhaqiqat, g'oyaviy xilma-xillik, madaniy va globallashuvga moyil bo'lgan bugungi dunyoda bag'rikenglik ijtimoiy barqarorlikning garovi, terrorizm va ekstremizm kabi salbiy ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishning asosiy omili hisoblanadi. Jamiyatdagi turli guruhlar o'rtasidagi zo'rvonliksiz va ijobiy munosabat sifatida qaraladigan ijtimoiy bag'rikenglik jamiyatda munosabatlar muvozanatini yaratadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bag'rikenglik har qanday muayyan mafkura yoki madaniyatning ajralmas qismi emas. Shu munosabat bilan biz bag'rikenglikni har qanday jamiyat, ijtimoiy tabaqa va har bir fuqaroning axloqiy, siyosiy va huquqiy hayotining mohiyati va sifati deb ta'riflasak to'g'ri bo'ladi.

Zamonaviy sivilizatsiya sharoitida globallashuvning o'sib borayotgan roli sivilizatsiyalar to'qnashuvi va qudratli davlatlarning geosiyosiy manfaatlari yashiringan insoniyatga qarshi ekstremizm va terrorizm fenomeni globallashuvi sharoitida diniy va siyosiy ziddiyatlarning chuqurlashishiga yordam beradi. Bag'rikenglik bu – ijtimoiy-madaniy hodisadir, u o'zining paydo bo'lishidan boshlab universal xususiyatga ega va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tartibga solishda insoniyat tarixida alohida o'rin tutadi.

Globallashuv sharoitida dinlararo bag'rikenglik g'oyasi nafaqat dinga e'tiqod qiluvchilar, balki shu zaminda yashayotga barcha insonlarning bir tan, bir jon bo'lib, ezgu maqsadlar yo'lida hamkor bo'lishi nazarda tutiladi. Bugungi kunda mamlakatimizda diniy bag'rikenglikni ta'minlash mustaqilligimizga xavf solayotgan ekstremizm, terrorizm, prozeletizm, shovinizm, "omnaviy madaniyat" kabi turli ma'naviy tahdidlar, xurujlarga qarshi turish, kurashda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, diniy bag'rikenglik madaniyati jamiyat a'zolarining tafakkuri va xulq-atvorida, muammo va qiyinchiliklarni engishda, har bir insonga muruvvat ko'rsatish va bag'rikenglik madaniyati fazilatlarini namoyon qilishda o'z ifodasini topmoqda.

Bugungi kunda globallashuv insoniyat jamiyati taraqqiyoti va ijtimoiy jarayonlarning jahon miqyosida integratsiyalashib borishi hamda uning jahon miqyosida olamshumul ahamiyat kasb etishini o'zida ifodalovchi tushuncha bo'lib, globallashuv aloqa vositalaridagi o'zgarishlar, yangi investitsiyalardagi o'zgacha jarayonlar hamda jahonga yangicha nazar tashlashda namoyon bo'lmoqda. Globallashuv jamiyat hayotining iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalariga, shuningdek, xalqaro munosabatlar hamda davlatlar siyosatiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Darhaqiqat, barcha dindagi konservativ qarash vakillari yangilikka, bag'rikenglikka qancha qarshi bo'lmasinlar, ijobiy globallashuv jarayoni ularni zamon, davr

taraqqiyoti bilan to'g'ri va hamma uchun maqbul yo'lga solib yuboraveradi. Professor S.Otamuratov ta'kidlaganidek, "Globallashuv bilan bag'rikenglik o'rtasidagi munosabatlarda ma'rifiy omil ustuvor darajada amal qilsagina milliy ma'naviy va axloqiy qadriyatlarining milliy taraqqiyotga o'zining ta'sirini o'tkazish imkoniyati kengayib borishi mumkin. Aslida, globallashuv bilan bag'rikenglik bir-biriga zid bo'lgan omillar hisoblanadi" [5]. Bugungi globallashuv davrida mamlakatimizda mafkuraviy xurujlarga qarshi amalga oshirilayotgan keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida bunyodkor g'oyalarni yoshlarimiz ongiga har tomonlama chuqur singdirish katta ahamiyat kasb etadi.

Yangi va eng yangi davrda yuz bergan ilmiy hamda texnik inqiloblar sanoatning yuqori sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keldi. XX asrning so'nggi choragi va XXI asr boshlarida yuz berayotgan globallashuv bu jarayonlarni yanada tezlashtirib yubordi. Bu bag'rikenglikka bo'lgan ehtiyoj mutanosib tarzda kuchaydi, degani. Bag'rikenglikning ilmiy va kundalik tasavvur sifatidagi tadriji, uning jamiyat hayotidagi muhim tamoyilga aylanishi tarixiga tashlangan qisqa nazar mazkur hodisaning tadriji naqadar murakkab kechganidan guvohlik beradi. Alohida individ hayotida ham bag'rikenglik madaniyati shakllanishi xuddi shunday, ehtimol, undan ham murakkabroq tarzda kechadi.

XXI asr boshlariga kelib jahon taraqqiyotida o'ziga xos yangi xususiyatlar vujudga kela boshladi. Bugungi davrda aksariyat davlatlarning mafkurasi "umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslanadi. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson haq-huquqlari va erkinligi, milliy va diniy totuvlik g'oyalari ustuvordir" [2]. Shu bois, har bir mamlakat jamiyatdagi barqarorlikni saqlash, ichki va tashqi tahdid manbalarini aniqlash, uni bartaraf etishga katta e'tibor qaratishi tabiiy. XXI asrda ana shunday tahdid manbalaridan biri sifatida etnik va diniy mojarolarni qayd etmoq lozim.

Hozirgi kunda dunyoning qator nuqtalarida mahalliy va ichki nizolga davom etayotgani, aksariyat hollarda, ushbu mojarolarning tub zaminida o'z vaqtida bartaraf etilmagan milliy va diniy adovat yotganini ko'rishimiz mumkin. Yoki mazkur omil ichki va tashqi salbiy kuchlar ta'sirida jamiyat barqarorligiga tahdid solishga intilayotganini bilamiz. Ma'lumki, har bir jamiyat va davlat barqaror taraqqiyotining muhim omillaridan biri diniy bag'rikenglik tamoyilining fuqarolar ongi va qalbidan mustahkam o'rin olgani, konfessiyalararo sog'lom munosabatlar qaror topgani hisoblanadi. Ayniqsa, ushbu omil polietnik davlatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki konfessiyalararo munosabatlar jamiyatimizdagi millatlararo munosabatlar xarakteriga, «tahdidbardoshlik salohiyatiga jiddiy ta'sir qiluvchi omildir. Zero, «polietnik birliklarning tahdidbardoshlik salohiyati jamiyatda milliy totuvlikning ta'minlanganlik darajasiga bog'liqdir» [7]. Milliy totuvlikning qaror topishi esa diniy bag'rikenglik madaniyati tamoyilining jamiyat a'zolari qalbida chuqur ildiz otishiga aloqador.

Hozirgi davrda respublikamizdagi turli millat vakillarining milliy o'zligini anglashi ayrim hollarda diniy o'zlikni anglash jarayoni bilan chambarchas bog'lanib ketayotganligini e'tiborga olish muhim. Shu o'rinda, "Din va etnosning o'zaro aloqadorligi etnos (millat) va dinning parallel rivojlanishida, diniy va milliy o'ziga xoslikning aynanlashtirilishida yaqqol namoyon bo'ladi", [8] degan fikrni asosli deb hisoblaymiz.

Jamiyatimizda bag'rikenglik madaniyati tuyg'usining asosiy bo'lagi bo'lmish diniy bag'rikenglikni mustahkam qaror toptirish, umumiydashyotgan madaniy qadriyatlar sintezlashuvi sodir bo'layotga yigirma birinchi asrda "o'zaro bir-birini tushunish va hurmatning asosi bo'lib xizmat qiladi" [9]. Zero, biz yoshlarimizning "ayniqsa, talaba va o'quvchi yoshlarda siyosiy bilimlarni oshirish, vatanparvarlik hissini

kuchaytirish" [4] uchun harakat qilayotgan ekanmiz, barcha millat vakillariga, milliy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish ruhini mazkur jarayonning asosiga qo'yimog'imiz lozim.

O'zbekiston Respublikasida milliy bag'rikenglik madaniyatini, shu asosda esa, ijtimoiy hamkorlik va taraqqiyotning barqarorligini rivojlantirish uchun quydagilarga e'tibor qaratamiz:

birinchidan, millatlararo totuvlik hamjihatlik munosabatlarini yo'lga qo'yish maqsadida, ba'zan diniy konfessiyalar o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqqan holda konfessiyalararo hamkorlik markazini tashkil etish lozim;

ikkinchidan, millatlararo totuvlik mintaqamizda joylashgan qo'shni respublikalardagi xalqlar va millatlar xarakteri bilan bog'liq. Bu holatdan kelib chiqib "mintaqada yangi diniy, siyosiy, ijtimoiy munosabatlarni sog'lomlashtirish"ga oid maxsus konsepsiya yaratish lozim;

uchinchidan, globallashuv jarayonida diniy va milliy bag'rikenglik g'oyalarni rivojiga salbiy va ijobiy ta'sir qiladigan omillarni doimiy ravishda tahlil qilib borish, shunga muvofiq holda tegishli chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqib, amalga joriy etish kerak. Yuqorida ta'kidlangan jihatlar echimi milliy taraqqiyotimizning barqaror rivojini ta'minlovchi omil sifatida e'tiborlidir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida "yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa" [3] ekanligini alohida ta'kidladi. Shu ma'noda, jamiyatda mafkuralar xilma-xilligi, plyuralizm tamoyillarini shakllantirish fuqarolarning siyosiy madaniyatini oshirishning muhim jihati ekanini ta'kidlash joiz.

Bag'rikenglik yoki toqatsizlik asoslari o'z ko'rinishi va namoyon bo'lishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: shaxsiy, oilaviy, irqiy, milliy, diniy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy, gender va hokazo. Fikrimizcha, milliy bag'rikenglik deganda, boshqa millatlarning yashash sharoiti, urf-odatlar, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oya va e'tiqodlariga nisbatan bag'rikeng bo'lishni tushunish mumkin. Bag'rikenglik madaniyati asrlar mobaynida xalqimizning qon-qoniga singib ketgan qadimiy qadriyatdir. Kishilik rivoji xalqlarning o'zaro aloqadorligi yaqinlik, bog'liqlik, hamkorlikning muntazamligiga ko'ra amalga oshib kelgan. Ochiq ko'ngillilik, mehmondo'stlik, insonparvarlik, ishonuvchanlik, boshqa xalqlarga yordam berish xalqimiz bag'rikengligiga xos fazilatlaridir. Shuning uchun S.Otamuratov, "Zero, bag'rikenglik insonning olijanob tuyg'usi bo'lganligi uchun ham u har qanday yovuz g'oyalarga qarshi kurashning eng kuchli omillaridan biridir. Unda guruh manfaatlar emas, balki umuminsoniy manfaatlar o'z ifodasini topgan. Shu ma'noda, bag'rikenglik globallashuv o'tkazadigan salbiy ta'sirdan ko'ra kuchliroq va ommaviyroqdir. Undan milliy taraqqiyot manfaatlar yo'lida foydalanish globallashuvning salbiy ta'siriga qarshi tura oladi" [5], degan xulosaga keladi. S. Otamuratovning fikriga qo'shilgan holda, shuni aytamizki, bag'rikenglikning zamirida umuminsoniylik, qadriyatlar va shaxs barkamol turmush tarzining to'la kafolati mavjud.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston hududiga keltirilgan xalqlar va oilalar o'zbek xalqini mehmondo'st, bag'rikeng g'amxur ekanligiga yana bir bor iqrora bo'lidilar. Islom Karimov Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek halqiga xos bag'rikenglik to'g'risida shunday fikrni bildirgan: "o'zbeklar qiyinchilik yillarida o'zlarini emay, bolalariga edirib-ichirmay, mutlaqo begona, ammo yordamga muhtoj odamlar bilan topganlarini baham ko'rdilar. O'sha og'ir yillarda turli millatlarga mansub bir emas, o'nlab etim bolalar shundoq ham

ko'p bolali o'zbek oilalarida yangi ota-ona orttirdilar, ota va ona mehri qondilar. Butun bir xalq ana shunday yuksak olijanoblik va ma'naviy fazilatlarini namoyish etganligi haqidagi misollar tarixda kam topiladi" [1].

Din qadim zamonlardan beri birlashtiruvchi va ajratuvchi omil bo'lgan va hozir ham shunday bo'lib kelmoqda. Biroq, diniy ifodasida bag'rikenglikka rioya qilmaslik, hatto zamonaviy jamiyatlarda ham urush, fojia, vayronagarchilik va beqarorlikka olib keladi. Boshqa dinlarga ergashuvchilarning his-tuyg'ulari va e'tiqodlariga beparvolik va e'tiborsizlik qonli urushlarga, millatlarning parchalanishiga olib keldi. Shu bilan birga, jamiyatda murosasizlik yoki diniy mutaassiblik mavjudligi, manfaatdor davlatlar qo'lida kamsitish uchun ta'sirchan vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Qur'oni karim va Konstitutsiyamiz kishilik jamiyatida kelib chiquvchi nizo va mojarolarni atroflicha chuqur tahlil qilish orqali odamlarni diniy-milliy xarakterdagi firqalarga bo'linishining oldini olishni ko'zda tutadi. Shu ma'noda Konstitutsimizdagi o'zimizga xoslik va mosligimizda bag'rikenglik aslida ajdodlarimizdan bizga meros xususiyat sifatida qadrlidir. Asosiy Qonunimizda bag'rikenglikni har bir fuqaro shaxsiy huquq va erkinligining daxlsizligida yaqqol ifodalangan. Zero, har qanday odam millati, elati, kelib chiqishi, tili, rangi, ijtimoiy mavqei, yoshi va boshqa ijtimoiy-madaniy farqlaridan qat'i nazar, qonunda belgilangan huquq va erkinliklarga ega.

Darhaqiqat, diniy bag'rikenglik madaniyati g'oyasining mazmun-mohiyati, uning jamiyatimiz hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini to'g'ri anglash uchun Markaziy Osiyo xalqlarining kamida uch ming yillik madaniy va ma'naviy tarixini yaxshi bilishimiz talab qilinadi. Shuni yaxshi anglashimiz kerakki, hozir bu g'oya jamiyatimiz barcha jabha va sohalarida uzil-kesil amal qilib kelishi tasodifiy hol emas, balki u zaruriy hodisa sifatida xalqimizning ongi va qalbida etishib, shakllanib, uning hayotida ming bor sinovlardan o'tib, dur-gavhardek baholanib va ma'qullanib kelingan.

Jak Delor: "Terrorizmning butun jahonga xavf solib turishi barchamizni unga qarshi kurashishga, tinchlik, xavfsizlik va bag'rikenglikni mustahkamlash uchun birlashishga undaydi" [9], deb ta'kidlaydi.

Bag'rikenglik madaniyati bu ekstremizm va har qanday fitna va qo'zg'atishga qarshi chiqishdir, uning maqsadi siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish, xalqning tinch

hayotini himoya qilish, insonni hurmat qilish va himoya qilish siyosatini qo'llab-quvvatlashdir. Bag'rikenglik qadriyatlarini o'zida mujassam etgan odamlar, ijtimoiy guruhlar, millatlar, dinlar va u yoki bu sivilizatsiya vakillari o'rtasidagi adolatli va o'zaro manfaatli munosabatlar fuqarolarning tinch hayoti va jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi. Sabr-bardoshlik doimiy, murakkab va ko'p qirrali insoniy munosabatlarni talab qiladigan barcha sohalarida muhim ahamiyatga ega, ammo siyosiy, diniy va milliy-mintaqaviy munosabatlar sharoitida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ammo, shuncha yutuqlarga qaramay, jamiyatda ba'zi muammolar mavjud, bu birinchi navbatda ba'zi kishilarning bag'rikenglik madaniyati yo'qligi bilan bog'liq. Masalan, ba'zi bir johil fuqarolarning ekstremistik partiyalarga va oqimlarga o'tishlari, begona madaniyatlarga sodiq qolish, diniy ekstremizm va boshqa dinlar vakillariga nisbatan dushmanlik, yosh oilalarning ajralib ketishi va oilaviy mojarolar va boshqalar jirkanch hodisalardir. Xususan, bag'rikenglik madaniyati yo'qligi internet foydalanuvchilarining aksariyat fikrlari va bayonotlarida ham yaqqol ko'rinib turibdi. Internetning virtual olamidagi ba'zi foydalanuvchilar o'zlarini "yo'qotib qo'yishadi", inson chegarasidan chiqib ketishadi, hatto ular o'z ota-onalarini, millati va Vatanini esdash chiqarishadi. Shu sababli, jamiyatning eng zaif qatlamlari va internetdagi ijtimoiy tarmoqlardan eng ko'p foydalanadigan odamlar, ayniqsa yoshlar orasida bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish zarur. Hayot davomida shakllanadigan shaxsiy sifat yoki xususiyatlar sifatida bag'rikenglik ijtimoiy ta'lim, ijtimoiy va psixologik mashg'ulotlar orqali rivojlantirilishi mumkin, chunki uning shakllanishidagi asosiy omillar tegishli ijtimoiy muhit va to'g'ri rivojlanish va tarbiya uchun sharoitlardir.

**Xulosa.** bag'rikenglik madaniyati masalasini tadqiq etishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniyatga e'tibor qaratish lozim. Chunki bag'rikenglik xususiyati ham o'zbek xalqining milliy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. O'zbek milliy mentalitetida bag'rikenglik umuminsoniy qadriyatlar va tamoyillarning o'zaro muvofiqlik darajasini belgilash omili hamdir. Ayni vaqtda, bag'rikenglikni ifodalovchi xususiyatlarga odamlarning hammasi ham ongli ravishda bo'ysunavermaydi, balki ularning bir qismi ko'pchilikka taqlidda, masala mohiyatini etarli his etmasdan turib ham amal qilaveradilar. Chunki bu ruhiy holat o'zbek xalqi harakterida o'ziga xos inersion tabiat kasb etib qolgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997, – B.80-81.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. // Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – B.85.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B.560.
5. Otamuratov S.O. Globalashuv va bag'rikenglikning o'zaro nisbati // Modernizatsiya, innovatsion taraqqiyot va tolerantlik rivoji istiqbollari (1-kitob). – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2010. – B.26., – B. 27.
6. Paxrutdinov Sh., Nazarov N. Milliy totuvlik – tahdidbardoshlik omili. – Toshkent: // Jamiyat va Boshqaruv jurnali, 2005. № 3. – B.10
7. Xo'jamurodov I.R. Проблема формирования национального (этнического) самосознания узбекского народа и влияние на него Ислама. Автореф. Дисс... доктора филос. наук. – Toshkent: 1994. – S.21-22.
8. BMT Bosh kotibining «Xalqaro bag'rikenglik kuni» munosabati bilan yo'llagan bayonotnomasi (2008 yil 16 noyabr). – Toshkent: // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari, №4 (44). 2008. – B.166.
9. Delor J. Learning: the Treasure within // Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century. – Paris: UNESCO, 1997. – R. 28.



UDK 372.8

Озода АБДУЛЛАЕВА,

Наманганский инженерно-строительный институт доктор педагогических наук (DSc), профессор

E-mail: ozoda.safibullayevna121620@gmail.com

По отзыву DSc, профессор С. Сиддиковой

## ЦИФРОВЫЕ МЕТОДЫ СОЗДАНИЯ ДИНАМИЧЕСКОГО САЙТА ДЛЯ ВОУ

Аннотация

В данной статье рассмотрены и проанализированы вопросы создания динамического сайта, включающий в себя использование различных методов и технологий, которые позволяют контенту обновляться в реальном времени и адаптироваться к действиям пользователей. Создание динамического сайта в образовательной деятельности может значительно улучшить процесс обучения и взаимодействия между студентами, преподавателями и администрацией.

**Ключевые слова:** динамический сайт, информационные системы, цифровые технологии в образовании.

## OTM UCHUN DINAMIK VEB-SAYT YARATISHNING RAQAMLI USULLARI

Аннотация

Ushbu maqolada kontentni real vaqtda yangilash va foydalanuvchi harakatlariga moslashish imkonini beruvchi turli usullar va texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan dinamik veb-sayt yaratish masalalari muhokama va tahlil qilinadi. Ta'lim faoliyatida dinamik veb-sayt yaratish o'quv jarayonini va talabalar, professor-o'qituvchilar va ma'muriyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni sezilarli darajada takomillashtirishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Dinamik veb-sayt, axborot tizimlari, ta'limda raqamli texnologiyalar.

## DIGITAL METHODS FOR CREATING A DYNAMIC WEBSITE FOR HEI

Annotation

This article examines and analyzes the issues of creating a dynamic website, which includes the use of various methods and technologies that allow content to be updated in real time and adapt to user actions. Creating a dynamic website in educational activities can significantly improve the learning process and interaction between students, teachers and administration.

**Key words:** Dynamic website, information systems, digital technologies in education.

**Введение.** Динамические веб-сайты играют важную роль в образовательной среде, предоставляя интерактивные и адаптивные инструменты для обучения. Они позволяют создавать контент, который может изменяться в зависимости от действий пользователя и его предпочтений.

Создание динамического сайта включает использование множества технологий и методов для обеспечения его интерактивности, адаптивности и функциональности. В теоретическом обзоре по-началу необходимо рассмотреть основные понятия, аспекты, подходы и методы, которые применяются для разработки таких сайтов.

Web - сайт - это набор взаимосвязанных веб-страниц, доступных в интернете и обычно связанных общей тематикой, содержанием и функциональностью. Сайты могут содержать различную информацию, например тексты, изображения, видео, аудиозаписи и другие файлы. Они могут быть созданы для разных целей: представления компании, информационного ресурса, онлайн-магазина, блога и т. д. Пользователь может получить доступ к сайту с помощью интернет-браузера на компьютере, мобильном телефоне или другом устройстве, подключенном к интернету. Каждый сайт имеет свой уникальный адрес - URL (Uniform Resource Locator), который позволяет пользователям легко найти и получить доступ к сайту.

Основная разница между статическим и динамическим сайтом заключается в способе создания и управления содержимым сайта.

Статический сайт состоит из набора статических веб-страниц, которые создаются вручную и сохраняются в

виде отдельных файлов на сервере. Эти страницы отображаются пользователям без какого-либо изменения в содержании и могут содержать описание продуктов, услуг компании, контактную информацию, новости и т.д. Изменение содержимого статического сайта требует непосредственного изменения кода веб-страниц и загрузки обновлений на сервер вручную.

Динамический сайт, напротив, использует программное обеспечение, которое генерирует содержимое страницы на основе доступных данных и запросов пользователя. Динамические сайты могут содержать функции, такие как регистрация пользователей, создание профиля, добавление комментариев и возможность использовать поисковую оптимизацию. Содержимое динамического сайта может быть изменено автоматически, без необходимости редактирования кода вручную. Динамический сайт - это сайт, который генерирует страницы в реальном времени на основе пользовательских запросов, взаимодействия с базой данных или других факторов. В отличие от статических сайтов, которые представляют собой набор фиксированных HTML-страниц, динамические сайты адаптируются под текущие данные и потребности пользователей.

Основными преимуществами динамических сайтов является их гибкость и удобство в управлении, а также возможность автоматизировать ряд задач. Статический сайт, в свою очередь, часто используется для более простых сайтов, где содержимое редко изменяется и не требует ресурсов для поддержки.

**Методология исследования.** Методология исследования создания динамического сайта для

образовательной деятельности включает в себя несколько этапов и методов, которые помогут систематизировать процесс разработки и обеспечить его эффективность. Основные компоненты методологии являются: определение целей и задач исследования; анализ потребностей; выбор методов разработки; техническое проектирование; разработка и тестирование; внедрение и оценка; обратная связь и доработка; сбор отзывов; обновление функционала; документация. Данная методология позволяет структурировать процесс создания динамического сайта для образовательной деятельности, обеспечивая его соответствие потребностям пользователей и высоким стандартам качества. Использование различных методов исследования помогает выявить ключевые аспекты, которые влияют на успешность проекта.

**Анализ и результат.** Методы создания динамических сайтов позволяют создавать функциональные, удобные и интерактивные образовательные платформы, которые могут значительно

улучшить процесс обучения и взаимодействие между участниками образовательного процесса.

Основные цели динамических сайтов:

**Интерактивность:** Предоставление пользователям возможности взаимодействовать с содержимым.

**Адаптивность:** Персонализация контента на основе пользовательских предпочтений и поведения.

**Масштабируемость:** Возможность легко добавлять новые функции и управлять растущими объемами данных.

Сайты могут различаться по своему назначению, структуре и функциональности.

Рассмотрим основные аспекты и преимущества динамических веб-сайтов в образовательном процессе:

Сайты-визитки - обычно состоят из нескольких страниц и имеют уникальный, но простой и функциональный дизайн. Для образовательного учреждения сайт-визитка - самый подходящий вариант. Каждый посетитель сможет узнать подробнее о данном учреждении: общую информацию, историю развития и т.д. (рис.1).




Рис.1. Сайт-визитка (www.evolve.com)

Корпоративный информационный web-сайт - необходим для автоматизации внутреннего документооборота, учёта показателей организации, управления персоналом, может быть оснащён функциями обмена информацией между удалёнными филиалами; позитивно влияет на репутацию и имидж организации (рис.2).




Рис.2. Корпоративный информационный web-сайт (www.pixar.com)

Для образовательного учреждения данный вид web-сайта идеально подходит, так как чем больше информации будет на сайте, тем больше абитуриентов и студентов смогут узнать о данном учреждении: об истории, о специальностях и сроках обучения, местонахождения, последние новости образовательного учреждения.

Корпоративный имиджевый web-сайт - идеально подходит для обеспечения имиджевого присутствия в Сети. Сайт служит для предоставления подробной информации о компании, истории, сведений об оказываемых образовательных услугах; корпоративный сайт обычно содержит ленту новостей компании, средства публикации информации о рекламных акциях, информацию для прессы и другие сведения и т.д. (рис.3).






Рис.3. Корпоративный имиджевый web-сайт (www.anorbank.uz)

4. Информационный сайт - достаточно большой виртуальный массив информации, включающий в себя множество различных тематических разделов меньшего размера, либо некоторое количество самостоятельных проектов. Информационный сайт является для клиента основным источником информации, напоминает энциклопедию или специализированный журнал.

Информационный сайт предназначен для предоставления пользователям актуальной, полезной и

разнообразной информации по определённым темам или категориям. Такие сайты могут охватывать широкий спектр тем, от новостей и образовательного контента до специализированной информации для профессионалов в разных областях.

Данный тип сайта может быть использован для освещения деятельности отдельных кафедр, отделений, отдельных пользователей (рис.4).




Рис.4. Информационный сайт. (www.wikipedia.com)

5. Персональный проект - личный проект, содержащий много возможностей для оформления сайта в любом стиле, который наиболее полно сможет раскрыть и отобразить тематику создаваемого сайта (рис.5).




Рис.1.1.7. Персональный сайт (www.devio.uz)

Тип «Персональный сайт» может использоваться конкретными людьми, корпорациями, предприятиями, предоставляющих своего рода услуги на рынке. Данный сайт в большей части предоставляется как блог, портфолио.

6. Контент-проект - это сайт, как правило, некоммерческой направленности, который представляет собой собрание текстов, статей и прочих материалов, основная задача - привлечение посетителей по

определенной тематике. В дальнейшем этот трафик обычно перенаправляется на коммерческие сайты и, по сути, контент-проект используется, как рекламная площадка.

Контент-проект может быть выполнен в виде интернет-библиотеки, энциклопедии или справочника. Каждая отдельная страничка сайта контент-проекта даст незначительный трафик, однако общий трафик такого сайта может быть очень внушительным (рис.6).




Рис.6. Сайт контент-проект (www.spot.uz)

7. Промо-сайт - это сайт, созданный специально для продвижения какого-либо товара либо услуги или основного сайта организации (рис.7).



Рис.7. Промо-сайт (www.orbit-promo.uz)

Для образовательного учреждения промо-сайт может использоваться для продвижения электронных учебников, методичек, различных конкурсных работ и различных платных услуг.

8. Сайт-форум может быть самостоятельным сайтом, а может быть разделом сайта. Чаще всего сайт-форум разрабатывается под доменом основного сайта и предназначен для организации общения посетителей сайта между собой и с администратором сайта. Сайт-

форум может быть удобным способом набора контента для основного сайта. Новые темы, открытые на форуме, могут быть использованы в качестве анонса новых статей для ленты новостей основного сайта или анонса статей, выдержки из которых можно использовать для почтовой рассылки. Используя сайт-форум совместно с почтовой рассылкой, можно быстро увеличить посещаемость основного сайта (рис.8).




Рис.8. Сайт-форум (www.xda-developers.com)

Таким образом, теоретический обзор вышеуказанных сайтов рассматривает роль сайтов в современной цифровой образовательной системе и их влияние на образовательные процессы.

**Закключение.** В современном мире цифровые технологии играют ключевую роль в образовательной деятельности, способствуя созданию динамических сайтов, которые могут значительно улучшить процесс обучения. Использование таких методов позволяет разработать интерактивные платформы, которые делают обучение более доступным и эффективным.

Одним из основополагающих элементов создания динамического сайта, которая обеспечит удобство в редактировании и обновлении материалов. Кроме того, применение адаптивного дизайна обеспечивает удобный доступ к образовательным ресурсам на различных устройствах, включая смартфоны и планшеты. Это особенно важно в условиях растущей мобильности обучающихся и преподавателей.

Внедрение цифровых методов в создание динамических сайтов открывает новые горизонты для образовательной деятельности, обогащая опыт участников и повышая качество обучения.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Abdullayeva, O. (2023). Intellektual axborot bilimlar tizimida qoidalarga asoslangan bilimlarni namoyish etish modellari xususiyatlari va belgilari. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(6), 124-129.
2. Ozoda, A., & Azamxonov, B. S. (2023). Means of organizing an intelligent information system. Innovations in Technology and Science Education, 2(17), 438-449.
3. Safibullaevna, A. O. (2022). Foreign experience in the preparation of master's programs aimed at the development of information and management competences. Current research journal of pedagogics, 3(03), 41-47.
4. Ozoda, A., & Oydin, Z. (2023). Development of information and management competences of the future education manager. Innovations in Technology and Science Education, 2(9), 416-425.

5. Abdullayeva, O. S., & Muhammadjonov, A. O. (2023, September). Modeling the Development of Department Activities in Higher Education Institutions: Enhancing the Management System with Quantum Communication and Cryptography%. In 2023 International Conference on Sustainable Emerging Innovations in Engineering and Technology (ICSEIET) (pp. 588-591). IEEE.
6. Abdullaeva, O. (2023). Target, content and structural parameters of the development of the department activity management system. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (9), 531-536.
7. Abdullaeva, O. S., & Mehmanova, Y. U. (2022). Artificial intelligence systems. In *Социально-экономическое развитие региона: опыт, проблемы, инновации* (pp. 206-208).
8. Safibullaeva, A. O., & Azamxonov, B. S. (2024). Technology of creation and application of an intelligent information system. *current research journal of pedagogics*, 5(01), 31-38.
9. Абдуллаева, О. С. (2022). Замонавий Жамиятни Ахборотлаштириш Шароитида Талабаларда Медиясаводхонлик Маданиятини Шакллантириш. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 11, 59-65.



UDK: 372.8

**Кобилжон АБДУРАСУЛОВ,**

Докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

E-mail: qobiljonabdurasulov14@gmail.com

По отзыву DSc, доцент С.Зокировой

## DEVELOPING LISTENING SKILLS IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE

Annotation

As we know, in language teaching, an analysis of approaches to the formation of auditory comprehension is given, and the methodology for the formation of auditory comprehension cognitions and skills is such that its role and significance are discussed. In turn, the article examines the functional features of processes that ensure the success of the oral perception of information and the difficulties associated with the insufficient formation of these mechanisms for the perception of a message in a foreign language. The process of auditory comprehension is considered very important in the perception of speech. Scientific research shows that the most important aspect of mental stress and active mental activity of a student in the process of speech recognition is manifested in comparison with other types of speech activity. The content and essence of the methods and methods developed for listening and understanding are explained in its aspects related to its importance in education.

**Key words:** Analysis, language, meaning, skill, text, cognitive process, psychological and pedagogical basis, educational material, text.

## ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ АУДИРОВАНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация

В преподавании иностранных языков дается анализ подходов к формированию слухового понимания, и методика формирования когнитивных способностей и навыков слухового понимания такова, что обсуждаются ее роль и значение. В свою очередь, в статье рассматриваются функциональные особенности процессов, обеспечивающих успешность устного восприятия информации, и трудности, связанные с недостаточной сформированностью этих механизмов для восприятия сообщения на иностранном языке. Процесс слухового восприятия считается очень важным в восприятии речи. Научные исследования показывают, что наиболее важный аспект психического напряжения и активной мыслительной деятельности учащегося в процессе распознавания речи проявляется в сравнении с другими видами речевой деятельности. Содержание и сущность методов, разработанных для аудирования и понимания, раскрываются в аспектах, связанных с их важностью в образовании.

**Ключевые слова:** Анализ, язык, значение, навык, текст, когнитивный процесс, психолого-педагогическая основа, учебный материал, текст.

## CHET TILNI O‘QITISHDA TINGLASH KO‘NIKMLARINI SHAKLLANTIRISH

Аннотация

Chet tillarni o‘qitishda eshish tushunchasini shakllantirishga yondashuvlar tahlili berilgan, eshish qobiliyati va kognitiv qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi shunday bo‘ladiki, uning o‘rni va ahamiyati muhokama qilinadi. O‘z navbatida, maqolada ma‘lumotni og‘zaki idrok etish muvaffaqiyatini ta‘minlaydigan jarayonlarning funksional xususiyatlari va xorijiy tildagi xabarlarini qabul qilishning ushbu mexanizmlarining etarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog‘liq qiyinchiliklar ko‘rib chiqiladi. Nutqni idrok etishda eshish orqali idrok etish jarayoni juda muhim hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutqni aniqlash jarayonida o‘quvchining aqliy zo‘riqlik va faol aqliy faoliyatining eng muhim jihati nutq faoliyatining boshqa turlari bilan taqqoslaganda namoyon bo‘ladi. Tinglash va tushunish uchun ishlab chiqilgan usullarning mazmuni va mohiyati ularning ta‘limdagi ahamiyati bilan bog‘liq jihatlarda ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Tahlil, til, ma‘no, malaka, matn, kognitiv jarayon, psixologik-pedagogik asos, o‘quv materiali, matn.

Основываясь на анализе научной литературы, можно наблюдать за активностью в процессе обучения узбекскому языку иностранных студентов, а также за достижением эффективного результата и анализом составляющих психологического процесса в нем. Следует отметить, что важность научных исследований в повышении эффективности обучения узбекскому языку иностранцев и в процессе вхождения в новую образовательную среду изначально связана со многими трудностями лингвистического и экстралингвистического характера, с которыми сталкивается студент. Одной из предпосылок успеха профессиональной подготовки иностранцев является формирование компетенции по выявлению коммуникативной речи до уровня адекватного восприятия и понимания учебной лекции.

В свою очередь, необходимо различать составляющие процесса восприятия вербальной коммуникации и устранять несоответствия в развитии механизмов аудирования. И в этом случае необходимо разработать эффективную систему заданий и упражнений для формирования необходимых навыков и компетенций с учетом индивидуальных особенностей и потребностей иностранцев. Кроме того, в процессе преподавания языка иностранцам важно выбрать методику, основанную на регионе, мировоззрении, возрасте изучающего язык, его прошлом личном опыте, и подготовить подходящие учебные материалы.

Как уже отмечалось, задачей преподавателя является организация и управление учебной деятельностью учащегося, направление его деятельности

к желаемому результату при решении специально организованных учебных задач различной сложности, целью которых является приобретение знаний в области естественных наук, практических навыков. Желательно, чтобы процесс обучения иностранному языку был основан на личностной ориентации и активистском подходе. Последовательное формирование навыков аудирования и компетентности является одним из эффективных способов достижения необходимого уровня коммуникативной компетенции.

Исследователи обычно определяют восприятие речи как многоуровневый процесс, включающий в себя ряд навыков, которые позволяют слушателям закрепить свои знания.

В восприятии речи важны три основных уровня:

- психоакустический (восприятие физических характеристик речевого сигнала);
- лингвистический (фонетическое, лексическое, синтаксическое и семантическое представление речевого сигнала);
- когнитивный (информативная гипотеза в структуре речи).

Когда учителя прагматично относятся к исследованиям, они учатся принимать решения о том, как слушать аудиторию в ходе урока. Использование слухового восприятия на уроках также развивает навыки слушания аудитории. Однако, чтобы достичь такого результата, необходимо больше организовывать занятия по развитию понимания на слух у учащихся. В практике преподавания языка также существует ряд трудностей с аудированием и пониманием. Аудирование осуществляется в разных ситуациях. Например, в процессе непосредственного общения это может быть с помощью радио, аудио-видеоматериалов.

На прослушивание аудиоматериалов также влияют тембр, громкость и пол говорящего (мужской, женский или детский голос). Даже если аудиоматериалы предназначены для одноразовой и кратковременной презентации, данные могут плохо сохраняться в памяти слушателя. Многие исследователи отмечали, что в процессе прослушивания увеличивается длина текста, объем которого больше, слушатель быстро устаёт, внимание разделяется, а вместе с тем теряется и интерес.

Слушатель должен понимать и воспринимать значение слов, которые он слышит, прежде чем отвечать при прослушивании. Конечно, основной акцент в этом месте будет сделан на значении, содержании текста, в то время как форма в нем приобретет второстепенное значение. Изучающие язык активно отбирают лексическую и грамматическую информацию и интерпретируют ее из семантического поля, чтобы определить, какой смысл выражен в речи. Изучающие язык получают информацию о грамматике языка при восприятии речи, о словарном богатстве и семантике языка, а также об орфоэпических нормах и воспринимают из них новые особенности значения.

Акцент на навыках восприятия на слух выходит на новый уровень в теории языкового образования в связи с идеей Крашена о "приемлемом вводе". Согласно этой идее, предоставление материала, соответствующего уровню восприятия на слух, при изучении языка гарантирует эффективность этого процесса. Обучение родному языку Д.Нунан, понимание на слух рассматривалось как автоматический процесс обучения до 90-х годов прошлого века, когда Г.Браун в своем исследовании упомянул, что, доказав необходимость понимания на слух и устной речи, также формулируемой на основе упражнений, особое внимание уделяется пониманию на слух, даже при преподавании точного

языка. (Ne'matov O', G'ulomov A va boshqalar. "Ijodiy matn ustida ishlash"(metodik qo'llanma). Toshkent, 1997. – B.235)

Преподаватель проводит по ним практические занятия с изучающими язык, принимая во внимание грамматические и семантические аспекты текста при выборе текста. Конечно, с помощью этого процесса можно достичь эффективного результата, но не полноценного. Причина в том, что при выборе текста основное внимание уделяется его структуре, грамматике. На самом деле, грамматические и лексические знания, мировоззрение изучающего язык - это важный аспект, который изначально не основан на тексте. Исходя из этого, предполагается выбрать текст, а затем сосредоточиться на грамматических и лексических аспектах текста.

При выборе текста учитель действует целенаправленно, если он выбирает текст, который отражает содержание текста и важность того, чтобы иметь возможность донести его до учащихся. Ученые-лингвисты отмечают неразрывную связь языка с фонологическим, морфологическим, синтаксическим разделами при описании грамматической формы языка. Грамматика - это раздел о структуре языка или о том, как используется система. Создание речи начинается со звуков. Звуки состоят из слов, а слова составляют фразы и предложения. Грамматика, с другой стороны, помогает формировать речь учащихся. С этой точки зрения, важен текст, который транслируется аудитории.

Известно, что аудирование является самостоятельным видом речевой деятельности и то, что оно сложнее чтения и письма, сильно подчеркивается учеными. Аудирование способствует достижению образовательных целей, дает учащимся возможность понимать текст на иностранном языке. Поэтому аудирование является мощным инструментом изучения иностранного языка, оно дает возможность овладеть звуковой стороной изучаемого языка, его фонетическим строем и интонацией. Читатели могут столкнуться с различными трудностями в процессе прослушивания и понимания текста. Если текст содержит сложные грамматические части, такие как фразы или сложный словарный запас, такой текст может вызвать трудности на ранних этапах изучения узбекского языка. Или тексты, характерные для формального стиля, также могут быть трудны для понимания читателями. В процессе прослушивания читатель сравнивает текст с потоком речи и лексико-синтаксическими единицами, которые хранятся в его памяти. Его произведение становится известным, когда читатели интерпретируют слова дословно. Когда устная речь происходит на основе звуков речи, восприятие и дифференциация звуков речи достигается с помощью слуха. Для того чтобы читатели хорошо овладели восприятием текста, необходимо сосредоточиться на смысловых аспектах текста. Семантические языковые навыки означают понимание значений слов, фраз, предложений и даже блоков контента и их целенаправленное использование.

Слова и их семантика очень важны при изучении языка, особенно при восприятии на слух, но тексты, которые являются грамматически полными и совершенными, в значительной степени способствуют углублению знаний изучающих язык и их пониманию текста. В программах с грамматической структурой перед преподавателями стоит задача научить студентов грамматике и поработать над ошибками. Эта задача имеет большое значение при отборе материала в том порядке, в котором преподаватели на практике знакомят изучающих язык с грамматическими правилами.

Восприятие текста изучалось в различных аспектах как сложный процесс. В качестве основных можно выделить количественное, психологическое и психолингвистическое направления. При психологическом подходе основным объектом является человек, а при восприятии текста в большей степени анализируется его индивидуальное психическое состояние, характеристики. (Azizxo'jaeva N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. – Т.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006. – В. 27-28)

При восприятии содержания текста текст сохраняет свою формально-смысловую целостность, и слова выходят на поверхность как его составляющая, то есть как элемент, подчиняющийся законам текстовой системы. Для полноты и всестороннего понимания текста важно, чтобы изучающий язык хорошо разбирался в значении каждого слова в отдельности. Однако в некоторых случаях значение слова, незнакомого изучающему язык, воспринимается из контекста, или

значение знакомого слова может иметь другое значение в контексте. В целом, знание или незнание значения отдельного слова влияет на уровень понимания текста. (Nazarova S. *O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi talabalar uchun qo'llanma sifatida tavsiya etgan*. – Т.: O'qituvchi, 1992, 92-215 b.).

Уроки аудирования должны строиться исходя из конкретных целей, понимание на слух должно осуществляться поэтапно. Это означает, что процесс аудирования идет от простого к сложному. Кроме того, слушатели должны знать, что слушать, где слушать и как слушать. Эти инструкции, безусловно, будут объяснены учителем. Таким образом, особенности анализа и изучения процесса аудирования и грамматической и семантической основы выступают в качестве одного из наиболее сложных и важных видов речевой деятельности. В свою очередь, способы, техники и базовые упражнения для преодоления трудностей, с которыми сталкиваются учащиеся на разных этапах обучения, также могут быть решены с этой точки зрения.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Azizxo'jaeva N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. –Т.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006 y, 200 b.
2. Nazarova S. *O'zbek tili o'qitish metodikasi.*( O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi talabalar uchun qo'llanma sifatida tavsiya etgan). – Т.: O'qituvchi, 1992– 215 b.
3. Ushakova N. *Listening as one of the ways to teach a foreign language to foreign students*. – Ukraina.: Kharkiv National Automobile and Highway University 2020. p 438-440.
4. Ushakova N. *Listening as one of the ways to teach a foreign language to foreign students*. – Ukraina.: Kharkiv National Automobile and Highway University 2020. P 438-440.
5. Маркова А.К. *Формирование мотивация учения в школьном возрасте. Пособие для учителя*. – М.: Просвещение, 1983 г. 96-201 с.
6. Xiaoli Bao “A Study on Schema Theory-based Listening Teaching Mode for English Majors” *International Journal of English Linguistics*, Vol. 6, No. 4; 2016, p. 207
7. Ushakova N. *Listening as one of the ways to teach a foreign language to foreign students*. – Ukraina.: Kharkiv National Automobile and Highway University 2020. p 438-440).
8. Matthew J., Traxler., M. A.Gerrnbacher “*Handbook of psycholinguistics*” 2nd edition, USA 2006, p.204



Zafar ADILOV,

Ma'mun universiteti "Umumkasbiy fanlar" kafedrasi mudiri, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

E-mail: zafar68@gmail.com

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti S.Yuldasheva taqrizi asosida

### MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING HAYOTI VA ILMIY MEROSI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mahmud az-Zamaxshariy yirik qomusiy olim va madaniyat arboblardan biri ekanligi va allomaning tafsir, hadis, fiqh, adabiyotshunoslik, lug'atshunoslik, tilshunoslik, grammatika va didaktikaga oid asarlari pedagogik jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek allomaning hayot faoliyati, qoldirgan meroi va ulardan foydalanish borasidagi fikrlar mazmuni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Ilm-fan, madaniyat, o'qib-axloq, tafsir, hadis, adabiyotshunoslik, lug'atshunoslik, tilshunoslik, grammatika, didaktika, o'g'it, nasihat, maqol, masal, pedagogik qarash.

### ЖИЗНЬ И НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ МАХМУДА АЗ-ЗАМАХШАРИ

Аннотация

В данной статье Махмуд аз-Замахшари является одним из крупнейших учёных-энциклопедистов и деятелей культуры, педагогически анализируются труды учёного, связанные с тафсиrom, хадисами, фикхом, литературоведением, лексикологией, лингвистикой, грамматикой и дидактикой. Также проанализирована жизненная деятельность ученого, наследие, которое он оставил после себя, и содержание его мыслей по их использованию.

**Ключевые слова:** Наука, культура, нравы, интерпретация, хадисы, литературоведение, лексикография, лингвистика, грамматика, дидактика, учение, совет, пословица, притча, педагогический взгляд.

### LIFE AND SCIENTIFIC HERITAGE OF MAHMUD AZ-ZAMAKSHARI

Annotation

In this article, Mahmoud al-Zamakhshari is one of the great encyclopedic scholars and cultural figures, and the scholar's works related to tafsir, hadith, fiqh, literary studies, lexicology, linguistics, grammar and didactics are pedagogically analyzed. Also, the life activity of the scholar, the legacy he left behind, and the content of his thoughts on their use were analyzed.

**Kirish.** Xorazm zaminida tavallud topgan buyuk allomalardan biri Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariydir. Uning to'liq ismi Abu-l-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Ahmad bo'lib u hijriy 467 yilda rajab oyining yigirma yettinchisida chorshanba kuni (milodiy hisobda 1075 yilning 19 martida) Xorazmning katta qishloqlaridan biri Zamaxsharda tavallud topgan [1]. Bu haqda uning o'zi ham shunday yozadi: «Faqir, Xorazm qishloqlaridan biri Zamaxsharda tavallud topganman»[2]. Az-Zamaxshariy Xorazm va Buxoro madrasalarida ilm olish uchun umrining ko'p kismini o'tkazdi. U o'sha davrning ko'p ilmlarini egallashga jonbozlik ko'rsatdi. Ulug' Shayxlarning suhbatlariga qatnashdi, masjid va madrasalarda imom hamda mudarrislardan ma'ruzalar tingladi. Fiqh, hadis, tafsir, tavhid, falsafa va mantiq ilmlarini mukammal egalladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Yosh az-Zamaxshariy yo'qsillikda hayotini o'tkazdi, biroq uning ilmga bo'lgan rag'batini kambag'allik yoki g'ariblik so'ndirolmadi. U ilm o'rganish uchun qal'adan – qal'aga, yurtidan – yurtga kezib, ilm izladi. O'sha davrning mashhur olimlari qo'l ostida ta'lim oldi. Ilm talabida Nishopurga kelgan az-Zamaxshariy shu yerda ancha vaqt qolib ketadi. Shu yerda ad – Domg'oniy bilan uchrashdi [3]. So'ng yana Buxoro va Xurosonga qaytdi [4]. U Xuroson xalqi to'g'risida shunday deb yozgan edi: «Xuroson ahlida uchratmagan narsam eng yaxshi fazilatlarini uchratdim»[5].

Xurosondan chiqib Isfahonga – saljuqiyy podsho Abu-l-Fath Malikshoh huzuriga yo'l oldi. [6]. Unga atab avvalroq keltirib o'tganimiz qasidani bitadi. Bundan tashqari o'sha davrning mashhur shaharlaridan biri Marvga boradi az-Zamaxshariy Xurosondagi ko'plab shaharlarini kezdi. U ta'lim

olish bilah bir qatorda ko'plab ilmiy suhbatlarda ishtirok etdik. Allomaning dunyo qarashi u balogatga etgunchash shakillanib ulgurgan edi. U o'zining yigirma besh yoshgacha bo'lgan umir yo'lini faqat ilm olish uchun bogishladi. Jamiki sarmoyasi va kuchushbu yo'lga sarfladi quvvatini. Ilm talabida bo'lgan Az-Zamaxshariy bir joyda muqim bo'lib ko'p yashamadi. U shaharma – shahar, malakatma – malakat yurib, davir ulomalari, olimlar bilan ilm majlislarida bo'ldi, foydali ilmlarni yodlab, ayrimlarini qagozga yozib oldi. U mashhur allomalar oldida o'zini tavoze va odobli tutar edi, ularni nihoyatda qadirlab ezozlard, yuksak matonat va sabir bilan o'zi bilmagan narsalarni bilib olishga intilardi. Ustozlardan o'ziga keraklisini olardi-yu, yana yo'lida davom etar edi. Ilm olishga bo'lgan ishtiyoqi nihoyatda ulkan edi, hatto undagi ishtiyoq va bilim olishga bo'lgan say harakati uni qarigan chog'ida ham tark etmadi. Keksaygan chog'ida ham Misrlik Abu Mansur Nasrdan adabiyotni o'rganib, unga tafsir ilmidan ta'lim bergan edi [7]. Albatta bu dalillar har bir yosh avlodga Az- Tahlil va natijalar. Zamaxshariydan o'rnak olishni o'rgatadi. Mahmud az-Zamakhshariy ta'lim olgan ustozlardan quyidagilarni keltirish mumkin.

1. Az-Zamaxshariy adab, i'rob, kalom va tavhid ilmini Mahmud ibn Jarir az – Zabbiy al-Isfahoniyy (Abu Muzar) (vafoti 1114)dan ta'lim olgan.

2. Shayx Abu Ali az-Zarir. Adabiyot va grammatikada poyonsiz ilm sohibi bo'lgan bu shaxsdan az-Zamaxshariy aynan shu bilimlarni o'rgandi [8].

Fiqh (islom shariati) ilmlarini Shayx as-Sadid al-Hayotiydan o'rgangan.

4. Az-Zamaxshariy usul ilmini, Ruknuddin Muhammad al-Usuliydan saboq olgan. Shu davirda o'zi ham Usuliyga tafsir ilmini o'rgatgan.

1. Abu Bakr ibn Talha ibn Abdulloh al-Yabariy al-Andalusiyy (vafoti 1124)[9].

2. Abu Mansur ibn al-Juvoliqiy. U shayxul islom edi. Az-Zamaxshariy u bilan Bag'dodda uchrashadi. Bu haqda al-Qiftiy uning shogirdi al-Kindiydan shunday rivoyat qiladi: «U Bag'dodga – bizning oldimizga 533 (1139) yilda keldi. Men uni shayximiz Abu Mansur al-Juvoliqiyning oldida til va uning qoidalariga oid bo'lgan ayrim kitoblarni o'qib berayotganida ikki marotaba ko'rgandim. U shayximizga undagi ilmi hech qerda uchratmaganini va eshitmagani aytib turardi.» Al-Juvoliqiy ilmi adabdan benazir edi. Xatib at-Tabriziydan keyin Nizomiya madrasasida dars berardi. U 555 (1161) yilda dunyodan o'tdi.

3. Abu-l-Hasan Ali ibn Muso ibn Hamza ibn Vahhos Abu-t-Tayyib al-Alaviy (vafoti 1133). Makka amiri bo'lgan.

4. Abu Nuaym al-Isfahoniy. Az-Zamaxshariy undan adabiyotga taalluqli bo'lgan ilmlarni olgan.

Az-Zamaxshariy ustozlaridan biri – o'z davrining mashhur faqih, mu'taziliy-mutakallimlarning diniy-g'oyaviy rahbarlaridan hisoblangan Abu Sa'd al-Jashamiy al-Bayhaqiyy (1022-1073) bo'lgan. U zaydiy mu'taziliylardan bo'lib, az-Zamaxshariy uni o'ziga ma'naviy ustoz deb bilgan. Uning asarlarini qunt bilan o'rgangan va o'z e'tiqodini uning g'oyaviy tamoyillari bilan shakllantirgan.

U mazkur shaxsga nisbatan o'z ehtiromini o'zining «al-Kashshof» nomli tafsirini uning «at-Tahzib» nomli tafsirining uslubiga monand tarzda yozishligi bilan tasdiqladi [10].

az-Zamaxshariy tilshunoslik, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz, jug'rofiya, tafsir, hadis va fiqh bo'yicha yirik olim darajasiga ko'tarildi va o'ziga xos e'tiborli ilmiy maktab yaratgan, Sharqning ko'plab shaharlaridan shogirdlarni tarbiyalab etishtirdi, o'zining ko'p vaqtini shogirlari bilan ilmiy suhbatlar olib borishga sarflar edi. Abdulkarim as-Sam'oniyy «al-Ansob» («Nasabnom»)da az-Zamaxshariyning ta'riflab uning shogirdlari to'g'risida quyidagi jummalarni keltiradi, ya'ni Abu-l-Mahosin Ismoil ibn Abdulloh, Abu Amr Omir ibn Hasan as-Simsor, Abu Sa'd Ahmad ibn Mahmud ash-Shoshiy, Abu Tohir Somon ibn Abdulmaliklardan olganligini qayd etadi. U ko'plab shogirdlar yetishtirib, ularning katta qismiga mudarrislik uchun ijozat berdi. Bu shogirdlar mahalliy, mintaqaviy hatto umumdavlat va umumbashariy ahamiyatga molik ilmiy faoliyat egalari hisoblanishadi. Hadis ilmi bo'yicha:

Tabaristonlik Abul Mahosin Ismoil ibn Abdulloh at-Tubliyy, Abyurdlik Abdurahim ibn al-Bazzoz, Zamaxsharlik Abu Umar Omir al-Hasan as-Simor va Samarqandlik Abu Sa'd Ahmad ibn Mahmud ash-Shoshiy, xorazmlik Abu Tohir Samoi Abdul Malik al-Faqihlar bor edilar[11].

Zamonasining olimlari ulug' allomani o'z asarlarida quyidagicha baho berganlar.

Az-Zamaxshariy qaysi shaharda, qaysi yurtda bo'lmasin, uning atrofni adiblar, olimlar, shoirlar o'rab olishardi, - unga nimadir berishsa, undan nimadir olishardi. Bu haqda Ibn Xallikon shunday yozadi: «U zamonasining peshvosi edi. Uning ilmiga teng ilmi mard topilmas edi» [12].

Alloma Mahmud az-Zamaxshariy 1119 yildan boshlab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga nisbatan munosabat bildirishida passivlik – ijtimoiy begonlashuv jarayoniga o'tdi, ya'ni uzlatga chekindi va bu holat to umrining oxirigacha davom etdi. Uning bu yo'lni tanlashiga sabab Mazkur yilning rajab oyida og'ir betopb bo'lganligi, hamda betoblik davrida ko'rgan tushi faoliyat prinsiplarini o'zgartirishga sabab bo'ldi.

Az-Zamaxshariyning o'zi bu yilni «ogohlantiruvchi» yil deb nomladi. Unda jamiyatda kechayotgan voqea-hodisalarga nisbatan befarqlik holata vujudga keldi. Shu

yildan boshlab u hammadan uzildi. Hech kim bilan gaplashmas, tanholikka intilardi.

Az-Zamaxshariy Zamzam bulog'i va Maqomi Ibrohim o'rtasida joylashib, jahon fani va madaniyatiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan ko'plab asarlarni yaratdi. Bulardan:

«Atvaqu-z-zahab» («Oltin shodalar»)

«An-Nasoihu-s-sig'ar» («Kichik nasihatlar»)

«An-Navobig'u-l-kalim» («Nozik iboralar»)

«Ash-Shofi al-ay» («Og'riqlarni davolovchi kitob»)

«Al-Mustaqsi fi amsali-l-arab» («Arab maqollarini tadqiq etuvchi kitob»)

U umrining oxirgi o'n yilligida mashhur tafsiri «al-Kashshof»ni yozishga kirishdi va juda qisqa davrda - 1133-1135 yillarda tamomladi. «Tafsirni nihoyasiga yetkazishi bilan «Rabi'u-l-abror» («Yaxshilar bahori»)ni, undan so'ng «Asosul-balog'a» («So'z san'ati asosi») ni, so'ngra «A'jabul ajab fi sharhi lomiyatil arab» («Arabcha lom harfini sharhlashdagi ajoyibotlar») nomli kitoblarini ta'lif etadi.

Az-Zamaxshariy ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan uzoqlashgan shaxs sifatida vataniga qaytdi. Biroq, u olim sifatida beqiyos shuhratga, so'ngsiz hurmat – e'tiborga burkandi. Xorazm faxriga aylandi. U umrining oxirigacha shu yerda yashab, 1144 yilda Urganchda vafot etdi [13].

Biz az-Zamaxshariyning shu kungacha yetib kelgan asarlari haqida qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik, negaki, biz uning asarlari haqida muayyan tasavvurga ega bo'lmas ekanmiz, uning tarixdagi e'tiborli shaxs, daho ijodkor ekanligini to'la tushunib olishimiz qiyin kechadi.

1. «Al-Kashshof 'an haqiqi-t-tanzil va 'uyuni-l-aqovil fi vujuhi-t-ta'viyl». («Qur'ondagi berk haqiqatlarni va uni sharhlash orqali rivoyatlar ko'zlarini ochgich»). Qur'on tafsiri. Misr, Hindistonda bir necha marta chop etilgan. O'zRFA Hamid Sulaymonov nomidagi qo'lyozmalar instituti fondida, O'zRFA Sharqshunoslik institutida ham uning bir necha nodir qo'lyozma nusxalari saqlanmoqda.

2. «Al-Qustosu-l-mustaqiyim fi ilmi-l-aruz» («Aruz ilmida aniq mezon»). Bu asarning qo'lyozma nusxalaridan ba'zilari Berlin, Leyden va Misr Arab Respublikalarida saqlanadi.

3. «Kitobu-l-amkina va-l-jibol va-l-miyoh» («Tog'lar, joylar va suvlar haqida kitob»). 1855 yilda Leydenda, 1917 yilda Iroq va Najafda chop etilgan.

4. «Al-Foiq fi g'aribi-l-hadis» («G'arib hadislar haqida ajoyib kitob»). Ayo Sofiya (Turkiya), Damashq kutubxonalarida saqlangan. 1324 hijriy yilda Haydarobodda 1945 – 48 yillarda Qohirada chop etilgan.

5. «Ta'limu-l-mubtadi va irshodu-l-Muqtadi» («Boshlovchiga (til ilmini) o'rgatish va ergashganga yo'l ko'rsatish»). Qo'lyozma nusxasi Misrda «Daru-l-kutubi-l-misriya» kutubxonasida (4254 – S raqamda) saqlanadi.

6. «Al-Mufassal fi-n-nahv» («Nahv ilmida mufassal kitob»). Kitobning bir qo'lyozmasi Toshkentda Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi. (raqam – 5198).

7. «Al-Mustaqsi fi amsali-l-arab» («Arab maqollarini tadqiq qiluvchi kitob»). Bu yirik asardan bir nusxa Misr kutubxonasida saqlanmoqda.

8. «Risola fi nassi-l-'ashara» («O'n masala to'g'risida kitob»). Berlin kutubxonasida saqlanmoqda.

9. «Maqomotu-z-Zamaxshariy» («Az-Zamaxshariy maqomlari»). 1312 – 1325 hijriy yillarda Qohirada chop etilgan.

10. «Atvoqu-z-zahab» («Oltin shodalar»). Bir necha nusxalari Berlin va Britaniya muzeylarida saqlanadi. Bundan tashqari 1835 yilda Venada, Leypsigda, 1863 yilda Shtutgardta, 1876 yilda Parijda, 1288 hijriy yilda Konstantinopolda, 1314 hijriy yilda Bayrutda, 1321 hijriy yilda Misrda, 1328 hijriy va 1925 yillarda yana Misrda tijoriy nashr sifatida bosmadan chiqqan.



11. «Navabig'u-l-Kalim» («Nozik iboralar»). Bag'dodda Iroq Milliy muzeyida (563 – raqamda), Berlinda 8676 – raqamda), Leydenda (891 va 92 – raqamlarda) mavjud. 1914 va 1927 yillarda Qohira nashri, 1306 hijriy yilda Bayrutdagi nashri, 1283 hijriy yilda Istambul nashri bo'lgan. 1992 yilda O'zbekistonda Ubaydulla Uvatov tarjiması bilan o'zbek tilida nashr etildi.

12. «Al-qasida al-ba'uziya» («Pashsha haqida qasida»). Berlinda (7686, 7687 – raqamlar) va yana bir nusxasi Qohirada saqlanmoqda.

13. «Al-Anmuzaj fi-n-nahv» («Grammatik namunalar haqida»). 1283 hijriy yilda Qohirada, 1228 yilda Istambulda chop etilgan. Ko'plab qo'lyozma nusxalari Qohira, Iskandariya, Bag'dod, Berlin, Gota, Parij, Vena, London, Leyden kabi shaharlarda saqlanadi.

14. «Al-Muhajot fi-l-ahojiy va-l-ag'luzot» («Boshqotirma va g'alizliklar haqida fikr yurituvchi kitob»). «Misr kitoblar uyi»da saqlanmoqda.

15. «Asosu-l-balog'a» («So'z san'ati asosi»). Bu kitobning nodir nusxasi O'z.R FA Sharqshunoslik institutida (5234) saqlanadi.

16. «Muqaddimatu-l-adab» («Adabiyotshunoslikka kirish»). Bir necha nusxalari Toshkentdagi Sharqshunoslik institutida mavjud.

17. «A'jabu-l-ajab fi lomiyati-l-arab» («Lomiyatu-l-arab sharhida ajoyibning ajoyibi»). 1300 hijriy yilda Konstantinopolda 1324 hijriy sanada va 1928 yilda Qohirada chop etilgan.

18. «Divanu-z-Zamaxshariy». Qohirada «Dorul-kutub-il-Misriya» kutubxonasida 155, A – 529 – raqamlar ostida saqlanmoqda. Qo'lyozma.

19. «Rabi'u-l-abror va nususu-l-axyor» («Yaxshilar bahori va fozillar axbori»). Asarning to'rt jilddan iborat bo'lgan bir qo'lyozmasi Bag'doddagi al-Avqof kutubxonasida (9786 – raqamda), boshqa nusxalari Berlin (8351, 8352, 8353 – raqamlarida), Leydenda (470-raqamda), Qohirada (155-raqamda) saqlanadi.

20. «Samimu-l-arabiya» («Arab tilining negizi»). Bag'dodda Iroq Milliy muzeyi qoshidagi kutubxonada (1002-raqamda) saqlanadi.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan kitoblar ro'yxati az-Zamaxshariyning hozirda mavjud asarlarining nomidir. Aslida, Yoqut al-Hamaviy, Ibn Xallikon va Hoji Xalifalarning ma'lumotlarga asoslansak, u holda bu kitoblarning nomlari elliktaga boradi. Hozirgi kunda o'zbek zamaxshariyshunoslari uning asarlari soni yetmishga yaqinligini qayd etishdi.

#### ADABIYOTLAR

1. Муртазо Оятуллозода аш-Шерозий. Аз-Замахшарий луғавийян ва муфассиран. – Қ.: Дару-с-сакофа, 1977. – 82 б.
2. Ёкут ал-Ҳамавий. Муъжаму-л-булдон. – Қ.: Дару-с-сакофа, 1980. – 400 б.
3. Ас-Суютий. Бағъату-л-вуъат. – Қ.: Дару-с-сакофа, 1982. – 388 б.
4. Ёкут ал-Ҳамавий. Муъжаму-л-удаба. – Қ.: Дару-с-сакофа, 1980. – 152 б.
5. Дивану-з-Замахшарий. – Қ.: Дару-л-кутуби-л-мисрийя, № А-529. – 41 б.
6. Муртазо Оятуллозода аш-Шерозий. Аз-Замахшарий луғавийян ва муфассиран. – Қ.: Дару-с-сакофа, 1977. – 35 б.
7. Ибн Халликон. Вафаяту-л-аъян. – Қ.: Дару-с-сакофа, 1978. – 107 б.
8. Муртазо Оятуллозода аш-Шерозий. Аз-Замахшарий луғавийян ва муфассиран. – Қ.: Дару-с-сакофа, 1977. – 92 б.
9. Ас-Суютий. Бағъату-л-вуъат. – Қ.: Дару-с-сакофа, 1982. – 288 б.
10. Ал Қифтий. Анбаур рувват. – Б.: Дару-л-китаби-л-Лубнаний, 1971.- 270 б.
11. Муртазо Оятуллозода аш-Шерозий. Аз-Замахшарий луғавийян ва муфассиран. – Қохира: Дару-с-сакофа, 1977. – 90 б.
12. Абдулкарим ас-Самъоний. Насабнома (Ал-Ансоб). – «Бухоро» нашриёти, 2003. 130 б
13. Аз-Замахшарий. Мукаддима – Қ.: Дару-с-сакофа, 1986. – 2 б.



Ayjan ANARBEKOVA,  
Alfraganus universiteti o'qituvchisi  
E-mail: ayjan@mail.ru

DSc, professor Sh.Botirova taqrizi asosida

## USE OF ELECTRONIC LEARNING TOOLS IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN DIGITAL EDUCATION

Annotation

We can say that each type of tool emphasizes different parts of the process. Curriculum tools provide a structured and standardized environment to support classroom learning; their functions are especially useful in the initiation and selection stages. Digital library tools facilitate efficient and effective use of resources to support research and collection, while knowledge presentation tools focus on the creation and presentation of knowledge.

**Key words:** Program, tool, digital library, knowledge, skills, specialization, education, interactive.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СРЕДСТВ ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ В ЦИФРОВОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

Можно сказать, что каждый тип инструмента подчеркивает разные части процесса. Инструменты учебной программы обеспечивают структурированную и стандартизированную среду для поддержки обучения в классе; их функции особенно полезны на этапах инициации и отбора. Инструменты цифровой библиотеки способствуют эффективному и результативному использованию ресурсов для поддержки исследований и сбора, а инструменты представления знаний ориентированы на создание и представление знаний.

**Ключевые слова:** Программа, инструмент, электронная библиотека, знания, навыки, специализация, образование, интерактив.

## RAQAMLI TA'LIMDA XORIJIY TILNI O'QITISHDA ELEKTRON TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Har bir turdagi vosita jarayonning turli qismlarini ta'kidlaydi, deb aytishimiz mumkin. O'quv dasturlari vositalari sinfda o'rganishni qo'llab-quvvatlash uchun tizimli va standart muhitni ta'minlaydi; ularning funktsiyalari, ayniqsa, boshlash va tanlash bosqichlarida foydalidir. Raqamli kutubxona vositalari tadqiqot va to'plashni qo'llab-quvvatlash uchun resurslardan samarali va samarali foydalanishni osonlashtiradi, bilimlarni taqdim etish vositalari esa shakllantirish va taqdim etishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Dastur, vosita, raqamli kutubxona, bilim, ko'nikma, ixtisoslik, ta'lim, interaktiv.

O'quv dasturlari vositalari sinfda o'rganishni qo'llab-quvvatlash uchun tizimli va standart muhitni ta'minlaydi; ularning funktsiyalari, ayniqsa, boshlash va tanlash bosqichlarida foydalidir. Raqamli kutubxona vositalari tadqiqot va to'plashni qo'llab-quvvatlash uchun resurslardan samarali va samarali foydalanishni osonlashtiradi, bilimlarni taqdim etish vositalari esa shakllantirish va taqdim etishga qaratilgan.

A. O'quv dasturlari vositalari.

O'quv dasturlari o'rta maktab va kollejlarda keng qo'llaniladi. Sinf faoliyatini osonlashtirish uchun materiallar tanlanadi va tartibga solinadi. Muhokama forumlari va onlayn viktorinalar kabi qo'shimcha vositalar hamkorlik va baholashni qo'llab-quvvatlash uchun birlashtirilgan. Oddiy tijorat o'quv dasturi uchta birlashtirilgan qismni o'z ichiga oladi: o'quv vositalari, boshqaruv vositalari va talabalar vositalari. O'quv vositalariga o'quv dasturlarini loyihalash va avtomatlashtirilgan baho bilan onlayn viktorinalar kiradi. Boshqaruv vositalariga fayllarni boshqarish autentifikatsiyasi va avtorizatsiya kiradi. Talaba uskunalar funktsiyalariga quyidagilar kiradi:

auditoriya materiallarini ko'rib chiqish: o'qishlar, topshiriqlar, loyihalar, boshqa manbalar;

hamkorlik va almashish: asinxron va sinxron e'lonlar taxtasi va muhokama forumlari;

o'quv jarayonini rejalashtirish va kuzatish: topshiriqlarni eslatish va topshirish, shaxsiy kalendarlar va faoliyat jurnallari;

o'zini-o'zi tekshirish va baholash: talabalar faoliyatini baholash uchun o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan testlar.

WebCT va Blackboard eng mashhur tijorat o'quv dasturlari vositalaridir. Ushbu ikkita vositani solishtirgan ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, Blackboardning moslashuvchan kontentni boshqarish va guruh ishini qo'llab-quvvatlashi [4] uni mustaqil va hamkorlikda o'rganish uchun qulayroq qiladi. WebCT ning qattiqroq tuzilishi va to'liq o'rnatilgan qo'llab-quvvatlash vositalari uni boshqariladigan, kamroq mustaqil o'rganish uchun mosroq qiladi. Umuman olganda, bu vositalar mustaqil tadqiqot yoki mustaqil o'rganishdan ko'ra sinf faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun ko'proq moslashtirilgan.

B. Raqamli kutubxona vositasi

O'quv dasturlari vositalari sinf funktsiyalarini qo'llab-quvvatlasa-da, raqamli kutubxona vositalari resurslarni joylashtirishga qaratilgan. Ushbu funktsiyalar ma'lumot qidirishning tadqiqot va yig'ish bosqichlarini qo'llab-quvvatlaydi. Raqamli kutubxona vositalari foydalanuvchilarga katta hajmdagi raqamli materiallar orasida to'g'ri ma'lumotni topishga yordam beradi. Raqamli kutubxona funktsiyalari odatda maxsus kolleksiyalar yoki eksponatlarni qidirish, ko'rib chiqish va kashf qilishni o'z ichiga oladi. Qidiruv va

ko'rib chiqish resurslarini topish va tegishli mavzularni o'rganish uchun ishlatiladi. Maxsus kolleksiya yoki eksponatlar qiziqqan foydalanuvchilar uchun noyob xazinani ifodalovchi tashkil etilgan materiallarni o'z ichiga oladi.

#### C. Bilimlarni ifodalash vositasi

Bilimlarni ifodalash vositasi talabalarga bilimlarni vizual tarzda ko'rib chiqish, egallash yoki rivojlantirishga yordam beradi. O'quv dasturlari vositalari, birinchi navbatda, kurs mazmunini tavsiflashda matnga asoslangan, o'quv dasturiga tayanadi. Ushbu yondashuv ko'pincha bir kursda o'rganilgan tushunchalar va ko'nikmalarning boshqasida yoritilgan bilan bog'liqligini aniqlay olmaydi. Shuningdek, u talabning o'qish kursi oxirida olgan bilim bazasini ko'rsata olmaydi. Vizualizatsiya vositasi talabalarni ham, o'qituvchilarni ham talaba ega bo'lgan va egallagan bilim, tushuncha va ko'nikmalarning fazoviy semantik ko'rinishlarini yaratishda faol ta'lim jarayoniga jalb qilishi mumkin.

E-Learning evolyutsiyasi ko'rsatmalarni tahlil qilish, loyihalash, amalga oshirish va Internet orqali etkazib berish jarayonida o'qituvchiga yordam beradigan ko'plab vositalarni taklif qiladi. Agar bir tomondan avtomatlashtirilgan yordam mualliflik vositalari bilan ta'minlanishi kerak bo'lsa, boshqa tomondan bu vositalar tegishli elektron ta'lim jarayonini loyihalash metodologiyalarini amalga oshirishi kerak.

Nazariy (mazmun) va amaliy (jarayonlar) jihatlarini ishlab chiqish. Amaliy jihatlarini ishlab chiqishda talabalar eksperimental usullar, kuzatishlarni sintez qilish, bir qator umrbod va muloqot qobiliyatlari va laboratoriya amaliyotlarini o'rgatadigan mashg'ulotlarga alohida e'tibor beriladi.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning yana bir imkoniyati bu masofaviy ta'lim hisoblanadi. Masofaviy ta'limda mashg'ulot mazmunini etkazib berish va ba'zi jarayonlarni nazorat qilish, u amaliy laboratoriya ko'nikmalarini rivojlantirish cheklolarga ega. Misol uchun, agar laboratoriya sharoitida ishlayotgan bo'lsangiz, ko'pincha qimmat va murakkab asboblardan va mashinalarning ko'p turlariga duch kelishingiz mumkin. Biroq, masofaviy ta'lim rejimida ishlash bunday obektlarga amaliy ta'sir qilishni va bunday muhitga tushishning nozik tomonlarini qadrlashni rad etadi. Shuning uchun ta'lim muassasalarining qandayligini ko'rib chiqish muhimdir.

Onlayn o'qitish va laboratoriya amaliyotlari: XXI-asrning birinchi o'n yilligida elektron ta'limning rivojlanishi bilan onlayn yondashuvlar ko'plab ta'lim muassasalarida kengroq qo'llanila boshlandi [3]. Masalan, masofaviy ta'lim kurslarida veb-asosidagi faoliyat keng qo'llaniladi, holbuki aralash yondashuvlar kampusga asoslangan kurslarda o'qitish va o'rganish faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaniladi. Dantas va Kemm aralash ta'lim yondashuvini amalga oshirib veb-ga asoslangan elektron o'quv vositalari amaliy mashg'ulotdan oldin gipotezalarni sinovdan o'tkazish va bashorat qilish, natijalarni sharhlash va darsdan keyin taqdim etilgan bashoratlarni ko'rib chiqish uchun ishlatiladi [2]. An'anaviy laboratoriya tajribasiga veb-asoslangan umumiy ma'ruza bo'yicha laboratoriya oldidan ko'rsatma, vebda taqdim etilgan slaydga oid mikro-ma'ruzalar seriyasi va izohli virtual slaydlar to'plami kiritilgan.

Ikki guruh uchun o'quv materiallari, o'qituvchi va talabalar uchun qo'llanmalar (an'anaviy yondashuv) va kompyuter yordamli ta'lim (CAL) to'plamiga asoslangan veb-ga asoslangan yordamdan foydalanildi. Ikkala yordamchi materiallar to'plami bir xil ta'lim maqsadlariga javob berish uchun ishlab chiqilgan va tavsiflovchi matn, statik diagrammalar va muammoli o'rganishdan foydalanilgan. Biroq, CAL to'plamida interaktiv animatsion diagrammalar,

muammolar bo'yicha tezkor fikr-mulohazalar, giperbog'langan lug'at va simulyatsiya qilingan optimallashtirish mashqlari mavjud.

Interaktiv, onlayn dinamik laboratoriya qo'llanmasi Bristol ChemLabS loyihasi ([www.chemlabs.bris.ac.uk/](http://www.chemlabs.bris.ac.uk/)) tomonidan ishlab chiqilgan. Qo'llanma videokliplarni, interaktiv simulyatsiyalarni, formativlarni o'z ichiga oladi va umumlashtiruvchi baholashlar va har bir darsdan keyin laboratoriya yozuvlariga ehtiyojni yo'q qiladi. Ba'zi murakkab tushunchalar va usullarni videolar orqali osongina tasvirlash mumkin, o'rganuvchilar ularni haqiqiy laboratoriya ishi oldidan tayyorlash uchun foydali manba topadilar. Bu, shuningdek, talabalarga laboratoriya ishi bilan bog'liq xavf darajasini tushunish, shuningdek, bunday holatlarning oldini olish uchun xavfsiz amaliyotlarga rioya qilish imkonini beradi.

Ushbu dastlabki loyihaning natijalari har bir muassasada kompyuter asosidagi tajribalarni ishlab chiqishga yondashuvlardagi o'xshashlik va farqlarni ochib beradi, har ikkala joyda foydalanish uchun dasturiy ta'minot va apparat vositalarini moslashtirish imkoniyatlari va qiyinchiliklari, har bir muassasa talabalarini foydalanishi uchun umumiy imkoniyatlardan foydalanishga amaliy yondashuvlar, ta'limni kuchaytirish va madaniyatlararo xabardorlikni rivojlantirish uchun institutlararo talabalar jamoalarini yaratish imkoniyatlarini paydo qiladi.

#### Elektron ta'lim sifati:

Elektron ta'lim kurslari talabalarining ehtiyojlari, kasbiy hayotdagi rollari va mas'uliyatlariga mos kelishi va o'ziga xos bo'lishi kerak. Buning uchun ko'nikmalar, bilim va ma'lumotlar berilishi kerak.

**Xulosa.** Ingliz tilini o'qitishda kommunikativlik alohida o'pin tutadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish zamonaviy usul sifatida pedagogik ta'limda muhimdir. Jumladan, kompetensiyaviy yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda – yozish, o'qish, tinglab tushunishni amaliy qo'llash malakalarni shakllantirish va pivojlantirishga yordam beradi.

Falsafiy, psixologik, pedagogik va lingvodidaktik adabiyotlarni tahlil qilish bilan bop qatopda ingliz tili o'qitish amaliyotini tahlil qilish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning kommunikativ va uslubiy kompetensiyalarini shallantirish xususiyatlarini ilmiy uslubiy muammo sifatida ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish yaxlit, uzluksiz va nisbatan bapqapop jarayon sifatida qapaladi. Uning natijasi til ko'nikmalarni shakllantirish va kasbiy muloqot ko'nikmalarni pivojlantirishdir. Bu esa tilni chuqur o'rganishni ta'minlaydi.

Ma'lumki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning tayyovlashda kadrlar tayyovlash samaradorligini oshirishni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim tizimini ishlab chiqmasdan tasavvup etib bo'lmaydi. Ushbu tadqiqot talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirishga ko'mak beradi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning raqamli texnologiyalar vositasida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish muammosi uzluksiz ta'lim tizimida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammoning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish ularning nazariy va amaliy jihatdan asosini, shuningdek nisbatan tizimli yondashuv asosida raqamli ta'lim vositalarini qo'llash qayd etilayotgan jarayonning samarali tashkil etilishiga imkon beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Давлетшин М.Г. Психология технических способностей: Монография / Отв. пед. С.Р.Раджабов. – Т.: Фан, 1971. – 176 с.

2. Давидов Н.А. Педагогика. — М.: ИЕП, 1997. — 134 с.
3. Джураев Р.Х., Махмудов А.Х. Системный подход к проектированию модели личности магистра / Фан – СПОРТ, Ташкент. – №4. – 2010. – С. 12-16.
4. Иноятв У.И., Муслимов Н.А., Усмонбоева М., Иноғомова Д. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет. кўлл. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2012. – 193 б.
5. Капаковский В.А. Стат человеком. Общечеловеческие ценности - основа селостного учебно-воспитателного процесса. - М.: МП «Новая школа», 1993. - 80 с.



Zilola ANVAROVA,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti tadqiqotchisi

E-mail: [anvarovazilola522@gmail.com](mailto:anvarovazilola522@gmail.com)

Toshkent Amaliy Fanlar universiteti, Pedagogika fanlari doktori M.E. Axmedova taqrizi ostida.

## RHEUMATIC DISEASE AND METHODOLOGICAL METHODS OF ITS TREATMENT IN MEDICAL EDUCATION

Annotation

Rheumatism disease and methodical methods of its treatment are widely covered in the article. In the teaching of neontology, modern methodical approaches are used in the students' lessons. The use of modern information and communication technologies helps students to think independently in medicine, to expand the scope of creative research and medical logical thinking, as well as to connect what they learned in class with life.

**Key words:** Medical education, medical knowledge, high quality, medical service, rheumatism, treatment, patient, medical skills, rheumatism.

## РЕВМАТИЧЕСКАЯ БОЛЕЗНЬ И МЕТОДИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ЕГО ЛЕЧЕНИЯ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В статье широко освещено заболевание ревматизм и методические методы его лечения. При преподавании неонтологии на уроках студентов используются современные методические подходы. Использование современных информационно-коммуникационных технологий помогает студентам в медицине мыслить самостоятельно, расширять сферу творческих исследований и медицинского логического мышления, а также связывать то, чему они научились на занятиях, с жизнью.

**Ключевые слова:** Медицинское образование, медицинские знания, высокое качество, медицинская услуга, ревматизм, лечение, больной, врачебные навыки, ревматизм.

## TIBBIY O'QITISHDA REVMAZIM KASALLIGI VA UNI DAVOLASHNING METODIK USULLARI

Annotatsiya

Maqolada tibbiy o'qitishda revmatizm kasalligi va uni davolashning metodik usullari keng yoritilgan. Neontologiya fanini o'qitishda talabalarning dars mashg'ulotlarida zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanilgan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalarni tibbiy mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va tibbiy mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni dars mashg'ulotlarida o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Tibbiy o'qitish, tibbiy bilim, yuqori sifat, tibbiy xizmat, revmatizm kasaligi, davolash, kasal, tibbiy ko'nikma, revmatizm.

**Kirish.** Tibbiy o'qitish jarayoni ta'limiy maqsadlar asosida talabalarga tibbiy bilim berish yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish usullarini o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Tibbiy o'qitishda revmatizm kasalligi va uni davolashning metodik usullari quyidagicha tavsiflanadi. Revmatizmning tarqalishi. Hozirgi vaqtda kasallanishning susayganligi qayd qilingan va uning O'zbekistonda tarqalishi 1000 nafar bolalar ichida 0,79 nafarga to'g'ri keladi. Maksimal kasallanish asosan 10-14 yoshlarga to'g'ri keladi. O'qitish avvalo, ma'lum bir muolajani bajarish uchun zarur bo'lgan tibbiy bilim va ko'nikmalarni egallashdan iboratdir. Tibbiy ta'lim esa o'z navbatida, tibbiy o'qitish, kelajakda tibbiy ta'limiy maqsadga erishishni ko'zda tutadi. Revmatizmning tarqalishi va uni davolashning metodik usullari quyidagicha ifodalanadi.

Tibbiy o'qitishni samarali usuli bu tajriba almashishdir. Tibbiy o'qitishda klinitsistlarni dars mashg'uloti berishga jalb etish, professional pedagoglarni jalb qilishdan ko'ra samaraliroqdir. Tibbiy ko'nikmalarni egallagan har qanday pedagog ham Tibbiy o'qitishga qodir emas, va aksincha har qanday moxir pedagog ham o'z sohasini yaxshi mutaxasissi bo'lmasa Tibbiy ko'nikmalarni o'qitishga qodir emas. O'z kasbining ustasi, yuqori malakali professional bo'lishi kerak. Dars mashg'ulotida o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi kerak. Kamtar, o'ziga va talabalarga nisbatan talabchan bo'lishi kerak. Infektsion faktorlar bilan

bog'liq (A guruhiga mansub beta-gemolitik streptokokk yoki uning L formasi, virus-streptokokkli assotsiatsiya). Revmatik jarayonning shakllanishida streptokokkning antigen moddasi bilan yurak to'qimasi o'xshashligiga asoslangan immunologik mexanizmlar muxim rol o'ynaydi. Revmatizm bilan kasallanishda irsiy moyillik ham katta ahamiyatga ega (irsiylanishning multifaktorial tipi). Kasalliklarni o'qitishda asosan tibbiy pedagog patomorfologik nuqta nazardan qaraganda revmatizmga biriktiruvchi to'qima tuzilmalarining dezorganizatsiyasiga olib keluvchi tizimli vaskulit sifatida qarash mumkin. Ko'pchilik mualliflar A guruhiga mansub beta-gemolitik streptokokkning revmatizmning etiologiyasida ahamiyati katta deb hisoblaydilar. Revmatizmning o'tkazilgan streptokokkli infeksiyasidan so'ng 2-3 haftadan keyin ko'proq yuzaga kelishi, aktiv fazasidagi bemorlar qonida streptokokka nisbatan antitelalarning yuqori titrda bo'lishi, 60-75 foiz % bemorlar qonida streptokokkli antigen topilishi, bitsillin profilaktikasida kasallanish va qaytalanishning birdaniga susayishi streptokokkli nazariya to'g'irligini tasdiqlaydi. Revmatizmning qaytalanishi surunkali tonzilitt bor bo'lgan bemorlarda, hatar guruhida: qarindoshlarida, naslda mavjudligi hamda qonda B-xujayrali D8\17 markerning topilishi nisbatan 2,5 marta ko'proq kuzatiladi. Hozirgi vaqtda revmatizmning latent va surunkali shakllari streptokokkning ko'p yillik bitsillin profilaktikasidan keyin aniqlangan, organ

va to'qimalarda persistirlovchi, fagotsitozga uchramaydigan va antibiotiklar ta'siriga chidamli qobiqsiz L - shakliga o'tishi bilan tushuntiriladi. Anginani boshidan o'tqazgan faqat 0,2-0,3 foiz % shaxslarga revmatizm bilan kasallanadi, ya'ni u streptokokk infeksiyasiga sezgir organizmlarda rivojlanadi. Kasallik asosan ota-onaga va boshqa bolalari kasallangan oilalarda ko'p uchraydi. Bu esa «oilaviy revmatizm» tushunchasi hosil bo'lishiga olib keladi. Revmatizm streptokokka nisbatan genetik immun yetishmovchiligi bor shaxslarda rivojlanadi, ya'ni bu kasallik irsiy moyillikka ega, lekin shu bilan bir qatorda kasallik rivojlanishida tashqi muhit omillari ham muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi vaqtgacha streptokokkning «revmatogen» shtammlari borligi to'g'risidagi masala taxlil qilinadi. Stellerman ko'rsatishi bo'yicha «revmatogen» shtammlarga liloproteinazasini yo'qotgan (xiralashish omili) streptokokklar qiradi. U kardit, artrit, xoreya va revmatizmning boshqa ko'rinishlari rivojlanishi turli «revmatogen» streptokokk shtammlariga bog'liqligini aytib o'tgan. Bu nuqtai nazarga boshqa mualliflar revmatizm bilan kasallangan bemorlar tomog'ida kasallikning aktiv fazasida 15-20 xil streptokokk serotipi aniqlanishini va ular klinik sog'lom shaxslar, boshqa streptokokk infeksiyasi bemorlarda ham uchrashi haqidagi ma'lumotlarni qarshi qo'yadilar. Genetik markerlarni tekshirish shuni ko'rsatadiki, revmatizm bilan kasallangan bemorlar ichida. A va V qon guruhli shaxslar ko'pchilikni tashkil etadi. V guruh qoniga ega bo'lgan, revmatizm bilan kasallangan bemorlarda antistreptolizin - O ning yuqori titri aniqlangan, bu esa bu guruh qoniga ega bo'lgan shaxslarning streptokokka nisbatan yuqori sezuvchanligidan dalolat beradi.

A.I.Strukov biriktiruvchi to'qima dezorganizatsiyasining 4 bosqichini farqlagan:

- 1.Mukoid bo'kish.
- 2.Fibrinoid bo'kish.
- 3.Granulematoz bosqich.
- 4.Chandiqlanish bosqichi.

Klinitsistlar uchun mukoid bo'kish bosqichini ajratish muxim bo'lib, bunda davolash qancha erta boshlansa, patologik jarayonni shuncha tez ortga qaytarish mumkin. Fibronoid bo'kish bosqichida biriktiruvchi to'qimaning chuqurroq destruktiviyasi kuzatiladi. Davolash olib borilganda jarayonni orqaga qaytarish extimolliga kamroq. Ikkala bosqich

revmatik jarayon borligidan dalolat beradi va morfologik jihatdan bola organizmiga kuproq xos bo'lgan eksudativ komponent sifatida namoyon bo'ladi. Nospetsifik eksudativ komponentning rivojlanish darajasi revmatizmning klinik o'zgarishlari og'irligi bilan bog'liq (miokardit, xoreya, poliserozlar). Ashoff-Talalayev granulomalari yurak devori va klapani, endokarda, fibroz xalqada, perikarda, qon tomirlar devorida va boshqa a'zolar biriktiruvchi to'qimasida uchraydi. Ular xujayraviy elementlar to'plami bo'lib, biriktiruvchi to'qima dezorganizatsiyasi maxsulotlarini yo'qotishga qaratilgan sustkor tipdagi xujayraviy immun reaksiyani belgilaydi, markazida proliferatsiyalanuvchi va gipertrofiyalangan gistiotsitlar saqlaydi. Bu granulomada fiksatsiyalangan immun komplekslar topilishi bilan tasdiqlanadi (turga hoslik). Granulomaning rivojlanish sikli 3-4 oy.

O'tkir - yorqin, keskin klinik ko'rinishli, polisindromli, laborator ko'rsatkichlar jarayonning yuqori aktivligini bildiradi, kasallikning dinamikasi 2-3 oy davom etadi, yurak nuqsoni kam shakllanadi, bunday kechish ko'prok revmatizm uchraydi.

O'tkir osti klinik simptomlar rivojlanishi asta-sekin, polisindromlik kamroq xos, kasallik davomiyligi 2-6 oy, ko'pincha yurak nuqsoni shakllanadi. Antirevmatik terapiya samarasi kamroq ifodalangan.

Cho'zilga-sust-torpid kechish, kasallik 4-6 oy davom etadi, yaqqol xurujlarsiz, lekin remissiyasiz, bunda revmokatit kam yoki o'rta aktivlikka ega bo'lib, yurak nuqsoni davolanishga qaramasdan ko'proq shakllanadi.

Uzliksiz-qaytalanuvchi juda og'ir kechadi, ko'pincha katta yoshdagi bolalarda uchraydi va polisindromik, yaqqol avj olish bilan xarakterlanib, davolash natijasida axvolining yomonlashuvi bilan to'liqsiz remissiyaga o'tadi. Yashirin-aktiv faza yo'q, oldin ham bo'lmagan, revmatik anamnezi yo'k, yurak nuqsoni tezda aniqlanadi.

Revmatizmning tashhis mezonlari. Revmatizmning tashhis mezonlari birinchi marta 1930-1938 y bolalar revmatizmi ilmiy asoschisi A.A.Kisel tomonidan yaratilgan. Keyinchalik ular Jones tomonidan 1944 y qayta ishlangan. A.I. Nesterov ularni 2 ta punkt bilan to'ldirdi. Asosiy (katta, spetsifik) va ko'shimcha (kichik, nospetsifik) diagnostik mezonlar farq qilinadi.

Revmatizmning diagnostik mezonlari	
Asosiy:	Qushimcha:
Kardit	Isitma
Poliartrit	Artralgiya
Xoreya	Leykotsitoz, EChT oshishi
Revmatik tugunchalar	EKG da P-Q uzayishi
Annulyar toshmalar	Serologik va biokimik ko'rsatkichlar
Utkazilgan streptokokk kasallik bilan bog'liqligi	Kapilyarlar o'tkazuvchanligining oshishi
Antirevmatik terapiya samaradorligi	Charchash, qorin sohasida og'riq, burundan qon ketish

Shu bilan bir vaqtda bemor ahvoli og'irlashadi ortopnoe, bo'yin venalari shishi yuzaga keladi. Qorinda og'riq bo'lishi mumkin, shishlar, jigar kattalashgan, zichlashgan, og'riqli. Yurak va bug'imlar zararlanishi bilan birga jarayonga MNS qo'shiladi (xoreya, ensefalopatiya, meningoensefalit, neyrovrevmatizm). Bolalarda ko'proq xoreya uchraydi (sidengam xoreyasi). Xoreya revmatizm manifestatsiyasi bo'lishi mumkin va har doim jarayonning faolligidan dalolat beradi, cho'zilgan va o'zgargan shakllari ham bo'lishi mumkin. Xoreya bilan nerv tizimda total yetishmovchiligi bo'lgan 5-10 yoshdagi bolalar, lekin ko'pincha pubertat davridagi bolalar kasallanadi. Xoreyaga uzun yashirin davr xos. Bola g'ayritabiy harakatlar qiladi; bo'shshadi, xoitirasi, imlosi, yurish-turishi o'zgaradi, yig'loqi, qo'zg'ialuvchan bo'lib qoladi. Bemorni ob'ektiv tekshirilganda triada simptomlari xos:

-ixtiyorsiz, distal, cheksiz giperkinetlar;

- mushakli gipotoniya;
- koordinatsiya buzilishi;

Nevrologik statusda pay refleklari uchraydi, asosan tizza refleksi ("+" Gerdon refleksi), Cherni simptomi (nafas organda qorin old devorining tushishi), Romberg holatida turg'unsizlik, "ilviragan yelka" simptomi, Filatov ko'zi va tili (bemor ko'zini zich kisilgan holatida uzoq vaqt tutib turolmaydi, chiqarilgan tili tortishib turadi). Giperkinetlar hayajonlanganda kuchayadi va uyku vaqtida to'la yo'qoladi. Simptomlar qaytar o'zgarishlari 1,5 — 3 oy davomida yuzaga keladi. Xoreya retsidivlanadi va uning fonida ko'pincha yurak no'soni shakllanadi.

Kam uchraydigan simptomlarga anulyar toshmalar va revmatik tugunchalar qiradi. Anulyar toshma dumaloq-oqish markazli pushti-qizil rangdagi dog' bo'lib, asosan qorin, ko'krak qafasining yon yuzalarida, yelka va son ichki yuzasida, buyinida yurkada joylashadi. Toshma ko'pincha

kasallik boshlanishida xosil bo'lib, uzoq saklanmaydi. U boshqa patologik holatlar (sur. Tonzillit, ORVI) da ham uchraydi, shuning uchun diagnostik ahamiyati kam. hozirgi vaqtda kamdan-kam holda avvallari kasallikning og'ir kelgan turida aniqlagan revmatik tugunlarni ko'rish mumkin. Tugunchalar bir necha kundan bir necha oygacha saqlanib qoluvchi, pay, aponevrozlar soxasida dumolok, zich bittalab yoki ko'plab joylashuvchi 2-8 mm og'riqsiz xosilalardir. Ba'zan revmatizm abdominal sindromdan boshlanadi. Shiddatli boshlanish, kuchli isitma, qorindagi og'riqlar, qondagi yallig'lanish xarakteridagi o'zgarishlar bemorni xirurgik bo'limiga gospitalizatsiyasiga ko'rsatma bo'ladi. Abdominal sindrom o'tkir boshlangan qorin parda seroz yallig'lanishi va keyingi aspektik eksudativ peritonit natijast hisoblanadi.

Revmatizmda buyrak zararlanishi siydik sindromi: o'rta darajadagi proteinuriya, leykotsituriya, kam holda eritrotsituriya bilan ifodalanadi. Bu o'zgarishlar xavfsizroq hisoblanadi. G.Klinik belgilar bilan bir qatorda laborator ko'rsatkichlarda ham xarakterli o'zgarishlar kuzatiladi. Faol revmatik jarayonida E.Ch.T. 30 mm/s dan oshadi, lekin tezda gormonoterapiya fonida pasayadi. Qon taxlilida leykotsitar formula chapga siljiydi. (tayoqcha yadroli neytorfillar miqdori oshadi). Leykotsitlar miqdori oshishi mumkin. Gemoglobin mikdori kamayadi va rang ko'rsatkich kamayadi, siydikda eritrotsitlar ko'rish maydonda 10-12 ta va kam hollarda 50-80 bo'lishi mumkin (nefrit). Siydik bilan chiquvchi oqsil miqtosori kam va revmatik infeksiya og'irligiga bog'liq, o'rtacha leykotsituriya kuzatilishi mumkin. Qon immunobioximik taxlillarida: ASL-O, AKS, ASG (norma! :250-500)titrlari, DFA reaksiya ko'rsatkichlari (norma 0,210 YeD optik zichlik), seromukoid (norma 0,180 YeD gacha) ko'rsatkichlarning oshishi, S-reaktiv oqsil topilishi (normada yuk, fibrinogen normada 9,2 mkmmol/l gacha) miqdorning qonning fibrinolitik aktivligi susayganda oshishi kuzatiladi. Oqsil fraksiyalari o'zgarishi: aktiv globulinlar oshishi xos. Revmatizm diagnostikasida laborator ko'rsatkichlar emas, klinika muhim ahamiyatga ega.

Solishtirma tashhis usuli. Revmatizni qatro yurak, bo'g'im, MNS kasalliklari bilan solishtirib ko'rish zarur. Dekompensirlangan surunkali tonzillitni revmatizm bilan umumiy holsizlik, charchash, poliartrologik subfebrilitet kabilar yaqinlashtiradi, hamda bemorni tekshirganda taxikardiya, sistolik shovqin ekstrasistoliya aniqlanadi. Ba'zan kattalashmagan murtaklar (toksik-allergik) bola organizmiga toksik-allergik ta'sir ko'rsatib, gipertoniya va yuqori immunobioximik ko'rsatkichlar bilan kechadi. Tashhis qo'yishda tonzilning faqat avj olganda o'zgarishlar yuzaga kelishi (yashirin oraliq vaqti yo'q) yordam beradi, yurak organik zararlanish simptomlari bo'lmaydi. Virusli miokardit revmatizdan ORVI bilan bog'liqligi, ekstrakrdial ko'rinishlari yo'qligi, kasallik erta (5-6 yoshgacha) boshlanishi bilan farq qiladi, miokardial yetishmovchilik asosiy o'ringa chiqadi, laborator ko'rsatkichlar normada bo'lib, yurak klapanlari nuqsoni shakllanmaydi.

Yurak uzoq vaqt jarayonga qo'shilmaydi. Yallig'lanishga qarshi terapiya kam samara beradi. Osteomiyelit antibakterial terapiya qilishga qaramasdan yuqori harorat bilan kechuvchi, travma bilan bog'liqligi, bitta

bo'g'imning chegaralangan shikastlanishi, og'riqni giperemiya va shishli joyda maksimal bo'lishi, intoksikatsiya belgilari tez o'sib borishi bilan xarakterlanadi. Monoartritda, ayniqsa tosson bo'g'imida silning asorati emasligini xisobga olish kerak. Poliartrit leykozning birinchi ko'rinishi bo'lishi mumkin, bunda umumiy qon taxlilida o'zgarishlar aniqlanmaydi. Bo'g'im sindromi kardit belgilarisiz kechishi, periferik limfa tugunlari, jigar, taloq kattalashishi, anemiya leykozga shubxa qilishga yordam beradi. Dignostika stretokokk infeksiyasiga bog'liq bo'lmagan, tana harorati oshmaydigan, intoksikatsiya belgilarisiz kechuvchi nevroz harakatlari (tiklar) bilan solishtirma tahlil o'tkazish kerak. Umumiy holati o'zgamargan, proksimal giperkinezlar mavjud, lekin katta amplitudada emas, mushakli gipotoniya yuk. Kasallik oylab va yillab davom etadi, bolani o'zini tutishadi o'zgarishlar MNS ning organik shikastlanishi belgilari ham bor.

Davolash usullari. Bolalarda revmatizmi davolash erta, kompleks, bosqichli (statsionar, revmatik sanatoriy, dispenser, uzoq davom etishi 3-4 oydan kam emas) kerak.

A. 1-bosqich. Statsionar davolash-kompleksli terapiyaning birinchi, asosiy bosqichlarini u o'z ichiga oladi.

1. bolaga moslanuvchi davolovchi gimnastika mashg'ulotlari bilan davolash - harakatlanuvchi rejimni ta'minlash (funksional reabilitatsiya)

2. medikamentoz terapiya qo'llash (patogenetik davo)

3. surunkali infeksiya o'choqlarini sanatsiya qilish.

Statsionarda o'tkir revmatizm bilan kasallangan bemorlarni yaqqalash maqsadga muvofik, chunki u streptokokk tashuvchisi hisoblanadi. Bo'limda davolash-harakat rejim aniqlanadi. Yotoq rejimi 2-3 hafta yeki ko'proqqa (kardit ogirligiga karab) belgilanadi. So'ng bolani yarim yotoq rejimiga (xojatxonaga, stolga, muolajaga turishga ruhsat beriladi), keyinchalik shugullanuvchi rejimga o'tkaziladi. Birinchi rejimdan ikkinchisiga o'tkazishda klinik-laborator ko'rsatkichlar nazoratga olib boriladi. Uzoq vaqt toza havoda yurish katta ahamiyatga ega. Ovqatlanishi to'la sifatli bo'lishi kerak, gormonoterapiyada ovqat tarkibidagi K+ tuzlarini oshirish, osh tuzini kamaytirish maqsadga muvofik.

**Xulosa.** Tibbiy o'qitishni yo'lga qo'yishda tibbiy ko'nikmalarni egallanganlik darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish muhimdir. Muloqot jarayonida o'qituvchi va talaba orasidagi faol ikki tomonlama muloqot, bilim va ko'nikmalarning egallashga va hosil bo'lishiga ko'maklashadi. Yordam va nazorat usuli. Tibbiy o'qitishni tashkil etishda o'quv jarayonida tibbiy ko'nikmalar qanday metodik yondashuv asosida o'rgatilishi rejalaniishi lozim va ularning egallanishida duch kelayotgan turli-xil vaziyatdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda tibbiy kompetentlikka erishishga yo'naltirilishi muhim ahamiyatga ega. Tibbiy ko'nikmalarni a'lo darajada egallash konsepsiyalarini qo'llash. Yangi ko'nikmalarni o'zlashtirishda o'qitishning insonparvarlik usullarini qo'llash muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. An'anaviy o'qitish usullaridan farqli ravishda amaliyot orqali o'qitishdir. Talaba tibbiy amaliy ko'nikmani o'qituvchi bevosita bajarib ko'rsatganda uni tezroq egallaydi. Har bir tibbiy amaliy ko'nikma qadamlarga ajratilishi lozim. Talaba har bir ko'nikmani qadamma-qadam bajara borib avtomatizm darajasigacha erishishiga qaratilishi lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. Axmedova M.E.. Tibbiy ta'lim uchun. Pedagogika. Darslik. "Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ. Toshkent - 2022. 223 bet.
2. Зернов Н.Г., Тарасов О.Ф.. Семиотика детских болезней. Москва, 1984
3. Исаева Л.А.. Детские болезни Москва, 1994.
4. Греф Дж.. Педиатрия (перевод с английского). Москва, 1997.
5. Сушко Е.П. и соавт. Детские болезни. Минск, 1998.
6. Ричард П. Полин, Марк Ф. Диттмар. Секреты педиатрии. 1999.
7. Шабалов Н.П.. Детские болезни. Санкт - Петербург, 2006.



**Husan ARZIQULOV,**  
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
E-mail: arziqulovhusannormurodovich@gmail.com  
**Gulyora XUDOYBERDIYEVA,**  
Navoiy davlat pedagogika instituti matematika-informatika fakulteti talabasi

NavDPI dotsenti, PhD S.Xolikov taqrizi asosida

## USE OF BLENDER AND 3D MAX PROGRAMS IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL GRAPHIC COMPETENCE OF FUTURE INFORMATICS TEACHERS

Annotation

This article analyzes the role of graphic programs such as Blender and 3D Max in the process of developing the professional graphic competence of future informatics teachers. The possibilities of creating various graphic resources in the educational process are described. It explains how these programs help teachers improve their skills in design, animation, and creating multimedia learning resources. The article examines scientific approaches to these issues, the possibilities of using technological tools and software, and provides clear directions for the professional growth of future informatics teachers.

**Key words:** Professional competence, creative thinking, computer graphics, blender program, 3D Max program, 3D modeling, 3D design and animation.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММ BLENDER И 3D MAX В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ

Аннотация

В данной статье анализируется роль графических программ, таких как Blender и 3D Max, в процессе развития профессиональной графической компетентности будущих учителей информатики, описываются возможности создания различных графических ресурсов в образовательном процессе. В нем объясняется, как эти программы помогают учителям улучшить свои навыки в области дизайна, анимации и создания мультимедийных учебных ресурсов. В статье рассматриваются научные подходы к этим вопросам, возможности использования технологических средств и программного обеспечения, а также приводятся четкие направления профессионального роста будущих учителей информатики.

**Ключевые слова:** Профессиональная компетентность, творческое мышление, компьютерная графика, программа blender, программа 3D Max, 3D-моделирование, 3D-дизайн и анимация.

## BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINING KASBIY GRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BLENDER HAMDA 3D MAX DASTRULARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish jarayonida Blender va 3D Max kabi grafik dasturlarning roli tahlil qilinadi Blender va 3D Max dasturlaridan foydalanishning afzalliklari, turli xil grafik resurslarni yaratish imkoniyatlari bayon etiladi. Ushbu dasturlarning o‘qituvchilarga dizayn, animatsiya va multimedia ta‘lim resurslarini yaratish bo‘yicha malakalarini oshirishga yordam berishi tushuntiriladi. Maqola ushbu masalalar bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni, texnologik vositalar va dasturiy ta‘minotdan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganib, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy o‘shishiga yordam beradigan aniq yo‘nalishlarni taqdim etadi.

**Kalit so‘zlar:** Kasbiy kompetentlik, ijodiy fikrlash, kompyuter grafikasi, Blender dasturi, 3D Max dasturi, 3D modellashtirish, 3D dizayn va animatsiya.

**Kirish.** Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishda bir nechta muhim usullar mavjud. Ushbu kompetentlikni rivojlantirish orqali informatika o‘qituvchilari zamonaviy texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llash, ijodiy fikrlash, va grafik vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini oshiradilar.

Oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – kreativ fikrlaydigan va kasbiy kompetensiyalarga ega bitiruvchilarni tayyorlashdan iborat. Buning uchun esa oliy ta‘lim muassasalarida muxassislarning tayyorlashga qo‘yilgan malaka talablarida ta‘lim ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarishni ta‘minlaydigan yangi yondashuvlarni joriy etishni, ya‘ni raqamli o‘quv vositalar va ilg‘or pedagogik texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini tashkil etishni taqozo etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Oliy ta‘lim muassasalari talabalarining kompetentligini rivojlantirish

nazariyasi va amaliyoti hamda metodikasiga oid izlanishlar S.M.Abdiyeva, F.X.Xazratov, Sh.U.Eshonqulov, R.M.Sadikov, G.J.Abilova, D.M.Kambarova, Z.K.Kurbaniyazova, U.N.Ibragimov, N.Y.Qurbonov, M.R.Kadirova, N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To‘rayev, Q.Abdullayeva, T.M.Sorokina, V.V.Demidov, N.M.Slautina, Y.V.Puziyenko, M.G.Daurov, YE.V.Shostak, YE.B.Bashkin, YE.V.Timoxina, O.A.Volkova va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Keltirilgan olimlarning ishlarida oliy ta‘lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda turlicha fikr va mulohazalar hamda yondashuvlarni ilgari surgan. [1]

Xususan, G.M.Kodjaspirovning fikriga ko‘ra, “o‘qituvchi malakali o‘qituvchi bo‘lishi uchun muayyan pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishi kerak”, deb hisoblaydi [2]. N.A.Muslimov va K.Abdullayevalarning fikricha,



kompetentlik – olingan nazariy bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish darajasi, bu ham talabning amaliyot jarayonida va oliy ta'limdan keyingi faoliyatida shakllanib boradi [3].

Shu bilan birga hozirgi vaqtda butun jamiyatning e'tibori kasbiy kompetentlik masalasiga qaratilib, pedagogika sohasida o'qituvchilarning kasbiy muammosini har tomonlama tahlil qilishga oid izlanishlar olib borilmoqda va kasbiy kompetentlikka oid olimlar tomonidan turlicha ta'riflar keltirilgan [4].

Keltirilgan olimlarning ishlarini tahliliga ko'ra, bugungi kunda bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kompyuter grafik dasturlardan foydalanish zarurati tug'ilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishda "Blender" va "3D Max" dasturlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu dasturlar grafika, dizayn va 3D modellashtirish bo'yicha fundamental bilimlarni rivojlantirishda yordam beradi va ularning kasbiy tayyorgarligini oshiradi.

Blender – ochiq manbali, bepul dastur bo'lib, 3D model yaratish, vizual effektlar (VFX), animatsiya, rendering va video tahrirlash imkonini beradi. Dasturda 3D model yaratish va tahrirlash uchun turli xil vositalar mavjud. Blenderni informatika o'qituvchilari uchun o'qitish jarayonida qo'llash orqali ular 3D dizayn va animatsiya sohasidagi yangi texnologiyalar va usullar bilan tanishadilar. Bu ularning grafika dizayni va animatsiya sohasida ham kasbiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3D Studio Max (yoki 3d Max) – bu Autodesk kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va grafik dizaynerlar, me'morlar, muhandislar, o'yinlar ishlab chiquvchilari va animatsion filmlar yaratishda keng qo'llaniladigan dasturiy ta'minot.

3D Max asosan yuqori sifatli 3D modellarni yaratish, rendering va animatsiya qilish uchun qo'llaniladi. 3D Maxdan foydalanish orqali informatika o'qituvchilari o'zlarining 3D grafiklar, animatsiyalar va virtual muhitlar yaratish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu o'z navbatida o'quvchilar uchun ham qiziqarli va samarali ta'lim jarayonini yaratishga yordam beradi.

Blender va 3D Max dasturlaridan foydalanishning afzalliklariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak: Yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish: Ushbu dasturlardan foydalanish bo'lajak informatika o'qituvchilarining ta'lim berish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini oshiradi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish: Grafik dizayn va 3D modellashtirish orqali bo'lajak o'qituvchilar o'z ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Blender va 3D Max dasturlari bilan ishlash informatika o'qituvchilariga raqamli texnologiyalar bo'yicha yanada chuqurroq bilim va ko'nikmalarni egallash imkoniyatini beradi.

Bu dasturlar orqali o'qituvchilar nafaqat zamonaviy grafik texnologiyalardan foydalanishni o'rganadilar, balki

ta'limda innovatsion yondashuvlar yaratishga ham xizmat qiladi.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish nazarga tutilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Tahlil va natijalar.

I. Maxsus kurs va dasturlarni tashkil etish: Grafik dizayn va 3D modellashtirish kurslari: Informatika o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirish uchun grafik dizayn, 3D modellashtirish, animatsiya, va multimedia texnologiyalari bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish. Ushbu kurslarda "Blender", "3D Max" kabi dasturlarni o'rganish, amaliy loyihalar ustida ishlash va tajriba almashish muhim.

II. Mustaqil bajarishlari uchun o'quv-metodik materiallar yaratish: Raqamli qo'llanmalar va videodarsliklar: Grafik dizayn va 3D modellashtirish bo'yicha qo'llanmalar, videodarsliklar va o'quv materiallarini ishlab chiqish.

Ushbu materiallar o'qituvchilar uchun mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ishchi daftarlar va resurslar: Dars jarayonida foydalanish uchun turli xil grafik resurslar, masalan, andozalar, grafik elementlar, mashq topshiriqlari va boshqa amaliy materiallar yaratish.

III. Zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish: Yangi dasturlarni o'rganish: Blender, 3D Max kabi dasturlardan tashqari, grafik dizayn, raqamli san'at va animatsiya sohasidagi yangi texnologiya va dasturlardan xabardor qilish. Virtual reallik (VR) va qo'shilgan reallik (AR): Ushbu texnologiyalarni ta'limda qo'llash imkoniyatlari haqida o'rgatish va ulardan foydalanishni o'rgatish.

IV. O'quvchilar bilan ishlashda interaktiv usullarni qo'llash:

Interaktiv darslar va loyiha ishlari: Dars jarayonida o'quvchilar bilan birgalikda grafik dizayn va 3D modellashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish. Bu o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va o'qituvchilarga amaliy tajriba beradi. Ko'rgazma va taqdimotlar: Yaratuvchanlik va ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun grafik loyihalarni ko'rgazma qilish va taqdimotlar o'tkazish.

V. Axborot texnologiyalari bo'yicha innovatsion tadqiqotlar: Innovatsion yondashuvlarni o'rganish: Grafik dizayn va 3D modellashtirish sohasida tadqiqot ishlarini olib borish, yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qanday samarali tatbiq etish mumkinligini o'rganish. Bu tadbirlar orqali informatika o'qituvchilari nafaqat grafik dizayn va 3D modellashtirish bo'yicha malakalarini oshirishlari, balki zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini ham rivojlantirishlari mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Bu kabi dasturlar bilan ishlashni, ular yordamida turli loyihalar va veb ilovalar, saytlar tayyorlashni bo'lajak informatika o'qituvchilariga o'rgatishda qiyinchilik paydo bo'ladi. Chunki keltirilgan grafik dasturlarni to'laligicha auditoriyada bo'lajak informatika o'qituvchilarga o'rgatish imkoniyati mavjud emas. Shuning uchun bo'lajak informatika o'qituvchilarining mustaqil o'rganishga oid didaktik o'quv vositalarni va muammoli topshiriqlar to'plamini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Arziqulov H.N. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari, Mug'allim ham uzluksiz bilimlendirio', Nukus 2022-yil № 5. – 116 b.
2. Коджаспирова Г.М.. Педагогика // Учебник для студентов высших учебных заведе- ний. – М.: “Гардарики”, 2004. – 528 с.
3. Muslimov N.A., Abdullayeva Q. Bo'lajak kasb-hunar kolleji o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ayrim masalalari // “Oliy ta'lim muassasalari pedagog va boshqaruv kadrlari- ning malakasini oshirish nazariyasi va amaliyoti” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Toshkent, 2012. – B. 26-28.
4. Барышникова И. Е. Профессиональная компетентность: виды, структура и современные подходы // file:///C:/Users/User/Downloads/professionalnaya-kompetentnost-vidy-struktura-i-sovremennye-podbody.pdf



УДК:372

Zavqiddin BOZOROV,

V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Buxoro bo'linmasi katta ilmiy xodimi, Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: zavqiddinbozorov2011@mail.ru

Yulduzxon MAMATOXUNOVA,

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

NavDPI dotsenti, PhD S.Xolikov taqrizi asosida

## TO'PLAMLAR MAVZUSINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM METODI CASE-STUDY NING TATBIQI

Аннотация

Oliy ta'lim muassalarida matematika fanini o'qitishda ma'ruza mashg'ulotlarini qiziqarli, sifatli darajada tashkil etish, talabalar olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olishi, bugungi kunda ta'limning dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy o'qitish metodlaridan biri Case-Study yoritilib, undan foydalangan holda, to'plamlarning birlashmasi elementlarini sonini topishda hayotiy masalani muammo sifatida qo'yilib, mini-case lar orqali teorema va yechimlarni olish keltirilgan. Shu bilan bir qatorda ma'ruza mashg'ulotlarini o'qitish samaradorligi oshirilishi, talabalarga dars jarayonida ta'rif va teoremlarni qo'llash usullari oson va tushunarli taqdim qilingan.

**Kalit so'zlar:** Case-Study, muammoli ta'lim metodlari, to'plam, elementlar soni, to'plamlar birlashmasi, to'plamlar kesishmasi, to'plamlar ayirmasi, diagramma.

## ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА ПРОБЛЕМНОГО ОБРАЗОВАНИЯ CASE-STUDY В ОБУЧЕНИИ ТЕМЫ МНОЖЕСТВО

Аннотация

Сегодня одной из актуальных задач образования является организация интересных и качественных лекций по преподаванию математики в высших учебных заведениях, формирование у студентов навыков применения полученных знаний на практике. В данной статье описан один из современных методов обучения - Case-Study, с помощью которого реальная задача нахождения числа элементов объединения множеств ставится как проблемная задача, а теоремы и решения излагаются через мини-кейсы. Кроме того, повышается эффективность преподавания лекций, способы применения определений и теорем на уроке становятся легкими и понятными для студентов;

**Ключевые слова:** Case-Study, проблемные методы обучения, множество, число элементов, объединение множеств, пересечение множеств, разность множеств. диаграмма.

## APPLICATION OF THE CASE STUDY METHOD OF PROBLEM-BASED EDUCATION IN TEACHING THE TOPIC SETS

Annotation

Today, one of the urgent tasks of education is to organize interesting and high-quality lectures on the teaching of mathematics in higher educational institutions, and to form students' skills in applying the acquired knowledge in practice. This article describes one of the modern teaching methods - Case-Study, with the help of which the real problem of finding the number of elements of the union of sets is set as a problem, and theorems and solutions are presented through mini-cases. In addition, the effectiveness of teaching lectures increases, the methods of applying definitions and theorems in class become easy and understandable for students;

**Key words:** Case-Study, problem-based teaching methods, set, number of elements, union of sets, intersection of sets, difference of sets. diagram.

**Kirish.** Oliy ta'lim muassalarida matematikaning fundamental fanlarini dasturiy didaktik majmualar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kontekstli masalalar, muammoli masalalar, katta, o'rta va kichik modulli texnologiyalar asosida loyihalash va kompyuterning matematik dasturlari yordamida o'qitish metodikalari bo'yicha yurtimiz va xorijda bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Yurtimizda J.B Ergashev, N.M. Muxitdinova, S. Xoliqov mustaqil davlatlar hamdo'stligi bo'yicha M.V.Shurkova, Yu.A.Semenyachenko, O.I.Chiranova, M.A.Pavlova, I.V. Kuzneseva, J.I. Zayseva, N.V. Sichyeva, N.A. Demchenkova, T. S. Mamontova, M.L.Nuriyeva Xorijda esa Joys J. Asing-Keshman, Iman Mohammad Alghazo, M. Madalena, Chris Sangwin, James H. Clay, Anthony Fong, Karina Jaquet, Neal Finkelsteinlar va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'limning har bir bosqichida o'z samarasini

ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, oliy o'quv yurtlarida bo'lajak kadrlarni tarbiyalash boshlang'ich va o'rta ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo'layotgan o'zgarishlar talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifatiga yangi yondashuvlarni talab qiladi[1-3]. Kognitiv mustaqillikni rivojlantirish, uni tashkil etish vositalari kabi har doim muammoli bo'lib kelgan[4-9].

Ko'plab tadqiqotchilar yo'nalishlari va fan nuqtai nazaridan o'z izlanishlari davomida muammoli ta'lim metodlaridan samarali foydalanilib, buning ta'lim sifatidagi ahamiyati jarayonlarda yoritilib berilgan. Muammoli ta'lim metodlaridan biri Case-Study shular jumlasidandir. "Case"-inglizcha so'zdan olingan bo'lib, turli hujjatlar saqlanadigan jamadon ma'nosini bildiradi. "Study"- fan, bilim, o'rganmoq, hal qilmoq ma'nolarini bildiradi [10]. Aynan shu usuldan foydalanib darsni tashkil etish ketma-ketligini bayon qilamiz. An'anaviy o'quv amaliyotida o'qituvchi biladi, talabalar esa

muammoni yechishni o'rganayotgan teng huquqli hamkor sifatida chiqadilar[11]. Mazkur metod talabalarga muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish va bilimlarni mustahkamlash, mustaqil ishlash, mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini takomillashtirishi bilan samarali hisoblanadi.

“Case” - bu biror jarayondagi qandaydir aniq, real vaziyatning yozma tavsifidir. Undan foydalanish mobaynida talabalardan vaziyatni tahlil qilish, muammoning mohiyatini ko'rib chiqish, mumkin bo'lgan variantlarni taklif etish va ulardan va ulardan eng maqbulini tanlash so'raladi. Bu usulning diqqat markazida axborot olish turadi. Shuning uchun talabalarni mustaqil axborot izlash orqali, tizimli ravishda muammoning yechimiga olib kelinadi[12].

Pedagogika institutlari “Matematika” yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga “Algebra” asosiy fan sifatida o'tiladi. Tadqiqot doirasida biz kuzatgan mashg'ulotlar davomida talabalar fanidan to'plamlar ustida bajariladigan amallarga doir topshiriqlarni osonlik bilan hal qildilar, biroq teoremlarni isbotlashda, formulalarni keltirib chiqarishda, case

ta'riflar va tushunchalarni bir-biriga bog'lashda bir qancha muammolarga duch keldilar.

Ma'ruza mashg'ulotini tashkil etishni Case lar orqali, bosqichma-bosqich keltiramiz. Bunda avval to'plamlar mavzusiga doir hayotiy bir masala muammo sifatida doskada keltiriladi. Talabalardan masalani yechish bo'yicha fikrlar tinglanadi va mavzu boshlanadi.

Masala.Yozgi maktabda talabalar uchun yengil atletika, dzyudo va suzish to'garaklari tashkil etilgan. Talabalarining 45 nafari atletika, 38 nafari dzyudo to'garagiga, 32 nafar talaba suzish to'garagiga qatnashmoqda. Talabalarining 13 nafari atletika va dzyudo to'garagiga, 10 nafar talaba atletika va suzish to'garagiga, 8 nafar talaba dzyudo va suzish to'garagiga va 5 nafar talaba barcha to'garaklarga qatnashmoqda. Yozgi maktabda jami nechta talaba bor.

Dastlab talabalarga avvalgi bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash uchun mini case taqdim etamiz.

Berilgan to'plamlar ustida amallarni bajarung.			
№	Misol	Talabani yechimi	Javob
1	Agar $A = \{a, b, c, e\}$ , $B = \{s, d, f, g\}$ bo'lsa, $A \cup B$ ni toping.		$A \cup B = \{a, b, c, e, s, d, f, g\}$
2	Agar $A = \{2, 3, 4\}$ , $B = \{3, 7, 8, 9\}$ , $C = \{1, 3, 5, 9, 10\}$ bo'lsa, $A \cap B \cap C$ va $(B \cap C) \cup (A \cap B) \cup (A \cap C)$ ni toping.		$A \cap B \cap C = 3$ $(B \cap C) \cup (A \cap B) \cup (A \cap C) = \{3, 9\}$
3	Agar $A = \{x   -1 \leq x \leq 5, x \in Z\}$ , $B = \{x   3 \leq x \leq 12, x \in Z\}$ bo'lsa, $A \cup B$ , $A \cap B$ va $A \setminus B$ ni toping.		$A \cup B = \{x   -1 \leq x \leq 12, x \in Z\}$ $A \cap B = \{x   3 \leq x \leq 5, x \in Z\}$ $A \setminus B$


Talabalar case ni yechib bo'lganidan keyin, ularga kesishmaydigan ikkita  $A$  va  $B$  to'plam elementlar sonini topish vazifasini beramiz.

case

Kesishmaydigan to'plamlar birlashmasi elementlar sonini toping.			
№	Misol	Talabani yechimi	Javob
1	Agar $n(A) = 5$ , $n(B) = 6$ va $n(A \cap B) = \emptyset$ bo'lsa, $n(A \cup B)$ ni toping.		$n(A \cup B) = 11$
2	Agar $n(A) = 8$ , $n(B) = 7$ va $n(A \cap B) = \emptyset$ bo'lsa, $n(A \cup B)$ ni toping.		$n(A \cup B) = 15$

Ma'lumki, kesishmaydigan  $A$  va  $B$  chekli to'plamlarning birlashmasidagi elementlar soni  $A$  va  $B$  to'plamlar elementlari sonlarning yig'indisiga teng (1-rasm):

$$n(A \cup B) = n(A) + n(B).$$



1-rasm

2-rasm.

1-teorema. Agar ixtiyoriy  $A$  va  $B$  chekli to'plamlar uchun ushbu tenglik o'rinli:

$$n(A \cup B) = n(A) + n(B) - n(A \cap B) \quad (1)$$

Isbot. Agar  $A \cap B = \emptyset$  bo'lsa,  $n(A \cap B) = 0$  bo'lib,  $n(A \cup B) = n(A) + n(B)$  ifoda o'rinli bo'ladi. Agar  $A \cap B \neq \emptyset$  bo'lsa, u holda  $A \cup B$  to'plamni uchta juft-jufti bilan kesishmaydigan to'plamlarning birlashmasi ko'rinishida tasvirlash mumkin.

$$A \cup B = (A \setminus (A \cap B)) \cup (B \setminus (A \cap B)) \cup (A \cap B) \quad (2)$$

$(A \setminus (A \cap B))$ ,  $(B \setminus (A \cap B))$  va  $(A \cap B)$  to'plamlardagi elementlari soni mos ravishda  $n(A) - n(A \cap B)$ ,  $n(B) - n(A \cap B)$ ,  $n(A \cap B)$  ga teng.

Jamlash qoidasiga ko'ra, (2) tenglikdan

$$n(A \cup B) = (n(A) - n(A \cap B)) + (n(B) - n(A \cap B)) + n(A \cap B) =$$

$$= n(A) + n(B) - n(A \cap B),$$

ya'ni (1) tenglikni hosil bo'ladi.

Masala. Tajriba sinov o'tkazish uchun 100 kishidan iborat talabalar guruhi xorijiy davlatga yo'lga chiqishdi. Talabalar guruhida 70 kishi ingliz tilini, 45 kishi fransuz

tilini, 23 kishi esa ikkala tilni ham biladi. Guruhda nechta talaba ingliz tilini ham, fransuz tilini ham bilmaydi.

Yechish: Berilgan guruhdagi ingliz tilini biladigan talabalar to'plamini  $A$ , fransuz tilini biladigan talabalar

to'plamini  $B$  bilan belgilaymiz. U holda ham ingliz tilini, fransuz tilini biladigan talabalar to'plami  $A \cap B$  to'plamdan, shu ikki tildan hech bo'lmasa bittasini biladigan talabalar to'plami esa  $A \cup B$  to'plamdan iborat bo'ladi.

Shartga ko'ra,  $n(A) = 70$ ,  $n(B) = 45$ ,  $n(A \cap B) = 23$ . (1) tenglikdan  $n(A \cup B) = 70 + 45 - 23 = 92$ .

Case.

To'g'arak turlari.	To'plam	To'plam elementlari soni	To'plam		
			A	B	C
Yengil atletika	A	$n(A) = 45$		$n(A \cap B) = 13$	$n(A \cap C) = 10$
Dzyudo	B	$n(A) = 38$	$n(A \cap B) = 13$		$n(B \cap C) = 8$
Suzish	C	$n(A) = 32$	$n(A \cap C) = 10$	$n(B \cap C) = 8$	

Masala shartiga ko'ra  $n(A \cap B \cap C) = 5$  ga teng.

Berilgan masalaning yechimini  $B \cup C = D$  belgilash orqali (1) tenglikka keltirib olamiz. belgilash kiritib olamiz:

$$n(A \cup B \cup C) = n(A \cup D) = n(A) + n(D) - n(A \cap D) \quad (3)$$

ekanligi kelib chiqadi. (1) tenglikdan ma'lumki,  $n(D) = n(B \cup C) = n(B) + n(C) - n(B \cap C)$  ga teng. Agar  $A \cap D = A \cap (B \cup C) = (A \cap B) \cup (A \cap C)$  ekanligidan  $n(A \cap D)$  ifodani quyidagicha yozishimiz mumkin bo'ladi:  $n(A \cap D) = n((A \cap B) \cup (A \cap C)) = n(A \cap B) + n(A \cap C) - n[(A \cap B) \cap (A \cap C)]$

$$n(A \cap B) + n(A \cap C) - n(A \cap B \cap C) \quad (4)$$

(3) tenglikni (4) tenglik orqali ifodalasak, biz ushbu ifodaga

$$n(A \cup B \cup C) = n(A) + n(B) + n(C) - n(A \cap B) -$$

Shunday qilib, 92 kishi ingliz va fransuz tillaridan hech bo'lmaganda bittasini biladi,  $100 - 92 = 8$  kishi esa ikkala tilni ham bilmaydi.

Talabalar bilan ikki to'planning elementlarini topish masalasi ko'rildi. Endi yuqorida birinchi qo'yilgan masalani ham ushbu ketma-ketlikda bajaramiz.

$$-n(A \cap C) - n(B \cap C) + n(A \cap B \cap C)$$

ega bo'lamiz, bundan esa  $n(A \cap B \cap C) = 45 + 38 + 32 - 13 - 10 - 8 + 5 = 89$  kelib chiqadi.

Javob: 89 talaba yozgi maktabda dam olmoqda.

Talabalar hayotiy masalani olgan bilimlarini mustahkamlab, tasavvur qilgan holda yechimini topishdi. Shu bilan bir qatorda osonlikdan qiyinlikka yondashgan holda, formulalarni ham isbotlashdi.

Xulosa o'rinda shuni keltirishimiz mumkinki, muammoli ta'lim metodlaridan foydalanib ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish, dars jarayonlarini samarali va sifatli tashkil etishga yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Володина С. А., Филиппов С.П. Мотивационная готовность студентов к освоению педагогической деятельности/ Проблема современного образования. № 1-2021
2. Высшее образование в немецкой и русской традициях: колл. моногр. / М. В. Богуславский, Е. В. Неборский, В. В. Неборская [и др.]; под общ. ред. М. В. Богуславского. Ижевск: Ин-т компьютерных исследований, 2016. 272 с.
3. Володина С. А. Мотивация обучения современных студентов педагогического вуза // Преподаватель XXI век. 2014. № 4. С. 68–72
4. Развитие познавательной самостоятельности учащихся 5–9 классов при изучении математики на основе учебных задач. Д. Н. Камалова, В. А. Соломенникова
5. Махмутов М. И. Организация проблемного обучения в школе. Книга для учителей. М.: Просвещение, 1977. 340 с.
6. Скаткин М. Н. В творческом поиске // Педагогический поиск / сост. И. Н. Баженова. 2-е изд., с испр. и доп. М.: Педагогика, 1990. С. 3–8.
7. Лернер И. Я. Критерии уровней познавательной самостоятельности учащихся // Новые исследования в педагогических науках. 1971. № 4. С. 34–39.
8. Пидкасистый П. И. Самостоятельная деятельность учащихся. М.: Педагогика, 1980. 240 с.
9. Краткий словарь современной педагогики / под ред. Л. Н. Юмсуновой. Улан-Удэ: Изд-во Бурятского госун-та, 2001. 100 с.
10. Козина И. "Case-study" некоторые методические проблемы. Рубеж, 1997
11. Abduqodirov A.A., Astonova F.A., "Case-study uslubi, nazariyasi, amaliyot va tajriba. "Tafakkur qanoti" 2012, 134-b.
12. Abduqodirova F., Abduqodirov A.A., Keys texnologiyasi va undan matematika darslarida foydalanish metodikasi. Yosh matematiklarning yangi teoremlari-2013 respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami.



UDK 372.8

**Mohichexra BOLTAYEVA,**  
*O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali dotsenti v.b., PhD*  
*E-mail: bmoxichexra@bk.ru*

*Pedagogik fanlar doktori, professor T. Ismoilov taqrizi asosida*

## PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF ONLINE PLATFORMS IN HISTORY TEACHING

Annotation

The integration of online platforms into history education has fundamentally changed traditional teaching methods, creating new opportunities for increased student engagement, access to a variety of resources, and personalized learning. This article explores the pedagogical value of online platforms in history education, focusing on their role in creating an interactive and dynamic learning environment. By offering access to primary sources, multimedia content, and collaborative tools, online platforms foster critical thinking, deepen historical understanding, and encourage active student engagement. The article also discusses the challenges of implementing digital tools in history education, such as digital literacy gaps and inequities in technology access, and suggests strategies to overcome these barriers. Ultimately, online platforms have great potential to transform history education, making it more relevant, engaging and accessible in the digital age.

**Key words:** Online platforms, history education, digital tools, interactive learning, student engagement, primary sources, multimedia, personalized learning, critical thinking, digital literacy.

## ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОНЛАЙН-ПЛАТФОРМ В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ

Аннотация

Интеграция онлайн-платформ в историческое образование фундаментально изменила традиционные методы обучения, создав новые возможности для повышения вовлеченности учащихся, доступа к разнообразным ресурсам и персонализированного обучения. В этой статье исследуется педагогическая ценность онлайн-платформ в историческом образовании, уделяя особое внимание их роли в создании интерактивной и динамичной среды обучения. Предлагая доступ к первоисточникам, мультимедийному контенту и инструментам для совместной работы, онлайн-платформы способствуют критическому мышлению, углубляют понимание истории и поощряют активное участие студентов. В статье также обсуждаются проблемы внедрения цифровых инструментов в историческое образование, такие как пробелы в цифровой грамотности и неравенство в доступе к технологиям, и предлагаются стратегии по преодолению этих барьеров. В конечном счете, онлайн-платформы обладают огромным потенциалом для преобразования исторического образования, делая его более актуальным, интересным и доступным в эпоху цифровых технологий.

**Ключевые слова:** Онлайн-платформы, историческое образование, цифровые инструменты, интерактивное обучение, вовлечение студентов, первоисточники, мультимедиа, персонализированное обучение, критическое мышление, цифровая грамотность.

## TARIX FANLARINI O'QITISHDA ONLAYN PLATFORMALARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Onlayn platformalarning tarix ta'limiga integratsiyalashuvi an'anaviy o'qitish usullarini tubdan o'zgartirib yubordi, bu esa o'quvchilarning faolligini oshirish, turli manbalardan foydalanish va shaxsiy ta'lim olish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Ushbu maqola tarixni o'qitishda onlayn platformalarning pedagogik ahamiyatini o'rganadi, ularning interaktiv va dinamik ta'lim muhitini yaratishdagi roliga e'tibor qaratadi. Birlamchi manbalar, multimedia kontenti va hamkorlik vositalariga kirishni taklif qilish orqali onlayn platformalar tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, tarixiy tushunchalarni chuqurlashtiradi va talabalarning faol ishtirokini rag'batlantiradi. Maqolada, shuningdek, tarix ta'limida raqamli savodxonlikdagi bo'shliqlar va texnologiyalardan foydalanishning tengsizligi kabi raqamli vositalarni tatbiq etish muammolari muhokama qilinadi va bu to'siqlarni bartaraf etish strategiyalari taklif etiladi. Oxir oqibat, onlayn platformalar tarix ta'limini o'zgartirish uchun katta salohiyatga ega, bu uni raqamli asrda yanada dolzarb, qiziqarli va foydalanishga imkon beradi.

**Kalit so'zlar:** Onlayn platformalar, tarix ta'limi, raqamli vositalar, interaktiv ta'lim, talabalarning faolligi, asosiy manbalar, multimedia, shaxsiylashtirilgan o'rganish, tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik.

**Kirish.** Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'limning turli jihatlarini, xususan, tarix kabi fanlarni o'qitish va o'rganishni o'zgartirdi. An'anaga ko'ra, tarix ta'limi asosan darsliklar, ma'ruzalar va jismoniy resurslarga tayanib, turli nuqtai nazarlar va dinamik tarkibga kirishni chekladi. Biroq, onlayn platformalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi ushbu statik yondashuvni interaktiv, shaxsiylashtirilgan va qiziqarli tajribaga aylantirdi.

Google Classroom, Edmodo va Coursera kabi onlayn platformalar o'quvchilarga tarixiy mazmuni yetkazish, o'qituvchilarga keng ko'lamli resurslar, o'qitish usullari va

baholash usullarini taqdim etishda muhim vositaga aylandi. Ushbu platformalar keng tarixiy arxivlar, interaktiv media va hamkorlikda o'rganish imkoniyatlariga kirishni taklif qilish orqali o'rganish tajribasini oshirish uchun mo'ljallangan. Talabalar raqamli muhitga tobora ko'proq o'rganib borayotganligi sababli, tarix ta'limida ushbu vositalardan foydalanish ularning o'rganish afzalliklariga mos keladi va tarixiy materiallar bilan chuqurroq shug'ullanishga yordam beradi.

Bundan tashqari, onlayn platformalar talabalarga ko'proq yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlaydi, bu

o'quvchilarga tarix bilan o'z tezligida shug'ullanish va ularning qiziqishlari va o'rganish uslublariga mos keladigan turli xil manbalarni o'rganish imkonini beradi. O'qitish metodologiyasidagi bu o'zgarish nafaqat turli xil ta'lim ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlaydi, balki tanqidiy fikrlash, tahliliy ko'nikmalar va global xabardorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Tarix fani bo'yicha onlayn platformalarning pedagogik ahamiyati ularning bilimga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, chuqur o'rganish tajribasini yaratish va talabalar ishtirokini kuchaytirish qobiliyatidir. Ushbu maqola tarixni o'qitishda onlayn platformalardan foydalanishning asosiy pedagogik afzalliklarini o'rganadi, ularning manbalardan foydalanish imkoniyati, talabalarining faolligi va shaxsiy o'rganishga ta'sirini ta'kidlaydi. Shuningdek, u ushbu platformalarni amalga oshirishda o'qituvchilar duch keladigan muammolarni hal qiladi va sinfda ularning salohiyatini maksimal darajada oshirish strategiyalarini taklif qiladi.

Tarix ta'limida onlayn platformalarning o'rni

1. Turli manbalardan foydalanish

Onlayn platformalar tarixiy hujjatlarga, multimedia kontentiga, akademik ma'lumotlar bazalariga va butun dunyo bo'ylab birlamchi manbalarga misli ko'rilmagan kirish imkonini beradi. Resurslarning bu xilma-xilligi o'quvchilarga tarixiy voqealar bo'yicha turli nuqtai nazarlarni o'rganishga imkon beradi, bu esa tarixni to'liqroq tushunishga yordam beradi. Google Classroom, Khan Academy va Coursera kabi platformalar an'anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llab-quvvatlaydigan tuzatilgan tarkibni taklif etadi.

a. Asosiy manbalar va arxivlar

Raqamli arxivlar va ma'lumotlar bazalari talabalarga birlamchi manbalar, jumladan, ilgari kirish qiyin bo'lgan tarixiy matnlar, rasmlar, videolar va artefaktlar bilan ishlash imkonini beradi. Haqiqiy materiallar bilan shug'ullanish talabalarga tarixiy dalillarni tahlil qilish va voqealar haqida o'z talqinlarini shakllantirishda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

b. Interaktiv multimedia

Matnga asoslangan manbalardan tashqari, onlayn platformalar tarixiy voqealarni jonlantiradigan interaktiv videolar, xaritalar va simulyatsiyalarni taqdim etadi. Ushbu multimedia vositalari talabalarga murakkab tarixiy jarayonlar va vaqt jadvalarini tasavvur qilish imkonini berib, faollikni oshiradi.

Onlayn platformalar o'qituvchilarga interaktiv va immersiv o'rganish tajribasini yaratishga imkon beradi. Munozara forumlari, viktorinalar va hamkorlikdagi loyihalar faol ishtirokni rag'batlantiradi va talabalarga an'anaviy ma'ruzaga asoslangan o'qitish mumkin bo'lmagan usullarda material bilan shug'ullanishga imkon beradi.

Tarixga oid viktorinalar, rolli o'yin stsenariyolari va simulyatsiya o'yinlari kabi o'yinlashtirilgan kontent talabalar motivatsiyasi va faolligini oshiradi. Ushbu elementlar tarixni o'rganishni yanada qiziqarli va o'zaro bog'liq qiladi, talabalarga ma'lumotni saqlashga va tarixiy voqealarning ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Ko'pgina onlayn platformalar talabalar o'rtasidagi hamkorlikni osonlashtiradi. Muhokama forumlari, guruh loyihalari va o'zaro baholash faoliyati g'oyalarni almashinuviga yordam beradi va tarixiy mazmunni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Edmodo va Microsoft Teams kabi platformalar talabalar birgalikda ishlashlari, tarixiy talqinlarni muhokama qilishlari va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin bo'lgan hamkorlik joylarini taqdim etadi.

Onlayn platformalarning eng muhim afzalliklaridan biri ularning shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini taklif qilish qobiliyatidir. Talabalar o'z tezligida o'rganishlari, qiyin tushunchalarni qayta ko'rib chiqishlari va ehtiyojlariga

moslashtirilgan qo'shimcha manbalardan foydalanishlari mumkin.

Coursera va edX kabi platformalar o'rganish tajribasini moslashtirish uchun moslashuvchan o'qitish texnologiyalaridan foydalanadi. Bu vositalar o'quvchilar faoliyatini tahlil qiladi va topshiriqlarning qiyinligini moslashtiradi, zudlik bilan fikr-mulohazalarni taqdim etadi va o'quvchilarni tarixiy mazmunni o'zlashtirishga yo'naltiradi.

Khan Academy va UdeMy kabi platformalardagi mustaqil kurslar o'quvchilarga individual o'rganish tezligiga qarab rivojlanish imkonini beradi. Bu moslashuvchanlik tarix ta'limida ayniqsa muhimdir, bu erda mazmunning chuqurligi va kengligi juda katta farq qilishi mumkin.

Tarix ta'limida onlayn platformalarni integratsiyalash muammolari

Onlayn platformalarning aniq afzalliklariga qaramay, tarix ta'limida ulardan foydalanish bilan bog'liq muammolar mavjud. Bu qiyinchiliklar raqamli savodxonlik bo'yicha kamchiliklar, potentsial chalg'ituvchi omillar va ishonchli texnologiya infratuzilmasiga bo'lgan ehtiyojni o'z ichiga oladi.

O'qituvchilar ham, talabalar ham onlayn platformalarda samarali harakat qilish uchun ma'lum darajadagi raqamli savodxonlikka ega bo'lishlari kerak. O'qituvchilar ushbu platformalardan foydalanish bo'yicha o'qitilishi kerak va talabalar raqamli resurslarga kirish va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. Maktablar va ta'lim muassasalari ushbu vositalardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun raqamli savodxonlik dasturlariga sarmoya kiritishlari kerak.

Onlayn platformalardan foydalanish ba'zan chalg'itishga olib kelishi mumkin, chunki o'quvchilar dars davomida ta'limga oid bo'lmagan kontentga kirishlari mumkin. O'qituvchilar o'quvchilarning diqqatini o'rganish vazifalariga, masalan, o'quvchilar faolligi va faolligini kuzatish uchun o'rnatilgan kuzatuv vositalaridan foydalanishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishlari kerak.

Hamma talabalar ishonchli internet va qurilmalardan teng foydalanish imkoniyatiga ega emas, bu esa o'rganish imkoniyatlarida nomutanosiblikni keltirib chiqarishi mumkin. Ta'lim muassasalari ushbu nomutanosibliklarni hisobga olishlari va barcha talabalar uchun texnologiyadan teng foydalanishni ta'minlashga harakat qilishlari kerak.

Onlayn platformalarning integratsiyasi tarix o'qituvchilariga o'qitish amaliyotini yaxshilash uchun bir qator imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu platformalar talabalarining tushunishini baholashning yangi usullarini taklif qiladi, loyihaga asoslangan ta'limni osonlashtiradi va fanlararo yondashuvlarni birlashtiradi.

Innovatsion baholash usullari- Onlayn platformalar turli baholash vositalarini taqdim etadi, jumladan viktorinalar, qisqa javobli savollar va tengdoshlar tomonidan ko'rib chiqilgan insholar. O'qituvchilar ushbu vositalardan o'quvchilar taraqqiyotini kuzatish, tezkor fikr-mulohazalarni bildirish va yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini baholash uchun foydalanishlari mumkin.

Loyihaga asoslangan ta'lim- Tarix o'qituvchilari loyihaga asoslangan o'rganishni osonlashtirish uchun onlayn platformalardan foydalanishlari mumkin. Misol uchun, talabalar virtual muzey eksponatlari, tarixiy simulyatsiyalar yoki o'zlarining tarixiy bilimlarini ijodiy va tanqidiy ravishda qo'llashni talab qiladigan tadqiqot loyihalari ustida ishlashlari mumkin.

Fanlararo ta'lim- Onlayn platformalar tarix o'qituvchilariga boshqa fanlar o'qituvchilari bilan hamkorlik qilish, tarixni geografiya, adabiyot va siyosat kabi fanlar bilan birlashtirish imkonini beradi. Ushbu fanlararo yondashuv talabalarga tarixiy voqealar va ularning kengroq ahamiyati haqida yaxlit tushuncha beradi.

Tarixni o'qitishda onlayn platformalarning kiritilishi tarixiy bilimlarni tarqatish va o'zlashtirish usullarini sezilarli darajada o'zgartirdi. Ushbu raqamli vositalar turli xil manbalardan, jumladan, birlamchi hujjatlar, multimedia kontenti va interaktiv o'quv tajribalaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi, bu esa o'quvchilarning tarixiy voqea va jarayonlarni tushunishini chuqurlashtiradi. O'yin, hamkorlik va mustaqil o'rganish orqali talabalarning faolligini oshirish orqali onlayn platformalar tarix ta'limiga yanada dinamik va moslashuvchan yondashuvni ta'minlaydi.

Raqamli savodxonlik bo'yicha bo'shliqlar va texnologiyalardan tengsiz foydalanish kabi qiyinchiliklarga qaramay, onlayn platformalarning potentsial foydalari to'siqlardan ancha ustundir. O'qituvchilar ushbu platformalarni samarali integratsiya qilish uchun strategiyalarni qabul qilishlari kerak, bu esa o'quvchilarning nafaqat tarixiy

mazmun bilan shug'ullanishini, balki muhim tanqidiy fikrlash, tadqiqot va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishini ta'minlashi kerak. Onlayn platformalarning pedagogik imkoniyatlaridan foydalangan holda, tarix ta'limi yanada interaktiv, inklyuziv bo'lishi va bugungi talabalarning raqamli o'rganish odatlariga mos kelishi mumkin.

**Xulosa.** Tarixni o'qitishda onlayn platformalarning pedagogik ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi. Ushbu platformalar talabalarni o'tmish va uning hozirgi va kelajak bilan bog'liqligi haqida tanqidiy fikrlashga tayyorlaydigan boyitilgan, talabalarga yo'naltirilgan o'quv muhitini yaratish vositalarini taqdim etadi. Raqamli asrda ta'lim rivojlanishda davom etar ekan, onlayn platformalar tarixni innovatsion va mazmunli o'rganishni rivojlantirish uchun ajralmas bo'lib qoladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Khan Academy. (n.d.). History lessons. Retrieved from <https://www.khanacademy.org>
2. Coursera. (n.d.). History courses. Retrieved from <https://www.coursera.org>
3. Edmodo. (n.d.). Collaborative learning tools. Retrieved from <https://www.edmodo.com>



**Mohinur BULTAKOVA,**  
Jizzax politexnika instituti erkin izlanuvchisi  
E-mail: moonlightbultakova@gmail.com

*O‘zMU Jizzax filiali dotsenti, p.f.n N.Alimov taqrizi asosida*

## INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TEXNIKA OTMLARI TALABALARIGA INGLIZ TILINI O‘QITISH

Annotatsiya

Ushbu maqola bugungi kunda butun dunyoga keng yoyilgan til ingliz tilini integrativ yondashuv asosida talabalarga ingliz tilini o‘rgatish va o‘qitishda media kompetensiyasi, o‘rganilayotgan chet tilida so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilishni amalga oshirish qobiliyati so‘z ketadi.

**Kalit so‘zlar:** Kategoriya, nutqiy ravonlik, nutqiy strategiya, integrativ ta‘lim, shaxsning uquvi, interfaol usullar, motivasiya, kompeteniylik.

## TEACHING ENGLISH LANGUAGE TO ENGINEERING STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Annotation

This article discusses the media competence in teaching and learning English of students and to develop their ability to communicate with foreign speakers based on the integrative approach, which is widely spread around the world today.

**Key words:** Category, speech fluency, speech strategy, integrative education, individual learning, interactive methods, motivation, competence.

## ОБУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ ИНЖЕНЕРНЫХ ВЕЩЕСТВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация

В данной статье рассматривается медиа компетентность в преподавании и изучении английского языка студентов и развитии их способности общаться с носителями языка на основе интегративного подхода, который сегодня широко распространен во всем мире.

**Ключевые слова:** Категория, беглость речи, речевая стратегия, интегративное обучение, индивидуальное обучение, интерактивные методы, мотивация, компетентность.

**Kirish.** Respublikamizda oliy ta‘lim tizimida bo‘lajak kadrlarni tayyorlash va ilmiy maqsadlar uchun zarur bo‘lgan axborotni topish jarayonida mutaxassislik bo‘yicha original adabiyotni o‘qish, xorijiy tildagi og‘zaki muloqotda ishtirok etish ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida ingliz tili darslari o‘tilmoqda. O‘z sohasini mutahassisi o‘z kasbiga oid ingliz tilidagi adabiyotlarni asl nusxasini o‘qiy olishi, o‘qilgan matn tushunishi va uni o‘z kasbida qo‘llay olishi lozim. Bundan tashqari, u berilgan mavzuda suhbatdoshi bilan chet tilida erkin fikr almasha olishi kerak.

Tilga ixtisoslashmagan oliy ta‘lim muassasalarida ingliz tilini interfaol usullar orqali o‘rgatish yaxshi samara beradi, bu orqali talabalarning tafakkurini yanada o‘stirish, ingliz tilidan ma‘lumot olish va berish, ingliz tili haqidagi yangi bilimlar, o‘z sohasidagi ilmiy o‘zgarishlarni kuzatib borish va yangiliklardan bexabar qolmaslik imkonini beradi va bu talabalar dunyoqarashini kengaytiradi. Talabalarning o‘z kasbida tegishli material ya‘ni mavzularda ishlash ular uchun qiziq va foydalidir. Buning uchun avvalo matnda ishtirok etayotgan yangi so‘z yoki atamalarni ma‘nosi, talaffuzi va ishlatilishini talaba bilishi kerak.

Chet tilida media kompetensiyasi, o‘rganilayotgan chet tilida so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilishni amalga oshirish qobiliyati va tayyorgarligi, shuningdek, o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati bilan tanishish, o‘z mamlakati madaniyatini yanada yaxshiroq anglash, uni muloqot jarayonida taqdim eta olishni nazarda tutadi [2].

Kompetensiya (lot.: *competentia* – tegishli, oid, aloqador, mos, muvofiq kelish) termini ma‘lum sohaga oid bilim, malaka va ko‘nikmalar, tajribani anglatadi. Media kompetensiya–shaxs tomonidan til va nutq madaniyatini bilish

asosida shakllantirilgan turli media hodisa va vaziyatlardagi nutqiy axloq tizimidir. “Bu tizim tarkibiga media rollarni (so‘zlovchi va tinglovchi), shuningdek, ijtimoiy rollarni, nutq strategiya va taktikalarini, etika va odob-axloq qoidalarini egallash kiradi, ularda ushbu madaniyatda qabul qilingan shaxsning turli ijtimoiy guruh vakillari bilan har xil sabab va vaziyatlarda aloqada bo‘lish usullari ifodalanadi” (T.V. Matveeva). 2006 yil 18 dekabrda Yevropa parlamenti va Kengashi uzluksiz ta‘lim uchun quyidagi tayanch kompetensiyalarni tavsiya qildi:

1. O‘z ona tilida muloqot qila olish.
  2. Chet tilida muloqot qila olish.
  3. Matematik kompetentlik hamda fan va texnika sohasidagi asosiy kompetensiyalar.
  4. Raqamli kompetentlik.
  5. O‘qishni o‘rganish.
  6. Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyasi.
  7. Tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuyg‘usi.
  8. Madaniyatdan xabardor bo‘lish va uni ifodalash.
- Hozirda “Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar” deb nomlangan Yevropa kengashi simpoziumida belgilangan tayanch kompetensiyalar quyidagilar [3]:

O‘rganishi kerak: tajribadan ahamiyatga ega xulosa chiqarish; egallagan bilimlarini o‘zaro bog‘lay olish, ularni tartiblashtirish; o‘ziga mos keladigan o‘rganish usullarini aniqlash; muammolarni yecha olish.

Izlash: mustaqil bilim olish bilan shug‘ullanish; turli ma‘lumotlar bazasini izlash; tevarak-atrofdan surishtirish; ekspertdan maslahat olish; axborot olish;



hujjatlar bilan ishlash va ularni turkumlash.

Mulohaza yuritish: o'tgan va hozirgi voqealar orasidagi o'zaro bog'liqlikni topish;

jamiyat rivojlanishining u yoki bu jihatlariga tanqidiy yondashish; murakkablik va o'ziga bo'lgan ishonch yo'qolishiga qarshi turmoq; bahslashuvlarda o'z pozitsiyasini egallash va shaxsiy nuqtai nazariga ega bo'lish;

o'qiyotgan va ishlayotgan joydagi siyosiy va iqtisodiy muhitning muhimligini anglash;

salomatlik, iste'mol qilish, tasviriy san'at va adabiy asarlarni baholay bilish.

Hamkorlik qilish: guruhda ishlash va hamkorlik qila olish;

qarorlar qabul qilish –anglashilmovchilik va janjallarni bartaraf etish;

kelisha olish;

shartnomalarni ishlab chiqish va bajarish.

Faoliyatga kirishish: loyihada qatnashish;

javobgarlikni zimmasiga olish;

guruhga yoki jamoaga kirish hamda o'z hissasini qo'shish;

hamkor ekanligini isbotlash;

o'z ishini tashkil qila bilish;

hisoblash va modellashtirish texnikalaridan foydalana bilish.

Ko'nikish: yangi axborot va kommunikasiya texnologiyalaridan foydalana olish;

tez o'zgarishlar oldida moslashuvchanligini isbotlash;

yangi yechimlarni topa bilish [1].

Niderlandiyada o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimi yaratilgan:

kelajakka intilish ko'nikmalarini rivojlantirishni mo'ljalladigan strategik kompetensiya;

o'rganilayotgan o'quv fani xususiyatiga doir bo'lgan bilim va malakalar bilan bog'liq predmet kompetensiyalari; mazmuni jihatidan boshqarish malakalaridan iborat bo'lgan metodik kompetensiya;

asosiy tarkibi hamkorlik malakalari, tanqidni qabul qilish, qayta aloqa o'rnatish; axloqiy-madaniy kompetensiya bo'lgan ijtimoiy-kompetensiya.

Ular kasbiy muloqotlar, motivasiya, natijaga erishish uchun tayyor bo'lish va o'quv malakalari, refleksiyani rivojlantirishni belgilaydigan o'quv kompetensiyalarini o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, fanda sinonimik ma'noda qo'llanadigan “kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalarini o'zaro farqlash lozim. Ushbu tushunchalar o'zbek pedagogik maktabi uchun yangilik emas, biroq shunga qaramay, ularni turlicha tushunish kerakligiga e'tibor qaratish kerak.

“kompetentlilik”, “kompetensiya” tushunchalari tavsiflarida quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratiladi:

bilimlar majmuining amalda qo'llanilishi;

shaxsning uquvi, xislatlari, fazilatlar;

amaliy faoliyatga tayyorgarlik o'lchovi;

muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo'lga kiritish layoqati;

shaxsning professional faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, malakalar yaxlitligi;

faollashgan (amaliyotga tatbiq etilgan) o'quv, bilim, tajribalar majmui;

shaxsning maqsadli yo'naltirilgan emosional iroda kuchi» [4].

Shunday qilib: “kompetensiya” – o'z ichiga shaxsga oid o'zaro bog'liq sifatning barchasini, ya'ni kompetensiyalar va faoliyat usullarini qamrab oladi, ularning predmet va jarayonlarning ma'lum kategoriyalariga aloqasi, insonning ularga nisbatan sifatli va sermahsul faoliyati uchun alohida ehtiyoj bor;

“kompetentlilik” shaxs tomonidan o'ziga xos kompetensiyaga egalik qilish faoliyatiga oid ma'noli muloqotni anglatadi.

Shundan kelib chiqqan xolatda transport sohasi bo'lajak mutaxassislariga ingliz tilini o'rgatishda malaka talablarida alohida qilib umumiy kompetensiyalar ishlab chiqilgan va u yerda bo'lajak muhandislarining boshqa sohalarni mukammal o'rganishlaridan tashqari xorijiy tillarda kasbiy faoliyatiga ta'luqli bo'lgan atamalarni bilishlari kerakligi haqida yozib qo'yilgan:

Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar quyidagilar;

Umumiy kompetensiyalar:

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosida kasb faoliyatida foydalana bilish;

Ingliz tilini o'rgatishda turli hil yondashuvlar mavjud. Quyida shulardan bir nechtasini tahlil qilib chiqamiz:

Umuman olganda xorijiy tillarni o'qitishda quyidagi jadvalda sanab o'tilgan yondashuvlar mavjud. Quyida ularga to'xtalib o'tamiz.

Tizimli yondashuv umumiy metodologik tamoyil sifatida fan va inson faoliyatining turli sohalarida ob'ekt va hodisalarni o'rganish uchun ishlatiladi, uning mohiyati tadqiqot ob'ektini tizim sifatida tushunish va ob'ektni mantiq va ishlatiladigan vositalar sifatida o'rganish jarayonini tushunish deganidir

Integrativ yondashuv – bu natijada yangi xususiyat yuzaga keladigan, ob'ekt, hodisa, jarayon, umumiylikni birlashtiradigan minimum sifatidagi majmuaning yaxlit tasviri hisoblanadi.

Media yondashuv – grammatik mashq, matnlarni o'qish va tarjima qilish kabi kitob orqali o'qitish metodi yuqori texnologiyali odatiy usullari rivojlanishi bilan sekin-asta muomaladan chiqib bormoqda. Gumanistik yondashuv oxir-oqibat butun prosseduraga asoslangan media yondashuvning shakllanishiga olib keldi.

Kulturologik yondashuv – agap chet tilini o'qitish uslubiy tizimini yaratilca, ko'pincha kulturologik yondashuv inobatga olinadi. Uning asosiy maqsadi madaniyatlarapo kompetensiyani shakllantirishdir. Bunga o'rganish va asosiy tamoyillari asoslangan. Mutaxassis vazifani hisobga olgan holda mashqlar to'plamini tanlashi mumkin.

Texnologik yondashuv – talabalarning o'zaro munosabatlarga kirishish, boshqarish va ta'sir etish texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq media ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlaydi. Bu belgilab qo'yilgan texnologik namunalarga va intizomga rioya etish, muloqot va uning turli shakllari, texnologiyasi va texnikasi, samarali muloqotning verbal va noverbal vositalarini bilish va amalda qo'llash, zamonaviy psixologik treninglar tashkil etish, muloqot sohasida o'z-o'zini baholay olish va takomillashtirish ko'nikamalaridir.

Oliy ta'limda Xorijiy til(ingliz) darslarida yuqoridagi yondashuvlarni e'tiborga olgan holda tashkillashtirilayotgan darslarni innovatsion yondashuvlarni qo'llagan holda ingliz tilida qurilish sohasidagi terminlarni talabalarga o'rgatish mazmuniga qaratilgan ta'limni tashkil etishning mavjud holatini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, aksariyat «Xorijiy til (ingliz)» fani mutaxassislarida pedagogik texnologiyalar, ularning mohiyati va amaliyotda qo'llash borasidagi nazariy bilim hamda amaliy ko'nikma,

---

malakalarning shakllanmaganligi innovatsion ta'lim samaradorligini ta'minlashga imkon beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Бойко М.В. Технологии как основное средство формирования иноязычной коммуникативной успешности студентов управленческих профилей педагогические чтения Современная методика обучения иностранным языкам: Пособия для учителя. – 2-е издание перераб. и доп. / Н. Д. Гальскова // – М.: Аркти, 2003, - 342 с.
2. Khiloliddinova F.R. Offer types and their classification. Science and Education, Scientific journal. The scientific journal "Science and Education" is an open-access journal and the main task of the journal is to highlight the achievements, problems, and prospects of science and education. 2022. №7. p. 104.
3. Dunleavy M., Dede C., Augmented Reality Teaching and Learning / Handbook of Research on Educational Communications and Technology, Springer New York, 2013, pp 735-745.
4. Muslimov N.A. Kasb talimi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya, 2013, - 128 b.,5.



UDK: 101.1 (045)

**Bahrom JUMAYEV,**  
*Qarshi davlat universiteti bo'limi boshlig'i*  
E-mail: bahrom.jumayev@bk.ru

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti falsafa doktori DSc B. Omonov taqrizi asosida*

### PHENOMENON OF HISTORICAL MEMORY: SOCIAL PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation

The article explores the phenomenon of historical memory, its role in the formation of social life as a subjective reality and the person as a representative of the people, the nation, aspects related to such concepts as "historical knowledge", "historical consciousness" and "historical thinking" from a socio – philosophical point of view.

In Uzbekistan, in the years of independence, the warming of history and the problems of shaping historical memory increased. Today, our people, our nation are looking at the study of its historical roots, the historical and cultural heritage that our great ancestors had buried, as a condition for the construction of a new Uzbekistan, the foundation of the third Renaissance. This phenomenon has its own scientific, gnoseological and positive practical significance.

Keywords: historical knowledge, historical consciousness, historical thinking, phenomenon, cultural heritage, social historical reality, ethnomethodological feature, national identity awareness, historical-cultural paradigm.

### ФЕНОМЕН ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье с социально – философской точки зрения исследуется феномен исторической памяти, ее роль в общественной жизни как субъективной реальности и в формировании личности как представителя народа, нации, аспекты, связанные с такими понятиями, как "историческое знание", "историческое сознание" и "историческое мышление".

В годы независимости в Узбекистане возрос интерес к истории и проблемам формирования исторической памяти. Сегодня наш народ, нация рассматривают изучение своих исторических корней, историко-культурного наследия наших великих предков как условие построения нового Узбекистана, фундамента третьего возрождения. Это явление имеет свое научное, эпистемологическое и социально-практическое значение.

**Ключевые слова:** Историческое знание, историческое сознание, историческое мышление, явление, культурное наследие, общественно-историческая действительность, этнометодологическая характеристика, национальное самосознание, историко - культурная парадигма.

### TARIXIY XOTIRA FENOMENI: IJTIMOY FALSAFIY TAHLIL

Annotatsiya

Maqolada tarixiy xotira fenomeni, uning subyektiv voqelik sifatida ijtimoiy hayot va shaxsning xalq, millat vakili sifatida shakllanishidagi o'rni, "tarixiy bilim", "tarixiy ong" va "tarixiy tafakkur" kabi tushunchalar bilan bog'liq jihatlari ijtimoiy – falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etilgan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida tarixga va tarixiy xotirani shakllantiish muammolariga bo'lgan qiziqish oshdi. Bugun xalqimiz, millatimiz o'zining tarixiy ildizlarini, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy-madaniy merosni o'rganishga Yangi O'zbekistonni, Uchinchi renessans paydevorini barpo etish sharti sifatida qaramoqda. Ushbu fenomen o'zining ilmiy, gnoseologik va ijtimoiy amaliy ahamiyatiga egadir.

**Kalit so'zlar:** Tarixiy bilim, tarixiy ong, tarixiy tafakkur, fenomen, madaniy meros, ijtimoiy tarixiy voqelik, etnometodologik xususiyat, milliy o'zlikni anglash, tarixiy-madaniy paradigma.

**Kirish.** Tarixiy xotira fenomeni va uning etnometodologik asoslari ilm-fanda yetarli o'rganilmagan. Ijtimoiy tarixiy voqelik va unga munosabat ko'rinishi hisoblanadigan tarixiy xotira nafaqat alohida fenomen, shu bilan birga, o'zining etnometodologik xususiyatlari, immanent belgilariga ham ega hodisadir. U, falsafiy mohiyatiga ko'ra, boshqa hodisalarga o'xshamaydi, ulardan retrofalsafiy va etnometodologik jihatlari bilan keskin farq qiladi. Hatto bilish jarayoni ham retrofalsafiy va etnometodologik jihatlarga ega bo'lmasligi, ongning psixologik imkoniyatlari bilan chegaralanishi mumkin. Tarixiy xotira esa ushbu ongni nafaqat o'z ichiga oladi, balki uni yangi, hali ochilmagan, ma'lum bo'lmagan faktlar, misollar va voqeliklar bilan boyitadi. Biroq bu faktlar, misollar va voqeliklarning roli, gnoseologik funksiyalari, taniqli Kaliforniyalik sotsiolog va madaniyatshunos G.Garfinkel konsepsiyasiga muvofiq, "mustaqil fenomenlar" sifatida asoslanishi zarur. Insonlarning

oddiy xatti-harakatlari bilan betakror fenomenlar o'rtasida etnometodologiya uchun muhim, ratsional tahlil qilinishi mumkin bo'lgan, "anglanadigan situatsiyalar" mavjudki, tadqiqotchi ularni keng omma yoki xalq hayotiga taalluqli ekanidan kelib chiqib fikr yuritadi. Buning uchun qator shart - sharoitlar, masalan, "situatsiyaning real bo'lishi", uning uydirma emas, anglanadigan voqelik bo'lishi, yetkaziladigan xabarlarining ketma - ket va mantiqiy bo'lishi, eng muhimi ularga "xolisona, obyektiv yondashish uchun zarur sotsial tashkil etilganlik bo'lishi" lozim [1]. Tarixiy faktlarni tahlil qilishda, tarixiy xotira fenomenini anglashda ushbu etnometodologik talabni doim nazarda tutish kerak.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Falsafaga "fenomen"ni alohida kategoriya va voqelik sifatida olib kirgan nemis faylasufi Immanuel Kant (1724-1804) hisoblanadi. Uning yozishicha, "Inson tajribalarining umumiy xususiyati, talqini empirik, ularning obyektleri esa fenomenlardir.

Tajribalar qonunlari va, umuman, har qanday hissiy bilish esa fenomenlar qonunlari deb ataladi" [2]. Ma'lumki, barcha voqea va hodisalar, shu jumladan, fenomenlar ham, vaqt va makon bilan bog'liq. Agar fenomen hissiy bilish obyektlari sifatida kelsa, "makon hissiy idrok etiladigan dunyoning mutlaq birinchi prinsipidir, chunki, Koinotdagi obyektlar fenomenlar bo'lgani uchun emas, balki, asosan shuning uchunki, u o'z mohiyatiga ko'ra, hissiy bilishga oid barcha narsalarni qamrovchi yagona umumiy prinsipdir. Nima bizning hislarimizga obyekt sifatida ta'sir etsa, u fenomenidir. Fenomenlar birinchidan, fizikada tashqi his fenomenlari, ikkinchidan, psixologiyada ichki his fenomenlari sifatida qaraladi va ochib beriladi" [2]. I.Kantning fikrlaridan ma'lum bo'ladi, insonning hissiy bilishlariga ta'sir etuvchi tashqi obyektlar va "ichki his" obyektlari fenomenlardir. Tarixiy voqelikka nisbatan ular "inson ongi, shuuri va tasavvurlaridan tashqarida, shaxs tug'ilmasidan oldin yaratilgan, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan obyektlardir. Tarixiy-madaniy merosga xos bo'lgan traditsionalizm va vorisiylik, uzluksizlik aynan ichki ma'naviy omilga, etnopsixologik ta'sirlarga e'tibor berishni taqozo etadi" [3]. Etnometodologik nuqtai nazardan qaraganda, tarixiy voqeliklarni alohida fenomen sifatida qarash duch kelgan hodisalarni emas, balki xalq hayotiga taaalluqli, ratsional anglanadigan, xolisona va obyektiv baholanadigan faktlar, misollar va hodisalarni o'rganishni taqozo etadi. Etnometodologiyaning asosiy prinsipiga ko'ra, hodisalar oddiy xatti-harakatlardan iborat bo'lmasligi, ular ratsional baholanadigan, "muammoli fenomen" bo'lishi darkor [4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani yozishda tarixiy-falsafiy, qiyosiy va tizimli tahlil, analiz va sintez, kompleks yondashuv usullari va tarixiylik, mantiqiylik hamda vorisiylik metodlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Jamiyat bir bosqichdan ikkinchi bosqichga, bir tarixiy - madaniy paradigmadan ikkinchi tarixiy - madaniy paradigмага o'tayotganida o'z taraqqiyotiga asos va ideal qidiradi. Jamiyat ushbu asosni, idealni o'zining rivojlanish tarixidan, turli ijtimoiy bosqichlarni bir-biriga tadjriy ulab va ular talablariga javob berib kelgan konseptual modellardan, ya'ni obyektiv baholaridan fenomenlardan, tarixidan qidiradi. Chunki hech bir xalq, millat, ispan faylasufi Xose Ortega i-Gasset aytganidek, "Tarix sahnasiga osmondan osilib tushmaydi,"[5] ular o'zining ijtimoiy - tarixiy tajribalariga tayanadi, ushbu tajribalarni yanada rivojlantirishga, davom ettirishga ehtiyoj sezadi. Taraqqiyot ideali esa gipotetik xususiyati bilan davrdan o'zishga, ushbu davrni ma'lum bir ideya, model, gipoteza tarzida tasavvur etib, jamiyatni yangi bir ijtimoiy borliq yaratishga undaydi. Unda reflektiv va areflektiv, dolzarb va dispozitsional yondoshuvlar uyg'unlashib, inson "Men"ida xayol, o'y, model, andoza, gipoteza tarzida keladi. Har ikki holda, ya'ni jamiyat bir tarixiy - madaniy modeldan ikkinchi tarixiy - madaniy modelga o'tayotganida ham, o'z taraqqiyotiga ideal tanlayotganida ham tarixiga, o'tmishiga murojaat etadi, ajdodlari to'plagan, ratsional xususiyatga ega ijtimoiy - tarixiy tajribalarga tayanadi. Buni esa tarixiy xotirasiz va tarixiy bilimsiz amalga oshirish qiyin.

Tarixiy xotiraga murojaat etmaydigan xalq, millat, shaxs yo'q. Ijtimoiy ong hech qachon o'zining negizidan voz kechmaydi, u o'tmishga murojaat etish, undan madad izlash immanent xususiyati ekanini biladi. Biroq ma'lum bir obyektiv va subyektiv sabablar bois ijtimoiy ongda, borliqda nigilistik qarashlar shakllanishi va ularning fikrlash tarziga aylanishi, ko'pchilik ongini o'ziga itoat ettirishi, ularning fikrlash tarziga aylantirishi mumkin. "Ma'lumki, - deb yozadi Germaniya Xalq Universitetlari Uyushmasining Xalqaro hamkorlik instituti mintaqaviy koordinatori (dvv international)" Uve Gartenshleger (Bonn), -har - bir hal qiluvchi voqea yoki shokdan keyin xotiradan chiqarib tashlash

bosqichi keladi, bu shaxs va jamiyatga ham tegishli. Biroq jamiyat va shaxs o'tmish bilan til topishishi, sodir bo'lganlarni anglashi va oxir -oqibatda qabul qilishi, o'zgarishlarga yuz ochishi uchun bu himoya reaksiyasi ortidan sodir bo'lgan voqeani tushunish bosqichi kuchga kirishi lozim. Aks holda, shaxsiy jihatdan ham, siyosiy jihatdan ham o'ta ta'sirli bo'lgan afsona va aqida (stereotip)lar yuzaga keladi." [6,7-28 b.]. Haqiqatdan ham, "xotiradan chiqarib tashlash bosqichi" deyarli barcha bosqichlarda, avlodlarda kuzatiladi. Uve Gartenshleger tavsifiga ko'ra, tarix "vaqt bilan suhbat" sifatida taqdim etiladi. Bu g'oyani qo'llab - quvvatlovchi kishi insoniyat uchun inkor qilib bo'lmaydigan haqiqat kam ekanligini, o'zgarishlarga ochiq yuz bilan qarash lozimligini va kim xaq" ekanligini aniqlash murakkabligini anglaydi. Bu bilan muallif "vaqt bilan suhbat"ni, ya'ni tarixni, o'tmishni o'rganish, ayniqsa baholash murakkab ekanligini ta'kidlamog'chi.

Tarix, o'tmish haqida fikrlamagan, biror asar yozmagan ilm kishisi topilmaydi. E'tiborli har qanday fikrdan tarixga daxldorlik, o'tmishga munosabat topsa bo'ladi. Shuning uchun tarixga oid adabiyotlar shunchalik ko'pki, ularning barchasini o'rganish, tahlil qilish imkoni yo'q. Ammo biz, tadqiqotimizning maqsadidan kelib chiqqan holda, tarix falsafasida qaror topgan, keng tan olingan etnometodologik konsepsiyalarni tahlil qilish bilan cheklanishga majburlamiz. Ushbu konsepsiyalarni biz quyidagi yo'nalishlarga ajratamiz:

1. Mifologik.
2. Teologik.
3. Ekzistensial.
4. Gnoseologik.
5. Aksiologik.
6. Istoritsizm.
7. Marksistik, sinfiy.
8. Etnologik.
9. Ratsional, optimistik.

Ilmiy adabiyotlarda boshqa yo'nalishlar ham mavjudligi qayd etiladi. Masalan, falsafa fanlari doktori P.K.Grechko tarixning konseptual modellari sifatida sikllik, patternlik, metapatternlik, linearlik, spirallik, kovariantlik, modernistik va utopik yondoshuvlar mavjudligini ko'rsatadi [7]. Mazkur yo'nalishlar muallifning tadqiqot maqsadi va predmetiga oid gnoseologik izlanishlariga mos keladi. O'zni kelganida biz ularga munosabatimizni bildirib o'tamiz.

Tarixni mifologik talqin qilish deyarli barcha xalqlarda, ilk kosmologik qarashlarda uchraydi. Ushbu yondashuvga muvofiq borliqni xudo, ilohiy kuchlar yaratgan va ularning hayoti, faoliyati, odamlar bilan munosabatlari tarix, tarixiy jarayonlar sifatida talqin etiladi.

Miflarga muvofiq tarixni harakatlantiruvchi kuchlar xudolar, avliyolar, ilohiy qudratga ega devlar, farishtalar, odamsimon mavjudodlardir. Akademik A.F.Losevning yozishiga ko'ra, miflar ilk odamlarning hayot falsafasi, dunyoqarashi edi, ular mohiyatan o'zini miflar orqali anglagan, idrok etgan. Xudolar borliqni yaratib, kishilar hayotiga ma'no baxsh etgan, kishilar esa xudolar orqali o'zining hayotini, irodasini, borliqni anglaganlar [8]. Ushbu jarayondan vaqtini, tarixni, o'tmishni eslash xam chekkada qolmagan. Miflar ilk odamlar uchun ham ijtimoiy hayot, ham tarixiy haqiqat edi.

Mifologik yondashuv real tarixiy voqelikdan emas, balki ilk odamlarning borliqni anglashga qaratilgan ilk tasavvurlaridan kelib chiqadi. Aslida miflarning yashovchanligiga aqlu idrokning zaifligi, kishining ratsional fikrlashga ishtiyoqi yo'qligi sabab emas, balki, A.F.Losev qayd etganidek, "miflarning inson qalbi, ruhiga yaqinligidir" [9].

Teologik yondashuv negizida tarixni, o'tmishni ma'lum bir diniy konsepsiyalarga, qarashlarga muvofiq yoritishga intilish yotadi. Shu o'rinda mashhur ingliz tarixchisi

va faylasufi Arnold Toynbining asarlarini eslash mumkin. Tarix falsafasining "ustunlaridan biri" [10].sifatida tan olingan A.Toynbi (1889-1975) butun hayoti va ijodi jarayonida sivilizatsiyalarning tug'ilish, shakllanish, rivojlanish va tanazzulga yuz tutish sabablarini, qonuniyatlarini o'rganib, ular negizida yan (ayol, yorug'lik, ijobiy) va in (erkak, korong'ilik, salbiy) yoki "Da'vat – Javob" konsepsiyasi yotadi, degan xulosaga keladi. Mazkur konsepsiyadan kelib chiqqan holda, u insoniyat tarixida yuzaga kelgan sivilizatsiyalarni 21 taga klassifikatsiya qiladi, tarix sahnasidan tushib qolgan madaniyatlarning so'nish, tanazzulga uchrash bo'islarini ochib beradi.

Insoniyat tarixi etnometodologik mohiyatga ega ideal hayotga, taraqqiyotga intilgan. Ammo real tarixiy hayot, o'tmishda yuz bergan voqealar mukammal, ideal holat emasligi bilan farq qilgan. Shuning uchun A.Toynbi "tarixda real hayotni ideal tasavvur bilan muvofiqlashtirish Da'vat va Javob ijtimoiy -tarixiy jarayonlarining natijasidir," [11]. degan xulosaga keladi. U "Da'vat va Javob"ni qandaydir ilohiy kuch, sivilizatsiyalarning taqdiriga ta'sir etuvchi ilohiy prinsip darajasida talqin etadi. Shu bilan birga A.Toynbi "Da'vat va Javob"ni ijtimoiy - tarixiy jarayonlardan qidiradi. Shuning uchun goho "Da'vat va Javob" reallik ifodasi, talqini kabi qabul qilinadi. A.Toynbi sivilizatsiyalarni tirik organizm sifatida qarab, ularga tug'ilish, o'sish, kuchga to'lish, so'na boshlash va o'lish kabi fiziologik jarayonlar xos, ushbu jarayonlar "Da'vat va javob" prinsipiga amal qiladi, deb hisoblaydi.

"Yan" va "in" iboralarini A.Toynbi qadimgi Xitoy naturfalsafasi va mifologiyasidan olgan. Ushbu ikki qarama - qarshi tomon bir - birini to'ldirib, bir - birini taqozo etib keladi, ijtimoiy -tarixiy jarayonlar esa yan va in o'rtasidagi munosabatlar ifodasidir. Goho A.Toynbi "Ketish va Qaytish" iboralarini prinsip darajasiga ko'taradi [12].

Tarixiy xotira nafaqat sivilizatsiyalar, madaniyatlarda, eng avvalo ularni yaratgan, harakatga keltirgan ijodiy kuchlar – "ijodkor shaxslar", irq, millatlar hayotida yashaydi. A.Toynbi, ijodkor shaxs o'zi yashayotgan muhitda zarur imkoniyatlar topilmagach, uni tark etadi, keyinchalik esa yangi ijtimoiy tajribalar bilan muhitiga qaytib keladi va sivilizatsiyani boyitadi. U Ibn Xaldunning "insonga o'z borligidan qochish va darveshlik kiyimiga o'ranish xos, bu bilan u o'zini bir onga bo'lsa - da, begunoh sezadi. Shu tarzda ruh, jismdan ko'tariladi, kishilar uchun mo'ljallangan muhitdan yuksaladi", degan so'zlarini keltiradi.

U, Muso, Iso, Muhammad, Budda, Konfutsiy, avliyolar Ignatyi Loyola, Pavel "o'z muhitidan chiqib, ilohiy

kuch da'vatiga muvofiq, qalban, fikran va muqaddas g'oyalarga boyib qaytgan" deb ko'rsatadi. Shuning uchun A.Toynbi, "tarixni jamiyat, kishilar emas, balki ayrim shaxslar yaratadi", [13].deb yozadi.

Teologik yondashishni salbiy xodisa sifatida qarashdan biz yiroqmiz. Tarixiy xotira fenomenga oid, diniy konsepsiyalar insonning ma'naviyatiga ijobiy ta'sir etsa, uni yangi fikrlar, g'oyalar bilan boyitsa, biz din va diniy konsepsiyalardan unumli foydalanish yo'llarini izlashimiz dardor.

Ekzistensial yondashuvni biz N.A.Berdyayev va K.Yaspers asarlarida kuzatamiz. Aynan ushbu faylasuflar tarixni anglashga ekzistensial yondashishni boshlab berdilar va tarixiy xotira, tarixiy ong, tarixiy borliqni yangicha, o'ziga xos tarzda talqin qildilar.

N.A.Berdyayev o'zining "Tarixning mohiyati" asarida yozganidek, insoniyat tub o'zgarishlarga, fojialarga, katastrofaga duch kelganida tarixni kayta o'rganishga ehtiyoj sezadi, tarixiy xotiraga murojaat etishga majbur bo'ladi. Yangi ijtimoiy - tarixiy voqelik, davr fojia, katastrofa sifatida qabul qilinadi, fikrlar rang - baranglashib, tarixiy ong, tafakkur "ikkilanish orqali" yangi ko'rinishga o'tadi[13]. U tarixiy xotira shakllanishini uch davrga bo'ladi. Birinchi davrda aql, idrok, shaxs ma'lum bir ijtimoiy - tarixiy davr qo'ynida bo'ladi. Mavjud konsepsiyalar tarixiy ong, tafakkur sifatida qabul qilinadi, aslida ularda qotgan qarashlar hukmrondir. Aynan ushbu davrda tarix falsafasini boyitish, tarixiy xotirani asrash lozimligi real ehtiyoj sifatida qabul qilinadi va anglanadi. Uchinchi davr "tarixiylik"ning ichki sirini anglash, unda kechayotgan jarayonlarni tarixiy xotiraga kiritish, ro'y bergan va shakllangan yangi ijtimoiy - tarixiy voqelik tarixiy ong, idrok, xotira "sintezidan o'tkazish" bilan bog'liqdir.

**Xulosa va takliflar.** Yangi tarixiy bosqichlarni va ular haqidagi tarixiy ong, tarixiy tafakkur va tarixiy xotiraning shakllanishini yuqoridagicha tasavvur qilish mumkin. Yangi tarixiy xotira o'zidan oldingi, hatto u konservativ, qoloq, g'ayrihayotiy bo'lganida ham, oldingi bosqichlar ta'siridan xoli holda, alohida yuzaga kelmaydi, ya'ni o'zining tarixiy negiziga ega. Tarixiy xotira inson va jamiyat hayotining ajralmas qismi, ijtimoiy mavjudlikning substansional mohiyatidir. Xalq, millat, inson va jamiyat mavjud ekan tarixiy xotira ham mavjud bo'ladi. Biroq, ayrim obyektiv va subyektiv tazyiqlar sababli tarixiy haqiqat toptalishi, buzib ko'rsatilishi, tarixiy ong chalg'itilishi va tarixiy xotira noto'g'ri shakllantirilishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Гарфинкель Г. Исследования по этнометодологии. - СПб: Питер, 2007. С. 11- 12.
2. Кант И. Сочинения в шести томах. Том 2. - Москва:Мысль, 1964. С. 392.
3. Norqulov D. T., Qorobayeva D.D. Tarixiy-madaniy meros va milliy o'zlikni anglash. - Toshkent: "Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uy", 2022. 7-8 b.
4. Гарфинкель Г. Исследования по этнометодологии. - СПб: Питер, 2007. С. 12).
5. Хосе Ортега и - Гассет. Дегуманизация искусства. - - Москва.: Искусство, 1991. - С.47.
6. Uve Gartenshleger. Tarix va o'zlikni anglash yoki insonga tarix nega kerak ? / Tarix va o'zlikni anglash:O'zbekistonda va Germaniyada tarixni yoritish. – Toshkent.: Gyote instituti, 2008. - 28 b.
7. Гречко К.Г.Концептуальные модели истории. - - Москва: Логос, 1995. - С. 8 - 9.
8. Лосев А.Ф.Мифология и античный символизм.-Москва:b Прогресс,1991.С.286.
9. Тойнби А.Постижение истории.-- Москва.:Прогресс,1991. С.286.
10. Тойнби А. Постижение истории. -- Москва: Мысль, 1990.С.254.;Тойнби А.Цивилизация перед судом истории.-- Москва:Родос, 2004-С.182-187
11. Бердяев Н.А.Смысл истории.-- Москва:Мысль,1990-С.5.



*Voxid JO'RAYEV,*  
*Farg'ona davlat universiteti dotsenti*  
*E-mail: voxid@gmail.com*

*DSc, professor I.Siddiqov taqrizi asosida*

#### ANALYSIS OF SOCIO-CULTURAL COMPONENTS IN PERSONAL AND PROFESSIONAL DEVELOPMENT

Annotation

This article analyzes the importance of socio-cultural competence in personal and professional development. Types of competence, including value-based, communicative, social work, and self-development main components are considered. Also, the role of culture of behavior in the process of formation of socio-cultural competences among management staff is emphasized. The connection of socio-cultural competence with the study of language and culture, its use in higher education institutions and how it is formed in the educational process will be highlighted. The article shows the importance of forming the ability of managers to overcome social and cultural barriers for successful communication in society.

**Key words:** Socio-cultural competence, personal development, professional development, value-based competence, communicative competence, social-work competence, self-development, culture of behavior, management staff, language and culture, higher education, communication, social barriers.

#### АНАЛИЗ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ КОМПОНЕНТОВ ЛИЧНОСТИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация

В данной статье анализируется значение социокультурной компетентности в личностном и профессиональном развитии. Рассмотрены виды компетентности, в том числе основные компоненты ценностной, коммуникативной, социальной работы и саморазвития. Также подчеркивается роль культуры поведения в процессе формирования социокультурных компетенций у управленческого персонала. Будет освещена связь социокультурной компетентности с изучением языка и культуры, ее использованием в высших учебных заведениях и тем, как она формируется в образовательном процессе. В статье показана важность формирования способности менеджеров преодолевать социальные и культурные барьеры для успешного общения в обществе.

**Ключевые слова:** Социокультурная компетентность, личностное развитие, профессиональное развитие, ценностная компетентность, коммуникативная компетентность, социально-трудовая компетентность, саморазвитие, культура поведения, управленческий персонал, язык и культура, высшее образование, общение, социальные барьеры.

#### SHAXSIY VA PROFESSIONAL RIVOJLANISHDA IJTIMOYIY-MADANIY KOMPONENTSIYALAR TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning shaxsiy va professional rivojlanishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Kompetensiya turlari, jumladan, qadriyatlarga asoslangan, kommunikativ, ijtimoiy-mehnat, o'zini o'zi rivojlantirish kabi asosiy komponentlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, boshqaruv xodimlarida ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida muomala madaniyatining roli ta'kidlanadi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning til va madaniyatni o'rganish bilan bog'liqligi, uning oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilishi va o'quv jarayonida qanday shakllanishi yoritiladi. Maqola, rahbar xodimlarning jamiyatda muvaffaqiyatli muloqot olib borishlari uchun ijtimoiy-madaniy to'siqlarni yengish qobiliyatlarini shakllantirish muhimligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy-madaniy kompetensiya, shaxsiy rivojlanish, professional rivojlanish, qadriyatlarga asoslangan kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy-mehnat kompetensiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish, muomala madaniyati, boshqaruv xodimlari, til va madaniyat, oliy ta'lim, muloqot, ijtimoiy to'siqlar.

So'nggi yillarda "ijtimoiy-madaniy kompetensiya" tushunchasi ta'lim jarayonlarida va kasbiy adabiyotlarda keng qo'llaniladigan atamalardan biriga aylandi. Ushbu atama zamonaviy ko'p madaniyatli dunyoda shaxsning shaxsiy va professional rivojlanishidagi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya shaxsning jamiyatdagi roli, o'zini anglash, boshqa madaniyatlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi va uning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir qiladi. Ushbu kompetensiya turli madaniyatlar, urf-odatlar va qadriyatlar bilan ishlashni, ularning o'zaro bog'liqligini tushunishni va qabul qilishni talab qiladi.

So'nggi paytlarda "ijtimoiy-madaniy kompetensiya" atamasi kasbiy va uslubiy adabiyotlarda eng ko'p uchraydigan atamalardan biriga aylandi. Quyida shaxsiy va professional

rivojlanishning omili sifatida ijtimoiy-madaniy komponentni o'z ichiga olgan bir qator kompetensiyalarni ko'rib chiqamiz:

Qadriyatlarga asoslangan kompetensiya. Bu dunyoqarash bilan bog'liq bo'lib, shaxsiy qadriyatlar, atrof-muhitni ko'ra olish va tushunish, unda yo'l topish, o'z o'rni va maqsadini anglash, o'z xatti-harakatlari va qarorlari bilan bog'liq maqsadlarni belgilash va ularga ongli munosabatni shakllantirish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu kompetensiya ta'lim va boshqa faoliyat sharoitida shaxsning o'zini o'zi aniqlash mexanizmini ta'minlaydi. Bu qobiliyatlar talabning individual ta'lim trayektoriyasi va uning hayoti davomida faoliyat dasturini belgilaydi.

Kommunikativ kompetensiya. Bu zarur bo'lgan tilni bilish, yaqin va uzoq masofada odamlar va voqealar bilan o'zaro aloqada bo'lish, guruhlarda ishlash va jamoada turli ijtimoiy rollarni o'zlashtirish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy-mehnat kompetensiyasi fuqarolik va ijtimoiy faoliyat sohasida (fuqarolar, kuzatuvchilar, saylovchilar, vakillar roli), ijtimoiy-mehnat sohasida (iste'molchi, xaridor, buyurtmachi, ishlab chiqaruvchi huquqlari), oilaviy munosabatlar va majburiyatlar, iqtisodiy va huquqiy masalalar, professional o'zini o'zi aniqlash bo'yicha bilim va tajribaga ega bo'lishni nazarda tutadi. Bu mehnat bozoridagi vaziyatni tahlil qilish, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlariga mos ravishda harakat qilish, mehnat etikasi va fuqarolik munosabatlarini egallash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shaxs zamonaviy jamiyatda yashash uchun zarur bo'lgan minimal ijtimoiy faoliyat ko'nikmasiga va funktsional savodxonlikka ega bo'ladi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi jismoniy, ruhiy va intellektual o'zini o'zi rivojlantirish, hissiy o'zini o'zi tartibga solish va o'zini qo'llab-quvvatlash usullarini egallashga qaratilgan. Shaxs o'z qiziqishi va qobiliyatlariga mos faoliyat usullarini egallaydi, bu esa uzluksiz o'zini o'zi bilish, zamonaviy inson uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, psixologik savodxonlik, fikrlash, harakat madaniyatini shakllantirishni anglatadi. Ushbu kompetensiyalar shaxsiy gigiyena qoidalari, o'z-o'zini parvarish qilish, jinsiy savodxonlik va ichki ekologik madaniyatni o'z ichiga oladi. Ular, shuningdek, shaxsiy xavfsiz hayot asoslari bilan bog'liq bir qator fazilatlarni ham o'z ichiga oladi[1].

Faoliyat va muloqot obyekti sifatida insonga tegishli bo'lgan shaxsiy kompetensiyalar:

Sog'liqni saqlash kompetensiyalari (sog'lom turmush tarzi me'yorlarini bilish va ularga rioya qilish, shaxsning jismoniy madaniyati, turmush tarzini tanlashdagi erkinlik va mas'uliyat);

Umumbashariy qadriyatlarga yo'naltirish kompetensiyalari: hayot qadriyatlari, madaniyat qadriyatlari (rasm, adabiyot, san'at, musiqa), fan, ishlab chiqarish, sivilizatsiya, o'z mamlakati, din tarixi;

Fuqarolik kompetensiyalari: fuqarolik huquq va majburiyatlarini bilish va ularga rioya qilish, erkinlik va mas'uliyat, o'ziga ishonch, o'z qadr-qimmatini his qilish, fuqarolik burchlari, milliy ramzlarni bilish va ulardan faxrlanish;

O'zini o'zi takomillashtirish, o'zini o'zi tartibga solish, o'zini o'zi rivojlantirish, shaxsiy va o'quv refleksiya, hayot mazmuni, kasbiy rivojlanish, til va nutq rivojlanishi, ona tili madaniyatiga ega bo'lish, xorijiy tillarni bilish.

Insonning ijtimoiy o'zaro ta'siri va ijtimoiy soha bilan bog'liq kompetensiyalari:

Ijtimoiy o'zaro ta'sir kompetensiyalari: jamiyat, hamjamiyat, guruhlar, oila, do'stlar va sheriklar bilan munosabatlar, mojarolar va ularni hal qilish, hamkorlik, bag'rikenglik, boshqalarni hurmat qilish va qabul qilish (irq, millat, din, maqom, rol, jins), ijtimoiy harakatchanlik;

Kommunikativ kompetensiya: og'zaki va yozma nutq, dialog, monolog, matn yaratish va anglash, an'ana, rasm va odobga rioya qilish, madaniyatlararo kommunikatsiya, xizmat ko'rsatish hujjatlari, xizmat ko'rsatish tili, chet tillarida muloqot qilish, kommunikativ vazifalar, recipientga ta'sir qilish darajasi.

Inson faoliyati bilan bog'liq kompetensiyalar:

Bilish faoliyatida kompetensiyalar: bilish vazifalarini qo'yish va hal qilish, nostandart yechimlar, muammoli vaziyatlarni qo'yish va hal qilish, samarali va reproduktiv bilim olish, tadqiqot, intellektual faoliyat;

Faoliyatdagi kompetensiyalar: o'yin, ta'lim, mehnat; faoliyat vositalari va usullari: rejalashtirish, loyihalashtirish, modellashtirish, prognoz qilish, tadqiqot faoliyati, turli faoliyat turlarida yo'nalish olish[2].

Ko'p madaniyatli jamiyatda yashash bilan bog'liq kompetensiyalar, millatchilik namoyon bo'lishini kamaytirish

va bag'rikenglikni rivojlantirish uchun zarurdir. Masalan, farqlarni qabul qilish, boshqalarni hurmat qilish va boshqa madaniyatlar, tillar va dinlarga mansub odamlar bilan birga yashash qobiliyati.

Ijtimoiy-madaniy harakat qadriyatlar ta'limotiga (aksiologiya) asoslanadi va insonning qadriyatlar tizimi sifatida madaniyat bilan obyektiv aloqasi belgilanadi. Taraqqiyot g'oyasi umummadaniy qadriyatlarni o'zlashtirib olish, ularning tabiat va insonni buyuk qadriyat sifatida tushunishi, atrofdagi dunyo bilan uning qonuniyatlarini asosida uyg'unlikda yashashga intilishi orqali birinchi o'ringa chiqadi. Ta'limning madaniy jihatdan mos mazmunini shakllantirish, ta'lim tuzilmalarida madaniy tasvirlar va hayot normalarini qayta tiklash taklif etiladi. Bu pedagogik jarayonning umuminsoniy madaniy qadriyatlarga, tinchlik va milliy ma'naviy madaniyatga yo'naltirilishini anglatadi. Bu holat bizga ushbu yondashuvdan ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirishning kontseptual nazariy va uslubiy asosi sifatida foydalanish imkonini beradi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya tarkibiy qismlarining shakllanishi va rivojlanishi rahbar xodimga o'zi muloqot qilayotgan odamlarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga e'tibor qaratish, aloqa jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-madaniy to'siqlarni aniqlash va ularni yengish yo'llarini topish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida til va madaniyatni bir vaqtning o'zida o'rganish, ya'ni maxsus fanlarni o'zlashtirish orqali ijtimoiy-madaniy kompetensiyani takomillashtirish xatolarining oldini olishga yordam beradi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish birinchi darsdan boshlanishi kerak, shu jumladan nutqqa xos bo'lgan keng tarqalgan kundalik vaziyatlarni batafsil tavsiflovchi matnlar, shuningdek o'rganilayotgan madaniyatning asosiy qadriyatlar va tushunchalarini ochib beradigan va ma'lum bir tilning so'z boyligi, frazeologiyasi va grammatikasidan to'g'ri va noto'g'ri foydalanishni ko'rsatadigan misollar. Manba sifatida jurnalistik matnlardan foydalanish mumkin, chunki ular nafaqat ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan mamlakat va dunyodagi voqealarni tasvirlash uchun ishlatiladigan so'z boyligini, balki ushbu voqealarning o'zini ham o'rganadi.

Ilmiy tadqiqotimiz natijasida oliy ta'lim muassasalari boshqaruv xodimlarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish jarayonida muomala madaniyatining quyidagi jihatlari shakllantirilishi lozimligi aniqlandi:

boshqaruv xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar;  
boshqaruv xodimlar va talabalar o'rtasidagi munosabatlar;

rahbar va xodimlar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari;

ijtimoiy foydali mehnat jarayonidagi ijtimoiy munosabatlar;

mashg'ulotlar davomida shakllanadigan o'zaro munosabatlar;

boshqaruv xodimlarning xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish (salomlashish, minnatdorchilik bildirishi, o'zaro hurmat ko'rsatishi);

ommaviy tadbirlar jarayonida rasmiy munosabat elementlarini shakllantirish.

Qur'onda adolatni o'rnatishda har bir ishda guvoh tutish lozimligi ta'kidlangan. Ilohiy Kitobda narsa va hodisaga guvoh keltirilib adolat bilan hukm qilish bo'yicha quyidagi masalalar uchraydi: Nikoh qurish, taloq berish, qarz olish va berish, tijorat, vasiyatni tasdiqlash, me'rosni taqsimlash, vaqti soati kelganda yetimning molini topshirish, ayblovni aniqlash va hokazolalar. Masalan: qarz olish va berishda ikki erkakni guvoh tutish, ikki erkak topilmasa, guvohligiga rozi bo'lgan bir erkak va ikki ayolni guvoh tutsin toki ayollardan biri yanglishsa, boshqasi eslatishi uchun, degan hukmlar Qur'onda mavjud.

Muqaddas Kitobda odil kishini guvoh tuting (65:2) deyiladi. Ko'pgina oyatlarda guvoh bo'ladigan kishilar odobi haqida ham o'g'itlar mavjud. Jumladan: guvohlikka chaqirilganda bosh tortmasligi; insonlarni shubhaga tushirmaslik uchun aniq dalil keltirish; guvohlikni biron evazga sotmaslik; yolg'on guvohlik bermaslik; agar yaqin kishisi bo'lsa ham guvohlikni yashirmaslik; ishonchni oqlash uchun to'g'ri guvohlik berishi; adolat bilan guvohlik berishi kabi faoliyatlarga buyurilgan bundan tashqari guvohga ham zarar yetkazmaslik zarurligi, zarar yetkazilsa fosiqlik qilgan bilan tengligi ta'kidlangan.

Qur'onda vasiyatni tasdiqlashda guvohlik keltirish shartlari ham belgilangan. Vasiyatni tasdiqlashning to'g'ri yo'li ko'rsatilgandan keyin, guvohga Alloh nomiga ushbu qasamni ham ichkazing deyilgan: «Biz bu guvohlikni biron evazga sotmaymiz, va Allohning guvohligini yashirmaymiz, agarchi yaqinimiz bo'lsa ham. Aks holda gunohkor bo'lamiz (5:106). Agar gunohkor bo'lgani aniqlansa, haqlarni poymol etmoqchi bo'lganlar o'mniga ulardan munosibroq boshqa ikki kishi guvohlikka o'tadi. Ular Alloh nomiga shunday qasam ichadilar: «Bizning guvohligimiz ularning guvohligidan to'g'riroq. Biz haqqa tajovuz etmadik, aks holda zolimlardan bo'lamiz» (5:107). Guvohlikni to'g'ri ado etishlariga, yoki qasamdan keyin qasamini rad etishidan qo'rqishga eng yaqini mana shudir (5:108).

Guvohlikni yashirmang! Kimki guvohlikni yashirsa, uning qalbi gunohkordir, o'z ichida baribir bu gunohni tashiydi (2:283).

Bundan ko'rinib turibdiki Qur'onda Alloh nomiga ichilgan qasamni buzmaslik va qasamni aldov uchun vosita qilmaslikka buyurilgan. Qur'onda bir qavm boshqasidan boylik va son jihatidan ustun deya, o'zaro qasamlarni buzmag, xuddi ipini kuchli o'rab bog'laganidan keyin yana so'kadigan kishiga o'xshamang. Qasamlaringizni o'zaro aldov vosita qilib olmag (16:92-94), deyilgan. Qasam insonning haqligi, so'zining to'g'riligi va shu kabilarni tasdiqlash, unga boshqalarni ishonitirish uchun Alloh nomiga aytiladigan mas'uliyatli so'z, ont ichish, va'da berish mazmunini bildiradi va unga ahdga vafo qilmaslik, aldovga yo'l qo'yilmaydi.

**Natija.** Adolat bugungi kun taraqqiyotimizning har jabhasida kerakli bo'lgan baholash mezonidir. Adolat o'rnatishda belgilangan talablarga rioya qilish undan og'maslik talab etiladi. Adolat shartlari Qur'onda aniq

belgilangan. Qur'onda nafaqat diniy nuqtai nazardan (oxirat) balki ijtimoiy munosabatni tartibga solish nuqtai nazaridan (dunyo) adolatni o'rnatish talablari ochiq bayon etilgan. Islom ta'limotiga ko'ra oxirat kunida adolatni o'rnatishda Alloh buyurganlari, Rasul guvohligi va Ilohiy Kitob vositasida amalga oshiriladi. Alloh insonga adolatni o'rnatishda yaxshilikka buyuradi, yomonlikdan qaytaradi va nasihab beradi.

Adolatda tenglikni saqlash, guvohlik berish, ahdlashish shartlari yetakchi o'rin egallaydi. Qur'onda to'g'ri so'zlash, omonatga xiyonat qilmaslik, to'g'ri hukm qilish, to'g'ri guvohlik berish, o'lchovni to'g'ri o'lchash, o'zaro bitimlarni buzmaslik kabi adolat shartlari bugungi kun davlat va jamiyat taraqqiyotiga muhim bo'lgan shartlar sanaladi. Adolat bilan hukm qilish: nikoh qurish, taloq berish, qarz olish va berish, tijorat, vasiyatni tasdiqlash, me'rosni taqsimlash, vaqti soati kelganda yetimning molini topshirish, ayblovni aniqlash va hokozalar orqali inson huquqlarini himoya qilishda, adolatni o'rnatishda va ijtimoiy munosabatni tartibga solishda xizmat qiladi.

Adolatda mas'uliyat, talab va rioya eng muhim amalga oshiriladigan faoliyatdir. Bunda vijdon va iroda tarbiyasi yetakchi o'rin egallaydi. Vijdon va iroda tarbiyasiga esa ko'rgan narsa va hodisa haqida to'g'ri guvohlik berish, guvohlar chaqirilganda, bosh tortmasilik, insonlarni shubhaga tushirmasligi uchun aniq dalil keltirish, guvohlikni biron evazga sotmaslik, yolg'on guvohlik bermaslik, agar yaqin kishisi bo'lsa ham guvohlikni yashirmaslik shartlar xizmat qiladi.

**Xulosa va tavsiyalar.** Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, Qur'onda keltirilgan adolat shartlari, ijtimoiy munosabatlarini tartibga solish uchun belgilangan qonunlarga rioya qilish, insonlar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi, bugungi kun davlat va jamiyat taraqqiyotiga yetakchi o'rin egallaydi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasidagi iroda va vijdon kabi sifanlarni tarbiyalashga yordam beradi. Ushbu maqoladan pedagoglar, ota-onalar va tadqiqotchilar foydalanishi mumkin. Maqolada keltirilgan pedagogik tahlil ta'lim mazmunini boyitishda, oila pedagogikasi, yoshlar pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika kabi fanlarni o'qitishda, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Bünyadov, Z.; Memmedeliyev, V., "Kur'ân-i Kerim", AzerneGr, - Bakü, 1991;
2. Emre Dorman Kur'an-ı Kerim'deki Emirler ve Yasaklar Emre Dorman / İstanbul Yayınevi Basım Yılı: 2011; Sayfa Sayısı: 239
3. Karomatov H. S., Qur'on va o'zbek adabiyoti, - T., 1993;
4. Khaleel Mohammed. Coming to Terms with the Qur'an. Islamic Publications International. 2008.
5. Knysh, Alexander. Sufism: a new history of Islamic mysticism. Princeton: Princeton University Press. 2017. 389 p.
6. Mehmet Okuyan. Kur'an Meal-Tafsir: Genis Aciklamali. Haliç Üniversitesi Yayınlar. 2022. 1584 s.
7. Najati, M.U. Al-Quran wa'ilmu an-nafs. Mesir: Darus Syuruk. 1968.
8. Куръони карим: маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсир муаллифи: А.Мансур; таҳрир ҳайъати: Абдурашид қори Баҳрамов, Раҳматуллоҳ қори Обидов, Н.Иброҳимов ва бошқ.; Масъул муҳаррир: З.Хусниддинов. – Т.: "Тошкент Ислом университети", 2004. – 624 б.



UDK: 378.14

*Mohinabonu QOBULOVA,*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: mohinabonumk@gmail.com*

*Andijon davlat tibbiyot instituti professori, p.f.d. A.Ismanova taqrizi asosida*

## MOSLASHUVCHN ONLAYN O‘QUV TIZIMLARI VA ULARDAN TIBBIY TA‘LIMDA FOYDALANISH

Аннотация

Maqolada moslashuvchan onlayn o‘quv tizimlari (AOS) va ulardan tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida foydalanish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Ta‘lim sifatini oshirish uchun o‘quv jarayonini individuallashtirish, virtual simulyatsiyalar va adaptiv testlarni birlashtirish imkoniyatlariga alohida e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Moslashuvchan ta‘lim tizimi, ta‘lim jarayoni, individuallashtirish, virtual simulyatsiyalar, o‘rganish samaradorligi.

## АДАПТИВНЫЕ СИСТЕМЫ ОНЛАЙН-ОБУЧЕНИЯ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В статье рассматриваются адаптивные онлайн обучающие системы (АОС) и их применение в медицинских вузах. Особое внимание уделено возможностям персонализации образовательного процесса, интеграции виртуальных симуляций и адаптивных тестов для повышения качества обучения.

**Ключевые слова:** Адаптивная обучающая система, образовательный процесс, персонализация, виртуальные симуляции, эффективность обучения.

## ADAPTIVE ONLINE LEARNING SYSTEMS AND THEIR USE IN MEDICAL EDUCATION

Annotation

The article examines adaptive online learning systems (AOS) and their potential application in medical institutions. Particular emphasis is placed on the possibilities for personalizing the education process, integrating virtual simulations, and implementing adaptive testing to enhance the quality of student learning.

**Key words:** Adaptive learning system, educational process, personalization, virtual simulations, learning effectiveness.

**Kirish.** Zamonaviy tibbiyot ta‘limi nafaqat talabalarning bilim darajasini oshirishga, balki o‘quv jarayonini har bir talabning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradigan innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ta‘lim sifatini yaxshilashga intilmoqda. Ushbu texnologiyalardan biri individuallashtirilgan va interaktiv o‘rganish uchun sharoit yaratadigan moslashuvchan onlayn ta‘lim tizimlari (AOS). AOS ta‘lim sohasida faol rivojlanmoqda va tibbiy ta‘lim uchun samarali yechimlarni taklif qilmoqda, bu yerda o‘qitiladigan fanlarning murakkabligi va o‘ziga xos xususiyatlari tufayli individual yondashuv ayniqsa muhimdir.

Ushbu maqolaning maqsadi o‘quv jarayonini optimallashtirish va mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish uchun adaptiv onlayn o‘quv tizimlarining imkoniyatlarini va ularni tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida qo‘llashni o‘rganishdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘quvchilarning xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qitishning moslashuvchanligi masalasi yangi emas. Ushbu mavzu bo‘yicha birinchi ilmiy ishlar milodiy birinchi asrda yozilgan Xitoy, yahudiy va yunon risolalarida uchraydi. Biroq, adaptiv ta‘lim tizimining muallifi B. F. Skinner hisoblanadi.

Bixeviorizmning eng yorqin vakili Skinner dasturlashtiriladigan ta‘limning asoslarini yaratdi va ushbu maqsadlar uchun birinchi bo‘lib texnikadan foydalanishni boshladi. U o‘z nazariyasida ikkita talabga tayangan: o‘z-o‘zini boshqarish foydasiga nazoratdan voz kechish va o‘z-o‘zini o‘qitishning pedagogik tizimiga o‘tish.

Hatto talabalarning mustaqil ish hajmini sezilarli darajada oshirgan mamlakatimiz oliy ta‘limining islohoti ham xuddi shu maqsadlarni ko‘zlaydi — o‘quv jarayonini har bir

talabning talablari, qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlariga moslashtirish. Ammo moslashuvchan ta‘lim texnologiyalari va modellarini to‘liq ishlab chiqish va joriy etish faqat sun‘iy intellekt sohasida shaxsiy kompyuterlar va innovatsiyalar paydo bo‘lishi bilan amalga oshirildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot moslashuvchan onlayn ta‘lim tizimlarida (AOS) kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlarini o‘rganish va tizimlashtirishga qaratilgan. Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun quyidagi usullar qo‘llanilgan:

1. Adabiyotlar tahlili. Birinchi bosqichda kompyuter texnologiyalarini o‘rganishda, shu jumladan sun‘iy intellekt, mashinali o‘qitish, o‘yin va sensorli texnologiyalarni qo‘llashga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlar va nashrlarning batafsil sharhi o‘tkazildi. Ta‘lim muhitida moslashuvchan tizimlarni ishlab chiqish va joriy etish bilan bog‘liq adabiy manbalarga alohida e‘tibor qaratildi.

2. Onlayn o‘quv platformalarining kontentini tahlil qilish. Ommabop ta‘lim platformalarini (Coursera, Duolingo, Khan Academy) o‘rganish asosida o‘quv mazmunini moslashtirishning qo‘llaniladigan usullari, shuningdek, o‘quv jarayonini individuallashtirishni ta‘minlaydigan asosiy funktsiyalar tahlil qilindi. AI (sun‘iy intellekt) mexanizmlari, teskari aloqa tizimlari, individual ta‘lim yo‘nalishlari va o‘yinlashtirish imkoniyatlari tahlil qilindi.

3. Metodlarni qiyosiy tahlil qilish. Tadqiqot jarayonida moslashuvchan ta‘limning asosiy usullari (talabalarni modellashtirish, bilim darajasiga asoslangan o‘qitish, tajribaga asoslangan o‘qitish) aniqlandi va taqqoslandi. Usullarni baholash ularning o‘quv jarayonining sifati va samaradorligiga ta‘sirini hisobga olgan holda amalga oshirildi.

Tadqiqot usullari AOSda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy yo'nalishlari va usullari to'g'risida tizimlashtirilgan ma'lumotlarni olish, shuningdek, ularning amaliy ahamiyati va o'qitish sifatini yaxshilash imkoniyatlarini baholash maqsadida tanlangan.

**Tadqiqotda qo'llanilgan usullar.** Ushbu tadqiqotning maqsadi tibbiyot oliy o'quv yurtlarida moslashuvchan onlayn o'quv tizimlarining (AOS) samaradorligi va imkoniyatlarini o'rganishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi usullardan foydalanilgan: adabiyotlar tahlili, taqqoslash, sabab- oqibat bog'lanishlarni aniqlash, key- stadi va so'rov. Tajriba-sinov ishini tashkil etishda birinchi navbatda talabalarining darsga ruhiy jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya'ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so'ng darsda interaktiv o'yinlar, ko'rgazmali demonstratsion maketlar va tarqatma materiallar, adaptiv testlardan foydalanib, simulyatsiya va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Adaptiv onlayn o'quv tizimlari-bu real vaqt rejimida talabalarining individual xususiyatlariga mos keladigan dasturiy ta'minot tizimlari. Ular talabaning bilimlari, xulq-atvori va taraqqiyotini tahlil qilib, vazifalarning mazmuni va murakkabligini uning muvaffaqiyati va ehtiyojlariga qarab sozlashadi. O'qitish chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talab qiladigan tibbiyotda bunday tizimlar o'quvchilarga materialni qulay sur'atda o'zlashtirish imkonini berib, o'rganishga yanada moslashuvchan va samarali yondashuvni taklif qilishi mumkin.

Tibbiy ta'limda AOSning asosiy afzalliklari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Ta'limni individuallashtirish: o'quv kontentini har bir talabaning bilim darajasiga moslashtirish.

O'rganishda moslashuvchanlik: istalgan vaqtda, istalgan joyda o'rganish imkoniyati.

Samarali teskari aloqa: bajarilgan har bir topshiriq bo'yicha tezkor tavsiyalar va sharhlar.

Murakkab mavzularni o'zlashtirishni tezlashtirish: muammoli mavzularni ajratish va ularni o'zlashtirish uchun qo'shimcha resurslarni taqdim etish.

Tibbiy fanlar nafaqat katta hajmdagi ma'lumotlarni o'rganishni, balki amaliy ko'nikmalarni, tanqidiy fikrlashni va noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishni ham talab qiladi. AOS tibbiyot talabalari uchun bir qator noyob o'quv imkoniyatlarini taklif etadi:

Adaptiv testlar va topshiriqlar. Tibbiyot oliy oquv yurtlarida ta'limning asosiy elementi bilim va ko'nikmalarni nazorat qilishdir. AOS moslashuvchan testlardan foydalanishga imkon beradi, bu esa talabaning tayyorgarlik darajasiga qarab topshiriqlarni tanlaydi. Masalan, agar talaba asosiy savollarni muvaffaqiyatli bajarsa, tizim yanada murakkab vazifalarni taklif qiladi. Qiyinchiliklar yuzaga kelganda, tizim talabani bilimlarni takrorlash va mustahkamlash uchun materiallarga qaytaradi.

Bunday tizimlar allaqachon anatomiya, farmakologiya va klinik fanlarni o'qitishda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Masalan, tizimlar talabalarga talabaning bilim darajasiga qarab

murakkabligi bilan farq qiladigan klinik holatlarni taklif qilishi mumkin.

Virtual simulyatsiyalar va senariylar. Tibbiy ta'limning asosiy jihatlaridan biri bu amaliy ta'limdir. AOS haqiqiy klinik vaziyatlarni o'xshatuvchi virtual simulyatsiyalarni o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi. Talabalar virtual klinikada qaror qabul qilishlari, bemorlarga tashxis qo'yishlari, davolanishni buyurishlari va natijalarni kuzatishlari mumkin. Bunday simulyatsiyalar xavfsiz o'rganish muhitini yaratadi va talabalarga bemorlar uchun xavf tug'dirmasdan klinik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, "Shoshilinch yordam" kursida virtual simulyatorlardan foydalanish, bu yerda talabalar moslashtirilgan senariylar asosida o'tkir sharoitlarni tashxislash va davolashni o'rganadilar.

O'quv jarayonini modellashtirish. AOS talabalarining ta'limdagi muvaffaqiyatlarini bashorat qilish uchun xatti-harakatlarini modellashtirish usullaridan foydalanadi. Bu o'qituvchilar va tizimga ma'lum bir talaba uchun iloji boricha foydali bo'lgan o'quv materiallari va topshiriqlarni taklif qilish imkonini beradi. Masalan, agar talaba tibbiyotning ma'lum bir sohasida qiyinchiliklarga duch kelsa, tizim ushbu mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'ruzalar, maqolalar yoki simulyatsiyalarni taklif qilishi mumkin.

Tibbiy ta'limda geymifikatsiya. Geymifikatsiya-bu o'rganishda o'yin elementlaridan foydalanish bo'lib, ko'pincha o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun mukofotlar, reytinglar va darajalar kabi o'yin elementlarini o'z ichiga oladi. Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida bu, ayniqsa, biokimy, fiziologiya yoki mikrobiologiya kabi murakkab fanlarni o'rganishda foydali bo'lishi mumkin, bu yerda materialning murakkabligi talabalarni demotivatsiya qilishi mumkin. Geymifikatsiya o'quv jarayonini qiziqarli qilishga yordam beradi va talabalarni faol ishtirok etishga undaydi.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida AOSni joriy etishning afzalliklari va qiyinchiliklarini taqqoslash orqali samarali tizimni shakllantirish yo'nalishlarini belgilash mumkin.

AOS ni tibbiy ta'limda qo'llash afzalliklari:

O'quv jarayonini individuallashtirish.

Interaktivlik va jalb qilish.

Teskari aloqa va kursni sozlash.

Tibbiy ta'limda AOSdan foydalanishda qiyinchiliklar:

Texnik infratuzilma.

O'qituvchilarni tayyorlash.

Axloq va maxfiylik muammolari.

**Xulosa va takliflar.** Adaptiv onlayn ta'lim tizimlari tibbiy ta'limni individuallashtirish va sifatini yaxshilash uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Ular nafaqat o'quv jarayonini talabalarining individual ehtiyojlariga samarali moslashtirishga, balki simulyatsiyalar va interaktiv senariylardan foydalanish orqali klinik fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi. Mavjud qiyinchiliklarga qaramay, bunday tizimlar allaqachon tibbiyot oliy o'quv yurtlarida samarali ekanligi isbotlangan va ularni yanada joriy etish va rivojlantirish imkoniyatiga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Скиннер Б.Ф. О бихевиоризме / пер. с англ. И. В. Митрофанова. — М.: Эксмо, 2023. — 336 с. — ISBN 978-5-04-168739-7.
2. Федосеева Л.А., Дубровин Н.А., Ермолаева Е.Л., Воронцов А.М., Барсукова А.Е. Современные цифровые технологии в образовании // Современные научные исследования и инновации. 2020. № 11 [Электронный ресурс]. URL: <https://web.snauka.ru/issues/2020/11/94049>
3. Марина Алияровна Филина Разработка и внедрение адаптивных онлайн-курсов как нового формата дистанционного обучения // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 3: Педагогика и психология. 2023. №2 (318). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razrabotka-i-vnedrenie-adaptivnyh-onlayn-kursov-kak-novogo-formata-distantsionnogo->
4. Карась С. И. Виртуальные пациенты как формат симуляционного обучения в непрерывном медицинском образовании (обзор литературы) // Бюллетень сибирской медицины. 2020. №1. URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/virtualnye-patsienty-kak-format-simulyatsionnogo-obucheniya-v-nepreryvnom-medsinskom-obrazovanii-obzor-literatury>.

5. Кобулова М. А. Роль информационных технологий в цифровизации //Journal of Integrated Education and Research. - 2022. - Т. 1. - . 5. - С. 12-16.
6. Кобулова, М. (2023). The Evolution of Online Adaptive Systems in Education: Personalized Learning for the Digital Age
7. Rustamov Mirodiljon Mukhammadjonovich, Ismanova Arofat Abdulhamidovna, Gulamov Shukhrat Abdumukhtorovich, Tashpulatov Otabek Abdusaitovich, Kosimov Shavkat Sobirovich, Use of New Innovative Methods in Teaching the Science of Information Technologies and Modeling of Technological Processes//Journal of Survey in Fisheries Sciences 2023, 10(2S) 1458-1463



UDK:182.2

**Ro‘zi KOMILOV,**  
Samarqand davlat chet tillar instituti professori, DSc  
E-mail: komilovro‘zi.uz

SamDCHTI professori, f.f.d O.G‘aybullayev taqrizi asosida

### YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY NIKOH MAROSIMLARINI AXLOQIY-ESTETIK QADRIYATGA AYLANTIRISH VAZIFALARI

Аннотация

Nikoh marosimlari oila qurishga yo‘l va ungacha bo‘lgan xursandchilik belgisi to‘y sanaladi. O‘zbek nikoh marosimlari to‘y bilan chambarchas bog‘liq. Unda zamonaviylik va an‘anaviylik uyg‘un holda madaniyatning rivojlanishiga ta‘sir o‘tkazmoqda. Qadimda nikoh marosimlarida to‘y marosimidan ko‘ra, uning axloqiy, etnopsixologik omillari ustuvorligi kuzatilgan. Nikoh marosimlari tarixiy davrlar almashinuvi natijasida turli zamonaviy ko‘rinishlarni qabul qilib, to‘y marosimlarida esa majburan yoki ixtiyoriy tarzda turli milliy qadriyatlar, yot odatlar kiritib borilgan. Nikoh marosimlari etnoestetik, etnopsixologik ahamiyat kasb etib, undan keyingi to‘y marosimlari zamonaviy unsurlar bilan boyib boraveradi. Demak, nikohning o‘zbek xalqi marosimlariga xos qadriyatlarining mohiyatini anglab yetib, uni asrab qolishimiz lozim.

**Kalit so‘zlar:** Axloq, etnoestetika, oila, nikoh, to‘y, madaniyat, turmush estetikasi, ijtimoiy ong.

### ЗАДАЧИ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ БРАЧНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ЭТИЧЕСКУЮ И ЭСТЕТИЧЕСКУЮ ЦЕННОСТЬ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Обряды бракосочетания – это способ создания семьи, а свадьба – признак счастья перед этим. Узбекские брачные обряды тесно связаны со свадьбой. В нем современность и традиционализм гармонично влияют на развитие культуры. В древности моральные и этнопсихологические факторы имели большее значение, чем свадебный обряд. В результате смены исторических периодов брачные обряды приняли различные современные формы, а в свадебные обряды насильственно или добровольно привносились различные национальные ценности и иностранные обычаи. Брачные обряды приобретают этноэстетическое и этнопсихологическое значение, а последующие свадебные обряды обогащаются современными элементами. Итак, мы должны понять суть ценностей брака, которые характерны для обрядов узбекского народа, и сохранить их.

**Ключевые слова:** Этика, этноэстетика, семья, брак, свадьба, культура, эстетика жизни, общественное сознание.

### TASKS OF TRANSFORMING NATIONAL MARRIAGE CEREMONIES INTO ETHICAL AND AESTHETIC VALUE IN THE NEW UZBEKISTAN

Annotation

Marriage ceremonies are a way to start a family, and a wedding is a sign of happiness before that. Uzbek marriage ceremonies are closely related to the wedding. In it, modernity and traditionalism harmoniously affect the development of culture. In ancient times, moral and ethno-psychological factors were more important than the wedding ceremony. As a result of the change of historical periods, marriage ceremonies adopted various modern forms, and various national values and foreign customs were forcibly or voluntarily introduced into wedding ceremonies. Marriage ceremonies acquire ethno-aesthetic and ethno-psychological significance, and subsequent wedding ceremonies are enriched with modern elements. So, we should understand the essence of the values of marriage, which are characteristic of the ceremonies of the Uzbek people, and preserve it.

**Key words:** Ethics, ethnoaesthetics, family, marriage, wedding, culture, aesthetics of life, social consciousness.

**Kirish.** Yangi O‘zbekistonda jamiyat axloqiy qiyofasini shakllantirish demokratik tamoyillarga asoslanib olib borilmoqda, avvalombor, bozor munosabatlarining yuksak axloqiy madaniyatga asoslanishini yaratish, milliy o‘zligimizni diniy va dunyoviy qadriyatlar bilan uyg‘unligini keng jamoatchilik ongiga yetkazib berish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi islohotlarda shaxsning axloqiy dunyoqarashini boy tajriba va ko‘nikmalar bilan qurollantirish dolzarb nazariy-falsafiy masalalardan biriga aylandi. Yangi O‘zbekistonda xalqimiz ongi va hayotidagi oilaviy marosimlarga nisbatan yangicha yondoshuvlar shakllanishi lozim. Bunday yondashuv insonning axloqiy va estetik ong ishtirokisiz, axloqiy va estetik madaniyat ta‘siriz bo‘lmaydi. Voqelik, jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlar, albatta, axloqiy va estetik tafakkur ishtirokisiz sodir bo‘lmaydi. Voqelik estetik munosabat axloqiy mezonlarni ham talab qiladi, axloqiy mezonlar esa estetik munosabat yo‘nalishini

belgilaydi, natijada shaxs ma‘naviyatida, madaniyatida jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo‘layotgan jarayonlarga mos va xos xususiyatlar shakllana boradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Yangi O‘zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurish va rivojlantirish jarayonida xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi rolini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu jarayonda ayolning erkak bilan teng huquqliligi, oila va nikohning jamiyatda muqaddasligiga alohida e‘tibor berila boshlandi. Milliy nikoh marosimlari va an‘analarida ko‘proq ayollarning roli ortib, ularda milliy nikoh marosimlariga yangiliklar olib kirish namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda “Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarni e‘zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi”[1]. Biz azaldan jamiyatda ayollarning hurmat-e‘tiborini yuqori o‘ringa qo‘yib, oilada ayolning rolini oshirib,

nikoh marosimlarini ko'proq milliy urf-odatlariga asoslanib bajarishga intilganmiz. O'zbek qizlarining donoligi va oqilaligi tufayli nikoh marosimlari jarayonida yigitlar qizlarga estetik munosabatda bo'lishga intiladilar va axloqiy me'yorlar negizida o'z munosabatini bildirishadi. Jamiyatda mavjud nikoh marosimlarini bugungi kunda iqtisodiy jihatdan kamaytirish, to'ylarning estetik mohiyati va jozibadorligini kuchaytirish, tartibga solishda barchamiz mas'ulmiz.

Oila a'zolarining oddiy va chiroyli kiyim-bosh tanlab kiyinishi, didli, farosatli bo'lishi oilaga fayz kiritadi. Turmush estetikasida yoshlarning oila qurish marosimlari katta rol o'ynaydi. To'y o'zbek xalqining jon-dilidan sevuvchi azali marosimlaridan biridir. To'y bo'ladigan xonadonga barcha mahallalarda to'ydan oldin qarindosh-urug' va qo'ni-qo'shnilar yig'ilib, «maslahat oshi» tashkil qilinadi. To'yni qanday o'tkazish, quda tomon bilan qanday muomala qilish, bazmni qanday uyishtirish singari masalalar muhokama qilinadi. To'y boshlangach, mahalla oqsaqoli tomonidan belgilangan mezbonlar mehmonlarni zavq-shavq bilan kutib olish uchun belni «qamish»dan bog'lab turadilar. To'y bo'layotgan xonadonda quvonch ustiga quvonch, yelib-yugurishlarning barchasi turmush go'zalligining ajoyib namunasi. Insoniyat mavjudligining mazkur falsafiy asosi insoniyatning o'zini-o'zi asrash, ko'paytirish instinktidan o'sib chiqqan deyish mumkin. Bugun bu instinkt anglangan va ratsional tashkil etiladigan, boshqariladigan, obyektiv va subyektiv ehtiyojlar in'ikosiga aylangan.

Gulga burkangan kelin-kuyovning tavoze ila to'yxonaga kirib kelishi, karnay-surnay navolari, «To'ylar muborak» ashulasi, bolalarning shod-u xurramligi, onalarning, yuragi muhabbat zavqiga to'lgan qizlarning kayfiyati – bularning barchasi yosh kelin-kuyovning eng hayajonli, bir umr esda qoladigan baxtiyor damlari, qolaversa, oila deb atalgan hayotning go'zal lahzalari hisoblanadi.

Lekin keyingi paytlarda to'y-hashamlar va ma'rakalarni o'tkazishda estetik madaniyatni suiiste'mol qilish holatlari uchrab turibdi. Ayniqsa, kelin-kuyov to'ylarida bu narsa ko'proq sezilmoqda. Toshkent va Samarqand to'ylarida kim o'zarga bo'layotgan to'ylar tufayli ko'proq qiz chiqqan xonadonlar el-yurt, mahalla-ko'y oldida uyalib qolmay deb, qarzga botib qolishmoqda. Natijada qarzga qilingan to'yning azobini ba'zi oilalar bir necha yil tortishlariga to'g'ri kelmoqda. Bu narsa ayrim urf-odatlarini, marosimlarni o'tkazishda axloqiy-estetik mezon buzilish oqibatida sodir bo'lmoqda.

«Keyingi vaqtlarda to'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni, marhumlar xotinalariga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishda mamlakatimizning ko'p joylarida shuhratparastlik, dabdabozlik, isrofchilikka yo'l qo'yish, el-yurt odatlari va an'alarini mensimaslik, o'zini ko'z-ko'z qilish, atrofda yashayotgan odamlarning holahvolini inobatga olmaslik kabi eskidan qolgan asoratlarga yo'l qo'yilmoqda»[2]. Bunday dabdabali marosim va ma'rakalar yoshlar ongiga salbiy ta'sir o'tkazadi, ularning axloqiy-estetik madaniyati va didining sog'lom o'sishiga xalal beradi.

Insonning oliyjanob his-tuyg'ulari, go'zal fazilatlarini yuqori qo'ygan o'zbek xalqining estetik ideallari, tasavvurlari, tushunchalari xususida bebaho va noyob o'tmish merosi bor. Unga amal qilish shart, albatta. Lekin shaxsning estetik ideallari, estetik madaniyat tushunchasi har xil bo'lishi ham tabiiy. Bunday «estetik ideallarning turli kishilarda turlicha bo'lishi esa tabiiy ravishda inson tabiatining murakkab va ko'p qirrali ekanligining ifodasidir»[3].

Oilalarda qachonki ideallar mushtarakligi bo'lsa, qachonki yoshlarning orzu va maqsadlari bir nuqtada tutashsa, bu tutashgan nuqta muhitini farzand deb atalmish mo'jiza bezab tursa, bunday oilalarning estetik va axloqiy tushunchalarida ziddiyat bo'lmaydi.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kunda nikoh to'yining azaldan estetik qadriyat sifatida shakllangan dam olish vazifasi mavjud. Dam olish va hordiq chiqarish shaxsning o'z ixtiyoridagi ishi bo'lsa-da, u jamiyatdan, ijtimoiy munosabatlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan tashqarida kechmaydi. Dam olish va hordiq chiqarish shaxs va ijtimoiy taraqqiyot manfaatlari bilan dialektik bog'liqdir. SHuning uchun uni maqsadli tashkil etish uchun jamiyat va davlat maxsus ijtimoiy-madaniy texnologiya (vositalar, usullar, tashkiliy mexanizmlar majmuasi) yaratgan[4].

XX asrning mashhur faylasuflaridan biri Erix Fromm inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etib, insonni ziddiyatlar mudom ta'qib etadi, ular ichida qadimgisi uni goh hayvoniy, goh insoniy yashashga majbur etadigan ehtiyojlar o'rtasidagi ziddiyatdir, demokratik tamoyillarga amal qiladigan, insoniy fazilatlarini, ijodiy xislatlarini rivojlantirishga yordam beradigan hayot sharoitlarini yaratgan jamiyatgina sog'lomdir,[5] degan xulosaga keladi. Bu o'rinda u G'arbda "ommaviy madaniyat"ning destruktiv ta'sirida shakllangan ehtiyojlarni emas, balki har bir shaxsni, individning ichki ma'naviy olamini, undagi ijobiy xislatlarni to'la namoyon bo'lishiga yordam beradigan ijtimoiy muhitni, dam olish sharoitini yaratishni nazarda tutadi[5]. Faylasufning fikriga ko'ra, agar shunday muhit va ruhiy-ma'naviy ehtiyojlarni qondirish imkoni bo'lmasa, jamiyat ham, shaxs ham destruktiv xatti-harakatlarga, "og'ir ruhiy og'ishlarga",[5] xastalikka yo'l tutadi.

Nikoh marosimlari millatning, xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy-ruhiy, milliy-madaniy ehtiyojlari va qiziqishlari asosida yuzaga kelgani bois, u ushbu millatning, xalqning farzandlarini befarq qoldirmaydi. An'anaviy qadriyatlarining umrboqiyli, mustaqillik davrida millatimiz, xalqimiz yoshlarida tarixiy-madaniy merosga, xalq bayramlari, tomoshalari va dam olish an'alariga qiziqish oshganligining negizi ham shundadir.

Dam olish va hordiq chiqarish o'zaro dialektik bog'liq rekreativ (psixofiziologik) va ijtimoiy-ma'naviy (psixopedagogik) vazifalarni bajarishga qaratilgandir. To'g'ri, dam olish va hordiq chiqarish etnomadaniyatning o'ziga xos an'anaviy turi sifatida boshqa (masalan, kommunikativ, tarbiyaviy, madaniy-ijodiy, bo'sh vaqtni o'tkazish va b.) funksiyalarni ham bajaradi. Ammo dam olish va hordiq chiqarishga qaratilgan tadbirlarda, faoliyat turlarida, ayniqsa, etnomadaniyatga taalluqli xalq bayramlari va to'ylarda u yoki bu funksiyani boshqalaridan ustun turadi deb asoslash juda qiyin. Shuning uchun dam olish va hordiq chiqarish boshqa funksiyalar bilan uyg'un keladi. Nikoh marosimlaridagi hordiq chiqarish kishining og'ir mehnatdan keyingi psixofiziologik, faolligni nafaollik, jismoniy mehnatni aqliy mehnat, aqliy mehnatni xayol, orzu, tilaklar yoki hazil-o'yinlar bilan almashtirish ehtiyojlari natijasidir.

Xalqimizning gedonistik – dam olish va hordiq chiqarish an'analari keyingi yillarda keskin transformatsiyaga uchrarmoqda. Ushbu o'zgarishlar tabiiy holdir, ammo xalq madaniyatidagi o'z qimmatini yo'qotmagan dam olish va hordiq chiqarish an'alarini asrash, ulardan kishilarning badiiy-estetik didini shakllantirishda samarali foydalanish ham muhimdir. Shunday ekan, har bir nikoh marosimlarni bachkana xursandchilik, aysh-ishrat, maishatbozlik, tashqi bejirimlik yoki soxta tantanavorlik bilan bog'lamaidan, go'zal milliy-badiiy qadriyatlarimiz asosida kamol toptirib borishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, tarixiy va zamonaviy ma'naviy qadriyatlar xalq ruhi va faoliyatiga asabiy emas, zavqiy kayfiyat bersa, insonni ilhomlantirib, hayotga, mehnatga va farog'atga chorlasa, jamiyat va shaxs estetik madaniyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanadi

Ma'naviy madaniyatning milliy shakllari orasida avlodlar-avlodga o'tib kelayotgan milliy urf-odatlar, an'ana

va qadriyatlar orasida nikoh marosimlari alohida o'rin tutadi. Ushbu ulkan ma'naviy meros asosida kishilarning o'zaro munosabatlarida mehr-oqibatni shakllantirish va mustahkamlash azaldan o'zining samarali natijalarini berib kelgan. Misol uchun, biror-bir qarindoshlarini tanimaydigan o'spirin dono-katta avlodning sa'y-harakati bilan muayyan to'y-hasham, maraka, marosim yoxud milliy urf-odatlariga jalb qilinishi natijasida nafaqat o'z yaqinlarini taniy boshlaydi, balki ularga nisbatan iliq munosabat, mehr tuyg'ulari yuzaga kelishi ta'minlanadi. Shu sabab, Yangi O'zbekistonda oila va nikoh bilan bog'liq axloqiy-estetik qadriyatlar asosida farzandlarimizni ulg'aytirishimiz lozim.

Yurtimizning har bir hududida o'ziga xos go'zal urf-odatlarining axloqiy va estetik xususiyatlari nikoh marosimlarini yanada boyitib, o'zida ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarni mujassam etgan. Erix Frommning fikricha, "... avvalo XX asrda "muhabbatga munosib" siymoni topishga munosabat keskin o'zgardi. Viktorian davrida, muayyan tamoyillarga sodiq boshqa qator tamaddunlarda bo'lganidek, keyinchalik nikohga olib keladigan muhabbat bevosita shaxsiy kechinma bo'lmagan. Aksincha, yigit va qiz bitishuv asosida nikohlangan – yoki biror-bir nufuzli oilalar yoxud sovchi vositachiligida yoki vositalarsiz nikohlangan. Yigit-qizlar ijtimoiy nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda nikohdan o'tishgan. Muhabbat esa nikohdan keyin tug'ilib,

kuchayib boraveradi, degan aqida hukmronlik qilgan".[6] Sevgi va muhabbat asosida nikoh qurish G'arbda o'z mohiyatiga – ijtimoiy, huquqiy maqomiga to'la ega bo'lgan bir paytda, o'zbek nikohida sevgi asosida nikohlanuvchilar biroz kamayganini kuzatish mumkin.

Insonlarni sevib va sevilib yashash hayotni chin insoniy va zavqli, huzurbaxsh qiladi. Insonlarni sevish, e'zozlash orqali hayotni sevish, e'zozlash mumkin. Ammo sevilish doimo antropologik va psixologik muammo bo'lib kelgan. Quyida insonlarni sevish va sevilib yashash murakkab voqeiklar ekaniga ishora qilinadi: "Baxt va muhabbat bir-birini taqozo etuvchi ruhiy hodisalar ekan, ishq yo'q odam to'liq baxtli bo'lolmagani kabi, muhabbat egasini mutlaq baxtsiz deb bo'lmaydi. Bizningcha, baxtli bo'lish uchun kishi ishq tushgan odami yoki narsasiga, albatta, erishishi shart emas"[7].

**Xulosa.** O'smir yigit va qizlar balog'at va yetuklik yoshiga yetganidan boshlab bo'lajak umr yo'ldoshining sifatlarini xayolan belgilay boshlaydi. Shaxs sifatida ideal obraz qidiradi. Insonlarning bu sifatlarga qarashlari xarakter, olgan tarbiyalari, dunyoqarashlari va qanday qadriyatlarga amal qilishlariga ko'ra turlichadir. Baxtli hayot moddiy hayotda deb tarbiya olgan bo'lsa, xuddi shunga intilish yoki haqiqiy baxt sevib turmush qurish, ma'naviy jihatdan yetuk kishiga intilishini ko'rish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар байрамига бағишланган учрашувдаги нутқи// <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-khal-07-03-2018>
2. Каримов И.А. Адолатли жамият сари. -Тошкент: Ўзбекистон, 1998, - Б. 67.
3. Махмудов Т. Гўзаллик ва ҳаёт. Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977, - Б. 56.
4. Культурно-досуговая деятельность: перспективы развития и проблемы регулирования. – Свердловск, 1991. -55 с
5. Фромм Э. Мужчина и женщина. –М.: ООО «Фирма Изд-во АСТ», 452.
6. Блез Паскаль, Хосе Ортега де Гассет, Эрих Фромм. Сеvgи санъати. – Тошкент: О'zbekiston. 2011. – Б. 125.
7. Зиямухамедов Б. О, Ҳазрати инсон: Саодатга эришиш йўллари – Тошкент: «Тамaddon» нашриёти, 2015. – Б.145.





*Mexriddin KUCHKAROV,*  
Nizomiy nomidagi TDPU dotsent v.b., PhD  
E-mail:kuchkarovmexriddin1972@gmail.com  
*Shoxida MIRZAYEVA,*  
Bekobod shahar 7-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi

*Qo'qon davlat pedagogika unstituti dotsenti A.Jumanov taqrizi asosida*

### OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF SKILLS TO ESTABLISH A DIALECTICAL RELATIONSHIP BETWEEN CAUSE AND EFFECT IN THE PROCESS OF CHEMISTRY EDUCATION

Annotation

This article analyzes the possibilities of forming students' skills to establish cause-and-effect relationships. The main attention is paid to the possibilities and types of the cause-and-effect approach in teaching chemistry. The approach based on the establishment of cause-and-effect relationships is based on the formation of analytical, critical, creative thinking, and scientific forecasting skills.

**Key words:** Cause-and-effect relationship, dialectical relations, differential approach, inductive approach, deductive approach, cognitive competence, experiment, hypothesis, motivation, algorithm, knowledge analysis, knowledge synthesis, chemical laws, chemical theories, chemical rules.

### ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЕ УМЕНИЕ УСТАНОВИТЬ ПРИЧИННО-СЛЕДСТВЕННЫЕ СВЯЗИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ХИМИИ

Аннотация

В данной статье анализируются возможности формирования у учащихся навыков по установлению причинно-следственных связей. Основное внимание уделяется возможностям и типам причинно-следственного подхода в обучении химии. Подход, основанный на установлении причинно-следственных связей, основан на формировании навыков аналитического, критического, творческого мышления, научного прогнозирования.

**Ключевые слова:** Причинно-следственная связь, диалектические отношения, дифференциальный подход, индуктивный подход, дедуктивный подход, когнитивная компетентность, эксперимент, гипотеза, мотивация, алгоритм, анализ знаний, синтез знаний, химические законы, химические теории, химические правила.

### KIMYO TA'LIMI JARAYONIDA SABAB - OQIBAT DIALEKTIK MUNOSABATLARINI O'RNATISH KO'NIKMLARINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada ta'lim oluvchilarning sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari tahliliy bayon etilgan. Unda sabab-oqibat munosabatlari asosida yondashuvning kimyo ta'limidagi imkoniyatlari, turlariga urg'u berilgan. Sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish asosida yondashuv tahliliy, kritik, kreativ fikrlash, ilmiy bashorat qilish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam berishi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** Sabab-oqibat munosabati, dialektik munosabatlar, differensial yondashuv, induktiv yondashuv, deduktiv yondashuv, kognitiv kompetensiya, eksperiment, gipoteza, motivatsiya, algoritm, bilimlar analizi, bilimlar sintezi, kimyoviy qonunlar, kimyoviy nazariyalar, kimyoviy qoidalar.

**Kirish.** Jahondagi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ta'lim oluvchilarning kognitiv qobiliyatlarini nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni uzviy bog'lanishini ta'minlash asosida rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish metodikasini integrallashgan mashg'ulotlar orqali takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Kimyo o'qitishda sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari va uslubiy tizimi, amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha faoliyatning tuzilishi, kimyo kursining aniq mavzulari va bo'limlarini o'rganishning real jarayonida sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirishning uslubiy tizimini amaliyotda qo'llashning didaktik shartlari va texnologiyasi ishlab chish o'ta muhim masala hisoblanadi.

Ta'lim oluvchilar bilimlarini tizimlashtirishda, o'rganilgan materialdan foydalanib, ilgari olingan bilimlar umumlashtiriladi, turli ma'lumotlar, hodisalar o'zaro bog'lanadi. Sabab-oqibat munosabatlarini asosida yondashuv nafaqat tegishli bilimlarni bilish, tushunishni talab etadi, balki

bu bog'lanishlardan foydalanish qobiliyati va ko'nikmasini ham talab qiladi. Tevarak-atrofdagi hodisalarning kimyoviy sabab-oqibat munosabatlarini anglash tizimli kimyoviy bilim hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning muhim usullaridan hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Barcha tabiiy fanlar singari kimyo fanlarning ham asosiy maqsadi ilmiy dunyoqarashni, tabiat qonuniyatlarini va ularni o'rganish usullari haqidagi bilimlarni shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish faqat bilimlarni tizimli o'zlashtirish, ularni mavzulararo, fanlararo integratsiyasini ta'minlash, kognitiv va uslubiy baholash asosida amalga oshishi mumkin. Bilimlar, fikrlash barqarorligi va integratsiyaning muhim shartlaridan biri bu sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish qobiliyatlarini shakllantirishdir [1]. Sabab oqibat munosabatlarini pedagogik - psixologik ta'lim muammosi sifatida o'rganish zarurati vujudga keldi.

Bir qator uslubiy qo'llanmalar kimyo o'qitish jarayonida hodisalarning sabab-oqibat munosabatlarini g'oyasini rivojlantirishga, muammoli ta'limni amalga

oshirishga qaratilgan [5]. Ta'lim oluvchilarning sabab-oqibat munosabatlarini shakllantirish masalasi L.A.Svetkov, G.M.Chernobelskaya, S.V.Krivix kabi mualliflar tomonidan ham e'tirof etilgan [7]. Umuman olganda, uslubiy nuqtai nazardan, bunday yondashuv fan texnika taraqqiyoti bilan birga chuqurlashib, o'z ko'lamini kengaytirib boraveradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Nazariy jihatdan tadqiqot faoliyatning psixologik nazariyasiga (P.Ya.Galperin, V.V.Davidov, N.F.Talizina), uni faollashtirishning didaktik kontseptsiyasiga (A.K.Gromseva, G.I.Shukina), ko'nikmalarni shakllantirishning uslubiy jihatlari (I.M.Kuznetsova, N.A.Loshkareva, A.V.Usova) bag'ishlangan, talabalarning dunyoqarashini shakllantirish bo'yicha (A.A.Makareni, T.F.Smirnova, N.N.Surtaeva), mavzu ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha (A.L.Andrienko, V.Y.Vivyurskiy, E.G.Zlotnikov, M.V.Zueva) bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Kimyo metodologiyasida sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirish muammosini har tomonlama o'rganish, kimyo ta'limida o'rganilishi mumkin bo'lgan mavzularda sabab-oqibat munosabatlarining turlari va ularning didaktik funksiyalarini, amalga oshirish uchun o'quv-kognitiv faoliyatning tuzilishi hamda sharoitlarini aniqlashtirish imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar.** Kimyo fanini o'qitish jarayonida sabab-oqibat munosabatlarini o'rganish metodikasi uzil kesil ishlab chiqilmagan bo'lib, ushbu jarayon fanning rivojlanib boruvchi tavsifiga mos holatda doimiy ravishda mazmunan yangilanib borishni talab etadi.

O'quv predmetining o'ziga xosligi va uni o'rganish jarayoni boshqa fan usullarida ishlab chiqilgan sabab-oqibat munosabatlarini bevosita qo'llashni istisno qiladi. Kimyo ta'limi uchun sabab-oqibat munosabatlariga asoslangan mustaqil uslubiy tizim talab qilinadi. Sabab-oqibat munosabatlarining didaktik ahamiyatini, kimyo fanini o'rganish jarayonida o'quv predmeti mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini, uni ochish mantig'ini va o'zlashtirish psixologiyasini hisobga olgan holda, ko'plab zamonaviy o'quv vazifalarini hal qilishda ularni ta'lim oluvchilarda bosqichma-bosqich shakllantirishning asosli metodologiyasini ishlab chiqish talab etiladi. Bunday metodikani yaratish uchun esa avvalo kimyo o'qitishda sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirishning tegishli nazariy asoslarini va ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Bu muammoning dolzarbligini belgilab beradi.

Integratsiyalashgan, tizimli va faoliyatga asoslangan yondashuv asosida sabab-oqibat munosabatlarini amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida, kimyo fanini o'rganish jarayonida o'quv va kognitiv faoliyatini sabab-oqibat munosabatlariga ustuvorlik berilgan uslubiy tizimi va uni amalga oshirish shartlari ishlab chiqildi. Kimyo o'qitishda sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari va uslubiy tizimi, amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha faoliyatning tuzilishi, kimyo kursining aniq mavzulari va bo'limlarini o'rganishning real jarayonida sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirishning uslubiy tizimini amaliyotda qo'llashning didaktik shartlari va texnologiyasi ishlab chiqilib, kimyo metodologiyasida sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirish muammosi har tomonlama o'rganildi, o'rganilishi mumkin bo'lgan mavzularda sabab-oqibat munosabatlarining turlari va ularning didaktik funksiyalari, amalga oshirish uchun o'quv-kognitiv faoliyatning tuzilishi hamda sharoitlari aniqlashtirildi.

Sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish uchun tuzilgan kartochka savollari algoritmi yakuniy natijaga olib keluvchi qadamma-qadam ko'rsatmalardan (savollar to'plami) iborat yo'naltiruvchi xarakterga ega bo'lishi lozim.

O'quvchilarni algoritm kartochkalari bilan ishlashini tashkil etish.

O'quvchilarni algoritm kartochkasi bilan ishlashga o'rgatishning birinchi bosqichida ular bilan "sabab" va "oqibat" tushunchalarini tahlil qilish, mohiyatini anglashga yordam berish zarur.

Ikkinchi bosqichda qolgan tushunchalar: obyekt nima ekanligi, tarkibiy qismi, obyektning tavsifi, qo'shimcha xususiyatlari bilan tanishtiriladi. O'quvchilar ta'lim matnlarida bunday savollarni ko'rish va aniqlashni o'rganishlari uchun "nima uchun" so'zi bilan boshlanadigan (javobga ega bo'lgan) savol tuzishga o'rgandilar.

Uchinchi bosqichda, asosiy faoliyat mikro-ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, unda algoritm tuziladi. Asosiy amallarni aniqlash uchun o'quvchilar bilan belgilashlar bo'yicha kelishib olinadi: to'g'ri javoblarni tanlash, belgilash tartibi haqida ma'lumotlar beriladi. Algoritmning birinchi qadamida o'quvchi ijobiy natijani aniqlab, bu natijaga kelish uchun qanday amallar yoki muvohazalarni amalga oshirganligini tushuntiradi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, ularga boshqa yo'llar ham taklif qilinadi: "Nima uchun" degan savol stiker bilan yopiladi va keyin jumladagi qolgan barcha so'zlar oqibatni anglatadi. Masalan: "organizmladagi hayotiy jarayonlarni energiya bilan ta'minlash uchun organik moddalar kislorod bilan oksidlanishi kerak, shuning uchun organizmlarga kislorod bilan nafas olish juda muhim, aks holda nobud bo'ladi" jumlasidagi sabab qismi o'rniga "nima uchun" savoli qo'yilib oqibat qismi qoldiriladi, natijada, "Nima uchun organizmlarga kislorod bilan nafas olish juda muhim, aks holda nobud bo'ladi?" degan savol hosil bo'ladi. To'g'ri javob sifatida sabab ko'rsatiladi "organizmladagi hayotiy jarayonlarni energiya bilan ta'minlash uchun organik moddalar kislorod bilan oksidlanishi kerak". Savol tuzilishida sabab berilib, oqibat so'ralishi ham mumkin. "Organizmlarning hayotiy jarayonlari uchun kerakli energiya qayerdan olinadi?"

Birinchi bosqichlarda kartochkalarni rivojlantirib, ma'lumotlar faqat mavzu bo'yicha cheklanadi. Kelajakda o'zlashtirish qobiliyati yuqori bo'lgan o'quvchilar uchun qo'shimcha ma'lumotlarni topish uchun boshqa lug'atlar, ensiklopediyalar, boshqa sinf darsliklari yoki internet ma'lumotlaridan foydalanishi taklif etiladi.

Birinchi bosqich faoliyati algoritm kartasi bo'yicha guruhlarda (uch-to'rtadan ortiq bo'lmagan) tashkil etiladi. Birinchi ishtirokchi o'z kartasidagi savolni o'qiydi va birinchi qadamda to'g'ri javobni tanlab, qolgan javoblar nima uchun noto'g'ri ekanligini sherigiga tushuntiradi. Keyin sherikning kartasi bilan ham ishlashadi. Agar ikkala sherikni tushuntirishi qiyin bo'lsa, unda o'qituvchi qiyinchiliklar sababini savollar orqali bilib oladi: "Vazifada nimani tushunmayapsiz? Vazifani bajarish uchun qanday ma'lumotlar yetishmaydi? Bunga sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish olmaslik, matn bilan ishlashdagi qiyinchiliklar, matnda ma'lumot topa olmaslik, ta'lim materialining bilimaslik ham sabab bo'lishi mumkin. Keyinchalik, darsning maqsadi, vazifalari va natijalariga qarab kartochka ustida individual ishlash shaklida guruh ishlari olib boriladi. Amallar ketma-ketligi ta'lim oluvchi tomonidan bajarilishi shart, o'qituvchi esa bu amallarni sifatli bajara olishi uchun sharoit yaratadi.

Uchinchi bosqich. Tafakkur qilish uchun asosiy savolga javob berish variantlari guruhi muhokamasini tashkil qilinadi. Sabab – oqibat munosabatlarini o'rnatish uchun mikroskillar shakllanishini aniqlash va nazorat qilish uchun rag'batlantirish varaqasidan foydalanish maqsadga muvofiq. O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda dastlabki ikki darsda o'z natijalarini to'ldiradilar, keyinchalik ta'lim oluvchilar o'z muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish varaqasida o'zlari qayd etib boradi. Guruh ishida o'quvchilar bilan birgalikda mikro-

ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha mavjud qiyinchiliklar aniqlanadi, tahlil qilinadi va to'g'irlab boriladi.

Kimyoviy reaksiya tezligining katalizatorida bog'liqliklarini o'rganishning universal yo'nalishlari amaliy statistika usullariga misol bo'ladi. Jarayonning ba'zi parametrlari o'rtasida bog'lanish mavjudligi to'g'risida gipotezani ilgari surib, ular o'rtasida funksional aloqa mavjudligini grafik ko'rinishda ifodalash mumkin. Funksional munosabatlar, agar  $x$  o'zgaruvchining har bir qabul qilinadigan qiymati  $y$  ning bir va faqat bitta qiymatiga to'g'ri kelsa, jarayon mexanizmiga to'g'ri keladi. Jarayonlar, obyektlar orasidagi sabab-oqibat munosabatlarini ifodalash uchun strukturaviy blok sxemalar yordamida ikonografik modellashtirish usuli ham qo'llaniladi.

Simvol belgili matematik modellar obyektlar orasidagi miqdoriy munosabatlarni ifoda etadi va sabab-oqibat munosabatlarining xususiyatlari va mohiyatini aniqlashni osonlashtiradi. Obyektlar grafiklaridan foydalanish, mutlaqo boshqa fizik-kimyoviy jarayonlarini aloqalari va o'zgarishlarning bir xilda kamaytirish imkonini beradi, bu esa ushbu tizimlarning ishlashi to'g'risida juda muhim umumiyashtirishlarga olib keladi. Signal grafigi - sistemasining matematik modeli tenglamalarining chiziqli yoki chiziqli tizimlariga to'g'ri keladigan va sistemaning o'zgaruvchilari (kattaliklari) orasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aks ettiruvchi yo'naltirilgan grafik bilan ifodalanadi. Signal grafigining vertikal tizimining signallariga to'g'ri keladi va shoxlar bu signallar orasidagi munosabatni xarakterlovchi koeffitsientlar yoki uzatish funksiyalariga to'g'ri keladi.

Kompyuter texnologiyalarining takomillashuvi natijasida kimyoviy jarayonlar va texnologiya obyektlarini o'rganishga sifat jihatdan yangi yondashuvni qo'llash imkoni tug'ildi. Matematik modellashtirish va tizimli tahlil usullarining ishlab chiqilishi, shuningdek, qurilmalarda ro'y

berayotgan diffuzion jarayonlarni o'rganish metodikasini o'zgartirishga imkon yaratdi. Bu esa qurilmalar va butun ishlab chiqarishning ierarxik tuzilishi darajalari orqali fenomenlarning sabab-oqibat munosabatlarining namoyish etilishida ifodalandi. Texnologik jarayon alohida darajalar orasidagi munosabatlarni hisobga olgan holda, unda sodir bo'layotgan fizik-kimyoviy hodisalarni integral baholashdan boshlab tahlil qilinadi.

Hodisaning ma'lum obyektiv sabablari (shartlari) bajarilgandan keyingina bu hodisa yuz berishi mumkin. Biroq, uning paydo bo'lish vaqti oldindan ma'lum emas, chunki bizga noma'lum bo'lgan yoki biz uchun ahamiyatsiz bo'lgan boshqa sabablar ham bo'lishi mumkin, bu esa nihoyat muqarrar zarur bo'lganlar bilan birgalikda bizni qiziqtirgan ayni hodisaning yuzaga kelishini aniqlaydi. Hodisa ro'y bergandan so'ng keyingi hodisalarga sabab bo'luvchi yangi sharoitlar (sabablar) paydo bo'ladi. Bunda dastlabki sabablar yo'qolib ketishi yoki saqlanib qolishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Ta'lim muammolarini hal qilish va ta'lim oluvchilarning hayotiy imkoniyatlarini rivojlantirish, ta'limning tarkibiy qismi sifatida, butun ta'limning tizimli o'quv-tarbiyaviy ishlari natijasida kompleks hal qilinishi lozim bo'lgan murakkab ko'p bosqichli jarayondir. Kimyoning didaktik imkoniyatlaridan, xususan, ta'lim oluvchilarning kreativ fikrlash, ilmiy bashorat qilish, bilimlarini hayotiy muammolarni hal etishda qo'llay olish qobiliyatlarini shakllantirish uchun, sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish imkoniyatidan foydalanish ta'lim mazmunini o'zgartirish yo'nalishlaridan biridir.

Kimyo ta'limida sabab-oqibat munosabatlarining o'rnatilishi kimyoviy tushunchalar, qonuniyatlarga doir bilimlarni mukammallashuvi bilan birga, o'quvchilarda bilimlarni tahlil qilish, sintez qilish, ilmiy bashorat qilish qobiliyatlarini ham shakllantirishga yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Гаркунов В.П. Проблемы межпредметных связей на современном этапе обучения химии. // Совершенствование содержания и методов обучения химии в средней школе: Республиканский сб. науч. работ. Л., 1982 г. - С. 3-6.
2. Кузнецова Л.М. Ваш голос как жужжание мухи: как научить понимать химическую картину мира // Учитель. Газета 1996. - № - 38 С. 10.
3. Макареня А.А. Избранные труды. Т.2. Теория и методика обучения химии. Тюмень: ТОГИРРО, 2000. - 355 с.
4. Минченков Е.Е. Совершенствование умений осуществлять умственные действия. // Химия в школе. 2000. - № - 3. - с. 19-25.
5. Смирнова Т.Ф. Формирование научного мировоззрения учащихся при изучении химии: Из опыта работы. Пособие для учителя. М.: Просвещение, 1984. - 175 с.
6. Суртаева Н.Н. Формирование и использование химической картины природы при обобщении знаний учащихся по химии. Дисс. канд. пед.наук. Л., 1987. - 225 с.
7. Цветков Л.А. Преподавание органической химии в средней школе. - М.: Просвещение, 1988. - 240с.
8. Чернобельская Г.М. Методика обучения химии в средней школе: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. М.: ВЛАДОС, 2000. - 336 с.
9. Кривых С.В. Приобщение учащихся к методам научного познания как средства формирования рефлексивных умений при изучении химии. Дисс.канд. пед. наук. Омск, 1997. -187 с.
10. Ярких Л.А. Деятельность учителя химии по развитию умений устанавливать причинно-следственные связи при решении воспитательных задач: Автореф. дис... канд. пед.наук. -М.: 2004. -20 с.



UDK: 504.6:378

**Muhriddin QODIROV,**  
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi  
Email: qodirovmuhriddin74@gmail.com

**Ravshan OXUNOV,**  
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti  
TDU HFX kafedrasida dotsenti, PhD G.G‘ulomova taqrizi asosida

## THE EFFECT OF NOISE ON THE LABOR ACTIVITY OF TEACHING STAFF

Annotation

The article describes the negative impact of noise on teachers. It explores and analyzes the causes of noise, its impact on the health and work of the teaching staff, the role and importance of noise reduction measures in the field of occupational safety in several ways. Noise reduction, development and implementation of anti-noise measures play an important role in improving labor efficiency. Noise reduction also plays an important role in ensuring the quality of education while reducing occupational diseases among teachers.

**Keywords:** teaching staff, educational processes, working conditions, harmful factors, noise, occupational safety, occupational diseases, quality of education, safety.

## ВЛИЯНИЕ ШУМА НА ТРУДОВУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРОФЕССОРСКО-ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКОГО СОСТАВА

Аннотация

В статье рассказывается о негативном влиянии шума на преподавателей. В нем исследуются и анализируются причины возникновения шума, его влияние на здоровье и трудовую деятельность профессорско-преподавательского состава, роль и значение мероприятий по снижению шума в области охраны труда несколькими способами. Снижение воздействия шума, разработка и внедрение противошумных мероприятий играют большую роль в повышении эффективности труда. Снижение воздействия шума также играет важную роль в обеспечении качества образования при одновременном снижении профессиональных заболеваний у преподавателей.

**Ключевые слова:** профессорско-преподавательский состав, учебные процессы, условия труда, вредные факторы, шум, охрана труда, профессиональные заболевания, качество образования, безопасность.

## SHOVQINNING PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR MEHNAT FAOLIYATIGA TA’SIRI

Аннотация

Maqolada shovqinning professor-o‘qituvchilarga salbiy ta’siri haqida so‘z yuritiladi. Unda shovqinning kelib chiqish sabablari, uning professor-o‘qituvchilar salomatligi va mehnat faoliyatiga ta’siri, shovqinni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning mehnat muhofazasi sohasidagi o‘rni va ahamiyati o‘rganilib, bir necha usullar bilan tahlil qilingan. Shovqinning ta’sirini kamaytirish, shovqinga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda joriy etish mehnat samaradorligini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Shovqinning ta’sirini kamaytirish professor-o‘qituvchilarda kasb kasalliklarini kamaytirish bilan birga ta’lim sifatini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** professor-o‘qituvchi xodimlar, dars jarayonlari, mehnat sharoiti, zararli omillar, shovqin, mehnat muhofazasi, kasb kasalligi, ta’lim sifati, xavfsizlik.

**Kirish.** Shovqin professor-o‘qituvchilarga salbiy ta’sir etuvchi asosiy zararli omillardan biri hisoblanadi. Shovqinni zararli omillar qatoriga kiritar ekanmiz, shu navbatda zararli omillar atamasiga ham ta’rif berishimiz kerak.

Zararli omillar – insonning mehnat faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi yoki biror-bir kasallikka olib kelishi mumkin bo‘lgan omillar. Zararli omillarga shovqin, titrashlar, yoritilganlik, elektr va magnit maydonlar kabi mehnat faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillar kiradi.

Insonning mavjud beshta sezgi a’zosi ichida eshitish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Aynan eshitish orqali inson boshqa odamlar bilan muloqot qiladi, xavf-xatarni anglaydi va o‘z madaniyatini yuksaltiradi. Inson o‘zining eshitish sezgilari orqali toza tovushlarni, aralash tovushlarni va shovqinni farqlaydi. Toza tovush bir xil chastotadagi sinusoidal tebranishlardan iboratdir.

Insonni o‘rab turgan muhitda turli xil tovushlar mavjud bo‘lib, ularni inson eshitish a’zosi yordamida eshitadi. Tovush fizik kattalik bo‘lib, faqat elastik muhit (havo, gaz, suv va hokozolar) da tarqaladi. Vaakum muhitda esa tovush tarqalmaydi. Aralash tovush bir necha toza tovushning

yg‘indisidan iborat. Shovqin esa har xil chastotali va tebranishli tovushlarning aralashmasidir.

Inson xoh kunduzi, xoh tunda, ish vaqtida ham, dam olish vaqtida ham, uyquda ham ma’lum darajadagi shovqin ta’sirida bo‘ladi. Masalan, barglarning shitirlashi 10-40 dB, soatning chiqillashi quloqdan 1 m uzoqlikda 25-35 dB, uxlayotgan odamning nafas olishi 25 dB atrofida, oddiy so‘zlashuv vaqtida –50-60 dB, qattiq baqirib so‘zlashganda –75 dB, 100 km/soat tezlikda harakatlanayotgan yengil avtomobil-110 dB, reaktiv samolyot-120-130 dB tovush intensivligidagi shovqin hosil qiladi[1].

Insonning doimiy yuqori intensivlikdagi shovqin ta’sirida bo‘lishi uning sog‘ligiga ta’sir etadi, u tez charchaydi, psixomantiy reaksiya tezligi kamayadi, xotirasi susayadi. Shuningdek, shovqin insonning diqqatini bir joyga jamlashiga xalaqit qiladi, harakatning aniqligini va muvozanatini buzadi, tovush va yorug‘lik signallarini qabul qilish qobiliyatini susaytiradi va natijada turli xil baxtsiz hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari shovqin qon bosimining oshishiga, ko‘z qorachig‘ining kengayishiga, oshqozon-ichak faoliyatining buzilishiga, yurak va tomir

urishining tezlashiga, asab tizimining buzilishiga, uyqusizlik sodir bo'lishiga va eshitish qobiliyatining susayishiga ham olib keladi. Ayniqsa inson qulog'i eshitmaydigan shovqinlar, ya'ni infratovushlar (tovush chastotasi 16-20 Gs dan kichik shovqinlar) va ultratovushlar (tovush chastotasi 20000 Gs.dan katta) inson sog'ligiga katta ta'sir ko'rsatadi[2].

Shovqinning professor-o'qituvchi xodimlarning mehnat sharoitlariga salbiy ta'sirini o'rganish uchun quyidagi argumentlarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

Birinchi navbatda, shovqin o'qituvchilarning sog'lig'iga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agarda dars auditoriyalari shovqinli bo'lsa, professor-o'qituvchi xodimlarning dars berish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agarda shovqin takroriy hamda uzoq muddatli ro'y bersa, bu holat professor-o'qituvchi xodimlarning sog'lig'iga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Ikkinchidan, shovqin professor-o'qituvchilar mehnat jarayonlariga ham juda katta salbiy ta'sir etadi. Shovqin mehnat unumdorligini pasayishiga sabab bo'ladigan asosiy zararli omillardan biri hisoblanadi. Doimiy shovqinli mehnat muhitida faoliyat olib borish mehnat unumdorligini ikki barobar pasayishiga olib keladi. Ushbu holat esa o'z o'rnida ta'lim berish sifatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Uchinchidan, shovqin professor-o'qituvchi xodimlarning o'z mehnat jarayonlariga nisbatan motivatsiyasining kamayishi, o'z kasbiga nisbatan qoniqmaslik kabi holatlarni yuzaga keltiradi. Bu esa professor-o'qituvchi xodimlarning talabalarga dars berish jarayoni susayishga olib kelishi mumkin. Bu holda esa professor-o'qituvchi xodimlarda ham, talabalarda ham o'qishga nisbatan motivatsiya kamayadi.

Shovqin inson organizmiga salbiy ta'sir etib, turli xil xastaliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shovqinning ta'siri birdan sezilmaydi, balki vaqt o'tishi bilan doimiy shovqin ta'sirida ishlash natijasida hosil bo'ladi, ya'ni turli xil ko'rinishdagi asab va ruhiy xastaliklarni keltirib chiqaradi. Ayrim hollarda asab tizimiga ta'sir etish orqali yurak, bosh miya va jigarga ta'sir etadi, gipertonik kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Yuqori chastotadagi shovqin ta'sirida ish unumdorligi 10-15 % ga kamayishi, kishining eshitish a'zosi faoliyatining ishdan chiqishiga va umumiy sog'ligining yomonlashuviga olib keladi[3].

Shovqin ostida uzoq muddat aqliy mehnat faoliyatini olib borish eshitish organlariga yomon ta'sir qilishi natijasida professor-o'qituvchi xodimlarning eshitish qobiliyati pasayib ketadi. Bunda, avvalo eng kuchli darajada yuqori tebranish chastotasiga ega bo'lgan tovushlarni qabul qilish buziladi. Juda ko'p tebranishlarga ega bo'lgan tovushlar keyinchalik nerv sistemasi, eshitish organlarda kasalliklar kelib chiqishiga asosiy sabab bo'ladi. Shovqin boshni aylantirib, miyada og'riq paydo qiladi va quloq shang'illab asab tizimiga ham yomon ta'sir qiladi, fikrni jamlab, aqliy ish bilan shug'ullanishga imkon bermaydi. Uzoq vaqt mobaynida shovqinning odamga sezilmas darajada ta'sir qilishi asab tizimining ishdan chiqishiga olib keladi. Shovqin ta'sirida turli organ va tizimlarning, masalan, ovqat hazm qilish, qon aylanish normal faoliyati buziladi.

Shovqinning salbiy ta'sirini oldini olish o'qituvchilar uchun bir nechta muammolarni oldini olishi mumkin. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Birinchisi, shovqin kamaytirilganda professor - o'qituvchi xodimlarning mehnat samaradorligi ortadi. Ushbu hol esa, o'z navbatida mehnat samaradorligini keskin ortishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Mehnat unumdorligini ortishi ta'lim sifatini ortishiga olib keladi. Ikkinchisi shovqin miqdori kamaytirilganda xodimlarning o'z mehnat faoliyatiga nisbatan motivatsiyasi ortadi hamda ishga nisbatan qoniqish hissi hosil bo'ladi. Ushbu holat ham ta'lim sifatini oshirishga katta miqdorda hissa qo'shadi. Uchinchisi esa, shovqinning ta'sir

darajasini kamaytirish o'qituvchi xodimlar bilan talabalar o'rtasidagi aloqani yanada ko'paytirishga xizmat qiladi. Bu tadbir talabalar o'rtasida ta'limga, o'quv materiallariga, dars jarayonlariga nisbatan qiziqishlari yanada ortadi. Yuqorida keltirilgan tadbirlarning hammasining zamirida professor-o'qituvchi xodimlarga ta'sir etuvchi shovqinning ta'sir darajasini kamaytirish orqali ta'lim sifatini oshirish yotadi[4].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maqolani tayyorlash davomida mavzuga doir bir necha adabiyotlar, ilmiy va ilmiy-ommabop jurnallarda berilgan ma'lumotlar tahlil qilindi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, ilmiy maqolalarda asosan ishlab chiqarish forxonalarida ishlovchilarga shovqinning zararli ta'siri va uni oqibatlarini hamda shovqinni yo'qotish yoki ta'sir darajasini kamaytirish masalalari o'rganilgan.

Biz o'tkazgan tadqiqot mobaynida shovqinning professor-o'qituvchi xodimlarga salbiy ta'sirlari hamda ularning oqibatlarini o'rganildi. Tadqiqot ishida so'rovnoma, taqqoslama tahlil, analiz va sintez, tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. So'rovnoma tahlil usuliga ko'ra, shovqin dars jarayonining sifati hamda talabalarning darslarni o'zlashtirish ko'rsatkichlariga katta salbiy ta'sir ko'rsatadigan zararli omillardan biri deb topildi. Shovqinli muhitda ishlash professor-o'qituvchi xodimlarda ham, talabalarda ham ta'lim jarayonlariga nisbatan qiziqishni kamaytirib, ta'lim sifati darajasining pasayishiga sabab bo'ladi.

Maqolada shovqinli hamda shovqinsiz mehnat sharoitlarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchi xodimlar o'rtasidagi farq tahlil qilindi. Shovqinsiz mehnat sharoitlarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchi xodimlar talabalarni darslarga qiziqitirish, motivatsiyalar berish, o'quv natijalarini yaxshilashga yordam beradi. Ularning shovqinsiz muhitda ishlashi o'z-o'zidan ta'lim jarayonlarining sifatli bo'lishini va samaradorligini oshiradi. Shovqinli mehnat sharoitlarida faoliyat olib borayotgan xodimlar esa birinchi o'rinda sog'lig'iga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi, dars jarayonlariga nisbatan motivatsiyasini pasaytiradi. Shu o'rinda talabalarda ham ta'limga nisbatan qiziqishlarini yo'q qila boshlaydi, o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ham kamaytiradi.

Tadqiqot Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Fizika fakulteti 411 va 412-xonalarda olib borildi. Tadqiqot natijalari ma'ruza hamda seminar mashg'ulotlarida hosil bo'ladigan shovqin darajasini o'lchab, shovqinning professor-o'qituvchi xodimlarga salbiy ta'sirlari o'rganildi. Shovqinni o'lchash natijalariga ko'ra ma'ruza darslarida shovqinning eng past darajasi 50 db ni, o'rtacha ko'rsatkichi 77 db ni, maksimal darajasi esa 88 db ni tashkil etdi. Seminar mashg'ulotlaridagi o'lchash natijalari quyidagicha: shovqinning eng kam miqdori 40 db ni, o'rtacha miqdori 67 db ni, eng yuqori miqdori bo'lsa, 78 db ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar dars auditoriyalaridagi shovqin miqdori ko'p miqdorda ekanligini bildiradi. Ma'ruza darslarida shovqin miqdorining ortishiga asosiy sabab bu – talabalar soning ko'pligi hisoblanadi. Seminar mashg'ulotlarida esa shovqin miqdori sezilarli darajada kamaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchi xodimlarga shovqinning salbiy ta'sir darajasini kamaytirishdan asosiy maqsad - ularning sog'lig'ini hamda hayotini asrash. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shovqinli mehnat muhitida uzoq vaqt faoliyat olib borish, birinchi o'rinda ularning salomatligiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Professor - o'qituvchi xodimlarda ruhiy hamda jismoniy kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, ushbu xodimlarning eshitish, asab tizimlari hamda tomoq yo'lida kasalliklar kelib chiqishidagi asosiy zararli omil bo'lib, xizmat qiladi.

Shuningdek, shovqin ta'lim sifatini oshirishda katta zarar keltiradigan zararli omillardan biri hisoblanadi. Shovqin professor-o'qituvchi xodimlarning ta'lim berish jarayoniga ham, talabalarning ta'lim olish jarayoniga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bir tomondan professor-o'qituvchi xodimlarning dars berish jarayonlariga xalaqit berib, mehnat unumdorligiga ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan esa, talabalarga ta'lim olish jarayoniga halal berib, ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shovqin darajasi hamda uning davomiyligi ortsa, o'z o'rnida talabalarning salomatliklariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi boshlaydi. Shovqinning talabalarga salbiy ta'siri ulardagi stress, charchoq, shijoatsizlikda namoyon bo'ladi.

Shovqin professor-o'qituvchilarda o'z mehnat vazifasiga nisbatan motivatsionlikni, qiziqishlarini kamayishiga sabab bo'ladigan omillardan biri sanaladi. Shovqin nafaqat professor- o'qituvchi xodimlarda balki, talabalarda ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shovqin professor-o'qituvchi xodimlarda talabalarga ta'lim berish jarayonlariga, o'quv materiallariga nisbatan qiziqishlarni pasaytira, talabalarda esa, ta'lim olishga nisbatan qiziqishlarning keskin kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Ushbu holatlar ta'lim sifatiga avtomatik tarzda o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi[5].

**Tahlil va natijalar.** O'quv xonalardagi shovqinning asosiy manbai talabalarning o'zlari hisoblanadi. Dars jarayoni vaqtida talabalarning o'zaro gaplashishlari shovqinni hosil qiladi. Shuningdek ta'lim muassasasi hududida dars vaqtida o'tkaziladigan obodonlashtirish ishlari (o'tlarni o'rish, daraxt shoxlarini kesish va h.k.), yaqin joylashgan yo'llardagi transport vositalari harakati ham shovqin hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu shovqin professor-o'qituvchi xodimlarning ma'ruza nutqi bilan qo'shilib yanada ortadi. Ushbu holat esa, dars jarayonlarining qiziqarli hamda tushunarli bo'lishi darajasini kamaytiradi. Dars jarayonlarining tushunarsizlashib borishi asta-sekinlik bilan talabalarning bilim salohiyati darajasini kamayishiga olib keladi. Talabalarning bilim darajasi kamayishi o'z-o'zidan ta'lim muassasasining bilim berish darajasining milliy yoki xalqaro reytinglarda pog'onalarda pastlashishi kuzatiladi.

Ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchi xodimlarga ta'sir etuvchi shovqin miqdorini kamaytirishning bir necha usullari mavjud. Bu usullardan quyidagilarini misol keliririshimiz mumkin. Bular quyidagilar:

- dars xonalari, auditoriyalarida shovqinni yutuvchi vositalardan foydalanish hamda ularni sonini ko'paytirish;
- talabalarga yangicha dars o'tish jarayonlarini ishlab chiqish hamda ularni dars mashg'ulotlariga tatbiq etish;

- dars mashg'ulotlarini talabalar sonini kam sonli qilib olib borish;

- dars xonalari, auditoriyalarida oyna–derazalarni ochgan holda, dars mashg'ulotlarini olib borish.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalar amalga oshirilsa shovqinning ta'sir darajasi professor-o'qituvchi xodimlar uchun ham, talabalar uchun ham sezilarli darajada kamayadi hamda ta'lim jarayonlarining sifatli olib borilishiga o'z xissasini qo'shadi.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu tadqiqot shovqinning salbiy ta'sirini kamaytirish orqali professor-o'qituvchi xodimlarning salomatligini saqlash, professor-o'qituvchi xodimlarning hamda talabalarning dars jarayonlari va o'quv materiallariga nisbatan qiziqishni pasaytiradi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning shovqinli muhitda ishlashi ularning mehnat unumdorligini ikki barobarga kamaytiradi. O'z navbatida, ushbu holat professor -o'qituvchi xodimlarda charchoq hissining keskin ortishiga olib keladi. Ushbu holatlar bilan shu barobarda professor–o'qituvchilarda stress, eshitish va asab tizimida har xil kasalliklar kelib chiqadi. Yuqorida sanab o'tilgan barcha hollar birinchi navbatda ta'lim muassasalaridagi ta'lim berish sifatining yomonlashishiga asosiy sabab hisoblanadi.

Tadqiqotda shuningdek, shovqinli hamda shovqinsiz muhitda mehnat faoliyati olib borayotgan professor–o'qituvchi xodimlarning o'rtasidagi farqlar o'rganildi. Shovqinsiz muhitda faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchi xodimlarda mehnat unumdorligi ortgan, kasb kasalliklari ham ancha kamaygan, ayniqsa, nafaqat professor-o'qituvchi xodimlarda balki, talabalarda ham dars jarayonlariga nisbatan qiziqishlar, motivatsionlik ancha ortgan.

Shovqinli muhitda mehnat faoliyatini olib borayotgan professor-o'qituvchi xodimlarda esa birinchi navbatda ularning sog'ligida o'zgarishlarning paydo bo'lishi bilan namoyon bo'ladi. Sekinlik bilan ularda stress, asab tizimi, eshitish organlari hamda tomoq yo'li kasalliklari vujudga kela boshlaydi. Bu omillar oxir – oqibat ularning mehnat unumdorligiga ya'ni sifatli ta'lim berish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, shovqin ta'sirida faoliyat olib borayotgan professor–o'qituvchi xodimlarda ham talabalarda ham ta'lim jarayonlariga nisbatan qiziqishlarining keskin kamayishiga sabab bo'ladi.

Xulosa o'rnida tadqiqot mobaynida shovqinning professor-o'qituvchi xodimlarga ta'sir etuvchi salbiy omillardan biri deb topildi. Shovqin ta'sir darajasini kamaytirish ta'lim sifatini oshirishda asosiy tamoyillardan biri bolib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev O.R., Rahimov O.D., Xo'jaqulov R.T., Hasanova O.T., Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi. – T: «Davr nashriyoti» MChJ, 2013, 200 b.
2. Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: “Tafakkur-Bo'stoni”, 2015. - 336 b.
3. Oxunov R., Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik – T.:“Ma'rifat”, 2023. 380 b.
4. Oxunov R., Qodirov M., Oliy ta'lim muassasalarida mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali ta'lim sifatini oshirish. O'zMU xabarлари, 2023, MAXSUS SON, 168-171 betlar.
5. R.Okhunov, R. Rustamova, M. Rasulova, A.Ismailova, N. Parmanova, Improving The Safety Of Working Conditions For Teachers And Employees Of Higher Education Institutions. Social Science Journal Res Militaris (resmilitaris.net), vol.12, n°3, November Issue 2022, Франция. 10 bet



UDK: 372.1

*Shakarjon QO'CHQAROVA,*  
*Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: qochqarovashakarjon@gmail.com*

*BuxDU professori, DSc A.Hamroyev taqrizi asosida*

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATN USTIDA ISHLASH ORQALI NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-AMALIY AHAMIYATI

Аннотация

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn ustida ishlash orqali nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, tahlil qilish va izohlash qobiliyatlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va metodik yondashuvlarni tahlil qilishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, matn ustida ishlash, nutqiy kompetensiya, tahlil, ta'lim metodikasi, nazariy va amaliy ahamiyat.

## THE THEORETICAL AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF THE FORMATION OF SPEECH COMPETENCE IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS BY WORKING ON THE TEXT

Annotation

This article analyzes the theoretical and practical importance of monitoring the speech competence of students of the project by working on the text. In the process of working on the text, the development of students' oral and written speech, analysis and interpretation tools are important. This article is dedicated to the analysis of scientific research and methodical explanations of observation of speech competences in education.

**Key words:** Primary education, work on the text, speech competence, analysis, educational methodology, theoretical and practical significance.

## ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРИ РАБОТЕ НАД ТЕКСТОМ У УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье анализируется теоретическая и практическая значимость контроля речевой компетентности учащихся проекта посредством работы над текстом. В процессе работы над текстом важное значение имеет развитие устной и письменной речи учащихся, инструментов анализа и интерпретации. Данная статья посвящена анализу научных исследований и методическим объяснениям наблюдения речевых компетенций в образовании.

**Ключевые слова:** Начальное образование, работа над текстом, речевая компетентность, анализ, методика обучения, теоретическая и практическая значимость.

**Kirish.** Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish bugungi ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Nutqiy kompetensiya o'quvchilarning og'zaki va yozma muloqotda erkin va to'g'ri fikr bildirish qobiliyatini rivojlantiradi. Matn ustida ishlash, o'quvchilarning o'qish, tahlil qilish, hamda fikr bildirish malakalarini rivojlantirishning asosiy usullaridan biri sifatida ko'riladi. Ushbu maqolada matn ustida ishlashning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati ko'rib chiqiladi.

**Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodikasi.** Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, o'qitish uslublari va metodikalari tahlil qilinadi. Matn ustida ishlashning didaktik asoslari va amaliy ko'rsatmalar o'rganiladi. Bu jarayonlarda foydalaniladigan metodlar, jumladan, tahlil, taqqoslash, va muloqot usullari, sinovdan o'tkaziladi. Turli olimlar va tadqiqotchilarning asarlari orqali matn ustida ishlashning ta'lim jarayoniga ta'siri va o'quvchilar nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda qo'llanilishi o'rganiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishda turli texnika va usullar qo'llaniladi. Quyida bitta matn misolida, matn ustida ishlash orqali nutqiy

kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha qo'llaniladigan metodlar va ularning amaliyotda qanday tatbiq etilishi ko'rib chiqiladi.

Tanlangan Matn: "Oltin kuz"

Matn: Kuz keldi. Daraxtlarning yaproqlari sarg'ayib, yerga to'kildi. Bog'lar va dalalar oltin tusga kirgan. Odamlar hosilni yig'ib olish bilan band.

1. Tahliliy metod

Adabiyot manbasi: Ahmedova N.ning "Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish" asarida o'quvchilar bilan matn tahlilini o'tkazishning ahamiyati ta'kidlanadi.

Amaliy misol: O'quvchilarga matn o'qitiladi va quyidagi savollar bilan tahlil qilinadi:

Kuzning kelishi bilan tabiatda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?

Matndagi "oltin tus" iborasi nimani anglatadi?

Metodik qo'llanma: Ushbu savollar orqali o'quvchilarda kuz fasli haqidagi tushunchalar, obrazli fikrlash, va tafakkur qilish qobiliyatlari rivojlanadi. O'quvchilar so'z va iboralar ma'nosini chuqurroq anglashga o'rgatiladi.

2. Taqqoslash usuli. Adabiyot manbasi: Karimov A.ning "Ta'lim jarayonida matn ustida ishlashning nazariy

asoslari” kitobida matn boshqa matnlar bilan taqqoslash usuli tavsiya etilgan.

Amaliy misol: “Oltin kuz” matni boshqa fasllar haqida yozilgan qisqa matnlar bilan taqqoslanadi. Masalan, bahor haqida matn o'qib, o'quvchilardan bahor va kuz o'rtasidagi farqlarni topish so'raladi.

Metodik qo'llanma: Taqqoslash usuli orqali o'quvchilar turli fasllar haqida tushunchalarini kengaytiradi va ularning tafakkuri yanada rivojlanadi.

### 3. Savol-javob texnikasi

Adabiyot manbasi: Xolmatov B.ning “O'quvchilar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy usullari” asarida savol-javob texnikasi bilan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Amaliy misol: O'quvchilarga matn o'qib berishdan oldin savollar beriladi, masalan: “Kuzda daraxtlar nega yaproqlarini to'kadi?” Matn o'qilgandan so'ng, berilgan savollar qayta tahlil qilinadi va javoblar bilan to'ldiriladi.

Metodik qo'llanma: Savol-javob texnikasi orqali o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish, ularning matn to'g'ri tushinishiga yordam berish va og'zaki nutqini rivojlantirish maqsad qilingan.

### 4. Muloqot va munozara metodikasi

Adabiyot manbasi: Usmonov S.ning “Nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda didaktik yondashuvlar” asarida muloqot va munozara usuli keng qo'llanilishi haqida so'z yuritilgan.

Amaliy misol: O'quvchilar “Oltin kuz” matni asosida guruhlar bo'linadi va har bir guruh matnning turli qismlarini muhokama qiladi. Masalan, bir guruh daraxtlar va ularning yaproqlari haqida, boshqa guruh hosilni yig'ib olish jarayoni haqida suhbatlashadi.

Metodik qo'llanma: Muloqot va munozara usuli o'quvchilarni birgalikda ishlashga o'rgatadi, ularning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi.

**Muhokama va natijalar.** O'quvchilarni matn ustida ishlash jarayonida duch keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari muhokama qilinadi. Matn ustida ishlash orqali nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samaradorligi ko'rsatkichlari, o'qitish jarayonida kuzatilgan natijalar bilan taqqoslanadi. Maqolada tadqiqot natijalari asosida boshlang'ich sinflarda nutqiy kompetensiyani shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Matn ustida ishlash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishning samaradorligi, turli ilmiy tadqiqotlar va metodik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Ushbu qismda turli adabiyotlardan olingan misollar va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri muhokama qilinadi.

Ahmedova N.ning “Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish” asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, matn tahlili o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, “Oltin kuz” kabi oddiy matnlar ustida ishlash orqali o'quvchilar kuz faslining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va ularni og'zaki va yozma shaklda ifoda qilishga o'rganadi. Shu orqali o'quvchilarning analitik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari mustahkamlanadi.

Karimov A.ning “Ta'lim jarayonida matn ustida ishlashning nazariy asoslari” kitobida taqqoslash usuli nutqiy kompetensiyani shakllantirishda samarali vosita sifatida ko'rsatilgan. Misol tariqasida, “Oltin kuz” matnini boshqa fasllar haqida yozilgan matnlar bilan taqqoslash orqali o'quvchilar fasllar o'rtasidagi farqlarni tushinishga o'rgatiladi. Taqqoslash usuli orqali o'quvchilar nafaqat matn mazmunini yaxshiroq o'zlashtiradi, balki turli holatlar bo'yicha mustaqil xulosa chiqarishni ham o'rganadi.

Savol-javob texnikasi bilan o'quvchilar e'tiborini jalb qilish Xolmatov B.ning “O'quvchilar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy usullari” asarida savol-javob texnikasi o'quvchilarning matn to'g'ri tushinishlari va nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy usullardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Masalan, “Oltin kuz” matnini o'qishdan oldin beriladigan savollar o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi va matn mazmunini oldindan taxmin qilish imkonini beradi. Bu usul o'quvchilarning matnni anglash darajasini oshirishga yordam beradi va ularning fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

#### 1. Digital Storytelling (Raqamli hikoya qilish)

Adabiyot manbasi: Raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonida yangi yondashuvlarni joriy etishga imkon beradi. Digital storytelling yordamida o'quvchilar “Quyoshli tong” matnini turli audio va vizual materiallar bilan boyitib, o'z hikoyalarini yaratishlari mumkin.

Amaliy misol: O'qituvchi o'quvchilarga matn o'qib beradi va ular o'z smartfonlari yoki planshetlaridan foydalanib, ertalabki tongni aks ettiruvchi rasmlar va tovushlar yordamida o'z hikoyalarini yaratadi. Bu jarayon o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va matnni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Natija: Digital storytelling orqali o'quvchilar vizual va audio materiallar yordamida matnni mustaqil ravishda qayta yaratishadi, bu ularning o'quv va nutqiy qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi.

#### 2. Gamification (O'yinlashtirish)

Adabiyot manbasi: O'yin elementlarini ta'lim jarayoniga kiritish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Amaliy misol: “Quyoshli tong” matni asosida o'yin tarzida topshiriqlar beriladi. Masalan, o'quvchilarga matn asosida qushlar, daraxtlar yoki tong haqida qisqa savollar berilib, ular to'g'ri javoblar uchun ball to'plashadi. O'yin natijasida o'quvchilar orasida sog'lom raqobat va matnni yanada chuqurroq o'rganish istagi paydo bo'ladi.

Natija: Gamification yordamida o'quvchilarning matnni tushunish darajasi oshadi va ular yangi bilimlarni o'yin orqali osonroq o'zlashtiradi.

#### 3. Augmented Reality (Kengaytirilgan reallik)

Adabiyot manbasi: Kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyasi o'quvchilarni matn ko'z oldida jonlantirishga imkon beradi, bu esa ularning matnni anglash va eslab qolish qobiliyatlarini yaxshilaydi.

Amaliy misol: O'qituvchi “Quyoshli tong” matnini o'qib bergach, AR ilovasi orqali o'quvchilarga tong sahnasini jonlantiradi. Ilova yordamida o'quvchilar daraxtlar, qushlar va quyosh chiqish sahnalarini kuzatib, matnni vizual ravishda tushunishadi.

Natija: AR texnologiyasi yordamida o'quvchilar matnni vizual tarzda ko'rib, u bilan bevosita muloqot qilishi mumkin. Bu ularning matn mazmunini eslab qolish va anglash qobiliyatlarini oshiradi.

Yuqorida keltirilgan zamonaviy metodlar - Digital Storytelling, Gamification, va Augmented Reality - matn ustida ishlash jarayonini boyitadi va o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu metodlar o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni matn bilan interaktiv tarzda ishlashga undaydi va ularning umumiy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning matnni anglash va eslab qolish qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi, bu esa ularning kelajakdagi o'quv muvaffaqiyatlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn ustida ishlash orqali nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy va



amaliy ahamiyati ko'p qirrali bo'lib, uning asosiy jihatlarini quyidagilar bilan bog'liq:

Nazariy ahamiyati: Til me'yorlarini o'rgatish:

O'quvchilar matnlarni tahlil qilish va tushunish jarayonida adabiy til me'yorlari, jummalarni to'g'ri tuzish qoidalarini o'rganadilar. Masalan, hikoya yoki ertaklardan qisqa matnlarni o'qib, ularning grammatika va stilistik tuzilishini tahlil qilish orqali o'quvchilar tilda to'g'ri so'zlash ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

So'z boyligini oshirish:

Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning lug'at boyligi kengayadi. Masalan, turli mavzulardagi matnlarni o'qib, yangi so'zlar va ularning ma'nolarini o'rganish o'quvchilarning so'z xazinasini boyitadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:

Matnni tahlil qilish va unga nisbatan o'z munosabatini bildirish o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatadi. Masalan, "Qo'y va bo'ri" kabi ertaklarni o'qib, qahramonlarning fe'l-atvori haqida o'z fikrlarini bayon qilish orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllanadi.

Amaliy ahamiyati: Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish:

Matnni qayta hikoya qilish, uni muhokama qilish yoki matn asosida qisqa dialoglar tuzish o'quvchilarda og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, "Sariq devni minib" kabi matnni o'qib, qahramonlar orasidagi suhbatlarni sahnalashtirish orqali o'quvchilar nutqini jonlantirish mumkin.

Yozma nutqni rivojlantirish:

Matn asosida qisqa insho yoki mazmuniy qayta hikoya yozish o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda yordam beradi. Misol uchun, "Qizil shapkacha" ertagini o'qib, o'z nutqlari bilan qayta hikoya qilib berish orqali yozma nutq ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Kompetensiyalarning integratsiyasi:

Matn ustida ishlash jarayonida nafaqat nutqiy, balki boshqa ko'nikmalar ham rivojlanadi. Masalan, "Bolalar uchun yozilgan kitoblarni"ni o'qish orqali o'quvchilar tarbiyaviy xulq-atvor qoidalarini o'zlashtiradi va bu bilimlarni kundalik hayotga tatbiq etishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn ustida ishlash orqali nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy metodlar o'quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga yordam beradi. Quyida tavsiya etiladigan zamonaviy metodlar keltirilgan:

1. CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodi. CLIL metodi mazmun va tilni birgalikda o'rganishga qaratilgan. Bu metod orqali o'quvchilar muayyan mavzu yoki fan doirasidagi matnlarni o'qib, ularni o'zlashtiradi va shu bilan birga til ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, tabiiy fanlar, tarix yoki geografiyaga oid matnlarni o'rganish orqali o'quvchilar nafaqat fan bo'yicha bilim oladilar, balki o'z nutqiy kompetensiyalarini ham oshiradilar.

#### ADABIYOTLAR

- Ahmedova, N. (2020). Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
- Karimov, A. (2018). Ta'lim jarayonida matn ustida ishlashning nazariy asoslari. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
- Xolmatov, B. (2019). O'quvchilar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy usullari. Buxoro: Buxoro davlat pedagogika instituti nashriyoti.
- Usmonov, S. (2021). Nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda didaktik yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.
- Robin, B. R. (2016). The Educational Uses of Digital Storytelling. In C. E. Green & J. L. Johnston (Eds.), *Handbook of Research on Digital Tools for Writing Instruction in K-12 Settings* (pp. 248-264). IGI Global.
- Gee, J. P. (2007). What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. Palgrave Macmillan.
- Billinghurst, M., & Duenser, A. (2012). Augmented Reality in the Classroom. In *Computer* (Vol. 45, Issue 7, pp. 56-63). IEEE Computer Society.
- Mayer, R. E. (2009). *Multimedia Learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.
- Resnick, M. (2017). *Lifelong Kindergarten: Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play*. MIT Press.
- R.Qosimova, Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish, T.: 1964.

#### 2. Kolaborativ o'qitish (Collaborative Learning)

O'quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, matn ustida birgalikda ishlash metodini qo'llash samarali hisoblanadi. Bu usul orqali o'quvchilar bir-birlaridan o'rganib, o'z fikrlarini erkin ifodalashga o'rganadilar. Masalan, bir matnni guruhlariga bo'lib, har bir guruhga matnning alohida qismini tahlil qilish topshirig'i beriladi. So'ngra ular o'z qismlarini bir-biriga tushuntirib, matnning umumiy mazmunini muhokama qilishadi.

#### 3. Matnli rolli o'yinlar (Role-playing based on texts)

Matn asosida rolli o'yinlar o'tkazish o'quvchilarni matnga jalb qilishda juda samarali. O'quvchilar matndagi qahramonlarning rollarini ijro etish orqali ularning nutqiy ko'nikmalari rivojlanadi va o'quvchilar o'z fikrlarini ifoda qilishni o'rganadilar. Masalan, hikoya yoki ertakdan biror bir sahnani tanlab, uni sahnalashtirish orqali o'quvchilar qahramonlarning nutqini qayta o'ynaydi.

#### 4. Interaktiv texnologiyalarni qo'llash. Elektron darsliklar, multimediyada taqdimotlar va matnni tahlil qilish uchun maxsus dasturlar nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda katta yordam beradi.

O'quvchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan interaktiv o'yinlar yoki matn asosida savol-javobli videolar yordamida matnni yanada chuqurroq tushunishlari mumkin. Masalan, matnni o'qib chiqish va keyinchalik interaktiv test yoki multimedia materiallari orqali mazmunini mustahkamlash usuli.

#### 5. Tahliliy yozuv (Analytical writing) metodi

O'quvchilarni matn tahliliga yo'naltirish orqali ularning yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu metodda o'quvchilar matnning mazmunini qismlarga ajratib, har bir qismini batafsil yozma ravishda tahlil qiladilar. Masalan, "Qahramonning qaysi fe'l-atvori sizga yoqdi va nima uchun?" kabi savollarga javob yozish orqali o'quvchilar o'z fikrlarini yozma nutqda to'g'ri ifoda qilishga o'rganadilar.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn ustida ishlash orqali nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim jarayonining muhim jihati bo'lib, bu jarayon o'quvchilarning fikrlash, tushunish va fikr bildirish qobiliyatlarini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Matn ustida ishlash metodikasi orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi sezilarli darajada yaxshilanadi. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuvning ta'limdagi ahamiyatini tasdiqlaydi va uni keng miqyosda qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn ustida ishlash orqali nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda zamonaviy metodlar juda katta ahamiyatga ega. Digital storytelling, gamification, va augmented reality kabi zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilarni dars jarayoniga yanada chuqurroq jalb qilish va ularning o'rganish jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish mumkin.



UDK:740

**Bobir NEGMATOV,**

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi professori, falsafa fanlari nomzodi*

*E-mail: gulruh.nematova@mail.ru*

*falsafa fanlari doktori, professor G.T.Mahmudova taqrizi asosida*

## GUMANISTIK MEROS VA INSON MA'NAVYI-AXLOQIY KAMOLATI

Annotsatsiya

Maqolada Markaziy Osiyo gumanistik merosining rivojlanish evolyusiyasi, muhim xususiyatlari va asosiy bosqichlari manbalar asosida tahlil qilingan. Diyorimizda yashab ijod qilgan buyuk ajdodlarimizning insonparvarlik qarashlari bayon qilingan hamda ularning ma'naviyat rivojidagi o'rni, barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Gumanizm, "Avesto", zardushtiylik, aqidaparastlik, ratsionalizm, jadidchilik, murshid, Italiya Renessansi mutafakkir.

## HUMANISTIC HERITAGE AND HUMAN SPIRITUAL-MORAL DEVELOPMENT

Annotation

The article analyzes the development evolution, important features and main stages of the humanistic heritage of Central Asia based on sources. The humanitarian views of our great ancestors who lived and worked in our land were described, and their role in the development of spirituality and their importance in raising a mature generation was shown.

**Key words:** Humanism, "Avesta", zoroastrianism, fanaticism, rationalism, jadidism, murshid, Italian Renaissance, thinker.

## ГУМАНИСТИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЕ РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

В статье на основе источников анализируется эволюция развития, важные особенности и основные этапы гуманистического наследия Центральной Азии. Описаны гуманитарные воззрения наших великих предков, живших и творивших на нашей земле, показана их роль в развитии духовности и значение в воспитании зрелого поколения.

**Ключевые слова:** Гуманизм, "Авеста", зороастризм, фанатизм, рационализм, джадидизм, муршид, итальянский мыслитель эпохи Возрождение.

**Kirish.** Mamlakatimizda inson va uning qadr-qimmatini, fuqarolarning manfaati va huquqini himoya qilish, unga har tomonlama g'amxo'rlik ko'rsatish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy yuksalishi va barkamol inson shaxsini tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, buyuk kelajak ma'naviy barkamol insonlarga tayangandagina yaratiladi, qad ko'taradi, ya'ni ma'naviy barkamol insonlarga buyuk kelajakni yarata oladilar. Ma'naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruh iyati, xulq-atvor normalari, axloq-odobi bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Ma'naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, Vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar.

Ma'lumki, xalqimizga azaldan kattalar va ota-onalarni hurmat qilish, o'z Vataniga mehr-muhabbat, boshqa millat va elatlarga xayrixohlik ko'rsatish, ochiq ko'ngillilik, boshqalarning g'amiga, qayg'u-tashvishiga sherik bo'lish, o'zaro yordam, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik va boshqa insonparvarlik qadriyatlarini xos bo'lib kelgan. Ayniqsa, diyorimizdan yetishib chiqqan alloma va mutafakkirlar, faylasuf va donishmandlarning biz uchun ibrat bo'lishga arziydigan gumanistik qarashlari, an'analari hozirgi kunda ham yosh avlodni insonparvar shaxs qilib tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu borada o'tmish avlod-ajdodlarimiz qoldirgan gumanistik qadriyatlarni nazariy-falsafiy jihatdan o'rganish, ularni yoshlar ongiga singdirish dolzarb vazifalardan biridir.

Gumanizm – lotincha humanus so'zidan olingan bo'lib, odamiylik, insonparvarlik degan ma'nolarni bildiradi.

Ushbu atama Yevropa va boshqa mamlakatlar olimlari tomonidan XIX asrning boshlarida qo'llanila boshlandi. O'z navbatida, insonparvarlik – odamlarga g'amxo'rlik va yaxshilik qilish, ularga mehr-muruvvatli bo'lish, moddiy va ma'naviy jihatdan yordam ko'rsatishni bildiruvchi tushunchadir. U odamzotning qadri, erkinligi, qobiliyati va fazilatlarini kamolga yetkazish uchun kurashish, insonning baxt-saodati, adolatli va farovon hayoti, teng huquqligi, tinchligini ta'minlashni taqozo etadi. Gumanizm inson shaxsini ulug'laydi, boshqa jonzotlardan afzalligini asoslaydi va insonda haqiqiy odamiylik xislatlarini yuksaltirishga ko'maklashadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Insonparvarlikning eng muhim xususiyatlaridan biri uning asosini axloq va xulq-odob qoidalari tashkil qilishidir. Lekin gumanizm faqat axloq bilan chegaralanib qolmasdan, balki ijtimoiy hayot va ma'naviyatning barcha jabhalariga taalluqli keng tushunchadir. Muayyan gumanistik qadriyatlarining turli xalqlarda namoyon bo'lishi haqida sharqshunos olim N.I.Konrad shunday fikr bildiradi: "Xitoy mutafakkirlari gumanizmni insonning o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyati ma'nosida tushungan bo'lsalar, Italiya Renessansining buyuk namoyandalari esa, gumanizm deganda odamning aqliy qobiliyatini o'stirish deb bilganlar. O'rta Osiyo va Eron mutafakkirlari inson shaxsining xulq-odobi va axloqiy fazilatlariga e'tibor berganlar" [1].

Ma'naviyatimizning tarkibiy qismi bo'lmish insonparvarlik o'zining uzoq tarixiga ega. Jamiyatning rivojlanishi, madaniyat va ma'naviyatning yuksalishi, xalq

moddiy ahvolini yaxshilaniy borishi, hukmdorlarning mamlakatni odilona boshqaruvi, xalqning g'am-tashvishini o'ylashi, ularga mehr-shafqatli bo'lishi – bularning hammasi kishilaro munosabatda insonparvarlikning qaror topishi hamda kuchayishiga olib kelgan. Insonparvarlik, gumanizm ma'naviyatning boshqa sohalorida bo'lganidek, vorisiylik asosida taraqqiy etgan. Bir davrda yoki tuzumda gumanizm sohasida erishilgan yutuqlar, tajribalar keyingi avlodlar uchun bilim manbai bo'lib xizmat qilgan. Insonparvarlik ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida rivojlanib borgan, davr va zamonlar o'tishi bilan insonparvarlik qadriyatlarini o'sib va yig'ilib borgan. Insonparvarlikdagi mana shu vorisiylik, uzluksizlik tarixiy taraqqiyotning hamma davrlariga xos bo'lib, hozirgi mustaqillik sharoitida insonparvarlik rivoji uchun g'oyaviy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Buni ajdodlarimiz tomonidan bizga qoldirilgan betakror gumanistik merosda o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Chunonchi, zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto"da inson shaxsi, uning g'am-tashvishlari, ezgulikka intilishi, bunyodkorlik mehnati, xulq-odobi, o'zgalarga yordami, mehr-shafqatli, oliy himmatli bo'lishi to'g'risida fikrlar ilgari suriladi. Unda ilgari surilgan "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" axloqiy poklik, insonlarni komillikka yetaklovchi ruhni anglatadi.

Zardushtiylikning insonparvarlik falsafasida inson o'zida yaxshilikni, imon-e'tiqodni o'zida mujassamlashtirgan, uning xatti-harakatlari, faoliyati insonparvarlikka yo'naltirilgan, barkamol inson tarbiyasiga qaratilgan bo'lishi lozim. Zardusht kishilarni doimo ezgulikka, insof va ahil yashashga, adolatsizlik, nohaqlik, g'arazgo'ylik, yovuzlik, firibgarlik, yomonlik, yolg'onchilik va shularga o'xshash insoniylik martabasiga zid bo'lgan yaramas va tuban illatlarga qarshi kurashga da'vat etadi.

Gumanistik merosning rivojlanishida islom dini va falsafasi muhim o'rin egallaydi. Islom dinida yetim-yesirlarga mehr va muruvvat, xayr-ehson ko'rsatish va yordam berishdir. Bu insonparvarlik va odamiylikning yuksak ko'rinishidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Islom falsafasida bilimdonlik, ilm-ma'rifatni egallashga alohida qaratiladi. Chunki u yaxshilik, odamiylik va donolikning belgisidir. Qadimdan insonlar ilm-ma'rifatga intilganlar, jaholatparastlik, nodonlik va savodsizlikni qoralaganlar. Bugungi murakkab sharoitda oldimizga turgan muhim vazifa xalq orasida, ayniqsa, yoshlar orasida islom dinidagi gumanistik qadriyatlarni keng targ'ib qilishdan iborat bo'lishi kerak.

Sharqda gumanistik an'analarning shakllanishi va rivojlanishi buyuk alloma Abu Nasr Forobiyning nomi bilan chambarchas bog'liq. Chunki u musulmon Sharqda birinchi bo'lib insonparvarlik va umumibashariy qadriyatlarga asoslangan tuzum, insonlarni kamolotga va baxt-saodatga yetaklaydigan mukammal jamoa haqida o'z ta'limotini yaratdi.

Darhaqiqat, Forobiy o'zining falsafiy ta'limotida jamiyat va insonning o'zaro munosabati, odamiylik, adolat, mukammal jamoa, komil inson, baxt-saodatga erishuv yo'llari kabi masalalarni tahlil qilganda, ularga nazariy-falsafiy, ratsionalistik, umuminsoniy va gumanistik mezonlar nuqtai nazaridan yondashadi.

Forobiy buyuk gumanist sifatida o'zining ijtimoiy-falsafiy, siyosiy qarashlarining markaziga insonni, uning maqsad-muddaolarini o'rganishni, axloqiy kamolot va baxt-saodatga erishuv yo'llarini ko'rsatishni qo'yadi. Axloqiy kamolot deganda, alloma xayr-ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlarini tushunadi. Axloqiy kamolotga xalaqit beruvchi salbiy illatlarga esa dangasalik, bilimsizlik, nodonlik, hunarsizlik kiradi. "Haqiqatda, - deydi u, - har bir borliq hech so'zsiz o'z vujudiga o'ziga xos bo'lgan martaba – eng yuksak kamolotga erishish uchun borliqqa kelgan. Inson uchun xos

bo'lgan bu kamolotning nomi eng yetuk baxt-saodat deb ataladi" [2].

AKomil inson, mutafakkirning nazarida, bilimdon, aqlli, zukko, odil, sofdil, kamtar, xushfe'l, jamiyat manfaatini ko'zlovchi, odamlar to'g'risida g'amxo'rlik qiluvchi, haqiqatni sevuvchi, g'ururli va boshqa fazilatlar sohibi bo'lishi lozim.

Forobiy aql, ilm-ma'rifat va axloqning o'zaro bog'liqligini ta'kidlab, ularni baxt-saodatga erishishning asosiy vositasi deb biladi. Uningcha, baxt-saodatga inson o'zicha, birdaniga erisha olmaydi. U odamdan faol aql, mehnat, bilim va nafsini tiyishni talab qiladi. "Baxt-saodatga erishishning birdan-bir yo'li barcha ezgu ishlarni xayrli niyatlar ila bajarish, fazilatli amallarga tayanish barobarida razolat va baxtsizlik kelib chiqarish mumkin bo'lgan ishlardan o'zini tiya bilishidir", - deydi mutafakkir [3].

**Tahlil va natijalar.** Bashariyatning ulug' mutafakkirlaridan biri Abu Ali ibn Sinoning insonparvarlik qarashlari esa uning inson sog'lig'i, sihat-salamatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi odamning umrini turli davolash usullarini qo'llab uzaytirishi, davlatni oqilona boshqarish va hukmdorning o'z qo'l ostidagilarga adolatli va rahmdil bo'lishi, inson va uning fazilatlarini yuksaklikka ko'tarish, ta'lim-tarbiya, axloq va xulq-odob haqida aytgan fikrlarida namoyon bo'ladi.

Ibn Sino talqinida, yaxshilik keng ma'noni anglatuvchi axloqiy tushunchadir. Yaxshilik faollikka, yomonlik esa sustkashlikka kiradi. Dunyoda nimaiki mavjud bo'lsa, o'z tabiatiga ko'ra, kamolotga intiladi. Mana shu kamolot yaxshilikdir. Ashyolarga xos bo'lgan nuqsonlar yomonlikdir. Yomonlik predmetlarning mohiyatida bo'lganda uni ichki rivojlantirishdan to'xtatib qo'yadi, hodisalarga xos bo'lsa, umumiy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi.

Ibn Sino bolaning kamolotga yetishida, uni sog'-salomat o'sishida tibbiyotning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlash bilan birga jismoniy tarbiyaga ham alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, agar badan tarbiyasi to'g'ri olib borilsa, u kishi tanasiga yengillik beradi, unda tug'ma issiqlikni oshiradi: "badan tarbiya kishini chuqur va ketma-ket nafas olishga majbur qiluvchi ixtiyoriy harakatdir. Mo'tadil ravishda va o'z vaqtida badan tarbiya bilan shug'ullanuvchi odam buzilgan xiltlar tufayli kelgan kasalliklarning va mijoz hamda ilgari o'tgan kasalliklar tufayli keluvchi kasalliklarning davosiga muhtoj bo'lmaydi" [4].

Gumanistik qarashlar rivojida temuriylar davri alohida o'rin tutadi. Chunki bu davrda inson shaxsiga e'tibor kuchaydi, uning eng yaxshi xislatlari qadr topdi, shirinsuxanlik, xushmuomalalik, madaniy va falsafiy merosga qiziqish, inson aql-zakovati, donoligi, ichki ruhiy olami, go'zalligi va nafosatini tasvirlash, undagi erkinlikka, bilimni egallashga intilish, vatanparvarlik, shijoatkorlik, ma'naviy-ruhiy poklanish, barkamol avlodni tarbiyalash, insof va diyonat, bag'rikenglik, adolat va haqiqat uchun kurash – o'sha davrning muhim belgisiga aylandi.

Xususan, bu davr gumanistik fikrlar rivojini buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiysiz tasavvur etib bo'lmaydi. Navoiy butun umr odamiylikni kuyladi, insonning g'am-tashvishlari, orzu-umidlari, baxt-saodati haqida o'yladi, insonlarga yaxshilik qilish, mehr-shafqat va muruvvat ko'rsatish, beva-bechora va muhtojlarga yordam berish, komil insonni tarbiyalash haqida so'z yuritdi.

Sharqning buyuk mutafakkiri Navoiy aqlning kuchiga katta baho beradi. Aql, garchi dunyodagi hamma narsalarni bila olmasa ham, uning yordamida koinotning sir-asroriga, murakkab hodisalarning mohiyatiga yeta oladi, yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farq qila oladi. Shuning uchun ul zot aqlli kishilardan ibrat olishga, ularning nasihatiga, garchi achchiq bo'lsa ham quloq solishga, donolarning o'gitlari va

hikmatli so'zlaridan bahramand bo'lishga odamlarni da'vat etadi.

Navoiy ilm haqida fikr yuritar ekan, agar podshoh bilimdon, aqlli bo'lsa, ilmning qadriga yetsa, u boshqargan mamlakatda tinchlik va osoyishtalik hukm suradi, olimlar ko'payadi, ilm-fan ravnaq topadi, degan fikrni bildiradi. Shu bilan birga mutafakkir nodonlik va johillik, bilimsizlikni qoralaydi. U o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida ilmni o'rganib, unga amal qilmagan kishilar haqida so'z yuritib, ularni "urug' sohib hosil ololmagan" dehqonga qiyoslaydi. Boshqa bir joyda esa fosiq olim bilan davlatmand baxilni bir-biriga taqqoslab, "bu ikki kishi umrni bekorga o'tkazdi va go'rga hasrat va armon olib ketdi. Biri buki, ilm o'rganishga mashaqqat chekti – amal qilmadi, biri buki, mol yig'ishga mehnat qildi, sarf qilishni bilmadi" [5], - deydi.

Alisher Navoiy asarlarida har tomonlama rivojlangan, barkamol insonning qiyofasi, uning komilligi, orifligini ifodalovchi mezonlar haqida ham qimmatli fikr-mulohazalar yuritilgan. Uningcha, barkamol insonning eng muhim fazilatlaridan biri – xalqparvarlik, vatanparvarlikdir. Yurt tashvishi bilan yashab, xalqqa ko'p foyda yetkazgan kishini chinakam xalqparvar odam deb hisoblaydi.

Shoir barkamol insonni Xudo darajasiga ko'taradi. Chunki barkamol inson – mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, u hech kimdan qo'rqmaydi. Mustaqil fikr yuritish, aql-farosat bilan birga o'zida barcha insoniy fazilatlar, xislatlarni mujassamlashtirgan. Navoiyning fikricha, barkamol inson ma'naviy va ruhiy zulmga, kamsitishlarga chiday olmaydi. Chunki bunday kishi hamisha el-yurt tashvishi bilan yashaydi, odamlar dardini o'ziga dard deb biladi. Hamma narsadan inson degan zotning manfaatini ustun qo'yadi.

**Xulosa va takliflar.** Jadidchilik harakatining yetuk namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy asarlarining bosh mavzusi – insonning o'zi buyuk qadriyat ekanligini odamlar ongiga singdirish, tushuntirish, ishonirish edi. Uning fikriga ko'ra, inson butun borliqning ko'rki va sharafidir. Inson o'z go'zalligi va murakkabligi bilan olamdagi barcha mahluqotlardan tubdan farq qiladi. Inson – butun mavjudotning sohibidir. Chunki insonning aql-zakovati bor. U shu qudrat yordamida ilm egallaydi, ilmi tufayli butun dunyoni boshqaradi. Aql – insonning piru-komili, murshiduyagonasidir. Ruh – ishlovchi, aql – boshlovchidir. Inson o'zining aql-farosati tufayli boshiga tushadigan har qanday balo-qazodan saqlanadi deb fuqarolar, ayniqsa, yoshlar aqliy kamoloti haqida tinimsiz qayg'urish – insonparvar jamiyatning muhim vazifalaridan biri bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi [6.17].

Inson aqliy kamoloti haqida qanday qayg'urgan bo'lsa, uning idroki to'g'risida ham shuncha qayg'uradi. Idrok – inson fikrini o'stirishning, ziyraklikning asosi deb bilardi va inson yoshligidan o'z idrokini o'stirishga, uni mustahkamlashga alohida e'tibor berishi zarur deb hisoblaydi [6].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ajdodlarimizning betakror merosi, umuminsoniy qarashlari va o'gitlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Zero, ular insonparvarlik va ma'naviy-axloqiy fikrlarga boy bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida barkamol va sog'lom avlodni tarbiyalashda, ularning ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda, milliy g'oyaning ildizlarini to'g'ri tushunishda, aqidaparastlik va terrorchilik xurujlariga qarshi kurashda katta ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Конрад Н.И. Запад и Восток. – М.: ИВЛ, 1966, 566-bet.
2. Forobiy. Risolalar. – T.: Fan, 1975. – B. 78-79.
3. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – T.: Yozuvchi, 2002, 12-bet.
4. Ibn Sino. Tib qonuni. 1-tom. – T.: Fan, 1954, 305-bet.
5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. 13-tom. – T., 1966, 222-bet.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – T., 1992, 17-bet.



UDK: 811.111'373.7

**Muxlisa NE'MATOVA,**  
Independent researcher Fergana state university  
E-mail: m.nematova@pf.fdu.uz

Reviewer docent of the institute of retraining and professional development of specialists in physical culture and sports,  
H.Islomova

**TALABALARNING LINGVOMADANIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY  
TAMOYILLARI VA TEXNOLOGIYALARI (BARCHA INGLIZ TILI O'RGANUVCHILAR MATERIALI  
MISOLIDA)**

Annotatsiya

Maqola talabalarning lingvokultural kompetensiyasini rivojlantirish usullariga bag'ishlangan. Muallif lingvosotsiokultural metod, madaniy drammatizatsiya va tandem metodini ko'rib chiqadi. Lingvosotsiokultural metod til o'rganishni madaniy kontekst bilan integratsiyalashni ta'kidlaydi, bu esa talabalar tilning sotsiokultural nozikliklarini chuqurroq tushinishlariga imkon beradi. Madaniy drammatizatsiya tilning madaniy jihatlariga talabalarni teatr texnikalari orqali chuqurroq jalb etishni o'z ichiga oladi, bu esa ularning tushunish va eslab qolish qobiliyatini oshiradi. Tandem metodi esa talabalarni ona tili so'zlashuvchilari yoki tengdoshlari bilan juftlashtirib, o'zaro o'rganish va madaniy almashinuvni rag'batlantiradi. Bundan tashqari, muallif lingvokultural prognozlash tushunchasini kiritadi, bu esa madaniy tendentsiyalarni va ularning til ishlatilishiga ta'sirini oldindan bilish va tushunishni o'z ichiga oladi. Maqolada lingvokultural prognozlashning turli turlari va bosqichlari batafsil bayon etilgan bo'lib, bu o'qituvchilarga o'z o'quv amaliyotlarida tatbiq etish uchun ramkalar taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** Lingvosotsiokultural metod, madaniy drammatizatsiya, tandem metodi, interaktiv o'qitish usullari, madaniyatlararo muloqot.

**ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ И ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРНАЯ  
КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ (НА МАТЕРИАЛЕ ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК ВСЕХ  
УРОВНЕЙ)**

Аннотация

Статья посвящена методам развития лингвокультурной компетенции студентов. Автор рассматривает несколько подходов, включая лингвосоциокультурный метод, культурную драматизацию и метод tandemного обучения. Лингвосоциокультурный метод подчеркивает интеграцию изучения языка с культурным контекстом, обеспечивая студентов более глубоким пониманием социокультурных нюансов языка. Культурная драматизация включает использование театральных техник для погружения студентов в культурные аспекты языка, что способствует лучшему пониманию и запоминанию. Метод tandemного обучения, в свою очередь, соединяет студентов с носителями языка или сверстниками для взаимного обучения и культурного обмена. Кроме того, автор вводит понятие лингвокультурного прогнозирования, которое включает в себя предсказание и понимание культурных тенденций и их влияния на использование языка. В статье подробно описаны различные типы и этапы лингвокультурного прогнозирования, предлагая преподавателям рамки для внедрения в их учебные практики.

**Ключевые слова:** Лингвосоциокультурный метод, культурная драматизация, метод tandemного обучения, интерактивные методы обучения, межкультурная коммуникация.

**BASIC PRINCIPLES AND TECHNOLOGIES OF FORMING STUDENTS' LINGUOCULTURAL COMPETENCE (IN  
THE MATERIAL OF ENGLISH LANGUAGE LEARNERS AT ALL LEVELS)**

Annotation

The article focuses on various methods for developing linguocultural competence among students. The author explores several approaches including the linguo-sociocultural method, cultural dramatization, and the tandem method. The linguo-sociocultural method emphasizes the integration of language learning with cultural context, ensuring that students gain a deeper understanding of the sociocultural nuances of the language. Cultural dramatization involves using theatrical techniques to immerse students in the cultural aspects of the language, thereby enhancing their comprehension and retention. The tandem method, on the other hand, pairs students with native speakers or peers to foster mutual learning and cultural exchange. Furthermore, the author introduces the concept of linguocultural forecasting, which involves predicting and understanding cultural trends and their impact on language use. The article details the various types and stages of linguocultural forecasting, providing a framework for educators to implement in their teaching practices.

**Key words:** Linguo-sociocultural method, cultural dramatization, tandem method, interactive teaching methods, intercultural communication.

**Introduction.** In modern society, the number of interethnic contacts is increasing, and issues of establishing intercultural relations are becoming acute. In this regard, the need for young specialists who speak English as an effective means of communication is growing, and the development of

ways to form their linguocultural competence, which we understand as the ability and readiness to interact with representatives of different cultures based on knowledge about their own and other linguocultures, and also based on the ability to interpret culturally significant information in

language, and on the basis of the ability of linguocultural forecasting.

**Materials and methods.** To develop a certain type of competence, it is necessary to use optimal methods. Let us consider the methods necessary for the formation of linguocultural competence of pedagogical university students.

The linguo-sociocultural method includes two aspects of communication - linguistic and intercultural, our lexicon has been replenished with a new word bicultural - a person who easily navigates the national characteristics, history, culture, customs of two countries, civilizations, if you like, worlds. For a student at a language university, what is important is not so much a high level of reading, writing, and translation (although this is by no means excluded), but "linguo-sociocultural competence" - the ability to "dissect" a language under the microscope of culture.

The linguo-sociocultural method was born at the intersection of the concepts of language and culture. The authors of the methodology (among them one of the main places is S.G. Ter-Minasova) approached these definitions differently [2].

Results and discussion. The classics, in particular Galin, understood language as "a tool of communication, exchange of thoughts and mutual understanding of people in society" [5]. Dahl treated language more simply - as "the totality of all the words of the people and their correct combination to convey their thoughts." But animals also have language as a system of signs and a means of expressing emotions and moods. What makes speech "human"? Today, language is "not only a vocabulary, but also a person's way of expressing himself." It serves "communication purposes and is capable of expressing the entire body of human knowledge and ideas about the world."

In the West, language is understood as a "communication system", which consists of certain fragments and a set of rules used for the purpose of communication. A very important difference in Western linguistic thinking is the understanding of language not only in connection with a certain state, but also with a certain part of the country, region, etc.

With this approach, language goes hand in hand with the culture of a part of the country, region, that is, with the ideas and customs of a certain group of people, society. Sometimes culture is understood as society itself, civilization.

The definition of supporters of the linguo-sociocultural method does not exaggerate the power and importance of language in the modern world. In their opinion, language is "a powerful social tool that forms the flow of people into an ethnic group, forming a nation through the storage and transmission of culture, traditions, and social consciousness of a given speech complex." With this approach to language, intercultural communication is, first of all, "adequate mutual understanding of two interlocutors or people exchanging information belonging to different national cultures." Then their language becomes "a sign that its speakers belong to a particular society." It is necessary to teach to understand the subtext of spoken phrases, their sociocultural meaning, which is different from our perception of the world.

The linguo-sociocultural method combines linguistic structures (grammar, vocabulary, etc.) with extra-linguistic factors. Then, at the intersection of a worldview on a national scale and language, that is, a kind of way of thinking (let's not forget that a person belongs to the country in whose language he thinks), that rich world of language is born, about which the linguist Vereshchagin wrote: "Through the diversity of language, the richness of the world and the diversity of what we learn in it are revealed to us..." [1].

The linguistic and sociocultural methodology is based on the following axiom: "Language structures are based on sociocultural structures." We understand the world through thinking in a certain cultural field and use language to express our impressions, opinions, emotions, and perceptions.

The purpose of learning a language using this method is to facilitate the understanding of the interlocutor, the formation of perception on an intuitive level. Therefore, every student who has chosen such an organic and holistic approach must treat language as a mirror in which geography, climate, history of a people, their living conditions, traditions, way of life, everyday behavior, and creativity are reflected.

Culturological dramatization is a complex of organizational and pedagogical conditions and means of mastering culturological images of authentic texts, aimed at the formation of the spiritual and moral cultural and educational space of the subject of cultural development.

There are three stages of cultural dramatization [4]:

1. Mastering the cultural image in elementary school.
2. Mastering the cultural image at the second stage of cultural dramatization (secondary school).
3. Research and modeling of the cultural image at the third stage of cultural dramatization (college and university).

The sociocultural and cross-cultural educational space of student youth is a complex agglomerate of special languages, including regional, local language, language of genre and style, formalized languages, specialized languages, and the language of scientific creativity.

Playing a number of roles, creating one's own moral "counter text", story or history, the process of dramatization and the dramaturgy of one's own story in student society represent for the student a whole range of integrated means that combine a number of disparate pieces of information, socio-cultural and cross-cultural research into a complete context of the author's story, capable of arousing the interest of the university community.

This could be writing a script based on one's own cultural images, video implementation of the script, transformation of the script into a play with its further production on the university stage, scientific research search for a cultural image in an authentic text, etc.

In cultural dramatization at this (third) stage, the sociocultural and cross-cultural educational space of the lecture and seminar is mediated by sign-symbolic structures in the formation of objective actions, knowledge, consciousness, personality formation, which ultimately creates favorable conditions for the formation of such personal new formations, as a worldview, self-awareness and moral consciousness, open not only to the external environment, but also to internal experience. Cultural dramatization includes the interpretation of an authentic text. For example, the organization of active reproductive activity can be carried out using the following educational situations presented in "tasks-instructions": situations of rational memorization and meaningful reproduction of received information; situations of understanding the systemic features of educational material based on a model; situations of awareness of ways to carry out certain actions in typical situations of their use; situations of planning and evaluating completed activities according to the model.

The experience of overcoming difficulties associated with partial search can be organized through educational situations in "reconstruction tasks": situations of independent use of samples of understanding the systemic features of the material; situations of independent use of methods of mental processing of material; situations of awareness of ways to carry out actions in changed conditions; situations of independent planning and evaluation of completed activities.

Introduction to the experience of creative activity is organized through educational situations presented in "search tasks": situations of more rational ways of interpreting an authentic text; situations of independent awareness of the systemic features of educational material; situations of awareness of the actions being performed to use creative techniques in new conditions; situations of choosing educational activities.

The choice of the type of developmental task depends on the nature and specifics of the educational content, on the degree of its mastery, as well as on the level of development of the cultural and cognitive activity of students.

Cross-cultural competence, in turn, allows the subject to navigate the intrinsic cultures of different ethnic groups to solve his own moral problems in a global multipolar civilization.

**Tandem method.** This is a way for two partners with different native languages to independently learn a foreign language, working in pairs. The goal of the tandem is to master the native language of your partner in a situation of real or virtual communication, get to know his personality, the culture of the country of the language being studied, as well as obtain information on areas of knowledge of interest. This method arose in Germany in the late 1960s as a result of meetings between German and French youth. Later, two main forms of work within the framework of the method were formed - individual and collective, which can be integrated into one another. Individual tandem participants are selected by tandem centers in different countries based on specially developed questionnaires that take into account individual characteristics and needs of the individual, such as age,

motivation for learning a language, place of work or study, gender, level of existing knowledge, hobbies, preferences. Tandem centers also organize primary personal contacts between those who want to learn a language using this method. Language learning partners jointly determine the goals, content and means of mutual learning. Some tandem participants prefer to master the language only through informal communication when visiting excursions, watching TV shows together, etc. Others consider it necessary to attend additional language courses. If language acquisition in an individual tandem is an autonomous, natural and largely spontaneous process, then the collective form of a tandem is didactically controlled and conscious in nature. Interpersonal communication is complemented or included in a mono- or bilingual language course. Depending on who is participating in the tandem course - schoolchildren, working youth, students, teachers - its content and work strategy are determined. The tandem course differs from the traditional learning process in that it takes place in conditions of natural, real, and not artificially created communication.

**Conclusion.** So, for the methodological and technological support of the formation of linguistic and cultural competence of students, we examined the methods of developing the linguistic and cultural competence of students. These methods included: linguosociocultural method, cultural dramatization, and tandem method. Each method is unique and needs to be applied individually. Currently, the number of international relations is increasing and the competition for international matters is increasing. In this regard, the situation for young professionals who know languages as an effective means of communication is becoming acute.

#### REFERENCES

1. Vereshchagin E. M., Kostomarov V. G. Language and culture. – M.: Indrik, (2015. – p. 1038)
2. Ter-Minasova S. G. Language and intercultural communication: textbook. allowance. – M.: Slovo, (2020. – 624 p.)
3. Ferapontov G. A. Formation of a schoolchild's educational space by means of cultural dramatization: Cand. thesis. ped. Sci. – Novosibirsk, (2020. – 204 p.)
4. Shchukin A. N. Teaching foreign languages: theory and practice: textbook. manual for teachers and students. – 2nd ed., rev. and additional – M.: Philomatis, (2016.)
5. Galin Z. A. Systematic approach to forecasting // Bulletin of the Bashkir University, (2016. No. 2. P. 110–112.)
6. Zhurin A. A. Integration of media education with the chemistry course of a secondary school: Dis. Dr. ped. Sciences: (13.00.02. Moscow, 2014. p. 454)



UDK:091

*Arslanbay ORAZBAYEV,*  
*Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, PhD*  
*E-mail: arslanorazbaev352@mail.com*

*O‘zbekiston davlat san’ati va madaniyat instituti Nukus filiali dotsenti PhD K.Yusupov taqrizi asosida*

### PHILOSOPHICAL VIEWS OF I. YUSUPOV

Annotation

This article analyzes the Fatherland, patriotism, human problems, a person’s attitude to the world, ways of changing the environment and his methods in the work of the great poet I. Yusupov from a socio-philosophical point of view.

**Key words:** Homeland, patriotism, philosophy, native land, literature, poetry, lyrics, humanism, philosophical anthropology, philosophy, human, spirituality, poetry, lyrics, social philosophy.

### ФИЛОСОФСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ И. ЮСУПОВА

Аннотация

В данной статье с социально-философской точки зрения анализируются Отечество, патриотизм, проблемы человека, отношение человека к миру, способы изменения окружающей среды и его методы в творчестве великого поэта И. Юсупова.

**Ключевые слова:** Родина, патриотизм, философия, родина, литература, поэзия, лирика, гуманизм, философская антропология, философия, человек, духовность, поэзия, лирика, социальная философия.

### I.YUSUPOVNING FALSAFIY QARASHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk shoir I. Yusupov ijodida Vatan, vatanparvarlik, insoniy muammolar, insonning dunyoga munosabati, atrof-muhitni o‘zgartirish yo‘llari va uning usullari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlari:** Vatan, vatanparvarlik, falsafa, to‘g‘ilgan er, adabiyot, poeziya, lirika, gumanizm, falsafiy antropologiya, falsafa, inson, ma‘naviyat, poeziya, lirika, ijtimoiy falsafa.

**Kirish.** Buyuk iste’dod sohibi, poeziya yulduzi Ibrayim Yusupov qaysi mavzuda asarlar yozmasin, ularni o‘zining pok yuragidan kelib chiqib, falsafiy asarlarni yaratdi. Chunki, shoirning yuragi toza, fikrlari ma’noli chuqurda yotganligini his qilish qiyin emas. Shuningdek, shoir o‘zining to‘g‘ilgan eri bilan Vatanini ta’riflar ekan, u bu his-tuyg‘uni o‘zining onasi bilan taqqoslash orqali tasvirlaydi. U to‘g‘ilgan eri haqida o‘ylar ekan, shoirga o‘z qishlog‘idagi har qanday ekzotik manzaralardan da o‘z onasining mehr-muruvvatli qiyofasini tasavvur qiladi. Bunday belgilarni shoir ko‘plagan qo‘shiq qatorlarida aniq ko‘rsatgan. Masalan, uning o‘tgan yillarda yozilgan Vatan (1963) degan she’rida shunday deydi:

“Sen eñ dáslep shayqaldıń tal shaqasında,  
Men órmelep barıp sordım palıńdı  
Qabıǵıńnan sırnay soǵıp shertken waǵımda,  
Sada sestıń bayanladı janımdı menıń.  
Men seniń bir jas putaǵıń, jasaw joq sensiz,  
Dep bezildep suw boyında juwırdı sırnay  
Durıs, – dedi dawısı menen jıńıshke hám minsiz,  
Perzentine uya toqıp turǵan qurqıtday.  
Quday ma, ya qurqılday ma? Kim sheber eken?  
Jarıqlıq-ay! – dedi anam uyaǵa kelip,  
Sonda anamńıń miyrim tolı nurlı júzinen,  
Tuńǵısh ret tamǵanman men seni kórip”[1].

“Darhaqiqat, shoir ta’kidlaganidek, ona bo‘lmasa har qanday insonga da, tirik jonzatga da, to‘g‘ilgan erda, ona Vatanda yo‘q degan so‘z. Bu erdagi har xil hayotiy manzaralar, kichkina detallar oddiy qishloq bolasi uchun tabiiy, biroq ayrimlar uchun tasavvur qilish qiyin bo‘lsa da, shoir tabiiyatli insonlar uchun xarakterli manzaralar hisoblanadi”[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). I.Yusupovning yana bir “Men shaharda o‘qiganda” (1987) degan asarida yuqoridagi yozilgan vaqtdan ko‘p yillar o‘tgan shunda, farzand Vatan to‘prog‘ini o‘z onasi bilan chambarchas bog‘liq holda tahlil qiladi. Undagi shunday satrlar juda ta’sirli:

Sabaqtan kesh shıǵar edik  
Men qalada oqıǵanda  
Kún bata awıldan kelip  
Kúter edi anam sonda.  
Endi bazda mashinalı  
Ótsem zuwlap sol káradan  
Jelbirep aq oramalı  
Meni kútip turar anam.  
Hám tóbemdi kórgen sayın,  
Quwanıp qol bılǵaǵanday,  
Sharshadıń-aw, aylanayın!  
Dep basımnan sıypaǵanday.

Qo‘shiq satrlarining ma’noligi shunda, falsafiy mazmunga ega ekanligi bilan lirik qahramonning o‘z onasi bilan birga, kindik qoni tomgan to‘g‘ilgan erga bo‘lgan his-to‘yg‘ularini o‘quvchiga ta’sirli qilib etkazib beradi. Shu bilan birga, hayot haqiqatligini tabiiy tasvirlashdan kelib chiqqan holda, “Elbirab oq ro‘moli, Meni kutib turar onam”, - degan satrlaridagi manzaralarning shoirning onasining qabri boshidagi musulmonlar dasturi bo‘yicha yog‘oshga boylangan oq ro‘mol bilan da mos kelishi o‘quvchilarni hayot haqida mantiqiy va falsafiy jihatdan fikrlashga undaydi, eng asosiysi, insoniylikka, hayotning ma’no-mazmunini tushunishga da yo‘naltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). “Vatan deganda shoir tomonidan dastavval o‘zini otko‘nchakka solib tebratgan qora tolini eslashi, shu “qora tol”



obrazining bir butun simvolik ko'rinishga aylanishi jamiyatimiz tomonidan oldindan aytilib kelingan"[3]. Shuningdek, Vatanni eng dastlab o'z ovuli deb tushinishi da tabiiy hodisa ekanligi aniq. Shoirning "Ovul-ovul" (1982), degan asarida bir qancha prozaizmga berilsa da, o'zining kindik qoni tomgan erini alohida sevinch pafos bilan izohlaydi, unda bugungi kundagi mavjud muammolarni o'rta qo'yadi, qishloqdoshlarini zamonaviylikka chaqiradi, to'g'ilgan erning zamonga mos istiqbol qiyofasini haqiqatlikka asoslangan tasavvur bilan tasvirlaydi. Bunday rasmlar, o'rta qo'yilgan belgilar muammolarni da tashlay bilish faqatgina "men sizni sevaman, to'g'ilgan-Vatan!" degan yolg'on, safsata qichqiridan ko'ra ko'p foyda keltiradi. U ikkinchi tomondan shoirning da, lirik qahramonning da, fikrlarining kengligi bilan chuqurligini namoyon qilganday bo'ladi. Bari bir shoirga bunday to'g'ilgan erga degan uning cheksiz sevinchi, romantikasi yot emas. Masalan:

Ulken shahar arasinda,  
Qalin terak arasinda,  
Elespesiz bir awil bar,  
Kegeylini jagasinda.

"Tuwlgan jer" degan sozdin,  
Mani berip payqasina,  
Qoyar edim juldiz etip,  
Aspanda ay qasina.

Shunday, shoirning to'g'ilgan erni ko'klarga ko'taruvchi shunday romantikaga to'lgan qatorlari da yoqimli namoyon bo'ladi, ularning barchasi kindik qon tomgan to'proqqa bo'lgan cheksiz muhabbat bilan vujudga kelgan tafakkurlar ekanligi ma'lum. Bularning farqini hozirgi o'rta maktabni bitirib, birdaniga shaharlik bo'lishga intilayotgan yoshlar jon-toni bilan yaxshi tushunib etsa, umumiy jamiyatimiz uchun da, ularning o'zlariga da ko'p foyda keltiradi. Darhaqiqat, har kimning to'g'ilgan eri – u uchun hech narsaga almashtirib bo'lmaydigan – podshohlik. Shuningdek:

Nesiyben min jortsadaqi,  
Kop jerge duz tartsadaqi,  
Danq marteben artsadaqi,  
Tuwgan jer ushin balasan,

Ogan bas iyip barasan, – degani bejizga emas.

Shoir ushbu to'g'ilgan to'proqning buyukligini, unga degan sog'inch his-to'yg'ularini, o'zining bolalik davrini eslashi bilan, ularni jonli go'zal va harakatchang manzaralar bilan tasvirlagan.

Umuman olganda, shoirning dastlabki yillardagi Vatan, to'g'ilgan er to'g'risidagi asarlarini o'qib qarasa, ularda yoshlik romantikasi, bolalikni sog'inch, ayrim ekzotik manzaralarni da chuqur tasvirlash kabi belgilarni ko'proq uchratsak, badiiy so'z ustosi so'ngi asarlarida bo'lsa bir qancha yangi qirralari, zamonning da boshqacha tus olishiga bog'liq o'zining mahorati, to'g'ilgan to'prog'idagi yuz berayotgan salbiy hodisalarning da bet pardasini haqiqat bilan ochishga iste'dodi bilan namoyon bo'ladi. Bunday o'zgarishlarning bo'lishi da, bizningcha tabiiy, chunki vaqtning o'tishi bilan zamonlar, odamlar o'zgaradi, shoirning ijodkorlik evolyutsiyasi da o'sib boradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). I.Yusupov umuman olganda, buyuk shoirlarning biri hisoblanadi. U hayotdagi kichkina manzaralardan da yuksak falsafiy xulosa chiqaradi. Shoirning ko'pchilik she'rlarida hayotdagi bitta manzarani jonlantirib tasvirlasa da uni o'z Vatani, xalqining taqdiriga bog'lab bergisi keladi. Bularning barchasi fikri va tasavvurlarining kengligidan, shoirlik his-to'yg'ulardan, Ona Vatanga bo'lgan muhabbatidan vujudga keladi. Ibrayim Yusupov to'g'ilgan xalqi haqida "Ordenli xalqima" degan she'rida birinchi navbatta tarixiy xulosalarni berishi, uning dardini Qora tog'ning bag'riga taqqoslashi, bu haqiqiy

iste'dodning tasvirlash usulidir. Ammo, eng asosiy narsa – shoirning, lirik qaharmonning xalqiga sevinchi, uning o'z xalqining issig'i bilan da, sovug'i bilan da, birga bo'lishi yuksak xususiyatidir. Asar lirik qaharmonning xalqiga bo'lgan yuragi toza, Ona xalqining tarixiy taqdiriga haqiqiy qarashdan chuqur jonkuyarlik, gumanistik sezgilari bilan munosabatda bo'ladi.

Shoirning yuragini to'g'ilgan to'proq bilan ona erimizning bugungi shunday qiyofasi qiynaydi, uni cheksiz ozob-uqubatlarga soladi. So'z mahoratining tasvirlashlari juda jonli, shu sababli da Orol dengizi taqdirini ko'pchilik yozuvchilarimizning T.Qayıpbergenov, M.Seytniyazov, O.Abdiraxmanov va boshqalarning asarlarida so'z etilsa da, I.Yusupovning yuqoridagidek, lirikasi to'g'ilgan Vatanimizning bugungi qiyofasiga jonkuyarlik bilan munosabatda bo'lishi yuksak bahoga loyiqdir. Milliy falsafiy qarashlarimiz bilan poeziyamiz shunday fikrlarni, Vatan to'prog'ining xavf ostida qolayotganligini butun dunyoga ma'lum qilgani uchun da, hozir Orol dengizi masalalari dunyoviy muammolarning biriga aylandi. Prezidentimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining majlisida bu masalani o'rta qo'yadi. Bunday ishlarning amalga oshirilishida qoraqalpoq xalqining farzandi sifatida Ibrayim Yusupovday so'z mahoratlarining badiiy asarlarining ahamiyati katta.

"Shoir o'z asarlarida faqatgina Vatanimizning bugungi achinarli taqdirini, Orol masalasini bir tomonlama umidsizlik qarashdan tasvirlash bilan cheklanmagan. Aksincha, shoirning bu yo'nalishdagi optimistik fikrlari ulkan. Bu uning ko'proq "Bu er hali zo'r bo'ladi" she'rida aniq aks etgan"[4]. She'rdagi mazkur satrlar yuksak vatanparvarlik his-to'yg'ularni tahlil qiladi;

"Bardur boljaw qabiletim,  
Bilgen narsem sol boladi,  
Sal azraq sabir etin,  
Bul jer ele zor boladi.

...Awız suwın duzlaq bolsa,  
Uyrengen oz duzin bolar...  
Duz tatıp ket degende de,  
Tegin aytqan dep bolmaydı.

Biraq jetpes oz jerine,  
Qansha jaman degende de,  
Beyishtiń tap qaq torine,  
Kottejd qurıp bergende de.

Oytkeni bir qarabaraq,  
Shop emes goy, adam degen,  
Temir tamir urgan daraq,  
Watan degen, Watan degen!" [5].

Bu erdagi shoirning so'zlari murakkab emas, oddiy, tushunarli qilib aytilgan, biroq u o'z haqiqati bilan tasvirlanadi. Shu bilan birga, buyuk iste'dodning qo'llagan taqqoslashlari da o'z zamonaviyligi bilan, alohida qizig'uvchilik o'yg'otadi. Shoir o'zining bu she'rida yana da, Ona Vatanni o'zi oq sut emgan ona obrazi bilan taqqoslab, mustahkam bog'liq holda ta'riflaydi.

Darhaqiqat, bu fikrlar turmush haqiqati asosida juda ta'sirli aytilgan dono falsafiy fikrlardir. Shoir shunday dunyoning bir butun holatda tahlil qilib, Vatanning kuch-qudratini namoyon etadi.

I.Yusupov o'zining maqolasida ta'kidlaganidek, shoirning fikri faqatgina to'g'ilgan eri bilan cheklanmay, butun sayyorani tasavvuri bilan izohlaydi, uning bir burchagidagi yig'layotgan go'dak tovushi shoirning yuragini yaralaydi. So'z mahorati shunday fikrlarini oq qog'oz betlariga realistik bilan tushirish orqali umuminsoniy fikrlarni tahlil qiladi va insonlarni insoniylikka chaqiradi.

Falsafa odamning tabiiy-ijtimoiy ahamiyati, uning olamdagi tirik janzodlardan ajralib turadigan o'rmini, farqini tushuntiradi. Inson ma'naviyatining atrof-muhitga bog'liq bo'lgan mexanizmini ko'rsatadi. Odamning olamga bo'lgan munosabati uning atrof-muhitni, hattoki, o'zini-o'zi o'zgartirish yo'llari va usullari, o'z taqdirini o'zi belgilovchi buyuk maqsad ekanligi har tomonlama inson falsafasida tahlil qilinadi. Odam to'g'risida falsafa uning manfaati, zaruriyati va ishonchi bilan bevosita bog'liq.

«Ibrayim Yusupovni qoraqalpoq xalqining XX asrdagi Pushkini deb hisoblash mumkin. Bu taqqoslash haddan tashqari oshirib yuborish emas. Chunki, unga har tomonlama asoslar bor; uning ijodkorligining chuqur realizmi, yuksak darajadagi mahorat, janrlilik xilma-xillilik shu bilan birga, uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari da o'z ichiga qamrab olishi, uning asarlarini har tomonlama falsafiy jihatdan tahlil qilishga imkoniyat beradi. Agar da Ibrayim Yusupovning asarlari boshqa da tillarga ona tilimizdek, mahorat bilan takomillashtirilgan sifatda tarjima qilinganda edi, bizning poeziyamiz butun dunyoviy miqyosda tan olinishi yana da yuksak darajada bo'lar edi»[6].

Bizning buyuk va murakkab asrimizda odamning obrazini yaratish unga falsafiy ma'no berishni o'zining burchi deb hisoblagan adabiyot vujudga kelib boshladi. O'tgan sobiq ittifoq davridagi falsafada “odam mehnat resursi”, “inson mehnatning sub'yekti” degan bema'ni fikrlar bo'ldi. Shu bilan birga, odam degan mashinaning bir “qismi”, uning o'rniga qo'yiladigan “bo'laklar” ko'p deb har bir odamning individual imkoniyatini esga olmay, qo'rqitish iskanjasini ma'qullar edi.

Hozirgi zamon, ijtimoiy progress, ayniqsa, fan va texnikaning rivojlanishi, insonning jismoniy va ma'naviy qiyofasiga professional mutaxassisligiga ta'siri, uni bir butun o'rganishni taqozo qildi. Demak, hozirgi davrdagi shoirlarning odamni tushunishi, u oddiy tabiiy jonzat emas, ya'ni mashinaning bir bo'lagi emas, faqatgina mehnat resursi emas, balki majmuaviy rivojlanuvchi tushuncha. “Odam toshdan qattiq, guldani nozik” (I.Yusupov).

Bu qarashdan I.Yusupovning poeziyasidagi falsafiy tafakkurlar hozirgi zamon qarashiga da to'g'ri keladi. Sababi, uning poeziyasi uning donoligidan chiqib, bizni yana da donolikka etaklaydi. Uning falsafasi orqali odam dunyoning lazzatini tushunadi. Uning asarlari “falsafa bilan chug'ullanishni hohlagan odam poeziyasiz bo'lmaydi. U poeziyaviy asarlarni o'rgangannan boshlab – falsafiy fikrlashni o'rganadi” degan qadimgi yunon mutafakkiri Plutaxning so'zining haqiqat ekanligiga ishoniradi”[7].

I.Yusupovning poeziyasida odam jonli kurashuvchi, charshamaydigan shaxsiy mardlikning namunasidir. Uning hayotini u toshdan qattiq, guldani nozik deb qaraydi. Shoirning inson haqidagi fikrlari keng. Unda tasdiqlash va bekor qilish, yaxshi ko'rish va yomon ko'rish dialektikasi, insonning jon aksini ochib, unga quvonchga, baxtli yo'l ko'rsatib, turmushini engillatishni o'rgatadi. U buyuk quvonchli davrda odamlarning yaxshilanishini hohlaydi. U inson dunyosining qarama-qarshilikli, hayotidagi o'tkir kurashini ko'rib, uning yangi hayotga intilishi uchun yo'l ko'rsatadi.

Poeziya dunyoning ovozi, haqiqatning chin tovushi. Uning qonuni hayotning qonuni. Demak, hayot qonunini e'tiborga olib, uning lazzatini, abzalligini tushuntirish uchun shoir inson falsafasi bilan gaplashadi. Zero, inson falsafasi inson harakatlaridagi, intilishlaridagi ko'ngil to'yg'ularidagi hodisalarining xilma-xillilik singari cheksiz. Unda inson hayotining dialektikasi aks etadi. Shoir bu masalada baxtli odam kim degan savolga javob izlaydi, baxt bilan baxtsizlikning ta'sirli manzarasini tahlil qilishga intiladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni I.Yusupov faqat shoir sifatida emas, balki badiiy tarjimalari bilan 100 ga yaqin adabiy tanqidiy va adabiy nazariy maqolalari bilan qoraqalpoq adabiy jarayonining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shdi. Muallifning adabiy aloqadorlik masalalari o'rin olgan har xil janrdagi bosmada chiqqan maqolalarida falsafiy ta'sirchanglik bosim. I.Yusupovning shoirlik tajribasi uning maqolalaridagi mazmuni chuqurligini, ilmiylikka nisbatan badiiy ta'sirchanglik asosida etkazib berish doirasining kengayishini ta'minlay olgan. Qardosh xalqlar adabiyoti vakillariga bag'ishlanib, yozilgan asarlarida voqealar, esga tushurishlar asosida o'quvchini qizig'uvchilik bilan o'qishga yo'naltiradi, zeriktirmaydi.

Xalqimizning qardosh xalqlar adabiyoti vakillari, ularning asarlari bilan tanishishda I.Yusupovning badiiy tarjimalari bilan bir qatorda adabiy aloqadorlik masalalari o'rin olgan maqolalarining da o'rni muhimdir. I.Yusupov jahon adabiyoti klassiklaridan Pushkin, Lermontov, Geyne, Bayron, Shevchenko, Hafiz, Omar Hayyam, Navoyi, Maqtumquli, Hamza, Vurgun, G'.G'ulom, X.Alimjon, Zulfuya, R.Gamzatov va boshqa so'z zargarlarining klassik asarlarini tarjima qildi.

I.Yusupov XX asr qoraqalpoq poeziyasini oldin ko'rilmagan yuqori marralarga olib chiqdi. U qoraqalpoq tilining cheklanmagan keng, boy imkoniyatlari asosida falsafiy tafakkurning yangi shakllarini o'z ijodida namoyon qila oldi. Bu sohada shoir ijod maktabini yaratdi. Shoir poeziyasi asrlar sinovidan o'tib, milliy falsafiy tafakkurimizning eng yuksak marralarining biri sifatida qolishi shubhasiz.

Ibrayim Yusupovning qaysi asarini olib qarasaqda, unda uning poeziyasida hayot singari abadiylik deb hisoblab, uning bilan g'ururlanib, ezgulikka intilib yashovchi insoniyatning arzu-armonlarini, jon va tana go'zalligini chuqur tahlil qilganligini ko'ramiz. Uning lazzatli lirikasi, falsafiy poemalari, qaytadan to'g'ilgan yurtining, yangi ozod va obod hayotini ruhlantirib, uning yuksalishiga hissa qo'shib, xalqning ma'naviyatini tiklashga yo'naltiradi. Ibrayim Yusupov jahonga poeziya yulduzlarining biri bo'lib tanildi. Zero, poeziya abadiydir. Ezgulikka intilgan insonning arzu-armonlari bor bo'lsa, muhabbati o'lmagan bo'lsa, go'zallikka ochiqligi eskirmagan bo'lsa, his to'yg'ulari so'nmagan bo'lsa, insoniylik fazilatlarini yo'qolmagan bo'lsa, poeziya da albatta yashaydi, uning ildizi mustahkam, nuri porlab turadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Юсупов И.. Дала эрманлары китабынан. Ўатан. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1966. 21-бет.
2. Есенов Ж.. Поэзия жулдызы. – Нөкис: «Билим», 2003, 5-бет.
3. Есенов Ж.. Поэзия жулдызы. – Нөкис: «Билим», 2003, 6-бет.
4. Есенов Ж.. Поэзия жулдызы. – Нөкис: «Билим», 2003, 13-бет.
5. Юсупов И.. Дузлы самаллар китабынан. Бул жер эле зор болады. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1988. 73-бет.
6. Есенов Ж.. Поэзия жулдызы. – Нөкис: «Билим», 2003. – Б. 3.
7. Базарбаев Ж.. Даналығы гөззаллыққа уласқан шайыр. – Нөкис: «Билим», 2008., 46-бет.



*Sarvinoz OTAMURATOVA,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali o'qituvchisi*  
*E-mail: sarvinoz1@gmail.com*

*O'zMU professori v.b., psixologiya fanlari doktori N.Mullaboyeva taqrizi asosida*

## AGE AND GENDER CHARACTERISTICS OF EMOTIONAL INTELLIGENCE AMONG ADOLESCENTS PRONE TO INTERNET ADDICTION

Annotation

In the current third millennium, the development of information technology is accelerating in seconds. The form of interpersonal communication of people is also intense in proportion to these actions. Real-world understanding of human perception is gaining negative aspects such as decreased expression control, cyberaddiction, acceptance of virtual environment culture, resulting in a decline in emotional intelligence. In this work, two groups of adolescents who are prone to internet addiction behavior are studied in relation to the emotional intelligence characteristics of experimental (prone to internet addiction) and control (non-internet addiction) groups as well as personality traits.

**Key words:** Internet addiction susceptibility, emotional intelligence, adolescence, personality traits, individual differences, non-verbal speech, body movement, virtual environment, obsessive-compulsive disorder.

## ВОЗРАСТНЫЕ И ГЕНДЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА СРЕДИ ПОДРОСТКОВ, СКЛОННЫХ К ИНТЕРНЕТ-ЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В нынешнем третьем тысячелетии развитие информационных технологий ускоряется с каждой секундой. Форма межличностного общения людей также становится интенсивной, пропорционально этим действиям. Понимание чувств людей в реальном мире приобретает негативные аспекты, такие как снижение способности контролировать свои выражения, кибераддикция, принятие культуры виртуальной среды, что приводит к снижению эмоционального интеллекта. В этой работе исследуются две группы подростков, склонных к интернет-зависимости, в зависимости от характеристик эмоционального интеллекта и личностных качеств экспериментальной (склонных к интернет-зависимости) и контрольной (не зависящих от интернета) групп.

**Ключевые слова:** Восприимчивость к интернет-зависимости, эмоциональный интеллект, подростковый возраст, черты личности, индивидуальные различия, невербальная речь, движения тела, виртуальная среда, обсессивно-компульсивное расстройство.

## INTERNET TOBELIGIGA MOYIL O'SPIRINLAR ORASIDA HISSIY INTELLEKTNING YOSH VA JINS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Hozirgi uchinchi mingyillikda axborot texnologiyalarining rivoji soniya sayin tezlashib bormoqda. Insonlarning shaxslararo muloqot shakli ham ushbu harakatlarga mutanosib ravishda shiddatli kechmoqda. Real dunyodagi insonlar tuyg'usini tushunish, ifodalarni nazorat qilish imkoniyati kamayishi, kiberaddiksiya, virtual muhit madaniyatini qabul qilish kabi salbiy jihatlari ortirib olmoqda, natijada hissiy intellekti pasaymoqda. Ushbu ishimizda Internetga qaramlik xatti-harakatlariga moyil bo'lgan o'spirinlarning ikki guruhga eksperiment (Internetga qaramlikka moyil) va nazorat (Internetga qaram bo'lmagan) guruhlarining hissiy intellekt xususiyatlari hamda shaxs xususiyatlariga bog'liq o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Internetga qaramlikka moyillik, hissiy intellekt, o'spirinlik, shaxs xususiyatlari, individual farqlar, noverbal nutq, tana harakati, virtual muhit, obsessif buzilish.

**Kirish.** Rivojlanib kelayotgan jamiyatning asosiy muammolaridan bir bu - yoshlarning barkamol shaxs, komil inson, ruhan baquvvat va har tomonlama raqobatbardosh bo'lib voyaga yetishi, ularda ma'naviy-ahloqiy normalarning shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'ularini kamol toptirish, zamonaviy dunyodagi shiddat bilan o'zgarishlarga nisbatan mustaqil va qat'iy pozitsiyadan turib yangicha muammolarni innovatsion tarzda konstruktiv hal eta oladigan, shaxslararo munosabat doirasida shaxsiy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanib, o'zini anglagan va o'zgalarning tuyg'ularini tushunib ular bilan kirisha oladigan, kelajakka ishonch ruhi bilan boqadigan yoshlar zarurdir [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Shiddatli zamonamizda har bir yosh axborot texnologiyalaridan doimiy foydalanish ehtiyojiga ega. Raqamli va hissiy kompetensiyalarning ustuvorligi shaxsning ijtimoiy moslashuvi va ishlash samaradorligining dolzarbligi bilan


izohlanadi [2]. Garchi hissiy intellekt tez robotlashtirishga tobe bo'lmagan kam sonli ko'nikmalardan biri bo'lsa-da [3], yordamchi robototexnika doirasida operator va mijoz o'rtasidagi aloqada potentsial hissiy stressni kamaytirish uchun hissiy reaksiyalarni tan oladigan raqamli yordamchilar allaqachon yaratilgan [4]. Shunga qaramay, raqamli texnologiyalarning shaxsning hissiy sohasiga ta'siri haqidagi bilimlar noaniq va tarqoq. Shunday qilib, ba'zi tadqiqotchilar raqamli texnologiyalarning hissiy farovonlikka, o'z hissiy tajribalarini tushunishga, boshqalarga empatiyaga va hissiyotlarning ijtimoiy almashinuviga ijobiy ta'sirini tasvirlaydilar [5]. Boshqa tadqiqotchilar hissiy o'zaro ta'sirning valentligini, hissiy o'zaro ta'sir sifatini va raqamli xulq-atvor maqsadiga erishish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning salbiy oqibatlariga e'tibor berishadi. Maqolaning maqsadi raqamli texnologiyalardan foydalanish va shaxsning hissiy intellekti o'rtasidagi bog'liqlik

bo'yicha tadqiqotlar natijalarini umumlashtirishdir. Tadqiqot sharhining nazariy va uslubiy asosini madaniy-tarixiy yondashuv tashkil etadi. Hissiy intellekt darajasi yuqori bo'lgan talabalar soni 3,8 baravar oshdi [6]. Boshqa bir tadqiqot, raqamli ta'lim texnologiyalarining o'z kasbiy faoliyatida ushbu mahoratga muhtoj bo'lgan sayyohlik xodimlarida hissiy intellektni rivojlantirishga ijobiy ta'sirini tasdiqladi [7]. Hissiy intellekt ham yangi, raqamli shaklga ega bo'lishi aniq bo'ladi. "Raqamli hissiy intellekt" hodisasining kontseptualizatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar olindi [8]. Video suhbatlar va depressiv alomatlar va tashvish belgilari bilan video ko'rish o'rtasida kuchli bog'liqlik aniqlandi [9]. Raqamli qurilmalardan foydalanishda ota-onalarning farzandlari bilan hissiy aloqalari va bolaning yuqori darajadagi hissiy intellekt darajasi o'rtasida bog'liqlik o'rnatildi [10]. Tadqiqot cheklovlarga ega, ammo olingan natijalar raqamli haqiqatning hissiy intellektning rivojlanishiga ta'sirini shu qadar aniq talqin qilmaslikka chaqiradi: oila hissiy va axborot madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Internet-syorfingga sarflangan ekran vaqti va raqamli empatiya o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlandi [11]. Albatta, mazmunning tabiatini va hissiy intellektning faqat bitta tarkibiy komponenti bilan munosabatlar topilganligini hisobga olish muhimdir. Oqibatda ularda texnologiyalarga nisbatan qiziqishning ortishi va tobeklik harakatlari paydo bo'ladi. Bu esa ularning shaxsiy xususiyatlariga ta'sir etmasdan qolmaydi. Hozirgi vaqtda Internetga qaramlik muammosini o'rganishning dolzarbligi O'zbekistonda va butun dunyoda Internetdan foydalanuvchilarning soni ortib borayotganligi sababli tobora ortib bormoqda. So'nggi 10 yillikda Internetga qaramlik muammosi tobora ko'proq muhokama qilinmoqda [12].

Tadqiqotimizning maqsadi - Internetga qaramlik o'spirinlarning hissiy intellekti va xarakteristik xususiyatlarini o'rganish va tavsiflash.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalandik:

- K.Young tomonidan Internetga qaramlik testi (Loskutova tomonidan moslashtirilgan); - D.V.Lyusin



1-rasm. Internet foydalanuvchilarning foiz ko'rsatkichi

Diagnostikaning ikkinchi bosqichida o'spirinlardagi emotsional intellektning xususiyatlarini, shuningdek, tanlab olgan eksperimental va nazorat guruhlaridagi o'spirinlarning xarakteristik xususiyatlarini, Internetga qaramlik darajasini o'rganishdan iborat edi. Keyingi tadqiqot ishlarimizni Internetga qaramlik shkalasi testi orqali amalga oshirdik, ushbu metodologiyada sezilarli farqlar kuzatildi. Ushbu test

tomonidan EmIn (hissiy intellektni aniqlash testi); - G.Ayzenk (shaxs ruhiy holatini baholash testi).

Eksperimental guruhga kiritish mezonlari quyidagilardan iborat:

-oxirgi 1 yil davomida Internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lish, internetdan 2 yildan ortiq foydalanish tajribasi; - kuniga kamida 3 soat Internetda o'tkazish; - past ijtimoiy faollik (o'quv mashg'ulotlaridan tashqari sevimli mashg'ulotlarining yo'qligi, maktabdan tashqarida do'stlar bilan muloqotning yo'qligi); - afzal internet resurslari ro'yxatida onlayn o'yinlar, onlayn xaridlar, musiqa va videolar mavjudligi; - K. Yang testi (50 balldan ortiq) bo'yicha yuqori ballarning kombinatsiyasi;

Nazorat guruhiga kiritish mezonlari quyidagilardan iborat:

- Internetda kuniga 3 soatdan kam vaqt o'tkazish; - yuqori ijtimoiy faollik (xobbilar doirasini kengaytirish, do'stlar bilan uchrashuvlar chastotasidan qoniqish); - afzal internet resurslari ro'yxatida onlayn o'yinlar va onlayn xarid, musiqa va videolar yo'qligi; - K. Young testi (49 va undan kam ball) bo'yicha past ballarning kombinatsiyasi. Birlamchi diagnostika natijalari (tadqiqotning birinchi bosqichi), shu jumladan K. Young testi, tadqiqot ishtirokchisining so'rovnomasi asosida ikkita guruh tuzildi - eksperimental va nazorat. Internetga qaramlik xulq-atvori bo'lgan eksperimental guruhga o'rta yoshi 20,7 yoshda bo'lgan 100 nafar o'spirin kirdi. Nazorat guruhiga o'rta yoshi 20,7 yil bo'lgan 106 o'spirin kirdi.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, namunadagi o'spirinlarning 21 foizini Internetga qaramlik xatti-harakatlariga moyil deb tasniflash mumkin va o'spirinlarning 79 foizi Internetdan sog'lom foydalanish bilan ajralib turadi. Berilgan 1-rasmda tadqiqotimiz natijalarini grafik tarzda ifodaladik. Internetga qaramlikka moyilligi bor (3%) va unga qiziquvchilarni (46%) alohida eksperimental guruhi deb, odatiy Internet foydalanuvchilarni (51%) nazorat guruhi sifatida tanlab oldik.

K.S.Young tomonidan ishlab chiqilgan va Loskutova tomonidan moslashtirilgan. Ma'lumotlarni statistik qayta ishlash usulining shkalalaridagi farqlarning ahamiyatini ko'rsatdi.

K.S.Young (Loskutova)ning Internetga qaramlik testi bo'yicha olingan natijalarning guruh bo'yicha farq ko'rsatkichi tahlili

1-jadval

Shkala	Eksperimental guruh		Nazorat guruh		t	Ishonch darajasi
	O'rtacha ko'rsatkich	Standart og'ishish	O'rtacha ko'rsatkich	Standart og'ishish		
Internetga qaramlik	56,9000	8,05850	34,6500	8,91755	16,479	,000***

G.Ayzenk tomonidan "Shaxs ruhiy holatini baholash testi" metodologiyasi natijalarini tahlili

2-jadval.

Shkala	Eksperimental guruh		Nazorat guruh		t	Ishonch darajasi
	O'rtacha ko'rsatkich	Standart og'ishish	O'rtacha ko'rsatkich	Standart og'ishish		
Bezovtalik	7,2300	4,94384	7,5000	4,48679	-,383	,702
Frustratsiya	6,3000	4,8856	6,9700	5,04216	-,948	,345
Agressivlik	7,7800	4,24878	8,5300	4,62198	-,122	,264
Rigidlik	8,2600	4,73461	8,3800	4,59420	-,184	,855

Biz Internetga qaramlik xulq-atvori bo'lgan eksperimental guruhi o'spirinlari va nazorat guruhidagi o'spirinlar o'rtasida hissiy intellekt darajasida, ya'ni aloqa va ijtimoiy moslashish muvaffaqiyatini belgilaydigan qobiliyatlarida farq bor (rigidlik, frustratsiya, agressiya va bezovtalik), deb taxmin qildik, ammo tadqiqot metodikasidan olingan natijalarni tahlil qilish davomida shaxsning ruhiy holatini baholovchi metodikamizdagi shaxs xususiyatlarini nazorat va eksperimental guruhlardagi sezilarli farq kuzatilmadi.

Yuqori hissiy intellektga ega bo'lgan odamlar, boshqa atrofda odamlarning xatti-harakatlari haqida maksimal ma'lumot olish, og'zaki bo'lmagan muloqot tilini tushunish, odamlar haqida tez va to'g'ri xulosalar chiqarish, muayyan sharoitlarda ularning reaksiyalarini muvaffaqiyatli bashorat qilish va boshqalar bilan munosabatlarda oldindan ko'ra bilish qobiliyatiga ega, bu ularning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Hissiy intellekt darajasi past bo'lgan shaxslar odamlarning xatti-harakatlarini tushunish va bashorat qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bu munosabatlarni murakkablashtiradi va ijtimoiy moslashish qobiliyatini pasaytiradi. Hissiy intellektning pastligi Internetga qaramlikning paydo bo'lishiga yordam beradi deb taxmin

3-jadval

Shkala	Eksperimental guruh		Nazorat guruh		t	Ishonch darajasi
	O'rtacha ko'rsatkich	Standart og'ishish	O'rtacha ko'rsatkich	Standart og'ishish		
Boshqa odamlarning his-tuyg'ularini tushunish (BOHT)	15,5500	2,52413	16,7100	3,27924	-2,953	,004**
Boshqa odamlarning his-tuyg'ularini boshqarish (BOTB)	15,5500	2,52413	16,7100	3,27924	-2,953	,004**
O'z his-tuyg'ularini tushunish (O'TT)	15,4800	4,39577	16,6700	3,79009	-2,002	,048*
O'z tuyg'ularingizni boshqarish (O'TB)	10,7500	2,70194	11,8000	3,35448	-2,799	,006**
Ifodani nazorat qilish (INQ)	10,4000	2,15557	11,5900	2,62503	-3,508	,001***
Shaxslararo hissiy intellekt (ShHI)	32,9400	6,02322	35,9600	7,89952	-3,047	,003**
Intrapersonal hissiy intellekt (IEI)	22,8500	10,65186	24,1700	8,82954	-911	,365
Tuyg'ularni tushunish (TT)	32,8700	5,02851	35,9200	6,59152	-3,786	,000***
Tuyg'ularni boshqarish (TB)	36,7000	4,54050	40,1000	6,59737	-4,604	,000***
Umumiy hissiy aql darajasi (UEI)	69,5700	7,82027	76,0200	11,67401	-4,944	,000***

Tadqiqotimiz ma'lumotlari Internetga bog'liq bo'lgan o'spirinlarning hissiy intellekt darajasining Internetdan sog'lom foydalanish bilan tavsiflangan o'spirinlarning hissiy intellekt darajasiga nisbatan sezilarli darajada pasayishini ko'rsatadi va bu pasayish tendensiyasi nafaqat darajada ko'rinadi, balki umumiy hissiy intellektning alohida tarkibiy qismlarida ham buni ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi jadvalda buning ayni tuzilishi berilgan. Agar biz aniqroq farqlar haqida gapiradigan bo'lsak, biz Internetga qaramlik xatti-harakatlariga moyil bo'lgan o'spirinlarda suhbatdoshining oldida his-tuyg'ularni tushunish, tuyg'ularini boshqarish, o'z tuyg'ularini tushunish va boshqarish, o'z ifodalarni nazorat qilish va ma'lum bir suhbatdoshiga nisbatan his-tuyg'ularini tasvirlash qobiliyatining pasayishini ko'ramiz.

Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, biz hissiy intellektning pasayishi ma'lum xarakteristik xususiyatlar bilan birgalikda Internetga qaramlik xatti-harakatlarining rivojlanishi uchun qulay zamin yaratishi mumkin degan taxminni aytishimiz mumkin. Biroq, shu bilan birga, biz Internetga qaram bo'lgan o'spirinlarda topilgan hissiy intellektning xususiyatlari qaramlikning shakllanishiga sabab bo'lmagan, balki Internetga bo'lgan ishtiyiq paytida

qilish mumkin, chunki onlayn bo'lgan odam virtual muloqotni xohlaydimi yoki yo'qmi, o'zi uchun tanlashi mumkin. Hissiy intellektning rivojlanish darajasi bo'yicha statistik jihatdan muhim natijalarga erishganimiz sababli, biz bu hissiy intellektni aks ettirish bilan bog'liq shaxs xususiyatlarini belgilaydigan ajralmas intellektual qobiliyat sifatida rivojlanmagan deb taxmin qilishimiz mumkin. D. Lyusinning hissiy intellekt testi natijalari tahlili amalga oshirildi. Biz nazorat guruhidagi o'spirinlar va internetga qaramlik xatti-harakatlariga moyil bo'lgan o'spirinlarning hissiy intellekt darajasidagi farq haqida taxmin qildik. Ushbu muammoni hal qilish uchun biz D. Lyusin tomonidan moslashtirilgan hissiy intellektning EmIn (hissiy intellekt testi) diagnostika usulidan (D.Lyusin, 2009) foydalandik. Biz quyidagi parametrlarni o'rgandik: his-tuyg'ularni boshqarish, tushunish, boshqalarni tushunish va boshqarish, ifodani nazorat qilish, interpersonal hissiy intellekt, umumiy hissiy intellekt va uni tahlil qilish; his-tuyg'ularni ongli ravishda boshqarish ko'rsatkichlari nazorat guruhidagi respondentlarning ko'rsatkichlaridan keskin farq qiladi.

D. Lyusin tomonidan EmIn (hissiy intellekt testi) metodologiyasi (D.Lyusin, 2009) shkalalari bo'yicha guruh bo'yicha farq ko'rsatkichi tahlili

shakllanganligini butunlay inkor etmaymiz. Internet faoliyatining bir qator xususiyatlari (masalan, og'zaki bo'lmagan kommunikativ tomonning to'liq yo'qligi).

**Xulosa.** Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'spirinlarning umumiy guruhida Internetdan qaramligiga moyil bo'lgan o'spirinlarning 21 foizi va sog'lom internetdan foydalanish bilan ajralib turadigan o'spirinlarning 79 foizi aniqlangan. Internetga qaram bo'lgan o'spirinlarning hissiy intellekti Internetni suiiste'mol qilmaydigan o'spirinlarning hissiy intellektiga qaraganda ancha past. Eksperimental va nazorat guruhlarida o'spirinlarning xarakteristik xususiyatlarida farqlar aniqlanmadi. Olingan natijalarga asoslanib, Internetga bog'liq xatti-harakatlarga moyil bo'lgan o'spirinlarning xarakterli shaxsiy xususiyatlari (bezovtalik, agressiya, frustratsiya, rigidlik) sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin: hissiyotdagi qattqlik, umumiy bezovtalik, agressiya, kayfiyatning o'zgarishi, xatti-harakatni samarali ixtiyoriy tartibga solish qobiliyatining pasayishi, qo'zg'aluvtanlik, ichki kuchlanish, xavotirlanish, kutish, qaramlik. Internet tobeligiga moyil o'spirinlarning xarakterli xususiyatlarning quyidagi turlari bilan ajralib turadi: apatik, nevrastenik, egosentrik, paranoid, senzitiv, tashvishli.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, 06.10.2020 yildagi PQ-4851-son.
2. Беркович О.А., Беркович М.И. Вызовы цифрового общества и социально-экономические трансформации как контексты развития мышления обучающихся // Модернизация системы профессионального образования, на основе

- регулируемого эволюционирования: материалы XVIII Междунар. науч.-практ. конф. (Москва–Челябинск, 14 ноября 2019 г.) / отв. ред. Д.Ф.Ильсов. М.; Челябинск: Изд-во ЧИППКРО, 2019. С. 242–248.
3. Гребняк О.В. Особенности формирования рынка труда молодежи в обществе цифровой экономики // Государственная молодежная политика: национальные проекты 2019–2024 гг. в социальном развитии молодежи: материалы Всерос. науч.-практ. конф. (Москва, 20–21 апреля 2020 г.) / отв. ред. Т.К. Ростовская. М.: Перспектива, 2020. С. 269–275.
  4. Erol B.A., Majumdar A., Benavidez P., Rad P., Choo K.-K.R., Jamshidi M. Toward Artificial Emotional Intelligence for Cooperative Social Human–Machine Interaction // *IEEE Transactions on Computational Social Systems*. 2020. Vol. 7, iss. 1. P. 234–246. DOI: <https://doi.org/10.1109/tcss.2019.2922593>
  5. Wadley G., Smith W., Koval P., Gross J.J. Digital emotion regulation // *Current Directions in Psychological Science*. 2020. Vol. 29, iss. 4. P. 412–418. DOI: <https://doi.org/10.1177/0963721420920592>
  6. Нозикова Н.В., Баденкова Г.Г. Взаимосвязь развития эмоционального интеллекта с активностью пользования социальными сетями в юношеском возрасте // *Известия Иркутского государственного университета. Серия: Психология*. 2020. Т. 33. С. 43–58. DOI: <https://doi.org/10.26516/2304-1226.2020.33.43>
  7. Родионова Е.В., Конюхова Т.В., Лукьянова Н.А., Конюхова Е.Т. Эмоциональный интеллект студентов цифрового поколения: опыт инженерного вуза // *Образование и саморазвитие*. 2022. Т. 17, № 4. С. 126–138. DOI: <https://doi.org/10.26907/esd.17.4.10>
  8. Kallou S., Kikilia A., Kalogiannakis M. Emotional Intelligence Development in Tourism Education and Training through Digital Technologies // *Innovations in Learning and Technology for the Workplace and Higher Education*. TLIC 2021. Lecture Notes in Networks and Systems. Vol. 349 / ed. by D. Guralnick, M.E. Auer, A. Poce. Cham, CH: Springer, 2022. P. 149–159. DOI: [https://doi.org/10.1007/978-3-030-90677-1\\_15](https://doi.org/10.1007/978-3-030-90677-1_15)
  9. Audrin C., Audrin B. More than just emotional intelligence online: introducing «digital emotional intelligence» // *Frontiers in Psychology*. 2023. Vol. 14. URL: <https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fpsyg.2023.1154355/full> (accessed: 13.07.2023). DOI: <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2023.1154355>
  10. Fors P.Q., Barch D.M. Differential Relationships of Child Anxiety and Depression to Child Report and Parent Report of Electronic Media Use // *Child Psychiatry & Human Development*. 2019. Vol. 50, iss. 6. P. 907–917. DOI: <https://doi.org/10.1007/s10578-019-00892-7>
  11. Отамурагов, Р. У. Психологические особенности эмоционального интеллекта человека в интернет-среде (на примере молодёжь) / Р. У. Отамурагов, П. Н. Устин // *Мир науки. Педагогика и психология*. — 2023. — Т. 11. — № 5. — URL: <https://mir-nauki.com/PDF/15PSMN523.pdf>



**Ravshan OXUNOV**,  
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti  
E-mail: r.okhunov@nuu.uz  
**Muhriddin QODIROV**,  
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

*Renessans ta'lim universiteti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, PhD, dotsent Sh.Narziyev taqrizi asosida*

## INFLUENCE OF CLIMATE FACTORS ON HUMAN LIFE ACTIVITY

Annotation

The article discusses the peculiarities of climatic factors affecting the human body, types and various changes that occur in the body, the study of biorhythms, the processes that cause climate change on Earth and the problems of adaptation of the human body to these factors. Methods of prevention are offered.

**Key words:** Climate, life activity, abiotic factors, temperature, receptors, biorhythms, studies.

## ВЛИЯНИЕ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

В статье рассматриваются особенности, виды климатических факторов, влияющих на организм человека, а также различные изменения, происходящие в организме, изучение биоритмов, процессов, вызывающих изменение климата на поверхности земли, и проблемы адаптации человеческого организма к этим факторам. Также предлагаются методы профилактики.

**Ключевые слова:** климат, жизнедеятельность, абиотические факторы, температура, рецепторы, биоритмы, исследования.

## IQLIM OMILLARINING INSON HAYOT FAOLIYATIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Maqolada inson hayot faoliyatiga ta'sir etadigan iqlim omillarining xususiyatlari, turlari hamda organizmda sodir bo'ladigan turli o'zgarishlar, bioritmlarni o'rganish, yer yuzasida iqlim o'zgarishiga sabab bo'layotgan jarayonlar va inson organizmining ushbu omillarga moslashuvi muammolari muhokama qilinadi hamda ularni oldini olish usullari taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** Iqlim, hayot faoliyati, abiotik omillar, harorat, retseptorlar, bioritmlar, tadqiqotlar.

**Kirish.** Iqlim – yer yuzasining quyosh nurlariga nisbatan og'ishiga bog'liq ravishda ob-havoning muayyan joyga xos bo'lgan ko'p yillik maromi, ya'ni biron joyda bo'ladigan obhavo sharoitlarining majmui va mavsumiy geografik o'zgarishi; quyosh radiatsiyasi, yer to'shama sirti xususiyatlari hamda ular bilan bog'liq atmosfera dirkulyatsiyasi ta'sirida vujudga keladi. Har bir joy iqlimi uning boshqa joylardagi iqlimga nisbatan o'ziga xos xususiyatlari haqida ko'p yillik meteorologik kuzatishlar natijasidagina to'la tasavvurga ega bo'lish mumkin. Iqlim atmosfera va faol qatlam (yer yuzasi)da beto'xtov davom etadigan tabiiy (iqlim hosil qiluvchi) jarayonlar (issiqlik, kinetik va boshqa shakldagi energiyalarning o'zgarishlari, suvning bug'lanishi, suv bug'ining suyuqlikka aylanishi, namning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi va hokazo) natijasidir. Yer sharining turli nuqtalarida iqlimning turlicha bo'lishi iqlim hosil qiluvchi omillarning har xil bo'lishiga, ya'ni bu jarayonlar sodir bo'ladigan o'sha geografik sharoitlarga bog'liq. Geografik omillardan eng muhimlari joyning kengligi va balandligi, dengiz sohiliga yaqin-uzoqligi, orografiya va o'simlik qoplamining xususiyatlari, qor va muzning bor-yo'qligi, atmosferaning ifloslanganlik darajasi hisoblanadi. Bu omillar kengliklar bo'ylab turli iqlimlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Iqlim tushunchasi o'z ichiga muayyan hududda uzoq vaqt davomida yig'ilgan harorat, namlik, atmosfera bosimi, shamol, yog'in va boshqa meteorologik parametrlar statistikalari oladi.

Sayorramiz iqlimi doimiy ravishda o'zgarib bormoqda. Hozir yerning o'rtacha harorati taxminan +14oC ni

tashkil etadi va maksimumdan ancha uzoq. Inson faoliyati natijasidagi omillar iqlim o'zgarishiga yildan-yilga ko'proq tahdid solayapti. Iqlim o'zgarishning tabiiy omillariga yerning o'z aylanasi bo'ylab harakati va qiyaligi, quyosh faolligining o'zgarishi, vulqonlarning otilishi va tabiiy ravishda atmosfera aerozollari sonini o'zgarishini o'z ichiga oladi.

Hukumatlararo ekspertlar guruhi yer sayyorasi ilgari hisob-kitob qilinganidan ko'ra tezroq isib borayotganini ma'lum qilishmoqda. Dunyo bo'yicha o'rtacha harorat 1,1 darajaga ko'tarilgan. Bu esa 2040-yilga borib o'rtacha harorat 1,5 darajaga oshishini bildiradi. Issiq to'lqinlar, kuchli shamollar, qurg'oqchilik, suv toshqinlari va yong'inlar yanada ko'proq sodir bo'la boshladi, muzliklar erishi yanada kuchaydi. Ayniqsa, oxirgi yillarda bu jarayon judayam tezlashganini kuzatishimiz mumkin.

Abiotik omillar - bu tirik organizmlarga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan jonsiz, noorganik tabiatning tarkibiy qismlari va hodisalaridir. Atrof-muhitning asosiy abiotik omillari: havo va suv harorati; suv va tuproqning sho'rlanishi; kislorod; magnit maydon; namlik va boshqalar. Barcha tirik organizmlarning barcha fiziologik funksiyalariga ta'sir qiluvchi eng muhim abiotik omillarning asosiy qismi haroratdir. Yer yuzida harorat geografik kenglik va dengiz sathidan balandlikka, shuningdek, yil fasllariga bog'liq, shuning uchun inson muhitida u hech qachon doimiy bo'lmaydi va organizm o'zgaruvchan sharoitlariga moslashishi kerak[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mavjud adabiyotlar, ilmiy va ilmiy-ommabop jurnallar, ommaviy axborot vositalarida berilgan ma'lumotlar tahlili shuni

ko'rsatadiki, mualliflar tomonidan asosan iqlim o'zgarishlari o'rganilib, ularning insonlardan ko'ra ko'proq o'simlik va xayvonot dunyosiga, ekologiyaga ta'siriga e'tibor qaratilgan.

Lekin, bugunga kelib vaziyat o'zgardi. Iqlim omillarining insoniyatga ta'siri global muammo ekanligi xalqaro miqyosda muhokama qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 19-sentabr kuni Nyu-York shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh qarorgohida BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida nutq so'zladi[2].

“Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo'lmish Yangi O'zbekistonni barpo etish siyosatini qat'iy davom ettirmoqdamiz. Mamlakatimiz “Inson qadri va manfaatlar uchun” degan ezgu g'oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo'lidan dadil ilgari bormoqda. Bu borada “Markaziy Osiyo iqlim mulqoti” ni joriy etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman. Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisi: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik” rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari suramiz. Uning asosiy mazmunini kelgusida Samarqandda bo'lib o'tadigan xalqaro iqlim forumida muhokama qilishni taklif etamiz”- dedi Prezidentimiz.

Hozirgi vaqtda dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilib, dunyo miqyosida uchta inqiroz, ya'ni iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillik yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchayib borayotganini qayd etib, Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanayotganini ko'rsatib o'tdi. O'zbekiston tomonidan Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish yo'lida ko'rilayotgan choralar, mintaqamiz iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri suv bilan ta'minlanganlik darajasini kamayish tendentsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi. Bu vaziyatdan kelib chiqqan holda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining “Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili” lavozimi ta'sis etilishi, Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasi yaratilishi va mintaqamizda qabul qilingan Yashil taraqqiyot dasturi doirasida tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilishi qo'llab-quvvatlandi.

Davlatimiz rahbari keyingi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan va ortga qaytmas tus olgan keng ko'lamlil islohotlarga alohida to'xtalib, global va mintaqaviy kun tartibidagi eng dolzarb, shu o'rinda ekologik masalalar yechimiga qaratilgan qator tashabbuslarni ham ilgari surdi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Inson o'zidagi doimiy sodir bo'ladigan issiqlik almashuvi jarayoni tufayli ob-havoning har qanday holatiga moslasha oladi. Insonning moslashuvchan funksiyasini terining asosiy issiqlik va sovuq retseptorlari, retseptor maydonlari va markaziy asab tizimi ta'minlaydi. Ularning birgalikdagi faoliyati issiqlikni tartibga solish deb ataladi, bunda organizm va tashqi muhit o'rtasida doimiy issiqlik almashinuvi (issiqlik uzatish), shuningdek oksidlanish jarayonlari (issiqlik hosil qilish) natijasida inson tanasida issiqlik hosil bo'lishi sodir bo'ladi. Havoning harorati va organizmdagi metabolizm o'rtasida aniq bog'liqlik mavjud. Shunday qilib, havo harorati pasayganda tanada issiqlik hosil bo'lishi kuchayadi, ko'tarilganda issiqlik hosil bo'lishi kamayadi. Atrof muhit harorati ko'tarilganda yoki tushganda, issiqlik uzatish ham teskari nisbatda o'zgaradi: harorat tushganda issiqlik chiqishi kamayadi va harorat ko'tarilganda u ko'payadi. Ushbu ikkita o'zaro bog'liq jarayonlar markaziy asab tizimining ta'siri bilan tartibga solinadi, bu esa inson tanasining boshqa bir qator organlari faoliyatining o'zgarishi bilan birga keladi: qon aylanishi, nafas olish va metabolizmning ko'payishi yoki pasayishi. uning moslashuvchan qobiliyatlari amalga oshiriladi. Past haroratlarga moslashish bir qator adaptiv o'zgarishlarda namoyon bo'ladi: organizmda sodir bo'ladigan, masalan:

mushaklarning titrashi, metabolizmning kuchayishi, qorin bo'shlig'i a'zolarida issiqlik hosil bo'lishi - jigar va buyraklar, qon tomirlarining torayishi, terlash va boshqalar.

Haroratni anglash mutlaqo individualdir: ba'zilar salqin va sovuq qishni, boshqalari issiq va quruq havoni yaxshi ko'radi. Inson salomatligi ko'p jihatdan ob-havo sharoitlariga bog'liq: qishda odamlar tez-tez shamollaydilar, (gripp, shamollash) yozda esa aksincha (issiqlik, o'tob urishlari va boshqalar).

Tog'li mintaqalarda yashash sharoitida inson tanasiga ta'sir qiluvchi abiotik omillardan biri bu atmosfera gazlarining qisman bosimining o'zgarishi, xususan kislorod, shuningdek o'rtacha kunlik haroratning pasayishi va quyosh nurlanishining oshishi. Bunday sharoitlarga moslashish organizmning fiziologik xususiyatlariga va jismoniy tayyorgarligiga bog'liq. Bularning yo'qligi zaiflik, yurak urish tezligi, bosh og'rig'i, depressiya, ongni yo'qotish va boshqalar bilan birga «tog kasalligi» ga olib keladi. Tog'larga sayr qilishni, toshga chiqishni rejalashtirayotganlar uchun maxsus tayyorgarlik, tibbiy maslahatlar zarur bo'ladi. Atrof muhit harorati odam populyatsiyasining hayotiga ta'sir qiladi: aniq geografik zonalardagi o'rtacha yillik haroratga, mavsumiy harorat o'zgarishiga qarab aholi zichligining ko'payishi yoki kamayishi kuzatiladi.

Biologik ritmlar - bu hayotning barcha darajalarida: molekulyar, hujayra, to'qima, organ, organizm, populyatsiya va biosferada sodir bo'ladigan hayotiy jarayonlarning mustazam miqdoriy va sifat o'zgarishlaridir. Bioritmlarni o'rganuvchi - xronobiologiya fanidir (yunoncha. «Chronos» soati, vaqti). Evolyutsiya jarayonida yuzlab million yillar davomida tirik organizmlarning yerning asosiy ritmlari bilan bog'liq bo'lgan kun va tunning, yil fasllarining davriy o'zgarishiga moslashish jarayoni bo'lgan, natijada ularning hayotining bioritmik jarayonlari kuzatiladi.

Ichki va tashqi bioritmlarni ajratib ko'rsatish. Bioritmlar soniyalar, daqiqalar, kunlar, oylar, yillar va bir necha yillar fraktsiyalari bilan ifodalangan turli xil chastotalarga ega, masalan, soniyaning fraktsiyalari bilan aniqlangan ritmlar asab impulsiga ega - 0,001 s, yurak sikli - 0,8 s, nafas olish - 8 s, oylik (ayolda hayz sikli), yillik (bola tug'ilishi) va hk. Tadqiqotchilar takrorlanadigan sikllar ichki (endogen) xarakterga ega degan xulosaga kelishdi, boshqacha qilib aytganda, tanada kundalik faollikni qandaydir tarzda boshqaradigan «ichki soat» mavjud. Kundalik hayotda duch keladigan yigirma to'rt soatlik sikl, ichki soat tashqi hodisalar, ayniqsa, kun va tunning o'zgarishi “tuzatilishi” bilan bog'liq. Ijtimoiy omillar insonning ichki soatini sozlashda, ya'ni ish rejimini, kun tartibiga, ovqat iste'mol qilish va hokozolarga moslashishda muhim rol o'ynaydi[3].

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki soat mexanizmi miyaning eng muhim tartibga soluvchi markazi gipotalamus faoliyati bilan bog'liqdir. Kundalik bioritmlarni e'tiborsiz qoldirish inson salomatligiga zarar etkazishi mumkin. Masalan, qon bosimi odatda ertalab pastroq bo'lib, kun davomida ko'tariladi. Agar biror kishi faqat ertalab shifokorga murojaat qilsa, u qon bosimini normal deb taxmin qilishi mumkin, aslida kunduzi va kechqurun u sezilarli darajada oshishi mumkin, bu xavfli, chunki bunday odam uni qabul qilmaydi unga davolanish kerak bo'ladi.

Odamlarda biologik ritmlarni o'rganish natijalari ularning jismoniy va ruhiy salomatlik uchun ahamiyatini ko'rsatdi. Shuning uchun biz o'z ritmimizga ko'proq e'tibor berishimiz, ular bilan bog'liq kayfiyatning tabiiy ko'tarilishini va tushishlarini xotirjamroq idrok qilishimiz va ritmimizdagi o'zgarishlar odatiy chegaradan tashqarida bo'lganida mutaxassislardan yordam so'rashimiz kerak degan xulosa kelib chiqadi. Tashqi bioritmlar yerning kosmosda joylashishi bilan bog'liq bo'lib, uning asosiy omili quyosh nurlanishidir, u quyosh faolligini belgilaydi (quyosh dog'lari paydo bo'lishi, infraqizi va



ultrabinafsha nurlanishining ko'payishi). Quyoshning faolligi yerning bir qator fizikaviy va kimyoviy jarayonlariga ta'sir qiladi: atmosfera bosimi, harorat, havo namligining o'zgarishi va boshqalar. Bu esa o'z navbatida, insonning yurak-qon tomir tizimiga, asab tizimining holatiga, odamning aqliy va xulq-atvor reaksiyalariga ham ta'sir qiladi.

Shu bilan birga Yer yuzida iqlimning keskin uzgarishlari inson omili tufayli sodir bo'lmoqda. Olimlarning fikricha Yer yuzida yashovchi insonlar tufayli sodir bo'lgan iqlim o'zgarishlari ming yillar davomida ro'y bergan tabiat hodisalarini ortda qoldiradi. Ular insonlarning iqlimga ta'sirini tasdiqlovchi raqamlarni keltirishadi. The Anthropocene Review jurnalida shu mavzudagi maqola taqdim etildi. Olimlar odamlarning iqlimga ta'sirini o'rganishga yordam beruvchi matematik tenglama ishlab chiqishdi. Ularning fikricha, so'nggi 7000 yilda global harorat har yuz yilda o'rtacha 0,01 darajaga kamaygan. Biroq so'nggi 45 yil ichida harorat o'rtacha 1,7 darajaga ko'tarilgan, bunga esa issiqxona gazlari chiqindilari sabab bo'lgan. Manbaga ko'ra, olimlar buni o'tgan milliard yillar davomida Yer iqlimi sayyoraning astronomik va geofizik kuchlari, shuningdek ichki dinamikasiga bog'liq bo'lgani bilan izohlashadi. Bu omillarning Yerdagi iqlimga ta'sirini insonning faolligi bilan taqqoslanganda ancha past. Iqlimning inson omili natijasida o'zgarishi uning tabiiy kuchlar ostida o'zgarishidan 170 karra yuqori bo'lib chiqdi. Atmosferada issiqxona gazlari konsentratsiyasining ortishi issiqxona samarasining kuchayishiga olib keladi va yerning issiqlik muvozanatini buzadi. Aynan shu holat keying ikki yuz yillik taraqqiyot rivojida aks etdi.

Markaziy Osiyo hududida quyosh haroratining yuqori bo'lishi inson organizmida qon aylanishini kuchaytiradi, ko'p miqdorda terlatib, ayrim kimyoviy moddalarning teri orqali so'rilishiga, xatto me'yornomada ko'rsatilgan eng kichik raqam ham halokatli zaharlanishga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitlarda ruhiy (85 foizga) va asab xastaliklari (109 foizga), nafas olish a'zolari xastaliklari (108 foizga) ko'payadi. Tarkibida nitrobirikmalar mavjud bo'lgan suv va oziq-ovqat mahsulotlarini uzoq muddat iste'mol qilish moddalar almashinuv, tayanch-harakat va asab tizimlari xastaliklarini, irsiy nuqsonlarni keltirib chiqaradi[4].

**Xulosa va takliflar.** Inson hayotining barcha jihatlarini – turmush tarzi, sog'liq, iqtisodiyot, jamiyat rivojlanishi va hatto madaniyat – iqlim omillarining ta'siriga bog'liq. Bu bog'liqlik murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u insonlarga nafaqat ijobiy, balki salbiy ta'sirlar ham ko'rsatishi mumkin.

Iqlim omillarining ijobiy ta'siri:

- Qishloq xo'jaligi: Mo'tadil iqlim sharoitlari o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib, hosildorlikni oshiradi. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi oziq-ovqat ta'minoti, iqtisodiyot va ish o'rinlari yaratadi.

- Energetika: Quyosh va shamol kabi qayta tiklanadigan energiya manbalarini ishlatish iqlimga bog'liq. Bunday energiya manbalarining foydalanilishi energiya xavfsizligini ta'minlash, ekologik toza energiya ishlab chiqarish va iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirishga yordam beradi.

- Turizm: Yumshoq iqlim, go'zal tabiat, iqlim sharoitiga bog'liq sport turlari (chang'i sporti, suv sporti va h.k.) sayyohlarni

jalb qiladi. Turizm iqtisodiyotni rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish va mahalliy madaniyatni targ'ib qilishga yordam beradi.

- Suv ta'minoti: Iqlim, xususan yog'ingarchilik miqdori, suv ta'minotiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Suv resurslarining mavjudligi ichimlik suvi, sug'orish va sanoat uchun muhimdir.

Iqlim omillarining salbiy ta'siri:

- Tabiiy ofatlar: Suv toshqinlari, qurg'oqchilik, kuchli shamollar, zilzilalar, o'rmon yong'inlari kabi tabiiy ofatlar inson tomonidan keltirib chiqarilgan iqlim o'zgarishi tufayli tez-tez sodir bo'ladi. Bu ofatlar katta moddiy zarar yetkazadi, insonlarning hayoti va salomatligiga tahdid soladi.

- Sog'liq: Issiqlik to'lqinlari, sovuq havoda kasallanish, allergiya, yuqumli kasalliklar va boshqa sog'liq muammolari iqlim sharoitiga bog'liq. Iqlim o'zgarishi sog'liqni saqlash tizimiga yukni oshiradi.

- Iqtisodiyot: Tabiiy ofatlar, qishloq xo'jaligidagi yo'qotishlar, energiya tanqisligi, suv ta'minoti muammolari, ko'chish va boshqa iqlim o'zgarishiga bog'liq muammolar iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

- Ijtimoiy masalalar: Iqlim o'zgarishi ko'chishga, ijtimoiy tartibsizliklarga, qarama-qarshiliklarga va siyosiy beqarorlikka olib kelishi mumkin.

Inson hayotining barcha jihatlarini iqlim omillariga juda bog'liqdir. Iqlim o'zgarishi insoniyatga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi. Iqlim o'zgarishi inson tomonidan keltirib chiqarilgan va u insoniyat uchun jiddiy xavf tug'diradi. Shuning uchun iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun global harakatlarni amalga oshirish zarur. Buning uchun:

- Iqlim o'zgarishi haqida xabardorlikni oshirish: Jamoatchilikni iqlim o'zgarishi haqida xabardor qilish, uning sabablarini va oqibatlarini tushuntirish muhimdir.

- Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish: Quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalarini iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi.

- Iste'molni kamaytirish va samaradorlikni oshirish: Energiya, suv va boshqa resurslarni tejash iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda muhimdir.

- O'rmonlarni saqlash va tiklash: O'rmonlar atmosfera ichidagi karbonat angidridni yutadi, bu esa iqlim o'zgarishini kamaytirishga yordam beradi.

- Global hamkorlik: Iqlim o'zgarishi global muammo bo'lib, uni hal qilish uchun xalqaro hamkorlik zarurdir.

Bizning kelajagimiz iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishga bog'liq. Har birimiz o'z darajasida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishga hissa qo'shishimiz mumkin[5].

Xulosa qilib aytganda, inson salomatligiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan tabiiy ofatlar (zilzila, vulqon otilishi, muzliklarning, aysberglar va boshqalar harakatlanishi) ham quyosh faolligi va uning aylanishi bilan bog'liq. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iqlim omillari bizning organizmimizga turlicha ta'sir etib turli o'zgarishlarga sabab bo'ladi, ushbu iqlim omillariga qarab o'z organizmimizni moslashtirishimiz va boshqara olishimiz kerak ham bo'ladi.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi A-harfi Birinchi «Abiotik omillar» jild. Toshkent, 2000-yil
2. 2023 yil 19-sentabr BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev nutqi "Xalq so'zi" gazetasi 20.09. 2023 yil. 196-son.
3. Газиназарова С., Ахмедов И., Мухамедгалиев Б., Хожиев А. Экологик хавфсизлик (ўқув қўлланма) Т-2009
4. Нигматов А., Шивалдова Н. "Иклим ва биз" Т-2011.
5. Shadenov R.I., Azimova D.O., INSON HAYOT FAOLIYATIGA IQLIM OMILLARINING TA'SIRI. Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini jurnali. 2024. №3, 84-86 b.
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqlim>



*Xurshida RAJABOVA,*  
*TATU Farg'ona filiali katta o'qituvchisi*

*TATU Farg'ona filiali professori I.Bilolov taqrizi asosida*

### BO'LAJAK AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BO'YICHA MUTAXASSISLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MEZONLARI VA DARAJALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish – innovatsion ta'lim muhitining asosiy shartlaridan biri ekanligi hamda uning mezonlari, darajalari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Axborot texnologiyalari, kasbiy kompetentlik, innovatsion ta'lim muhiti, interfaol texnologiyalar, ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar, psixologik-pedagogik xususiyatlar.

### ИННОВАЦИОННЫЕ КРИТЕРИИ И УРОВНИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В данной статье рассматривается тот факт, что развитие профессиональной компетентности будущих ИТ-специалистов является одним из основных условий инновационной образовательной среды, а также ее критериев и уровней.

**Ключевые слова:** Информационные технологии, профессиональная компетентность, инновационная образовательная среда, интерактивные технологии, социально-педагогические механизмы, психолого-педагогические особенности.

### INNOVATIVE CRITERIA AND LEVELS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE SPECIALISTS IN THE FIELD OF INFORMATION TECHNOLOGY

Annotation

This article discusses the fact that the development of professional competence of future IT specialists is one of the main conditions for an innovative educational environment, as well as its criteria and levels.

**Key words:** Information technology, professional competence, innovative educational environment, interactive technologies, social and pedagogical mechanisms, psychological and pedagogical features.

**Kirish.** Jahonda bo'lajak axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish, innovatsion ta'lim muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga kasbiy kompetentlikni rivojlantirish asosida bo'lajak axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomil-lashtirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning lingvistik, sosiolingvistik va pragmatik komponentlarini oliy ta'lim mazmuniga keng tatbiq etish, bo'lajak axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassis-larda samarali muloqotga tayyorlash tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bo'lajak axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassis bu – axborot kommunikatsion texnologiyalar qobiliyati asosida kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan amaliy foydalanishga qaratilgan va kompyuter savodxonligi tarkibiy qismlarini o'zlashtirish bilan cheklanmagan holda axborot kommunikatsion texnologiyalar kompetensiyasi ko'p jihatdan nafaqat bilim, balki ta'lim sohasidagi mutaxassisning shaxsiy va kasbiy faoliyatiga xos bo'lib, o'z kasbiy faoliyatida barcha to'plam va turli xil kompyuter vositalari va texnologiyalaridan maqsadli va odatiy foydalanishga yuqori darajada tayyorlangan mutaxassisdir.

Bo'lajak axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar o'zining motivatsiyalar sohasining shakllanishidagi muammolarini ko'rish, mazkur ma'lumotlarni amaliyotchi-o'qituvchi bilan yakka tartibda ishlash jarayonida

hamda pedagogik jamoa bilan umumiy g'oyaga daxldorlik hissini shakllantirishga, jamoa yutug'ida o'z hissasi borligini anglashni asosiy motiv sifatida qabul qilishga moyillik borligini isbotlaydi.

"Kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish uchun motivatsiya" tushunchasini aniqlashtirish uchun bir qator boshlang'ich tushunchalarni ko'rib chiqaylik: "motiv", "motivatsiya", "kasbiy motivatsiya". E.P.Ilyinning tadqiqotlariga ko'ra. [8], motivni shaxsning faolligini belgilovchi barqaror xususiyati, motivatsiyani esa shaxs faoliyatining mazmuni, yo'nalishi va xarakterini belgilovchi barqaror motivlar yig'indisi sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Oliy ta'lim sohasiga nisbatan kasbiy motivatsiya deganda shaxsning hozirgi ehtiyojlarini (oliy ma'lumot olish, o'zini o'zi rivojlantirish, o'z-o'zini bilish, kasbiy o'sish, ijtimoiy mavqeini oshirish va boshqalar) kelajakdagi kasbiy faoliyatni o'rganishni rag'batlantiradigan ta'lim vazifalarini amalga oshirish orqali qondirish sub'ektlarini bilish tushuniladi. O'quv faoliyatida ta'lim va kognitiv motivlar bilan bir qatorda, kasbiy motivlar (yoki kasbiy faoliyat motivlari) katta ahamiyatga ega.


Ichki va tashqi motivlarni o'rgangan E.Desi va R.Rayanning yondashuvlariga ko'ra ichki motivatsiya o'z taqdirini o'zi belgilash nazariyasida bo'lajak mutaxassislarning o'z-o'zini rivojlantirishda sub'ektning mehnat jarayonining o'ziga qiziqish, uni amalga oshirishdan zavq olish uchun ishni bajarish istagi sifatida qaraladi. Tashqi motivatsiya holatida mehnat faoliyati shaxs tomonidan faoliyatdan tashqari boshqa maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi. Ichki motivatsiyaga asoslangan faoliyat, tashqi motivatsiyadan farqli o'laroq, ko'proq harakat hissasi va sub'ektiv farovonlikning yuqori darajasi bilan bogliq.

Bunday faoliyat tashqi mukofot va jazolar bo'lmagan taqdirda ham davom etadi va malakalarning rivojlanishiga olib keladi.

Tashqi motivatsiya o'z taqdirini o'zi belgilash nazariyasida geterojen hodisa sifatida ko'rib chiqiladi. Tashqi motivatsiya doirasida E.Desi va R.Rayan motivatsiya darajasida farq qiluvchi faoliyatni tartibga solishning to'rtta darajasini aniqlaydi [9]: tashqi tartibga solish (faoliyat tashqi mukofot olish yoki salbiy oqibatlardan qochish maqsadida amalga oshiriladi); ichki tartibga solish (faoliyat ichki mukofotlar va jazolar, masalan, mag'rurlik, aybdorlik yoki shartli o'zini o'zi qadrlash bilan bog'liq); belgilandek tartibga solish (faoliyat sub'ekt tomonidan ongli ravishda tanlagan va sub'ektiv muhim bo'lgan maqsadlarga erishish uchun sub'ekt tomonidan amalga oshiriladi, masalan, martaba o'sishi); integratsiyalashgan tartibga solish (faoliyat sub'ekt hayotining boshqa sohalar bilan uyg'unlashadi va o'z shaxsiyatining bir qismi sifatida boshdan kechiriladi, masalan, kasb).

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy maqola mavzusini yoritishda nazariy (tahliliy-sintetik, tarkibiy-tipologik, kontent-tahlil), qiyosiy, tasniflash va tavsiflash usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ko'pgina empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu turdagi tashqi motivatsiya o'z oqibatlariga ko'ra farq qiladi. Tartibga solishning integratsiyalashgan va aniqlangan shakllari ko'proq ijobiy oqibatlar bilan bog'liq va ichki motivatsiyaga yaqin. Ichki va tashqi tartibga solish shakllari salbiy oqibatlariga ham olib keladi. Ichki va tashqi motivatsiyaning tarkibiy qismlari ikkita qarama-qarshi qutbga bo'linganligi sababli, ularni avtonom va boshqariladigan motivatsiya deb tasniflash mumkin. Avtonom motivatsiya ichki motivatsiyani, tartibga solishning birlashtirilgan va aniqlangan shakllarini o'z ichiga oladi.



1-rasm. Yuqorida "Rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojlarini baholash" tadqiqotining tahlili diagramma ko'rinishida taqdim etilgan.

Keltirilgan natijalarga ko'ra, bo'lajak axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarining 2/3 (67%) qismi o'z-o'zini rivojlantirish uchun kuchli motivga ega, bu esa, o'z navbatida, pedagog-amaliyotchilarning o'z kasbiy o'sishida ishtirok etishining ijobiy ko'rsatkichi hisoblanadi. 33% amaliyotchilarning o'sishi tashqi va ichki sharoitlarga bog'liq.

Mutaxassislarining o'z-o'zini rivojlantirish, o'sishi uchun tashqi omillar bo'lib, insonning o'ziga bog'liq bo'lmagan, lekin ayni paytda uning kasbiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan tashqi va ichki holatlar mavjuddir. Ular orasida:

Umumiy ijtimoiy omillar. Ushbu toifaga an'anaviy ravishda mutaxassis faoliyat yuqtadigan tashkilotda ko'proq global darajada yuzaga keladigan barcha holatlar kiradi va ular professional munosabatlarga bog'liqdir. Umumiy ijtimoiy omillarga oiladagi munosabatlar, tashkilotning tuzilishi, kasbdoshlarning madaniy darajasi kabi xususiyatlar yorqin misol bo'la oladi.

Maxsus omillar. Ular ma'lum bir ish-faoliyat bilan bog'liq holda paydo bo'ladi. Ular boshqacha tarzda "mutaxassisning o'sishi uchun kasbiy shartlar" deb ataladi. Ularning rivojlanishi va ta'sirida etakchilik katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari, bir qator tashkilotdagi ichki qoidalarini unutmasligimiz zarur. Ular ko'p hollarda jamoadagi barchaga ta'sir qiladi. Bu omillarga kadrlar shaxsiy xususiyatlari, jamoa tarkibi va tashkilot ichidagi munosabatlar, mehnat sharoitlari, ushbu jarayonlarni tartibga soluvchi turli huquqiy normalar kiradi.

Boshqariladigan motivatsiya odatda tartibga solishning ichki va tashqi shakllarini o'z ichiga oladi.

Desi va Rayanning fikriga ko'ra, faollik va psixologik farovonlik uchun ichki motivatsiyaning asosiy omillari avtonomiya, kompetentsiya va boshqa odamlar bilan bog'lanish uchun asosiy psixologik ehtiyojlarni qondirishni o'z ichiga oladi. Ichki motivatsiyaga asoslangan faoliyat asosiy ehtiyojlarni qondirishning yuqori imkoniyatlarini ta'minlaydi, bu esa psixologik farovonlik tajribasiga olib keladi. Tashqi motivatsiya omillari orasida mualliflar quyidagilarni o'z ichiga oladi: mutahassislarining qat'iyatligi va o'z xatti-harakatlarini moslashuvchan tarzda o'zgartirishga tayyorligi; faoliyatni samarali bajarish, yuqori yutuqlar, ayniqsa ijodkorlik, kognitiv moslashuvchanlik va kontseptual fikrlashni talab qiladigan vazifalarga ishtiyoqlik; yuqori darajada tanlagan kasbidan qoniqish; tanlagan kasbiga ijobiy munosabat, unga sodiqlik; ish joyidagi psixologik moslashuvi.

K.Zafir xodimlarning tashqi va ichki motivatsiyasi masalasini o'rgangan olimlardan biridir. Tadqiqotchi ichki va tashqi motivatsiya kontseptsiyasini ishlab chiqdi, unda u motivatsiyaning ichki turini ko'rib chiqdi, bu shaxs uchun faoliyatning o'zi muhimligini anglatadi. Muallif, aksincha, tashqi motivatsiyani boshqa ehtiyojlarni qondirish istagi nuqtai nazaridan o'rgangan, xususan: ijtimoiy obro', ish haqi va boshqalar motivlar. Tashqi motivlar ijobiy va salbiy motivlarga bo'linadi. Bundan tashqari, ijobiy motivlar har doim salbiylardan ko'ra samaraliroqdir.

Shunday qilib, psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida biz kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish motivatsiyasini kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish yo'nalishi va xarakterini belgilaydigan motivlar to'plami sifatida ko'rib chiqamiz.

Mutaxassislarining o'z-o'zini rivojlantirishi, o'sishi uchun ichki omillar barcha mas'uliyatni tashqi sharoitlarga o'tkazish istagiga asosan, ichki o'sish masalalarida ko'p narsa xodimning o'ziga bog'liq. Ichki omillar motivatsiya, o'ziga ishonch va shaxsning professional sifatida rivojlanishining ob'ektiv natijalarining samarali kombinatsiyasini yaratadi. Bunday mutaxassis yangi ishga, keyin ushbu sohada o'z-o'zini rivojlantirishda barcha imkoniyatlarga bo'lishi uchun hatto murakkab ishlarni ham yuqori sifatli bajarishni xohlaydi va qila oladi hamda yangi mas'uliyatga tayyor bo'ladi. Ichki omillarga quyidagilar kiradi:

Ambitsiya. Mutaxassislarining o'z-o'zini rivojlantirishida "Nosog'lom" ambitsiyalar mavjud bo'lib, bular o'z-o'zini rivojlantirishida yuksaklikka intilish haqida bo'lib, uni maqom va hokimiyatga ega bo'lish istagidan boshqa hech narsa qo'llab-quvvatlamaydi. Agar inson ishlashga tayyor bo'lsa va shu bilan birga o'z imkoniyatlarini ehtiyotkorlik bilan baholasa, unda ambitsiyalar uni ilhomlantiradi va rag'batlantiradi.

Bilim va tajriba. Tegishli faoliyatda yuqori bilimga ega bo'lmagan mutaxassislarining o'z-o'zini rivojlantirishida bir qator savollar tug'diradi. Yangi mutaxassis mas'uliyatni his qilishi va o'zi nima qilishni bilishi kerak. Shuning uchun, mutaxassis faqat bilim bazasi ustida doimiy ishlashi maqsadga tez erishishga va o'zini yo'qotmasligiga yordam beradi.

Professional qiziqish. N.D.Solovyov kasbiy qiziqishni u bilan shug'ullanish istagi bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir kasbiy faoliyat turiga tanlab faol-ijobiy munosabat deb

hisoblaydi [5, 24]. Professional qiziqish komponenti shaxsning muayyan faoliyat turiga hissiy munosabatini tavsiflaydi, bu ma'lum bir faoliyat natijalaridan qoniqish hissi, unga ishtiyoq, kasbga ijobiy munosabat, uni to'g'ri tanlashga ishonchda namoyon bo'ladi.

Psixologik xususiyatlar. Stressga chidamlilik, konfliktlarni samarali hal qilish va o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyati, shuningdek, inson psixikasining boshqa xususiyatlari ham ishda rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Shaxsiy xususiyatlar. Odoblilik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, qat'iyatlik va hayotga ijobiy munosabat mehnatga jalb qilish bilan birgalikda lavozimga ko'tarilish imkoniyatingizni tezlashtiradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, biz mutaxassislarining o'z-o'zini rivojlantirishida uchta o'zaro bog'liq komponentni ajratishni qonuniy deb hisoblaymiz: kognitiv, irodali va faoliyatga asoslangan.

Mutaxassislarining o'z-o'zini rivojlantirishning kognitiv komponenti kasbiy faoliyat mazmunini chuqurroq o'rganish istagi bilan belgilanadi, o'z-o'zini rivojlantirishning zaruriy sharti bo'lgan kasbiy faoliyatning ma'nosini talqin qilishda katta rol ni belgilaydi. Ushbu komponent kognitiv faoliyatda namoyon bo'lib, kasbiy bilimga ega bo'lish istagini va tanlangan kasbning mazmunidan xabardorlikni aks ettiradi.

Kasb-hunarni egallashdagi qiyinchiliklarni yengish uchun shaxsni ichki safarbar etishda irodaviy komponent katta rol o'ynaydi. Bu kasbni egallashdagi qiyinchiliklarni yengishda qat'iyat va ishonchni nazarda tutadi.

Faoliyat komponentiga shaxsning muayyan faoliyatga bo'lgan ehtiyoji ham, kasblarni o'zlashtirishdagi faolligi ham kiradi, bu amaliy faoliyatda namoyon bo'ladi, kuchni sinab

ko'rish istagi, qobiliyatlarni sinab ko'rish, tanlangan kasb bo'yicha o'zini o'zi anglash istagi va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Bu tarkibiy qismlarning barchasi bir-biriga bog'langan, ammo shunga qaramay, ma'lum bir vaqtning o'zida ulardan biri hukmronlik qilishi mumkin. Kognitiv komponent kasbga ijobiy munosabatni kuchaytiradi, uning ma'nosini ochib beradi. Mutaxassislarining o'z-o'zini rivojlantirishning ixtiyoriy komponenti, birinchi muvaffaqiyatsizliklardan so'ng, talaba faoliyat bilan shug'ullanishni davom ettirganda yoki ulardan voz kechganda o'zini namoyon qiladi. Talabani irodasi qay darajada rivojlanganligi, kelajakda kasbga bo'lgan o'z-o'zini rivojlantirishning qay darajada rivojlanishi yoki yo'qligidadir.

**Xulosa.** Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz quyidagilarni ta'kidlaymiz. Ilmiy tadqiqotlar tahlili mutaxassislarining o'z-o'zini rivojlantirishda ko'proq o'z ustida ishlash istagi bilan bog'liq bo'lgan kasbiy faoliyatning ma'lum bir turiga tanlangan faol-ijobiy munosabat sifatida talqin qilish uchun asos beradi. Mutaxassislarining o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida voqelikning turli ob'ektlari va hodisalari bilan uchrashganda ixtiyoriy, tanlab kognitiv va hissiy faoliyatda namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ko'rib chiqilayotgan kontseptsiyaning ta'kidlangan xususiyatlarini hisobga olgan holda, mutaxassislarining o'z-o'zini rivojlantirish tarkibida uchta kognitiv, irodali va faoliyatlarni o'zaro bog'liq komponentni ajratish qonuniydir. Ularning munosabatlari barqaror professional qiziqishni rivojlantirish uchun asos bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Арюткин О.И. Курсы по выбору как средство формирования специфических профессиональных компетенций у будущих учителей сельской школы: Дисс... канд. пед. наук. – Арзамас, 2013. – 138 с.
2. Асадов Ю.М. Ўқитувчи компетенцияси бошланғич таълим сифатини ошириш омили //Бошланғич таълимни такомиллаштириш истикболлари: муаммо ва ечимлар.Республика илмий-амалий конференцияси. Тошкент, 2014. 3-5 бет.
3. Борисенко Е.Н. Педагогическое сопровождение формирования социальной компетентности студентов вузов: Дисс... докт. пед. наук.– Кемерово, 2013. – С. 355.
4. Брыкалова О.Г. Развитие базовой культуры студентов педагогического вуза на основе компетентностного подхода: Дисс... канд. пед. наук. – Сочи, 2011. – С.180.
5. Вакулова И.Н., Проскуракова Т.В., Соловьева Н.Д. Вопросы становления профессиональных планов. Л., 1979.
6. Гайничева И.А. Развитие коммуникативной компетентности студента в процессе педагогической практики в вузе // Высшее образование сегодня. – 2014. - №12. – С. 19-22.
7. Губайдуллин А.А. Формирование исследовательской компетентности студентов в условиях проектного обучения: Дисс... канд. пед. наук. – Казань, 2011. – С. 235.
8. Ильин, Е.П. Мотивация и мотивы [Текст] / Е.П. Ильин. - СПб. : Питер, 2000. – 508 с.
9. Осин Е. Н. Профессиональная мотивация сотрудников российских предприятий: диагностика и связи с благополучием и успешностью деятельности: Организационная психология: национальный исследовательский университет «Высшая Школа экономики». – Москва, 2017. – С.



UDK: 371.3:004

Rayxan RAZAKOVA,  
UrDU mustaqil izlanuvchisi  
E-mail: rayxan@mail.ru

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Eshnazarov taqrizi asosida*

### SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA KEKSALAR MUAMMOLARIGA OID YOLG‘IZLIK HISSINING TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada qadimgi davr va sharq mutafakkirlari asarlarida keksalar hamda keksalar muammolariga oid yolg‘izlik hissining tahlili xususida so‘z yuritiladi. Ayniqsa keksalik davrida yolg‘izlik hissining kuchayishi ko‘p uchraydi va bu holat insonning hayoti sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Keksalar – faxrimiz, har bir avlod rishtasini bog‘lab kelayotgan, uni mustahkamlash uchun bor kuch-g‘ayratini sarflayotgan kishilardir. Ularning ijtimoiy hayotimizda tutgan o‘rni va salohiyati, yosh avlod tarbiyasida tutgan benazir roli juda katta. Yillar osha, umr so‘qmoqlaridan donishmandlik fasliga sog‘-omon etib kelgan nuroniy, munis otaxon va onaxonlarning jamiyatimiz faxri, oilalarimiz charog‘boniga aylanayotganining asl siri ham shundadir.

**Kalit so‘zlar:** “Keksalik” tushunchasi, keksalik hodisasi, gerontologiya, ota-ona, ma‘naviy meros, yolg‘izlik sabablari, ruhiy salomatlik, hissiy qo‘llab-quvvatlash.

### АНАЛИЗ ЧУВСТВА ОДИНОЧИЯ В ОТНОШЕНИИ ПРОБЛЕМ СТАРШИХ В ТВОРЧЕСТВАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу одиночества пожилых людей и проблем пожилых людей в произведениях античных и восточных мыслителей. Особенно в пожилом возрасте усиливается чувство одиночества и эта ситуация может оказать негативное влияние на качество жизни человека. Пожилые люди – наша гордость, это люди, которые связывают узы каждого поколения и прилагают все усилия для их укрепления. Их место и потенциал в нашей общественной жизни, их уникальная роль в воспитании молодого поколения огромны. В этом и есть настоящая тайна того, что с годами просвещенные, щедрые отцы и матери, благополучно достигшие возраста мудрости, становятся гордостью нашего общества и светочем наших семей.

**Ключевые слова:** Понятие «Старость», феномен старости, геронтология, родители, духовное наследие, причины одиночества, психическое здоровье, эмоциональная поддержка.

### ANALYSIS OF THE SENSE OF LONELY RELATING TO THE PROBLEMS OF THE ELDERLY IN THE WORKS OF EASTERN THINKERS

Annotation

This article deals with the analysis of the loneliness of the elderly and the problems of the elderly in the works of ancient and eastern thinkers. Especially in old age, the feeling of loneliness increases and this situation can have a negative impact on the quality of a person's life. The elderly are our pride, they are the people who have been connecting the bonds of each generation and are making every effort to strengthen them. Their place and potential in our social life, and their unique role in the education of the young generation, is huge. This is the real secret of the fact that over the years, enlightened, munificent fathers and mothers, who have safely reached the age of wisdom, become the pride of our society and the beacon of our families.

**Key words:** The concept of "Old age", the phenomenon of old age, gerontology, parents, spiritual heritage, causes of loneliness, mental health, emotional support.

**Kirish.** Zamonaviy dunyoning tarixiy va ijtimoiy rivojlanishi jamiyat g‘oyasini birinchi navbatda doimiy harakatdagi dinamik tizim sifatida belgilaydi, uning tarkibiy elementlari va qismlari turli o‘lchamlarda o‘zgaradi. Jamiyatning shunday ko‘rsatkichlaridan biri aholining yosh tarkibidir. Aytish mumkinki, so‘nggi paytlarda dunyoda aholining yosh tarkibi sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda.

Shuning uchun jamiyatda keksalar va keksalar muammolariga nafaqat nazariy va amaliy gerontologiya, demografiya, psixologiya va sotsiologiya nuqtai nazaridan jiddiyroq e‘tibor qaratish zarur. Keksalik va qarishni o‘rganishning nazariy va uslubiy asoslarini o‘rganish keksa yoshdagi insonning mohiyatini qayta ko‘rib chiqishga, ijtimoiy muhit sifatini yaxshilash va qarish jarayonini ijtimoiy tartibga solish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Keksalik hodisasi uzoq vaqtdan beri faylasuflar, sotsiologlar

va psixologlarning e‘tiborini tortdi. Qadimgi sivilizatsiyalar paydo bo‘lgandan beri mavjud. Qarish jarayonlari va qarilikning o‘zi haqida turli xil fikrlar mavjud. Ular gerontologik bilimlar mazmunini tashkil qiladi (yunoncha “geront” – qariya, “logos” – o‘qitishdan). Keksalik nima deb hisoblanganligi, uning birinchi ko‘rinishlari, yosh nima va uning sabablari nimada muhokama qilinadi. O‘zlarining qarishini muvaffaqiyatli, qulay va hatto baxtli deb hisoblagan keksa odamlarning hayotiy pozitsiyasini tahlil qilib, olimlar keyingi yoshda yangi hayotiy pozitsiyani shakllantirish haqida gapirish mumkin degan xulosaga kelishdi. “Keksalik” tushunchasi uchinchi yoshning vakilini, ya‘ni nafaqaga chiqish ostonasini bosib o‘tgan, jismoniy, psixologik va kasbiy imkoniyatlari unga faol hayot tarzi, mehnat va ta‘lim faoliyati bilan shug‘ullanish imkonini beradigan shaxsni anglatadi. Keksalik odamning shaxsiyati, uning motivatsiyasi, keksalikdagi hissiy holatlari, o‘zini o‘zi qadrlashi va inson hayotining

ushbu davrning "men" obrazining mazmuni haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlar hali ham mavjud emas. Biroq, keksalik, keksa odamning shaxsiy holati va qarilik davridagi turmush tarzi haqidagi ilmiy asoslangan bilimlar nafaqat umri uzaytirishi, balki uni to'liq va faol saqlashi mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bu hususda gerontologiyaga murojaat qilmay ilojimiz yo'q. Gerontologiya keksa yoshdagi insonlarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy holatlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Keksa yoshda yolg'izlik hissining kuchayishi ko'p uchraydi va bu holat insonning hayoti sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqolada qadimgi davr va sharq mutafakkirlari asarlarida yolg'izlik hissining tahlili xususida so'z yuritiladi.

Buyuk ajdodlarimizdan Imom Buxoriy, Imom Moturudiy, Hakim at-Termiziy, Ahmad YAssaviy, Bahouddin Naqshband kabi mutafakkirlar o'zlarining beqiyos ma'rifatlari bilan umuminsoniy madaniyatning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shishgan. Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy ma'rifatni ilm, amal, odob bilan o'zaro bog'liq xislatlar deb hisoblaganlar. Ularning fikriga ko'ra, kishining odobi, xulqi uning ma'rifati, bilimdonligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson qanchalik ma'rifatli bo'lsa, uning xulqi shunchalik yaxshi va mukammal bo'ladi hamda ushbu mukammallikni keksalarimiz yoshlar ongiga singdiradi deya e'tirof qilganlar.

Abu Nasr Forobiyning: "Inson o'z baxtiga erishishda go'zallikni ko'rishi va his qilishining o'zi etarli emas, buning uchun go'zallikni yarata olishi muhimdir", - degan fikrlarida olam-olam ma'no bor. Mutafakkirning bu fikrida bugungi keksalar, ota-onalarimiz o'zlari namuna bo'lgan holda oilalarida, ishlarida, ro'zg'orlarida, uy tutishlarida, o'zaro munosabatlarida, yurish-turishlarida, kiyinishlarida, salomatliklarida, farzand tarbiyasida, ular bilan bo'ladigan muomalada go'zallikni yarata olishlari zarur, degan g'oya o'z aksini topgan. Ajdodlarimiz ham o'zlari namuna bo'lgan holda o'z farzandlariga pandu nasihatlar qilganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy: "Har inson kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i, yaxshi xulq-atvorga, fazilatlariga ega bo'lmog'i kerak", - degan ekan. Arab hikmatlarining birida: "Uch narsa kishi aqlini peshlaydi: biri olimlar va keksalar bilan suhbat, ikkinchisi hayotiy tajriba, uchinchisi chidam va sabot bilan intilish. Inson ikki narsaning qadrini faqat yo'qotgandagina biladi: biri yoshlik, biri sog'liq", - deb ta'kidlangani bejiz emas. Darhaqiqat, inson odamlar orasida yashar ekan, o'zaro muomala va munosabatda bo'ladi hamda o'sha jamiyatdagi keksalarning axloqi, tarbiyasi ko'zgasida yashaydi, unga ko'nikib ketadi. Jamiyatda xushmuomala, tarbiyali, aqlli, tashabbuskor, faol insonlarni hamma yaxshi ko'radi [1].

Alisher Navoiy ham o'zining qimmatli manbalarida quyidagi fikrlarni ilgari suradi, ya'ni ota-onani hurmat qilish farzandlar uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmatning qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, uning boshi uchun butun jisingni sadqa qilsang arziydi. Ikki dunyoing obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kunga nur berib turgan birisini oy, birisini quyosh bil, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham chiqma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, "adab" so'zidagi "dol" kabi qomatingni xam qil [2].

Gyote bu xususda quyidagi qimmatli fikrni izohlaydi ya'ni, "keksalar hurmatini chin dildan bajo keltiruvchi kishi baxtlidir" deya ta'kidlaydi. L. Morua o'z navbatida -keksalik yoshlarga suyanch va muallim bo'lishi bilan ham qadrlidir deya o'z fikrini izohlaydi. L. Vovenarg bu xususda yoshlarga tavsiya berishga xarakter qilgan, u "Biz keksalarning donoligidan juda kam foydalanamiz" fikrini izohlab keksalar tajribasidan unumli foydalanishga chaqiradi. Nosir Xisrav esa keksalarni e'zozlash to'g'risida "Keksaga ko'mak ber -

suyangan tog'ing, Buni tushunas qarigan chog'ing" deya tavsiya berib o'tadi.

Turkistonda ma'rifatchilik g'oyalarning tarqalishi Gulxaniy, Ahmad Donish, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy, Anbar otin, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi ijodkorlar nomi bilan bog'liq. XX asr boshidagi jadidchilik harakatining ilg'or vakillari - Behbudiy, Avloniy, Tavallo, So'fizoda, Fitrat, Hamza, Abdulla Qodiriy, CHO'lpon singari yozuvchi va shoirlar xalqning ijtimoiy ongini ma'rifat asosida tarbiyalash uchun fidoyilik ko'rsatdilar[3].

Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosida farzand tarbiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom Madaniyati Markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma'rifat olamini dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki bo'lib, bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir", deb ta'kidlagani barchamizni ruhlantirib, bu masalaga yanada mas'uliyat bilan yondashishimiz zarurligini ko'rsatmoqda[4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qarilik hodisasi shaxs rivojlanishining uzoq va muhim bosqichi bo'lib xizmat qiladi va zamonaviy jamiyatda makrotuzilma darajasida ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarning o'zgarishi yo'nalishlarining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Murakkab bio-ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, keksalikni o'rganish tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'zida mujassam etgan yaxlit fanlararo yondashuvni talab qiladi.

Sharq mutafakkirlarining fikricha yolg'izlik sabablari quyidagilar deya e'tirof qilingan. Eng bosh sabab: zamondosh bo'lgan yaqin do'stlari va oila a'zolarining yo'qotilishi natijasida ijtimoiy aloqalar, munosabatlar kamayadi. Bu holat keksa yoshdagi insonlarni o'zini yolg'iz his qilishga olib keladi. Ikkinchidan: salomatlik muammolari va jismoniy faoliyatning pasayishi ijtimoiy faoliyatlar hamda shaxslararo munosa-batlarda qatnashishni qiyinlashtiradi. Uchinchidan: muntazam shug'ullanib kelayotgan kasbiy hayotdan uzilishi natijasida ijtimoiy munosabatlar kamayadi va bu yolg'izlik hissini yanada kuchaytiradi va tabiiyki bu holat keksalarning ruhiy salomatligiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ushbu yoshdagi yolg'izlik shaxsiy xavotirga, ruhiy zo'riqish hamda ruhiy tushkunlikga olib kelishi mumkin. Fiziologik salomatligiga ham, ya'ni yurak-qon tomir kasalliklari, gipertoniya va immunitet tizimining pasayishi xavfi oshishiga ham sabab bo'ladi va bu holat o'z navbatida xotira va fikrlash qobiliyatining pasayishiga turli xil kasallik xavflarini oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek zamondoshimiz Urazbayeva D.A. ham o'zining tibbiyot sohasida psixologik xizmatni tashkil qilish zarurati nomli maqolasida ham mutafakkirlarimiz fikriga suyanigan holda keksalarga sifatli tibbiy-psixologik yordam ko'rsatish, psixologik xizmat qilish, ulardagi yolg'izlik hissini bartaraf qilish usullari xususida fikr yuritganlar. Ayni yuqorida aytilgan sabablar echimi ham ko'rsatib o'tilgan[5].

**Xulosa va takliflar.** Shu yo'sinda bu muammolarning echimlarini oshkora qilingan, ya'ni keksalarni aslo yolg'izlatib qo'ymaslik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash zaruriyati ta'kidlangan. Oila a'zolari, farzandlari, qarindosh urug', qo'ni-qo'shni, do'stlar bilan muntazam aloqa o'rnatish muhim. Bu keksalarda yolg'izlik hissini kamaytiradi hamda keksalarga hissiy qo'llab-quvvatlash dalda bo'lish imkonini beradi. Mahalla hayotida faol qatnashish keksa yoshdagi insonlarga yangi do'stlar topish imkonini beradi. Keksalar - faxrimiz, har bir avlod rishtasini bog'lab kelayotgan, uni mustahkamlash uchun bor kuch-g'ayratini sarflayotgan kishilardir. Ularning

ijtimoiy hayotimizda tutgan o'zni va salohiyati, yosh avlod tarbiyasida tutgan benazir roli juda katta. Yillar osha, umr so'qmoqlaridan donishmandlik fasliga sog'-omon etib kelgan nuroniy, munis otaxon va onaxonlarning jamiyatimiz faxri, oilalarimiz charog'boniga aylanayotganining asl siri ham shunda. Qolaversa, o'zbek xalqi turmush tarzining ma'naviy bo'lagi hisoblangan kattaga hurmat, kichikka izzat tushunchasi bugungi kunga kelib yana ham sayqallanmoqda, yosh avlod tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinayotir. Qaerga, qaysi davraga bormaylik, yoshi ulug'lar hurmatda, yoshlar esa, xizmatda ekanligining o'zi xuddi shu haqiqatni barchamizga

taqdim etib turibdi. Davraning to'ri keksalarga, taomning avvali ularga, yoshlarga yo'l-yo'riq berish, duo qilish, o'z umrining saboqlarini ilinish – bari-barida donishmandlik davrining hikmatlari mujassam emasmi, azizlar? Keksalik davri inson hayotining muhim bosqichi bo'lib, turli kasb-korda faoliyat ko'rsatgan odamlar uchun falsafiy bekatdir. Hayoti mobaynida jamiyat ravnaqi, oilasi farovonligi uchun qilgan halol mehnati orqasidan boy tajriba orttirish, uni xolis tarzda o'z farzandlari, yaqinlari, hamkasblari va mahalladoshlariga uzatish davrini donishmandlikka, faylasuflikka mengzashimizda gap ko'p.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. 2017. 24 iyun. "Xalq so'zi" gazetasi.
2. Narziev L., Komilova K.. Keksalari e'zoz topgan yurt: metodik-bibliogr. qo'llanma / Toshkent. 2015.– 90 b
3. Oybek. "Navoiy". "Sharq". 1995.B.39
4. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. "Abdulla Qodiriy" nashriyoti, T:1993.B.10.
5. Urazbayeva, D., & Radjapova, I. (2021). Ekzistensial psixologiyada shaxs masalalarining talqin qilinishi. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(Special issue), 294-300.
6. Urazbaeva, D. (2023). Psixosomatik kasalliklarda bemorlar bilan psixologik tadbirlar olib borish zarurati. TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi, 1(2), 189-192.
7. Сайлаубековна Р.Р. и др. Сущность концепции семейной жизни в современной психологии // Excellencia: Международный мультидисциплинарный журнал образования (2994-9521). – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 339-342.



*Nilufar RAHMONOVA,*  
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi*  
*E-mail: nilufarraahmonova420@gmail.com*

*Pedagogika fanlari doktori M.E. Axmedova taqrizi ostida*

### METHODOLOGY FOR IMPROVING THE DIDACTIC COMPETENCIES OF THE FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS ON THE BASE OF A PERSONALIZED APPROACH

Annotation

It is a pedagogical-methodological necessity to develop mechanisms for improving the didactic competences of future elementary school teachers based on a person-oriented approach, and terms related to improving the didactic competencies of future elementary school teachers based on a person-oriented approach. The methodical features of the content of the teacher's educational lesson process and methods of teaching are developed based on the principles of interactivity, problem solving, and practical orientation.

**Key words:** Methodical analysis, term, project, competence, didactic competence, principle, quality of education, primary education.

### МЕТОДОЛОГИЯ ПОВЫШЕНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННОГО ПОДХОДА

Аннотация

Педагогически-методической необходимостью является разработка механизмов совершенствования дидактических компетенций будущих учителей начальных классов на основе лично-ориентированного подхода, а также условий, связанных с повышением дидактических компетенций будущих учителей начальных классов на основе лично-ориентированного подхода. Особенности содержания учебного процесса урока учителя и методы обучения разрабатываются на основе принципов интерактивности, решения задач и практической направленности.

**Ключевые слова:** Методический анализ, срок, проект, компетентность, дидактическая компетентность, принцип, качество образования, начальное образование.

### BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING DIDAKTIK KOMPETENSIYALARINI SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Аннотация

Bo‘lajak boshlang‘ich sinif o‘qituvchisini didaktik kompetentsiyalarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish pedagogik-metodik zaruriyat ekanligi hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinif o‘qituvchisini didaktik kompetentsiyalarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish bilan aloqador atamalar o‘qituvchining ta‘limiy dars jarayoni mazmuni hamda dars o‘tish usullarining variativligi, interfaollik, muammolilik, amaliy yo‘naltirilganlik tamoyillari asosida ishlab chiqilganligining metodik xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Metodik tahlil, atama, loyiha, kompetentsiya, didaktik kompetentsiya, tamoyil, ta‘lim sifati, boshlang‘ich ta‘lim.

**Kirish.** Dunyoda ilm-fanida boshlang‘ich ta‘lim jarayonida talabalarining didaktik kompetentsiyalarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari, ta‘lim ishtirokchilari orasida sinergetik yondashuvga asoslangan alohida kompetentsiyalarni aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘limda pedagoglar faoliyatini imiy-metodik integratsiyalash va mobilashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari asosida boshlang‘ich ta‘lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, uzluksizlikni ta‘minlovshi mexanizmlarni rivojlantirish, ko‘p komponentli yondashuvlarni rag‘batlan-tirishga doir metodik tadqiqotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, boshlang‘ich ta‘limda didaktik kompetentsiyalarni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv so‘zida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Jahonda boshlang‘ich ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, ta‘lim sifati oshirishda mediateknologiyalarni qo‘llash, bo‘lajak boshlang‘ich sinif o‘qituvchisi faoliyatining o‘zaro hamkorlikka asoslangan ko‘pvariant shakllari hamda amalga oshirish mexanizmlarini ta‘lim jarayoniga metodik tatbiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va dasturlar doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar

yo‘nalishlari shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv muammolarining ustuvorligini namoyon qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich ta‘lim jarayonida didaktik kompetentsiyalarni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanoqda.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta‘limda ta‘limiy-tarbiyaviy tizimini milliy hamda umuminsoniy aksialogik yondashuvlar, insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirish, boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga ma‘naviy-axloqiy mazmuni kuchaytirish orqali yoshlarni yuksak ta‘limiy g‘oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ta‘lim sifati oshirish, OTMning boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi rivojlantirish konsepsiyasida “ta‘lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, muqobil yondashuvlarni o‘rganishga va ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan amaliy tavsifdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, kichik yoshdan o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kushli va ta‘sirshan motivatsiyani shakllantirish” kabi vazifalar belgilangan. Bu borada boshlang‘ich ta‘lim tizimini modernizatsiyalashning amaliyotdagi holatini metodik tahlil qilish, didaktik kompetentsiyalarni takomillashtirish mazmuni, usullari, yo‘llari, metodlari va vositalarini aniqlashtirish



hamda ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik kompetentligini takomillashtirishning pedagogik tizimi va texnologik modelini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishning, pedagogik-metodik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son Qarori, 2017-yil 22-maydagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-304-son Qarori, 2018-yil 5-sentyabrdagi PQ-3931-sonli "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, Qarorlari hamda 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni, 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi ijrosini ta'minlashda va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator boshlang'ich ta'lim metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasiga oid masalalarni N.Alavutdinova, M.Mirmaxsudova, U.Masharipova, K.Mavlonova, N.Sattorova, Sh.Sariev, Sh.Yusupova, T.Yusupova, N.Qosimova, M.Hamdamaeva, G.Hamraevlar; talabalarning nutqiy malakalarini rivojlantirish muammolari bo'icha N.Dadajonova, R.Yo'ldoshev, M.Karaxodjaeva, G.Muhamedjanova, A.Nisanbaeva, M.Rixsiev, Z.Salisheva, N.Umarova, Sh.Yuldashevalar tomonidan tadqiq etilgan.

Biz tadqiqotimizni amalga oshirish jarayonida dissertasiya muammosiga oid ishlarni besh guruhga bo'lib tadqiq qilgan:

Ta'lim jarayoniga mediatexnologik yondashuvning didaktik imkoniyatlari J.Yuldoshev, R.Djuraev, Sh.Qurbonov, U.Inoyatov, R.Axlidinov, R.Karimov, S.Turg'unov, X.Ibragimov, A.Ibragimovlar tomonidan;

O'qituvshi ijtimoiy intellektning psixologik asoslarini takomillashtirish Z.Abidova, M.Davletshin, G.Shoumarov, E.G'oziev, V.Karimova, Z.Nishonova, F.Rasulova, M.Saipova, I.Raximova, D.Sobirova, G.Yakubova, N.Sagindikova, B.Jo'raevlar tomonidan tadqiq etilgan.

Boshlang'ich ta'limni tashkil etishning turli integrasiyalashgan metodik shakllaridan foydalanish, didaktik kompetensiyalarni mukammallashtirish, fanlararo aloqalarni kushaytirish, o'quvchilarning umum o'quv malakalarini maqsadli rivojlantirish masalalari B.R.Adizov, M.H.Mahmudov, O.R.Roziqov, Z.Umurov, A.Hamroev, G.Najmiddinova, F.Qosimov, N.Shodiev, S.Qahhorov, Z.Hojiyevlar tomonidan;

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida metodik rivojlantirish masalasi N.Azixodjaeva, R.Jo'raev, O.Musurmonova, X.Ibragimov, K.Riskulova, O.Tolipov, Sh.Qurbonov, M.Quronov, N.Shodiev, A.Xoliqov, J.Hasanboev, O.Hasanboeva, Sh.Sharipov, M.Urazova, B.Xodjaev, M.Mirsolievalar tomonidan;

Boshlang'ich ta'lim jarayonini metodik takomillashtirish masalasi bo'yicha B.R.Adizov,

M.H.Mahmudov, O.R.Roziqov, Z.O'Hojiyeva., H.A.Kuranboyevlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlaridan V.I.Andreev, N.V.Kuzmina, M.M.Potashnik, V.A.Slastenin, M.A.Danilov, I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin, N.V.Vnukova, M.S.Glinskiy, A.O.Koshnev, Ye.Shukshinalarning ilmiy izlanishlarida o'quv-biluv faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqib o'qituvchilarning ta'lim jarayoniga yangiliklarni tatbiq etish masalalarini tadqiq etganlar.

Xorijlik olimlardan E.P.Torrance, Y.Doll, J.Dewey, R.Mirabile, M.Stephensonlar tomonidan ta'lim jarayonini modellashtirish, ta'lim jarayonini sinergetik yondashuv hamda spiralsimon tamoyil asosida o'ziga xosliklari, nazariy-metodologik jihatlarini yoritib berganlar.

Didaktik kompetensiyalarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirishga oid xorijiy tajribalar hamda boshlang'ich sinflarda ta'lim tizimini modernizatsiyalashning amaliyotdagi holatini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini didaktik kompetensiyalarini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish pedagogik-metodik zaruriyat ekanligini asoslash hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini didaktik kompetensiyalarini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish bilan aloqador atamalar (o'qituvchining ta'limiy dars jarayoni mazmuni hamda dars o'tish usullarining variativligi, interfaollik, muammolilik, amaliy yo'naltirilganlik tamoyillari asosida ishlab shiqilganligi)ning metodik xususiyatlarini tavsiflash lozim.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini didaktik kompetensiyalarini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish mazmuni, usullari, yo'llari, metodlari va vositalarini aniqlash hamda didaktik kompetensiyalarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirishning metodik modeli, konseptual, maqsadli, mazmunli bloklar hamda boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik komponentlarini asoslash orqali ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'lim amaliyotida mediatexnologiyalar asosida didaktik kompetensiyalarni takomillashtirishga yo'naltirilgan O'UM (modulli ishlanmalari)dan foydalanish lozim.

"Didaktik kompetensiyalarni tizimli takomillashtirish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish metodikasi" mavzusida ma'ruzalar, seminar-treninglar tashkil etish, konferensiyalarda ishtirok etish orqali pedagogik-metodik tavsiyalar ishlab chiqish, "didaktik kompetensiya", "metodik model", "takomillashtirish", "mediatexnologik yondashuv", "didaktik tizim", "shaxsga yo'naltirish", "dars mashg'ulotlari jarayoni", "bilish darajalari" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati mualliflik yondashuvi asosida pedagogik-metodik jihatdan talqin qilish.

Ta'lim jarayoniga talabalarning didaktik kompetensiyani takomillashtirish orqali shaxsga yo'naltirilgan yondashuv mexanizmi ochib berilgan, didaktik tizim orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining didaktik kompetentligini takomillashtirish mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu "didaktik kompetensiyalarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida metodik takomillashtirish dasturi" hamda modulli ishlanmalar ishlab shiqilib, ta'lim amaliyotida qo'llanilganligi, shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi sifatini monitoringini takomillashtirish metodikasiga qaratilgan o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Talabalarning didaktik kompetensiyalarni bo'lajak boshlang'ich sinf

o'qituvshisini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish, texnologik komponentlari boshlang'ich ta'lim jarayonini loyihalash, OTM tasarrufidagi boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari ushuni yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarining davlat ta'lim standarti, o'quv reja va

dasturlarini xorijiy ilg'or tajribalar hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida metodik imkoniyatlarini takomillashtirish, ta'lim sifati monitoringini avtomatlashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mahmudov M. H. Ta'lim etaloni. –Buxoro, 1999. – 55 b.
2. Maxmudov M.X. Ta'limni didaktik loyihalash. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi., - 2002. – B.79.
3. Ma'murov B. B. O'quvshi shaxsga yo'naltirilgan o'quv biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari P.f.d. ilmiy darajasini olish ushuni yozilgan diss. T.: 2009
4. Mirsolieva M.T Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish : Ped.fanl.doktori. ... diss. avtoref. – T.: 2019. – 24 b.
5. Najmiddinova G.N. O'quv materialini o'rganish davrida o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirish. Pedagogik mahorat. Buxoro, 2003. №1. – B. 25-29.
6. Roziqov O., Og'aev S., Mahmudov M., Adizov B. Didaktika. –T.: Fan,1997. – 258 b.
7. Roziqov O., Og'aev S., Maxmudov M., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi -T.: "O'qituvchi", 1999, – B.71.



**G'olib ROZIQOV,**

*Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti katta o'qituvchisi*

**Ikrom TURSUNOV,**

*Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti kafedrasida dotsenti*

*Toshkent davlat pedagogika universiteti kafedra mudiri E.M.Nurullaev taqrizi asosida*

## MATEMATIKANING HAYOTIY MASALALARDA QO'LLANILISHI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Аннотация

Matematika kundalik hayotimizda qo'llaniladi. Matematika – bu vektor algebrasi, differensial hisob, integral, diskret matematika, matritsa va determinant va boshqalar. Matritsalar uzoq vaqtdan beri qo'llanish tarixiga ega. Matritsalar hisob-kitoblarda muhim rol o'ynaydi. Matritsa matematikasining ayrim xossalari matematika nazariyasida muhim ahamiyatga ega. Matritsa matematikasi chiziqli algebrani soddalashtiradi, hech bo'lmaganda yanada ixchamlikni ta'minlaydi. Matematik jumboqlar, o'yinlar, hukumat veb-saytlari, kredit karta raqami va bank hisobi kabi moliyaviy ma'lumotlar, axborot xavfsizligida matritsalar juda muhim rol o'ynaydi. Matritsalar maxfiy xabarlarni yuborish, kodlash, kodni ochishda qo'llaniladi.

**Kalit so'zlar:** Matritsa, teskari matritsa, algebra, to'plam, kriptografiya, kodlash, shifrlash, tadbiiq.

## ПРИМЕНЕНИЕ МАТЕМАТИКИ В ЖИЗНЕННЫХ ЗАДАЧАХ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация

Matematika ishloylulayturya v nashay povsednevnoy zhizni. Matematika – eto vektornaya algebra, differentsialnoye ischisleniye, integralnaya, diskretnaya matematika, matritsa i opredelitel' i t. d. Matritsy imeyut dolguyu istoriyu ishloylulovaniya. Matritsy igrauyt vazhnyu rol' v vychisleniyax. Nekotorye svoystva matritsnoy matematiki vazhny v matematicheskoy teorii. Matritsnoy matematika uproshchayet lineynuyu algebruy, po krayney mere obespechivaya bolshuyu kompaktnost'. Matematicheskiye golovolomki, igr'y, pravitel'stvennyye veb-sayty, finansovaya informatsiya, takaya kak nomer kreditnoy karty i bankovskiy schet, matritsy igrauyt ochen' vazhnyu rol' v informatsionnoy bezopasnosti. Matritsy ishloylulyutsya dlya otpravki sekretnykh soobshcheniy, kodirovaniya, dekodirovaniya.

**Ключевые слова:** Matritsa, obratnaya matritsa, algebra, mnozhestvo, kriptografiya, kodirovaniye, shifrovaniye, primeneniye.

## APPLICATION OF MATHEMATICS IN LIFE PROBLEMS AND DIDACTIC POSSIBILITIES

Annotation

Matematika ishloylulayturya v nashay povsednevnoy zhizni. Matematika – eto vektornaya algebra, differentsialnoye ischisleniye, integralnaya, diskretnaya matematika, matritsa i opredelitel' i t. d. Matritsy imeyut dolguyu istoriyu ishloylulovaniya. Matritses play an important role in calculations. Several properties of matrix mathematics are important in mathematical theory. Matrix mathematics simplifies linear algebra, at least providing greater compactness. Mathematical puzzles, games, government websites, financial information such as credit card number and bank account, matrices play a very important role in information security. Matrices are used for sending secret messages, encoding, decoding.

**Key words:** Matrix, inverse matrix, algebra, set, cryptography, coding, encryption, application.

**Kirish.** O'qitiladigan barcha fanlar ichida matematika eng ko'p soat talab qiladigan fan bo'lishiga qaramay, bu fanga qiziqish tobora kamayib bormoqda. Yoshlar kelajakdagi kasbi uchun tabiat va kundalik hayot bilan bog'liq fanlarni ongli ravishda tanlaydilar.

Bizning maqolamiz matematikaga qiziqmaydigan yoshlarga qaratilgan. Biz, matematikani o'qitish usullarida, talaba yoshlar e'tiborini tortadigan qiziqarli faktlarga alohida e'tibor qaratamiz. Matematikani o'qitishda, matematikani hayotiy vaziyatlarda qo'llanilishida talabalarga yangi g'oyalarni va hayotiy muammolarni ochib berilishi uchun xizmat qiladi.

Matematika hayotiy vaziyatlarda foydalanish jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jixatlari bu matematikaning qiziqarli masalalari, matematika fani bo'yicha tarixiy ma'lumotlar, matematikani kompyuter grafikasi yordamida ko'rsatib berish va shunga o'xshash boshqa ma'lumotlarni taqdim etish xisoblanadi.

Matematikani o'rgatish jarayonida matematik jumlarlar, masalalar, formulalar matematikani qulay va qiziqarli taqdim etish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, tushuna olishini chuqurlashishi, mantiqiy fikrlay olishi va

tanqidiy nazar bilan qaray olishi, hamda fikrlashni rivojlantira olishi talaba yoshlarni matematika fanini o'rganishiga qiziqishini oshiradi.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda, oliy matematikani o'qitishda va talaba yoshlarni kasbga tayyorlashda matematika fanini o'qitishning qiziqarli usullaridan foydalaniladi. Shu bilan birga, o'quv jarayonida tinglovchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini faollashtiradigan va matematikani o'rganish qobiliyatini rivojlantiruvchi matematikaning hayotiy vaziyatlaridagi masalalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Talaba yoshlarni matematika fanini chuqurroq o'rganishga qiziqishlarini oshirish maqsadida hayotiy vaziyatlarga asoslangan matematik misol va masalalar to'plamlarini yaratilishi muxim ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Talaba yoshlarni mantiqiy fikrlashini va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun matematika fanidan nazariy matematika bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, matematik tushunchalar bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, matematik misol va masalar ishlanishi bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar, matematik formula va belgilar bo'yicha eslatmalar, didaktik

materiallarni muntazam ravishda yangilab boorish kerak bo'ladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Matematikani qiziqarli ko'rinishda va hayotiy vaziyatlardagi o'rni ko'rsatib bera olishda o'qituvchining matematik tayyorgarligi muxim rol o'ynaydi. Oliy ta'lim tizimida matematikani o'qitishga kasbiy tayyorgarlik darajasi quyidagi hollarda samaraliroq bo'ladi:

- Shaxsni kasbiylashtirish va ta'limni professional-lashtirish muammolari bo'yicha psixologik-pedagogik tadqiqotlarga tayanish;

- Oliy matematika fanini o'qitishda "Matematikani o'qitishning qiziqarli usullari" sifatida, kursning xususiyatlarini hisobga olish;

- Talaba yoshlarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi "Matematika hayotiy vaziyatlarda" kabi nom bilan o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantiruvchi uslubiy tavsiyalar bilan boyitish;

- Matematikani o'qitish usullari bo'yicha tarixiy-matematik, ilmiy-uslubiy va o'quv adabiyotlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarni hayotiy, zamonaviy ko'rinishda yangilab borish,

- Psixologik-pedagogik tadqiqotlar va o'zaro bog'liqlik usullarini tahlil qilish asosida matematika o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligining asosiy xususiyatlarini, qiziqarli o'qitish usullari orqali aniqlash;

- O'qituvchining matematik tayyorgarligini oshirish bo'yicha talabalar uchun aniqlangan imkoniyatlar, aniq amaliy tavsiyalar va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish.

O'quv jarayonida: tarixiy ma'lumotlar, qiziqarli masalalar, adabiy kitoblar, ensiklopedik materiallar va boshqalardan foydalanish matematika darsliklari bilan bir qatorda talaba yoshlarning mantiqiy fikrlashini va tanqidiy tafakkurini rivojlantiribgina qolmay, balki matematik gaplarni tushunish uchun sharoit yaratadi, to'g'ri yechim topa olishga ko'maklashadi, matematikani tabiat va kundalik hayot bilan bog'laydi.

Keling, matematikaning hayotiy vaziyatlarda qo'llanilishini ko'rib chiqaylik.

Matematikada matritsalar chiziqli algebrada o'rganiladi. Matritsalaridan foydalanish faqat matematika bilan cheklanmaydi. Matritsalar turli sohalarida, jumladan fizika, iqtisod va informatikada keng qo'llaniladi.

Matritsalarini qo'llash sohasi shunchalik kengki, zamonaviy fan va texnikani ularning ahamiyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Masalan, matritsalar kompyuter grafikasida murakkab uch o'lchamli ob'yektlarni ikki o'lchovli ekranda ko'rsatish uchun, fizikada fizik qonunlarni tavsiflash va murakkab tizimlarni modellashtirish uchun, iqtisodda esa pul oqimlari bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qilish va optimallashtirish uchun ishlatiladi. Ammo matritsalar nafaqat fanda, balki kundalik hayotda ham qo'llaniladi, masalan, tenglamalar tizimini yechish yoki ma'lumotlarni tuzilish vositasi sifatida.

Matematikada matritsalarini o'rganishning asosiy tamoyillaridan biri, bu matritsalar ustida algebraik amallardir. Algebraik amallar yordami bilan matritsalarini qo'shish va ayirish, matritsani songa va matritsani matritsaga ko'paytirishni bajarish mumkin. Algebraik amallar berilgan matritsalaridan yangi matritsalar hosil qilish va matritsa elementlari orasidagi munosabatlar haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Matritsalar sonlar yoki matematik o'zgaruvchilar to'plamining to'rtburchaklar shaklidan tashkil topgan bo'lib, qavs ichidagi qatorlar va ustunlardan iborat. Jami 9 (ustun matritsasi, qator matritsasi, noll matritsa, pastki

uchburchak matritsa, diagonal matritsa, yuqori uchburchak matritsa, kvadrat matritsa, simmetrik matritsa, antisimmetrik matritsa) turdagi matritsalar mavjud va ularning har biri juda muhim.

Kriptografiyada matritsalaridan ham foydalanadi, kriptografiya axborot xavfsizligini o'rganadigan fandır, kriptografiya "Krypto" so'zidan olingan bo'lib, yashirin degan ma'noni anglatadi.

Keltirilayotgan masalamizda shifrlash jarayonini berib o'tamiz.

Xabar matni va ma'lumotlarni matritsalariga joylashtiramiz.

Kriptografiyaning asosiy g'oyasi shundan iboratki, ma'lumot shifrlash sxemasi yordamida kodlanishi va dekodlanishi mumkin.

Juda oddiydan juda murakkabgacha bo'lgan ko'plab shifrlash sxemalari mavjud. Ularning aksariyati matematikaga tegishli.

**Muhokama va natijalar.** Bugungi kunda maxfiy ma'lumotlar har soniyada Internet orqali yuboriladi, masalan kredit karta raqamlari, shaxsiy ma'lumotlar, bank hisob raqamlari, muhim ma'lumotlar bazalari uchun parollar va boshqalar. Ko'pincha bu ma'lumotlar kodlangan yoki shifrlangan bo'ladi. Kodlovchi A matritsa va kodni ochish A matritsaning teskarisidir. A kodlash matritsasi, M xabar matritsasi va X shifrlangan matritsa deb olamiz.

A va M o'lchamlari izchil bo'lishi kerak va X o'lchamini aniqlaydi. Matematik jihatdan,  $AM = X$  bo'lishini inobatga olamiz.

Bir odamda X shifrlangan matritsa bor va A kodlash matritsasini biladi U odan M xabar matritsani, ya'ni xabarni tiklashni xohlaydi. Bu jarayon matritsalar ustida amallarni bajarish bilan bir xil bo'ladi.

M xabar matritsasi uchun tenglama tuzib olinadi.  $AM = X$  tenglamaning ikkala tomonini A-1 ga ko'paytirsak, biz  $M = A^{-1}X$  ga ega bo'lamiz. Bunda A-1 teskari bo'lishi kerak. Buni aniq misolda ko'rib chiqaylik.

Buning uchun birinchi navbatda ishlatiladigan alifboni raqamlashtirib olish kerak bo'ladi. Masalan, A-1, B-2, D-3, E-4, F-5, G-6, H-7, I-8, J-9, K-10, L-11, M-12, N-13, O-14, P-15, Q-16, R-17, S-18, T-19, U-20, V-21, X-22, Y-23, Z-24, '-25, '-26 va 0 ga bo'sh joy (probel)ni mos qo'yamiz.

Endi esa "METHODIKA" so'zidan kodlash matritsasini tuzib olamiz, yani dastlab harflarni sonlar orqali yozib olamiz (12-4-19-14-3-8-10-1)

va matritsa ko'rinishiga keltiramiz. Bizning kodlash matritsamiz

$$A = \begin{pmatrix} 12 & 14 & 10 \\ 4 & 3 & 1 \\ 19 & 8 & 0 \end{pmatrix}$$

ko'rinishida bo'ladi.

Xabar "MATRITSA" so'zini ham sonlar orqali yozib olib

$$(12-1-19-17-8-19-18-1)$$

matritsaga aylantiramiz

$$M = \begin{pmatrix} 12 & 17 & 18 \\ 1 & 8 & 1 \\ 14 & 19 & 0 \end{pmatrix}$$

Matritsa tuzishda to'lmay qolgan joylarni nollar bilan to'ldirishimiz mumkin.

Endi "METHODIKA" so'zidan tuzib olingan A kodlash matritsani "MATRITSA" so'zidan tuzib olingan M matritsaga ko'paytirsak X shifrlangan xabar matritsasi paydo bo'ladi, ya'ni

$$X = AM = \begin{pmatrix} 12 & 14 & 10 \\ 4 & 3 & 1 \\ 19 & 8 & 0 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} 12 & 17 & 18 \\ 1 & 8 & 1 \\ 14 & 19 & 0 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 298 & 506 & 230 \\ 65 & 111 & 75 \\ 236 & 387 & 350 \end{pmatrix}$$

Shifrlangan matritsani sonlar qatoriga aylantirib olamiz

298-65-236-506-111-387-230-75-350

va yuboriladigan xabar sonlar qatori ko'rinishida bo'ladi.

Bu ko'rinishda berilgan xabarni olgan odam uni o'qish uchun kodlash matritsasini ya'ni "METODIKA" so'zidan tuzilgan matritsani bilishi kerak bo'ladi.

Shifrlangan so'zni ochish jarayoni quyidagicha bo'ladi:

Birinchi ish kodlash matritsasini teskari matritsasi topib olinadi

$$A^{-1} = \begin{pmatrix} \frac{1}{10} & 1 & \frac{1}{5} \\ -\frac{19}{80} & \frac{19}{8} & -\frac{7}{20} \\ -\frac{5}{16} & -\frac{17}{8} & \frac{1}{4} \end{pmatrix}$$

Keyin esa yuborilgan xabarni ya'ni sonli qatorini topilgan teskari matritsaga ko'paytiramiz

$$A^{-1}X = \begin{pmatrix} \frac{1}{10} & 1 & \frac{1}{5} \\ -\frac{19}{80} & \frac{19}{8} & -\frac{7}{20} \\ -\frac{5}{16} & -\frac{17}{8} & \frac{1}{4} \end{pmatrix} \begin{pmatrix} 298 & 506 & 230 \\ 65 & 111 & 75 \\ 236 & 387 & 350 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 12 & 17 & 18 \\ 1 & 8 & 1 \\ 14 & 19 & 0 \end{pmatrix}$$

Hosil bo'lgan matritsa elementlarini harflarga aylantirib yuborilgan xabar so'zini aniqlab olamiz.

**Xulosa.** Ushbu maqola ustida ishlash juda qiziqarli bo'ldi, chunki matematikaning kichik bir elementi bo'lgan "Matritsa" tushinchasini o'rganish davomida juda ko'p qiziqarli ma'lumotlarni o'rgandik. Ayniqsa, matritsa turlari va ular ustida amallar haqida. Bizning maqsadimiz matritsaning asosiy qo'llanilishi va hayot sohalarida qanday ahamiyatga ega ekanligini aniqlash edi. Ma'lum bo'lishicha, bu atama nafaqat matematikada, balki boshqa fanlar, ya'ni informatika, biologiya, kimyo, fizika, iqtisod, psixologiya kabi fanlarda ham qo'llaniladi.

Hozirgi vaqtda matritsalar keng qo'llaniladi, chunki matritsalar hayotning ajralmas qismidir. Matritsa algebrasi ko'plab muhim muammolarni hal qilishda qo'llaniladi, chunki u hisoblash tartibini soddalashtiradi va jarayonni tushunishni

osonlashtiradi. Agar matematika va fizikada ular ixcham yozuv sifatida ishlatilsa, biologiyada genetika, populyatsiya va sistemataning real muammolarini hal qilishda foydalaniladi. Iqtisodiyotda matritsalar minimal mehnat va vaqt bilan ulkan va juda xilma-xil statistik materiallarni (ijtimoiy-iqtisodiy kompleksning xususiyatlari, darajasi va tuzilishini tavsiflovchi dastlabki ma'lumotlar) qayta ishlashga, shuningdek ular bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkon beradi. Shuning uchun biz matritsalar algebrasi hayotiy masalalarda keng qo'llanilgan va bugungi kunda ham qo'llanilmoqda, degan xulosaga keldik va u har doim hayotning turli sohalarida dolzarb bo'lib qoladi. Binobarin, aytilgan gipoteza to'liq tasdiqlandi va belgilangan maqsadga erishildi.

#### ADABIYOTLAR

- Harrison M. and Waldron P. Mathematics for economics and finance. London and New York 2011y.
- Abduraxmanova X.K., Abduraxmanov A.A., Tursunov I.E., Учебное пособие по разделам Высшей математики помли o'quv qo'llanma T.2020
- Atamirzayev M., Tangirov A.E., Olimov A.A., Oliy matematikadan kompyuter matematikasi tizimlari va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida amaliy masalalarni yechish nomli o'quv qo'llanma T.2021
- Claudio Canute, Anita Tabacco. Mathematical Analysis I,II. Springer-Verlag Italia, Milan 2015.
- Tursunov I.E. Toshkent davlat pedagogika universiteti "Ilmiy axboroti" №6. 2021.
- Tursunov I.E. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali 2023y.1-11/1.
- Tursunov I.E., G'.A. Roziqov "MATEMATIKA 1" uslubiy ko'rsatma Tosahkent 2024.
- RAKHMATOV, B. (2024). THEORETICAL ASPECTS OF THE PROBLEM RESOURCE SAVING. Gospodarka i Innowacje., 46, 198-209.
- Mészáros, V. (2022). Some Explanatory Variables of Dropout in Technical Higher Education Institutional and Social Loss. POLGÁRI SZEMLE: GAZDASÁGI ÉS TÁRSADALMI FOLYÓIRAT, 18(1-3), 324-337.
- Abramat o'g'li, K. S. (2024). Organizing the study of interdisciplinary connection in the natural sciences on the basis of information technologies. journal of science, research and teaching, 3(5), 17-21.
- Karimbekovna, I. D. (2023). Effective Use Of Software Tools In Geometry. Global Scientific Review, 22, 222-225.
- Tursunov Ikrom Eshpo'latovich, (2024, June). Use of modeling methods in pedagogical research. In E Conference Zone (pp. 28-30).
- Eshpo'latovich, Tursunov Ikrom. "Use of modeling methods in pedagogical research." E Conference Zone. 2024.
- Tursunov Ikrom Eshpo'latovich Use of modeling methods in pedagogical research //E Conference Zone. – 2024. – C. 28-30.
- Tursunov, Ikrom Eshpo'latovich. Principles of Career Guidance in Teaching Students. JournalNX, 7(10), 205-207.
- Tursunov, I. E. "Principles of Career Guidance in Teaching Students." JournalNX 7.10: 205-207.
- Tursunov I. E. et al. Principles of Career Guidance in Teaching Students //JournalNX. – T. 7. – №. 10. – C. 205-207.
- Abramat o'g'li k.s. organizing the study of interdisciplinary connection in the natural sciences on the basis of information technologies //journal of science, research and teaching. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 17-21.



UDK 372.8

**Ma'mura RO'ZIBOYEVA,**  
"UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY" NOTM dotsenti v.b., PhD  
E-mail: [ruziboyeva@mail.ru](mailto:ruziboyeva@mail.ru)

DSc, dotsent S.Siddiqov taqrizi asosida

### PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF CROSS CULTURE ON THE DEVELOPMENT OF INTELLECT IN STUDENTS

Annotation

This article reveals the content and essence of the concept of culture of intellect. The psychological-pedagogical features of intellectual development of students were also discussed.

**Key words:** Intellect, culture, mind, mental activity, thinking, intellectual operations, competence, skills, philosophy, psychology, pedagogy.

### ПЕДАГОГО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КРОССКУЛЬТУРЫ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТА СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье раскрывается содержание и сущность понятия культура интеллекта. Также обсуждались психолого-педагогические особенности интеллектуального развития студентов.

**Ключевые слова:** Интеллект, культура, разум, мыслительная деятельность, мышление, интеллектуальные операции, компетентность, умения, философия, психология, педагогика.

### TALABALARDA INTELEKTNI RIVOJLANTIRISHDA KROSS MADANIYATNING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK TA'SIRI

Аннотatsiya

Ushbu maqolada intellekt madaniyat tushunchalarining mazmuni va mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, talabalarni intellektual rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Intellekt, madaniyat, aql, aqliy faoliyat, tafakkur, intellektual operatsiyalar, malaka, ko'nikmalar, falsafa, psixologiya, pedagogika.

**Kirish.** Intellekt inson aqliy faoliyatining, aql-zakovatini, ongli hatti-harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Intellekt tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko'lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. Forobiy «Aql ma'nolari haqida» risolasida, aql, bir tomondan ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan tashqi ta'sir - ta'lim-tarbiyaning natijasi ekanligini uqtiradi. Forobiy fikricha, aql faqat insongagina xos bo'lgan tug'ma kuvvat-ruhiy kuch bilan bog'liq. Forobiyning aql, umuman bilish haqidagi ta'limotida mantiq (logika) ilmi muhim o'rin tutadi. «Mantiq sanoati kishiga shunday qonunlar haqida ma'lumot beradiki, bu qonunlar vositasida aql chiniqadi, inson sog'lom fikr yuritishga o'rganadi», - deb yozgan edi u. Forobiy mantiq ilmi bilan grammatika o'rtasidagi mushtaraqlikni qayd etadi: mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir. Madaniyatshunoslik - madaniyat rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Uning manbai insoniyat yaratgan barcha madaniy qadriyatlardir. Madaniyatshunoslikning asosiy vazifasiga insonning tabiat, jamiyat bilan birgalikdagi faoliyatini hamda kishilarning ma'naviy turmushiga oid barcha jarayonlarni tadqiq qilish kiradi. Uning tadqiqot manbai bo'lib:

- inson yaratgan sanoat sohasi;
- kishilarning muomala vositasi bo'lgan til;
- jamiyat boyligi va mezon bo'lmish bilim;
- ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tashkilotlar;
- jamiyatda sodir bo'luvchi demografik va etnik jarayonlar xizmat qiladi. Madaniyatshunoslik umumnazariy fan hisoblanib, unga xos bo'lgan xususiyat - insonning madaniy hayoti hodisasini tartibli tizimga solib yondashish

hisoblanadi. Shuningdek, madaniyat gumanitar bilimlarni o'zida mujassam qilgan holda namoyon bo'lishi bilan birga bilishning o'ta murakkab obyektga hamdir. Madaniyat - bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuigina bo'lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya'ni jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarining yig'indisi madaniyatda gavdalanadi. Madaniyatni o'rganishda obyektiv qonuniyatlar, hodisalardagi sababiy bog'liqlik haqidagi an'anaviy tasavvurlardan foydalanmaslik ham mumkin. Umumiy bir soha sifatida madaniyatga sistemali yondashuv bir-biriga ta'sir etuvchi turli madaniyat sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini qismlarga bo'lib emas, balki ularni yaxlit tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Sistemali yondashuv tadqiqotning juda ko'p uslublaridan foydalanishga imkon yaratadi. Ya'ni, ayrim bir uslublar bilan olingan natijalarni boshqalariga qarama-qarshi qo'ymasdan va mutlaqolashtirmasdan xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** O'zbekistonda bu masala yuzasidan E.G'.G'oziyev, B.R.Qodirov, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.Toshimov, M.M.Mamatov, E.Z.Usmonova, M.Vohidovlarning fikrlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. E.G'.G'oziyev O'zbekistonda tafakkur psixologiyasini keng yoritgan olimlardan biridir. Muallifning fikriga ko'ra, inson tafakkuri o'zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqil tafakkurga ajratiladi. «Tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga konkret maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz qilishi, natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan vazifani hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasisiz

o'zining aqliy izlanishi tufayli, turli yo'l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak»

**Muhokama va natijalar.** Tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashbusligi, pishiqiligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Aqlning sertashbusligi deganda insonning o'z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo'yishini, ana shularning barchasini amalga oshirish, nihoyasiga yetkazishda, yechimini qidirishda usul va vositalarning shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taalluqli qo'shimcha belgi va alomatlarining keltirilishidan iborat bosqichlarning bo'lishini nazarda tutamiz. Aqlning pishiqiligi vazifalarni tez echishda, echish paytida yangi usul va vositalarni tez izlab topishda, ularni saralashda, ana shu usullar va vositalarni o'z o'rnida aniq qo'llashda trafaretga aylangan usul, eski yo'l va usullardan forig' bo'lishda va boshqa jarayonlarda ifodalanaadi.

M.G'.Davletshin aqliy tushunchalarni qobiliyat tushunchasi bilan bog'lab o'rgangan. Qobiliyat shakllanishi va rivojlanishi, birinchidan, ma'lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sifatiga qarab, tegishli tabiiy zehn nishonalarini aniqlash yo'li bilan, ikkinchidan, mutaxassis rahbarligida sistemali faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo'li bilan, uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo'li bilan borishi kerakki, bu operatsiyalar umumiy va maxsus axborotni engil va samarali o'zlashtirishni rejalashtirgan faoliyat bo'yicha malaka va ko'nikmalar hosil qilishni ta'minlasin. Bolalarda qobiliyatlarni o'sishi ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladi.

G'.B.Shoumarov mamlakat fuqarolarining aqliy saviyasiga alohida urg'u berib, har bir davlat, jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli o'z fuqarolarining saviyasi bilan belgilanishini e'tirof etadi. Jamiyat va fan-texnikaning rivojlanishida aql muhim omil va mezonlardan biridir. SHuningdek, SHoumarov har qanday insonparvarlik jamiyatida aqli zaiflarga e'tibor muhimligini uqtirib, aqli zaiflik omillarini markaziy asab tizimining organik buzilishi, shuning oqibatida bola bilish faoliyatining turg'un pasayishidir deydi.

B.R.Qodirov o'z ishlarida zehn, iste'dod aqliy taraqqiyot yuzasidan tadqiqot ishlari olib borgan. Hatto bu borada bank tuzishga ham muvaffaq bo'lgan. «Intellectual potentsialni boyitish aqliy zakovatni shakllantirishning ommaviy va shu bilan birga an'anaviy, hech kimning e'tiroziga sabab bo'lmaydigan turlariga diqqatni ko'proq qaratis, imkon darajada ular moddiy-moliyaviy tomonlarini kuchaytirish, ma'lum yutuqqa erishayotgan yoshlarni kengroq rag'batlantirish, ularga tegishli moliyaviy va madaniy muhit yaratish juda katta ahamiyatga ega.

Madaniyat - bu jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir tarixiy bosqichdagi darajasidir. Kishilar hayoti va faoliyatini tashkil etish shaklida ifodalangan, insonlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar hamda insoniyat tomonidan yaratilgan madaniy boyliklar faqat o'tmish kishilaridan qolgan boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayoti to'g'risidagi fikr va o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Aynan, sistemali yondashuv madaniyatga o'ziga xos shaklda munosabat bildirgan holda kishilar hayot faoliyati sohalarini ham tushunish imkonini beradi. Bulardan madaniyat sohalari, madaniyat institutlari tashkil topib, ular aniq tuzilmaga va aniq vazifalarga ega bo'lgan holda ijtimoiy munosabatlar tamoyili,

#### ADABIYOTLAR

1. Foziev Э.Ф.Тадфаккур психологияси Т: “Ўқитувчи” 1991, 122-123-б.
2. Каримова В.М., “Психология” Ўқув қўлланма Т. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2002. 121-б.
3. Каримова В.М., Р.И.Суннатова, Р.Н.Тожибоева. Мустақил фикрлаш. “Шарқ” Т: 2000, 50-бет.
4. Иванов И.П., Зуфарова М.Е., “Умумий психология” Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти Т: 2009, 376-б.

kommunikatsiya, madaniy namunalarni tashkil qilib madaniyat tizimini belgilaydi.

J.Piaje intellekt nazariyasini ikkita muhim jihatga ajratgan bo'lib, intellekt funksiyalari va intellektning asosiy davrlarini o'z ichiga qamrab oladi. Intellectning asosiy funksiyalari qatoriga uyushqoqlik (tartibli) va adaptatsiya (moslashish) kiritilib, ular Intellectning funksional invariantligi deb yuritiladi. Intellect faoliyatining tartibli deganda subektning intellektual aktivligini ko'rsatish jarayonida yaxlit holatning va unga kiruvchi boshqa elementlarning, shuningdek, ularning o'zaro munosabatlarini ajrata olish tushuniladi. Intellectning adaptatsiya funksiyasi o'z navbatida assimilyatsiya va akkomodatsiya protsesslaridan tuziladi. Ushbu nazariyaga binoan, Assimilyatsiya deganda idrok qilish (anglash) mumkin bo'lgan obekt to'g'risidagi karakteristikalarni tiklash anglanadi, akkomodatsiya bu bilishga inyluvchi subektning modiy borliqning talablariga moslashish pratsesidir. Anglash mumkin bo'lgan obektning individ tomonidan yaxlit xarakteristikasini idrok qilishning yuz berishi bilan mazkur protsess tugallanmaydi, balki obektning o'zi ham bilish faolligining ortib borishi natijasida o'zgarib boradi. J.Piaje konkret operatsiyalar davrining predmetlar bilan aloqada ekanligini ta'kidlab psixologiyada olg'a siljishga yordam beradi. Formal operatsiyalar davriga izoh berilganda esa predmetlar bilan tobora aloqa yo'qola borishi qatd qilinadi. Intellectning o'sishi inson operatsiyalar sistemasi bilan aloqada ekanligi aytib o'tiladi. Intellectning taraqqiyot pallasida aqliy harakatlar yig'iq holda bo'ladi. Shuning bilan birga, J.Piaje nazariyasiga ko'ra, intellekt davrlarining o'zaro o'rin almashishi tafakkurni o'sishini bildiradi, davrning ketma-ketligi esa o'sishning ichki qonuniyatlarini ifodalaydi.

Psixolog olimlar M.Akimova va E.Golubevalar tadqiqotlarida intellektni rivojlanishi faollikka bog'liq ekanligini isbotlab berganlar. Intellectual faollikning etishmovchiligi bosh miyaning qon bilan ta'minlash darajasining pasayishi o'z navbatida intellektning holatiga, shuningdek, xotirasiga ta'sir qilishga olib keladi. Xotiraning holati intellektning rivojlanish darajasi bilan tig'iz bog'liq bo'lib, inson intellektual qobiliyatining harakatlanishi to'la bo'lmasligi-bu xotiraning pasayishini birinchi belgisi hisoblanadi. P.Anoxin va E.Polejayevalar shaxsning psixofiziologik xususiyatlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. A.N.Leontev tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan mulohaza yuritib, tafakkurni ko'rinishlarga ajratadi, fikr yuritishning faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli-amaliy faoliyat deb nomlaydi.

**Xulosa.** Madaniyatlararo intellekt hissiy intellektning muhim tarkibiy qismidir. Shunday xulosa qilish mumkinki, intellektual akt vaqtda ong yuetaekhilik qiladi va muammoning hal etilishini boshqaradi, ongsizlik esa boshqarish obekti sifatida namoyon bo'ladi. Intellectual xulq-atvor o'yin qoidalarini qabul qilishdan boshlanadi, buni esa psixikaga ega bo'lgan sistemadan intellekt muhit talab qiladi. Intellectual xulq mezonni esa muhitni o'zgartirishi emas, balki individning muhitga moslashishi uchun muhit imkoniyatlarni ochishdir. Madaniyatlararo menejment har doim nafaqat olimlarning nazariy tadqiqotlari va xulosalariga, balki menejmlarning ekspert baholariga, amaliyotchi maslahatchilarning kuzatuvlariga asoslangan. Ushbu qo'shimcha manba olimlarning umumiy xulosalarini yanada asosli, aniq, bog'liqroq qilish imkonini beradi.

5. Begmurzayevich, D. B. (2022). Bo 'lajak boshlang 'ich sinf o 'qituvchilarida refleksiv madaniyatni rivojlantirishning metodologik asoslari. *Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal*, 3(6), 154-160.
6. Begmurzayevich, D. B. (2022). O'quvchilarni intellektual rivojlantirishning metodologik asoslari. *Ijodkor o'qituvchi*, 2(20), 52-59.
7. Karimova, B. (2019). Possibilities of formation of national pride with using khadiths in the first-year pupils of orphanages. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(11).
8. Karimova, B. K., & Oripova, M. S. (2021). Formation of national pride based on hadiths in primary school children of houses of kindness. *Academia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 652-665.
9. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 8547-8555.
- Kh, K. B. (2019). Формирование чувства национальной гордости воспитанников начальных классов домов милосердия посредством хадисов. *International scientific review*, (LXIV), 54-56.





UDK:234.240

**Dilbar RO'ZMETOVA,**  
*Alfraganus universiteti dotsenti*  
*E-mail:jumaniyoz@gmail.com*

*TDTTrU dotsenti, f.f.d A.Haydarov taqrizi asosida*

## QUESTION OF THE COMBINATION OF TRUTH AND PRACTICE IN KNOWLEDGE

Annotation

The article discusses issues related to the process of cognition and truth, epistemology, consciousness, knowledge, the study of knowledge, personal and social experience, the presence of consciousness, the results of the influence of the mind on oneself, other people and society as a whole, as well as the task of epistemology, its material things and phenomena, rationalism, empiricism, persepsia, optimism. Skepticism. The problem of agnosticism In epistemology, the boundaries of human knowledge are analyzed. In addition, today the development of human knowledge is expanded on its philosophical and scientific foundations.

**Key words:** Intuition, perception, memory, imagination, empirical knowledge, observation, experiment, scientific evidence, theoretical knowledge, problems, scientific problems, problem situation, hypothesis, theory, category, thinking, logical thinking, understanding, thinking, conclusion, intuition, inductive thinking.

## ВОПРОС О СОЧЕТАНИИ ИСТИНЫ И ПРАКТИКИ В ЗНАНИИ

Аннотация

В статье обсуждаются вопросы, связанные с процессом познания и истиной, гносеологией, сознанием, знанием, изучением знаний, личным и социальным опытом, наличием сознания, результатами влияния разума на себя, других людей и общество в целом, а также задачей гносеологии, ее материальными вещами и явлениями, рационализм, эмпиризм, персеписия, оптимизм. Скептицизм. Проблема агностицизма В гносеологии проанализированы границы человеческих знаний. Кроме того, сегодня развитие знаний человека расширено на его философско-научные основы.

**Ключевые слова:** Интуиция, восприятие, память, воображение, эмпирические знания, наблюдение, эксперимент, научные доказательства, теоретические знания, проблемы, научные проблемы, проблемная ситуация, гипотеза, теория, категория, мышление, логическое мышление, понимание, мышление, заключение, интуиция, индуктивное мышление.

## BILISHDA HAQIQAT VA AMALIYOT UYG'UNLIGI MASALASI

Аннотация

Maqolada Bilish jarayoni va unda haqiqat masalasi, gnoseologiya, ong, bilish, bilimni o'rganish masalasi, Shaxsiy va ijtimoiy tajriba, ongning mavjudligi, ongning o'z-o'ziga, boshqa odamlarga va umuman, jamiyatga ta'siri natijalari va shuningdek, Gnoseologiyaning vazifasi, uning moddiy narsa va hodisalar dunyosi bilan o'zaro aloqalarini aniqlash masalasi, Ratsionalizm, Empirizm, persepsiya masalasi, Optimizm. Skeptitsizm. Agnostitsizm masalasi Gnoseologiya inson bilimining chegaralari, masalasi taxlil qilingan. Shuningdek, bugungi kunda inson bilimining rivoji uning falsafiy -ilmiy asoslari keltirilgan

**Kalit so'zlar:** Sezgi, idrok, xotira, xayol, tasavvur, empirik bilim, kuzatish, eksperiment, ilmiy dalil, nazariy bilim, muammo, ilmiy muammo, muammoli vaziyat, gipoteza, nazariya, kategoriya, tafakkur, mantiqiy tafakkur, tushuncha, mulohaza, xulosa, intuitsiya, induktiv tafakkur.

**Kirish.** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mustaqillikning o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida, "Bugungi noyob tarixiy imkoniyatlar asosida Markaziy Osiyoda har tomonlama sog'lom siyosiy muhit, kelgusi avlodlar uchun erkin va xavfsiz kelajak yaratishimiz zarur"[1]ligi alohida ta'kidlandi. Xususan, kelgusi avlodlarimizni xavfsiz kelajagi albatta ularning bilimlilik darajasi, keng dunyoqarashi, mustaqil fikrlashiga bog'liqdir. Quyida bilish jarayoni va unda haqiqat va amaliyot uyg'unligi masalasi taxlil qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bizga ma'lumki falsafada "Gnoseologiya" – sof falsafiy kategoriya. Uning nomi yunoncha «gnosis» – "bilim", "ilm" va "logos" – «ta'limot», "fan" so'zlaridan kelib chiqqan. So'zma-so'z ma'nosi – "bilish haqi dagi ta'limot (fan)", "ong haqidagi ta'limot (fan)". Falsafiy adabiyotlarda, shu jumla dan, falsafiy qomuslar va lug'atlarda "gnoseologiya" atamasi "bilish nazariyasi" deb tarjima qilingan. Shu bilan bir qatorda, ayni shu mazmunni ifodalash uchun falsafiy adabiyotlarda "epistemologiya" so'zi ham qo'llaniladi. SHuni ta'kidlash

lozimki, gnoseologiyaga tatbiqan bilish nazariyasi va epistemologiya nomlarining qo'llanilishini o'rinli deb bo'lmaydi[4]. Zotan, "episteme" so'zi "pistis" – "e'tiqod" so'zi bilan uzviy bog'liq. Biroq, "biz biladigan" (gnosio) va "biz ishonadigan" (pistio), mavjudligiga e'tiroz bildirmaydigan narsalar – falsafiy va ilmiy bilimlarning hozirgi darajasida mazmunan har xil tushunchalardir. Shu bois G'arbiy Evropa falsafasida epistemologiyaning mazmuni ikki xil, ba'zan esa – uch xil talqin qilinadi. Umuman olganda, hozirgi zamon falsafasida gnoseologiya bilish jarayonining umumiy, aniqroq aytganda, falsafiy mohiyati hamda umumiy muammolariga e'tiborni qaratadi[5]. Epistemologiya esa, bizning muayyan narsalar haqidagi bilimlarimiz va (yoki) e'tiqodlarimizning ishonchlilik darajasini o'rganadi. Demak, epistemologiya gnoseologiyaning tarkibiy qismi yoki uning amaliy ifodasidir. Tom ma'nodagi epistemologiya hozirgi kunda ilmiy, haqiqiy bilimning mazmunini, shuningdek, diniy e'tiqodlarning gnoseologik mohiyatini o'rganish bilan shug'ullanadi[6]. Bunda esa bilish (ong)ning mohiyati to'g'risida bahs yurituvchi falsafiy ta'limot ma'nosidagi

“gnoseologiya” atamasidan foydalaniladi. Shu bilan biz avval gnoseologiya muammolari doirasini aniqlab olishga harakat qilamiz. Shaxsiy va ijtimoiy tajribada biz ongning mavjudligini aniq sezamiz, ongning o'z-o'ziga, boshqa odamlarga va umuman, jamiyatga ta'siri natijalarini fiziologik darajada his qilamiz va ko'ramiz. Biroq bu jarayonda ongning o'zi ko'rinmaydi. Moddiy dunyo hodisalaridan farqli o'laroq, ongni kuzatish mumkin emas. U go'yo vaqt va makon chegaralaridan tashqarida turadi. Gnoseologiyaning vazifasi bu ko'rinmas ongni idrok etish, uning moddiy narsa va hodisalar dunyosi bilan o'zaro aloqalarini aniqlash, uni o'z muhokama va tadqiqot predmetiga aylantirishdan iborat. Gnoseologiyaning asosiy muammosi bizning barcha bilimlarimiz tajribada sinalganmi? degan “oddiy” masalani echishdan iborat: Bu savolga javob izlash va masalaning echimini topishda gnoseologiyada ikki muxolif an'ana: bilimlarimiz tajribada sinalganini qayd etuvchi empirizm va buni inkor etuvchi ratsionalizm to'qnashadi[7]. Ratsionalizm (ratsionalistlar) insonda tug'ma g'oyalar, adolat, insoniylik, uyg'unlik g'oyalari va tajribadan olinishi mumkin bo'lmagan boshqa g'oyalar mavjudligidan kelib chiqadi. Zotan, tajriba to'la adolat, yalpi insoniylik mavjud emasligini, bizni qurshagan dunyoda uyg'unlik ustidan kaos hukm surishini ko'rsatadi[9]. Bunda ayrim ashaddiy ratsionalistlar (masalan, Platon, Avgustin va ularning hamfikrlari) ko'rsatib o'tganidek g'oyalar inson aqliga xos tug'ma g'oyalar bo'lib, ularni inson faqat o'z aqlidan olishini qayd etadilar; boshqa, mo'tadil ratsionalistlar (masalan, Leybnits, Volf, Baumgarten) esa, g'oyalar aqlga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lsa-da, biroq ular faqat aqlda tafakkur va falsafiy mushohada yuritish jarayonida tug'ilishini ta'kidlaydilar. Empirizm (empiristlar, F.Bekon, J.Lokk, T.Gobbs, D.YUm, L.Feyerbax), aksincha, in son, insoniyat shaxsiy yoki ijtimoiy tajribaga ega bo'lgunga qadar biron-bir g'oya mavjud bo'lishini inkor etadilar. Ular barcha g'oyalar inson ongi zahirida yo shaxsiy tajriba, yo boshqalar tajribasi, butun insoniyat tajribasini umumlashtirish orqali tug'ilishini qayd etadilar va bu tezisni isbotlashga harakat qiladilar. Ularning fikriga ko'ra, tajriba inson ongida uning sezgilari va o'zini qurshagan dunyoni idrok etishi orqali aks etadi. Falsafada idrok etishni persepsiya (lotincha perception – idrok etish) deb atash odat tusini olgan. Persepsiya o'zini qurshagan dunyodagi narsalar va hodisalarni sezgilar orqali idrok etishga ayladi, apperpsiya borliqni aql bilan anglash, bilish, ularni g'oyalarda ifodalashdir. Gnoseologiya inson bilimining chegaralari to'g'risidagi masalani echishni ham o'z ichiga oladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ko'pgina empiriklar (masalan, David Yum, Dyubua Raymond, agnostiklar) va ratsionalistlar (masalan, Kant va uning hamfikrlari) inson nafaqat umumiy narsa va hodisalarni, balki muayyan, konkret narsalarni ham bilishi mumkin emas, degan fikrga qo'shiladilar. Ayrim narsalar, hodisalar va konsepsiyalar borki, ular persepsiyamizning chegaralariga ham, tafakkurimiz, refleksiya ham doirasiga ham sig'maydi. Masalan, Kant Ko'ntot ibtidosi yoki ibtidosizligi, Xudoning borligi yoki yo'qligi, jonning boqiyliqi yoki foniyliqi, axloqning sababiyliqi yoki sababsizligi aqlning bilish chegaralariga sig'maydigan, oqilona o'rganib bo'lmaydigan transsendental – chegaraga sig'maydigan masalalardir, deb hisoblagan. Buyuk Kant tabiatni axloqiylik bilan bog'laydi: «Kimmiki bevosita tabiat go'zalligi qiziqirsiz, bu uning fikr lash tarzida, yo'q deganda, axloqiylikka, ezgulikka qobiliyati mavjudligidan dalolat beradi», – deydi u[3]. Ammo Hegelning, tabiatda ideal yo'q, shu sababli u ikkinchi darajali go'zallik turi, degan fikri estetikada hukmronlik qilib keldi, ayniqsa, bu fikr tabiatni

«bo'ysundirishni» targ'ib qilgan markschilikning tegirmoniga suv quydi. XX asr pozitivistlari, empirizm

g'oyalarini himoya qilgan yirik olimlar: Moris Shlik, Rudolf Karnap kabilar Kantning transsendental muammolarini mantiqsiz deb e'lon qildilar.

Gnoseologiya inson bilimi va bilishga doir juda ko'p muammolar bilan shug'ullanadi. U bizning bilimlarimiz qay darajada e'tiqod, qay darajada ko'rko'rona ishonch va qay darajada real borliqning haqiqiy in'ikosi ekanligini aniqlashga harakat qiladi. So'nggi o'n yilliklarda gnoseologiyada bilimlar o'rtasidagi farq, nimani bilaman, qanday bilaman, shaxsiy tajribamdan bilaman, dalilga ko'ra bilaman kabi iboralar mazmunining o'zaro nisbati masalalari muhokama qilinmoqda. Bir so'z bilan aytganda, gnoseologiya borliqni to'liq qamrab olib, unda biron-bir tafsilotni nazardan qochirishga harakat qiladi. Demak gnoseologiya falsafaning eng muhim omilidir.

Optimizm. Skeptitsizm. Agnostitsizm. Bilish jarayoni rivojlanish qonuniyatlarining shakllari, haqiqatning tagiga etish imkoniyatlari nuqtai nazaridan o'rganiladi. Uning har xil modellari, yondashuvlari mavjud. Materialistik modellar zahirida dunyoning inson ongida aks etish tamoyillari: Demokritda – obrazlar (eydoslar), Yangi davr faylasuflarida – sensor signallari, Berklida – sub'ektning sezgilari yotadi. Leybnits bilishni ilohiylashtirilgan g'oyaning inson tug'ma tushunchalariga ta'siri deb hisoblagan. Gejel taklif qilgan modelning zahirida mutlaq g'oyani anglash yotadi. Max, Avenarius va boshqa sub'ektiv idealistlarda (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) bilish jarayoni – bu sezgilarning bo'sh va tejamlil aloqasini amalga oshirishdir.

**Tahlil va natijalar.** Inson aqli bilish pillapoyasidan yuqoriga ko'tarilar ekan, har bir yangi pog'onada qayta-qayta quyidagi savolga javob topishga harakat qiladi: dunyoni bilish mumkinmi?, bilishning chegaralari bormi? Falsafada bu savollarga javob beruvchi uch asosiy yo'nalishni farqlash mumkin: optimizm, skeptitsizm va agnostitsizm (Kant va boshqalar). Optimistlar dunyoni bilish mumkinligini ta'kidlaydilar, agnostiklar, aksincha, buni rad etadilar (I.Kant – narsa o'zida). Skeptiklar dunyoni bilish mumkinligini inkor etmaydilar (XVIII asrda D.Yum), biroq bilimning haqiqiylikiga shubha bildiradilar. Odatda, skeptitsizm paradigmatlar, qadriyatlar, ijtimoiy tizimlar va hokazolar o'zgarayotgan davrda (yoki uning arafasida), ilgari haqiqiy deb hisoblangan xulosalar fan va amaliyot olgan yangi ma'lumotlar nuqtai nazaridan soxta, asossiz bo'lib chiqqan holda ravnaq topadi. Skeptitsizm psixologiyasiga xos xususiyat shundan iboratki, u darhol nafaqat eskirgan, balki yangi, shakllanayotgan fikrlar, g'oyalarni ham toptay boshlaydi. Bu psixologiya zahirida tadqiqotchining yangilikka tashnaligi va inson tafakkurining kuchiga bo'lgan ishonch emas, balki qachondir qabul qilingan qulay tamoyillarga tayanish yotadi. Skeptitsizm ta'limot sifatida, hech shubhasiz, zararlidir, chunki u insonning bilish borasidagi deyarli barcha imkoniyatlarini kamsitadi.

Bilimning asosiy turlari. Bilim nima? Bilim tushunchasiga aniq ta'rif berish qiyin, balki hatto mumkin ham emas. Gap shundaki, birinchidan, bu tushuncha eng umumiy tushunchalardan biri hisoblanadi, umumiy tushunchalarga esa doim aniq ta'rif berish qiyin. Ikkinchidan, bilimning juda ko'p turlari mavjud va ularning hammasini yonma-yon qo'yib bo'lmaydi. Shuni e'tiborga olib, bilim nima ekanligini aniqlashga harakat qilib ko'ramiz. Odatda, biz nimanidir bilishimiz haqida gapirganimizda, o'zimiz bu «nimadir» haqida ancha to'g'ri tasavvurga egamiz, deb hisoblaymiz. Shuningdek, bizning tasavvurimiz xom xayol yoki faqat o'z shaxsiy fikrimiz emasligiga ham ishonchimiz komil bo'ladi. Nihoyat, biz bu ishonchni mustahkamlovchi qandaydir dalillar keltirishimiz mumkin. Shunday qilib, o'z shaxsiy hayotimizda biz amaldagi holatga mos keladigan va ma'lum asoslarga ega bo'lgan ishonch, e'tiqodni bilim deb hisoblaymiz. Teran ma'no bilan sug'orilgan bu bilim talqinining umumiy ruhi

gnoseologiyada ham saqlanib qolgan. Ayni zamanda, gnoseologiya bu talqin zamirida mujassam ba'zi bir holatlarni aniqlaydi va ularga oydinlik kiritadi. "S sub'ekt qandaydir P predmetni biladi", degan standart gnoseolgik talqin quyidagi uch shartni o'z ichiga oladi:

**Xulosa va takliflar.** Gnoseologiya yoki bilish nazariyasi falsafiy bilimda inson kamoloti uchun:

- insonning dunyoni bilish imkoniyati;
- insonning o'zlikni anglash jarayoni;
- bilishning bilmaslikdan bilim sari yuksalishi;
- bilimlar tabiati va ularning mazkur bilimlarda aks etuvchi narsalar bilan o'zaro nisbati o'rganiladi.

Shunday qilib, umuman olganda, gnoseologiya ong, bilish, bilimni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Shunday qilib, bilish jarayoni va unda haqiqat va amaliyot uyg'unligi masalasi bugungi jamiyat uchun juda katta ahamiyatga egaki inson muayyan bir, hatto, "eng muhim bilim" ga ega bo'lishida hech qachon faqat bitta ta'limotga tayanib qolmasligi, hech qachon o'z tafakkur doirasida qarorlar qabul qilishda faqat bitta xulosa bilan cheklab qo'yimasligi kerak.

Shuning uchun bugungi kunda Ilmiy bilishda turli darajalarda, faoliyat sohalarida va yo'nalishlarda turli-tuman metodlarning murakkab, dinamik va muvofiqlashtirilgan tizimi faoliyat ko'rsatmoqdaki Mazkur metodlar har doim bilishning muayyan shartlari va predmetidan kelib chiqib amalga oshiriladi va amaliyotga tadbiiq etiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-ozbekiston-mustaqilliginin>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentyabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.
3. Кант И. Сочинения в 6 т. Т. 5. М., «Мысль», 1966. С.314.
4. Гейзенберг В. Физика и философия. Часть и целое. –М.: 1989 г. с. 85.
5. Эйнштейн А. Физика в жизни моего поколения. –М.: 1963 г. с. 89.
6. Гегель Г.В. Энциклопедия философских наук. Соч. Т. 1. –М.: с.145.
7. Гегель Г.В. Наука логики. Т. 1. –М.: 1970 й. с. 467
8. Аристотель. Органон. –М.: 1990 г. с. 159Аристотель. Органон. –М.: 1990 г. с. 159



UDK: 152.0:15.07

Umida SADIKOVA,  
Ma'mun universiteti PhD  
E-mail:sadikova.umi@gmail.com

Urganch davlat universiteti PhD E.Raximova taqrizi asosida

## NECESSARY ASPECTS OF RESEARCHING THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL QUALITIES IN PSYCHOLOGY

Annotation

In this article, emphasis is placed on the theory of competence tasks in professional training and opportunities for practicing psychologists. The development of professional qualities of psychologists with the opinions of scientists, professional stages, the universal competence of psychologists are highlighted.

**Key words:** Psychology, psychology, promotion, Internet, specialist, psychologist, emotion, professional quality, ability, higher education, group.

## НЕОБХОДИМЫЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ В ПСИХОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье акцент сделан на теории компетентностных задач в профессиональной подготовке и возможностях практикующих психологов. Освещены развитие профессиональных качеств психологов с точки зрения ученых, профессиональные этапы, универсальная компетентность психологов.

**Ключевые слова:** Психология, психика, пропаганда, интернет, специалист, психолог, эмоция, профессиональные качества, способности, высшее образование, группа.

## PSIXOLOGIYADA KASBIY SIFATLAR RIVOJLANISHINI TADQIQ ETILISHINING ZARURIY JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada amaliyotchi psixologlar uchun imkoniyatlar va kasbiy tayyorgarligida kompetensiyasini vazifalari nazariyasiga urg'u berilgan. Psixologlarning kasbiy sifatlar rivojlanishini olimlarning fikrlari bilan, kasbiy bosqichlari, psixologning umummadaniy kompetensiyasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Psixologiya, psixika, targ'ibot, internet, mutaxassis, psixolog, emotsiya, kasbiy sifat, qobiliyat, oliy ta'lim, guruh.

**Kirish.** Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda o'zgarishlar bo'lg'usi mutaxassislarning shaxsiy va ijodkorlik imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan umumiy va kasbiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu borada yangidan yangi shart-sharoitlar amalga oshirilmoqda. Mazkur sharoitlarni tadbiiq qilish natijasida talabalar kelajak kasbi haqidagi tasavvurlarning adekvat timsolini shakllantirish, irodaviy harakatlarni rivojlantirish va unda o'z o'rnini topish qobiliyati, ularning shaxsiy imkoniyatlari va xususiyatlariga mos kelishi kabi xususiyatlar namoyon bo'ladi. Yoshlarning kasbiy qiziqishlaridan kelib chiqib, o'zlari tanlagan kasbining kelajakdagi obrazini o'zida hayolan ko'ra olsa, o'z imkoniyatidan foydalanib, mavjud qobiliyatini rivojlantirishga ta'sir qiladigan omilga transformatsiya qilish zarur bo'ladi. Mazkur jarayonda kasbiy sifatlarining rivojlanishi o'zida hissiy, irodaviy va kognitiv komponentlarni qamrab olgan kognitiv asosni vujudga keltiradi.

Mamlakatimizda, xususan prezident asarlarida shaxs va uning kasbiy rivojlanishi bo'yicha hukumat qarorlari va me'yoriy xujjatlar qabul qilingan hamda qonun bilan himoyalangan [1].

O'qitishning asosiy vazifasi innovatsiyalardan foydalangan holda kuchli bilimga ega avlodni yetishtirib chiqarishdan iborat. Bu borada amalga oshirilayotgan qator islohotlar bilan birga yetishib chiqayotgan yosh kadrlarning kasbiy bilimlarining amaliyotdagi natijasi ularning sifat ko'rsatkichini belgilab beradi. Shu asnoda bitiruvchi psixolog talabalarining kasbiy mukammallikka ega bo'lishi bugungi kunning asosiy maqsadidir.

Inson psixikasi haqidagi bilimlarning rivojlanish tarixi juda qadimiy va navqiron hisoblanadi. Barcha fanlarning otasi hisoblanmish falsafa fanining bir qismi sifatida bo'lgan, keyinchalik tadqiqotlar va ilmiy nazariyalar olib borish natijasida mustaqil fan sifatida psixologiya fani ajralib chiqqan.

Ayni kunda psixologiyaga ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan amaliyotchi psixolog kasbi zamonaviy kasblardan biri hisoblanib, bunda hamisha insonlarning ruhiy olami bilan birga ishlar ekan, fandagi ilmiy nazariyalar kundan-kunga yangilanib borishi, bu esa ilmiy bilimlarni to'xtovsiz tarzda egallashni talab qiladi. Jamiyatga moslashish bilan bog'liq qiyinchiliklar, ehtiyojlarni qondirish uchun kuchli fiziologik va emotsional zo'riqish bilan harakatlanishni talab qiladigan faoliyatga zarurat oshadi. Bu, o'z navbatida, bir vaqtning o'zida shaxsni ham sotsium bilan munosabatlarini, ham o'zini boshqarish bilan bog'liq psixologik faoliyatni birga olib borish talabini keltirib chiqaradi. Natijada inson uni qo'llab-quvvatlaydigan, unga yanada kuch bag'ishlaydigan ichki faollikni faollashtiradigan, turli psixoemotsional holatlarda o'zini adekvat nazorat qilishga yordam beradigan mutaxassisga ehtiyoj sezadi. Bunday ehtiyojning amalga oshishi uchun bevosita psixolog yordamga keladi. Aslida, psixolog esa ijobiy natijaga erishishi uchun, insonlarning ishonchini qozonishi va ularga to'g'ri yo'l ko'rsata bilishida, eng avvalo o'zidagi irodani shakllantira bilishi, emotsiyasini boshqara olishi, muloqatchanlikning yuqori ko'rsatkichiga ega bo'lishi, umumiy jihatdan kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi zarur.

O'tgan yillarga nisbatan bugungi kunda bizning mamlakatimizda psixologlar haqidagi qarashlar mutlaqo o'zgaragan. Bu kasb bo'yicha to'g'ri tushunchalar paydo bo'la boshlagan. Insonlar tomonidan psixologga qo'yiladigan talab va tasavvurlar juda yuqori bo'lib, ular uchun bu kasb egasidan inson ruhiyatini to'liq o'zgartira oladigan kasb egasi va hakozolar talab qilinmoqda. Vaholanki, amaliy psixolog kasbi kasbiy profiogrammada nazarda tutilgan faoliyat yo'nalishlarini amalga oshirishni talab qilar ekan, bu ba'zan mijoz kutuvlari va psixolog mutaxassisning yondashuvi o'rtasida ba'zi tushunmovchiliklar va o'zaro nomuvofiqliklar keltirib chiqarish ehtimolining ham mavjudligini ko'rsatadi. Aynan aholi tomonidan psixolog mutaxassisga mana shunday kutuvlar jamiyatda psixologning kasbiy faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yilishi va shunga mos tarzda kasbiy rivojlanish jarayonining adekvat kechishiga ilmiy yondashuvni talab qiladi. Bu o'rinda psixolog mutaxassisning kasbiy sifatleri haqida ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish va uni rivojlantira olishi muhimdir.

Psixolog mutaxassisning kasbiy sifatleri va ularning rivojlanishi to'g'risidagi nazariy va amaliy ta'limotlar psixologiya fanining dastlabki bosqichlarida o'ziga xos tarzda talqin qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Vazirlar Mahkamasining qarori va ko'plab farmon va qarorlar shaxs va uning kasbiy rivojlanishi bo'yicha me'yoriy hujjatlar qabul qilingan hamda qonun bilan himoyalangan [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mutaxassislik kasbiga qo'yilgan talablardan biri kasbiy sifatlar bo'lib, muvaffaqiyatga erishish va samarali natija ko'rsata olish muhimdir. Bu esa mutaxassisning bilimni qay darajada o'zlashtirganligi bilan bog'liq. Kasbiy jihatdan rivojlanishda ma'lum sohaga tizimli yo'nalganlik xususiyatlariga alohida e'tibor berish kerak. Kasbiy sifatlar va kasbga yo'nalganlik, uning darajasini aniqlash va kasbiy shakllanish masalasiga rus olimi K.M.Gurevich shunday ta'kidlaydi: «Har bir inson, har qanday kasbni egallashi mumkin, ammo asosiy narsa bu qancha kuch va vaqt talab qilishida. Inson hayotidagi mehnat faoliyati davri cheklangan bo'lib, samarasiz, quvonchsiz faoliyat nafaqat shaxsiy baxtsizlik - bu pirovard natijada butun jamiyatda aks etadi. Shuning uchun kasbiy yo'nalganlikni bashorat qilish va uni shakllantirish yo'llari hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi» [3]. Bu fikrdan shunday xulosa qilishimiz mumkin, kasbiy rivojlanish natijasida shaxsiy o'sish bilan birga baxt kategoriyasida ham ijobiy holatlar namoyon bo'ladi. Psixologlarning asosiy muammosida ham shu nuqtai-nazardan dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Bu muammo qadimgi yunon faylasufi Aflotunning qarashlarida o'z aksini topgan: «Odamlar bir-biriga o'xshash bo'lib tug'ilmaydi, tabiati ham, qandaydir ish qilish uchun qobiliyatlari ham har xil. Shuning uchun insonlar o'zlarining tabiiy moyilliklari bilan biror ishini bajarsalar, miqdor jihatdan ham sifat jihatdan ham samarali bo'ladi» [2]. Yunon faylasufi Aflotun aytib o'tgan fikrlaridan shunday umumiylik borki, inson imkoniyati va qobiliyati darajasidan kasb tanlashi zarur va imkoniyatidan kelib chiqib tanlagan kasb va hunarida faoliyat yuritishda muammolarga kamroq duch keladi. Agarda o'zi sevib kasb tanlamas ekan, bilaks tanlagan kasbida muvaffaqiyatli natijalarga erisha olmaydi.

Ya.V.Latyushinning «Giyohvandilikka qarshi dasturda qatnashadigan ko'ngilli-maslahatchilarning muhim kasbiy sifatleri shakllanishi» (2004) tadqiqoti deviant xulqning qiyin turlari bilan davolanayotgan insonlarga psixoterapevtik va psixologik yordam ko'rsatish tadbirlarini olib borishda ishtirok qiladigan psixologlarning kasbiy sifatleri tahlil qilingan [4]. Darhaqiqat psixolog kasbi turli addiktiv xulqli insonlar bilan ishlar ekan, mehnat faoliyatiga chiqishdan oldin

ularida o'qish jarayonida zaruriy sifatlar rivojlanishi maqsadga muvofiq. L.M.Voytenko tomonidan olib borilgan «Bo'lg'usi psixologlarning kasbiy shakllanishida kommunikativ kompetentlik kasbiy determinat sifatida» nomli tadqiqotda ham psixolog kasbiy muhim sifatleri orasida kommunikativ kompetentlik muhim xususiyat sifatida eksperimental jihatdan tahlil qilingan [5]. Darhaqiqat amaliyotchi psixolog "odam-odam" kasb tipi bo'lganligi bois, uning asosiy quroli kommunikativ sifat hisoblanadi va kasbiy muvaffaqiyatga erishish psixologdan yuqori muloqotchanlik ko'nikmalariga ega bo'lishni talab qiladi.

Bundan tashqari psixologning kasbiy sifatlaridan kommunikativ qobiliyatlar ekanligini tadqiq qilish Yu.V.Anikeevaning «Talaba psixologlar kommunikativ qobiliyatlari rivojlanishining psixologik determinantlari» (2012) nomli ilmiy ishida ham o'rganilgan. Mazkur tadqiqotda bo'lajak psixologlarda kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanishi xususiyatlari, ularning namoyon bo'lishida psixologlarning ta'siri va ahamiyati to'g'risidagi eksperimental izlanishlar amalga oshirilgan [6].

Psixolog kasbi shaxsda vujudga keladigan psixologik muammolar, shaxslararo nizolarda obyektiv va shaffof pozitsiyadan yondashish texnikasiga yordam berishda muhim hisoblanadi. T.V.Yevtushenko tomonidan olib borilgan «Nizoli xulq vaziyatida talaba psixologlarning kommunikativ kompetentligi rivojlanishi xususiyatlari» (2009) nomli tadqiqotda ham kommunikativ qobiliyatning turli nizoli vaziyatlarda shaxsning bartaraf qiluvchi xulqi sifatida tahlil qilingan. Aynan talaba psixologlarda bunday qobiliyatlarni rivojlantirishga e'tibor berish, kelgusida mijoz-psixolog munosabatlarida konfliktli vaziyatlarda yordam berish ko'nikmasi rivojlanishiga imkon beradi [7]. Fikrimizcha, bo'lajak psixologlarning kasbiy sifatleri tarkibidagi muhim xususiyat bu kommunikativ qobiliyat hisoblanib, bu boshqa fazilatlarga ahamiyatli ta'sir qiladigan xususiyatdir. Chunki psixologning kasbiy faoliyatidagi asosiy quroli bu muloqot hisoblanadi ekan, bu mutaxassisdan rivojlangan kommunikativ qobiliyatni talab qiladi.

G.A.Mironovning «Bo'lg'usi psixologlarning kasbiy sub'ektivligi shakllanishi» (2010) deb nomlangan dissertatsion tadqiqotida ham bo'lajak psixologlarda kasbiy o'z-o'zini anglash va kasbiy pozitsiyasini aniqlashda shaxsiy sub'ektivlik mezonlarining o'rni tahlil qilingan [8]. Bu ishda keltirilgan natijalardan kelib chiqib, jamiyatimizda yetishib chiqayotgan bo'lg'usi psixologlarda kelgusidagi kasbiy roli va pozitsiyasi haqidagi tasavvurlarini rivojlantiruvchi trening mashg'ulotlari dasturi shakllantirishi zarur.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shaxsning subyektiv hayotiy o'rni va ijtimoiy mavqei o'rganishga ko'plagan nazariy yondashuvlar bo'lgani holda zamonaviy psixologiyada ularning o'zaro bog'liqligi o'rganilmagan, talabalarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish va ijobiy ijtimoiy mavqei faollashtirishning to'laqonli, ilmiy asoslangan konsepsiyasi ishlab chiqilmagan.

Shu sababli, barcha talabalar uchun keltirilgan manbalar izohlanib, navbatdagi masala psixodiagnostik metodlar yordamida kasbiy sifatleri tashxislash hisoblanadi.

Psixologiyada kasbiy sifatlar rivojlanishini tadqiq etilishining zaruriy jihatlari uchun foydalanilgan metodologik asosi sifatida B.G.Anan'ev, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, V.V.Davidov, S.L.Rubinshteyn, Abulxanova-Slavskaya kabi olimlarning determinizm, faoliyat, rivojlanish, ong va faoliyat birligi tamoyillari, L.S.Vigotskiyning yuqori aqliy funksiyalar rivojlanishi nazariyasi, B.F.Lomovning shaxsning atrof olamga subyektiv munosabati yondashuvi, shuningdek, D.Syuperning kasbiy shakllanishda «Men» konsepsiyasi taraqqiy etishi hamda amaliyotga tadbir etish yondashuvi tashkil etdi [9].

Faoliyat nazariyasi va psixologiyadagi faollik tamoyillari rus psixolog olimlaridan S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, L.S.Vigotskiy V.V.Davidov va boshqalar tomonidan faoliyat yondashuvi negizida o'rganilgan. Olimlarni ta'kidlashicha «Shaxs - bu muayyan tizim hisoblanadi, uning sifatlari ijtimoiy, aqliy va axloqiy faoliyatining natijasidir» [10]. Shu nuqtai nazardan ham shaxs shakllanishidagi muhim jihatlar uning kasbiy sifatlari rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

An'anaviy yondashuvdagi atrofdagi voqelikni o'zgartirish orqali inson o'z tabiatini o'zgartiradi, degan pozitsiyasiga asoslanib, S.L.Rubinshteyn shaxsning yo'nalishini o'rganishda tizimli yondashuvning asosini tashkil etgan ong va faoliyatning birligi tamoyilini ilgari surdi. Ongning faoliyat bilan chambarchas bog'liqligi mazmuni «ularning o'zaro bog'liqligi va mazkur bog'liqlikni tasdiqlashdan iborat: inson faoliyati uning ongini shakllantirishni, uning intellektual aloqalarini, jarayonlarini va xususiyatlarini belgilaydi va bu ikkinchisi, tartibga soluvchi faoliyat, ularni adekvat amalga oshirish sharti hisoblanadi» [11]. B.F.Lomov va G.S.Nikiforovlar tadqiqotlarida, o'z-o'zini rivojlantirish - bu o'z-o'zini chuqur bilish va mukammallikka erishish motiviga asoslangan o'z-o'zini takomillashtirish jarayoni, degan xulosaga keladi.

«Ijtimoiy munosabatlar» (K.A.Abulxanova-Slavskaya), «turmush tarzi» (E.V.Shoroxova), «muloqot» (V.N.Myastsev, B.F.Lomov), «hayotiy faoliyat» (G.M.Andreeva, A.V.Petrovskiy) kabi kategoriyalarning chuqurlashishi [12], bu shaxs tarkibidagi markaziy yoki magistral komponentni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. A.V.Petrovskiy shaxs rivojlanishining yetakchi omilining asosi sifatida faoliyat vositachiligidagi munosabatlar turini ilgari suradi.

**Tahlil va natijalar.** Psixolog kasbinining taraqqiyotidagi ilmiy yondashuvlar o'zining ahamiyatiga ega bo'lib, konseptual va tadqiqotchilik xususiyatlarini namoyon qiladi. Ushbu yondashuvlarning aniqlovchi, tavsiflovchi va fragmentar xarakterlarini ham inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologlarning amaliy faoliyatida duch keladigan vazifalar bo'yicha vaziyat qoniarli darajada emas va ular to'liq aniqlanmagan, tizimli ravishda shakllantirilmagan, tasniflash amalga oshirilmagan. Qator tadqiqot doirasida izlanishlar olib borgan har bir muallif ularni o'rganish doirasidan tahlil qiladi. Nazariy va amaliy bilimlar o'rtasidagi

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'z.R Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. //Xalq so'zi gazetasi, 2017 yil 16 yanvar №11.
2. Бодров В.А. Психология профессиональной пригодности. Учебное пособие для вузов—М. ПЕПСЕ, 2001— 511с .
3. Гуревич К.М., Матвеев В.Ф. О профессиональной пригодности операторов и способах ее определения. Вопросы пригодности оперативного персонала энергосистем. М.: Просвещение, 1966. 239-с
4. Латушин Я.В. Формирование профессионально важных качеств волонтеров-консультантов антинаркотических программ: дис.канд.психол.наук. Челябинск. 2004. 209 с.
5. Войтенко Л.М. Коммуникативная компетентность как детерминанта профессионального становления будущего психолога: дис.канд.психол.наук. Сочи. 2011. 253 с.
6. Аникеева Ю.В. Психологические детерминанты развития коммуникативных способностей студентов-психологов: дис.канд.психол.наук. Ставрополь. 2012. 236 с.
7. Евтушенко Т.В. Особенности развития коммуникативной компетентности студентов-психологов в ситуации конфликтного поведения: дис.канд.психол.наук. Ростов-на-Дону 2009. 185 с.
8. Миронов Г.А. Формирование профессиональной субъективности будущих психологов: дис.канд.психол.наук. Москва. 2010. 148 с
9. Super.D.E.The psychologyofcareer.—N.Y.,1957.—P.400.
10. Розин М.В. Построение сценария жизни как механизм личностного развития юношества: Дис. канд. пс. наук. М., 1994. - 130 с.,
11. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии / С.Л.Рубинштейн. -СПб.: Питер, 2001. - 720 с.
12. Никифорова О.В. Ценностная детерминация творческого педагогического труда в условиях перехода к новой образовательной парадигме: Дис. канд. пс. наук. Томск, 1997. - 179 с.

mavjud ba'zi bo'shliqlarni bartaraf etishda tadqiqotchi maqsadli harakatlar, izlanishlar olib borishi zarur.

Jamiyatda psixolog kasbinning mavqeini oshirish va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosini hal qilish zarurati mavjud. Muammolarni aniqlash va uni hal etish yo'llarini tahlil qilishda amaliyotchi psixologlar zamonaviy talablarga javob bera olishi muhim.

**Xulosa va takliflar.** Demak, hozirgi vaqtda globallashtirish jarayoni sodir bo'layotgan davrda psixologiya sohasidagi zamonaviy talablarga mos rivojlanish jarayoni bo'lg'usi psixologlarning kasbiy sifatlari rivojlantirish va kasbiy ta'limni optimallashtirish talabini qo'yadi. Bu esa psixologiya yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetentlik darajasini oshirishga xizmat qiladigan kasbiy sifatlarni rivojlantirishga har qachongidan ko'ra ham muhim ahamiyat qaratish zarurligini bildiradi.

Bugungi kunda fan-texnikalarning rivojlanishi, insonlarning yashash va turmush tarzi takomillashtirishi, bu psixolog mutaxassisligining yanada yuksak darajada takomillashtirishi, insonlar hayoti uchun ma'suliyatli kasbiy mahoratini rivojlantirishi zamon talabga aylanmoqda. Shu munosabat bilan kasbiy muammolarni yechishga nazariy va amaliy jihatdan tayyor, kasbiy faoliyat tizimini yaratish, qo'llash va moslashtirishga qodir yuqori malakali kadrlar tayyorlash muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa bo'lg'usi psixologlarning o'z yo'nalishini mukammal tarzda zamon bilan hamnafaslikda rivojlantirishi eng dolzarb masalalardan biridir.

1. Amaliy psixologiya sohasi mamlakatimizda birmuncha, amaliyotning ancha yangi, yosh sohasi bo'lib, uning ta'limotida ma'lum bir tuzilmasizlik mavjud. Mana shu noaniqliklarni bartaraf qilish psixolog mutaxassisning muhim zaruriy kasbiy sifatlari ajratib olishga yordam beradi.

2. Talaba psixologlarni o'rganayotgan yo'nalishining mukammalligi uchun kasbiy tayyorgarlik, intellektual salohiyat va kasbiy ta'lim natijasida dunyoqarash shakllanadi.

Psixolog talabalarni kasbiy jihatdan mukammallik darajada tayyorlash, kasbiy salohiyati bilan erishadigan yutuqlarini ilmiy manbalar bilan o'rganish, zarur innovatsiyalar bilan boyitish, ajratib olish va tahlil qilishga qaratilgan ilmiy adabiyotlarda turli yo'nalish vakillari va olimlar o'zlarining tadqiqot predmetidan kelib chiqib, o'z variantlarini taklif qilganlar, bundan shunday xulosa qilish mumkinki, muhimi psixolog kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlab beradigan asosiy kasbiy sifatlarni ajratib olish zarur.



УДК: 677.027.622

**Нодира САЙДАЛИЕВА,**  
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности т.ф.н. доцент  
E-mail: nodira\_saydalieva@mail.ru  
**Фарангиз АХМАТОВА,**  
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Professor G.Masharipova taqrizi asosida

## MODIFICATION OF COTTON CALIC FABRIC WITH THE PARTICIPATION OF NATURAL PROTEINS

Annotation

In the development of chemical technology for finishing textile materials, the development of new technologies for modifying cotton fabrics plays an important role. The use of natural polymers and proteins in such modification methods ensures their environmental friendliness. This article is devoted to the study of the physical, mechanical and sorption properties of cotton fabric modified with natural silk proteins. Based on the results obtained, it was determined that when treating the fabric with 4-6 g / l protein solutions, the weight gain increases to 5%, although its washability is from 2 to 3%. The physical and mechanical properties of cotton fabric samples increase as a result of modification. With an increase in the concentration of the modifier, the breaking load increases from 3.3 to 18.7% by warp. These changes by weft have higher values. Based on the results of the sorption analysis, the increase in the adsorption of modified samples by proteins (A, B) proves an increase in their active surface compared to unmodified cotton fabric, which contributes not only to the improvement of operational properties, but also to an increase in the sorption of the dye by the fiber.

**Key words:** Cotton, protein, fiber, sorption, adsorption, impregnation, textile materials, chemical treatment.

## МОДИФИКАЦИЯ ХЛОПЧАТОБУМАЖНОЙ ТКАНЯ БЯЗЬ С УЧАСТИЕМ ПРИРОДНЫХ БЕЛКОВ

Аннотация

В развитии химических технологии отделки текстильных материалов немало важную роль играет разработка новых технологий модификация хлопчатобумажных тканей. Использование природных полимеров и белков в таких способах модификации обеспечивает их экологичность. Данная статья посвящается изучению физико-механических и сорбционных свойств хлопчатобумажной ткани, модифицированной белками природного шелка. По полученным результатам определено, что при обработке ткани 4 – 6 г/л -ными растворами белка привес повышается до 5%, хотя при этом смываемость его составляет от 2 до 3%. Физико-механические свойства образцов хлопчатобумажной ткани в результате модификации повышаются. С повышением концентрации модификатора разрывная нагрузка повышается от 3,3 до 18,7 % по основе. Эти изменения по утку имеют более высокие показатели. Исходя от результатов сорбционного анализа, повышение адсорбции модифицированных образцов белками (А, Б) доказывает увеличение их активной поверхности по сравнению с немодифицированной х/б тканью, что способствует не только улучшению эксплуатационных свойств, но и повышению сорбции красителя волокном.

**Ключевые слова:** Хлопок, волокно, сорбция, адсорбция, пропитка, текстильные материалы, химическая обработка.

## TABIY OQSILLAR ISHTIROKI BILAN PAXTA MATOLARINI MODIFIKATSIYALASH

Annotatsiya

To'qimachilik materiallarini kimyoviy pardoqlashda paxta matolarini modifikatsiyalashning yangi texnologiyalarini yaratish muhim o'rin tutadi. Bunday modifikatsiyalash usullarida tabiiy polimerlar va oqsillardan foydalanish ularning ekologik xavfsizligini ta'minlaydi. Ushbu maqola tabiiy ipak oqsillari bilan modifikatsiyalangan paxta matolarining fizik, mexanik va sorbsion xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Olingan natijalarga ko'ra, 4-6 g / l oqsil eritmalari bilan matoga ishlov berishda, uning yuvilish darajasi 2 dan 3% gacha bo'lsa-da, massa ortishi 5% gacha ko'tarilishi aniqlandi. Paxta gazlama namunalaring fizik-mexanik xossalari modifikatsiya natijasida ortadi. Modifikator kontsentratsiyasining oshishi bilan uzulishdagi mustaxkamlik 3,3 dan 18,7% gacha oshadi. Sorbsion tahlil natijalariga ko'ra, modifikatsiyalangan namunalarning oqsillar (A, B) tomonidan adsorbsiyasining oshishi ularning faol sirtining ishlov berilmagan paxta matosiga nisbatan oshganligini isbotlaydi, bu nafaqat ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilaydi, balki tolaning bo'yovchi moddalarga nisbatan sorbsiyalanishini ham oshiradi.

**Kalit so'zlar:** Paxta, oqsil, tola, modifikatsiya, adsorbsiya, ishlov berish, to'qimachilik materiallari, kimyoviy pardoqlash.

**Введение.** В настоящее время для химической отделки текстильных материалов широко используются природные биополимеры. Высшая структура белка берет свое начало из последовательности связей остаточных радикалов аминокислот, а именно: первичной структуры, и, кроме того, функции ферментативного действия, определяющей физико-химическую природу высокомолекулярных соединений.

Шелковый белок не представляет исключения из общего правила, вместе с тем, его можно рассматривать в качестве примера, ярко иллюстрирующего то значение, которое имеет специфичность как в высокомолекулярной первичной, так и в высшей структуре. Натуральный шелк включает в себя белковый, состоящий из двух видов протеинов (фибрина и серицина), и небелковый (углеводнолипидный и минеральный) компоненты [1].

**Анализ литературы.** Процесс кокономотания основан на растворении шелкового клея. На первом этапе переработки кокона, отварки шелка-сырца растворяются низкомолекулярные фракции шелкового клея, содержащие в большом количестве гидрофильные аминокислоты и фрагменты с низкой молекулярной массой [3]. В молекулу шелкового клея входят меньшая доля простых аминокислот глицина и аланина, но значительно большая доля оксиаминокислот – серина и треонина, а также дикарбоновых кислот (глутаминовой и аспарагиновой) и диаминокислоты лизина [4], окси-, дикарбоновых и диаминокарбоновых кислот, аминокислоты, имеющие сложные, громоздкие углеводородные радикалы, такие как аргинин, гистидин, тирозин. Вследствие этого боковые части полипептидной цепи макромолекулы шелкового клея содержат большое число функциональных полярных групп, которые обуславливают большую полярность и гидрофильность серицина. За счет указанных свободных карбоксильных и аминогрупп серицин может образовать устойчивые химические связи с окси- группами целлюлозы и будет прочно связан с волокном. Кроме того, между целлюлозным волокном и молекулой серицина возможно образование водородных связей между аминогруппами и карбоксильными группами боковых цепей серицина и карбонильными и гидроксил группами целлюлозы. Помимо водородных связей, между молекулами серицина и целлюлозы возможно образование ионной связи между ионизированной аминогруппой боковых цепей серицина и гидроксильными группами целлюлозы.

На основе вышеуказанных многими учеными ведутся исследовательские работы по применению природных белков для модификации текстильных материалов разными назначениями [5].

Методология исследования (Research Methodology). Объект исследования является хлопчатобумажная ткань Бязь с артикулом 142 предприятия «TASHTIB-TEX». Для эксперимента ткань был подготовлен непрерывным способом отварки. Модификация хлопчатобумажной ткани осуществлялся по следующей технологии. Подготовленная ткань пропитывалась с 0,5 -15 г/л водным раствором белка в течении 30 сек при комнатной температуре. После отжималась до 90-100% и подвергалась сушке при 105°C 10 мин.

Методика определения привеса после модификации. Для определения привеса находили абсолютно сухие массы исходного (б) и пропитанного образца (а) и рассчитывали по формуле

$$П = \frac{a-b}{b} \cdot 100\%$$

Пористо сорбционные свойства модифицированных образцов определялись в институте «Общей и неорганической химии Академии Наук Республики Узбекистан» по весовому методу на аппарате Мак-Бен. Весовой метод основан на определении изменения массы адсорбента в процессе адсорбции.

Сорбцию паров воды изучали при помощи пружинных вольфрамовых весов Мак – Бена с чувствительностью 1,5 мг/мм при 25±0,1 °С и остаточном давлении 10–5 мм рт.ст. Проводили 5 параллельных определений. Относительная ошибка измерения составляла 1,5%. Оценку величины радиусов пор проводили, согласно методике

**Анализ и результаты.** В сточных водах кокономотания, кроме растворенного белка, содержатся текстильно-вспомогательные вещества, незначительное количество жирно-восковых веществ и минеральные остатки, выделенные из оболочки кокона.

Характерным свойством водных растворов белка природного шелка является желатинизация, переход из состояния золя в гель.

Имея в виду вышеуказанные данные, диссертант исследовал способ химической модификации хлопчатобумажной ткани водным раствором белка природного шелка.

В экспериментах было изучено влияние концентрации белка на привес обработанных хлопчатобумажных тканей. По полученным результатам определено, что при обработке ткани 4 – 6 г/л -ными растворами белка привес повышается до 5%, хотя при этом смываемость его составляет от 2 до 3%.

Обработка 3г/л -ным раствором модификатора привес обработанного образца несколько выше 2%. В этом случае при определении смываемости белка получен более положительный результат – 0,2% по сравнению с другими вариантами модификации (рис. 1). С увеличением содержания модификатора в ткани жесткость несколько повышается.




Рис 1. Влияние концентрации белкового модификатора на привес/смываемость/содержание белка хлопчатобумажной ткани

Физико-механические свойства образцов хлопчатобумажной ткани в результате модификации повышаются. С повышением концентрации модификатора разрывная нагрузка повышается от 3,3 до 18,7 % по основе. Эти изменения по утку имеют более высокие показатели (рис.2).




Рис. 2. Влияние концентрации белкового модификатора на разрывную нагрузку хлопчатобумажной ткани (основа/уток)



Удлинения при разрыве увеличиваются в образцах, обработанных раствором концентрацией 5 г/л по основе, до 14 %. Необходимо отметить, что зависимость повышения прочности и удлинения незначительно с увеличением концентрации белка свыше 5 г/л (рис. 3).




Рис. 3. Влияние концентрации белкового модификатора на удлинение при разрыве хлопчатобумажной ткани: 1 – уток, 2 – основа

По полученным данным изучения модификации и физико-механическим свойствам ткани можно сделать вывод, что большое число свободных карбоксильных групп в боковых цепях белкового модификатора и наличие спиртовых групп в молекуле целлюлозы может привести к образованию ковалентной связи между белком и целлюлозой по типу сложноэфирной связи.

Проведены сорбционные исследования тканей модифицированных отличающимися белками.

Сорбционные свойства образцов модифицированной ткани беком А и исходной ткани близки, однако, у модифицированной ткани с белком Б эти показатели увеличиваются.

Сравнение изотермы сорбции паров воды тканей показало, что хлопчатобумажные ткани после процесса модификации с белками имеют высокие сорбционные свойства по сравнению с отваренной тканью.




Рис. 4. Изотерма сорбция пара воды при 25 °C образцов:

1 – исходная ткань; 2 – модифицированная х/б ткань белком А; 3 – модифицированная хлопчатобумажная ткань белком Б

Вследствие близости стенок микропор происходит резкое увеличение энергии взаимодействия адсорбата с адсорбентом за счёт перекрыwania полей адсорбционных сил. Это сказывается на изотерме: при малых относительных давлениях ( $< 0,1$ ) наблюдается резкий рост величины адсорбции (рис. 4), а затем она практически не меняется.

Согласно классификации типов изотерм адсорбции полученная изотерма модифицированных образцов относится к типу I: изотерма «ленгмюровского типа», для неё характерно прекращение роста величины адсорбции при малых и средних значениях относительного давления. Такой тип изотерм встречается в двух случаях:

- при протекании мономолекулярной адсорбции на макропористых адсорбентах, когда наблюдается сильное взаимодействие адсорбата с адсорбентом;

Таблица 3.14

Структурно-объемные свойства модифицированной хлопчатобумажной ткани

Показатели	Исходная ткань	Модифицированная ткань	
		А	Б
Емкость адсорбционного монослоя $a_m$ , mol/kg	0,580	0,780	1,340
Удельная поверхность $S_{уд}$ , m <sup>2</sup> /g	45,62	50,74	87,09
Объем микропор $W_0$	0,0211	0,0401	0,0621
Степень заполнения $\theta$	0,0481	0,0778	0,0929
Объем мезопор $W_p$	0,05	0,04	0,03
Радиус поры, А	32,9	30,7	21,3
пп	3,09	3,07	2,13

Высокая степень заполнения  $\theta$  на 0,03 и 0,05 у модифицированных образцов утверждается снижением объема мезопор  $W_p$  на 0,01 – 0,02 и радиуса пор на 2,2 – 11,1 Å по сравнению со значениями исходной ткани. По-видимому, это происходит из-за объемного заполнения пор целлюлозного волокна белками.

- при адсорбции на микропористых адсорбентах.

В отличие от первого случая при наличии микропор на изотерме будет наблюдаться крутой подъём в области малых значений относительного давления ( $P/P_s < 0,1$ ), что обусловлено высоким адсорбционным потенциалом [10; с. 15].

Согласно теории, разработанной Ирвингом Ленгмюром, предполагается, что молекула адсорбата может адсорбироваться на определённых свободных центрах адсорбции, имеющихся на поверхности твёрдого тела [10; с. 22 – 23].

Из табл. 1 можно увидеть увеличение удельной поверхности ( $S_{уд}$ ) модифицированных образцов белками природного шелка А на 5,12 и Б на 41,47 m<sup>2</sup>/g; чем выше удельная поверхность образцов, тем больше величина адсорбции.

В процессе модификации сорбция белка (при низких концентрациях) волокном происходит на его внешней и внутренней поверхностях и имеет одну природу. В основе этих явлений лежит межмолекулярное взаимодействие молекул белка с молекулами волокна.

**Выводы и предложения.** Изучением физико-механических свойств образцов хлопчатобумажных тканей, модифицированных белками натурального шелка установлено, что разрывная нагрузка и удлинение при разрыве существенно повышаются. Необходимо отметить, что лучшие качественные показатели достигаются при определенных от 3 до 4 г/л концентрациях модификатора.

Исходя от результатов сорбционного анализа, повышение адсорбции модифицированных образцов белками (А, Б) доказывает увеличение их активной поверхности по сравнению с немодифицированной х/б тканью, что способствует не только улучшению эксплуатационных свойств, но и повышению сорбции красителя волокном.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Lee ki Hoon. Makramol. Rapid. Silk sericin retards the erystallization of silk fibroin., Vol. 25. –2004. – №20. –Р 1792–1796.
2. Шарабидзе М.Р., Гогинови К.М. Модификация белковых волокон путем образования борных комплексов / Всероссийская научная конференция (с международным участием) «Успехи синтеза и комплексообразования». К 95-летию со дня рождения Н. С. Простакова. М., 23–27 апр., 2012. Тезисы докладов. Ч. I. Секция "Органическая химия". –М., 2012. –С. 293.
3. Полушин Е.Г., Козлова О.В., Захарченко А.С., Румянцева В.Е. /Ж.: «Технология текстильной промышленности». – 2019. –№3. –С. 48–52.
4. Яминова З.А., Ишматов А.Б.. Применение шелковых отходов в ткачестве. – Душанбе: ПРОМЭКСПО, 2018. – 167 с.
5. Chen Li-ping, Cui Ping, He Lan-zhi, Hong-lei. Отделка хлопковых тканей растворами кератина шерсти // Mao fang keji = Wool Text.J. Vol. 37. –2009. –№2. –Р. 20–22.
6. 13.08-19Ф.171. Свойства и регулируемое выделение экстракта алое из хлопковых волокон, модифицированных белком коллагена // Characterization and controlled release aloe extract of collagen protein modified cotton fiber. Xu Yunhui, Huang Chen, Wang Xiaoming. Carbohydr. Vol. 92. –2013. –№ 2. –С. 982-988.
7. Кодиров Т.Ж. Наноструктура коллагена. Монография. Ташкент: «Фан», 2015. –537 с.
8. Hai Yan Zhang Study on Preparation of Modified Cotton with Collagen/ J: Applied Mechanics and Materials. September. 2014. P: 480 – 483.
9. Дубинин М.М., Жуковская Е.Г. Исследование пористой структуры твердых тел сорбционными методами II. Сравнение различных методов вычисления распределения по размерам объемов и поверхности пор сорбентов на типичном экспериментальном материале// ЖФХ. –1956. –№8. –С. 1840–1851.
10. Гаврилова Н. Н. Анализ пористой структуры на основе адсорбционных данных. Уч. пос. / Гаврилова Н. Н., Назаров В. В. – М. : РХТУ им. Д. И. Менделеева, 2015. – 132 с.



UDC:1.17.172.172.2

*Azizbek SAMIJONOV,*  
*Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi*  
*E-mail: samijonova@gmail.com*

*Farg‘ona davlat universiteti dotsenti I.Asatulloev taqrizi asosida*

## KIBERXAVFSIZLIK TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kiberxavfsizlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari hamda uchinchi ming yillikda raqamlashtirish bilan bog‘liqlikda yuzaga kelayotgan xavf va tahdidlar tahlil qilingan. Shuningdek, Uchinchi ming yillikda raqamlashtirish bilan bog‘liqlikda yuzaga kelayotgan xavf va tahdidlardan himoyalanişning falsafiy omillari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Kiberxavfsizlik, xavfsizlik, axborot xavfsizligi, tahdid, kiber urush.

## СОДЕРЖАНИЕ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ПОНЯТИЯ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируются сущность и концептуальные основы концепции кибербезопасности, а также возникающие риски и угрозы, связанные с цифровизацией в третьем тысячелетии. Также анализируются философские факторы защиты от рисков и угроз, возникающих в связи с цифровизацией в третьем тысячелетии.

**Ключевые слова:** Кибербезопасность, безопасность, информационная безопасность, угроза, кибервойна.

## CONTENT AND CONCEPTUAL BASIS OF THE CONCEPT OF CYBERSECURITY

Annotation

This article analyzes the essence and conceptual foundations of the concept of cybersecurity, as well as emerging risks and threats associated with digitalization in the third millennium. It also analyzes the philosophical factors of protection against risks and threats arising in connection with digitalization in the third millennium.

**Key words:** Cybersecurity, safety, information security, threat, cyber war.

**Kirish.** Uchinchi ming yillikda raqamlashtirish bilan bog‘liqlikda yuzaga kelayotgan xavf va tahdidlardan himoyalaniş muammosi zamonaviy sharoitda alohida tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Axborot xavfsizligini ta‘minlash masalasiga qator tadqiqot ishlari bag‘ishlangan bo‘lib, hozirda ham mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga ilmiy adabiyotlar tahlili kiberxavfsizlikni ta‘minlash masalasini o‘rganishning metodologik jihatlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Ushbu nuqtai nazardan eng avvalo ko‘plab mualliflar tomonidan ta‘rif-tavsif berilgan “xavfsizlik”, “axborot xavfsizligi”, “kiberxavfsizlik”, atamalarining izohini aniqlashtirish zarur.

Umumiy, tabiiy va texnika fanlarida xavfsizlik hamda uning shakllari o‘z tabiatiga ko‘ra mustaqil yo‘nalishga ega. Siyosiy, iqtisodiy, ekologik, axborot, harbiy va boshqalarning xavfsizlik aspektlari ko‘pincha umumiy fanlar tomonidan ishlab chiqiladi. Umumiy nazariyani shakllanishida ularning har biri o‘z ulushini qo‘shadi. Umumiy nazariyani yaratish uchun obyektiv shart-sharoitlar quyidagilar:

1. Indivud, tashkilot, ijtimoiy guruh, jamiyat, davlat va dunyo hamjamiyati tomonidan xavfsizlik nuqtai nazaridan o‘zini saqlanishi va rivojlanishi uchun talabning qo‘yilishi;

2. Indivud va umuman insoniyatning muhim yashash obyektlarini tahdidlardan saqlash uchun xavfsizlik tizimini yaratilishi;

3. Ommaviy salbiy ta‘silarga qarshi tura oluvchi xavfsizlikning modernizatsiyalashtirilgan tizimini yaratish bilan bog‘liq.

Xavfsizlikning subyektivi sifatida inson qaralishi, uni obyektivi sifatida tabiat, texnika vositalar, ko‘chmas mulk, fuqarolarning huquqiy va qonuniy manfaatlari, jamiyat, davlat qaralishi mumkin. Bitta shaxsning o‘zi xavfning ham subyektivi ham obyektivi bo‘lishi mumkin.

“Chambers lug‘ati”da “xavfsizlik” tushunchasini “holat, xavfsizlikka keltiruvchi vositalar yoki sezgi” deb talqin qilingan. Mazkur tushuncha “besaranjomlilik, tashvishlilik”, “ishonch”, “barqarorlik”ning yo‘qolishi bilan bog‘lab tushuntirilgan[1].

Zamonaviy adabiyotlarda “xavfsizlik” tushunchasi obyektning o‘z funksiyalarini cheklashi va o‘zining ichki qonunlari asosida rivojlanadigan shart-sharoitlar va omillar tizimi sifatida ko‘rib chiqiladi[2]. Shuningdek, xavfsizlik indivud yoki jamiyatga xavf-xatar tug‘diruvchi shart-sharoit va omillardan himoyalaniş tarzida ham tavsif etiladi[3].

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish lozimki, “xavfsizlik” tushunchasiga berilgan ko‘plab ta‘riflar olimlar va amaliyotchilar tomonidan tanqidga uchramoqda. Bizningcha, ko‘plab ta‘riflarda aniqlik yetishmasligining asosiy sababi tushunchaga ta‘rif berishda xavfsizlikning dialektik ziddi hisoblangan xavfning hisobga olinmasligi bilan bog‘liq. Aynan xavf-xatarning yuzaga kelish sabablarini o‘rganish “xavfsizlik” tushunchasiga aniqroq ta‘rif berish imkonini beradi. G.A.Atamanov ta‘kidlab o‘tganidek, xavfsizlik uning hosilasi sifatida xavf-xatar bilan aloqadorlikda mazmun kasb etadi[4]. Muallifning fikricha, “xavfsizlik” ichki va tashqi ta‘silarning mavjudligi sharoitida tizimning hayotiy mavjudlik mexanizmining buzilishiga doir obyekt holatini ifoda etadi. Uning har qanday tahdidni xavf-xatar sifatida qabul qilishi o‘rinli bo‘lmaydi, xavfsizlik xavf-xatarni yengib o‘tish natijasida yuzaga keladi.

Rus olimi V.I. Dalning fikricha: “Xavfsizlik” atamasi – murakkab tushuncha bo‘lib, uning ma‘nosi intuitiv darajada xuddi tushunarlidek tuyuladi. “Xavfsizlik” tushunchasi insonlarning odatiy tasavvuriga ko‘ra subyektiv ma‘noga ega, ya‘ni xavfsizlik – subyektning unga zarar yetkazuvchi salbiy faktorlardan himoyalangan holatidir. Boshqacha

aytganimizda, “xavfsizlik” , “xavfning yo‘qligi” deb ta’riflanishi mumkin[5].

S.I.Ojegov ham xavf va tahdid tushunchalariga quyidagi izoh beradi: O‘z navbatida “xavfsizlik”ning antonimi “xavf, tahdid qilish, zarar yetkazish”dir[6], “tahdid” tushunchasi – mumkin bo‘lgan xavf, qo‘rqitish, kimgadir yomonlik qilish, zarar yetkazishdir[7].

Shunday qilib, “xavfsizlik” tushunchasini kimgadir, nimagadir xavf-xatarning yo‘qligi deb talqin qilish mumkin.

Bugungi kunda xavfsizlikning turli ta’riflari mavjud bo‘lib, ularning mualliflari turli mezonlarga asoslanadi. Ba’zan “xavfsizlik – holat, rivojlanishning an’analari va hayot faoliyatining shartlari...”[8] deb tasavvur qilishadi. Bundan tashqari, agar xavfsizlik innovatsiyalar progressini chegaralaydigan bo‘lsa, u holda u turg‘unlik faktoriga, konservatizmga, regressga olib kelishi mumkin. Xavfsizlik tizimi nafaqat son yoki sifat jihatdan o‘zgarishlarga to‘sqinlik qilishi, balki jamiyat va shaxs uchun zarar keltirmagan holda eski shakllarni oshib o‘tishga yordam qilishi lozim. Ko‘pchilik hollarda “xavfsizlik” tushunchasini “himoya”, “himoyalangan”, “himoya qilish” atamalarini orqali ochib berish uning ma’nosini toraytiradi deb hisoblashadi. Himoya qilish – nimanidir yopish, nimagadir to‘siq qo‘yish deb talqin qilinishi; u buyum, predmet, hodisa, qo‘riqlash, kimgadir, nimagadir to‘siq bo‘luvchi va nihoyat oddiy qilib aytganimizda to‘g‘ri va ko‘chma ma’noda qalqon deb atalishi mumkin. Zamonaviy ensiklopedik lug‘atlarda bu so‘z shu tariqa yoki shu tarzda talqin qilinadi. Lekin, biz xavfsizlikning muhim xossasi va funksiyasini bo‘lgan – xavf va tahdidni pasaytirish, bartaraf etish, ogohlantirishni adabiyotlarda atroflicha ochib berilgan talqinini uchratmadik. Xususan, “himoya qilish” so‘zining ma’nosi xavfsizlikning muhim funksiyasini aks ettiradi, lekin u tugallangan ma’noni bildirmaydi.

Ko‘pchilik adabiyotlarda “xavfsizlik”ka “zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarning yo‘qligi” deb ta’rif berilgan. Asos sifatida olinishi mumkin bo‘lgan bu ta’riflar, xavfsizlikni ta’minlashning ikkita tamoyilini o‘zida aks ettiradi.

Birinchi ta’rifdan kelib chiqadigan tamoyil – xavfsizlikni ta’minlash bo‘lib, u sifat jihatidan xavfsizlikni ta’minlash mezoniga asoslanadi. Ushbu mezon ikkita qiymatni qabul qilishi mumkin: 1 (xavfsizlik ta’minlanadi) yoki 0 (xavfsizlik ta’minlanmaydi). Agar xavfsizlik holati baholanayotganda shaxs, jamiyat va davlat uchun muhim bo‘lgan manfaatlar himoyalangan degan xulosaga kelinsa, u holda xavfsizlikni ta’minlanish mezonini 1 ga teng deb hisoblanadi hamda xavfsizlik ta’minlanayapti degan qarorga kelinadi. Shu bilan birga “to‘liq” xavfsizlik ta’minlanmoqda deb faraz qilinsa, u holda hodisadan zarar yetkazilish mumkin bo‘lgan imkoniyat yo‘qqa chiqariladi. Agar xavfsizlik holati baholanayotganda shaxs, jamiyat va davlat uchun muhim bo‘lgan manfaatlar himoyalangan degan xulosaga kelinsa, u holda xavfsizlikni ta’minlanish mezonini 0 ga teng deb hisoblanadi hamda xavfsizlik ta’minlanmayapti degan qarorga kelinadi.

Ikkinchi ta’rifdan kelib chiquvchi xavfsizlikni ta’minlash tamoyili, “to‘liq” xavfsizlik ta’minlanishi mumkin emas degan farazga asoslanib, zarar yetishi bilan bog‘liq bo‘lgan holat har doim mavjud taxminiga tayanadi. Shunday qilib, dunyoning turli madaniyatlarida xavfsizlik va tahdid haqida umuman olganda bir xil tasavvurlar shakllangan, unda shaxsning hozirgi va kelajakdagi holati bilan bog‘liq sezgi va qayg‘urishlariga urg‘u berilgan.

Ya’ni, inson uchun xavfsizlik - birinchi navbatda turli ko‘rinishdagi xavfli harakatlardan himoyalanganligini bilishi va sezishidir.

**Muhokama va natijalar.** Tahlillar natijasida quyidagi ta’rifni keltiramiz: shaxs xavfsizligini ta’minlash yoki tahdidni bartaraf etish – jamoatchilik ongining holati sifatida qaralib,

unda yaxlit jamiyat va alohida shaxs hayotning mavjud sifat darajalari ishonchli deb qabul qilinadi. Chunki, u fuqarolarga hozirgi tabiiy hamda ijtimoiy talablarini qondirishi uchun real imkoniyatlar va kelajakka asosli ishonchni beradi.

Ba’zan hayot faoliyati bilan jarayonlarni xavfsizlikni ta’minlashni boshqarishda “xavfsizlik” atamasini o‘zi ishlatilmasdan, ba’zan murakkab atamalar ishlatiladi va unda “xavfsizlik” atamasi tashkil etuvchi bo‘lib xizmat qiladi. Atamalarining tashkil etuvchi qismi sifatida quyidagilar ham qaralishi mumkin:- hayot faoliyati subyektlari – shaxs, shaxs xavfsizligi, jamiyat, jamiyat xavfsizligi, davlat, davlat xavfsizligi;- hayot faoliyati obyektlari – subyektlarning muhim hayotiy manfaatlarini qoniqtirishni ta’minlash: hudud, hudud xavfsizligi; iqtisod, iqtisodiy xavfsizlik; atrof muhit, atrof muhit xavfsizligi va boshqalar;- obyektlar – xavf manbalari: atrof muhit – atrof muhitning ekologik xavfsizligi, sanoat obyekti – sanoat obyektining xavfsizligi, bank – bank xavfsizligi va boshqalar;- obyektlar – xavfsizlik vositalari: samolyot – samolyotning xavfsizligi; avtomobil – avtomobilning xavfsizligi; umuman texnika xavfsizligi; - hayot xavfsizligi jarayoni: mehnat – mehnat xavfsizligi, yo‘l harakati – yo‘l harakati xavfsizligi va boshqalar.

Mamlakat hamda uning fuqarolari, jamiyat va davlatning muhim mafaatlari tashqi va ichki xavflardan himoyalash uchun har bir davlatda xavfsizlikni ta’minlash tizimi tuzilgan bo‘ladi, unda asosiy element sifatida xavfsizlik obyektlari hamda xavfsizlik subyektlari tarkibi kiritilgan bo‘ladi.

Umuman olganimizda, etimologiyaga ko‘ra xavfsizlik so‘zi xavfning yo‘q ekanligini bildiradi. Bu so‘zning tashkil etuvchisi – xavf so‘zidir. Bundan “xavfsizlik” tushunchasini ma’nosini asoslash uchun unga teskari bo‘lgan “xavf” yoki “tahdid” tushunchasini tadqiq etish lozim bo‘ladi. “Xavf” tushunchasining paydo bo‘lishi salbiy faktorlar bilan bog‘liq, ya’ni uning natijasida insonlarda ularning hayoti va sog‘lig‘ini saqlashdagi xuquqi buziladi, tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalarida esa - tashkilot va ishlab chiqarish korxonasining mavjudligi va rivojlanishi butunlay to‘xtashi mumkin. Shunday qilib, “xavfsizlik” va “xavf” tushunchalarining shakllanishi bevosita insonlar va tashkilotlarning kundalik hayoti hamda faoliyati jarayonida “rejalashtirilmagan” ziyon yetkazish bilan bog‘liq.

Ko‘pchilik obyektlar (subyektlar)ning xavfsizligi, jamiyat hayot faoliyatining barcha sohalarida muhim tarkibiy tuzilma bo‘lib – faoliyat hisoblanadi, uning predmeti (yoki mahsuloti) esa axborotdir. Ushbu obyektlar yoki subyektlarga nisbatan xavfning bo‘lishi, axborot xavfsizligi haqida fikr yuritishga asos bo‘ladi. Ma’lumki xavfning barcha ko‘rinishlari mos axborot jarayonlari bilan bog‘liq. Shunday qilib, axborot xavfsizligi axborot sohasini tavsiflab, u birgalikda jamiyat munosabatlarini tashkil etadi va shaxs, jamiyat hamda davlat obyektlari sifatida axborot va axborot infratuzilmalari bilan bevosita bog‘liq[9].

Kiberxavfsizlik muammosi ham yorqin ifodalangan axborot tavsifiga ega[10]. Bu holatlar kuchli fuqarolik jamiyatini qurish vazifasi bilan birga, axborotlarning ahamiyatini o‘sishi, davlat va fuqarolik jamiyatida axborot resurslari hamda texnologiyalarini rivojlanishi natijasida milliy xavfsizlikni ta’minlashda axborot xavfsizligini ta’minlashni birinchi darajali masalaga aylantiradi.

Ma’lumki, milliy xavfsizlik ikkita ko‘rinishda amalga oshiriladi: jamoatchilik va davlat darajasida, ular ham o‘z navbatida xavf manbaasiga qarab, ichki va tashqi ko‘rinishga bo‘linadi. Shaxs xavfsizligi birinchi darajali bo‘lib, u davlat va fuqarolik jamiyati xavfsizligini muayyan qilib qo‘yadi.

Axborot yoki ma’lumotlarni shaxsga ta’sirini o‘tkazuvchi asosiy manbalar sifatida umumiy holda quyidagilarni keltirish mumkin: - davlat va uni (xorijiy ham bo‘lishi mumkin) boshqaruvchi organlar hamda boshqa davlat

tuzilmalari; - jamiyat, turli jamoatchilik tashkilotlari, iqtisodiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, shu bilan birga xorijiy ham bo'lishi mumkin; - turli ijtimoiy guruhlar (rasmiy va norasmiy, yashash joyiga qarab katta yoki kichik va boshqalar); - alohida shaxslar, davlat va jamoatchilik tuzilmalaridagilar ham bo'lishi mumkin va boshqalar; - rasmiy va norasmiy turli diniy tuzilmalar, oshkor yoki yashirin.

Shaxsga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy axborot vositalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: - ommaviy axborot kommunikatsiyalari: axborot tizimlari, masalan televideniye, radio, internet va boshqalar; - adabiyotlar: badiiy, ilmiy-texnikaviy, siyosiy, maxsus va boshqalar; - san'at: turli yo'nalishlardagi, shu bilan birga "ommaviy madaniyat"ni targ'ib etuvchi va boshqalar; - ta'lim va tarbiya: maktabgacha, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb-hunar hamda oliy ta'lim va boshqalar; - shaxsiy muloqot.

Da'vat etuvchi axborotlar – axborot subyekting (manba) ongli ravishdagi harakatlari bo'lib, aniq ijtimoiy

obyektga (shaxs, ijtimoiy guruh, jamoatchilik instituti va boshqalar) o'z ta'sirini o'tkazish majburiyatini olgan holda, aniq belgilangan maqsad asosida faoliyat yuritishi mumkin. Da'vat etuvchi axborotlar ijobiy yoki salbiy bo'lishi, masalan, da'vat etuvchi axborotlar salbiy bo'lsa, uning faoliyati obyekt mafaatlariga zid kelib, uni izdan chiqarishi mumkin. Bu harakatlar oshkor yoki yashirin bo'lib, ruhiy jihatdan obyektga ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa.** Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, shunday xulosaga kelish mumkin: xavfsizlik tizimning xavf-xatarlarga qarshi kurashish imkoniyatiga egaligi, shuningdek, o'z rivojining yuqori darajasini egallash qobiliyatidir. Bizningcha, xavfsizlik istalgan obyektning mavjudligi tavsifini, mazkur obyektning o'z qadriyatlarini, maqsadlarini, qiziqishlarini himoya qilish, boshqacha aytganda, tizimning mavjudligini ta'minlovchi asoslarga, tahdid soluvchi kuchlarga qarshi kurashish qobiliyatidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Jon Lackie. Chambers Dictionary of science and technology. – Edinburgh: Chambers, 2007. – Pp 268.
2. Заплатинский В. М. Терминология науки о безопасности. Zbornik prispevkov z medzinarodnej vedeckej konferencie «Bezpečnostna veda a bezpečnostne vzdelanie». – Liptovsky Mikulas: AOS v Liptovskom Mikulasi, 2006. – С.78-80.
3. Дзлиев М.И., Романович А.Л., Урсул А.Д. Проблемы безопасности: теоретико-методологические аспекты. – Москва: МГУК, 2001. – С.9.
4. Атаманов Г. А. Информационная безопасность: сущность и содержание // Бизнес и безопасность в России. – 2007. – № 47. – С. 106.
5. Даль В.И. Толковый словарь великорусского языка. –М.: 2002. –С.67
6. Ожегов С.И. Словарь русского языка. -М.: -1990. С.38.
7. Ожегов С.И. Словарь русского языка. -М.: -1990. С.39.
8. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: Теория и технология психологической защиты. Дис. док.пси. наук. - М.: 2000, -С. 13.
9. Стрельцов А.А. Теоретические и методологические основы правового обеспечения информационной безопасности России: Дис. док. юрид.наук. –М.:, 2004, -С. 39
10. Лопатин В.Н. Информационная безопасность России: Дис. д-ра юрид. наук. – Санкт-Петербург, 2000, -С. 3.



**Sanobar SOBIROVA,**  
*Urganch davlat universiteti o'qituvchisi*  
*E-mail: sanobar@mail.ru*  
*PhD, dotsent O.Gilijova taqrizi asosida*

## THE ROLE OF PHYSICAL EDUCATION IN STRENGTHENING THE MENTAL HEALTH OF ADOLESCENTS

Annotation

Physical education has long been recognized as essential for promoting physical health, but its effects on mental well-being, especially among adolescents, are equally profound. This article examines the role of physical education in promoting mental health by reducing stress, anxiety, and depression, while improving self-esteem, emotional regulation, and cognitive function. Adolescence is characterized by significant emotional, social, and psychological changes that make mental health interventions crucial. Physical activity in PE provides convenient and effective means of solving these problems, offering a holistic approach to adolescent development. The paper also discusses barriers to effective implementation, such as resource constraints and social stigma, and calls for prioritizing physical education in educational settings to support mental health.

**Keywords:** Physical education, mental health, adolescents, stress reduction, self-esteem, cognitive function, anxiety, depression, emotional regulation, well-being.

## РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В УКРЕПЛЕНИИ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ ПОДРОСТКОВ

Аннотация

Физическое воспитание уже давно признано необходимым для укрепления физического здоровья, но его влияние на психическое благополучие, особенно среди подростков, столь же глубоко. В этой статье рассматривается роль физического воспитания в укреплении психического здоровья путем снижения стресса, тревоги и депрессии, а также улучшения самооценки, эмоциональной регуляции и когнитивных функций. Подростковый возраст характеризуется значительными эмоциональными, социальными и психологическими изменениями, которые делают меры вмешательства в области психического здоровья крайне важными. Физическая активность в физкультуре обеспечивает удобные и эффективные средства решения этих проблем, предлагая целостный подход к развитию подростков. В документе также обсуждаются препятствия на пути эффективной реализации, такие как ограниченность ресурсов и социальная стигма, и содержится призыв к уделению приоритетного внимания физическому воспитанию в образовательных учреждениях для поддержки психического здоровья.

**Ключевые слова:** Физическое воспитание, психическое здоровье, подростки, снижение стресса, самооценка, когнитивная функция, тревога, депрессия, эмоциональная регуляция, благополучие.

## O'SMIRLARNING RUHIY SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHDA JISMONIY TARBIVANING O'RNI

Annotatsiya

Jismoniy tarbiya uzoq vaqtdan beri jismoniy salomatlikni mustahkamlash uchun zarur deb hisoblangan, ammo uning ruhiy farovonlikka ta'siri, ayniqsa o'smirlar orasida, bir xil darajada chuqurdir. Ushbu maqola stress, tashvish va depressiyani kamaytirish orqali ruhiy salomatlikni mustahkamlashda jismoniy tarbiya rolini o'rganadi, shu bilan birga o'z-o'zini hurmat qilish, hissiy tartibga solish va kognitiv funktsiyani yaxshilaydi. O'smirlar davri sezilarli hissiy, ijtimoiy va psixologik o'zgarishlar bilan ajralib turadi, bu esa ruhiy salomatlik choralari hal qiluvchi ahamiyatga ega qiladi. PE'dagi jismoniy faollik ushbu muammolarni hal qilishning qulay va samarali vositalarini ta'minlaydi, o'smirlar rivojlanishiga yaxlit yondashuvni taklif qiladi. Hujjat, shuningdek, resurslarni cheklash va ijtimoiy stigmalarni kabi samarali amalga oshirishdagi to'siqlarni muhokama qiladi va ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash uchun ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyaga ustuvor ahamiyat berishga chaqiradi.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy tarbiya, ruhiy salomatlik, o'smirlar, stressni kamaytirish, o'z-o'zini hurmat qilish, kognitiv funktsiya, tashvish, depressiya, hissiy tartibga solish, farovonlik.

**Kirish.** O'smirlarlik – bu tez jismoniy, hissiy va kognitiv o'zgarishlar bilan tavsiflangan rivojlanishning muhim davri. Ushbu o'tishlar ko'pincha ruhiy salomatlik muammolariga, jumladan, tashvish, depressiya va stressga nisbatan zaiflikning kuchayishiga olib keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ruhiy kasalliklar butun dunyo bo'ylab o'smirlar orasida kasallik va nogironlikning asosiy sabablaridan biridir. O'smirlarning ruhiy salomatligi bilan bog'liq tashvishlar kuchayganligi sababli, hissiy farovonlikni qo'llab-quvvatlaydigan yaxlit, klinik bo'lmagan aralashuvlarni o'rganish zarurati tug'iladi. Bunday tadbirlardan biri jismoniy tarbiya (PE) bo'lib, u an'anaviy ravishda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish uchun muhim deb hisoblanadi, lekin uning ruhiy salomatlikka qo'shgan hissasi tobora ko'proq e'tirof etiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jismoniy tarbiya nafaqat jismoniy foyda keltiradi; u hissiy barqarorlikni ta'minlaydi, o'z-o'zini hurmat qilishni oshiradi va kognitiv funktsiyani yaxshilaydi. Strukturaviy jismoniy faoliyat orqali o'smirlar stress, tashvish va depressiya belgilarining kamayishini boshdan kechirishlari mumkin. O'smirlar duch keladigan noyob psixologik bosimlarni hisobga olgan holda, jismoniy tarbiya dasturlariga ruhiy salomatlik masalalarini kiritish yanada chidamli va hissiy jihatdan muvozanatli shaxslarni yaratishda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Ushbu maqola jismoniy tarbiya va ruhiy salomatlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi, o'smirlarlik davrida hissiy farovonlik va aqliy chidamlilikni oshirishda PEning rolini ta'kidlaydi. Ushbu aloqani tushunib, o'qituvchilar, siyosatchilar va ota-onalar jismoniy faollik orqali o'smirlarning ruhiy salomatligini yaxshiroq qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Jismoniy tarbiya va ruhiy salomatlik: nazariy asos

Jismoniy tarbiyaning aqliy salomatlikdagi afzalliklarini bir nechta nazariy modellar orqali tushunish mumkin:

**Biopsikosozial model:** Ushbu model salomatlikni aniqlashda biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlaydi. PE ijtimoiy o'zaro ta'sirni, psixologik barqarorlikni va biologik farovonlikni rivojlantiradi, ruhiy salomatlik uchun kompleks yondashuvni yaratadi.

**Neyrobiologik nuqtai nazar:** Jismoniy faollik kayfiyatni yaxshilash va stressni kamaytirish bilan bog'liq bo'lgan endorfin va serotonin ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Muntazam jismoniy faoliyat bilan shug'ullanadigan o'smirlar ko'pincha yaxshi hissiy tartibga solish va kayfiyatni barqarorlashtirishni boshdan kechiradilar.

**Kognitiv xulq-atvor nazariyalari:** Bular jismoniy tarbiya kognitiv qayta qurish shakli bo'lib xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatadi, o'smirlarga ijobiy o'z-o'zini gapirishga yordam beradi, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshiradi va stressni boshqarishga yordam beradi.

Jismoniy tarbiyaning stress va tashvishlarni kamaytirishga ta'siri

O'smirlar akademik bosim, ijtimoiy qiyinchiliklar va hissiy notinchlikka duch kelishadi, bularning barchasi stress va tashvish darajasini oshiradi. Jismoniy tarbiya ushbu stress omillarini boshqarish uchun sog'lom vositadir. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki:

**Aerobik mashqlar:** PE darslarida yugurish, suzish yoki velosipedda yurish kabi aerobik mashg'ulotlar bilan shug'ullanish kortizol (stress gormoni) darajasining pasayishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, tananing tashqi bosimlarga dosh berish qobiliyatini oshiradi.

**Harakatdagi onglilik:** PE dasturlariga kiritilgan yoga yoki cho'zish kabi mashg'ulotlar ongni rivojlantiradi, bu o'smirlarga o'z fikrlari va his-tuyg'ularini yaxshiroq boshqarishga yordam beradi va tashvishlarni kamaytiradi.

O'z-o'zini hurmat qilish va ijtimoiy ko'nikmalarni oshirish

PEning eng muhim psixologik afzalliklaridan biri bu o'z-o'zini hurmat qilishni oshirishdir. O'smirlar ko'pincha shakllanish davrida tana qiyofasi va o'zini o'zi qadrlash bilan kurashadilar. Jismoniy tarbiya tananing ishonchini oshiradi va o'z-o'zini hurmat qilishni oshiradi:

**Ko'nikmalarni rivojlantirish:** Sport yoki fitness mashg'ulotlarida yangi jismoniy ko'nikmalarni o'zlashtirish o'smirlarning o'zini qobiliyatli his qilishiga yordam beradi, bu esa o'ziga ishonchini oshirishga olib keladi.

**Ijobiy ijtimoiy o'zaro ta'sirlar:** PE ko'pincha jamoaviy faoliyatni o'z ichiga oladi, bu esa tengdoshlar o'rtasida muloqot, hamkorlik va ijtimoiy aloqani kuchaytiradi. Ushbu ijobiy ijtimoiy tajribalar hissiy farovonlikni yaxshilashga va yolg'izlik yoki izolyatsiya hissini kamaytirishga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya depressiyani kamaytirish vositasi sifatida

Depressiya o'smirlar orasida tobora keng tarqalgan bo'lib, ko'pincha akademik bosim, tengdoshlar bilan munosabatlar va o'z-o'zini hurmat qilish muammolari kabi omillar bilan bog'liq. Jismoniy faollik depressiya alomatlarini quyidagi yo'llar bilan kamaytirishi ko'rsatilgan:

**Neyrokimyoviy o'zgarishlar:** Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida muntazam ishtirok etish kayfiyatni tartibga

solishda muhim bo'lgan serotonin va dopamin, neurotransmitterlarning chiqarilishini oshiradi. Jismoniy faollik bilan muntazam shug'ullanadigan o'smirlar, kamroq faol tengdoshlariga qaraganda, depressiya alomatlarini kamroq ko'rsatadi.

**Muvaffaqiyat hissi:** PEda shaxsiy fitness maqsadlarini belgilash va ularga erishish muvaffaqiyat va maqsad tuyg'usini shakllantirishga yordam beradi, ko'pincha depressiya bilan bog'liq umidsizlik tuyg'ulariga qarshi turadi.

Jismoniy tarbiyaning kognitiv va akademik foydalari

Jismoniy tarbiya nafaqat aqliy salomatlikka, balki kognitiv funktsiyaga ham hissa qo'shishi haqida ko'proq dalillar mavjud. O'smirlar davrida muntazam jismoniy faoliyat quyidagilar bilan bog'liq:

**Kengaytirilgan konsratsiya va xotira:** Jismoniy mashqlar miyaga qon oqimini oshiradi, xotirani saqlash va konsratsiya kabi kognitiv jarayonlarni yaxshilaydi. Bu, o'z navbatida, yaxshi akademik natijalarga olib kelishi mumkin.

**Stressni boshqarish:** PEda ishtirok etayotgan o'smirlar stressni boshqarish qobiliyatlarini haqida xabar berishadi, bu ularning akademik samaradorligiga ijobiy ta'sir qiladi va test tashvishlarini kamaytiradi.

Aniq foydalarga qaramay, bir qator to'siqlar o'smirlarning ruhiy salomatligini mustahkamlashda PEning samarali integratsiyasiga to'sqinlik qiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

**Ogohlikning yo'qligi:** Maktablar va o'qituvchilar ko'pincha jismoniy tarbiyadan ko'ra akademik yutuqlarni birinchi o'ringa qo'yishadi va uning ruhiy salomatlikdagi rolini kam baholaydilar.

**Resurslarning etarli emasligi:** Ko'pgina maktablarda yuqori sifatli jismoniy tarbiya dasturlarini taqdim etish uchun zarur infratuzilma yoki o'qitilgan jismoniy tarbiya o'qituvchilari yo'q.

**Ijtimoiy stigmalar:** Ba'zi o'smirlar jismoniy faollik sharoitida, ayniqsa tana qiyofasi bilan bog'liq muammolar bilan kurashadigan yoki sportga kamroq moyil bo'lganlarda o'zini o'zi anglash yoki stigmatizatsiya qilishlari mumkin.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jismoniy tarbiya o'smirlarning ruhiy salomatligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi va jismoniy tayyorgarlikdan tashqari keng ko'lamli foyda keltiradi. O'smirlar davri sezilarli hissiy va psixologik o'zgarishlar davri bo'lganligi sababli, tuzilgan jismoniy faoliyatni maktab o'quv dasturiga kiritish stressni kamaytirish, tashvishlarni boshqarish va kayfiyatni barqarorlashtirish uchun qimmatli vositadir. Jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanish nafaqat o'z-o'zini hurmat qilish va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi, balki kognitiv faoliyat va akademik natijalarni yaxshilashga yordam beradi.

Ushbu afzalliklarga qaramay, resurslarning etishmasligi, ijtimoiy stigmalar va etarli darajada xabardorlik kabi muammolar ruhiy salomatlik ehtiyojlarini qondiradigan samarali PE dasturlarini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Jismoniy tarbiyaning aqliy farovonlikni oshirish vositasi sifatidagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun o'qituvchilar va siyosatchilar uni o'smirlar rivojlanishining asosiy jihati sifatida birinchi o'ringa qo'yishlari kerak. Maqsadli sa'y-harakatlar va uning afzalliklarini kengroq anglash bilan jismoniy tarbiya yoshlarning ham jismoniy, ham ruhiy chidamliligini oshirish, ularni sog'lom, muvozanatli hayotga tayyorlashda poydevor bo'lishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

- Biddle, S. J., & Asare, M. (2011). Physical activity and mental health in children and adolescents: A review of reviews. *British Journal of Sports Medicine*, 45(11), 886-895. <https://doi.org/10.1136/bjsports-2011-090185>
- World Health Organization. (2021). Adolescent mental health. Retrieved from <https://www.who.int/news-room/factsheets/detail/adolescent-mental-health>

3. Lubans, D. R., Smith, J. J., Peralta, L. R., Plotnikoff, R. C., Okely, A. D., Salmon, J., & Morgan, P. J. (2016). A meta-analysis of the impact of physical activity interventions on mental health outcomes in children and adolescents. *Preventive Medicine*, 87, 36-49. <https://doi.org/10.1016/j.ypmed.2016.02.037>
4. Strong, W. B., Malina, R. M., Blimkie, C. J., Daniels, S. R., Dishman, R. K., Gutin, B., ... & Trudeau, F. (2005). Evidence-based physical activity for school-age youth. *The Journal of Pediatrics*, 146(6), 732-737. <https://doi.org/10.1016/j.jpeds.2005.01.055>
5. Eime, R. M., Young, J. A., Harvey, J. T., Charity, M. J., & Payne, W. R. (2013). A systematic review of the psychological and social benefits of participation in sport for children and adolescents: Informing development of a conceptual model of health through sport. *International Journal of Behavioral Nutrition and Physical Activity*, 10(1), 98. <https://doi.org/10.1186/1479-5868-10-98>
6. Hillman, C. H., Erickson, K. I., & Kramer, A. F. (2008). Be smart, exercise your heart: Exercise effects on brain and cognition. *Nature Reviews Neuroscience*, 9(1), 58-65. <https://doi.org/10.1038/nrn2298>
7. U.S. Department of Health and Human Services. (2018). *Physical Activity Guidelines for Americans* (2nd ed.). Washington, DC: U.S. Department of Health and Human Services.
8. Janssen, I., & LeBlanc, A. G. (2010). Systematic review of the health benefits of physical activity and fitness in school-aged children and youth. *International Journal of Behavioral Nutrition and Physical Activity*, 7(1), 40. <https://doi.org/10.1186/1479-5868-7-40>
9. Tomporowski, P. D., Davis, C. L., Miller, P. H., & Naglieri, J. A. (2008). Exercise and children's intelligence, cognition, and academic achievement. *Educational Psychology Review*, 20(2), 111-131. <https://doi.org/10.1007/s10648-007-9057-0>





*Xabib SODIKOV,*  
*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi*  
*E-mail: xabibsodikov@gmail.com*

*BuxMTI professori, p.f.d F.R.Muradova taqrizi asosida*

## TEKNIKA YO'NALISHDAGI BAKALAVRIAT TALABALARINING ISHLAB CHIQARISHDA IJTIMOY-AMALIY TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH

Аннотация

Maqolada texnika yo'nalishdagi bakalavriat talabalarining ishlab chiqarish korxonalariga ijtimoiy-amaliy tayyorgarligini shakllantirish modeli mazmuni yoritilgan. Modellashtirishning mazmun mohiyati ochib berilgan bo'lib undagi bloklar va komponentlarga alohida urg'u berilgan. Pedagogik tadqiqotlarda modellashtirishning samaradorligi mazmuni yoritilgan. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlikni shakllantirish uslubiyoti haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Texnika, bakalavr, ijtimoiy-amaliy, kasbiy, pedagogik, tahlil, tayyorlik, tizimli, kasbiy, ta'lim, talaba.

## ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ БАКАЛАВРИАТА ТЕХНИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА

Аннотация

Статья освещает содержание модели формирования социально-практической подготовки студентов бакалавриата технического направления для работы на производственных предприятиях. Раскрыта сущность моделирования, с особым акцентом на блоки и компоненты модели. Описано содержание эффективности моделирования в педагогических исследованиях. Приведены данные о методике формирования готовности студентов технических высших учебных заведений к социальной и практической адаптации в производстве.

**Ключевые слова:** Техника, бакалавр, социально-практическая, профессиональная, педагогическая, анализ, готовность, системный, профессиональный, образование, студент.

## FORMATION OF SOCIAL-PRACTICAL PREPARATION OF UNDERGRADUATE STUDENTS IN THE TECHNICAL FIELD FOR INDUSTRIAL PRODUCTION.

Annotation

The article covers the content of the model for forming the social-practical preparation of undergraduate students in the technical field for industrial enterprises. The essence of modeling is revealed with a special emphasis on the blocks and components of the model. The content of the effectiveness of modeling in pedagogical research is highlighted. Information is provided on the methodology for forming the readiness of students from technical higher educational institutions for social and practical adaptation in production.

**Key words:** Technical, undergraduate, social-practical, professional, pedagogical, analysis, readiness, systematic, professional, education, student.

**Kirish.** Texnika yo'nalishdagi bakalavriat talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlik jarayonining mazmunini tahlil qilish, shuningdek, kelajakdagi muhandislik kadrlari tayyorgarligining mohiyati va tuzilmasi texnika oliy ta'lim muassasalari talabaiat talabalari ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirish jarayonida pedagogik faoliyatni modellashtirish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Modellashtirish usuliga murojaat qilish zarurati texnika oliy ta'lim muassasalari talabaiat talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlik jarayonining murakkabligi, ko'p qirrali va uzoq davom etishi bilan bog'liq bo'lib, maqsaddan rejalashtirilgan natijaga yetish yo'lini aniq tushunishni talab etadi.

Modellashtirish bugungi kunda ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llanmoqda. Modellashtirish usuliga bunday katta e'tibor qaratilishining sababi shundaki, bu usul "avvalgilarni tahlil qilish va kelajakni bashorat qilish orqali hozirgi rivojlanishga hissa qo'shishga imkon beradi".

Modellashtirish "ilmiy tadqiqotlar usuli bo'lib, turli obyektlar, jarayonlar va hokazolarni tadqiq etish maqsadida ular modellarini yaratish orqali, tadqiqot obyektining asosiy ajratilgan xususiyatlarini saqlab qolish" deb atash mumkin. Modellashtirish ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning boshqa

usullaridan pedagogik obyektini bilvosita o'rganish orqali ajralib turadi. Modellashtirish usulining ilmiy ma'nosi pedagogik obyekt (jarayon, hodisa va hokazo) haqida zaruriy ma'lumotlarni o'rganish orqali olishdan iborat bo'lib, u ushbu obyektidagi g'oyaviy (tafakkuriy) shaklni takrorlaydi. Shu munosabat bilan, modellashtirish jarayonining mohiyatini belgilovchi va uning natijasi hisoblangan narsa - modeldir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Begimqulov U.Sh., Muslimov N.A., Ismailova Z.K., pedagogikadagi modelni «fikran tasavvur etilgan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim, u asl tizimning ba'zi muhim xususiyatlarini shunday o'rinbosarlik va o'xshashlik munosabatida takrorlaydiki, uni o'rganish asl nusxa haqidagi bilimlarni bilvosita olish usuli bo'lib xizmat qiladi» deb ta'riflaydi [2].

Modellarning amaliy faoliyatdagi ahamiyati shundaki, olim va amaliyotchi model yaratish orqali pedagogik jarayonlarni oldindan ko'ra olish, loyihalashtirish, qayta shakllantirish va oxir-oqibatda ular ustidan boshqaruvni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishadi, pedagogik g'oyalarni ilmiy sohadan amaliyotga o'tkazadilar.

Pedagogik tadqiqotlarda modellashtirishning samaradorligi bir qator talablarga rioya qilinishiga bog'liq bo'lib, ular orasida quyidagilar mavjud:

- ilmiy asoslanganlik, ya'ni modelni ishlab chiqishda asosiy metodologik yondashuvlar, nazariyalar, kontseptsiyalar va qoidalarni qo'llash;

- modelning pedagogik obyektga (jarayon, hodisa va h.k.) yo'naltirilganligi, bu modelning turi va uning struktura xususiyatlarini belgilaydi;

- model komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, o'zaro bog'lanish va o'zaro qaramliklarni hisobga olish va ko'rsatish zaruriyati;

- modelda modellashtirilayotgan jarayonning yaxlitligini, shuningdek, uning amalga oshish shartlarini aks ettirish;

- modelning faoliyat ko'rsatadigan muhit xususiyatlariga mos kelishi;

- belgilangan maqsadga erishishni bashorat qilish imkoniyati va boshqa talablar [1].

Ushbu talablar har qanday turdagi pedagogik modelni ishlab chiqishda yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Ular orasida quyidagi modellarning turlari ajratiladi:

- mazmuniy (model obyekt, jarayoni, hodisasining mazmuni modellashtirish obyekt bo'lib xizmat qiladi);

- strukturaviy (modellashtirish obyekt sifatida obyektning tuzilmasi, komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar bilan birgalikda tadqiq qilinadi);

- funksional (modellashtirish obyekt sifatida pedagogik jihatdan muhim bo'lgan vazifalar va ularning obyekt (jarayon, hodisa va h.k.) bilan bog'liqligi tadqiq qilinadi);

- "kvazitip" (struktura-mazmuniy, struktura-funksional, funksional-mazmuniy modellar bo'lib, pedagogik modellashtirishning ikki tomonlama obyekt mavjud) [3].

Pedagogik modelni ishlab chiqishda asosiy qoidalar ko'plab tadqiqotlarda ifodalangan. Oliy ta'lim jarayoniga nisbatan pedagogik modelni ishlab chiqish g'oyalari to'g'ridan-to'g'ri Begimqulov U.Sh. [2], Muslimov N.A. [4], Ismailova Z.K. [5], O'rinov U.A. [6] va boshqalar ishlab chiqqan.

Tayyorlikning nazariy asoslangan tuzilmasi va pedagogik modellashtirish talablari asosida Texnika oliy ta'lim muassasalari talabaiat talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirishning strukturaviy-mazmuniy modeli ishlab chiqildi. Model turi tanlanishi modellashtirish obyekt bo'lgan tayyorgarlikning o'zgarishlarini oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonida kuzatishni hisobga olgan holda, obyekt ham statik, ham dinamik holatda ko'rib chiqish zarurati bilan belgilanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Modelning maqsadli bloki o'z ichiga quyidagilarni oladi: jamiyat va shaxsning ijtimoiy buyurtmasi asosida shakllantirilgan maqsad, belgilangan maqsadga erishish vazifalari, shuningdek, bu vazifalarning amalga oshirilishini belgilovchi metodologik yondashuvlar va tamoyillar. Butun modelning strategik yo'nalishi va tizimiy shakllovchi elementi sifatida maqsad pedagogik faoliyatning rejalashtirilgan natijasi bo'lib, unga yaxlitlik va yakuniylik baxsh etadi.

Modelning faoliyat ko'rsatish maqsadi, bir tomondan, jamiyatning innovatsion ishlab chiqarish sharoitida samarali faoliyat ko'rsata oladigan texnik kadrlarga bo'lgan ehtiyoji bilan, boshqa tomondan esa, yosh Texnika oliy ta'lim muassasalari talabaning ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvi, ya'ni talabalar o'zini namoyon qilish va kasbiy o'sishi uchun zarur bo'lgan sharoit sifatida, bog'liqdir. Shu munosabat bilan modellashtirilgan jarayonning maqsadi - texnika yo'nalishdagi bakalavriat talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirishdir.

Maqsadni amalga oshirish esa uni aniq yo'llar va amaliyotda qanday amalga oshirilishini aks ettiruvchi

pedagogik refleksiya natijasi sifatida aniq vazifalar shaklida belgilangan. Ushbu vazifalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuv jarayonida namoyon bo'ladigan ehtiyojlar, motivlar, munosabatlar va qarashlar tizimini shakllantirish.

2. Kasbiy va moslashuvchan bilimlar va tushunchalar tizimini shakllantirish.

3. Ijtimoiy-amaliy moslashuv sharoitida amaliyotda bilimlarni qo'llash tajribasini ko'nikma va malakalar shaklida shakllantirish.

4. Ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuv jarayonida faoliyatning o'zini tahlil qilish, baholash va o'zini tuzatishga tayyorlikni shakllantirish.

Belgilangan vazifalarni amaliy hal qilish samaradorligi tizimli, kompetentlik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning asosiy tamoyillari asosida shakllantirilgan qoidalar majmuasini amalga oshirish orqali belgilanadi [6].

Tizimli yondashuv ilmiy, shu jumladan psixologik va pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Bu yondashuv "obyektning barcha elementlarining o'zaro bog'liqligi nuqtai nazaridan yagona butun sifatida kompleks o'rganish, tizimdagi har bir elementning umumiy faoliyat va rivojlanish jarayonida o'rganilishi, tizimning umumiy sifatlarining butunlik elementiga ta'sirini o'rganish" sifatida ta'riflanadi.

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabaiat talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlikni shakllantirish vazifasini hal qilishda tizimli yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tayyorgarlikni murakkab tuzilishga ega bo'lgan, o'zaro bog'liq va o'zaro qaram komponentlardan iborat integrativ shaxsiy tuzilma sifatida aniqlash;

- oliy ta'limdagi ta'lim jarayonini ko'p komponentli pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish, bu jarayon atrof-muhit bilan faol o'zaro ta'sir qilishda rivojlanish tendentsiyasiga ega bo'lib, auditoriyadagi va auditoriyadan tashqaridagi ish jarayonida ta'lim, tarbiya va rivojlanishning yaxlitligi bilan tavsiflanadi;

- modellashtirish usulidan foydalanish, ya'ni o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topgan model yaratish.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan texnika oliy ta'lim muassasalari talabaiat talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlikni shakllantirish oliy ta'limda amalga oshiriladigan kasbiy tayyorgarlikning xususiy pedagogik kichik tizimi sifatida ko'rib chiqiladi. Bu esa o'zaro bog'liq elementlar va munosabatlarning ierarxik jihatdan o'zaro bo'ysunuvchi yaxlitligini ifodalaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Texnika oliy ta'lim muassasalari talabaiat talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlikni shakllantirish masalasini amaliy hal qilishda tizimli yondashuv quyidagi tamoyillar orqali amalga oshiriladi:

1. Yaxlitlik tamoyili - bu oliy ta'limdagi ta'lim jarayonining barcha tarkibiy elementlarining birligi va o'zaro bog'liqligini anglatadi. Mazkur tamoyil talabalarining tayyorgarligi integrativ shaxsiy tuzilma sifatida shakllantirilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Uning amalga oshirilishi modelning bloklarini o'zaro bog'liq va oliy ta'lim jarayonining tuzilmasi bilan muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirishni, shuningdek, tayyorgarlikning yaxlitligini ta'minlaydi. Bu tamoyil o'zaro bog'liq fanlararo va fanidagi aloqalar, auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatlarining birligi orqali qo'llab-quvvatlanadi.

2. Har tomonlama va komplekslik tamoyili - bu tamoyil Texnika oliy ta'lim muassasasi talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirish jarayonida ta'lim jarayonining barcha tomonlari va barcha ishtirokchilarini jalb etishni anglatadi. Bu tayyorgarlikni shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi va ichki omillar majmuasi hisobga olinadi.

Tizimli yondashuv kompetentlik yondashuvining g'oya va tamoyillari bilan birgalikda qo'llaniladi. Kompetentlik yondashuvi kontekstida oliy ta'limda kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarining turli muammolari hal qilishda o'z shaxsiy tajribalarini qo'llashga asoslangan ko'nikmalar va malakalarini shakllantirish maqsadi ko'zda tutiladi. Bu jarayonning natijasi bitiruvchining kompetentligi bilan o'lchanadi.

Kompetentlik – bu “shaxsning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini, o'zini o'zi rivojlantirishni, fundamental bilimlar va amaliy tajriba asosida mutaxassisning faoliyatga yo'naltirilgan holatini shakllantirishni ta'minlaydigan, murakkab shaxsiy tuzilmaga asoslangan integratsiyalangan shaxsiy xususiyatdir”. Texnik yo'nalishdagi talabalarining ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorligi ham, kompetentlik singari, integrativ shaxsiy xususiyat bo'lib, bir qator komponentlarni o'z ichiga oladi [7].

Kompetentlik yondashuvi nuqtai nazaridan ta'lim mazmuni “bilimlar, dunyoqarash, axloqiy, siyosiy va boshqa muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan didaktik jihatdan moslashtirilgan ijtimoiy tajriba” sifatida ko'rib chiqiladi. Bu esa “talabaga yo'naltirilganlik”, modul asosidagi kurslar va amaliy bilimlarga o'tishni belgilaydi.

Oliy ta'limda maqsadlar va ta'lim mazmunining o'zgarishi, kompetentlik yondashuvining asosiy qoidalari kontekstida, ta'lim jarayonini tashkil etishda ham o'zgarishlarga olib keladi. Shu munosabat bilan quyidagilar yuz beradi: pedagogik va o'quv-bilim jarayonining muammolilik va dialogiklik tomoniga o'zgarishi; kasbiy tayyorgarlikning amaliy yo'nalishi kuchayishi; mustaqil ishning roli oshishi va unga o'quv rejasida ajratilgan soatlar sonining keskin ko'payishi; modul texnologiyasi va faol hamda interaktiv ta'lim usullaridan keng foydalanish.

Oliy ta'limda kasbiy tayyorgarlik natijalarini baholash kompetentlik yondashuvi nuqtai nazaridan oliy ta'lim jarayonining maqsadli yo'nalishlariga mos keladi va bitiruvchilarning kompetentlik darajasini aniqlashni anglatadi. Oliy ta'limda kasbiy tayyorgarlik natijalarini kompetentlik yondashuvi paradigmasida tushunish, bir tomondan, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga, boshqa tomondan, innovatsion ishlab chiqarish sharoitida ishlab chiqarishga tayyor kadrlar tayyorlash bo'yicha jamiyat talabini qondirishga yordam beradi. Bu ta'lim natijalarini ko'rish Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarni ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorlash vazifasi bilan uyg'un keladi.

Texnika oliy ta'lim muassasasi talabalari ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirish masalasini hal qilishga nisbatan kompetentlik yondashuvi quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- Ushbu tayyorgarlikni talabalarining kasbiy tayyorgarligining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish va

#### ADABIYOTLAR

1. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: «Просвещение», 1995. – 336 с.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti.: Ped.fan.dokt. ... diss. avtoref. - T.: 2007. - 37 b.
3. Джураев Р.Х. Организационно - педагогические основы интенсификации системы профессионального подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. ... докт.пед.наук.-Т.: 1995. - 43с.
4. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta'limi. – 2004. - № 3. – B.24.
5. Ismailova Z.K. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari: Diss. ... ped. fan. dok. – T.: 2006. – 345 b.
6. O'rinov U.A. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda masofaviy ta'limning afzalliklari. “O'zMU xabarlar”. Ilmiy jurnal. Toshkent, 2020. №1/2, 148-151 b.
7. O'rinov U.A. Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda masofaviy ta'lim tizimini tashkil etish prinsiplari. “Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari”. Ilmiy-nazariy jurnal. Toshkent, 2020.№3,196-203b.
8. Ходжабоев А.Р. Научно-педагогические основы учебно - методического комплекса подготовки учителя труда: Автореф. дис. ... докт. пед. наук. -Т.: ТДПУ, 1992. – 42 б.
9. Уразова М.Б. Бўлажак касбий таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш: Пед.фан.докт. ... дисс. –Т.: ТДПУ, 2015. -260 б.

ularni mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim ta'lim natijalaridan biri sifatida belgilash;

- Oliy ta'lim muassasasining ta'lim jarayonida shakllanayotgan kompetensiyalar asosida tayyorlanayotgan bakalavrlarni ishlab chiqarishga ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorlash tuzilmasini va mazmunini aniqlash;

- Ta'lim mazmunini maxsus tanlash, innovatsion usul va vositalardan keng foydalanish, shuningdek, pedagogik o'zaro aloqaga dialogik xarakter berish orqali Texnika oliy ta'lim muassasasi talabalari muammoli vaziyatlarni hal qilish tajribasini shakllantirish;

- O'quv jarayonining mazmunini tanlash, tashkil etish va natijalarini baholashda ish beruvchilarning talabi va mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olish.

Kompetentlik yondashuvi Texnika oliy ta'lim muassasasi talabalari ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirish masalasini hal qilishda quyidagi tamoyillar orqali amalga oshiriladi:

1. Amaliy yo'naltirilganlik tamoyili – bu ta'lim maqsadlari va mazmunini aniqlash, shuningdek, ularni amalga oshirish texnologik vositalarini ishlab chiqishda kelajakdagi kasbiy faoliyatning o'ziga xosligini, mehnat bozorining dolzarb talablari va ishlab chiqarish texnologiyalari rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini hisobga olishga asoslangan.

2. Intensifikatsiya tamoyili – bu innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash, shuningdek, Texnika oliy ta'lim muassasasi talabalari ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirish jarayonini tizimli ravishda monitoring qilish va keyinchalik uni tuzatishni o'z ichiga oladi [8]. Texnika yo'nalishdagi Oliy ta'limning standarti bo'yicha 60711400 - transport vositalari muhandisligi bakalavriat o'quv jarayonida talabalarda umumiy madaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalar shakllanadi, ular kasbiy faoliyatga tayyorlikning muhim sharti va ijtimoiy-amaliy moslashuvning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun asosdir.

Tadqiqot vazifasini kompetentlik yondashuvi nuqtai nazaridan hal qilish, asosan, ijtimoiy buyurtmani bajarishga yo'naltirilgan. Tayyorlikning mohiyatini integrativ shaxsiy ta'lim sifatida tushungan holda, Texnika oliy ta'lim muassasasi talabalari ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirish modelini ishlab chiqish jarayonida kompetentlik yondashuvi shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning g'oyalari va tamoyillari bilan to'ldirildi.

**Xulosa va takliflar.** Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga yuqori darajadagi professional kompetensiyalarni shakllantirish va ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyor bo'lishini ta'minlash uchun yuqorida ta'riflangan modelni ta'lim jarayoniga joriy qilish zarur. Uning samaradorligi tajriba orqali tekshiriladi va natijalar taqdim etiladi.



*Sarvar SULEYMANOV,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi*

*Toshkent Davlat transport universiteti dotsenti, PhD S.Sultonov taqrizi asosida.*

### O'ZBEKISTONDA TEMURIYLAR SULOLASI MA'NAVIY MEROSINI TIKLANISHI

Annotatsiya

Maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va ma'naviy sohalarida olib borilgan islohotlar to'g'risida falsafiy tahlillar keltirilgan. Bundan tashqari, mustaqillikdan keyin Temuriylar davri ma'naviy merosini o'rganish bo'yicha olib borilgan ishlar yuzasidan ham ilmiy fikrlar keltirib o'tilgan.

**Calit so'zlar:** Ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy hayot, falsafiy madaniyat, Amir Temur, Temuriylar, ma'naviy yuksalish, yuksak axloq.

### ДИНАСТИЯ ТЕМУРИ В УЗБЕКИСТАНЕ РЕСТАВРАЦИЯ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ

Аннотация

В статье опубликовано философский анализ реформ, проведенных в сфере науки, культуры и духовности в период Амира Темура и Тимуридов. Кроме того, проводится научное исследование духовного наследия Тимуридов периода после обретения независимости. ставятся точки.

**Ключевые слова:** Духовные ценности, духовная жизнь, философская культура, Амир Темур, Тимуриды, духовный рост, высокая нравственность.

### TEMURI DYNASTY IN UZBEKISTAN RESTORATION OF SPIRITUAL HERITAGE

Annotation

The article presents a philosophical analysis of the reforms carried out in the fields of science, culture and spirituality during the period of Amir Temur and the Timurids. In addition, there is also a scientific study of the spiritual heritage of the Timurid period after independence. points are made.

**Key words:** Spiritual values, spiritual life, philosophical culture, Amir Temur, Timurids, spiritual growth, high morality.

**Kirish.** Insoniyat tarixini kuzatsak, uning xilma-xil g'oya va mafkuralarning vujudga kelishi, amaliyoti bir-biri bilan munosabatidan iborat uzluksiz jarayon ekanini ko'ramiz. Xususan, buyuk ajdodimiz, sohibqiron Amir Temurning sog'lom ma'naviyat mahsuli bo'lgan "Kuch-adolatdadir" [10] degan shiori miliy g'oyaning tarkibiy qismiga aylanib ketgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'sha davrda ayollarning og'ir jismoniy ishlardan ozod qilinganiga e'tibor bering. Aytaylik, yordamchisi yo'q biron ayol suv oladigan chelakni darvoza tashqarisiga chiqarib qo'ysa, shu joydan o'tgan mo'min-musulmonlar chelakni olib unga suv to'ldirib, shu joyga qo'yib ketishar edi. Do'konlarga savdogarlar umuman qulf osishmas edi. Bularning hammasi o'sha zamonda hayot iymon va e'tiqod, insof va diyonat talablari bilan boshqarilganini, odamlar anashu yuksak tuyg'ular bilan yashaganini ko'rsatadi. Mo'min-musulmonlar shunday turmush tarziga odatlanishgan, o'rganishgan edi. Ular o'zlari och qolishsa ham o'zganing mulkiga qo'l tekkizmasdi. Bu xalqning mentalitetiga singib ketgan edi. Amir Temurning: «Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim» degan so'zlari milliy davlatchiligimizning nazariy poydevori bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy o'tmish moddiy va ma'naviy madaniyatga singib ketgan bo'ladi. Bunday madaniy qadriyatlar tarixchilar uchun real faktlar hisoblanadi. Shuning uchun ham tarixiy o'tmish tadqiqot predmeti sifatida tarixiy bilishda yagona bir me'zon bo'lishi kerak, chunki tarixiy voqea jarayonlarga baho berishda xolislik bo'lishi shartdir. "Xolislik - bu haqiqatni buzib netmay aytishdir. Tarixni qoralamas bo'lmaydi. Tarix bir marta yoziladi. Agar tarixni o'zgartirsak u o'zgargan tarix bo'ladi" [13].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbek xalqi mustaqillikka erishishi bilan uning milliy o'zligini anglashga katta imkoniyatlar yaratildi. Milliy davlatchilik asoslarimiz

yaratilayotgan bugungi kunda tariximizning barcha sohalarida qatorida ajdodlarimizdan qolgan siyosiy merosimizni chuqur va xolisona tadqiq etish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

**Tahlil va natijalar.** Zero, o'zbek xalqining milliy davlatchilik tarixi ming yillar avval shakllangan bo'lib, bugungi kunda qurilayotgan davlat asoslarimiz tarixning bizga bergan tasodifiy imkoniyati emas. Tarixning ildizlar bor joyda taraqqiyot bo'lishi haqidagi o'zgarmas qonuniyatlari mavjud. Bu qoidalar bugungi kunda o'zbek davlatchiligi misolida o'z ifodasini topmoqda. Hozirgi davrda xalqimizning siyosiy merosini qayta tiklash va uni sayqallashtirgan, modernizatsiya etgan holda davom ettirish davr ehtiyojiga aylandi.

Mustaqillik yillarida olimlar tomonidan olib borilayotgan keng ko'lamli tadqiqotlar ajdodlarimiz tomonidan boy tarix, o'ziga xos milliy davlatchilik ta'limotlari, yirik ma'naviy boyliklar yaratilganligini ko'rsatmoqda.

Birinchi prezident I.A.Karimov 1998-yilda olimlar bilan bo'lgan uchrashuvda vatan tarixi fani oldida turgan dolzarb muammolar, jumladan, milliy davlatchiligimiz tarixini har taraflama va chuqur o'rganish, undagi ma'naviy asoslarga tayanish lozimligi haqida alohida ta'kidlab o'tdi.

"Milliy davlatchiligimiz tarixining ma'naviy asoslaridan bugungi kunda foydalanish maqsadi asosiy qomusimiz bo'lgan Konstitutsiyamizda ham alohida ta'kidlab o'tilgan" [1].

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi maxsus qarori e'lon qilindi [2]. Davlatimiz tomonidan tarix faniga berilayotgan bunday e'tibor milliy o'zligimizni anglashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston hududida yuzaga kelgan qadimgi Baqtriya (mil.av. VII asr), Xorazm (mil. av. VII asr), Kushon (mil.av. I asr), Turk xoqonligi (VI asr), Amir Temur saltanati (XIV asr oxiri - XV asr boshlari) kabi davlatlar tariximizda alohida o'rin tutadi. Ularda o'ziga xos davlat boshqaruv asoslari yaratilgan bo'lib, o'z davrida davlat, halq va jamiyatning tinchligi, taraqqiyoti hamda farovonligini taminlashga xizmat qilgan.

Ular orasida Amir Temur saltanati yuksak davlatchilik ta'limoti yaratilgan bosqich sifatida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Saltanatda joriy etilgan boshqaruv asoslari o'z davrida nafaqat mamlakatda istiqomat qilayotgan kishilarning manfaatlarini hamda farovonligi uchun xizmat qilgan, balki G'arb va Sharq davlatlari o'rtasidagi munosabatlar, halqaro hayotning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy barqarorligi, rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatgan.

Bu ulkan o'zgarishlarning yuzaga kelishida Amir Temurning roli katta bo'lsa-da, uning shaxsi, davlatchilik faoliyati, milliy va umuman sivilizatsiya tarixidagi o'rni sovet davrida salbiy jihatdan talqin etildi. Sobiq ittifoq yuritgan bunday siyosatning zaminida o'zbek xalqidan milliy tuyg'u, o'zlikni anglash g'oyalari tag-tomiri bilan yo'qotish maqsadlari yashiringan bo'lib, yurtimizda mustaqillikning qo'lga kiritilishi bu niyat va harakatlarning bartaraf etilishida katta kuch bo'lib xizmat qildi. Istiqlol tufayli Sohibqironning tariximizdagi, umuman insoniyat tarixidagi katta xizmatlari munosib baholana boshlandi.

Vatanimizda Amir Temurning faoliyatini xolis o'rganishda Birinchi prezident Islom Abdug'aniyevich Karimov olib borayotgan siyosat alohida ahamiyatga ega. Hukumatimiz «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida» (1994-yil, 29-dekabr), «1996-yilni Amir Temur yili deb e'lon qilishi to'g'risida» [3] (1995-yil, 26-dekabr), «Temuriylar tarixi» davlat muzeyini tashkil etish va «Amir Temur» ordenini ta'sis etish to'g'risida (1996-yil) qator farmon va qarorlar chiqardiki, bu tadbirlar temurshunoslikning keyingi taraqqiyoti uchun katta zamin yaratdi. «Amir Temurning dunyo sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi, tarixdagi buyuk xizmatlari Birlashgan Millatlar tashkilotining talim, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi YUNESKO tomonidan ham e'tirof etilib uning 660 yillik yubileyini nishonlash to'g'risida tashkilotning qaror qabul qilinishiga erishildi» [4]. 1996-yil Amir Temur yili deb elon qilindi va bu tarixiy voqea dunyo miqyosida keng nishonlandi.

Birinchi prezident Islom Karimov Sohibqironning tariximizda tutgan o'rni, o'z davrida yurtimizda ozodlik va mustaqillikni qo'lga kiritish bilan birga markazlashgan davlat tuzgani, saltanat boshqaruvini adolat va qonunlarga asoslanib tashkillashtirgani, ilm-fan ravnaqiga katta tasir ko'rsatgani hamda boshqa xizmatlari haqida ko'p marotaba alohida ta'kidlab o'tdi [4]. Jumladan: «Shavkatli ajdodimizning o'lmas xizmatlari shundaki, u murakkab tarixiy sharoitda xalqning boshini qovushtira bildi. Istilochilarga qaqshatqich zarba berib, Turkiston zaminida ilk bor istiqlob bayrog'ini baland ko'tardi. Parokanda mamlakatlar, ellar, elatlarni birlashtirib, markazlashgan qudratli saltanat tuzdi» [13], - deya urg'u berdi.

Amir Temur o'z faoliyati davomida yurtimiz va dunyo xalqlari manfaatlarini uchun quyidagi vazifalarni ado etdi: Birinchidan, yurtimizda ildiz otgan mo'g'ullar zulmiga uzil-kesil barham berdi. Ikkinchidan, mayda davlatlarga bo'linib ketgan, tarqoqlik, ichki urushlar va adolatsizliklar hukm surgan Movarounnahni yagona davlatga birlashtirib, uning boshqaruv asoslarini shakllantirdi va mustahkamladi. Uchinchidan, qonun ustuvor bo'lgan jamiyat asoslarini barpo etdi. To'rtinchidan, saltanatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy asoslarini mustahkamladi. Beshinchidan, nisbatan qisqa vaqt ichida Movarounnahni dunyoning eng rivojlangan

davlatlaridan biriga aylantirdi. Oltinchidan, Osiyo, Afrika, Evropa mintaqalaridagi xalqlarning tinchligi, farovonligi uchun katta xizmatlar qildi va halqaro maydonda adolatni taminlash uchun kurashdi. Ettinchidan, turli din, millat, elat vakillari o'rtasida o'zaro aloqalarning o'rnatilishi oqibatida birinchi marta yagona makon va integratsiya g'oyalari shakllana boshladi.

Saltanatda islomning ilmiy asoslariga tayanilgan holda davlat boshqarilgani holda, bag'rikenglikka ham amal qilindi. Amir Temur saltanatida davlat, jamiyat va shaxs manfaatlarini uyg'unlashtirdi, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy barqarorlik o'rnatildi. Boshqarishning muhim sohalari faoliyati ana shu maqsadlar yo'lida tashkillashtirildi, davlat tomonidan chiqarilgan qonunlar o'z vaqtida ijrosini topdi. Bu tadbirlar Amir Temur davlatining keyingi taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdi, ilm-fan, ma'naviyat, memorchilik va sanat beqiyos darajada rivoj topdi, bu esa haqli ravishda fanda ikkinchi Uyg'onish deb ataldi.

Ingliz olimasi Xilda Xukxem «Amir Temurning o'z yurtining davlatchilik va madaniyat an'analari davomchisi bo'lganligi, X-XI asrlarda tabobat, matematika, astronomiya, geografiya, falsafa, tarix, arab va fors tili, adabiyot bo'yicha benazir asarlar yaratgan buyuk allomalar yurtidan etishib chiqqanligi, mazkur allomalarning bu asarlari bir necha yuz yillar davomida Evropa Uyg'onishiga katta kuch bag'ishlagani, unga poydevor bo'lib xizmat qilganligini» [12] haqqoniy ravishda aytib o'tgan.

Umuman olganda, Amir Temur davlati o'zbek davlatchiligi tarixining eng rivojlangan bosqichini tashkil etadi. Saltanatda barcha sohalarda tub burilishlar, islohotlar jarayoni kechgan. Bu qadriyatlar allaqachon umuminsoniy qadriyat darajasiga etib ulgurgan. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov «Amir Temur bizning sha'n - shavkatimiz, g'urur-iftihorimizdir. Amir Temur-xalqimiz dahosini timsoli, ma'naviy qudratimiz ramzidir» [9], - deya alohida ta'kidlashiga tarixda katta dalil va asoslar mavjud. «Amir Temur-shaxsini idrok etish - tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash-o'zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug'lash-tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib buyuk kelajagiga ishonchimizni mustahkamlash demakdir» [12].

Amir Temur davlatchiligi markazida halq va davlat manfaati, inson omili turgani bois, bu davrda shakllangan siyosiy udum va an'analarning ijobiy jihatlardan bugungi kunda keng foydalanish farovon turmushimizni ta'minlashda yordamchi kuch bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Amir Temur davrida shakllangan davlat boshqaruv asoslarining tub negizini tahlil etish, uning taraqqiyotiga zamin yaratgan omillarni tushunib etish bugungi kunda ulardan ijodiy foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada saltanatda shakllangan davlat boshqaruv asoslari, jumladan, Amir Temurning saltanat taraqqiyotida tutgan siyosiy mavqei, bu davlatchilikning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy tizimni to'laqonli ochib berish muhim amasaladir.

Shuningdek, Amir Temur davlatining markaziy va mahalliy davlat boshqaruv tizimi, qurultoy, mansab (lavozim) va unvonlarning davlatchilik asoslarini mustahkamlashga ko'rsatgan ta'sirini tahlil etish alohida dolzarblik kasb etadi.

**Xulosa.** Amir Temur tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari, o'ziga xos xususiyatlari, yozishma maktublar va ularning davlat taraqqiyotidagi o'rnini ochib berish barcha bo'limlar, boblar yuzasidan muhim xulosa va tavsiyalar berish hamda ulardan foydalanish ko'lamini kengaytirish bugungi kunda tarix fanining dolzarb masalalaridan biridir. Bugungi kunga qadar olimlar tomonidan Amir Temur davlat boshqaruv tarixi alohida mavzuda doktorlik ishi darajasida ko'rib chiqilmaganligi bu mavzuni to'laqonli yoritib berish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

**ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2023. - B. 3.
2. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix institutining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining qarori // Toshkent haqiqati. - 1998 yil, 28 iyul.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori // Toshkent haqiqati. - 1995 yil, 4 yanv.
4. Karimov I.A. Amir Temur haqida so'z. - Toshkent: O'zbekiston, 1996; O'sha muallif. Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir / Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar. - Toshkent: O'zbekiston, 1997. Jild V.
5. Karimov I.A. Azaliy buyuklik maskani / Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar. - Toshkent: O'zbekiston, 1997. Jild V. - B. 171-174.
6. Karimov I.A. Sohibqiron kamolga etgan yurt / Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar. - Toshkent: O'zbekiston, 1997. Jild V. - B.175-178;
7. Karimov I.A. Adolat va qudrat timsoli / Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar. - Toshkent: O'zbekiston, 1997. Jild.V. - B. 179-180;
8. Karimov I.A. Amir Temur fahrimiz-g'ururimiz / Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar. - Toshkent: O'zbekiston, 1997. Jild V. - B. 181-191;
9. Karimov I.A. Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo'laversin / Amir Temur-fahrimiz, g'ururimiz - Toshkent: O'zbekiston, 1998. - B. 25-30.
10. Nazarov Q. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy hususiyatlari, falsafiy, tarixiy ildizlari. -T.:2002. - B. 23.
11. UNESCO: Resolutions twentyeighteen session of the general Conference. - Paris, 1996. Vol.I. - P.89.
12. Хукхем Х. Властитель семи созвездий / Перевод с английского G.Xidoyatova. - Toshkent: Adolat, 1995. - S. 17.
13. Ibragimov A. Biz-kim o'zbeklar. -T.: Sharq,. 1999. -B.289.



UDK: 681.3.062; 004.432

**Mohinur TESHAYEVA,**  
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti  
E-mail: mohinurteshayeva19@gmail.com

*O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali direktori, p.f.n., professor A.Tilegenov taqrizi asosida*

## DIDACTIC OPPORTUNITIES OF WEB TECHNOLOGIES IN FORMING STUDENTS' COMPETENCE IN BIOLOGICAL SCIENCE

Annotation

This article explores the issues related to organizing the process of biology education and training in general secondary schools. It includes an analysis of scholars' work on the use of web technologies in biology education, such as distance learning systems, open online courses, virtual learning platforms, and information-educational environments. Additionally, the article discusses how to effectively organize biology education using web technologies and presents analytical data on the potential of enhancing students' cognitive activities through teaching. Furthermore, the article highlights the unique features and advantages of web technologies in biology education.

**Key words:** Web technology, web application, distance learning, online, asynchronous teaching, differentiation, learner-centered approach.

## ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ВЕБ-ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ В БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУКАХ

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы организации процесса обучения и воспитания по биологии в общеобразовательных школах. Представлен анализ работ ученых по использованию веб-технологий в образовании по биологии, таких как системы дистанционного обучения, открытые онлайн-курсы, виртуальные образовательные платформы и информационно-образовательные среды. Кроме того, в статье обсуждается, как эффективно организовать обучение по биологии с использованием веб-технологий, и приводятся аналитические данные о потенциале повышения познавательной активности учащихся в процессе обучения. Также в статье подчеркиваются уникальные особенности и преимущества веб-технологий в образовании по биологии.

**Ключевые слова:** Веб-технология, веб-приложение, дистанционное обучение, онлайн, асинхронное обучение, дифференциация, подход, ориентированный на учащегося.

## O'QUVCHILARNI BIOLOGIYA FANIDAN KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA WEB-TEKNOLOGIYALARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish muammolari o'rganilgan hamda biologiya ta'lim jarayonida web-texnologiyalardan, jumladan masofaviy o'qitish tizimlari, ochiq onlayn kurslar, virtual ta'lim platformalari, axborot-ta'lim muhitlaridan foydalanish bo'yicha olimlarning ishlarini tahlili keltirilgan. Shuningdek, biologiya fanini web-texnologiyalardan foydalanish asosida ta'limni samarali tashkil etishni, o'quvchilarning bilish faoliyatlari intensivlashuvi o'qitishdagi imkoniyatlariga oid tahliliy ma'lumotlar bayon etilgan. Shu bilan birga mazkur maqolada biologiya ta'limida web-texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Web-texnologiya, web-ilova, masofaviy ta'lim, onlayn, asinxron o'qitish, differensiallashtirish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.

**Kirish.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarini modernizatsiya qilish asosida zamon talablariga mos mutaxassilarni tayyorlashga oid olib borilgan ishlar o'z samarasini bermoqda [1]. Bunda tadqiqotchilar umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim-tarbiya jarayoniga web-texnologiyalarni faol joriy etish orqali samarali natijalarga erishish mumkinligini nazariy va amaliy jihatdan isbotlamoqda. Ilmiy asoslangan tadqiqot natijalari asosida o'qituvchilar fanlarni, shu jumladan biologiya fanini o'qitishda web-texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashlari uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarining sinf xonalari zamonaviy o'quv jihozlari (texnologiyalari) bilan modernizatsiya qilmoqda [2]. Bu esa o'z navbatida fanlarni, jumladan, biologiya fanini o'qitishda web-texnologiyalardan foydalanishga oid izlanishlar ko'lamini kengaytirish zarurligini anglatadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Texnologiyalarning o'zaro ta'siridan foydalanish biologiya fanini barcha darajalarida tadqiqot o'tkazish imkonini beradi. Biroq, texnologiyaning o'zi yetarli emas. Hozirgi vaqtda, web-texnologiyalar orqali mavjud bo'lgan yuqori sifatli raqamli kontentga ehtiyoj mavjud.

Bu borada, ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda hamda o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda web-texnologiyalardan foydalanishga oid izlanishlar Y.A.Tixomirova [7], Ye.S.Gladkaya [8], N.V.Musinova [9], R.U. Seitova [10] kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning mustaqil ta'limini samarali tashkil etishda hamda ularning motivatsiyasini oshirishda, kompetensiyalarini

shakllantirishda va rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan, xususan, masofaviy o'qitish tizimlari, ochiq onlayn kurslar, virtual ta'lim platformalari, axborot-ta'lim muhitlari zamonaviy o'quv vosita sifatida xizmat qilishini nazariy va amaliy jihatdan isbotlagan.

Jumladan, Y.A.Tximirova [7] fikriga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanidan web-texnologiyalardan, shu jumladan masofaviy o'quv vositalardan foydalanish orqali o'quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtirish, bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida ta'limni samarali tashkil etishni, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini intensivlashuvi oshiradi. Ye.S.Gladkaya [8]ning fikriga ko'ra, web-texnologiyalar biologiya faniga doir turli xil axborot-ta'lim resurslari, zamonaviy axborot va telekommunikatsiya vositalarini o'zida mujassamlashtirgan hamda ijodiy, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga, shuningdek, ishtirokchilarning malakasini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar asosida shakllangan ochiq pedagogik tizimdir. N.V.Musinova [9]ning ta'kidlashicha, web-texnologiyalardan foydalangan holda biologiyaga oid o'quv-bilish va kasbiy vazifalarni hal qilish uchun o'quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ta'minlaydi.

R.U. Seitova [10]ning fikriga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda quyidagi imkoniyatlarga ega ekanligini ta'kidlagan:

- an'anaviy o'qitish usuliga qaraganda kam xarajat talab qilinadigan qayta tayyorlov kurslari mavjudligi. Bunda o'quvchilar soniga chegara qo'yilmaydi;

- o'quvchilar biologiyaga oid o'quv kurslarini bir necha marotaba tinglashi va o'zini-o'zi mustaqil ravishda baholashni ta'minlash;

- qulay vaqt va joyda ta'lim olish;

- foydalanuvchilarni keng ko'lamda qamrab olish;

- biologiya faniga doir vizual shaklda o'quv ma'lumotlarini o'rganish;

- biologiyadan differensiallashtirilgan ta'lim uchun o'quv resurslari bilan ta'minlash;

- biologiya faniga doir mustaqil ta'lim olish imkoniyatini yaratish.

Bizning fikrimizcha web-texnologiyalarning umumiy o'rta ta'lim muassaslarida biologiya ta'lim va tarbiya jarayonida o'rni ko'p qirrali bo'lib, uni quyidagicha tasniflash mumkin:

- web-texnologiyalar biologiya faniga doir axborot, shu jumladan o'quvchiga zarur bo'lgan o'quv materiallarini tez yetkazib berish;

- biologiya ta'limiga doir ijtimoiylashuv, kommunikativ va axborot texnologiyalarini qo'llash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish;

- biologiya ta'limining ochiqligini, adaptivligini ta'minlash hisoblanadi.

Web-texnologiyalar umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim va tarbiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatib, u shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, hamkorlikda ishlash usullarni ta'minlashga, tajriba olish va almashish maqsadida turli ijtimoiy tarmoq jamoalarida qatnashish imkoniyatini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Web-texnologiyalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular global tarmoq orqali kirish mumkin bo'lgan onlayn-resurslarni yaratish va ulardan foydalanishda interaktiv saytlar, ilovalar, onlayn-do'konlar, bloglar va boshqa onlayn loyihalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Axborot yetkazib berish vositasi sifatida web-texnologiyalarning jozibadorligi ko'p jihatdan inson va kompyuter o'rtasidagi universal interfeysni belgilaydi. Har bir inson yozuvlarni, sarlavhalarni, havolalarni, rasmlarni

tushunadi. Web-interfeys ma'lumotlarga kirish vositasi sifatida intuitivdir. Web-interfeysning soddaligi natijasi global tarmoqning aloqa kanali sifatida keng qo'llanilishni amalga oshiradi.

Web-texnologiy kontseptsiyasi an'anaviy dasturiy mahsulotlarning ishlash tamoyillarini o'zgartirishni anglatadi. Maxsus interfeyslarning keng qo'llanilishi tanish ilovalarning brauzer orqali ishlay boshlashiga olib keladi. Bu shuni anglatadiki, har kim faqat web-ilovalar - onlayn matn muharriri, elektron jadval protsessori, organayzerlarni saqlash xizmati, fayllarni saqlash vositalari bilan ishlashi mumkin. Natijada, foydalanuvchining to'liq harakatchanligiga erishiladi - bu tarmoqqa kirish imkoniyatiga ega bo'lishning o'zi kifoya va tarmoq bilan oddiy kompyuterda o'rnatilgan ilovalardan bir xil tarzda ishlash imkonini beradi. Bunday holda, barcha ilovalar brauzer orqali mavjud bo'ladi va foydalanuvchiga faqat operatsion tizim, brauzerining o'zi hamda global tarmoqqa kirishni ta'minlaydi. Web-texnologiyalarning bu kabi imkoniyatlarini hisobga olgan holda biologiya ta'limida foydalanish samarali hisoblanadi. Chunki biologiya darslarida ko'rgazmali ta'lim berish imkoniyatini taqdim etadi.

Biologiya darsini o'qitishda ko'rgazmali material katta ahamiyatga ega. O'quvchi web-texnologiyalardan foydalanib, organizmlarni, ularning tuzilishini, hayotiy funktsiyalarini va boshqa organizmlar bilan aloqalarini ko'rsatish mumkin. Bundan darsning barcha bosqichlarida yangi materialni tushuntirish va mustahkamlashda, shuningdek, bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin. Shu bilan birga, darsning har bir bosqichida materialning katta tanlovini tanlash imkoniyati ta'minlanadi [11].

Web-texnologiyalar biologiya bo'yicha materiallarni taqdim etishning eng samarali shakllaridan biridir. Web-texnologiyalar taqdimotli o'qitishni amalga oshirish orqali o'quv jarayonining istalgan bosqichida qo'llanilishi mumkin. Taqdimot o'qituvchiga o'ziga xoslik va ijodkorlikni namoyon etishga va darslarni o'tkazishga rasmiy yondashuvdan qochishga imkon beradi [12].

Webga mo'ljallangan multimediali taqdimotlar yordamida o'quvchi yoki o'qituvchi monitor ekranida ma'lumotlarni jozibali taqdim etadi: tajribalarning video yozuvlari; fotosuratlar va grafiklarni namoyish qilish; jarayon va hodisalarni virtual namoyish etish. Ushbu materiallar ovozi yozuvlar bilan qo'llab-quvvatlanishi mumkin.

Shuningdek, web-texnologiyalar biologiya o'qituvchilariga o'z darslariga qo'shimcha illyustrativ materiallarni kiritish imkoniyatini beradi. Darsda interfaol multimedia dasturidan foydalanish esa uning ovozi dizayni va animatsiyasi, multimedia ensiklopediyalari, tabiiy obyektlar bo'yicha multimedia qo'llanmalar, elektron darsliklar bilan ishlashni ta'minlaydi [11].

Internet-resurslar maktab o'qituvchilari uchun katta imkoniyatlar ochadi, ular oldiga yangi vazifalarni qo'yadi. Uslubiy tizim va didaktik ishlanmalarning yaratilishi har bir o'qituvchiga o'z faoliyatini zamonaviy internet axborot texnologiyalaridan foydalangan holda qurish imkonini beradi [12].

Zamonaviy o'qituvchi bugungi kunda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda bilim olish jarayonining tashkilotchisiga aylanadi, o'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalashi va o'zini-o'zi anglashiga yordam beradi.

O'quv jarayonida kompyuterdan foydalanish ma'lumotlar bankida didaktik material to'plash imkonini beradi: testlar, imtihonlar va mustaqil ish variantlari; vazifalar, mashqlar va testlar tanlovi. web-texnologiyalardan foydalanish o'quvchilar uchun individual topshiriqlarni tanlashni soddalashtiradi va maktab o'quvchilarini o'quv qurollari bilan ta'minlashdagi kamchiliklarni bartaraf etadi [12].



Shunday qilib, web-texnologiyalardan foydalanish biologiyani o'qitish masalasiga sifat jihatidan yangi nuqtai nazardan yondashish imkonini beradi. Shuningdek, web-texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishi va natijada o'quvchilarning bilim sifatini oshirishi imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar.** Web-texnologiyalarni yuqorida keltirilgan imkoniyatlarini hisobga olgan holda umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda va kompetensiyalarini shakllantirishda foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Bunda quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

- biologiya fanini onlayn o'rgatish;
- tarmoq orqali biologiya fanidan loyiha va guruh ishlarini muhokama qilish;
- biologiyaga oid mustaqil topshiriqlarni onlayn tartibda olish va topshiriqlarni jo'natish;
- o'qituvchidan onlayn rejimda maslahat olish;
- asinxron o'qitishga mo'ljallanganligi;
- ko'p qamrovli va ko'p funksiyaliligi;
- xohlagan joyda va vaqtda ta'lim olishga mo'ljallanganligi;
- biologiya fanini to'liq o'zlashtirishga mo'ljallangan didaktik raqamli o'quv vositalar mujassamlashganligi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida teskari aloqani amalga oshirish mavjudligi;
- o'quvchining mustaqil ravishda o'zini-o'zi baholashga mo'ljallanganligi.

Shu bilan quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- mavjudligi. Web-texnologiyalar global tarmoqdan foydalangan holda dunyoning istalgan nuqtasidan biologiya faniga oid ma'lumot va xizmatlarga kirishni ta'minlaydi;

- mashtablilik. Web-texnologiyalar biologiya faniga oid bir vaqtning o'zida ko'p sonli so'rovlarni qayta ishlay oladigan murakkab va kengaytiriladigan ilovalarni yaratishga imkon beradi;

- portativlik. Web-ilovalar turli qurilmalar va operatsion tizimlarda maxsus dasturiy ta'minotni o'rnatmasdan ishlashi mumkin;

- joylashtirish qulayligi. Web-ilovalarni web-xosting yordamida serverlarga joylashtirish qulay, bu esa biologiya faniga oid didaktik ilova vositalarni nashr etish va yangilash jarayonini soddalashtiradi;

- turli texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash. Web-texnologiyalar biologiya faniga oid ilovalarni ishlab chiqish uchun turli dasturlash tillari va kutubxonalardan foydalanishga imkon beradi;

- xavfsizlik. Zamonaviy web-texnologiyalar kiberhujumlar va ma'lumotlarning sizib chiqishidan kuchli himoya vositalariga ega, bu esa biologiya faniga doir web-ilovalar bilan ishlashda foydalanuvchilarning xavfsizligini ta'minlaydi.

**Xulosa.** Shunday qilib, web-texnologiyalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning tabiat xodisasi va jarayonlariga oid motivatsiyasini oshirishga, mantiqiy va kreativ fikrlashini shakllantirishga hamda kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun zamon talabalariga mos biologiya mutaxassislarini tayyorlash uchun web-texnologiyalardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. U.M.Mirsanov, Uzluksiz ta'lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o'qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.
2. Хайтуллаева Н.С. Бўлажак информатика ўқитувчиларини методик тайёрлаш тизимида WEB-технологиялардан фойдаланиш // Педагогика fanlari бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 46 б.
3. Пьянников М.М. Формирование информационно-коммуникационной компетентности учащихся старшей школы в процессе дистанционного обучения // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Чита, 2013. – 24 с.
4. Кульбеда Н. В. Развитие информационных компетенций учащихся в проектной деятельности с компьютерной презентацией // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – КАЗАНЬ, 2006. – 24 с.
5. Артюхина М.С., Артюхин О.И., Клешина И.И. Аппаратная составляющая интерактивных технологий образовательного// Вестник Казан. технол. ун-та. 2014. – №8. – С.308- 314.
6. Климанова Е.Ю., Зеленко О.В. Внедрение современных информационных технологий в образовательный процесс/ Е.Ю. Климанова, О.В. Зеленко// Вестник Казан. технол. ун-та. 2012. Т. 15. – № 24. – С.212-213.
7. Тихомирова Ю.А. Методика дистанционного обучения биологии в современной школе (На материале курса «человек и его здоровье») // Автореферат на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Санкт-Петербург. 2014. – 24 с.
8. Гладкая Е.С. Методика использования современных компьютерных технологий обучения в преподавании и общей биологии учащимся 9 классов общеобразовательной школы // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2006. – 24 с.
9. Муסיнова Н.В. Методика использования средств мультимедиа и интернет-технологий для развития исследовательских умений учащихся в разделе «животные» // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – СанктПетербург, 200. – 24 с.
10. Сеитова Р.У. использование информационно-компьютерных технологий на уроках биологии в общеобразовательных школах // "Мировая наука" №5(62). – С. 209211. 2022.
11. Лиганова Ю.В. «Система работы по использованию ИКТ в преподавании биологии» / <https://kzdocs.docdat.com/docs/index-28488.html>
12. Яикова Л.В. Использование информационно-коммуникативных технологий на уроках биологии как способ повышения мотивации к изучению предмета. <https://solncesvet.ru/opublikovannyye-materialyi/ispolzovanie-informacionno-kommun-4/>



UDK: 355

*Dilnoza TOG‘AYEVA,*  
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti*

*Siyosiy fanlar doktori Sh.Shazamanov taqrizi asosida*

## APPLICATION OF AMIR TEMUR'S MILITARY STRATEGY IN THE POLITICAL TECHNOLOGIES OF THE 21ST CENTURY

Annotation

The article is a comparative analysis of the military strategy of the 21st century and the 14th century, and Amir Temur's military strategy and military strategy of Yangi Uzbekistan developed laws and projects based on retrospection. This military system and its complementarity are presented in terms of content and essence. Military strategy has been covered in both eras serves the common good extensively.

**Key words:** Chess, cavalry, infantry, Chavgon, Temur's tricks, Tuman Aga, Mirihazora, Koshunboshi, intelligence, artificial intelligence, Al-hiyal fil-muomalat al-maliyya, Zafarnama, Ravzat us- Safo, Silsilat az-zahab.

## XXI ASR SIYOSIY TEXNOLOGIYALARIDA AMIR TEMUR HARBIY STRATEGIYASINING QO‘LANILISHI

Annotatsiya

Maqola XXI asr va XIV asr davrlarining harbiy strategiyasi qiyosiy tarzda tahlil qilingan bo‘lib, Amir Temur va Yangi O‘zbekiston sharoitida harbiy tizim va uning bir-biriga mazmun va mohiyati jihatdan to‘ldirib kelganligi keltirilgan. Harbiy strategiya har ikkala davrda ham umumxalq manfaati uchun xizmat qilishi keng qamrovli yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Shatranj, otliq, piyoda qo‘shinlari, Chavgon, «Temur tuzuklari», Tuman og‘a, Mirihazora, Qo‘shunboshi, «Al-hiyal fil-muomalat al-maliyya», «Zafarnoma», «Ravzat us-safo».

## ПРИМЕНЕНИЕ ВОЕННОЙ СТРАТЕГИИ АМИРА ТЕМУРА В ПОЛИТИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЯХ XXI ВЕКА

Аннотация

Статья представляет собой сравнительный анализ военной стратегии XXI века и XIV века, а также военной стратегии Амира Темура и военной стратегии Нового Узбекистана, разработанных на основе ретроспективы законов и проектов. Представлена данная военная система и по содержанию и сущности. Военная стратегия в обе эпохи служила общему благу и широко освещалась.

**Ключевые слова:** Шахматы, конница, пехота, Чавгон, трюки Темура, Туман-ага, Мирихазора, Кошунбоши, интеллект, искусственный интеллект, Аль-хиял фил-муалат аль-малийя, Зафарнама, Равзат ус-Сафо, Силсилат аз-захаб.

**Kirish.** Amir Temurning buyukligi uning ko‘p sonli qo‘shinga ega ekanligida emas, balki uning zukkoligi, adolatli hukmdor, jasur va mard sarkarda, oldindan ko‘ra bila olish qobiliyati hamda harbiy strategiyasi kuchli ekanligida namoyon bo‘ladi. Amir Temurning g‘alabalari zamirida sof harbiy masala emas, balki geosiyosat predmeti bo‘lgan razvedka va harbiy strategiya, harbiy manyovrlarni to‘g‘ri qo‘llay olish san‘ati ham yotar edi. Amir Temur o‘zining geopolitikasida eng oliy harbiy, siyosiy, strategiyalarni qo‘llagan. Ushbu strategiya barcha imkoniyatlarni o‘zida jam yetgan. Amir Temur davridagi harbiy siyosat kabi bugungi kunda ham insoniyat aql-tafakkurining rivojlanishi, zamon o‘zgarishi fan-texnika taraqqiyoti natijasida hozirgi davr mudofaa tizimida ham o‘ziga xos rivojlanish, zamonga qarab takomillashish yuz berib kelmoqda. Harbiy qurol aslahalar suniy intellektlar asosida keng taraqqiy etmoqda. Bu jarayon harbiy texnikalarning takomillashuviga sabab bo‘lmoqda. Amir Temurning nazdida g‘alaba jismoniy tushuncha emas, balki psixologik tushuncha, dushman irodasini bo‘ysundirish, tashabbusni qo‘lga olishdir. Amir Temur fikricha, davlat umumxalq manfaati uchun boyib borishi, qo‘shin esa uning ishonchli tayanchi bo‘lib xizmat qilishi lozimligini anglagan. U o‘zining yangi tartibini yangi tuzilma yaratish bilan emas, balki, doimiy manevr va harakatlar, strategiyalar bilan mustahkamlagan. Uning qo‘shinida irqi, dini va zodagonligidan qat‘i nazar, hamma faqat jasorati va harakatlari uchun hurmatga sazovor bo‘lgan. Askarlar uchun Amir Temur birovni jazolash yoki mukofotlash zarur

bo‘lganda hech narsaning ta‘siriga tushib qolmaydigan yagona qozi bo‘lgan. Sohibqiron Amir Temur o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini faqat jismonan kuchli, ma‘nan sog‘lom insonlar bilangina amalga oshirgan. Yangi O‘zbekiston mudofaa tizimida ham harbiy mutahassislariga psixologik dars va treninglarni tashkil qilishi va bugungi rivojlangan texnologik qurol aslohalardan unimli hamda samarali foydalanish uchun o‘quv mashg‘ulotlari tashkil qilinganligi Amir Temurning harbiy strategiyasidan andoza olganligidan dalolat beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» asarida Amir Temurning harbiy stategligi haqida ba‘zi ma‘lumotlar uchraydi. Abdurahmon Jomiyning 1549 yilda ko‘chirilgan «Silsilat az-zahob» (Oltin zanjir), Ibn Arabshoh qalamiga mansub bo‘lgan «Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur» nomli asarlarda ham geosiyoiy harbiy strategiyasi haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Bundan tashqari Amir Temurning siyosiy, harbiy boshqaruvi haqida 1946 yil Qohirada Abdussalom Dihniyning «Al-hiyal fil-muomalat al-maliyya» («Mulkiy munosabatlardagi hiylalar»), 1974 yilda Muhammad Abdulvahob Buxayriyning «Al-hiyal fish-shariat al-islamiya» («Islom huquqidagi hiylalar»), 1983 yil Tunisda Muhammad ibn Ibrohimning «Al-hiyal al-mahzur minha val-masru» («Ruxsat etilgan va etilmagan hiylalar») asarlari chop etilgan[1]. Temuriylar davrida yashab ijod etgan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy qalamiga mansub bo‘lgan kitoblarning sahifalariga ishlangan miniatyura asarlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, turli mavzudagi tasvirlar qatorida «Chavgon» o‘yini tasvirlangan asarlarni ham ko‘ramiz[2].

Ularda musobaqalarda qatnashayotgan ikki guruh otliq o'yinchilarning hozirgi muz ustidagi xokkey sportchilari kabi harakat qilayotganliklarini tasvirlagan. O'yinchilarni chavgonlari sinib qolgan taqdirda ular almashtirib berishga shay turgan yordamchilarni ko'rish mumkin. Bu o'yindan tashqari miniatyuralarda «Kamon otish mashqi» deb atalgan o'yinlar tasvirlangan. Mazkur o'yinlarni qo'shin askarlari orasida o'tkazilishi bejiz emas edi. Bu o'yinlar askarlarni mashg'ulotlarda chiniqishi, chaqqonligi va zukkoligini oshirishga xizmat qilganligini ta'kidlash lozim.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Markaziy Osiyoda qo'shinlar jangovar tartibining eng yaxshi namunalarini Amir Temur armiyasida ko'rish mumkin. Shunga ko'ra Amir Temur tengsiz ijodkor tariqasida o'yin usullarini, jumladan, katta shatranjni ixtiro etgan edi. Bugungi kunda zamonaviy harbiy san'atda ham shatranj o'yini harbiy musobaqa tarzda barcha harbiy mutahassislarda ham o'tqaziladi. Amir Temur, o'rta asrlardagi dunyoning eng buyuk sarkardasi sifatida e'tirof etiladi. Amir Temur o'tmishdan qolgan harbiy san'atni yanada rivojlantirdi, uni o'z davridagi qudratli armiyalarga qarshi zafarli jangovar harakatlarga mos shakl va tuzilishga keltirdi. Amir Temur birinchilardan bo'lib Sharqda o't sochar qurollarni (ra'd) ishlatdi, qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga bo'lib joylashtirishni joriy etdi. Qo'shin qanotlarini dushman qo'shinidan himoyalash, dushman qo'shinlarini yon tomonidan aylanib o'tib, orqadan zarba beruvchi otliq qismni(kunbul) yaratib, janglarda ulkan g'alabalarni qo'lga kiritdi. Amir Temur tomonidan yaratilgan qo'shin tashkiliy tuzilishi jihatidan Chingizxon armiyasiga bir qarashda yaqin ko'rinsa-da, aslida katta farq qilar edi. Jumladan, u quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turgan:

Amir Temur qo'shini xalq lashkari sanalsa-da, Chingizxon qo'shinidagi kabi umumxalq xususiyatidan yiroq edi;

Chingizxon qo'shinining asosini ko'chmanchi xalqlar jangchilari tashkil etar, Amir Temur qo'shinida esa ko'chmanchi qabilalar, aksariyat hollarda, otliq qo'shinlar va o'qchilarni (kamonchilarni) yetishtirib berar edi. Shu tariqa, armiyaga chorvadorlik bilan kun kechirgan ko'chmanchilar bilan birga dehqon, hunarmand va o'troq aholining boshqa toifalari ham jalb qilinganki, bu Amir Temur armiyasining sosiodynamik xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi;

Amir Temur armiyasi jangovar harakatlarida armiyaning asosini tashkil etgan otliqlardan tashqari piyoda qo'shinlari ham katta ahamiyatga ega edi. Chingizxon qo'shinida esa piyoda qo'shinlar umuman mavjud bo'lmagan. Bu jihat qo'shinning strukturaviy-funksional xarakterini belgilash imkonini beradi;

Amir Temur armiyani qurollantirish uchun Sharq mamlakatlarida birinchilardan bo'lib, o'z vaqtining innovasion quroli bo'lgan, artilleriya to'plarini (ra'dlarni) oldi. O'qotar qurollarning ixtiro etilishi Amir Temur armiyasida artilleriya tuzilmalarining (bo'linmalari va harbiy qismlarining) paydo bo'lishiga turtki bo'ldi;

Amir Temur tog'li hududlarda mohirona harakatlana oladigan, maxsus tayyorlangan va jihozlangan piyoda harbiy qismlari va bo'linmalarini (tog' o'qchilari tuzilmalarini) tashkillashtirgan;

Jangni tayyorlash jarayonida Amir Temur o'z qo'shinining jangovar tartibini(operativ saflanishini) mahorat bilan belgilar, jang paytida esa uning elementlari bilan yashinday tez va yashirin manyovr (chap berish, kutilmagan yo'nalishdan zarba berish va h.k.) amalga oshirgan, dushman qanotlari va front ortiga otliq qo'shinlar bilan yakuniy va to'liq zafar keltiruvchi zarbalar berar edi. Vaziyatdan kelib chiqib, qo'shinlar yetti yoki to'qqiz qo'lga (jangovar tartib elementiga) bo'linar edi.

Qo'shin tarkibida, jang paytida erkak jangchilar bilan bir qatorda turib, jasorat va jonbozlik namunalari qo'rsatgan

ayol-jangchilardan iborat harbiy qismlar ham faoliyat yuritgan[3].

Amir Temur armiyasida tashkiliy tuzilishi qo'shin turlari bo'lgan otliq va piyoda qo'shinlardan iborat edi. O'z navbatida, otliq qo'shinlar qurollanishidagi qurol-aslahasi va himoya vositalariga qarab yengil va og'ir otliq qo'shinlarga bo'lingan. Armiyada Qurolli Kuchlar asosiy turlari (otliq va piyoda qo'shinlar, artilleriya) bilan birga Amir Temurning maxsus tansoqchilari ham mavjud edi. Amir Temurning qo'shini,

birinchidan, tashkiliy tuzilishi xalq lashkari bo'lgan.

Ikinchidan–qo'shin o'nlik tizimida tuzilgan, ya'ni tumanlar, mingliklar, yuzliklar va o'nliklarga bo'lingan edi.

Amir Temur barcha qo'shin turidagi sarkardalik lavozimlarining yagona atamalarini kiritdi: «Tuman og'a»–o'n ming kishilik birlashma qo'mondoni; «Mirihozora»–ming kishilik qo'shilma komandiri (sarkardasi); «Qo'shunboshi»–yuz kishilik bo'linma komandiri (sarkardasi); «Aylboshi»–o'n kishilik bo'linma komandiri (sarkardasi). Sohobqironning muntazam qo'shini adad jihatidan aniq va puxta tashkil qilingan, uning jangovar tartibi–yasol yetti qismga bo'lingan va muttasil takomillashtirib borilgan[4].

Bugungi kunda ham Yangi O'zbekiston armiyasida qo'shin tarkibi turli sohalarga taqsimlangan va ularni nazorat qilish uchun komandirlar tayinlangan. Rui Gonsales de Klavixoning guvohlik berishicha, o'rdugohda Amir Temur har bir bo'lak va qismlarga tegishli chodirlar tikilgan. Jangchilar va tajribali lashkarboshilar kirim–chiqim daftari va davlatdan maosh–ulufa, oziq-ovqat, yem-xashak–tag'or oluvchilar ro'yxatiga kiritilgan. Mutaxassislar va bitikchilar qo'shinning sonini aniqlash bilan mashg'ul bo'lishgan. Mirxond «Ravzat us-safo» asarida Xitoy yurishiga o'tlanish uchun mo'ljallangan 272 ming 612 nafar askarga maosh berilgani, bu vaqtda kelib, Sohobqiron qo'shinining umumiy soni 800 ming otliq va piyodalardan iborat bo'lganligi haqida ma'lumot borligini bir necha marta eshitganini yozgan[5]. «Temur tuzuklari»da lashkar soni va safga tizish tartibini dushman lashkarining soniga qarab belgilash va ularni safga tizish tartibi ko'rsatilgan[6]. Shu o'rinda Amir Temur tuzuklarida, agar g'anim lashkarining soni o'n ikki ming otliqdan kam bo'lsa, amir ul-umaro (oliy qo'mondon noibi) sardorlik qilsin, deb buyurilgan. Amir Temur 12 ming kishidan iborat bo'lgan qo'shinni jangovar tartibga bir necha favjlarga bo'lib saflagan. «Temur tuzuklari»da yozilishicha «Amr qildimki, o'shal o'n ikki ming otliq askarni to'qqiz qismga bo'lsinlar, ushbu tartibda: qo'lda bir favj, barong'orda uch favj, javong'orda uch favj, hirovulda–bir favj va qorovulda – bir favj tursin. Barong'orning o'zi hirovul, chopovul va shiqovuldan iborat bo'lsin. Shunga o'xshash, javong'or ham hirovul, chopovul va shiqovuldan iborat bo'lsin».

**Tahlil va natijalar.** XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning boshlarida strategik operatsiyalarni tayyorlash va o'tkazish muammolari ham Amir Temur nazaridan chetda qolib ketmagan va biz buni «Temur tuzuklari»ning «Qirq ming otliqdan ortiq sipoh favjlarini safga tizish tuzuki»da yaqqol ko'rishimiz mumkin. «Agar yog'iy lashkari qirq ming otliqdan ortiq bo'lsa, beglarbegi, amirlar, mingboshilar, yuzboshilar, o'noboshilar, va boshqa sipohiylar mening zafarli bayrog'im ostida bo'lsin va amru farmonimni kutsin». «Ulusot, qo'shunot va tumanotga tegishli qirq aymoqdan tamg'a olgan o'n ikkitasi (Barlos, Arg'in, Jaloyir, Tulkichi, Duldoy, Qipchoq, Mo'g'ul, Tatar, Sulduz, Tug'oy, Arlot, Tarxon) qirq favjga taqsim qilsin. Tamg'a olmagan yigirma sakkiz aymoq amirlari esa o'z lashkarlari bilan qo'l sipohiy favjining orqasida saf tortsinlar. Amir Temurga bo'ysungan o'n ikkita amirlar asosan unga tobe bo'lgan qirq qabilalar (barlos, arg'un, jaloyir, tulkichi, duldoy, mo'g'ul, so'lduz, tug'oy, qipchoq, orlot, tatar va tarxon kabi) orasidan saylab olingan. Amir Temurning Temur tuzuklari asarida shunday

deyladi: «Amir qildimki, o'n ikki katta amirlarning har biriga bitta bayroq va nog'ora, tuman tug'i va chortug' taqdim etsinlar. Mingboshiga esa bir tug' va karnay bersinlar. Yuzboshi va o'nboshiga bittadan katta nog'ora bersinlar. Aymoqlarning amirlariga bo'lsa, bittadan burg'u taqdim etsinlar. To'rt beglarbegining har biriga bittadan bayroq, nog'ora, chortug' va burg'u bersinlar. O'n ikki amirdan qaysi biri dushman favjini sindirsa yoki g'anim qo'li ostidagi biror mamlakatni fath etsa, uni taqdirlab, agar birinchi (darajali) amir bo'lsa, ikkinchi (darajali), ikkinchi bo'lsa, uchinchi (darajali) uchinchi bo'lsa, to'rtinchi (darajali) amir martabasini bersinlar. Shu tartibda o'n birinchi (darajali) amirgacha davom ettirsinlar. Agar o'n birinchi (darajali) amir bo'lsa, uni o'n ikkinchi (darajali) amir qilib, bayroq, tug' va nog'ora berilsin. Shu yo'sinda birinchi (darajali) amirga bitta tug', ikkinchisiga – ikkita tug', uchinchisiga– uchta tug', to'rtinchisiga–to'rtta tug' va nog'ora berib, ularni tumantug' va chortug' olish martabasiga yetkazib rag'batlantirsinlar»[7] O'ttizga yaqin turkiy urug' vakillaridan shakllangan sarkardalar tobe yurtlarning rahbarlari qatori, qarovulbegi (ayg'oqchi guruh sardori), qo'shunbegi (50–500 jangchidan iborat bo'linma boshlig'i), hazorabegi (ming kishilik qism sarkardasi), hiravulbegi (avang'or qo'mondoni), tumanbegi (o'n ming kishidan iborat qism rahbari), chag'davulbegi (aryergard sardori), cherikbegi (amiri lashkar) lavozimlariga tayinlangan. Qo'shinda bahodur, ulug' bahodur, ulug' bek, ulug' amir, beklarbegi, amir ul-umro, ulug' no'yon kabi unvonlar joriy qilingan. XXI asr siyosiy texnologiyalar jarayonida harbiy mudofaa tarkibiy qismida ham Amir Temurning harbiy boshqaruv strategiyasidan unilmi va samarali foydalanib harbiy rahbarlarning alohida ramzi, muhri, liboslarining ko'rinishi, me'yoriy hujjatlari va nizomlarida ham tafovut mavjudligini guvohi bo'lamiz. Ilmiy adabiyotlar va tarixiy manbalarda Amir Temur hayoti va davlat boshqaruvi haqida ko'plab ma'lumotlardan foydalanib nizom va qoidalar yaratilgan. Albatta, Amir Temur zamonasining kuchli va eng jangovar qo'shinini yaratib, uni takomillashtirib bordi. Qo'shin tarkibi va tartibini, hujumga o'tish usullarini avvalgi janglarining kamchiliklarini hisobga olgan holda takomillashtirib, zamondosh sarkardalarni lol qoldirdi. Lashkarboshilar tarkibi asosini barlos (70 ta), qavchin (28 ta), nukuz (nukudar 10 ta), sulduz (10 ta), qipchoq (9 ta), jaloyir (8 ta), apardi (8 ta) kabi urug' vakillari tashkil etgan. Amir Temur yurish vaqtida qo'shin va o'g'ruq (oboz)ni qiyin va o'tib bo'lmas yerlardan boshlab boruvchi qajarchi – yo'lichilarni mahalliy aholi ichidan yollash masalasiga jiddiy yondashgan. Amir Temur qo'shinlarni butlashda da'vatda joriy qilingan tartib-qoidalarni shariat va hayotiy qonunlar asosida amalga oshirgan. Jumladan:

► davlatga dushman xavf solganda, uning himoyasiga barcha fuqarolar birdek kurashishi lozimligi;

► Temur biron davlatga yurish qilmoqchi bo'lsa, qo'shinlar sonini kengaytirish uchun har bir viloyat, tuman, ovul, qabila, urug' jangchilarni bergan;

► Askarlikka olingan har bir odamning kasbiga qarab, qo'shinlarda vazifa va lavozimlarni tayin etganligi va boshqalar. Amir Temur qo'shinlari tarkibida kulollar, usta duradgorlar, temirchi, kosib hamda etikdo'zlar va taqachilar bo'lishi belgilangan. Bugungi kunda butun dunyo mudofaa

sistimasida Amir Temur joriy qilgan qushin tuzilishi o'z aksini topgan. Shu jumladan, Yangi O'zbekiston harbiy strategiyasida milliy gvardiya, ichki ishlar milliy xafsizlik, qurolli kuchlar tarkibiy qismida kasbiga e'tibor berib mutahasislarni yo'naltirgan.

Amir Temur muntazam qo'shinni, ya'ni askarlarni doimiy shaylikka ega, aniq belgilangan sonda ushlab turdi va qo'yilgan vazifalarga, jangovar tartib va maqsadga ega qism va bo'linmalarni tuzdi. Manbalarda keltirishicha, Amir Temur qo'shinining soni 200 000 dan ortiq bo'lganligini keltirilgan. U bunday katta qo'shinni to'plashda amir va boshqa harbiy mansab egalarning imkoniyati yo'qligini inobatga olib, bu masalani tezkorlikda amalga oshirish maqsadida tovachi (yoki tavochi) mansabini joriy qildi. Temur davrida eng mas'ul topshiriqlarni tovachilar (jarchilar yoki choparlar) bajargan. Temur har bir yurish oldidan yangitdan qo'shin to'plash uchun viloyat va urug'larga tovachilarni yuborib, viloyat amirlariga Temur farmonlarini oqizmay-tomizmay, to'liq yetkazib, qo'shin to'plash uchun fuqarolarni yig'ar va belgilangan joyga olib borar edi[8].

**Xulosa va takliflar.** Tarixiy tajribalardan ma'lumki, harbiy salohiyat asosan xalqning ma'naviy va moddiy madaniyatini, davlatning uyushqoqlik holatini, jamiyatning e'tiqod mushtarakligi darajasini ifodalaydi. Bundan tashqari davlat va uning barcha ijtimoiy-madaniy soha omillari tabiiy himoya immunitetlariga ega bo'ladi. Jumladan, davlatning hududiy joylashuvi, qulay infrastrukturasini, fuqarolarning g'oyaviy birligi, ilmu madaniyati, barqaror ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy-moddiy taqsimotlar, yetaklovchi aristokratiya mavqeyi, tinchlik davrida shakllanadigan iqtisodiy zahira unsurlari hisoblanadi. Bu borada qadimiy turkiy xalqlarning o'tov qurish tartibi, ov qilish, mehnat qurollarini yasash, chavandozlik qilish, kurash mahoratlari, hattoki raqs madaniyati himoya va hamla qilish san'ati bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

Harbiy strategiya umumlashtiruvchi yaxlit ta'limot sifatida mazkur omillarni mudofaa kuchiga aylantiradi. Tinchlik, turg'unlikdan farqli o'laroq, xalqning yashovchanlik tafakkurini harbiy san'at shaklida milliy-madaniy an'analarga aylantiradi. Shuning uchun harbiy amallar xalqning milliy madaniyati orqali jang san'atiga aylanadi. Binobarin, geosiyosatda qarama-qarshilik va hamkorlik ajralmas, urush va tinchlik kabi ular biri ikkinchisining mohiyatida namoyon bo'ladi. Shu falsafani idrok etgan turkiy xalqlar o'zining turmush tarzi madaniyatida tinchlikda urushga shay turish, urushda tinchlikka intilish instinktiga ega bo'lishgan. Urush qoidalariga tinchlik davrida amal qilsa, imkoniyat va salohiyatlarini oqilona taqsimot qilsa, kam sonli zaiflar kuchlini ham yengishi mumkin, degan qoidalar azaldan bu xalq qoniga singib ketgan. Bundan tashqari turkiy urug'larning har biri alohida muayyan jang mahoratini ifoda qilib, jang paytida qayerda, qanday turish va umumiy qo'shinning qismi sifatida qachon hamla qilish tartibotlari oldindan ma'lum bo'lgan. Shu harbiy ssenariy asosida ulkan qo'shin bir soniyada yagona qudratli monolit arimiyaga aylangan. Bunday tezkor harbiy tashkilotchilik o'z davrining mukammal va ilg'or strategiyalaridan bo'lib, u doimiy g'alabalarning asosini ta'minlab kelgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Алимардонов Т. Амир Темур империяси. Тошкент. Янги аср авлоди. 2021. 232 б.
2. O'zbekiston respublikasi mudofaa vazirligi qurolli kuchlari akademiyasi. Sohibqiron Amir Temur harbiy san'ati. Toshkent. Ma'naviyat. 2022. 280 b.
3. Дадабоев Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. Тошкент. «Ёзувчи», 1996. 96 б.
4. Дадабоев Х.А. Амир Темурнинг ҳарбий санъат ривожига қўшган ҳиссаси, 2021. 129 б.
5. Темур тузуқлари. Ма'сул муҳаррир Ashraf Ahmedov. Toshkent. O'zbekiston. 2005. 181 б.
6. Uljayeva Sh. Amir Temur davlat boshkaruvi. Toshkent: Akademnashr, 2017. 248 б.
7. Ibn Arabshoh. «Ajoyib al-makdur fi tarixi Taymur». 1-kitob. Toshkent. Mehnat. 1992. 326 б.

8. Sulaymonov Akmal Komilxonovich Sohibqironamir Temurning harbiy san'ati. Journal of Advanced Research and Stability. 2022. 71 b.



UDC:1.17.172.172.2

*Sarvar TOJIBOYEV,*  
*Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: alfargoniy.uz@gmail.com*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori A.Muxtorov taqrizi asosida*

## BOSHQARUV KADRLARIDA HALOLLIK VA FIDOIYLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIALEKTIK MEKANIZMLARI

Annotatsiya

Maqolada boshqaruv kadrlarida halollik va fidoiylik fazilatlarini rivojlantirishning dialektik mexanizmlari tahlili qilingan. Shuningdek, rahbarlik faoliyatini asosi hisoblangan oqibatlilik, bag'rikenglik xususiyatlari ilmiy asoslangan.

**Kalit so'zlar:** Halollik, fidoiylik, jo'mardlik, ma'naviy va kasbiy faoliyat, axloq falsafasi, mansab, altruizm.

## ДИАЛЕКТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ХАРАКТЕРОВ ЧЕСТНОСТИ И ОТВЕТСТВЕННОСТИ УПРАВЛЯЮЩИХ ПЕРСОНАЛОВ

Аннотация

В статье анализируются диалектические механизмы развития качеств честности и целеустремленности у управленческих кадров. Также научно обоснованы характеристики толерантности и терпимости, являющиеся основой лидерской деятельности.

**Ключевые слова:** Честность, целеустремленность, щедрость, духовная и профессиональная деятельность, моральная философия, карьера, альтруизм.

## DIALECTIC MECHANISMS OF DEVELOPMENT OF THE CHARACTERS OF HONESTY AND DEDICATION IN MANAGEMENT STAFF

Annotation

The article analyzes the dialectical mechanisms of developing the qualities of honesty and dedication in management personnel. Also, the characteristics of tolerance and tolerance, which are the basis of leadership activities, are scientifically based.

**Key words:** Honesty, dedication, generosity, spiritual and professional activity, moral philosophy, career, altruism.

**Kirish.** Ma'lumki, kadrlar masalasi hanuzgacha hukumat oldidagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Boshqacha aytganda, rahbarlik bu faqat reja bajarish, deb tushunish hamon saqlanib qolmoqda. Aynan ana shu tufayli jamiyatda ro'y beradigan har qanday salbiy jarayonlarda viloyatlar va tumanlardagi birinchi shaxslar aralashib qolmoqda. Ko'pgina hollarda ularning e'tiborsizligi tufayli tumanlar yoki viloyatlar ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar to'xtab qolayotgan bo'lsa, ayrim hududlarda aksincha, rahbarning faolligi tufayli shu jarayonlar jadallashmoqda.

Mansab kursisida o'tirgan, jamoa nomidan ish yuritadigan ba'zi shaxslar o'zining bemaza ishlarini yashirishga qancha urinmasin jamoatchilikka nisbatan adolat buzilayotganini ko'rib, bunday rahbarlarning quyushqondan chiqib ketayotganini baribir sezadi. Qachonki rahbarning yuragi ham, qo'li ham toza bo'lsa, tamadan, g'arazdan yiroq bo'lsa uning tabiatida qat'iyatlik bilan vazminlik talabchanlik bilan aql-zakovat uyg'un bo'lsa, faqat shundagina u odamlarning g'am-tashvishini o'z qalbidan o'tkazishga qodir bo'ladi. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va jamiyatni boshqarishda millatimizning ziynati, diniy dunyoqarashi va milliy ruhiyati asosida siyosat yuritilganligi barqarorlikni saqlashda ayniqsa qo'l keldi. Jumladan, davlat rahbarining rahbarlarga lavozimga tayinlanish oldidan yoki turli ma'ruzalarida aytadigan insof, vijdon, iymon, xalq ishonchi, vatan, tuproq, ota-bobolar, alloh va hakozo qadriyatlar bunga misol bo'lishi mumkin.

Hayotini xalq xizmatiga bag'ishlash, o'zidagini o'zгалar bilan baham ko'rish, muhtojlarga yordam berish, ustoz va do'st nomusi-sharafini himoya qilish – xalollik va fidoiylik fazilatining asosiy talablaridan hisoblanadi. O'zbek xalqi tarixida bunday fazilatli kishilar ko'p bo'lgan. Bundan

tashqari, xalqimiz ma'naviy hayotida asosiy maqsadini xalollikni va fidoiylik targ'ibotiga qaratgan so'fiylik tariqati yo'llari ham mavjud. Bular manbalarda - javonmardlar, axiylar yohud fatiylar deb atalgan.

**Materiallar va metodlar.** G'arbda jo'mardlik (javonmard) tamoyili altruizm nomi bilan mashhur.

Axloqshunos olim Abdulla Sher jo'mardlikni axloq falsafasi tamoyili sifatida talqin etadi. Jo'mardlik - kishidagi o'z qavmdoshiga achinish hissidan, unga baxt va farovonlik tilash tuyg'usidan kelib chiqadi, mohiyatan beminnat xayriyaga asoslanadi. O'z manfaatidan o'zga manfaatini ustun qo'yib, "o'z og'zidagini o'zga og'ziga tutib" yashash jo'mard insonning hayot tarziga aylanadi. Bu - oddiy xayriya emas, balki muhtojlikning har qanday ko'rinishiga qarshi o'ziga xos kurashdir. Ammo bu kurash insonparvarlik, vatanparvarlikdagi singari qat'iy jamiyat yoki jamoaning axloqiy-me'yoriy talablaridan kelib chiqmaydi, u faqat va faqat xususiylik tabiatiga ega, har bir shaxsning erkin ixtiyori bilan bog'liq axloqiy tamoyil[1]. Chunonchi, biror kishi tomonidan insonparvarlik talablarini bajarmaslik boshqalarda unga nisbatan nafrat hissini uyg'otadi, jo'mardlik ko'rsatmagan odam esa bunday ma'naviy javobgarlikka tortilmaydi. Zero, jo'mardlik mohiyatan «oddiy odamlik qobig'idan chiqib bish», ilohiylik sifatlariga ega bo'lib borish demakdir, bu esa hammaga ham nasib etavermaydi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Pahlavon Mahmud pahlavonlarni tarbiyalovchi ustozligi bilan birga yosh vatanparvarlarga, askarlarga javonmardlik odobini o'rgatuvchi pir bo'lgan. Javonmardlarning shiori dunyodagi yovuzlikning barcha ko'rinishlariga qarshi hamisha, hamma yerda ezgulikni himoya qilish, targ'ib etish va qo'llab-quvvatlashdan iborat

bo'lgan. Shu bois bu g'oyalar Pahlavon Mahmudning ko'pgina ruboiylarida o'z aksini topgan.

Koshifiy futuvvatni javonmardlik sifatida talqin etadi, ya'ni "itiloh sifatida futuvvat deb, omma orasida yaxshi sifatlar va namunali axloq mashhur bo'lishni aytadilar, shu vajhdan, bunday odam hamisha axloq bilan o'z kasbdoshlari, toifa, tabaqasi orasida mumtoz bo'ladi. ... futuvvat ahdga vafo qilmoqdir ... zero vafo javonmardlarning ishidir va ahdu paymonni sindirish, ahdga vafo qilmaslik nuqsijonning nuqsidir. Futuvvatning uch martabasi bor: avval sahoat, ya'ni bor narsasini hech kimdan qizg'anmaslik. Ikkinchisi safo, ya'ni qalbni kibru havo, gina kudrat, qasdg'azabdan pokiza, pok tutish. Uchinchisi vafo ya'ni hamma vaqt xalq xizmatida bo'lish"[2]. Javonmardlikning nihoyati yaxshilik yo'lida jondan kechishga tayyor turish, fidoyi qalb egasi bo'lishdir. Shu ma'noda, javonmardlikning butun mohiyati quyidagi ikki sifatda mujassamdir: biri – do'stlarga naf yetkazish, ya'ni, saxovat; ikkinchisi –dushman zararidan himoya qilish, ya'ni shijoat.

Arab sayyohi Ibn Batuta (XIII asr) sarbadorlarni javonmardlardan deb hisoblaydi va o'zining "Safarnoma" kitobida yozadi: "Men dunyoni kezib, bunday odamlar (ya'ni javonmardlar)dan ko'ra ezgu niyatli va ezgu xulqli kishilarni ko'rmadim"[3], - degan fikrni bildiradi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining "Sarbadorlar" romanida ham javonmardlik tariqati vakillarining shijoati, jasorati va hamjihatligi haqida ta'sirchan mulohazalarni bildirilgan. Ayniqsa, asarning "Tun saltanati" bo'limida Axiy Jabbor - javonmardlikning namunasi sifatida gavalantirilgan[4].

Muhokama va natijalar. Hallolik va fidoyilik axloqiga xos fazilatlar Turon zaminida shakllangan futuvvat ahlari yoki jo'mard kishilar faoliyatida ham o'z aksini topgan. Futuvvat axlining fazilatlar haqida arab va fors tillarida yozilgan kitoblarda talaygina. Bundan tashqari, mashhur Musulmon Sharqi pandnomalarida, tasavvuf haqidagi risolalarda ham javonmardlarning odobi va fazilatlar xususida fikrlar keltiriladi. Jumladan, Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati xususida» nomli risolasi bu ilmning ko'p qoida-nizomlarini qamrab olgani hamda ma'naviy merosimizda xalolik va fidoyilik talablari zikr etilgan muhim manba ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Javonmardlikka ko'proq pahlavonlar talabgor bo'lganlar. Jumladan, Pahlavon Mahmud Xivadagi futuvvatdoshlar jamoasining boshlig'i, javonmardlar peshvosi bo'lgan. Uning o'zi ham mardlik va saxovatning eng oliy namunalarini ko'rsatib, boshqalarga ibrat bo'lgan.

Jo'mardlik - har qanday holatda o'zgani himoya qilish, asrash, o'zga uchun kurashish, unga tinchlik, ezgulik ravo ko'rishdir. Xudbinlik - sharqona jo'mardlik axloqiy tamoyili va insoflilik axloqiy meyo'riga mutlaqo zid bo'lib, u o'z individual ehtiyojlarini hamma narsadan yuqori qo'yadigan illatdir. Bu tushuncha insonning moddiy-maishiy manfaatlarini boshqalarnikidan ustun qo'yishga intiladi; manfaat va o'z shaxsini mutlaqlashtirishga qaratilgan shaxsiyatparastlik harakatlar majmuini ifodalaydi. Agar jo'mardlik biror shaxs, jamoa yoki jamiyat baxti, farovonligi yo'lida kishining hatto o'ziga eng zarur bo'lgan narsalardan ham voz kechishiga tayyor turishini anglatsa, xudbinlik o'z manfaatlarini yo'lida, hech kimni, hech bir jamoani, hech qanday jamiyatni tan olmaydigan salbiy me'yor egasining bo'rtib ko'zga tashlanadigan xususiyati. To'g'ri, hammaning ham qo'lidan jo'mardlik kelavermaydi, lekin insonning o'ziga bo'lgan muhabbati, boshqalarning ham o'ziga shunday muhabbati borligini inkor etmasligi kerak. Shu qoida buzilgan joydan xudbinlik boshlanadi. Shu boisdan, jo'mardlik axloqiy tamoyilini hozirgi paytda zamonamiz hayotiga kirib kelgan salbiy ma'nodagi pragmatizmga qarshi kurashda, jamiyatda

axloqiy muhitni sog'lomlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadigan harbiy vatanparvarlik fazilati sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Hozirgi kunda mamlakatda o'z yechimini kutayotgan muammolar, avvalo, jamiyatni yangilash va isloh qilish, xalqning og'irini yengillatish yo'lida g'ov-to'siq, bo'lib turgan salbiy holatlar yana bir bor aniqlab olish va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Aholini ish va daromad bilan ta'minlash, xalqning turmush darajasini oshirish kabi qator dolzarb masalalarning joylarda hanuzgacha hal bo'lmay kelmoqda. Jumladan, inson huquq va manfaatlarini himoyalash, aholining ta'minoti va ijtimoiy muammolarini yechish singari muhim masalalarga bepisandlik bilan qarash, qonunbuzarlik, tamagirlik, o'z vazifasini suiste'mol qilish holatlari xamon uchray turganini, bunday salbiy ko'rinishlarni qonun asosida bartaraf etish hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda.

Bugungi kunda hukumat oldida turgan vazifalarning to'laqonli bajarilishi ikki talabga bog'liq ekanligi namoyon bo'lmoqda.

Birinchi talab – har bir mutasaddi rahbarning o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatini tubdan o'zgartirish, shaxsiy javobgarlikni oshirish. Ba'zi vazirlar yil davomida biron narsa to'g'risida hech qanday taklif va tashabbus bilan chiqmaydi. Ularning xayolida bir gap hech kim menga tegmasa bas, tinchgina kunim o'tsa bo'ldi. Bu eng noma'qul, kerak bo'lsa, eng zararli yondashuvdir.

Ikkinchi masala - hukumat a'zosi sifatida katta ishonch yuklatilgan hukumat a'zolarida vazifaga munosib bo'lish uchun tegishli bilim va tajriba, yuqori malaka bo'lishi shart. Boshqacha aytganda egallab turgan lavozimiga munosib bo'lish faoliyatning samarali bo'lishining muhim shartidir. Ar bir mutaxassis yoki rahbar o'z ishining ustasi bo'lish, o'z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish kerak.

Prezidentimizning e'tiborini tortadigan yana bir muhim masala davlat xodimlarini lavozimga tanlash va tayinlash bilan bog'liq. Bu haqda gapirganda, ko'p uchraydigan mahalliychilik va oshna-og'aynigarchilik deb nom olgan noxush bir holatni aytishga to'g'ri keladi. Bir nomzodga ishonch bildirilib, vazirlik lavozimiga qo'yilib yarim yil-bir yil o'tgach u boshqarayotgan sohaning ahvoli bilan kiziqilsa, u albatta mahalliychilik va oshna-og'aynigarchilik kasaliga duchor bo'ladi. qachonki, kadrlar masalasining davlat ishiga eng katta ziyon yetkazadigan mana shunday salbiy tomonlari bartaraf etilsa, ko'p muammolarni yechishga imkon tug'iladi. Asosiy vazifa qayerda shunday kasallik paydo bo'lishining ildizlarini aniqlab, o'z vaqtida chorasini ko'rishdan iborat. Bordini kasallik kuchayib ketssa, uni jarrohlik yo'li bilan kesib tashlash, lo'nda qilib aytganda, nopok va noqobil kadrlardan voz kechishdan boshqa iloj qolmaydi. Chunki bitta bemaza rahbar nafaqat ishni barbod qilishi, balki minglab insonlarning hayotini buzishi mymkin.

Yangi davr, yangi rahbar kadrlarni shakllantirish, yangi - sharqona tanqid madaniyatini shakllantirishni taqozo qiladi. Sharqona tanqid madaniyati bu - tanqidning yaxshi niyat bilan qo'shib aytilishi, milliylik, samimiylik, tanqid qilinuvchining shaxsiyatiga hurmatning namoyon bo'lib turishi; tanqid qilinayotgan kamchilikning tanqid qilinuvchidagi ijobiy sifatlarini ham qayd qilish, millat va davlat manfaatlarini ustuvorligi, yaratuvchilik, konstruktivlik, ma'naviylik, «moziyga qaytib ish ko'rish» tamoyili uyg'unligidir. Bu insonlar, xodimlar, fuqarolardagi salbiy sifatarni susaytirish, ijobiy sifatarni kuchaytirishga sharoit yaratadi. Taqdirlash - ijobiy sifatlarini o'stiradi. Tanqid - salbiy sifatarni so'ndiradi. Buning formulasi qanday? Bunga buyuk, milliy, ibratli tariximizda ko'plab dalillari bor. Ana shunday millat va davlat ustuvorligi, nasihat, tanqid, yaxshi niyatlar majmuasidan biri Kul Tegin qiblasida bor: «Chin millatining so'zi totli, shirin, ipak to'qimasi yumshoq emish. Shirin so'z

ila, yumshoq ipak to'qima ila aldab, uzoq millatni shu tarzda yaqinlashtirar emish. Yaxshi bilimli insonni yurgizmas emish. Bir inson nomuvofiq ish qilsa, qabilasi, millati, qarindoshurug'lariga qadar yashatmas emish. Shirin so'ziga, yumshoq to'qimasiga aldanib, ko'pdan-ko'p Turk millati, o'lding. Turk millati, o'lajaksan!» Naqadar samimiy milliy tanqid. Bu millatni nizomga, tartibga solgan xoqon so'zlarida yuqorida keltirganimiz sharqona tanqidning barcha ustuvor unsurlari mujassam. Shu sababli bunday tanqid millat, xalqda ijobiy sifatning ko'payishiga, salbiy sifatning susayishiga xizmat qilgan.

Germaniyada bo'lajak rahbarning axloqiy va tashkilotchilik sifatlariga talab kuchaytirilmoqda. Amerika va Germaniya psixologlarining tadqiqotlari natijalari asosida rahbar xodimlarni tanlab olishning quyidagi qoidalari ishlab chiqildi:

1. Tanlanayotgan rahbarning ma'naviy va kasbiy sifatleri u bajarishi kerak bo'lgan vazifalarga qat'iy mos bo'lishi kerak.

2. Rahbar o'zidan quyidagi rahbar xodimlardan hech bo'lmaganda bir fazilati bilan ustun bo'lmog'i kerak.

3. Rahbar va jamoa manfaatlarini uyg'un bo'lishi kerak.

4. U yoki bu kishining rahbar bo'la olishini oldindan aytib berishning eng yaxshi uslublaridan biri uning biografiasini psixologik tahlil qilmoqdir.

Yaponiyada taraqqiyot mo'jizasining ilk iqtisodiy manbai texnologiyalarni keltirish, ishga tushirishdan boshlangan bo'lsa, milliy-ma'naviy manbai "inson omili" poydevorining vatanparvarlikka qurilgani bo'ldi. Bu xususiyat o'z navbatida kadrlar siyosatida ham aksini topdi.

Rahbarlikning o'ziga xos mas'uliyati bo'lgani sababli, uning yukini ko'tarish hech qachon oson bo'lmagan. Lekin buyuk maqsad sari intilayotgan, o'ziga xos o'tish davrini boshdan kechirayotgan, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirayotgan mamlakatimizda rahbar bo'ladigan shaxs barcha talablarga javob berishi shart. Chunki yurtimizda islohotlar hamrovi tobora kengaygani sari yangi vazifalar ko'lami ham shunga yarasha oshib bormoqda. Bu vazifalarningamalga oshirilishi, avvalo, jamiyatimizda tinchlik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, xavfsizlikning ta'minlanishi bilan bog'liqdir.

Bugungi rahbar qanday pog'onada bo'lishidan qat'i nazar, vujudga kelgan vaziyatni inobatga olgan holda, faoliyatini tashkil qilishi kerak. Jumladan, yurt xavfsizligi, tahdidga nisbatan "ogohlik" tushunchalari kattayu kichik

rahbarlarga tegishli ekanini ham anglab yetishimiz darkor. Masalan, mahalla tinch, osoyishta bo'lsa, tuman ham tinch bo'ladi, tumanda tinchlik bo'lsa, viloyat miqyosida ham shunday holat bo'ladi. O'z navbatida, bu mamlakatimizda osuda hayot hukm surayotganini bildiradi. Demak, tinchlik, xavfsizlik uchun jon kuydirish nafaqat yuqori lavozimdagi rahbarlarning, balki quyi pog'ona mas'ul shaxslarning ham vazifasidir. Shu o'rinda bir masalaga e'tibor qaratmoqchimiz. Ma'lumki, diniy aqidaparastlar xuruji, avvalo, mahalla yoshlariga qaratilgan. Chunki ular davlat va jamiyat boshqaruvining eng quyi pog'onasi hisoblangan mahallalarda rahbarlik qilayotgan shaxslar faoliyatida tahdid omiliga nisbatan loqaydlik kayfiyatini seza olishadi. Mahalla rahbariyati va faollari, mahalla masjidleri imom-xatiblari o'z hududidagi yoshlarning yurish-turishi, tarbiyasiga jiddiy e'tibor berganida, balki, ko'pgina nojo'ya xatti-harakatlarning oldi olingan bo'lur edi. Afsuski, mahalla oqsoqollari hali ham xavfsizlik va tahdid mhammosini yuqori tashkilotlar rahbarlarining vazifasi deb qadamoqda. Vaholangki, biz uchun xavfsizlik yaxlit va bo'linmasdir. Ushbu qoida nafaqat mamlakatimiz tashqi siyosatiga, balki ichki hayotimizga ham taalluqli. Shuning uchun barcha rahbar mas'ul shaxslar bu qoidani chuqur anglashi va o'z faoliyatiga joriy qilishi lozim.

**Xulosa.** Umumjamiyat xavfsizligini ta'minlash vazifasi barcha rahbarlarning burchi degan g'oya bugungi kunda, nafaqat hududiy boshqaruv rahbarlarining, balki mamlakatimizdagi mavjud barcha tashkilotlar, ishlab chiqarish korxonalarini boshliqlariga ham taalluqlidir. Chunki ular ham jamiyatning bir bo'lagi bo'lgan odam lar bilan birga ishlashadi. Kichik bir hamoa xo'jaligining rahbarimi yoki yuqori lavozimdagi mansabdor shaxsni yoinki korxonaga yetakchisimi, u o'z idoraviy xo'jalik yumushlari doirasi bilan cheklanib qolishi mumkin emas. Bugungi rahbar o'z hamoasining ahvoli, xodimlarning ijtimoiy-siyosiy kayfiyati, dunyoqarashi, orzu-intilishlari to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi shart. Tajribadan ma'lumki, ba'zan oddiy, kichkina ko'ringan narsalar ham tahdid omiliga xizmat qilishi mumkin. Masalan, korxonadagi oddiygina ko'ringan masala vaqtida hal etilmasa, u xodimlarning ommaviy noroziligiga sabab bo'lishi hech gap emas. Ayian shunday vaziyatlar g'animlarimiz, diniy aqidaparastlarga qo'l keladi. Vaholanki, o'zoqni ko'zlagan, keng fikrlay oladigan rahbar vaziyat chuqurlashib ketmasidanoq, oldindan unga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqadi vaamalga oshiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. - 188 b.
2. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniyy yohud javonmardlik tariqati. -Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994. - 77 b
3. Muhammad Ali. Sarbadorlar. Tarixiy roman. Diligiya. -Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2011.
4. Ibragimov N. Ibn Batuta i yego putishestviya po Sredney Azii. -Moskva: Nauka, 1988.





UDK:740

Zafar TUYCHIIYEV,

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi tarix fani o'qituvchisi

E-mail: tuychiyevzafar1984@gmail.com

Alfragananus universiteti dotsenti, f.f.d M. Xujayev taqrizi asosida.

### SOCIO-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF THE IDEAS OF SUFISM

Annotation

This article analyzes the emergence and development of Sufism from a scientific point of view, and comments on its historical stages and ideological foundations. The socio-philosophical aspects of the basic principles of Sufism have been studied.

**Key words:** Purity, unity of being, self-discipline, asceticism, asceticism, Sharia, takikat, murshid, murid, marifat, truth.

### СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ИДЕЙ СУФИЗМА

Аннотация

В данной статье с научной точки зрения анализируется возникновение и развитие суфизма, высказываются комментарии к его историческим этапам и идеологическим основам. Изучены социально-философские аспекты основных принципов суфизма.

**Ключевые слова:** Чистота, единство бытия, самодисциплина, аскетизм, аскетизм, шариат, такикат, муршид, мюрид, марифат, истина.

### SO'FIYLIK G'OYASINING IJTIMOYIY-FALSAFIY MOHIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada So'fiylikning vujudga kelishi va rivojlanishi ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan, qolaversa, uning tarixiy bosqichlari va g'oyaviy asoslariga doir mulohazalar ifodalangan. So'fiylikning asosiy tamoyillarining ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga xos jihatlari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Poklik, vahdatul vujud, nafs tarbiyasi, zuxd, zohidlik, shariat, taqiqat, murshid, murid, marifat, haqiqat.

**Kirish.** So'fiylik g'oyasining vujudga kelishi va rivojlanishi Islom falsafasi va madaniyatida muhim ahamiyatga ega. Uning ilmiy tahlilida arab faylasufi Ibn Arabiyning hissasi nihoyatda katta, chunki u so'fiylik monizm va panteizmning nazariy asoslarini ishlab chiqardi. Uning "vahdatul vujud" (yagona mavjudlik) konsepsiyasi asosiy va falsafiy jihatdan muhim g'oyalardan biridir.

Tasavvufda inson qalbining Allohga bo'lgan yaqinligini oshirish uchun nafsni tozalash, ya'ni tazkiya (تزكية) juda muhim rol o'ynaydi. So'fiylar o'z qalbini poklash orqali Alloh bilan yaqin aloqada bo'lishga intilishadi. Shuningdek, "tasavvuf" so'zi Muhammad (s.a.v.) davridagi ahl as-suffa guruhidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Bu guruh Muhammad (s.a.v.) masjidida yashagan va doimiy ravishda zikr va ibodat bilan mashg'ul bo'lgan kishilardan iborat edi. Ular, masjidda bir joyda to'planib, ibodat qilishgan va shunga ko'ra birinchi so'fiylar deb qaralgan. Tasavvuf Islom dinining botiniy qirralarini aks ettiradi va unda Allohga bo'lgan muhabbat va yaqinlikni oshirish ruhiy o'zgarishlar, qalbni poklash va nafs bilan kurashish asosiy maqsad sanaladi. Boshqa bir ta'rifda bu so'z ahl as-suffa ("suffa ahli") atamasidan kelib chiqqan deb taxmin qilingan va Muhammad alayhissalomning sahobalarining guruhi muntazam ravishda zikr yig'inlarini o'tkazar edilar. Masjid an-Nabaviyda o'tirgan bu erkak va ayollarni ba'zilar birinchi so'fiylar deb biladilar[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ilk o'rta asrlardagi buyuk mutafakkirlarimizdan biri Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bashir at-Termiziy o'zining yetuk donishmandligi, ilm-fanning turli sohalarida mashhur bo'lgani uchun uni zamondoshlari al-Hakim deb ardoqlaganlar. Tasavvuf tarixida esa Hakimiya tariqati asoschisi sifatida mashhur bo'lgan. Ba'zi mutaxassislar bu tariqatning

mukammalligini e'tirof etib, uni hatto mazhab deb ham ta'riflaganlar [2].

Ibn Arabiyning fikriga ko'ra, dunyo va Alloh o'rtasidagi bog'liqlik ratsional tushuntirishlar orqali emas, balki intuitiv tushunish orqali anglash mumkin. Bu g'oya so'fiylikning mistik tarafini aniqlashga yordam beradi. Abdulkarim Jimiy «Borliqning yaratilgandan beri komil inson bordir va uning o'ziga xos haqiqati bor. Asli ismi Muhammad bo'lib, har asrda boshqa suratda va boshqa nomlar bilan ko'rinadi. Dunyo yaratilganidan beri har xil payg'ambarlar shaklida ko'ringan ham komil insondir. Muhammad Alayhissalom har xil suratda ko'rinish qudratiga ega. Har zamon insonlarning eng komil suratiga kirib, ularning sha'nini yuksaltiradi. Suratiga kirgan kishilar zohiran uning xalifalari, botinan esa -ularning haqiqatidir» [3], – deb yozadi.

So'fiylik faqat nazariy doirada qolmagan, balki amaliy jihatdan ham rivojlangan. Bu esa so'fiylik tarikatlari va jamoatlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Har bir tarikat o'ziga xos o'quv tizimi, rituallar va muqarrar yo'llar orqali dindorlarni Allohga yaqinlashtirishga harakat qiladi. Tarikatlar so'fiylik g'oyalarini tarqatish va uning amaliy jihatlari shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Islom taraqqiyotida tasavvuf ilmining o'rni beqiyosdir. Buxorolik ajdodlarimizdan shayx al-Kolobodiy (tug'ilgan yili ma'lum emas, milod. 991-yil vafot etgan) birinchi bo'lib tasavvuf faniga ilmiy asos solgan buyuk mutafakkirdir [4].

So'fiylik g'oyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi, ko'plab tadqiqotchilarning fikricha, islom dinining ilk diniy va mistik tajribalari bilan chambarchas bog'liq. Muqaddas Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ning yuksak ruhiy holiyoti va u bilan bog'liq ko'rsatmalar so'fiylar uchun yuksak ideal va yo'l boshchi bo'lib xizmat qilgan. Sufizm paydo bo'lgan davrda islom jamiyatida diniy va ma'naviy hayotning

shakllanishi va uning chuqurliklariga kirib borish jarayoni tez sur'atlarda kechdi. "Markaziy Osiyo tasavvufi hanafiylik an'analari asosida shakllangan. Bu esa hududda muhaddislar, mufasssirlar, faqihlar, mutakallimlar, ulamolarning aksariyati zohid bo'lganliklari bilan izohlanadi. Bu ta'limotlarning shariatda o'z o'zini bo'lib, ular ortodoks islom an'analari doirasida talqin qilingan. Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan mutasavviflar islom ta'limotining markaziy muammolarini o'z g'oya va qarashlarining asosiy nuqtasiga aylantirishgan. Ularning inson kamolotida maqomlar, tana va ruh pokligi, axloqiy poklik va nafs tarbiyasi haqidagi g'oya va qarashlari hozirgi kunda ham ustovur g'oyalari hisoblanadi" [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** So'fiylar ilk marotaba o'zlarining diniy hayotida Allohning borlig'ini to'liq his qilish, u bilan yordam berish yo'lida qurbon bo'lish va ishq-muhabbat tuyg'usi orqali yaqinlashishga harakat qilishdi. So'fiylik nazariyasiga ko'ra, insonning nafi, ya'ni uning egosi, barcha tana istaklari va hirsilarining markazidir va bundan to'liq xalos bo'lish uchun so'fiylar nafsni tarbiya qilishning turli usullarini ishlab chiqqanlar. Mazkur jarayonlarda so'fiy ustoz va shogird munosabatlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ustozning ruhiy yetakchilik rolini bajargan.

Ibn Arabiyning ta'limoti so'fiylikda muhim o'rin tutadi. Uning fikricha, Alloh bir vaqtning o'zida ham transsendent (oliy va inson tafakkuridan tashqarida), ham immanent (o'zi yaratgan borliqda mavjud) ekanligi tasdiqlanadi. So'fiylarning ma'naviy safarlari orqali insoniyatning eng yuksak maqsadi Alloh bilan birlashishga intilishdan iboratdir. Ibn Arabiyning antologik monizm nazariyasiga ko'ra, Alloh borliqning har bir qismida o'zining zohirini ifoda etadi. Bundan kelib chiqadigan fikr shundaki, inson o'z nafsini anglashi orqali Allohni ham anglashi mumkin. Shunday qilib, so'fiylik falsafasi insonning ruhiy tajribalari orqali Allohga yaqinlashish va uning zohiriy sirlarini anglashga qaratilgan, bunda nafsdan voz kechish va to'liq Allohga yondashuv ruhiy yuksalishning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib hisoblanadi. «Tasavvuf – nafs tarbiyasi, islomning haqiqati, asosi, jon tomiridir. Nafs tarbiyalangach, kishi savobtalab va foydali bir insonga aylanadi. Tasavvuf taqvo yo'lidir. Bu – qo'rqish, saqlanish degani... Kishi Allohdan qo'rqib, gunohlardan, haromlardan, Alloh yoqirmagan ishlardan o'z nafsini tiygani uchun taqvo yo'li deyiladi...» [6].

Sufizmning vujudga kelishi va rivojlanishini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish uchun uning tarixiy bosqichlari va g'oyaviy asoslariga e'tibor qaratish zarur. Sufizm (tasavvuf) — bu, avvalo, islomdagi asketizm (zuxd) asosida shakllangan mistik-asketik yo'nalish bo'lib, uning asl maqsadi insonning ichki ma'naviy tozaligiga erishish va Alloh bilan bevosita ruhiy bog'lanishga yo'l topishdan iborat.

Sufizm tarixining bosqichlari:

**Asketizm (Zuxd) davri:** Bu davr VIII-IX asrlargacha davom etgan. Asketizm musulmonlarning ilk zohidlik va ruhiy poklanishga intilishlari bilan bog'liq bo'lib, uning maqsadi dunyoviy lazatlardan voz kechib, Allohga yaqinlashish edi. Bu davrda asketizm va zohidlik, ayniqsa, shaxsiy ibodatlar va ruhiy mashg'ulotlar orqali amalga oshirilgan. Mazkur davrdagi ta'limotlar hali shakllangan tizimga ega emas edi, lekin kelajakda so'fiylikning asoslarini yaratdi.

**Sufizm (Tasavvuf) davri:** IX-XII asrlarda sufizm falsafiy va mistik ta'limot sifatida rivojlanib, murshid (ustoz) va myurid (shogird) tizimiga asoslangan. Bu davrda tasavvuf adabiy va estetik shakl oldi. So'fiylar insonning ma'naviy rivojlanishini o'rganib, uning Alloh bilan bog'lanish jarayonidagi bosqichlarni tushuntirishga harakat qildilar. Ushbu bosqichlarda eng mashhur vakillardan biri Junayd Bag'dodiy va Boyazid Bistomiy hisoblanadi.

So'fiylik birodarliklari (Tarikatlar) davri: XII—XIII asrlarda so'fiylikda tarikatlar shakllana boshladi, bu vaqtda so'fiylik keng xalq ommasi o'rtasida ham tarqaldi. Mazkur davrda sufizmning ezoterik va falsafiy tomonlari yanada rivojlanib, bir qator yirik tariqatlar (Mavlaviya, Qodiriya, Naqshbandiya va h.k.) paydo bo'ldi. Tarikatlar orqali so'fiylik ijtimoiy hayotning har bir jabhasiga kirib bordi, shu jumladan adabiyot, musiqa va san'atda ham uning ta'siri kuchaydi.

Sufizm insonning ichki dunyosiga kirib, uni ma'naviy yuksaklikka yetkazishni maqsad qilgan. Shuning uchun u nafaqat diniy, balki axloqiy, estetik va ma'rifiy sohalariga ham ta'sir ko'rsatgan. So'fiylik adabiyot va musiqa o'zining yuksak poetik va ruhiy mazmuni bilan tanilgan. So'fiylik inson qalbini, uning ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratganlar. Masalan, Jaloliddin Rumiy va Shayx Attorning she'riyati so'fiylik ruhini aks ettirib, insonni Allohga muhabbat va ruhiy bog'lanish orqali ma'naviy kamolotga chorlaydi.

Sufizm ilmiy-falsafiy qarashlar nuqtai nazaridan ham qiziqarlidir. U diniy-falsafiy to'lqin sifatida inson tabiati, uning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi, ruhiy kamolotga erishish jarayonlarini tushuntirib beradi. So'fiylikdagi fikrlar inson ruhiyati va Alloh bilan bog'lanishni tushuntirishda yuqori ahamiyatga ega bo'lib, ular insonning ma'naviy holi, qalb va ruhiy jarayonlarni o'rganishga turtki beradi. So'fiylik ta'limoti orqali yuzaga kelgan fikr va g'oyalari falsafa, axloq, adabiyot, san'at va madaniyat sohalariga juda katta ta'sir ko'rsatgan. «Tasavvuf – uzoq asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishga, uning ijtimoiy tafakkuri ezgu g'oyalar asosida shakllanishiga xizmat qilib kelgan diniy va dunyoviy qarashlar uyg'unligidan iborat ta'limotdir. Mintaqa san'at va madaniyati, adabiyot va falsafiy fanlari rivojida uning ta'siri beqiyos» [7].

So'fiylik O'zbekiston sharoitida ko'p asrlar davomida shakllangan va rivojlangan diniy-falsafiy yo'nalish bo'lib, u jamiyatda ham ma'naviy, ham madaniy hayotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Islom dinining arab olamida kengayishi davrida ba'zi musulmonlar faqat shariat qoidalariga amal qilishga urg'u berib, ma'naviy hayotga yetarlicha e'tibor qaratmay qo'yganlar. Bu holat ko'plab olimlar tomonidan islomning haqiqiy qiymatlariga qaytish va ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlash chaqiriqlariga olib kelgan.

Islom dini VIII-IX asrlarda tezlik bilan kengayib, turli mintaqalarda o'z ta'sirini o'rnatgan davrda tasavvuf (so'fiylik) G'arb mintaqalarida (Yegipet, Suriya, Iroq) shakllana boshlagan. O'rta asrlar mobaynida bu yo'nalish, boshqa dinlarning asketik harakatlaridan ta'sirlangan holda, yangi diniy va falsafiy ta'limot sifatida rivojlandi. O'zbekiston hududida so'fiylik Zardushtiylik, Manixeylik, va Nestorianlik kabi mahalliy dinlar bilan o'zaro ta'sirlashgan holda rivojlangan.

O'zbekistonning ko'plab shaharlari, xususan, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy markazlar so'fiylik madaniyatining rivojlanishida muhim o'rin tutgan. So'fiylik ordenlari, ayniqsa, Kubraviya, Yasaviya va Naqshbandiya, bu hududda shakllangan bo'lib, ularning ta'siri madaniy va diniy hayotga juda chuqur singib ketgan.

So'fiylik yo'lida ma'naviy rivojlanish to'rt bosqichda amalga oshadi:

Shariat – islom qonunlariga amal qilish;

Tarikat – murshid yoki ustozga bo'ysungan holda o'z nafsini tarbiya qilish;

Marifat – Allohni anglashga intilish;

Haqiqat – haqiqatni to'liq tushunish va unga yetish.

O'zbekistonda so'fiylikning o'ziga xos xususiyati, uning mahalliy an'analar va diniy jamoatlar bilan birlashgan holda rivojlanishi hisoblanadi. Maxsus tartib-qoidalari va udumlari bo'lgan so'fiylik ordenlari mahalliy jamoalarda juda

katta ta'sirga ega bo'lgan va ularning faoliyati jamiyatning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga yordam bergan. Bu ordenlar faqat diniy faoliyat bilan cheklanmay, ayni paytda jamiyatdagi ijtimoiy himoya, ma'naviy qadriyatlarni saqlash va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

O'zbekistondagi so'fiylik an'analari bilan bog'liq tarixiy yodgorliklar ham katta ahamiyatga ega. Misol uchun, Buxorodagi Bahovuddin Naqshbandiy majmuasi, Samarqanddagi Xoja Ahror maqbarasi va Toshkentdagi Shayx Zaynuddin Bobo maqbarasi O'zbekistonning boy so'fiylik merosidan dalolat beradi. So'fiylik O'zbekistonning ijtimoiy va madaniy hayotiga juda katta ta'sir ko'rsatgan va bu yo'nalishning qiymatlari milliy ma'naviyat va axloq tamoyillariga chuqur singgan. So'fiylikning inson ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan yondashuvi, uning yordamida insoniyat nafaqat moddiy dunyoning qiymatlarini qayta ko'rib chiqadi, balki ma'naviy yetilganlikka ham intiladi. Shu sababli, O'zbekistonda so'fiylik mahalliy an'analarga va madaniy tamoyillarga asoslangan holda, ma'naviyat va axloqning yuqori qadriyatlarini bilan bog'liq ilmiy, falsafiy va madaniy yo'nalish bo'lib, jamiyatning har bir sohasida o'z ta'sirini saqlab qolgan.

So'fiylikning paydo bo'lishi: IX-X asrlarda O'rta Osiyoda ilk so'fiy jamoalari paydo bo'la boshlagan. Bu davrda islomiy g'oyalar butun mintaqaga keng tarqaldi, ayniqsa, shaharlarda, ilm-fan rivojlangan davrda so'fiylikning tarkib topishi kuzatilgan. Bu jarayon O'zbekistondagi yirik shaharlar, jumladan, Buxoro, Samarqand va Xorazmda asosan ilmiy markazlar sifatida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Masalan, Buxoro mashhur so'fiy Abdulxoliq G'ijduvoniyning vatani hisoblanadi.

So'fiylikning falsafiy mazmuni insoniyat va Alloh o'rtasidagi ma'naviy aloqaga asoslanadi. Unda zohiriy amallardan ko'ra ichki ruhiy holat va sevgi (mahabbat) birinchi o'ringa qo'yilgan. So'fiylar nafsni tarbiyalash, o'zini kamolga yetkazish, poklik va Allohni tanishga intilish orqali, ma'naviy yuksalishga erishish yo'lini tanlaydilar. O'zbekistondagi so'fiylar, xususan, Bahouddin Naqshbandiy kabi shaxslar o'z ta'limotlarida insonlarning axloqiy tarbiyasiga, ijtimoiy adolatga va tinchlikka alohida e'tibor qaratganlar. Bu gumanistik g'oyalar ko'p asrlar davomida o'zbek jamiyatida muhim o'rin tutdi.

**Tahlil va natijalar.** Tasavvufshunos olim U.Turar manbalarda zikr etilgan asosiy qarashlarni quyidagicha tasniflaydi:

a) Tasavvuf so'zi «As'hobi suffa»dan paydo bo'lgan. Bu nuqtayi nazarga ko'ra, so'fiylar holu harakatlar bilan As'hobi suffaga o'xshaydilar. Zero, as'hobi suffa (supa) ko'p vaqtlarini Masjidi Nabaviyning suffa (supa)sida ibodatu zikr bilan o'tkazganlar.

Biroq as'hobi suffa bilan so'fiylarning yashash tarzi bir-birlariga o'xshash bo'lsa-da, asos jihatidan bu qarash to'g'ri emas.

b) Tasavvuf kalimasi «Saff»dan paydo bo'lgan. So'fiylar Allohning roziligiga muvofiq yashaganliklari tufayli oxirtda Alloh xuzurida oldingi safda turadilar, degan tushunchadan paydo bo'lgan. Bu nuqtai nazar ham kelib chiqishi jihatidan to'g'ri emas.

v) «Banu sufa»ga nisbat berilib, so'fiy deyilgan. Banu Sufa Mudor qabilasiga mansub bo'lib, Ka'batullohga xizmat qilib, Alloh roziligi uchun xalqqa xizmat qilgan va astoydil ibodatga berilgan bir sulolaning ismidir. So'fiylar tabiati jihatidan ularga o'xshatilib, bu qarash olg'a surilgan. Kelib chiqish qoidasiga muvofiq bo'lsa-da, bu qabila Islomdan avval bo'lgani, Islomdan keyin u haqda so'z yuritilganligi bois, so'fiylarning o'xshatilishi ham o'rinsiz. Agar bu qarash to'g'ri bo'lganida edi, so'fiy so'zi sahobalar davridayoq ishlatilgan bo'lishi kerak edi.

g) So'fiy kalimasining asli «safviy» bo'lib, talaffuzi qiyin bo'lgani uchun «vov» bilan «fa» o'rin almashgan. Bu qarash ham e'tiborga loyiq emas.

d) So'fiy so'zi «Safu» yoki «savf»dan kelib chiqqan deb aytiladi. Bu qarashga ko'ra, so'fiy dunyoviy kirlardan qalbi tozalanib, poklangani uchun bu nomga sazovor bo'lgan. Imom Qumayriy ushbu qarash tarafdori. Bu da'vo kelib chiqish qoidasiga muvofiq emas.

ye) Tasavvuf, bir yoqlama bo'lish, yuz o'chirish ma'nolarini bildiruvchi «savf» so'zidan olingan deyiladi. Allohga erishganlar mosivodan yuz o'g'irganlari uchun ularga so'fiy, yurgan yo'llariga esa tasavvuf deyilgan.

yo) So'fiy kalimasi yunoncha «hikmat» (falsafa) ma'nosini bildiradigan «sofos-sofiya»dan olingan... Olim No'ldeke ham yunonchadagi «S» xarfining arabchaga «sin» shaklda o'tganini, so'fiy esa yunonchadan olingan bo'lsa edi, «sod» bilan emas, «sin» bilan yozilishi kerakligini aytgan.

j) So'fiy kalimasi jun, yung ma'nosidagi «suf» so'zidan olingan. Rangsiz, dag'al jundan tikilgan libos kiyimoq u davrlarda gunohdan pushaymon bo'lishning alomati edi. Muhibiyning fikricha, junli libos kibni o'ldirib, odamni kamtarin qiladi. Malik ibn Dinor, Utba va Sufyoni Savriylarning junli libos kiyganliklari rivoyat qilinadi. Anas ibn Molikdan rivoyat qilishlaricha, «Payg'ambar alayhissalom bir kishining da'vatiga ijobat qilib, eshagiga minar va junli kiyim kiyib borar edilar. So'fiylar ham junli kiyim – payg'ambarlarning kiyimi va tavoze belgisi bo'lganidek junli libos kiyardilar. Oq rangli junli kiyim kiyish xijriy III asrdan e'tiboran so'fiylar tomonidan rasmiy libos sifatida maqbul ko'rilgan» [8].

**Xulosa va takliflar.** So'fiylik o'zining insoniyatga va jamiyatga munosabati bilan ijtimoiy adolat, kamtarlik, zulmga qarshi kurash g'oyalarini ko'targan. Axmat Yassaviy kabi so'fiylar xalq ichidagi muammolarga, ayniqsa, to'g'ri yo'lga chaqirish va ichki ma'naviyatni tiklashga e'tibor qaratganlar. So'fiylik hech qachon kuch ishlatish yoki zo'ravonlikka yo'l qo'ymagan. Ayni vaqtda zamonaviy din ekstremizmi va terrorizmga qarshi ideologik jihatdan kurashda so'fiylik g'oyalari muhim ahamiyatga ega. So'fiylikning gumanizm va ma'rifatga chaqiruvchi g'oyalari ekstremistik harakatlarning tubdan noto'g'ri ekanligini ko'rsatib beradi. Umuman olganda, so'fiylikning O'zbekiston sharoitida paydo bo'lishi va rivojlanishi uzoq asrlarga borib taqaladi. Uning gumanistik g'oyalari jamiyatni ma'naviy yuksalishga, insonlar o'rtasidagi tinchlik va hamjihatlikka chaqiradi. Shu jihatlarni inobatga olgan holda bu mavzu doirasida yanada chuqurroq tadqiqot ishlarini olib borish ehtiyojini tug'diradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Brown, Jonathan A.C. Hadith: Muhammad's Legacy in the Medieval and Modern World. Oneworld Publications (Kindle edition), 2009. 180 b.
2. Уватов У. Ал-Ҳаким ат-Термизий. – Тошкент: Маънавият, 2014. –Б. 29.
3. Турар.Усмон Тасаввуф тарихи.- Тошкент: Истиқлол. 1999. –Б. 21, 22, 140.
4. Шайх ал Колободий «Тасаввуф сарчашмаси» таржимон Отакул Мавлонкул ўғли ва Мавлуда Отакул кизи. Т.:Ғафур Фулом номидаги «Адабиёт ва санъат» нашриёти. 2002. -144 б.
5. [https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13272\\_1\\_FFEF609F6C7A16D3AFC28D5B05858A4F9510736A.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13272_1_FFEF609F6C7A16D3AFC28D5B05858A4F9510736A.pdf)
6. Жўшон Маҳмуд Аъсад. Ислом, Тасаввуф ва ахлоқ. –Т. Истиқлол. 2000. 168 б.

7. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. Тошкент: Ёзувчи, 1996. –Б. 5.
8. Жўшон Маҳмуд Аъсад. Тасаввуф ва нафс тарбияси. Тошкент: Чўлпон, 2000. –Б. 30-31.



UDK: 37.378.378.1

**Marjona TO'RAQULOVA,**  
*Buxoro muhandislik - texnologiya instituti dotsenti, PhD*  
*E-mail: marjonaturakulova79@gmail.com.*

*Buxoro davlat universiteti professori, p.f.d H.Jo'rayev taqrizi asosida*

### THE CURRENT STATE OF DEVELOPMENT OF THE MASTERS ' ABILITY TO INVENT IN THE MODERN INDUSTRY - 4.0 ENVIRONMENT AND THE EXISTING PROBLEMS

Annotation

The article presents the current state of development of the Masters ' ability to invent in technological and industrial innovation in the modern Industry - 4.0 environment and the description of existing problems, presents the importance of the problem study jaroyin, the tasks set for its solution. A number of educational content and advantages that will be effective in developing methodological foundations that develop the ability to invent subjects in teaching in higher educational institutions and applying them to the educational process were scientifically analyzed and recommendations were developed, the possibilities of ensuring the development of the ability to invent in the teaching of specialty subjects in Masters were described.

**Key words:** Technological and industrial innovation, invention, ability, creativity, problem, flexibility, education, method, master, creative thought, scientific.

### ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТИ МАГИСТРОВ К ИЗОБРЕТАТЕЛЬСТВУ В СОВРЕМЕННОЙ СРЕДЕ ИНДУСТРИИ 4.0 И СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ

Аннотация

В статье представлено текущее состояние развития способности магистров к изобретательству в области технологических и промышленных инноваций в современной среде "Индустрия - 4.0" и описание существующих проблем, представлена важность исследования проблемы яройин, задачи, поставленные для ее решения. Был научно проанализирован ряд образовательных материалов и преимуществ, которые будут эффективны при разработке методических основ, развивающих способность к изобретательству предметов при преподавании в высших учебных заведениях и применении их в образовательном процессе, и разработаны рекомендации, возможности обеспечения развития способности к изобретательству при преподавании специальных предметов. в книге "Мастера" были описаны.

**Ключевые слова:** Технологические и промышленные инновации, изобретение, способность, креативность, проблема, гибкость, образование, метод, магистр, творческая мысль, научный подход.

### MAGISTRARNING ZAMONAVIY SANOAT - 4.0 MUHITIDA IXTIRO QILISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AMALDAGI HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR

Аннотация

Maqolada magistrarning zamonaviy sanoat - 4.0 muhitida texnologik va sanoat innovatsiyalarida ixtiro qilish qobiliyatini rivojlantirishning amaldagi holati va mavjud muammolar bayoni keltirilgan bo'lib, muammolarni o'rganish jaroyinining ahamiyati, uning yechimi borasidagi qo'yiladigan vazifalar keltirilgan. Oliy ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitishda ixtiro qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi metodik asoslarni ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga qo'llashda samara beradigan bir qator ta'lim mazmuni va afzalliklari ilmiy jihatdan tahlil qilindi hamda tavsiyalar ishlab chiqildi, magistrlarda ixtisoslik fanlarini o'qitishda ixtiro qilish qobiliyatini rivojlantirishni ta'minlashning imkoniyatlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlari:** Texnologik va sanoat innovatsiyalar, ixtiro, qobiliyat, ijodkorlik, muammo, moslashuvchanlik, ta'lim, metod, magistr, kreativ fikr, ilmiy.

**Kirish.** Zamonaviy pedagog mutaxassis, talabalarning shaxsiy va ijodiy salohiyatini shakllantiruvchi hamda rivojlantiruvchi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmonida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 70-maqsadida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda ko'rsatib o'tilganidek, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish, ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor maqsadlari orasida har bir talabani ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, unda mehnatsevarlik va yuqori axloqiy tamoyillarni tarbiyalash uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish vazifasi qo'yildi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda ijodiy va kreativ fikrlashga avvalgiga qaraganda ko'proq e'tibor qaratilmoqda. O'zgarishlar tezligi, moslashuvchanlikka bo'lgan ehtiyoj va raqobatning kuchayishi ixtiro qilish qobiliyatini rivojlantirishga beparvo bo'lmaydigan sifatga

aylantiradi. Ta'limning zamonaviy tushunchalari (muammoli ta'lim nazariyasi, rivojlanish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, vakolatli yondashuv va boshqalar) talabalarning ijodiy faoliyati bilan reproduktiv ta'lim va kognitiv faoliyatining kombinatsiyasiga asoslanadi. Jumladan, texnik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandis-yaratuvchilarning muammoni o'rta tashlash, uni har tomonlama o'rganish, muammoning kelib chiqish sabab va oqibatlarini muzokara qilish, mavjud muammo ustida mustaqil mulohaza yuritish, muammoni yechishning turli xil o'zgacha usul va imkoniyatlarini tahlil qilish hamda yechimning eng maqbul yo'lini topishga qodir bo'lishlari uchun ularda ixtiro qilish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish hozirgi vaqtda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qator yillar ilgari o'tkazilgan ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, inson o'sib ulg'aygan sayin ularning ixtiro qilish qobiliyatlari susayadi. Sidney universiteti olimasi Robin Gibson hisobotiga ko'ra: 5 yoshga kelib bolaning ijodkorlik

salohiyati 98% ni tashkil qiladi; 10 yoshga kelib, bu foiz 30% ga tushadi; 15 yoshda bu 12%; biz kattalar davrida bizning ijodimiz 2% dan oshmaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Magistrlar ixtirochilik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishning auditoriya hamda darsdan tashqari mustaqil ishlarni tashkil etish kabi turlari farqlanadi.

Auditoriyada ixtirochilikni amalga oshirish yo'llari quyidagilar: topshiriqlarni bitta format bilan cheklamasdan, ya'ni talabalarga yozma topshiriq o'miga ular podkast, video, loyiha tuzishi, maket yasashi va boshqalarni yaratishga imkon yaratish; ijodkorlik uchun talabaga yetarlicha vaqt berish. Masalan, talabalar o'z g'oyalarni o'rganishlari uchun ularga vaqt berish; talabalarda topshiriqlar haqidagi fikrini kengaytirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishga shart-sharoit yaratib berish. Masalan, texnik qurilma ishlashini o'rgatish va auditoriyani yanada interaktiv qilish uchun internet tarmog'idan foydalanish mumkin; noan'anaviy o'quv materiallarini auditoriyaga kiritish. Auditoriyadagi sohaga oid adabiyotlardan tashqari ta'lim bilan qiziqarli texnik yo'nalishda o'yin yaratadigan Radiolab va TED Talks kabi o'quv podkastlari va videofilmlardan foydalanish mumkin; magistrning ijodiy g'oyalari, fikrlari va mahsulotlarini auditoriyaning o'zidayoq mukofotlash; magistrning ixtiro qilish qobiliyatlarini ko'proq shakllantirish auditoriyaning o'zida muhandislik ustaxonalarini (laboratoriyalar) yaratish.

Nafaqat ta'limda balki, sanoat uchun ixtirochilikning (texnik ijodkorlik) tutgan o'rni beqiyos bo'lib, jumladan, ingliz olimi (pedagog), ijodkorlik bo'yicha yekspert hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha ma'ruzachi va maslahatchi Ken Robinson ta'lim sohasida ijodkorlik zarurligiga bag'ishlangan ma'ruza (TED Talks)lari butun dunyo talabalari uchun foydali qo'llanmadir.

TED suhbatlarining magistrlarda ixtirochilikni shakllantirishdagi afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. TED suhbatlari magistrlarda maqsadni topishga yordam beradi.
2. Magistr shaxsining "o'zi"ni tan olishga yordam beradi.
3. Magistrning intilishlari va qiziqishlarini bilib olishga yordam beradi va ularni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi.
4. TED muzokaralari magistrning fazilatlarini yaxshilashga qaratilgan bo'ladi.
5. TED suhbatlarida to'plangan bilim magistrlarda bir xil maromda fikrlashdan tashqarida, ya'ni kreativlikka yordam beradi.
6. Shuningdek, magistrlarda bajarayotgan ishidan zavqlanishga hamda ijodiy yondashishga yordam beradi [5].

Zamonaviy sanoat - 4 takliflariga asosan ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlarning amaldagi holati bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mavjud magistratura

mutaxassislik yo'nalishida magistrlar avval mavjud bo'lgan texnologiyani tahlil qilib muhandis-texnolog bo'lib yetishib chiqsa, biz taklif etayotgan metodika asosida texnologik va sanoat innovatsiyalarida ixtiro qilish qobiliyati rivojlangan raqamli transformatsiyalash-muhandislar yaratuvchi malakasiga ega bo'lib shakllanadi. Quyida magistrning texnologik va sanoat innovatsiyalarida ixtiro qilish qobiliyatini rivojlantirishda o'qituvchining harakat yo'nalishi keltirilgan (1-rasm).

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga yega shaxsdir. Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs.

Magistrlar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar magistrlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash yoki qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasalar, bunday vaziyatda ular kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. Quyidagi omillar magistrlarda kreativlik sifatleri, malakalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi: o'zini tavakkaldan olib qochish; fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;

shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi; boshqalarga tobe bo'lish; har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Bo'lajak muhandislarida ixtirochilik qobiliyatini shakllantirishda tajriba va doimiy mashq usuli yordam bersada, o'qituvchi magistrarga murabbiy sifatida turli strategiyalardan foydalanishni o'rgatishi kerak. Magistrlarda turli g'oyalar turli toifa (kategoriyalar)ga bo'linishini anglashida yordam berish mumkin. Masalan, "neft mahsulotlari" kategoriyasiga magistrlar neft mahsulotlari nomlarini keltiradilar. Birozdan so'ng "gaz mahsulotlari" kategoriyasiga magistrlar avval polietilen, keyin boshqa mahsulot nomlari ro'yxatini tuzadilar. Mashq shu yo'sinda davom yetadi. Bu magistrlar bir kategoriya, ya'ni bir fikrdan ikkinchisiga o'tish va unga tezda moslashish ko'nikmasini o'zlashtirmaguncha davom yetadi. Magistrlarda bunday ko'nikma shakllangach, ulardan moslashuvchanlik bilan fikrlashni talab qilish mumkin. "Agarda dunyoda neft va gaz mahsuloti bo'lmaganida, yonilg'i mahsulotlarini qaysi xomashyodan olish mumkin bo'lar yedi?" va "Kelajakda neft va gaz xomashyosi zaxirasi tugab qolish muammosining, qanday strategiyani qo'llaganda, samarali yechimini topish mumkin?".

Turli kategoriyalarga mansub savollar talabalarda moslashuvchanlik ko'nikmasini rivojlantiradi.



1-rasm. Pol Torransning kreativlikni shakllantirish ko'nikmasi

“Kreativlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik ko'nikmasini aniqlagan (1987). Unda kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin:

Ixtiro qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan darslarda magistrlardan ajoyib g'oyalarni o'ylab topish (o'ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish) yoki boshqa g'oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog'liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko'nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

Magistrlarning birgina kategoriyada “qotib” qolishi oldini olish uchun majburiy solishtirish strategiyasini qo'llash mumkin. Masalan: o'qituvchi “neft gaz sohasini chiqindisiz texnologiyalar asosida yangidan barpo etish”, “neftni burg'ilash usullari”, ya'ni neft va gaz sohasida samarali toza mahsulotlarni ishlab chiqarish mumkinligiga qanday erishishi mumkinligi haqida so'rashi mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Mazkur strategiya moslashuvchanlik bilan fikrlash orqali voqealar va tushunchalar o'rtasida

#### SCAMPER strategiyasini qo'llash asosida magistrlarda ixtirochilikni rivojlantirish asoslari

Texnik ijodiy fikrlash orqali ixtirochilikni rivojlantirishda SCAMPER mnemonik sxemasidan moslashuvchan fikrlash ko'nikmasini shakllantirishda foydalanish		
SCAMPER	Savollar	Vazifalar
Substitute (almashtirish / o'zgartirish)	Gazni nordon komponentlardan tozalashda absorbent turini o'zgartirish uchun sabablar sanab o'ting	Variantlar ro'yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, uni takomillashirish yo'llarini izlash
Combine (birlashtirish)	Suv-neft emulsiyasiga deemulgator qo'shilsa, qanday jarayon yuz beradi?	Variantlar ro'yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, jarayonga yangi samarali g'oyani birlashtiring
Adapt (moslashtirish)	Gaz tarkibidan suyuqlik tomchilarini ajratish uchun qanday separatorlardan foydalanish samarali hisoblanadi?	Variantlar ro'yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, uni ta'riflang
Modify (o'zgartirish / boshqa shakl berish)	Rektifikatsion kolonnada maksimal va minimal haroratlar qancha?	Variantlar ro'yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, uni ta'riflang
Put to other uses (boshqa soha / usulda qo'llash)	Neft mahsuloti benzinni yana qaysi sohalarda qo'llash mumkin?	Variantlar ro'yxatini tuzing
Yeliminate (oldini olmoq / bartaraf qilmoq)	Quvur va jihozlar korroziyalanishining oldini olish uchun nimalar qilinadi?	Variantlar ro'yxatini tuzing
Rearrange / Reverse (qo'llanilishini o'zgartirish)	Gazga hid berishda odorantni qo'shish usulini o'zgartirish natijasi nimalarda namoyon bo'ladi?	Variantlar ro'yxatini tuzing

Yuqorida aytib o'tilganidek, SCAMPER – bu aqliy hujum paytida berilishi kerak bo'lgan savollar to'plami (yangi g'oyalarni qidirish). Muammo turli xil bo'lishi mumkin – ishlab chiqarishga oid samaradorligi yuqori texnologiyani yaratish, yangi turdagi muhandislik loyihalarni izlash va boshqalar. Asosiy, uni iloji boricha aniq shakllantirish. Muammoning ob'ekti va mavzusini ta'kidlashga harakat qilish zarur (3-rasm). Texnik ijodiy fikrlash orqali ixtiro qilish qobiliyatini rivojlantirishga yondashilgan dars mobaynida muammo yuzaga kelishi bilanoq aqliy hujumni boshlash va bo'limlardan savollar berish lozim. Har bir savolga yechim bo'lishi shart emas, lekin ularning ba'zilar talabani yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga majbur qiladi. Xuddi shunday, barcha savollar fanga aynan mos kelishi shart emas – ba'zilar kontekstda takrorlanadigan, noo'rin yoki hatto bema'ni tuyulishi mumkin. Faqat ularni o'tkazib yuborib yoki ba'zilarini dars davomida qayta tuzishga harakat qilish lozim. Muammoni hal qilish uchun nimani almashtirish mumkin? Jarayon holatini, jihoz turini, xomashyo sifatini, texnologiyani, katalizatorni, fizik kattaliklarni, ishlab prinsipi va boshqalar. Masalan, quyidagi savollar ko'rinishida: Savollar: Nimani almashtirish mumkin? Nima maqsadda? Qayerdan? Qayerda? Qachon? Qanday? Qaysi qismini almashtirish mumkin? Ushbu taklif etilayotgan metodikaga asoslangan texnik ijodiy fikrlash orqali ixtirochilik qobiliyatini rivojlantirishda raqamli transformatsiyalash tadqiqotchi muhandislar Sanoat 4.0 muhitida “tannarx muhandisligi”,

bog'liqliklarni topishga yordam beradi. Eberlarning ishlab chiqqan SCAMPER mnemonik sxemasi substitute (almashtirish/o'zgartirish), combine (birlashtirish), adapt (moslashtirish), modify (o'zgartirish/boshqa shakl berish), put to other uses (boshqa soha/usulda qo'llash), yeliminate (oldini olmoq) va rearrange (qo'llanilishini o'zgartirish) kabi strategiyasini qo'llash asosida magistrlarda texnik ijodiy fikrlash orqali ixtirochilik ko'nikmasini rivojlantirishga erishdik.

Boshqa har qanday vosita singari, agar quyidagi shartlar bajarilsa, bu strategiya samarali ishlaydi: magistr muammoni tushunadi va uni yozib olishi mumkin (yozib olish uchun aqliy mezonlardan foydalanishga harakat qiladi); magistr o'zining "standartlaridan" va bir xillikdan tashqariga chiqadi; fikrlarni qidirish bosqichida javoblarni tanqid qilmaslik kerak.

1-jadval

“qiyoslash muhandisligi”, “qayta muhandislik” “loyihalalovchi” kabi kadrlar bo'lib yetishib chiqadi.

**Xulosa va takliflar.** Magistrning zamonaviy sanoat - 4.0 muhitida texnologik va sanoat innovatsiyalarida ixtiro qilish qobiliyatini rivojlantirishda texnik ijodiy fikrlashni rivojlantirish zarurati hamda moslashuvchanlik ko'nikmalarini ketma-ket qo'llash samaradorligi aniqlandi. Magistrning zamonaviy Sanoat - 4.0 muhitida texnologik va sanoat innovatsiyalarida ixtiro qilish qobiliyatini rivojlantirishning amaldagi holati va mavjud muammolariga muqobil yechimi ixtisoslikka oid fanlardan bilimlarga ega bo'lish, kommunikativ odob-axloq asoslarini bilish, kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyatlari, motivatsiya, shaxsiy fazilatlar tizimi. Texnik ijodkorlik yo'l xaritasidan borgan holda SCAMPER strategiyasini qo'llash asosida magistrlarda ixtirochilikni rivojlantirish asoslari belgilandi va amaliyotga joriy etishga tavsiyalar berildi. Olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, magistrlarda ixtirochilik qobiliyatini rivojlantirish uchun avvalo texnik ijodiy fikrlash, moslashuvchanlik bilan fikrlash orqali voqealar va tushunchalar o'rtasida bog'liqliklarni topishga yordam berishi mumkinligi asoslandi. Yuqoridagi keltirilgan metodlar orqali zamonaviy sanoat - 4.0 muhitida texnologik va sanoat innovatsiyalarida ixtiro qilish qobiliyatini rivojlantirishning amaldagi holati va mavjud muammolari o'z yechimiga ega bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – B.39
- Turakulova, M., Tilloev, L., Murodov, M., Ataullov, S., Savriev, M. (2024). Extraction of hydrocarbons from “yellow oil” with liquefied gas residue. In E3S Web of Conferences (Vol. 486, p. 04023). EDP.ciences.
- To'raqulova M.Q. 2019. Iqtidorli talabalar bilan ishlashda ta'lim turlari va vositalarini tanlash. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Buxoro, №5.

4. To'raqulova M.Q. 2021. Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning texnik ijodkorlik qobiliyatlarini takomillashtirish mexanizmi va modeli, O'zMU xabarlari. – № 1/6. Toshkent.
5. To'raqulova M.Q. 2022. Talabalar texnik ijodkorligini shakllantirishda shaxs kreativligi va kognitivligi. O'zMU xabarlari. – № 1/2. – T.
6. Turakulova M.K. Oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalar. International Scientific-Practical Distance Conference "The 21st Century Skills for Professional Activity"VII Scientific-methodical journal of "scientific progress".
7. Turakulova M.K. (2021) Development of technical creative thinking skills of gifted students. World Bulletin of Social Sciences (WBSS). 2022. Vol. 14.
8. Turakulova M.K. (2022) Scientific And Creative Training Of Teachers In The Formation Of Technical Creativity Of Talented Students. International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences. Malaysia.
9. Turakulova M.K., Rakhmonov K.S. (2020). Identification and development of the abilities and creativity of gifted students in higher educational institutions. Asian journal of multidimensional research. Special issue.
10. Turakulova M.K., Rakhmonov K.S. (2020). Search, selection and planning of targeted training of talented students in technical universities. International engineering journal for research & development. Vol 5, Issue
11. To'raqulova M.Q. To'xtayeva Z.Sh. (2021). Ta'lim jarayonida faol metodlarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish. "Yengil sanoatda fan-ta'lim va ishlab chiqarishning innovatsion yechimlari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 1-tom. Buxoro.





Zamira TURUMBETOVA,

Qoraqalpoq davlat universiteti dotsent v.b,

Psixologiya fanlari doktori S. Sharapova taqrizi asosida

### CORRECTION OF DEVIANT BEHAVIOR OF STUDENTS IN THE FIELD OF EDUCATION

Annotation

In the early periods of human history, the processes of social deviance and behavioral deviation were considered immoral and regulated mainly by religious norms. In the article, the behavior of minors deviates from the social rules accepted in society, they do not follow them, and how important is the teacher's communication culture in working with teenagers who have these characteristics, and how important is the teacher's and student's It was discussed about strengthening of relations between.

**Key words:** Behavior, deviant, genetic, deterministic signs, speech culture, morality, reflex, character.

### КОРРЕКЦИЯ ОТКЛОНЕННОГО ПОВЕДЕНИЯ СТУДЕНТОВ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В ранние периоды человеческой истории процессы социальных девиаций и девиаций поведения считались аморальными и регулировались преимущественно религиозными нормами. В статье поведение несовершеннолетних отклоняется от принятых в обществе социальных правил, они им не следуют, а также насколько важна культура общения педагога в работе с подростками, имеющими эти особенности, и насколько важна культура общения педагога и ученика. Обсуждались вопросы укрепления отношений между.

**Ключевые слова:** Поведение, девиантные, генетические, детерминированные признаки, речевая культура, мораль, рефлекс, характер.

### TA'LIM SOHASIDAGI TALABALARNING DEVIANT XATTI-HARAKATLARINI TUZATISH

Аннотация

Insoniyat tarixining dastlabki davrlarida ijtimoiy deviantlik va xulq-atvor og'ishining yuz berish jarayonlari axloqsizlik sifatida qaralgan va asosan diniy me'yorlar orqali tartibga solingan. Maqolada voyaga yetmagan yoshlarning xatti-harakati jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy tartib-qoidalardan chetga chiqishi, ularga rioya qilmaslik va fe'lida shu xislatlari bor o'smirlar bilan ishlashda o'qituvchi muloqot madaniyati qanchilik muhim rol o'ynashi hamda o'qituvchi va talaba o'rtasida aloqalarni mustahkamlash haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Xatti-harakat, deviant, genetik, determinlik belgilar, nutq madaniyati, axloq, refleks, xarakter.

**Kirish.** «Deviant xatti-harakatlar» tushunchasi voyaga yetmagan yoshlarning xatti-harakati jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy tartib- qoidalardan chetga chiqish degan ma'noni bildiradi va ushbu tartib-qoidalarga rioya qilmaslik va ularni buzish bilan xarakter- lanadi [1]. Deviant xatti-harakat, ayniqsa, voyaga yetmaganlar uchun xosdir. Ushbu davrda voyaga yetmagan yoshlarning shaxsiy xislatlari shakllanadi, uning o'z-o'zini anglashi, dunyoni bilishi qaror topadi. Biroq shaxsning shakllanishi va rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, o'ziga xos qiyinchiliklar va og'ishlar, ichki qarama-qarshiliklar hamda ijtimoiy hayotdagi turli vaziyatlarga ko'nika olmasliklar bilan kechishi mumkin. Deviant xarakterga ega bo'lgan yoshlar ko'pincha ta'lim muassasasidagi darslarga bormaydilar, uydan qochib ketadilar, daydilik qiladilar, tilanchilik bilan shug'ullanadilar, spirtli ichimliklar ichadilar, tamaki va giyohvandlikka ruju qo'yadilar. Natijada qonunbuzarlikka moyil bo'lib, jinoyatga qo'l uradilar.

**Adabiyotlar sharhi.** O'rta asr musulmon Sharqidagi qomusiy alloma Abu Nasr al Forobiy Aristotel izidan borib, falsafani ikki qism – nazariy va amaliyga bo'ladi hamda axloqshunoslikni amaliy falsafaga kiritadi. Axloqiy me'yorlardan og'ish masalalari uning «Fozil odamlar shahri» asarida alohida ko'rsatib o'tilgan.

Buyuk vatandoshimizning fikricha, «...insonga uni go'zal amallar qilish uchun yo'naltiradigan odat mahsuli bo'lmish yetuk xulq lozim. Xulqning yaxshiligi xatti-harakatlarda me'yor qay darajada saqlangani bilan bog'lanadi. Forobiy ba'zilar o'ta lazzatga berilishi, yeyish-ichish va

ayolga ruju qo'yishi tufayli juda bo'shshib ketadi, irodasi yo'qoladi, deydi. Butun kuchini o'z nafsiga sarflaydigan kishida ulug'vorlik tubanlikka xizmat qila boshlaydi, ya'ni fikrlash qobiliyati g'azab va ehtiros kuchlari xizmatida bo'ladi, bu kuchlarning harakati esa yeyish-ichish hamda shahvoniy nafsni qondirishga bag'ishlanadi» [2].

Axloq ilmi va umuman, ijtimoiy hamda tabiiy fanlarda chuqur iz qoldirgan buyuk ajdodlarimizdan biri Abu Rayhon Beruniydir. Beruniy o'z asarlarida insonlar va xalqlarning ijobiy yoki salbiy urf-odatlarini, xulq-atvorining shakllanishida tabiiy muhitning hamda georafik omillarning ahamiyatini ko'rsatib beradi. Bu esa keyinchalik sotsiologiya va kriminologiyada geografik yo'nalish nomini olgan hamda ijtimoiy deviantlik holatlarining paydo bo'lishi va shakllanishida geografik omillarni muhim deb hisoblovchi yo'nalishga asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.** Biz bir fikrni boshqalarga tushunarli qilish uchun ongli ravishda gap tuzamiz, uning qanday tuzilishi haqida o'ylaymiz, eng muvaffaqiyatli ibora va ta'riflar qidiramiz. O'yiga kelgan har qanday so'z va gaplarni o'ylamasdan yozib ketavergan kishi yozma nutqni yaxshi egallagan hisoblanmaydi. O'z fikr va maqsadini muvaffaqiyatli, aniq va mantiqiy ifoda qilish uchun o'ylab yoza oladigan kishigina yozma nutqni to'la egallagan hisoblanadi. Yozma nutqni egallash og'zaki nutqning ham sifatli, aniq va silliq bo'lishiga yordam beradi [3].

Kasbiy muammoni muvaffaqiyatli ravishda shunday yechish mumkinki, qachonki o'qituvchi talabalar bilan hamkorlik faoliyatiga samarali kirisha olsa, shaxsni

shakllantirishning maqsadi va vazifalariga javob beruvchi o'zaro ta'sir, o'zaro tushunishni yo'lga qo'ya bilsa, faqat mana shundaygina pedagogik muomala amalga oshadi, xolos.

Pedagogik muomala - o'qituvchining talabalarga ta'sir o'tkazish usullarining muayyan tizimini aks ettirish vositasidir:

hamkorlik ishtirokchilarining o'zaro axborot almashinuvi;

turlicha kommunikativ vositalar yordamida o'qituvchi tomonidan talabalar bilan o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatlarni tashkil qilish;

muayyan maqsadni dasturiy asosda amalga oshirishni rivojlantirish va o'tkazish funksiyasini bajarish kabilar [4].

Pedagogik faoliyatda muomala, birinchidan, o'quv faoliyatini yakka tarzda bajarishning vositasi; ikkinchidan, tarbiya jarayonini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik tizimi; uchinchidan, ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi o'qituvchi bilan talabalar o'zaro munosabatining muayyan tizimini tashkil qilishning samarali usuli; to'rtinchidan, talaba individualligini takomillashtirish, iste'dodini qaror toptirish imkonini beruvchi jarayon ekanligi; beshinchidan, yakka faoliyatni «subyekt- subyekt» sifatida ro'yobga chiqarish asosi hisoblanadi.

Pedagogik muomalada psixologik aloqa o'rnatish alohida ahamiyatga ega, chunki talaba bilan shaxslararo munosabat ikkita muhim omil, ya'ni o'zaro hurmat, o'zaro ishonch negizida quriladi. Bunda o'qituvchi talabani huquqi, majburiyati (maqomi), uning maktab, jamoat joylari, oilada bajaradigan roli nimadan iborat ekanligini diqqat markazidan chetga chiqarmasligi lozim.

O'qituvchining talabalarga ta'sir o'tkazish samarasi (samaradorligi) uning qat'iyatligi va talabchanligi fazilatlarida namoyon bo'ladi. Qo'shimcha shaklda, u o'ziga ham o'ta talabchan bo'lmog'i, shaxsiy namunasi bilan tabiiy ravishda nufuz, obro'-e'tibor qozonmog'i joiz.

Muomala jarayoni va hamkorlik faoliyatida o'qituvchining talabalarga ta'sir o'tkazishi natijasida ularda:

o'zini o'zi va o'zgalarni hurmat qilish;

o'zini o'zi va boshqalar faoliyati, xulqini baholash;

o'zini o'zi va o'zgalarni nazorat qilish;

o'zini o'zi anglash va o'zgalarni tushunish;

o'zini o'zi boshqarish (ham bilish faoliyatida, ham xulq-atvorida);

o'zini o'zi takomillashtirish va yangi fazilatlarini egallash;

voqelik mahsulini oldindan bashorat qilish shakllanadi

[4].

Pedagogik jarayonlarning barqaror bo'lishi va shaxsga ijobiy ta'sir etishi uchun quyidagi guruhlariga oid metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

Ishontirish.

Shaxsiy namuna.

O'rgatuvchi mashqlar.

Rag'batlantirish va jazolash.

Nazorat va baholash metodi va hokazolar [5].

Alohida ta'kidlab o'tish joizki, dars intizomiga salbiy munosabatni tugatish choralari ichida jazolash metodi ham katta ahamiyatga ega. Jazolash orqali talabadagi intizomsizlik xulqini qayta tuzatish mumkin. Jazolash talabani o'z salbiy xatti-harakatlari ustida uylashga majbur qiladi, intizomsizligi uchun tengdoshlari hamda ustozlari oldida mulzam bo'lish, uyalish, o'zidan qoniqmaslik kabi hislar uni qiynay boshlaydi. Shaxsiyatga tegish, tahqirlash, jismoniy, tanga jarohat yetkazish bilan bog'liq jazolash usullarini qo'llash aslo mumkin emas. Maktabdagi jazo choralari o'qituvchilar, sinf rahbarlari va maktab ma'muriyatining og'zaki tanbehi, sinf

talabalar o'rtasida ogohlantirish, uy vazifasini bajartirish uchun darsdan keyin olib qolish kabilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq.

Jazolashga quyidagi pedagogik talablar qo'yilgan:

ataylab sodir etilmagan intizomsizliklar uchun jazolamaslik;

talabani yetarli dalillarsiz jazolamaslik;

jazolashni tarbiyaning boshqa metodlari bilan uyg'unlashtirish;

pedagogik madaniyat doiralariidan chiqmaslik;

jamoatchilik fikri va talabani o'z xatosini tushunganligini inobatga olish;

talabani yosh va shaxsiy psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

O'qituvchilar o'quv jarayoni talabalarning biror-bir muhim shaxsiy xususiyat yoki qobiliyatlari, xohish-istagi mavjud bo'lmaganiga qarab:

intellektual;

mimik;

muloqotchanlik;

tashkilotchilik;

maxsus omillar yordamida tashkil etishi zarur.

Xarakterda irodaviy (iroda kuchi, qat'iylik, maqsadga erishuvchanlik), amaliy (mas'uliyatlilik, tartiblilik, ijrochilik, aniqlik), kommunikativ (mehribonlik, muomalalilik, aloqalar o'rnatish) xislatlarini talabalarda shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlar bilan shaxsiy munosabatga tegishli xulq shakli yo'qligi yoki bo'sh rivojlanganligiga alohida e'tibor qaratish kerak. Yuqorida keltirilgan masalalar ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishi bilan bog'liq ayrim bo'shliqlarni to'ldirishga amaliy xizmat qilsa, o'yilgan maqsadga erishgan bo'lamiz.

Fikrimizcha, ayrim avtoritar o'qituvchilar talabalarga nisbatan o'ta qo'pollik, adolatsizlikka yo'l qo'yib, talabalarni o'zlaridan bezdiradilar. Natijada talaba bu o'qituvchining nafaqat o'zidan, balki u dars berayotgan fandan ham ko'ngli soviydi. Uning ko'nglida o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlik, hattoki, qahr-g'azab ham paydo bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchilar talabalarning shaxsi va ularning fikr-mulohazalarini hurmat qilgan holda harakat qilishlari lozim.

Ma'qullash va qoralash, rag'batlantirish hamda jazolash talabani intizomini tuzatishning samarali vositasi bo'lishi uchun u o'z vaqtida va adolatli tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda talabani qiziqishi va hissiyotlarini o'rganish, ta'sir ko'rsatish jarayonida ularni hisobga olish muhimdir.

**Xulosa va munozara.** Muhit orqali ta'sir ko'rsatish usulida tarbiyachi tarbiyalanuvchining intizomni to'g'rilashi kerakligini to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmasdan, boshqalar orqali yetkazadi. Bunday hollarda tarbiyachi talaba intizomidagi nuqsonlarni aniqlaydi, lekin har doim ham ularni to'g'ridan-to'g'ri muhokama qilavermaydi va jazolamaydi, balki mohirlik bilan talabani sezgisiga ta'sir ko'rsatadi, natijada talabani intizomida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Talabani ichki sezgilarini faollashtirish jarayonida undagi to'la uyg'unmagan ichki chuqur sezgilarni uyg'otish orqali ijobiy intizom o'rnatish tomonga intilishlariga sharoit yaratiladi. Intizomni yaxshilashga yo'naltirilgan qanday metod qo'llanilishidan qat'iy nazar, dars intizomiga salbiy munosabatdagi talabalarning faoliyatini doimiy nazoratga olish, baholab borish, tarbiyaviy-korreksion ishlarni doimiy ravishda olib borish imkoniyatini beradi. Agar intizomsiz talaba yaxshi tomonga o'zgarayotgan bo'lsa, olib borilayotgan nazorat uning salbiy xulq-atvordan to'la xalos bo'lmaganicha davom ettiriladi. Talabani rag'batlantirish maqsadida ijobiy tomonga o'zgarayotganligini ba'zi-ba'zida e'tirof etib turish ham foyda beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi PF–60-sonli Farmoni.
2. Asadov Yu., Musurmanov R. O'smirlar deviant xatti - harakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. – T.: «Sano-standart», 2011. -8-b.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2004. -8-b.
4. Axmedova M., Meliboeva R. Nutq psixologiyasi. – T.: «Chashma Print» MChJ 2014. -91-b.
5. G'oziev E.G., Melibaeva R.N. Ijtimoiy psixologiya. – T.: «Shahrizoda», 2009. 25-b.
6. Rashidov X.F., Musurmanov R., Dexkambaeva Z., Zokirov A.A., Alimxodjaeva S. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv ta'sir etishning nazariy va metodologik asoslari. – T.: «Noshirlik yog'dusi», 2015. -104-b.
7. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-j. – T.: «Fan», 1968.
8. G'oziev G'.E. O'smirlar to'g'risida umumiy tushuncha Psixologiya. -T : O'qituvchi. - 1994. - .133-137 - betlar.



*Feruza URINBOYEVA,*  
*JDPU Xorijiy tillar fakulteti o'qituvchisi*  
*E-mail: feruza@mail.ru*

*PhD, dotsent M.Boltayeva taqrizi asosida*

## PEDAGOGICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

### Annotation

oluvchilarning faolligi rag'batlantirib turilishi, guruhlarda mustaqil ishlashga undash talab qilinadi. Tarbiyalovchining vazifasiga quyidagilar kiradi: tarbiyalanuvchi hisini diqqat bilan kuzatishi va quloq solishi, uning istaklari va talablarini o'rganishi, yutuqlarini va yuzaga keladigan qiyinchiliklarini qayd etishi kerak. O'qituvchi kuzatish jarayonida yuzaga kelgan muammoni hal etish mumkin bo'lgan yo'lini birgalikda loyihalashtirib, amalga oshirishi mumkin. Pedagogik kuzatish shaxslararo o'zaro munosabatlar vaziyatlarida har bir shaxsning muvaffaqiyatli o'qishi va rivojlanishi uchun pedagogik, psixologik va ijtimoiy sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan [14].

Har qanday tadqiqotning maqsadi, ma'lumotlar ustida ishlash va barcha fikrlarni batafsil qamrab olishdir, bular axborotni to'plash, axborotni yaxshilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tadqiqotning tavsifiy maqsadi natijalarni tavsiflash, tushuntirish va tasdiqlashdan iborat.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib tadqiqotlar maqsadiga ko'ra, ilmiy tadqiqotni tashkil etishning uchta shakli mavjud: fundamental, amaliy va qidiruv. Ilmiy tadqiqotning barcha turlari joriy etish bilan yakunlandi. Xulosa qilib aytganda, talabalarning izlanuvchanlik kasbiy mahoratini oshirish, nafaqat o'zini-o'zi rivojlantirish va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish balki kasbiy mahoratini oshirishga intilishini ham talab qiladi. Dars mashg'ulotlari jarayonida ilmiy tamoyillardan foydalanish esa talabalarda muloqot ko'nikmalarni shakllantirishga fikrlarini erkin bayon qilishga hamda ilmiy ishda muvaffaqiyatga erishishga va kelajak kasbiga tayyorlanishiga yordam beradi. Negaki pedagogik texnologiya tamoyillari o'qituvchi tomonidan berilayotgan o'quv materialini to'la o'zlashtirishni kafolatlaydi. Ya'ni har bir talaba o'quv fani dasturini kamida 80% o'zlashtirishiga erishiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Olimov, K. T., & Sh, T. Z. (2019). Integration of Special Subjects, Opportunities and Solutions. Eastern European Scientific Journal, (2), 67-70.
2. Тухтаева, З. Ш. (2011). Межпредметные связи и преемственность в профессиональном образовании. Профессиональное образование. Столица, (9), 43-44.
3. Turakulova M.K., Tukhtayeva Z.Sh., Rakhmonov K.S., Hasanova Z.D. (2021). Technical Creativity of Students as a Means of Improving Quality and the Process of Integrating their Professional Training. Annals of R.S.C.B. Vol. 25, Issue 3.
4. Turakulova M.K. (2022). Scientific And Creative Training Of Teachers In The Formation Of Technical Creativity Of Talented Students. International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences. Malaysia.
5. Turakulova M.K., Rakhmonov K.S. (2020). Identification and development of the abilities and creativity of gifted students in higher educational institutions. Asian journal of multidimensional research. Special issue.
6. Fatullayeva S.I. Oliy ta'limda fanlar integratsiyasini ta'minlash muammolari. International conference pedagogical reforms and their solutions Volume 4, Issue 2, 2024. 27-30.
7. Fatullayeva S.I. Improving dual education by solving the problem of subject integration. International conference pedagogical reforms and their solutions Volume 4, Issue 2, 2024. 22-26.
8. To'raqulova M.Q. 2021. Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning texnik ijodkorlik qobiliyatlarini takomillashtirish mexanizmi va modeli, O'zMU xabarlari. – № 1/6. Toshkent.
9. To'raqulova M.Q. 2022. Talabalar texnik ijodkorligini shakllantirishda shaxs kreativligi va kognitivligi. O'zMU xabarlari. – № 1/2. – T.



УДК: 159.923.2

**Abror XAITOV,**

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD*

*E-mail: abrorhaitov@mail.ru*

*QarDU professori, ps.f.d. B.Jo'rayev taqrizi asosida*

### ENSURING THE PSYCHOLOGICAL STABILITY OF THE ATHLETE'S PERSONALITY IN THE SYSTEM OF VOLITIONAL PREPARATION OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS FOR COMPETITIONS

Annotation

Much attention is paid to popularizing football among young people and creating all opportunities for practicing this sport. This article examines the development of football among teenagers, the issue of psychological preparation of teenage football players for competitions. The psychological preparation of young football players for competitions is determined by psychological stability, willpower, resistance to difficulties, emotional state, resistance to stress factors, and motivation. In the research part of the article, the development of willpower and volitional qualities, psychological stability and stress resistance of teenage football players was diagnosed, and based on the diagnostic results, correction practice was tested. The effectiveness of the experiment was studied and the dynamics of the results were statistically analyzed.

**Key words:** Teenager, football, competition, willpower, endurance, psychological stability, stability, emotion, stress, motivation

### ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ЛИЧНОСТИ СПОРТСМЕНА В СИСТЕМЕ ВОЛЕВОЙ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ К СОРЕВНОВАНИЯМ

Аннотация

Большое внимание уделяется популяризации футбола среди молодежи и созданию всех возможностей для занятий этим видом спорта. В данной статье рассматривается развитие футбола среди подростков, вопрос психологической подготовки футболистов-подростков к соревнованиям. Психологическая подготовка юных футболистов к соревнованиям определяется психологической устойчивостью, силой воли, устойчивостью к трудностям, эмоциональным состоянием, устойчивостью к стрессовым факторам, мотивацией. В исследовательской части статьи диагностировано развитие силы воли и волевых качеств, психологическая устойчивость и стрессоустойчивость футболистов-подростков, а по результатам диагностики апробирована практика коррекции. Изучена эффективность эксперимента и статистически проанализирована динамика результатов.

**Ключевые слова:** Подросток, футбол, соревнование, сила воли, выносливость, психологическая устойчивость, стабильность, эмоция, стресс, мотивация.

### O'SMIR FUTBOLCHILARNI MUSOBAQALARGA IRODAVIY TAYYORLASH TIZIMIDA SPORTCHI SHAXSI PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI TA'MINLASH

Annotatsiya

Yoshlar o'rtasida futbolni yanada ommalashtirish va ushbu sport turi bilan shug'ullanish uchun barcha imkoniyatlarni yaratishga yuqori e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada o'smirlar yoshlar o'rtasida futbolning taraqqiy etishi, o'smir futbolchilarni musobaqalarga psixologik tayyorlash masalasi o'rganilgan. O'smir futbolchilarni musobaqalarga psixologik tayyorgarligi psixologik barqarorlik, iroda kuchi, qiyinchiliklarga chidamlilik, emotsional holati, stress omillarga chidamlilik, motivatsiyasi bilan belgilanadi. Maqolaning tadqiqot qismida o'smir futbolchilarning iroda kuchi va irodaviy sifatleri rivojlanganligi, psixologik barqarorligi va stresslarga ta'sirchanligi diagnostika qilingan hamda diagnostik natijalar asosida korreksiya amaliyoti tajribada sinalgan. Tajriba amaliyotining samaradorligi o'rganilib natijalar dinamikasi statistik tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** O'smir, futbol, musobaqa, iroda kuchi, chidamlilik, psixologik barqarorlik, bardoshlilik, emotsiya, stress, motivatsiya.

**Kirish.** Futbol dunyo bo'ylab keng taraqqiy etgan sport turi hisoblanadi. Yurtimizda ham ko'plab tomshabinlar futbolga muxlislik qiladi. Shu o'rinda yurtimiz futbolchilarining natijalari ham samarali bo'layotganligini ta'kidlash lozim. Halqaro musobaqalarda ham yurtimiz futbolchilari yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqda. Jumladan yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan qit'a birinchiligida futbolchilarimiz ikkinchi o'rinni egalladi va 2024 yil Parij olimpiadasiga jamoaviy sport turlari bo'yicha ilk bor yo'llanmani qo'lga kiritdi. Futbolchilarning natijalari yanada yuqori bo'lishi, jahon birinchiligiga yo'llanmani qo'lga kiritishi va samarali ishtirok etishi uchun o'smir futbolchilarni tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratish lozim.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Futbolda musobaqa faoliyati bilan bog'liq bo'lgan turli murakkab vaziyatlar mavjud bo'lib, bunday vaziyatlar o'smir futbolchilarning

psixologik beqarorligi yuzaga kelishiga sabab bo'ladi [1]. Psixologik beqarorlik holati sababli sportchida musobaqada emotsional o'zgarishlar kuzatiladi [2]. Emotsional o'zgarishlar sportchining o'zini boshqarish jarayonini qiyinlashishiga olib keladi [10]. O'zini boshqarish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklar sportchining musobaqa motivatsiyasi buzilishiga sabab bo'ladi [6]. Musobaqa motivatsiyasi aniq ifodalanmagan o'smir futbolchilar faoliyatida yuzaga kelgan to'siq va qiyinchiliklarga nisbatan chidamlilik kamayadi [5]. Buning natijasida sportchilarning stress omillarga ta'sirchanligi ortib stress barqarorligi pasayadi [3]. Futbolchilarning irodasi rivojlanganligi esa psixologik beqarorlik holati yuzaga kelishining oldini oladi [4]. Musobaqa oldidan sportchilarning iroda kuchi, chidamliligi va bardoshlilikini rivojlanlantish emotsional holati o'zgarishining oldini oladi. [7] O'smir

futbolchilar irodasini rivojlantirish orqali ularning psixologik barqarorligini ta'minlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Sportchilarni musobaqalarga tayyorlash jarayoni psixologiyasi [9], sport musobaqalarining psixologik mohiyatini anglagan holda musobaqaga tayyorlash [2], sportchilarning musobaqa jarayonida psixik barqarorligini ta'minlash, ularning chidamliligini oshirish uchun zarur bo'lgan irodaviy sifatlarini rivojlantirish, iroda kuchini oshirish [8] borasidagi qarashlar tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqotda o'smir futbolchilarning psixologik barqarorligini o'rganish uchun "Sportchining psixik barqarorligi" anketasi (V.E.Milman) qo'llanildi. Ushbu anketa so'rovnomasi sportchilarning psixik barqarorligi komponentlari sifatida musobaqada emotsional barqarorlik (MEB), sportda o'zini boshqarish (SO'B), musobaqa motivatsiyasi (MM), stabillik-to'siqlarga bardoshlilik (STB) hamda stress omillarga ta'sirchanlik (SOT) shkalalari bo'yicha o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot ishtirokchilarini tajriba guruhida 276 nafar, nazorat guruhida 235 nafar jami 511 nafar o'smir futbolchilar tashkil etdi.

O'smir futbolchilardan olingan dastlabki diagnostik natijalarga asosan TG ishtirokchilarida musobaqada


1-jadval

O'smir futbolchilar psixik barqarorligi va stress omillarga chidamliligi ko'rsatgichlari dinamikasi N=511/ TG=276, NG=235

shkala		TO						TK						t
		o'rb	%	q/b	%	M	%	o'rb	%	q/b	%	m	%	
MEB	TG	5,4	33,6	5,2	32,4	5,3	33,0	14,8	92,6	14,3	89,3	14,6	90,9	3,89***
	NG	5,9	37,1	5,1	31,8	5,5	34,4	6,3	39,5	5,3	33,3	5,8	36,4	1,16
SO'B	TG	5,9	36,9	5,8	36,1	5,8	36,5	15,2	94,9	14,0	87,3	14,6	91,1	3,92***
	NG	6,1	37,9	4,7	29,6	5,4	33,8	5,9	36,9	5,3	32,9	5,6	34,9	1,21
MM	TG	6,7	41,9	5,8	36,0	6,2	38,9	14,4	90,3	14,1	88,1	14,3	89,2	3,76***
	NG	7,2	44,8	5,6	35,1	6,4	39,9	6,9	43,4	6,4	40,0	6,7	41,7	1,12
STB	TG	5,5	34,3	4,4	27,8	5,0	31,0	15,4	96,1	14,5	90,8	15,0	93,4	4,12***
	NG	5,5	34,4	4,6	28,6	5,0	31,5	5,5	34,3	5,3	33,4	5,4	33,8	1,18
SOT	TG	25,7	80,3	25,9	80,9	25,8	80,6	10,2	31,8	8,5	26,7	9,4	29,3	3,57***
	NG	26,1	81,6	25,3	78,9	25,7	80,3	26,1	81,7	25,7	80,3	25,9	81,0	1,24

Izoh: \*\*\*p<0,001

Samaradorlik psixodiagnostika bosqichida o'smir futbolchilar psixik barqarorligi va stress omillarga chidamliligi bo'yicha tajribadan oldingi va keyingi ko'rsatgichlar dinamikasi 1-rasmda diagramma shaklida keltirilgan.



1-rasm. O'smir futbolchilar psixik barqarorligi va stress omillarga chidamliligi ko'rsatgichlari dinamikasi

Tajriba va nazorat guruhi ishtirokchilarida tajribadan oldingi va keyingi psixik barqarorligi va stress omillarga chidamliligi ko'rsatgichlarining o'zgarishi tahlili:

- musobaqada emotsional barqarorlik: TGda TO m – 5,3 (33,0%) dan TK m – 14,6 (90,9%) gacha ko'tarilgan; NGda TO m – 5,5 (34,4%) dan TK m – 5,8 (36,4%) gacha ko'tarilgan. Tajriba guruhi ishtirokchilarida emotsional barqarorlik ta'minlanishiga erishilgan (p<0,001), nazorat guruhi ishtirokchilarida esa emotsional barqarorlik darajasiga erishilmagan (p>0,05)

- sportda o'zini boshqarish: TGda TO m – 5,8 (36,5%) dan TK m – 14,6 (91,1%) gacha ko'tarilgan; NGda TO m – 5,4 (33,8%) dan TK m – 5,6 (34,9%) gacha ko'tarilgan. Tajriba guruhi ishtirokchilarida sportda o'zini boshqarish darajasi oshganligi, o'z xatti-harakatini nazorat qilishga

emotsional barqarorlik m – 5,3 (33,0%), sportda o'zini boshqarish m – 5,8 (36,5%), musobaqa motivatsiyasi m – 6,2 (38,9%), stabillik-to'siqlarga bardoshlilik m – 5,0 (31,0%), stress omillarga ta'sirchanlik m – 25,8 (80,6%) ko'rsatgichi aniqlangan. NG ishtirokchilarida esa musobaqada emotsional barqarorlik m – 5,5 (34,4%), sportda o'zini boshqarish m – 5,4 (33,8%), musobaqa motivatsiyasi m – 6,4 (39,9%), stabillik-to'siqlarga bardoshlilik m – 5,0 (31,5%), stress omillarga ta'sirchanlik m – 25,7 (80,3%) ko'rsatgichi aniqlangan.

Diagnostik natijalarga asosan, TG va NG ishtirokchilarida psixik barqarorlik komponentlari bo'lgan musobaqada emotsional barqarorlik, sportda o'zini boshqarish, musobaqa motivatsiyasi, stabillik-to'siqlarga bardoshlilik yuqori emasligi, stress omillarga ta'sirchanlik esa yuqori ekanligi namoyon bo'lgan. Shu sababli TG ishtirokchilarida psixik barqarorlik komponentlari va stress omillarga chidamlilikni shakllantirish maqsadida psixoanaliz va geshtalt terapiyadan foydalanib psixokorreksiya amaliyotini tashkil etildi. Samaradorlik psixodiagnostika bosqichida "Sportchining psixik barqarorligi" anketasi qo'llanilib TG va NG ishtirokchilarining tajribadan oldingi va keyingi natijalari o'zaro taqqoslandi. (1-jadval)

- musobaqa motivatsiyasi: TGda TO m – 6,2 (38,9%) dan TK m – 14,3 (89,2%) gacha ko'tarilgan; NGda TO m – 6,4 (39,9%) dan TK m – 6,7 (41,7%) gacha ko'tarilgan. Tajriba guruhi ishtirokchilarida musobaqa motivatsiyasi ko'tarilishiga erishilgan (p<0,001), o'smir futbolchilarda musobaqada ishtirok etish va yuqori natijaga erishish motivi shakllangan, nazorat guruhi ishtirokchilarida esa musobaqa motivatsiyasi yuqori emasligi (p>0,05) ifodalangan, o'smir futbolchilarda musobaqada ishtirok etish va natijaga erishish motivi to'liq shakllanmagan.

- stabillik-to'siqlarga bardoshlilik: TGda TO m – 5,0 (31,0%) dan TK m – 15,0 (93,4%) gacha ko'tarilgan; NGda



TO m – 5,0 (31,5%) dan TK m – 5,4 (33,8%) gacha ko'tarilgan. Tajriba guruhi ishtirokchilarida stabililik-to'siqlarga bardoshlilik shakllangan ( $p \leq 0,001$ ), o'smir futbolchilar faoliyatida yuzaga kelgan to'siqlarga nisbatan chidamlilik bilan yengib o'tish sifati shakllangan, nazorat guruhi ishtirokchilarida esa stabililik-to'siqlarga bardoshlilik to'liq shakllanmagan ( $p \geq 0,05$ ), o'smir futbolchilar yuzaga kelgan qiyinchiliklarga nisbatan chidamlilikni ko'rsatishi qiyin kechadi.

- stress omillarga ta'sirchanlik: TGda TO m – 25,8 (80,6%) dan TK m – 9,4 (29,3%) gacha pasaygan; NGda TO m – 25,7 (80,3%) dan TK m – 25,9 (81,1%) gacha ko'tarilgan. Tajriba guruhi ishtirokchilarida stress omillarga ta'sirchanlik kamayishiga erishilgan ( $p \leq 0,001$ ), o'smir futbolchilar faoliyatida yuzaga kelgan stresslarga chidamlilik shakllangan, nazorat guruhi ishtirokchilarida esa stress omillarga ta'sirchanlik kamayishiga erishilmagan ( $p \geq 0,05$ ), o'smir futbolchilar yuzaga kelgan stressli vaziyatlarga chidamliligi yuqori emasligi aniqlangan.

2-jadval

O'smir futbolchilarda to'siqlarga chidamlilik va iroda kuchini rivojlanishi N=511/ TG=276, NG=235

shkalalar	TG / NG	TO		TK		F
		M	%	m	%	
to'siqlarga chidamlilik	TG	23,4	38,9	55,6	92,7	2,47**
	NG	23,9	39,9	25,4	42,3	1,14
iroda kuchi	TG	12,3	40,9	27,2	90,7	2,87**
	NG	12,6	42,1	13,6	45,5	1,12

Izoh: \*\* $p \leq 0,01$

Tajriba amaliyoti samaradorligi natijalarga asosan tajriba guruhida to'siqlarga chidamlilik  $m=55,6$  (92,7%)gacha, iroda kuchi esa  $m=27,2$  (90,7%)gacha ko'tarilgan. Tajriba guruhida tashkil etilgan korreksiya amaliyoti samarali bo'lib, olingan natijalar dinamikasi ishonchli ( $p \leq 0,01$ ) ekanligi isbotlangan. Nazorat guruhida to'siqlarga chidamlilik  $m=25,4$  (42,3%)gacha, iroda kuchi esa  $m=13,6$  (45,1%)gacha ko'tarilgan bo'lib, nazorat guruhida korreksiya amaliyoti tashkil etilmaganligi sababli ko'rsatgichlar dinamikasida

3-jadval

O'smir futbolchilarning psixik barqarorligini ta'minlovchi sifatlarning o'zaro bog'liqligi N=276 (TG)

shkalalar	emotsional barqarorlik	o'zini boshqarish	musobaqa motivatsiyasi	stabililik-bardoshlilik	Stress barqaror	to'siqlarga chidamlilik	iroda kuchi
emotsional barqarorlik	1	0,84**	0,57**	0,79**	0,87**	0,72**	0,75**
o'zini boshqarish		1	0,63**	0,85**	0,67**	0,78**	0,82**
musobaqa motivatsiyasi			1	0,73**	0,59**	0,71**	0,65**
stabililik-bardoshlilik				1	0,78**	0,89**	0,81**
stress barqaror					1	0,58**	0,64**
to'siqlarga chidamlilik						1	0,73**
iroda kuchi							1

Izoh: \*\* $p \leq 0,01$

O'smir futbolchilarning psixik barqarorligini ta'minlovchi sifatlarning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinib, o'zaro bog'liq bo'lgan sifatlarning ahamiyatlilik darajasi belgilandi. Tahlilga asosan emotsional barqarorlik shkalasi stress barqarorlik ( $r=0,87$ ), o'zini boshqarish ( $r=0,84$ ) shkalalari bilan juda yuqori darajada, stabililik-bardoshlilik ( $r=0,79$ ), iroda kuchi ( $r=0,75$ ), to'siqlarga chidamlilik ( $r=0,72$ ) shkalalari bilan yuqori darajada, musobaqa motivatsiyasi ( $r=0,57$ ) shkalasi bilan o'rta darajada ahamiyatli bog'liqlikka ega. O'zini boshqarish shkalasi stabililik-bardoshlilik ( $r=0,85$ ), iroda kuchi ( $r=0,82$ ) shkalalari bilan juda yuqori darajada, to'siqlarga chidamlilik ( $r=0,78$ ) shkalasi bilan yuqori darajada, stress barqarorlik ( $r=0,67$ ), musobaqa motivatsiyasi ( $r=0,63$ ) shkalalari bilan o'rta darajada ahamiyatli bog'liqlikka ega. Musobaqa motivatsiyasi shkalasi stabililik-bardoshlilik ( $r=0,73$ ), to'siqlarga chidamlilik ( $r=0,71$ ) shkalasi bilan yuqori darajada, iroda kuchi ( $r=0,65$ ), stress barqarorlik ( $r=0,59$ ) shkalalari bilan o'rta darajada ahamiyatli bog'liqlikka ega. Stabililik-bardoshlilik shkalasi to'siqlarga chidamlilik ( $r=0,89$ ), iroda kuchi ( $r=0,81$ ) shkalalari bilan juda yuqori darajada, stress barqarorlik ( $r=0,78$ ) shkalasi bilan yuqori darajada

O'smir futbolchilarning iroda kuchi va to'siqlarga chidamliligini aniqlash maqsadida "Sportchilarning to'siqlarga bardoshlili" (G.D. Babushkin, Y.V. Yakovix) va "Iroda kuchini baholash" (N.N. Obozov) so'rovnomalari qo'llanildi. Dastlabki olingan natijalarga ko'ra tajriba guruhida to'siqlarga chidamlilik  $m=23,4$  (38,9%), iroda kuchi esa  $m=12,3$  (40,9%), nazorat guruhida to'siqlarga chidamlilik  $m=23,9$  (39,9%), iroda kuchi esa  $m=12,6$  (42,1%) ekanligi aniqlangan. Diagnostik natijalarga ko'ra tajriba va nazorat guruhi ishtirokchilarida to'siqlarga chidamlilik va iroda kuchi yuqori emasligi aniqlandi. O'smir futbolchilarda to'siqlarga chidamlilik va iroda kuchini rivojlantirish bo'yicha psixologik korreksiya amaliyoti tashkil etildi. O'smir futbolchilarda to'siqlarga chidamlilik va iroda kuchini rivojlantirishga qaratilgan korreksiya amaliyotidan ma'lum vaqtdan keyin korreksiya amaliyoti samaradorligi tahlil qilindi natijalar o'zgarishining ishonchlilik darajasi keltirildi. (2-jadval)

yuqori o'zgarish bo'lmagan, olingan natijalarning ishonchlilikini ( $p \geq 0,05$ ) qabul qilib bo'lmaydi.

O'smir futbolchilarning psixik barqarorligi komponentlari, stress omillarga chidamliligi, to'siqlarga chidamliligi va iroda kuchi musobaqa jarayonida qanday bog'liqlikka ega ekanligini aniqlash maqsadida tajriba guruhining tajriba amaliyoti samaradorligini aniqlash bosqichida olingan natijalari o'zaro korrelyatsion tahlil qilindi. (3-jadval)

bog'liqlikka ega. Stress barqarorlik shkalasi iroda kuchi ( $r=0,64$ ), to'siqlarga chidamlilik ( $r=0,58$ ) shkalalari bilan o'rta darajada bog'liqlikka ega. To'siqlarga chidamlilik shkalasi iroda kuchi ( $r=0,73$ ) shkalasi bilan yuqori darajada bog'liqlikka ega ekanligi aniqlangan.

O'smir futbolchilarda emotsional barqarorlikni ta'minlashda iroda kuchi va o'zini boshqarish irodaviy sifatining o'rni yuqoriligi ifodalangan. Shu bilan birga sportchilarning stress barqarorligini ta'minlashda ham stabililik-bardoshlilik, o'zini boshqarish, chidamlilik irodaviy sifatlarning ahamiyati mavjud. Musobaqa motivatsiyasi yuqori bo'lishida ham stabililik-bardoshlilik, o'zini boshqarish, chidamlilik sifatlari va stress barqarorlik holati zarur ekanligi ifodalangan.

**Xulosa.** O'smir futbolchilarini musobaqalarga psixologik tayyorlash jarayonida ularni irodaviy tayyorlash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Musobaqaga irodaviy tayyorlash jarayonida O'smir futbolchilarda o'zini boshqarish, stabililik-bardoshlilik, to'siqlarga chidamlilik irodaviy sifatlarni rivojlantirish, iroda kuchini oshirish irodaviy psixologik tayyorgarlikni asosiy

jihati hisoblanadi. O'smir futbolchilarda iroda kuchi va irodaviy sifatlarning rivojlanishi esa sportchilarning emotsional barqarorligi, stress omillar ta'siriga barqarorligi va musobaqa motivatsiyasining yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Tavsiya: O'smir futbolchilarni musobaqaga irodaviy tayyorlash tizimida ularning psixik barqarorligini shakllantirish lozim. Sportchining irodasi kuchli bo'lishi,

to'siqlarga chidamliligi musobaqa faoliyatida emotsional o'zgarishlarning oldini olish, stress omillarga ta'sirchanlikni kamaytirish, stabillik-bardoshlilikni saqlash, musobaqa motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Shu sababli sportchilarni psixik barqarorligini ta'minlashda ularning iroda kuchi, chidamliligini oshirishga alohida urg'u berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Arziqulov D.N., Gapparov Z.G. Psixologiya va sport psixologiyasi. Darslik. – T.: “O'zkitobsavdonashriyoti” NMIU, 2021. – 408 b.
2. Gapparov Z.G. Sport psixologiyasi. Darslik. – T.: “O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi”, 2021. – 300 b.
3. Xaitov A.U. Sport psixodiagnostikasi va psixokorreksiya. Darslik. - T.: “O'zkitobsavdonashriyoti”, 2020. – 343 b.
4. Горбунов Г.Д. Психопедагогика спорта: учебное пособие. – 4-е изд., - М. - 2012. – 312 с.
5. Журавлев Д.В. Психологическая регуляция и оптимизация функциональных состояний спортсмена. Методическое пособие. М., 2009. – 119 с.
6. Зинченко Ю.П., Тоневицкий А.Г. Психология спорта: Монография / - М.: МГУ, 2011. - 424 с.
7. Ильин Е.П. Психология спорта. СПб., ООО «Питер Пресс». 2008. 352 с.
8. Ильин Е.П. Психология воли. СПб., ООО «Питер Пресс». 2009. - 368 с.
9. Родионов В. А., Родионов А. В., Сивицкий В. Г. Спортивная психология: учебник для академического бакалавриата. - М. ; Издательство Юрайт, 2018. - 367 с.
10. Сопов В.Ф. Теория и методика психологической подготовки в современном спорте. Методическое пособие. М. 2010. 118 с.



UDK :336.64

*Madinabonu XAMIDULLAYEVA,*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi*  
*E-mail: khamidullaevamaria@gmail.com*

*O‘zMU professori B.Tagayev taqrizi asosida*

### XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLİYASI – DAVLAT MOLİYAVIY SALOHİYATINING ASOSIDIR

Annotatsiya

Maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarning davlat moliyasiga ta‘siri, kompaniyalarning indikatorlarini davlat moliyaviy salohiyatining asosi ekanligi o‘rganildi. Bundan tashqari O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotida katta ulushga ega tarmoqlar, mamlakat moliyasiga salmoqli hissa qo‘shayotgan ba‘zi kompaniyalar tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** xo‘jalik yurituvchi subyekt, korxonalar, moliyaviy salohiyat, tarmoqlar, yalpi ichki mahsulot.

### ФИНАНСЫ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ ЯВЛЯЮТСЯ ОСНОВОЙ ФИНАНСОВОГО ПОТЕНЦИАЛА ГОСУДАРСТВА

Аннотация

В статье исследовано влияние хозяйствующих субъектов на государственные финансы, тот факт, что показатели компаний являются основой финансового потенциала государства. Кроме того, были изучены отрасли с большой долей в валовом внутреннем продукте Узбекистана, некоторые компании, вносящие существенный вклад в финансы страны.

**Ключевые слова:** хозяйствующий субъект, предприятие, финансовый потенциал, промышленности, валовой внутренний продукт.

### THE FINANCE OF ECONOMIC ENTITIES IS THE BASIS OF THE FINANCIAL POTENTIAL OF THE STATE

Annotation

The article examines the impact of economic entities on finance of state, the fact that the indicators of companies are the basis of the state’s financial potential. In addition, industries with a large share in the gross domestic product of Uzbekistan, and some companies that make a significant contribution to the country’s finance is studied.

**Key words:** economic entity, enterprise, financial potential, industries, gross domestic product.

**Kirish.** Ixtiyoriy turdagi tashkilot xo‘jalik yurituvchi subyekt bo‘la oladi: kasalxonalar, kompaniyalar, federal agentliklar, korporatsiya va hokozolar. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida moliyaning ahamiyati katta. Moliya kapitalni to‘g‘ri taqsimlashda, riskni boshqarishda, investitsiya qarorlarini qabul qilishda, operativ samaradorlikni oshirishda (pul oqimlarini boshqarish, narxni nazorat qilish), strategik rejalashtirish kabi bir qator vazifalarni bajarishda va umuman tashkilotning muvaffaqiyatida asosiy rol ni egallashi buning yaqqol dalilidir.

Davlatning moliyaviy salohiyati bozor iqtisodiyoti sub‘ektlari va aholining pul daromadlari hamda jamg‘armalari asosida shakllanadi [1].

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi davlat moliyaviy salohiyati bilan uzviy bog‘liqdir. Korxonalarining rivojlanishi uni kengayishiga sabab bo‘ladi, investitsiya sharoitlarini yaratib, yangi ish joylarini hosil qiladi va natijada davlatning iqtisodiy o‘sishiga olib keladi. Bundan tashqari, korxonalaridan tushadigan soliqlar va yangi innovatsiyalar sharoiti davlatning moliyaviy salohiyati belgilovchi omillardan hisoblanadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt - bir yoki bir necha shaxslar tomonidan tadbirkorlik qilish maqsadida faoliyat yurituvchi va soliq sohasida alohida yuridik huquq-majburiyatlarga ega tashkilot[2].

Korxonalar moliyasi ishlab chiqarish fondlarini shakllanishi, o‘z moliyaviy mablag‘larini tashkil topishi, moliyalashtirishning tashqi manbalarini jalb etish, ularni taqsimlash va foydalanish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlardir [3].

Korxonalar moliyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra korxonaning tadbirkorlik faoliyati natijasida xususiy kapital, maqsadli markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllanishi, ularni taqsimlash, hamda sarflash bilan bog‘liq moliyaviy yoki pul munosabatlaridan iborat.

Korxonaning moliyaviy munosabatlari quyidagi yo‘nalishlarda vujudga keladi: Korxonaning ustav kapitalini shakllanishi, mahsulotni ishlab chiqarish va sotish, tijorat tashkilotlari va korxonalar o‘rtasida, xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar bilan ularning bo‘linmalari, yuqori tashkilotlari, assosiasiyalari o‘rtasida, tijorat tashkilotlari, korxonalar bilan alohida xodimlar o‘rtasida, xo‘jalik sub‘yekti va davlatning moliya tizimi o‘rtasida, xo‘jalik sub‘yekti va bank tizimi o‘rtasida, xo‘jalik sub‘yekti va sug‘urta kompaniyasi o‘rtasida [4].

O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotiga katta salmoqli hissa qo‘shuvchi asosiy tarmoqlar qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va tabiiy resurslardir. Oldingi davrlardan buyon paxta, oltin, tabiiy gaz, shuningdek, to‘qimachilik sanoati kabi tarmoqlar davlatning iqtisodiyotida muhim o‘rin tutgan.

2023-yil Toshkent shahrida bandlik darajasi 71% ni tashkil etgan, hududlar kesimi bo‘yicha 117812 ta korxonalar mavjud bo‘lib, respublika bo‘yicha eng katta ulushga ega.

Ushbu yilda 16,68% korxonalar sanoat tarmog‘ida, 30,38% korxonalar savdo tarmog‘ida faoliyat yuritdi va o‘z navbatida bu ko‘rsatkichlar davlatning rivojlangan va yetarli darajadagi ishchi kuchiga ega, ish joylarini hosil etayotgan tarmoqlarini aks ettiradi.

Tarmoqlar	Отрасли	Industries	2023
Jami	Всего	Total	13706,2
qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	сельское, лесное и рыбное хозяйство	agriculture, forestry and fisheries	3438,7

sanoat	промышленность	industry	1810,6
qurilish	строительство	construction	1314,3
savdo	торговля	trade	1525,2
tashish va saqlash	перевозка и хранение	transportation and storage	633,1
Ta'lim	Образование	Education	1268,7
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	здравоохранение и предоставление социальных услуг	health and social services	671,3
boshqa turlari	прочие виды	other types	3044,3

1-jadval. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish bilan band aholi (ming kishi) [5].

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish bilan band aholining 25%i qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga, 13,2%i sanoat va 11,13%i savdo tamog'iga to'g'ri kelib, aholiga ish o'rnlari hosil qilishda eng katta ulushga ega tarmoqlar hisoblanmoqda.

Bundan tashqari, 2023-yil 3 choragi statistikalariga asosan mamlakatimiz Yalpi ichki mahsulotida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 22,4%, ishlab chiqarish sanoati 18,9%, ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash 6,1% ulushga ega bo'lib, bu tarmoqlar so'ngi yillarda eng salmoqli natijalarni ko'rsatib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2023-yil 1-oktabrdan yirik soliq to'lovchi korxonalar tarkibiga 14 ta soha kesimida yana 737 ta korxonalar qo'shildi va 2023-yil 1-oktabr holatiga jami yirik soliq to'lovchilar soni 1 631 taga yetdi. [5]. Bunday korxonalarga misol qilib LUKOIL OVERSEAS SUPPLY TRADING, "SURHAN GAS CHEMICAL OPERATING COMPANY" MCHJ XK, "KO'MIR TA'MINOT" MCHJ kabilarni keltirish mumkin. Yirik soliq to'lovchilarga QQSni tezlashtirilgan tartibda qaytarish, tovarlar (xizmatlar)ni import va realizatsiya qilishda to'lanadigan, ya'ni bojxonadagi QQS summalarini o'zaro hisobga olish kabi bir qator afzalliklar berilgan. Soliqlar o'z navbatida inson kapitaliga, infratuzilmaga, aholi va biznes sohalari uchun xizmatlar tashkil etishga investitsiya kiritish imkoniyatini vujudga keltiradi va asos bo'lib xizmat qiladi.

Yalpi ichki mahsulot hajmi 627,5 trillion so'mni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan real qiymat bo'yicha 5,8%ga o'sdi. O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining 16,69% ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, bu Yalpi ichki mahsulot hududlar bo'yicha eng yuqorisi bo'lsa, eng quyi chegarada Sirdaryo 2% ulush bilan. Hududlar yalpi ichki mahsulotlari taqsimotida tengsizliklar mavjud.

"O'zbekiston temir yo'llari" Aksiyadorlik Jamiyati - O'zbekistondagi eng yirik kompaniyalardan biri hisoblanadi. Yillik yuk aylanmasi barcha turdagi transport yuk

aylanmasining 90% ga yaqinini tashkil etadi [6]. Jamiyat uchun ustuvor yo'nalishlari yangi temir yo'llar qurish; temir yo'llarni elektrifikatsiyalash; temir yo'llarni kapital ta'mirlash loyihalarini amalga oshirish, jamiyat zavodlarida yo'lining yuqori qurilmasi elementlarini, ehtiyot qismlarni va boshqalarni ishlab chiqarishni tashkil etish kabilardir. Bundan tashqari, kompaniya veb-saytida chiptalarni onlayn sotib olish, poyezdlar jadvali kabi zamonaviy moliya elementlari ham mavjud. Kompaniyaning Afrosiyob poyezdi joriy yilning 12-dekabr kuni 7 million yo'lovchini o'z manziliga yetkazdi. 2023-yil 78955 nafar hodimlarni ish bilan ta'minladi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov 1991-yil sentabridagi farmoni bilan tashkil etilgan. Bank faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari xorijiy kredit liniyalari, xalqaro kapital bozoridagi resurslar, xorijiy investorlar mablag'larini jalb qilish orqali iqtisodiyotning ustuvor sektorlarida yirik investitsion loyihalarni faol ravishda kreditlash; savdo-eksport moliyalashtirish biznesi mahsulotlarini rivojlantirish va uning geografiasini kengaytirish, shuningdek, respublikaning eksport salohiyatini rivojlantirish dasturlarini qo'llab-quvvatlash, eksport qiluvchilarga konsalting xizmatlarini taqdim etish kabilardir. Mijozlarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun raqamli bank xizmatlari rivojlantirilgan, davlat rivojlanish loyihalarida bank tomonidan faol ishtirok etilgan. Eng ko'p foyda ko'ruvchi banklardan biri sifatida so'ngi yillarda iste'molchilar ishonchini qozonib kelmoqda.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, moliya xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tayanchi bo'lib, ularning faoliyatini, o'sishi va barqarorligini qo'llab-quvvatlash uchun zarur resurslar, vositalarni ta'minlaydi. Samarali moliyaviy menejment biznesdagi murakkabliklarni yengish va muvaffaqiyatga erishish uchun juda muhimdir. Moliyaviy indikatorlar davlat moliyaviy holatini belgilab beradi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar, kompaniyalar, banklarning moliyaviy taraqqiyotda o'rni beqiyosdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik/ "Noshir", 2012. 155 bet
2. <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/management/entity/>
3. Moliya va soliqlar fani bo'yicha ma'ruzalar kursi, Xolmirzayev A.A. 31-bet
4. Moliya va soliqlar fani bo'yicha ma'ruzalar kursi, Xolmirzayev A.A., Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Iqtisodiyot fakulteti «Центр инновационных технологий» MChJ va "Iqtisod va moliya"/2012-yil. 31-bet
5. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>
6. <https://soliq.uz/press-services>
7. [https://en.wikipedia.org/wiki/Uzbek\\_Railways](https://en.wikipedia.org/wiki/Uzbek_Railways)
8. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik / Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: 2019. – 882 bet.



UDK 37.015.31.37.0

Shoxjaxon XASANOV,  
FarDU mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail: Shoz0403.sx@gmail.com

PhD, dotsent J. Obidov taqrizi asosida

### THE INFLUENCE OF THE METHODS OF DEVELOPING PEDAGOGICAL INTENTIONS ON THE BASIS OF A COLLABORATIVE APPROACH ON PEDAGOGICAL INTENTIONS

Annotation

This article provides information about the influence of collaborative approach-based methods on pedagogical intentions in the training process of future teachers based on a collaborative approach. Changing the existing content and methods of training future teachers in a higher educational institution based on new requirements, as well as approaches aimed at developing the educational process of methods based on the collaborative approach of the teacher and the student, are discussed.

**Key words:** Educational process, collaboration, pedagogical intention, educational efficiency, creative thinking, mastering skills, personality formation.

### KOLLABORATIV YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIK INTENSIYALARINI RIVOJLANTIRUVCHI METODIKALARNI PEDAGOGIK INTENSIYALARGA TA'SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kollaborativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni o'quv jarayonida kollaborativ yondashuv asosidagi metodikalarning pedagogik intensiyalarga ta'siri xususida ma'lumot berilgan. Oliy ta'lim muassasasida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning mavjud mazmuni va usullarini yangi talablar asosida o'zgartirish, shuningdek, uning mohiyati o'qituvchi hamda talabning kollaborativ yondashuv asosidagi metodikalarning o'quv jarayonini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** O'quv jarayoni, kollaboratsiya, pedagogik intensiya, ta'lim samaradorligi, ijodiy fikrlash, ko'nikmalarni o'zlashtirish, shaxsning shakllanishi.

### ВЛИЯНИЕ МЕТОДОВ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАМЕРЕНИЙ НА ОСНОВЕ СОВМЕСТНОГО ПОДХОДА НА ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАМЕРЕНИЯ

Аннотация

В данной статье представлена информация о влиянии методов, основанных на кооперативном подходе, на педагогические намерения в процессе подготовки будущих учителей, основанных на кооперативном подходе. Обсуждаются изменения существующего содержания и методов подготовки будущих преподавателей в высшем учебном заведении с учетом новых требований, а также подходы, направленные на разработку методов образовательного процесса, основанных на совместном подходе преподавателя и студента.

**Ключевые слова:** Учебный процесс, сотрудничество, педагогическое намерение, эффективность обучения, творческое мышление, овладение умениями, формирование личности.

**Kirish.** Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik intensiyalarini rivojlantirish va kollaborativ yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish masalalari dolzarb ta'limiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni o'qitish jarayonida ularning pedagogik faoliyatini tashkil etuvchi metodik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun pedagogika fani doirasidagi metodik malakalar ayniqsa kollaborativ yondashuv asosida o'qitishga o'rgatishga tayyorlash jarayoniga katta e'tibor qarotish lozim.

Ma'lumki, XX asrning oxiri XXI asrning boshlariga kelib, ta'lim jarayoni subektlari faoliyatiga nisbatan yangicha yondashuvlar vujudga keldi. Bu yondashuvlarning mushtarak ahamiyati shundaki shaxslararo munosabatar o'zaro hamkorlik jarayonida yangi sifat ko'rsatkichlariga ega bo'ladi va kutilgan natijani beradi. Pedagogik kollaboratsiyaning ta'lim jarayoni subektlari faoliyatida yangicha sifat o'zgarishlarining shakllanishi va namoyon bo'lishiga ko'maklashadi. Pedagogik kollaboratsiyaning muhim jihati shundaki, u ta'lim jarayoni subektlari faoliyatini muayyan tarzda uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Lotin tilida "laboro" fe'li "ishlamoq" ma'nosini bildirgan holda uning

hosilasi sifatida "collaboro" – "hamkorlik qilmoq, birga ishlamoq" ma'nolarini bildirgan so'z hosil bo'lgan va "kollaboratsiya" so'zi fransuz tiliga o'zlashtirilgan. Kollaboratsiya (fransuzcha-collaboration) – umumiy manfaatga birga erishish uchun ikki yoki undan ko'proq kishining sherikchiligini anglatadi [1].

O'zbek tilining izohli lug'atida "Hamkor – forscha "همکار" ish faoliyatida hamkor bo'lish, ayni bir ishda birgalashish, uni teng bajarish" [2].

Pedagogikada kollaboratsiya – umumiy maqsadlar yo'lida birgalikda hamkorlik qilishi, tajriba almashishi, o'rganishi, maslahatlashishini anglatadi. Bunda pedagogik jarayon ishtirokchilari kengqamrovli hamkorlik jarayonlari obyektini hisoblanadi. Keng ma'noda kollaboratsiya jarayonlari ta'lim tashkilotidagi muammoni hal qilish, vazifani bajarish yoki qo'yilgan ta'limiy maqsadga erishish uchun jamoaviy ishlarni tashkil qilish imkonini beradigan pedagogik strategiyani anglatadi.

Intensiya (lat. - istak) - insonning obyektlar va hodisalarni bilishga bo'lgan tug'ma istagi, odamning ongini ma'nolarni bilishga yo'naltirish qobiliyati [3].

Pedagogika sohasida intensiya tushunchasi N.A.Aminova tomonidan ta'limda maqsadga yetishish ko'nikmasi sifatida qaralgan.

XIX asrda fangan Intensiya tushunchasi Nemis olimi Frans Brentano tomonidan "Intensiyaviylik" konsepsiyasi bilan kirib keldi, uning konsepsiyasi insonning ma'lum predmetga nisbatan ongli ravishda yo'nalganligi bilan tavsiflangan [4].

Biz o'zimizning tadqiqot ishimizda kollaborativ o'qitish va pedagogik intensiya atamalariga quyidagicha ta'rif berdik. Kollaborativ o'qitish – ikki va undan ortiq ta'lim oluvchi va o'qituvchilarning, birgalikdagi ma'lum maqsad va manfaat yo'lidagi o'qitish faoliyati hisoblanadi.

Pedagogik intensiya - bu o'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayonida maqsadli ravishda amalga oshiriladigan didaktik va pedagogik faoliyatidir. Bu tushuncha o'z ichiga o'qituvchining dars rejasini tuzishdan tortib, ta'lim berish metodikalarini tanlash, o'quvchilarni motivatsiyalash, ularning bilimlarini nazorat qilish va baholash, hamda ta'lim jarayonini refleksiya qilish kabi qadamlarni qamrab oladi.

O'rta osiyo mutafakkirlari al-Buxoriy, at-Termiziy, Axmad Yassaviy Najmiddin Kubro, al-Farobiy, ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy kabilarning ilmiy-nazariy merosida o'qituvchilar va ta'lim oluvchilar orasidagi birgalikdagi, do'stona munosabat masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan va ijtimoiy hamkorlik muammosining ijtimoiy-psixologik jihatlarini kollaborativ faoliyat ko'rinishida bayon qilingan va ilmiy jihatdan ma'lum darajada asoslangan. Demak, biz tadqiqot uchun tanlagan muammoning ayrim qirralari sharqning qomusiy olimlari nazaridan ham chetda qolmagan. Pedagogik kollaboratsiya masalasining samaradorlik jihatini ajdodlar tajribasi ham kafolatlaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Pedagogik intensiyalar xorijlik Li Shulman tomonidan o'rganilgan. Uning o'qituvchilarning pedagogik bilimlari, maqsadlari va ular orasidagi bog'liqliklar haqida tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Li Shulman o'qituvchilarning mukammal bilim bazasini talab qiladigan "pedagogical content knowledge" (PCK) konsepsiyasini ishlab chiqqan. U o'z konsepsiyasida "O'qitishni o'quvchilarning tushunishini osonlashtirish maqsadida bilimlarni o'zgartirishni nazarda tutadiganlar nafaqat tegishli mazmun bilimlariga, balki ushbu bilimlarni o'quvchilarga ochiq qilish uchun zarur bo'lgan pedagogik ko'nikma va tushunchalarga ham ega bo'lishlari kerak. Ushbu noyob tarkib va pedagogika majmuani men "pedagogik mazmun bilimi" (PMB) deb atadim" deb qayd etadi [5].

Kollaborativ yondashuv asosida o'qitish jarayonida pedagogik intensiyalarni rivojlantirish bir-biriga bog'liq bo'lgan faoliyat turidir. Ya'ni ta'lim faoliyatining uzviy bir-birini to'ldiruvchi mavzulashtirilgan o'quv dasturiga singdirish talaba shaxsida pedagogik intensiyalarni namoyon bo'lishiga olib keladi.

Pedagogik intensiyalar pedagog shaxsining pedagogik mahorati va uning xususiyatlarini fundamental asosi hisoblanadi. Tom ma'noda, pedagogik kollaboratsiya va pedagogik intensiyalar bir biriga bog'liq holda o'quv faoliyatida muhim o'rin tutib kelgan. Rossiyalik olim V.M.Myasishevning ta'kidlashicha, shaxs – o'zaro hamkorlik va boshqalar bilan munosabatning mahsuli sifatida namoyom bo'lishi ta'kidlangan [6]. O'tgan XX asrning 80-90-yillarida ijtimoiy-psixologiya, mexnat va boshqaruv psixologiyasi sohalarida hamkorlik faoliyatini amalga oshiradigan guruhli faoliyat muammosini o'rganishga qiziqish birmuncha o'sdi. Xuddi shu sababli ham rus olimi B.F.Lomov faoliyat o'z-o'zidan bo'lmaydi, balki jamiyat faoliyati bilan uygunlashgan xolda namoyon bo'ladi deb ta'kidlagan edi [7].

Pedagog – novatorlarning dastlabki yig'ilishi 1986-yil oktabr oyida Moskva yaqinidagi Peredelkina qishlog'ida

tashkillandi. Uchrashuv natijasida "Hamkorlik pedagogikasi tezislari" 1986-yil 18-oktabrda "Uchitelskaya" gazetasida e'lon qilindi. Ushbu tezislar kollaborativ o'qitish asosida ta'limda yangi yo'nalishni ochib berilishiga turtki vazifasini bajardi.

Kollaborativ o'qitishning asosiy g'oyalari keyinchalik Amerikalik olimlar Jorj Aronson (1978), Rodgers va Devid Djonsonlar(1987) Robert Slavin, (1990), hamda Isroillik olim Shlomo Sharan (1988) tomonidan taklif qilingan va uslubiy jihatdan tavsiflangan. Ularning tadqiqotlari o'quv jarayonini insonparvarlashtirish g'oyalarini targ'ib qilgan.

D.B.Millerning qayd etishicha, hamkorlik vaziyatida umumiy maqsad mavjud bo'lib, guruhlariga taqsimlangan o'quvchilarning hammasiga vazifalar bo'lib beriladi, raqobat vaziyatida guruhning har bir a'zosi yaxlit tarzda qo'yilgan maqsadga individual erishishi talab etiladi [10]. Ta'limdagi umumiy va shaxsiy muammoli vaziyatlarni hal etishda mavjud vazifalarni o'quv faoliyati qatnashchilarining xususiyatiga qarab taqsimlash, ushbu vaziyatni yechilishni osonlashishiga olib keladi.

Xorijiy tadqiqotlarda hamkorlikda o'qitishning guruhli shaklining imkoniyatlarini ochib berishga alohida ahamiyat qaratilgan. Jumladan, D.V.Jonson, R.T.Jonsonlar o'quvchilarning individual o'quv-bilish faoliyatini kichik guruhlardagi birgalikda ishlash bilan uyg'unlashtirishni taklif etishgan [11]. D.de Friz (D. DeVries) va K.Edwards (K.Edwards) o'quv-bilish faoliyatidagi o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishning guruhli shaklini tashkil etishning o'yin usullarini bayon etishgan[12]. Kollaborativ yondashuv asosidagi o'qitish jarayonida o'quvchilar uchun qulay ta'lim sharoitini yaratish katta samaradorlik beradi.

**Natija va muhokama.** Ushbu masala yuzasidan kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarni rivojlantiruvchi metodik turlarga oid o'qitishning interfaol metodlari namunalarini taklif etamiz. Bu namuna kollaborativ xarakterga ega bo'lgan guruhlarda o'qitish metodikasiga tayanilgan.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlarini quyidagilarda namoyon bo'ladi: ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish, ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi, ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi, o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi, ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab - quvvatlanishi, amalda bajarish orqali o'rganilishi, ikki tarafdin fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Tadqiqot ishida pedagogik intensiyalarga ta'sir ko'rsatuvchi kollaborativ yondashuvga asoslangan ta'lim metodikalarini tavsiya etilgan. Quyida ushbu metodikalarni tavsifi keltirilgan.

Axborot almashish - dars mavzusini savol javoblar orqali o'zlashtirishga asoslangan metodika.

Qiziqarli rollar darsi - qiziqarli rollar ijrosini ta'minlash asnosida savollarga javob topish orqali mustaqil fikrlashni o'rgatish metodikasi.

Hamkorlikda muammolarni hal qilish darsi - o'quvchilarning bir nechta guruhlariga bo'linib muammoli vaziyatni yechish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqi.

Hamkorlikda o'zaro o'rganish darsi - o'quvchilarning dars mazmuni bo'yicha matnning ayrim abzatslari yoki shunga

o'xshash kichik bo'laklarini bir-birlariga tushuntirishlarini tashkil etish orqali mavzuni o'zlashtirish darsi.

Liderlik darsi - dars mavzusini o'quvchilar tomonidan tushuntirib berilishini tashkil etish orqali o'quvchilar faolligini oshirish mashqi.

Raqobat darsi - sinfdagi o'quvchilarning bir yoki bir nechta mavzu bo'yicha oldindan tayyorgarlik ko'rgan holdagi tanlovini tashkil etish, g'oliblarni aniqlash darsi.

Dual dars - o'quvchilarning juft bo'lib, dars mavzusini birgalikda o'zlashtirishi yoki bir-birining bilimlarini mustahkamlash darsi. Bunda zarur bo'lganda juftliklar dars davomida turlicha o'zgartirilishi mumkin.

Dialogik dars - o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va o'z fikrlarini bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida dars mavzusini o'quvchilar bilan dialoglar tashkil etish orqali tushuntirish va mustahkamlash mashqlaridan iborat.

Liberallik darsi - o'quvchilarning navbatma-navbat ishtiroki asosida yangi mavzuni o'zlashtirish yoki o'tilgan darsni takrorlab, mustahkamlash mashqlaridan iborat.

Innovatsiyalar darsi - o'quv fani sohasidagi yoki ijtimoiy hayotga tegishli yangiliklarni joriy qilish, shuningdek o'quvchilarning ijodiy faoliyatlari natijalarini amalda qo'llash bo'yicha taklif va loyihalar bilan tanishirish darsi bo'lib, o'quvchilarning bilimlarini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini

Tavsiya qilingan metodikalarni pedagogik intensiyalarga ta'sir ko'rsatish darajasi

Intensiya	Ta'limiy	Tarbiyaviy	Motivatsion	Muloqot	Diagnostik	Innovatsion	Ijodiy
<b>Metodika</b>							
Axborot almashish darsi	•	•	••	•••	••	•••	•••
Qiziqarli rollar darsi	••	••	•••	••	•	•••	•••
Hamkorlikda muammolarni hal qilish darsi	••	••	••	•••	•	••	••
Hamkorlikda o'zaro o'rganish darsi	•••	•••	••	•••	•••	•	•••
Liderlik darsi	••	••	••	••	••	••	•••
Raqobat darsi	••	••	••	•	•••	•	•••
Dual dars	•••	•••	••	••	•	••	•
Dialogik darsi	••	••	•	••	••	•	•
Liberallik darsi	•••	••	••	•••	••	•	•
Innovatsiyalar darsi	••	••	••	••	••	•••	•••

Yuqorida keltirilgan jadval asosida o'quv faoliyatini yo'lga qo'yishda foydalanish mumkin. Ushbu metodikaning joriy etilishida dastlab talabalar hamkorlikdagi bu jarayonga kirishguncha bo'lgan vaqt davomida noan'anaviy o'qitish uslubida farqli o'laroq qiyinchilikga duch kelsa-da, biroq talabalarda amaliy ko'nikma va malaka hosil bo'lgach, bu vazifa ularning o'quv jarayonidagi ma'lum bir ajralmas qismga aylanib qoladi. Talabalarda ushbu metodika yuzasidan kompetensiya hosil bo'lishi uchun, bizning fikrimizcha, talabalarining intellektual salohiyatiga qarab bir qancha vaqt kerak bo'ladi va bu vaqt mobaynida bo'lajak o'qituvchilar fan yuzasidan ijobiy natijaga erishishi ko'zda tutilgan.

**Xulosa.** Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar bo'yicha yangilangan o'quv reja asosida fan dasturlarining yangi avlodi ishlab chiqish. bu esa, o'qitish sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha ijobiy samaradorlikka

rivojlantirishga xizmat qiladi. Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi: o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish o'rganishdir.

Yuqorida keltirilgan metodlarning barchasini o'qitiladigan bir mutaxassislik fani doirasidagi 1 dars davomiyligi bo'yicha qo'llashimiz, mumkin bo'ladi. Ushbu metodlarda bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim berish ularda dars faoliyatini avvalgi bobda keltirilgan pedagogik intensiyalarni rivojlantiradi. Ushbu fikrlarga tayangan holda o'qitiladigan bir mutaxassislik fani doirasidagi 1 dars davomiyligi bo'yicha darsning metodik tavsiyalarini bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik intensiyalariga ta'sir ko'rsatish doirasiga nisbatan 3 guruhga bo'lishni tavsiya qildik.

1. Quyi daraja. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik intensiyalariga quyi darajada ta'sir ko'rsatadigan ya'ni ta'sir doirasi darsning uslubiy tashkillanishiga qarab past darajadagi omilga ega metodikalar (•).

2. O'rta daraja. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik intensiyalariga o'rta darajada ta'sir ko'rsatadigan ya'ni ta'sir doirasi darsning uslubiy tashkillanishiga qarab o'rta darajadagi omilga ega metodikalar (••).

3. Yuqori daraja. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik intensiyalariga yuqori darajada ta'sir ko'rsatadigan ya'ni ta'sir doirasi darsning uslubiy tashkillanishiga qarab yuqori darajadagi omilga ega metodikalar (•••).

erishishni ta'minlaydi. Shularni e'tiborga olgan holda fanlarini hamkorlikda interaktiv faol metodlar asosida o'qitish zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqish dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Belgilangan malaka talablari darajasida talabalar tomonidan bilimlarning egallanishida qo'llaniladigan uch toifadagi pedagogik usullar mavjud. Birinchi toifadagi an'anaviy usullar bilimlarni "Yetkazib berish" tamoyiliga asoslanadi. Ikkinchi toifadagi noan'anaviy yoki interaktiv usullar "Faollashtirish" tamoyiliga suyanadi. Uchinchi toifadagi ilg'or yoki zamonaviy usullar ta'lim-tarbiya jarayonini jadallashtirish va samaradorligini oshirish tamoyilidan kelib chiqadi. Mazkur usullar haqida bo'lajak o'qituvchilaridan yetarli darajada tushunchaga ega bo'lish, ulardan to'g'ri va o'rinli foydalana olish malakasi talab etiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. <https://kun.uz/news/2019/02/12/kunuzdan-innovatsion-lugat-trendsetterdan-startapgacha>.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. –B. 35
3. Bezrukova V.S. Osnovi duxovnoy kulturi (ensiklopedicheskiy slovar pedagoga). – Yekaterinburg. 2000. – S. 937.
4. Brentano F. Izbranniye raboti. M., 1996
5. Shulman, L. S. (1986). Those who understand: Knowledge growth in teaching. Educational Researcher, 15(2), –P. 4-14
6. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Vikipediya>. Svobodnaya ensiklopediya
7. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Vikipediya>. Svobodnaya ensiklopediya

8. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Xolmatov P., Shirinov M. Pedagogika. (2016). Darslik. - T.: «Navro'z».
9. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik/ M.X. Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Hasanboyev, M. Usmonboyeva, S. Madiyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. —B. 400.
10. May M.A., Doob L.W. Competition and Cooperation / M.A. May, L.W. Doob. — New York: Social Science Research Council, 1997.
11. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperation and the use of technology. In J. M. Spector, M. D. Merrill, J. van Merriënboer, & M. Driscoll (Eds.), Handbook of research on educational communications and technology. — New York: Taylor & Francis, 2008. — P. 1017-1044.
12. DeVries, D., Edwards K. Learning games and student teams: Their effects on classroom process / D. DeVries, K. Edwards. — American Educational Research Journal. — 1993. — №10. — P. 307-318





UDK: 10:331(045)

*Sherali XOLOV,*  
*Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*  
*E-mail: Sherali.holov@mail.ru*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti DSc B. Omonov taqrizi asosida*

## CONTENT, CRITERIA AND IMPORTANCE OF ECONOMIC DEVELOPMENT

Annotation

The article analyzes the development of the economic sector of society, economic progress, the economy, its sustainability, and advancement from a social-philosophical perspective. It elaborates on the content and essence of economic development, clarifying its criteria, interpreting its social significance philosophically, and generalizing the system of factors influencing it. This issue has become one of the pressing problems not only in economics but also in social philosophy and sociology. The article examines theories and concepts regarding the content and criteria of economic development, while summarizing advanced practices in modern human society to draw scientific conclusions about further enhancing the economy.

**Key words:** Economy, development, economic development, national economy, economic growth, economic stability, political stability, economic infrastructure, innovative economy, labor productivity.

## СОДЕРЖАНИЕ, КРИТЕРИИ И ЗНАЧЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация

В статье анализируются вопросы развития экономической сферы общества, экономического прогресса, экономики, ее устойчивости и роста с социально-философского аспекта. Научно доказано, что вопрос детализации содержания и сущности экономического развития, уточнения его критериев, философского осмысления его социальной значимости, обобщения системы влияющих на него факторов становится одной из актуальных проблем не только экономики, но также социальной философии и социологии. Анализируются теории и концепции о содержании и критериях экономического развития, обобщается лучший опыт современного человеческого общества и делаются научные выводы о дальнейшем совершенствовании экономики.

**Ключевые слова:** Экономика, развитие, экономическое развитие, национальная экономика, экономический рост, экономическая стабильность, политическая стабильность, экономическая инфраструктура, инновационная экономика, эффективность труда.

## IQTISODIY TARAQQIYOT MAZMUNI, MEZONLARI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada jamiyatning iqtisodiy sohasini rivojlantirish, iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiyot, uning barqarorligi va yuksalishi masalalari ijtimoiy-falsafiy aspektda tahlil qilingan. Iqtisodiy taraqqiyot mazmuni va mohiyatini mufassal ifodalash, uning mezonlariga aniqlik kiritish, ijtimoiy ahamiyatini falsafiy talqin etish, unga ta'sir ko'rsatadigan omillar tizimini umumlashtirish masalasi nafaqat iqtisodiyot ilmining, balki ijtimoiy falsafa va sotsiologiyaning ham dolzarb muammolaridan biriga aylananotganligi ilmiy asoslab berilgan. Iqtisodiy taraqqiyotning mazmuni, mezonlari haqidagi nazariyalar, konsepsiyalar tahlil qilinadi va zamonaviy kishilik jamiyatidagi ilg'or tajribalar umumlashtirilib iqtisodiyotni yanada yuksaltirish borasida ilmiy xulosalar qilingan.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiyot, taraqqiyot, iqtisodiy taraqqiyot, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy barqarorlik, siyosiy barqarorlik, iqtisodiy infrastruktura, innovatsion iqtisodiyot, mehnat samaradorligi.

**Kirish.** Insoniyat tarixining barcha bosqichlarida ijtimoiy hayotning marka-ziy jabhasi iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lgan. Turli sohalar ravnaqi hami-sha iqtisodiyot taraqqiyotidan ildiz olgan hamda u yaratgan imkoniyatlar negizida yuz bergan. Shu boisdan iqtisodiyot silsilalari, uning ravnaqiga turtki beruvchi omil va vositalar mutafakkirlar va mutaxassislar tomoni-dan faol o'rganib kelingan. Biroq hech bir zamonda iqtisodiyot, uning barqarorligi va yuksalishi masalalari XXI asrdagi kabi diqqat markazida bo'lgan emas. Bugungi davrda iqtisodiyot, uning rivoji butun insoniyat, mamlakat va millatlar farovon va osoyishta turmushini, barqarorligi va hamjihatligi-ni, hatto kelajakdagi taqdirini hal qiladigan qudratli manbaga aylandi. Buning ustiga, davr o'tgani sayin unga ta'sir ko'rsatadigan omil va vosita-lar ham ko'paymoqda.

"Iqtisodiyot" va "taraqqiyot" tushunchalari mazmuni sintezi "iqtisodiy taraqqiyot" kategoriyasi ta'rifini ifodalash imkonini beradi. Iqtisodiy taraqqiyot moddiy va ma'naviy

ne'matlar yaratishda qo'llaniladi-gan xo'jaliklar, vositalar, obyektlardagi, ular vositasida amalga oshirila-digan ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimot, iste'mol munosabatlaridagi takrorlanmas, ma'lum yo'nalishga ega bo'lgan sifatli o'zgarishlarni ifoda-lovchi kategoriyadir.

Iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi omillar ahamiyatiga mamlakat Prezidenti Sh. Mirziyoyev ham muttasil e'tiborni qaratib keladi. Uning ma'ro'zalarida ta'lim va fanni rivojlantirishning asl maqsadi yurt iqtisodiy ravnaqi uchun zamin hozirlash ekanligi ta'kidlanadi. "Xomashyo va uni qayta ishlash bilan uzoqqa borib bo'lmaydi,- deb ta'kidlaydi davlat rahba-ri.- Qolaversa, ishlab chiqarishda qo'shimcha qiymat olish uchun ham innovatsion kerak. Shu bois ilm-fan taraqqiyotimizning muhim yo'nalishi, tayanchi bo'ladi"[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Prezident Sh. Mirziyoyev o'z kitobida: "Iqtisodiyotda yangi natija va yutuqlarga, milliy raqobatbardoshlikni oshirishga erishish

uchun innovatsiyalarni keng miqyosda joriy etish zarur", [2] - deb yozgan edi.

Tadqiqot mantig'i avvalo asosiy tushuncha mazmuni va hajmini aniqlab olishni taqozo qiladi. Buning uchun "iqtisodiyot" va "taraqqiyot" tushunchalari ta'rifiga murojaat qilsak. Ensiklopediyalarda "iqtisodiyot" tushunchasining quyidagi uch ma'nosi keltiriladi: "1) kishilar tomonidan mehnatni qo'llagan holda inson uchun zaruriy bo'lgan ne'matlar, hayot sharoitlari va vositalarini yaratish orqali tirikchilikni ta'minlash, ehtiyojlarni qon-dirishda foydalaniladigan xo'jalik, vositalar, obektlar, jarayonlar majmui. Ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimot, iste'mol sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni qamraydi; 2) muayyan mamlakatning milliy xalq xo'jaligi yoki uning bir tarmog'i (transport iqtisodiyoti, qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va boshqalar); 3) xo'jalikning u yoki bu tarmog'ini, mintaqa xo'jaligini, ishlab chiqarishni tashkil etish usullari va shakllarini, shuningdek, ishlab chiqarishni boshqarishni o'rganadigan iqtisodiyot fanlari (sanoat iqtisodiyoti, savdo iqtisodiyoti va boshqalar)" [3]. Tadqiqot obekti milliy iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lgani bois ushbu ta'riflarning birinchisini asos sifatida olamiz.

Ilmiy manbalarda "taraqqiyot" tushunchasi falsafaning asosiy katego-riyalari turkumiga kiritiladi hamda atroflicha tavsiflanadi. Shunday man-balardan birida taraqqiyot uch xususiyatga ega murakkab, serqirra, ko'p bos-qichli jarayon sifatida ta'riflanadi: Birinchidan, taraqqiyot, eng avvalo, tizimdagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Ikkinchidan, taraqqiyot tizimdagi takrorlanmas, qaytarilmas o'zgarishlar bilan bog'liq. Uchinchidan, taraqqiyot ma'lum yo'nalishga ega bo'lgan sifatli o'zgarishlar bilan bog'liq [4]. "Tilga olingan uch xususiyat "taraqqiyot" kategoriyasini ta'riflash imkonini beradi. Shunday qilib, taraqqiyot - sistemadagi takrorlanmas, ma'lum yo'nalishga ega bo'lgan sifatli o'zgarishlardir". [4, s.103] Tushunchaning mazkur ta'rifini mulohazalarimizning dastlabki nazariy-metodologik asosi sifatida qabul qilamiz.

"Iqtisodiy taraqqiyot" tushunchasini ilmiy muomalaga amerikalik iqtisodiyotshunos, siyosatshunos va sotsiolog olim Yozef Aloiz Shumpeter kiritgan. Amerika iqtisodiy Assotsiatsiyasi prezidenti sifatida mehnat qildi [5]. Olim qator terminlar-ning "kashfiyotchisi" sanaladi. Masalan, u iqtisodiyot nazariyasini "bunyod-kor vayronkorlik", [7] siyosatshunoslikni esa "elitar demokratiya" [8] tushunchasi bilan boyitdi.

"Iqtisodiy taraqqiyot" olim taklif etgan ana shunday tushunchalardan yana biri hisoblanadi. Ushbu tushunchani Y. Shumpeter iqtisodiy ravnaqni oddiy iqtisodiy o'sishdan tafovutlash maqsadida qo'llaydi. Olim o'zining "Iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi" nomli kitobida iqtisodiy taraqqiyot oddiy iqtisodiy o'sishdan tubdan farq qilishini yorqin misol yordamida tasvir-lab beradi. Masalan, deydi u, son-sanoqsiz pochta aravalarini bir qator qilib qo'yib chiqishimiz mumkin, biroq buning bilan u temir yo'l trans-portiga aylanib qolmaydi. Iqtisodiy o'sish bir xildagi mahsulot va xiz-matlarning (shu jumladan pochta aravalarining) shunchaki miqdoriy ko'payishidir, xolos. Bundan farqli o'laroq, iqtisodiy taraqqiyot ishlab chiqarish-dagi, mahsulotlardagi, xizmatlardagi, boshqaruvdagi, nihoyat, butun iqtiso-diyotdagi sifatli o'zgarishlardir [9] Rus olimlari A.V. Loginov va A.O. Yaroslavsevalar siyosiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyot o'rtasidagi dialektik aloqadorlikning boshqa jihatiga e'tiborni qaratadilar.

Mutaxassislarning yana bir guruhi iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun iqtisodiy infratuzilmani takomil toptirish kerakligini uqdiradi-lar. Dotsent M.Vohidova "infratuzilma" tushunchasini shunday ta'riflaydi:

L.Valras, A. Marshal, M. Fridman kabi olimlar o'z asarlarida iqtisodiy o'sishni sof iqtisodiy omillar ta'sirida

yuzaga kelgan miqdoriy yuksalish sifatida tasvirlaydilar [10]. J. Tobin kabi iqtisodchi olimlar esa iqtisodiy o'sish nafaqat iqtisodiy, balki iqtisodiyotga dahldor bo'lmagan ko'plab omillar ta'sirida yuzaga kelishini uqdiradilar [11] R. Nelson va S. Uinter o'z asarlarida iqtisodiy o'sishni milliy iqtisodiyot rivojining yorqin natijasi deb ko'rsatadi [12].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani yozishda analiz va sintez, deduksiya, induksiya metodlaridan va tarixiylik, mantiqiylik prinsiplaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Iqtisodiy taraqqiyot deganda bir necha yo'nalishdagi sifatli o'zgarishlar nazarda tutiladi. Iqtisodiy o'sish mahsulot va xizmatlarning miqdoran ko'payishi bilan bog'liq. Iqtisodchi olimlar iqtisodiy o'sishga olib keladigan mexanizmlarni turlicha tavsiflaydilar. Masalan, L.Valras, A. Marshal, M. Fridman kabi olimlar o'z asarlarida iqtisodiy o'sishni sof iqtisodiy omillar ta'sirida yuzaga kelgan miqdoriy yuksalish sifatida tasvirlaydilar [10]. J. Tobin kabi iqtisodchi olimlar esa iqtisodiy o'sish nafaqat iqtisodiy, balki iqtisodiyotga dahldor bo'lmagan ko'plab omillar ta'sirida yuzaga kelishini uqdiradilar [11]. R. Nelson va S. Uinter o'z asarlarida iqtisodiy o'sishni milliy iqtisodiyot rivojining yorqin natijasi deb ko'rsatadi [12]. Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy o'sish tabiati, namoyon bo'lishi xususiyatlari, omillari va vositalarini turlicha tavsiflash mumkin. Lekin, bundan qat'i nazar, u har qanday mamlakatda ham, har qanday holatda ham iqtisodiy taraqqiyotdan darak beruvchi muhim yo'nalishlardan biri sifatida qolaveradi.

Iqtisodiy taraqqiyot innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi bilan bog'liq o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi. Innovatsion iqtisodiyot yangi tex-nologiyalarning iqtisodiyotga tatbiq etilishi bilan bog'liq jarayonlarni ifodalaydi. Bu texnologiyalarning joriy qilinishi nafaqat mahsulotlar va xizmatlar miqdori va sifatiga o'zgarishlar kiritadi, balki mehnat sama-radorligining tubdan yuksalishiga zamin hozirlaydi. Uning ahamiyati shundaki, innovatsion iqtisodiyot aholi turmush darajasining oshishiga, yan-gi ish o'rinlarining yaratilishiga, eksport salohiyatining yuksalishiga, fan va ta'lim ravnaqiga xizmat qiladi. Shu boisdan mutaxassislarning ilmiy ishlarida innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi iqtisodiy yuksalish-ning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi [13]. Iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishlaridan yana biri iqtisodiyotdagi tarki-biy o'zgarishlar xarakteri bilan bog'liq. Sodda tarkibga ega iqtisodiyotlar asosan xom ashyo yetkazib berishga moslashgan bo'ladi. Xom ashyo ishlab chiqa-rish va eksport qilishga asoslangan iqtisodiyot ravnaq topmasligi hammaga ma'lum fikr. Bunday iqtisodiyot turg'unlikdan nariga o'tmaydi, unda biror bir rivoj ko'rinishi bag'oyat mushkul. Iqtisodiy ravnaq topishi uchun tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga urg'u berilmog'i lozim. Buning uchun esa iqtisodiyot tarkibida tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ya'ni iqtiso-diy subyektlar faoliyatini tubdan yangilash, yangi tarmoqlar va sektorlarni vujudga keltirish, ular o'rtasidagi aloqadorlikni mustahkamlash lozim bo'ladi. Ana shu jarayonlarning bo'y ko'rsata boshlashi iqtisodiyotning rav-naqqa hozirligidan dalolat beradi. Shu bois atqili davlat arbobi Islom Karimov o'zining iqtisodiy islohotlarni mohiyatiga bag'ishlangan "O'zbe-kiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" nomli kitobida iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirishni, xom ashyo yetkazishdan tayyor mah-sulot ishlab chiqarishga o'tishni, uning sifatini va raqobatga bardoshli-ligini jahon talablari darajasiga yetkazishni iqtisodiy siyosatning stra-tegik vazifalaridan biri sifatida belgilagan edi [14].

Iqtisodiy taraqqiyotning navbatdagi yo'nalishi mehnat samaradorligi bilan bog'liq. Mehnatning samarali tarzda tashkil etilishi va amalga oshirilishi qisqa muddatda ko'proq mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish imkonini beradi. Buning natijasida mamlakatdagi ishlab chiqa-rish hajmi muttasil miqdoran oshib boradi, aholiga taqdim

qilinayotgan tayyor mahsulotlarning tannarxi esa pasayadi. Bundan tashqari, umumli va oqilona mehnat turli resurslar sarf-xarajatini kamaytiradi. Mutaxassis-lar mamlakatdagi inflyatsiya darajasi bilan mehnat samaradorligi o'rtasida ham muayayn aloqadorlik mavjudligini qayd qiladilar. Xususan, samaradorlik ortgani sayin inflyatsiya miqdori kamayadi, aksincha, mehnatning nooqi-lonaligi va besamarligi inflyatsiyaning jadal sur'atlar kasb qilishiga sa-bab bo'ladi[15]. Mamlakat korxonasi va tashkilotlari, firma va kompaniyalarida mehnatning samara kasb qilib borayotgani milliy iqtisodiyotning taraqqiy topayotganidan dalolat beradi.

Iqtisodiy taraqqiyot stixiyali va tasodifiy ravishda sodir bo'ladigan va bo'y ko'rsatadigan jarayon emas. U jamiyatning barcha mavjud resurslarini keng ko'lamda safarbar qilishni taqozo etadi. Mutaxassislarning ilmiy ishlarida iqtisodiy taraqqiyotga turtki beruvchi ko'plab omillar tavsiflanadi. Masalan, amerikalik iqtisodchilar D.Adjemoglu va J.Robinsonlar iqtisodiy taraqqiyot siyosiy barqarorlikni taqozo qilishiga alohida urg'u beradilar. Ularning fikriga ko'ra, siyosiy barqarorlik iklyuziv institut-larning shakllanishiga zamin yaratadi. Bu institutlar aholining katta qismini iqtisodiy masalalar yuzasidan siyosiy qarorlar qabul qilish jara-yoniga jalb etish imkonini beradi. Natijada iqtisodiy muammolarning o'z vaqtida bartaraf etilishiga, iqtisodiyotning shiddat bilan rivojlanishiga yo'l ochiladi. Aksincha, siyosiy beqarorlik ekstraktiv institutlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Mazkur institutlar aholining salmoqli qis-mini jamiyat iqtisodiy hayotidan uzib qo'yadiki, buning oqibatida iqtisodiy taraqqiyot sur'atlari sekinlashadi [16].

Rus olimlari A.V. Loginov va A.O. Yaroslavsevalar siyosiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyot o'rtasidagi dialektik aloqadorlikning boshqa jihatiga e'tiborni qaratadilar. Ular iqtisodiy taraqqiyotning o'zi siyosiy barqarorlikni mustahkamlovchi omil vazifasini o'tashi, mamlakatda iqtisodiy ravnaq sur'atlari jadallashgani sayin siyosiy barqarorlik ham qat'iy-lashishini, iqtisodiy tanazzul esa siyosiy vaziyatni izdan chiqarishini qayd etadilar [17].

G.V. Semeko, I.A. Ugarov, G.V. Ploxotnikova esa iqtisodiy taraqqiyot-ning boshqa omiliga – ta'lim va fan rivojiga diqqatni qaratadilar [18]. Ularning mulohazalariga ko'ra, ta'lim va fan iqtisodiy taraqqiyotga erishishda muhim rol o'ynaydi, chunki aynan fan va ta'lim iqtisodiyotni innovatsiyalar, yangi texnologiyalar va malakali kadrlar bilan ta'minlaydi. Bu vazifalarning samarali ado etilishi esa mehnat unumdorligini yuksaltirish, korxonasi va tashkilotlar raqobatbardoshligini oshirish, yangi va yangi investitsiyalarni jalb etish uchun imkon yaratadi. Shuningdek, fan va ta'lim sharofati bilan iqtisodiyotning turli sektorlarida mashg'ul bo'lgan muta-xassislar muttasil ravishda o'z mahoratlari va malakalarini oshirib bo-rihga muvaffaq bo'ladilar, bu esa iqtisodiyotning innovatsion rivojiga yo'l ochadi[18]. Ta'lim

va fan yuksalishsiz iqtisodiy taraqqiyotga erishish bag'oyat mushkul. Ushbu sohalarining zamon talablaridan ortda qolishi yoxud inqirozi iqtisodiyot sohalarini malakali kadrlarsiz qoldiradi, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarning vujudga kelishi jarayonlariga putur yetkazadi. Ta'lim va fan inqirozi, shuningdek, jamiyatdagi mehnat unumdorligini zaiflashtiruvchi omil hamdir. Bularning natijasida iqtisodiyot asta-sekinlik bilan turg'unlikka yo'liqadi.

Mutaxassislarning yana bir guruhi iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun iqtisodiy infratuzilmani takomil toptirish kerakligini uqdiradi-lar. Dotsent M.Vohidova "infratuzilma" tushunchasini shunday ta'riflay-di: "Infratuzilma (lot. infra - ostida) - ishlab chiqarish va tovar muomalasi, shuningdek, inson hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan meyoriy sharoitni ta'minlashga xizmat qiluvchi turli-tuman yordamchi xizmat ko'rsatuvchi soha-lar (tashkilot, korxonasi va muassasa) majmui; nomoddiy ishlab chiqarish sektoridir. Infratuzilma xizmatlari moddiy shaklga ega bo'lmagan tovar-lar bo'lib, ular hayotiy ehtiyojlarni qondiradi". [19]. Mutaxassis o'z maqolasida iqtisodiy infratuzilma tarkibiga quyidagilarni kiritadi: a) ijtimoiy-komponentlar (ta'lim, sog'liqni saqlash tizimi va inson kapitali); b) transport infratuzilmasi; v) ko'chmas infratuzilma (yo'llar, ko'priklar va telekommunikatsiya); g) bank va nobank moliyaviy infratuzilma[19].

Iqtisodiy infratuzilmaning ahamiyati shundaki, u iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishi uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, iqtisodiy obyektlarning xom ashyo va resurslar bilan uzluksiz ta'minlanishi, mahsu-lot va xizmatlarning iste'molchilarga yetkazilishi, yangi texnologiyalarning o'zlashtirilishi va tatbiq etilishi uchun zamin hozirlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qiladigan bo'lsak, iqtisodiy taraqqiyot deganda moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratishda qo'llaniladigan xo'jaliklar, vositalar, obyektlardagi, ular vositasida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish, ayirbosh-lash, taqsimot, iste'mol munosabatlaridagi takrorlanmas, ma'lum yo'nalishga ega bo'lgan sifatli o'zgarishlar nazarda tutiladi. U iqtisodiy o'sish-da, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishida, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarda, jamiyatdagi mehnat samaradorligida namoyon bo'ladi. Iqtisodiyotning ravnaqi siyosiy barqarorlik, ta'lim va fan rivoji, infratuzilma takomili, innovatsiyalar va investitsiyalar evaziga ta'minlanadi. Mamlakat-larning iqtisodiy taraqqiyoti sur'atlari va bu borada erishgan muvaffaqiyatlari qator ilmiy asosga ega bo'lgan mezonlar yordamida o'lchab, aniqlab va ifodalab boriladi. Milliy iqtisodiyotlar taraqqiyot sur'atlarining mazkur mezonlar yordamida aniqlanishi ularning istiqboliga doir ba-shoratlarni shakllantirish imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Asosiy maqsad – mamlakatimizda ison kapitalini rivojlantirish.// president.uz, 2019, 28 may.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- T.:O'zbekiston, 2021.- B.134.
3. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. J.1.- T.:O'zb.fayl. milliy jam. nashr.- Ma'naviyat, 2019.- B.547.
4. Choriyev S. Ontologiya.- Qarshi: Fan va ta'lim, 2021.- B.102.
5. Allen R. L. Opening Doors: the Life and Work of Joseph Schumpeter.- N.J.: Transaction Publishers, 1991.
6. Шумпетер Й. Капитализм, социализм и демократия.- М.: Экономика, 1995. — Гл. 7.
7. Шилов В.Н. Демократическая политическая конкуренция и ее предпосылки: Йозеф Шумпетер и современность.// Via in tempore. История. Политология, 2012, №1.- 244-255-с.
8. Шумпетер Й. Теория экономического развития. — М.: Директмедиа Паблишинг, 2008.
9. Вальрас Л. Элементы чистой политической экономии.- М.: Изограф, 2000; Маршалл А. Принципы экономической науки.- М.: Прогресс, 1993. Friedman Мю Capitalism and Freedom.- Chicago: University of Chicago Press, 2002.
10. Тобин Дж. Денежная политика и экономический рост.- М.:Литрес, 2010;
11. Нельсон Р. Р., Уинтер С.Дж. Эволюционная теория экономических изменений — М.: Дело, 2002.
12. Abulkasimov X.P. O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishini ta'minlash omillari.// Iqtisod va moliya, 2022, №3.- 62-69-b.

13. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.// Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Tom 3.- T.:O'zbekiston, 1996.- B.301.
14. Портнов А.В., Вику К. Н.К. Оценка коинтеграции инфляции и производительности: на примере России и стран Западноафриканского экономического и валютного союза (ЗАЭВС).// Наука Красноярья, 2023, №1.- 60-77-с.
15. Аджемолгу Д., Робинсон Дж. А. Почему одни страны богатые, а другие бедные. Происхождение власти, процветания и нищеты.- М.: АСТ, 2016.
16. Логинов А.В. Стабильность политической системы и факторы, ее определяющие.// Гуманитарий: актуальные проблемы гуманитарной науки и образования, 2008, №7.- 50-55-с.; Ярославцева А.О. Экономический рост как фактор политической стабильности.// Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Политология, 2015, №4.- 109-116-с.
17. Семко Г.В. Образование как фактор экономического роста.// Экономические и социальные проблемы России, 2010, №2.- 41-83-с.; Угаров И.А., Плехотникова Г.В. Наука и образование как факторы экономического развития современного мира.// Тенденции развития науки и образования, 2021, №11.- 94-98-с.
18. Voxidova M.X. Maxsus iqtisodiy zonalarning infratuzilmasi.// Iqtisod va moliya, 2021, №1.- 31-b.



**Dilnoza XOSHIKOVA,**

*PhD in Pedagogical sciences, Head of the Interfaculties department of foreign languages, in Alfraganus University*

*E-mail: dilnozaxoshimova@mail.ru*

*On the basis of review DSc T.Islomov*

### USING TYPES OF TRANSLATION WITH INTER-ACTIVE METHODS DURING ENGLISH LESSONS

Annotation

The article deals the benefit of using the types of translation with innovative technologies in teaching foreign languages.

**Key words:** Desirable qualification, bilingual identity, advocate translation, method, complementarity, project-based learning, team spirit, verbal competence, communicative approach, project method.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВИДОВ ПЕРЕВОДА С ИНТЕРАКТИВНЫМИ МЕТОДАМИ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В статье рассматривается польза использования видов перевода с инновационными технологиями в обучении иностранным языкам.

**Ключевые слова:** Желаемая квалификация, двуязычная идентичность, адвокат перевода, метод, дополнительность, проектное обучение, командный дух, вербальная компетентность, коммуникативный подход, метод проектов.

### INGLIZ TILI DARSLARIDA TARJIMA TURLARIDAN INTER-FAOL USULLAR BILAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada chet tillarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar bilan tarjima turlaridan foydalanishning afzalliklari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Kerakli malaka, ikki tilli o'ziga xoslik, advokat tarjimasi, usul, to'ldiruvchilik, loyihaga asoslangan ta'lim, jamoaviy ruh, og'zaki kompetentsiya, kommunikativ yondashuv, loyiha usuli.

Many job notices for positions in English language teaching and applied linguistics specify knowledge of technology as an essential or desirable qualification. Warschauer (2000) predicts even more sweeping changes in job requirements for teachers in the future, whereas Cribb (2000) speculates a diminished need for English teachers in a world where language users can employ convenient translation technologies rather than engaging in time-intensive language study! Critical perspectives warn applied linguists not to accept the technologizing of the profession as inevitable.

Many people also find the tackling of translation problems intellectually stimulating and aesthetically satisfying. In addition, it helps create and maintain good relations between teacher and student, facilitates classroom management and control, and allows students to maintain their own sense of first language identity, while also building a new bilingual identity. It does not seem to impede efficient language use – many students who began their studies through translation go on to become fluent and accurate users of the new language.

A main factor that has some practitioners advocate translation is that it lends itself to “easy” teaching. How simple is it to get students to translate or to explain in the first language. Think for a moment, when we learnt our first language, we mastered it without the need for translation. Those capacities we had then, we still have now, and I would suggest even more. So why not use them and have learners come to understandings of the new language by using their awareness, wits, their intelligence, their perception. All of this usage making them better language learners. The trick for the language teacher is to teach in ways that encourage these practices but to not to replace translation with copious

explanations and practices that dull the mind, or at the very least don't stimulate it to grow.

Today, the goals and tasks facing the modern education are changing — the emphasis is shifted from the assimilation of knowledge to the formation of competence. There is a reorientation of a personal-oriented approach, the opposite of knowledge-oriented impersonal pedagogy. Schools are provided with modern computers, electronic resources, Internet access. This contributes to the introduction of new pedagogical technologies in the teaching and educational process. It is the use of innovative technologies in English language lessons is the main sign of positive results of creative activity, which entails increased motivation of students.

According to scientific calculations of national and foreign scientists, the term “method” has two basic meanings:

- A certain path to the goal, means to achieve the result.
- Complete methodological system and the fundamental direction of the learning process, which prevail in the various periods of the science development

With the development of high-tech usual methods of teaching through books, similar grammar exercises, reading and translation of texts go on the back burner[2]. The humanistic approach eventually led to the formation of the communicative approach, on which is based the whole procedure. Traditional grammar-translation methods do not form language skills. The student is capable to read and translate various texts at high-level, but he is not able to apply the knowledge of a foreign language in real life situations. The communicative approach allows the use of grammatical knowledge in a form of speaking and writing skills. One of the key tasks is the enriching of vocabulary. However, new words

must be stored not only in a passive, but also in active form. In other words, the student must not only know the translation of a word, but should be able to use it in speech or in writing of own texts. As a simple exercise to develop skills can be noted spontaneous group dialogues. Students are divided into pairs and try to communicate on various topics. Usually the teacher oversees the conversation or helping with leading questions. During learning of new words used exercises with cards. On them written new words, and then they are turned and mixed. One student draws a card and tries to explain the meaning of a foreign word so the others can guess it. This exercise allows you to "feel" new words and remember situations in which they are used correctly. At a certain stage of development can be implemented into the learning process different movies in a foreign language. Students are asked questions, the answers to which should be identified directly from watched videos.

In recent years, increasingly it raises the question of the application of innovative technology in the classroom. It is not only new facilities but also new forms and methods of teaching, new approach to learning. Introduction of innovative technologies in the educational process is interconnected with the improvement of the content and methods of education in the process of teaching foreign languages in relation to the needs of modern life.

The main objective of foreign language teaching is the formation and development of the communicative culture of pupils, learning practical mastery of a foreign language. The task of the teacher is to create the conditions of practical language learning for each student to choose such training methods that would allow each student to show their activity, their creativity. Modern teaching techniques such as cooperative learning, project methodology, the use of new information technologies, Internet resources help to realize the learner centered approach to learning, providing personalization and differentiation of learning abilities of children, taking into account their level of training.[3] The communicative approach is a strategy that simulates the communication, aimed at creating a psychological and linguistic readiness to communicate, on a conscious understanding of the material and methods of action with him. For the user, the implementation of the communicative approach in the Internet is not particularly difficult. Communicative job must offer students a problem or question for discussion, and students do not just share information, but also evaluate it. But the main criterion to distinguish this approach from other types of learning activities is that students choose their own linguistic units to process their thoughts. Using the Internet in the communicative approach could not be better motivated: its aim is to interest students in learning a foreign language through the accumulation and expansion of their knowledge and experience. One of the basic requirements for teaching foreign languages using the Internet resources, is to create interaction in the classroom, what is called in interactive methods. Interactivity is a «unification,

coordination and complementarity of efforts communicative purpose and outcome of speech means». Teaching genuine language, the Internet helps in shaping the conversation, as well as in teaching vocabulary and grammar, providing a genuine interest and, hence, efficiency. Interactivity is not just creating real situations of life, but also makes the students to adequately respond to them through a foreign language

Project method is one of the most pressing contemporary technologies in teaching foreign languages. It combines the elements of problem-based learning and collaborative learning that allows achieving the highest level of mastery of any subject, and foreign language in particular. Project method forms students' communication skills, culture, communication, the ability concisely and audibly formulate thoughts, be tolerant to the opinion of partners in communication and develops the ability to extract information from a variety of sources, to process it with the help of modern technologies. All these factors create language environment that - results in the appearance of the natural need to interact in a foreign language.

Project-based learning does not contradict the traditional ways of learning. It helps to activate students since most of them have an interest for new knowledge. Such kind of motivation - the desire to successfully develop theme of the project - is often stronger than the demands of parents and teachers to study hard in order to get excellent and good marks.

The main purpose of the use of this innovative approach is the ability to effectively master students' foreign communicative competence. It includes the following concepts:

verbal competence is creating an opportunity of manifestation of communicative skills in all forms: listening, speaking, writing, reading, translation within a specific topic;

socio-cultural competence is the formation of ideas about the social and cultural specificity of the target language;

linguistic competence is students' acquisition of lexical units relating to the topic as a necessary basis for registration of speaking abilities;

educational and cognitive competence is the improvement of educational activity on mastering of foreign languages;

compensatory competence is formation of skills of overcoming difficult situations in a shortage of linguistic resources.

Also, this approach forms informational competence which manifests the ability to work independently with reference books, find necessary information in various sources, and see links with other branches of knowledge.[4] Moreover, project-based learning contributes to enhancing students' personal confidence, developing a "team spirit" and communication skills; providing a mechanism for critical thinking, the ability to find ways to solve problems and developing students' research skills.

#### REFERENCES

1. Innovative technologies of teaching foreign languages // Молодой ученый. — 2018. — №5. — С. 182-184. — URL <https://moluch.ru/archive/191/48195/> (дата обращения: 14.02.2020).
2. Akzhan M. Abdyhalykova\* Indian Journal of Science and Technology, Vol 9(22), DOI: 10.17485/ijst/2016/v9i22/95561, June 2016
3. Akimov, V.B. (2010). Orhanizatsiia informatsionno-tekhnicheskoho prostranstva uchebnoho zavedeniia. Media-biblioteka, interaktivnye doski [Organization of information and technical space of the educational institution. Media library, interactive whiteboards]. Volgograd: Uchitel [in Russian].
4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учеб. пос. – М.: Народное образование, 1998.
5. <https://www.tdx.cat/bitstream/handle/10803/461885/TESI.pdf?sequence=1&isAllowed=y>
6. <https://oupeltglobalblog.com/2011/10/20/translation-in-language-teaching-and-learning/>



**Malika XUDAYBERGENOVA,**  
*O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti doktranti,*  
*E-mail: maaliikhudaibergenova@mail.ru*

*O‘zDSMI PhD, dotsent O.G‘.Davlatov taqrizi asosida.*

### STAGES AND CHARACTERISTICS OF MUSIC EDUCATION DEVELOPMENT IN THE UZBEKISTAN EDUCATION SYSTEM STEPS AND DESCRIPTION

Annotation

This article provides information on the stages of organizing music lessons in general secondary education schools and the process of conducting music lessons.

**Key words:** Music education, musical literacy, performing rhythmic exercises, group singing.

### ЭТАПЫ И ХАРАКТЕРИСТИКИ РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ШАГИ И ОПИСАНИЕ

Аннотация

В данной статье приведены сведения об этапах организации уроков музыки в общеобразовательных школах и процессе проведения уроков музыки.

**Ключевые слова:** Музыкальное образование, музыкальная грамотность, выполнение ритмических упражнений, групповое пение, использование опыта зарубежных стран.

### O‘ZBEKISTON TA‘LIM TIZIMIDA MUSIQA O‘QITISHNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA TAVSIFI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida musiqiy dars jarayonlarini tashkillashtirish bosqichlari va musiqiy dars jarayonini olib borish haqida ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Musiqa ta‘limi, musiqa savodxonligi, ritmik mashqlar bajarish, jamoa bo‘lib kuylash, xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish.

**Kirish.** Musiqiy ta‘lim jarayonini o‘quv muassasalarida tashkil etishda pedagogik ilg‘or texnologiyalardan foydalanish, zamonaviy metodlardan foydalangan holda darslarni yanada samarali olib borish yillar davomida pedagoglar oldida turgan asosiy masalalardan biridir. Mustaqillik yillarida san‘at va madaniyat sohasida ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Xususan, respublikamizning har bir viloyat va tumanlarida musiqa va san‘at maktablari, barkamol avlod bolalar ijod markazlari ochilib, chekka hududda istiqomat qilayotgan bolalar ham maktabdan tashqari bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga, o‘z sevimli to‘garagiga borishga imkoniyati paydo bo‘ldi. Musiqa darslarini umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tashkillashtirish, nazariy va amaliy faoliyatni birgalikda rivojlantirish orqali musiqiy darslar sifatini yanada yaxshilash, Oliy ta‘lim muassasalari “Musiqiy ta‘lim” yo‘nalishi talabalarini yetuk kadr qilib tayyorlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Normativ hujjatlar va qarorlar. Mamlakatimizda ta‘lim sifatini yanada yaxshilash va rivojlantirish davlat siyosati darajasidadir. Ayniqsa, san‘at va madaniyat sohasi va musiqa ta‘limini izchil takomillashtirish, sohada yetarlicha kadrlarni tayyorlash, xorij tajribalarini o‘rganish va dars jarayonida tatbiq etish, pedagoglarning malakalarini oshirish yuzasidan ko‘plab qarorlar qabul qilinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar musiqa va san‘at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2016 — 2020-yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi to‘g‘risida” 2015-yil 20-noyabrdagi PQ-2435-son qarori[1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 8 - oktabrdagi PF-5847-son farmoni[3], “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining 2021 – yil 20 – yanvardagi O‘RQ – 668 – son qonuni[2], Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha

chora – tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Prezidentining 2022 yil 2 – fevraldagi PQ – 112 – son qarori[4], 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”[5] da amalga oshirishga oid davlat dasturi va qarorlarida musiqa va san‘at sohasini yanada isloh qilish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

**Tarixiy rivojlanish bosqichi.** Xususan, 1997 – yilda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun” ning 17 – moddasi “Maktabdan tashqari ta‘lim” ni tashkillashtirish to‘g‘risida yozilgan bo‘lib, bunga ko‘ra musiqa va san‘at sohasiga qiziquvchi yoshlarni qo‘llab – quvvatlash va maktabdan tashqari to‘garak va ixtisoslashtirilgan san‘at maktablarini tashkil etish haqida so‘z yuritiladi.[6] 1997- yil 29 – avgustdagi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ushbu 17 – moddadagi keltirilgan qaror ham o‘z ifodasi topgan bo‘lib, umumiy o‘rta ta‘lim o‘quvchilarining maktabdan tashqari mashg‘ulotlar, to‘garaklarga faol qatnashishi va buning uchun muassasalarda shart – sharoitlar yaratilishi haqida so‘z boradi:

“Bolalar va o‘smirlarning ta‘limga bo‘lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta‘lim muassasalarini tashkil etadilar.

Maktabdan tashqari ta‘limni rivojlantirish, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalarini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

ta'lim berish va kamol toptirishga yo'naltirilgan xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'ini kengaytirish va bunday xizmatlar turlarini ko'paytirish;

milliy pedagogik qadriyatlarga asoslangan va jahondagi ilg'or tajribani inobatga oluvchi dasturlar va uslubiy materiallar ishlab chiqish;

o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etishning, shu jumladan ommaviy sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlarining, bolalar turizmining, xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, milliy turlari va shakllarini tiklash hamda amaliyotga joriy etish"[7].

O'zbekistonda musiqa ta'limi an'anaviy musiqa va G'arb klassik musiqasining boy integratsiyalashuvi bilan ajralib turadi, bu integratsiyalashuv ayni damda mamlakatning turli madaniy merosni ham qamrab olishini aks ettiradi. O'zbekiston uzoq va jonli musiqiy an'anaga ega bo'lib, uning ildizi Buyuk Ipak yo'lining klassik musiqasi va maqom an'anasi, Markaziy Osiyo klassik musiqa janrlarining birlashuvi bilan bog'liq. Sovet tizimi davrida G'arb klassik musiqasi, madaniyati, janrlari, cholg'u asboblarining kirib kelishi ham mahalliy, ham G'arb musiqa an'alarining chambarchas bog'lanishi va bu jarayonni ta'lim tizimiga joriy qilinishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim turlari quyidagilardan iborat bo'lib;

maktabgacha ta'lim va tarbiya;  
umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;  
professional ta'lim;  
oliy ta'lim;

oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

maktabdan tashqari ta'lim kabi bosqichlarni o'z ichiga olgan [7].

O'zbekistonda musiqa ta'limiga e'tibor ko'pincha erta bolalikdan boshlanadi. Qo'shiq kuylash, ritm mashqlari, musiqa tinglash, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlarni bajarish kabi faoliyatlar bolalarga maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflardan musiqa darsi majburiy fan hisoblanib, unda bolalar asosiy musiqa savodxonligi, musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, ritmik harakatlar bajarish va bolalar cholg'u asboblarida jo'rbolish kabi 5 ta faoliyat orqali darslar olib boriladi.

O'zbekistonda maxsus musiqa maktablari tarmoqlari ham mavjud bo'lib, 2020 – yil 23 – sentabrda yangilangan “Ta'lim to'g'risidagi qonun” ning 14 – moddasida ham “Maktabdan tashqari ta'lim"[7] ni tashkil etish haqidagi band keltirilgan. Bu maktablar bolalarga yanada intensiv musiqa ta'limini taqdim etadi hamda ularning musiqaga bo'lgan qobiliyatini yanada rivojlantiradi. Bu maktablarda an'anaviy o'zbek musiqasiga ham, G'arb klassik musiqasiga ham e'tibor qaratiladi. Professional ta'lim bosqichida o'quvchilar musiqa litseyi, pedagogika institutlari, konservatoriyalarda o'qishlari mumkin, u yerda ular ijrochilik, kompozitsiya va musiqa nazariyasi bo'yicha ta'lim oladilar. Musiqa maktablari, pedagogika institutlari, madaniyat va san'at institutlari va O'zbekiston davlat konservatoriyasi o'quv dasturlariga o'zbek an'anaviy musiqasida ham, G'arb klassik musiqasida ham o'quv mashg'ulotlar kiritilgan. O'quvchilar o'zbek milliy cholg'u asboblari bilan birgalikda, G'arb cholg'u asboblarini professional tarzda ijro etishni o'rganadilar.

O'zbekistonning musiqa va san'at sohasi mamlakat madaniy bayramlari, milliy bayramlari va jamoat tadbirlari bilan yaqindan bog'langan. O'quvchilar, talabalar, an'anaviy musiqani yorituvchi ko'rsatuv va konkurslarda tez-tez ishtirok etadilar. Musiqa ta'limini ommalashtirish va talabalarga ijro imkoniyatlarini yaratib berishda O'zbekiston Davlat filarmoniyasi va turli madaniyat markazlari kabi muassasalar alohida o'rin tutadi.

DTS bo'yicha musiqiy darslarni tashkil etish. Xususan, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida umumiy o'rta ta'lim bosqichida “o'quvchilar musiqa madaniyatiga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholg'u asboblarini bilish;

Farg'ona-Toshkent, Samarqand-Buxoro, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslublari xususiyatlari, mashhur musiqa janrlari (doston, katta ashula, yallachilik)ni bilish, ularning mashhur ijrochilarini bilish;

maqom haqida tushuncha, o'zbek maqomlari va ularni asosiy turkumlari, shashmaqom, uning cholg'u ashula yo'llari, Farg'ona-Toshkent maqomlari, Xorazm maqomlari, cholg'u va aytish yo'llarini bilish;

O'zbekiston hududida mumtoz musiqaning ko'p tarmoqli va mahalliy an'analarga ega ekanligi, ularning o'xshashligi va o'ziga xosligi, mahalliy musiqiy an'analarning zamonaviy musiqa, bastakorlik va kompozitorlik ijodi sohasida namoyon bo'lishini bilish;

ikki ovoqli qo'shiqlarni sof ohangda kuylash, major uch tovushligidan minor uch tovushligiga mustaqil kuylab o'ta olish;

kuylashda forte va piano dinamik tuslarini bajarish, o'zi va o'rtoqlari ijro etgan qo'shiqlarning ijrochilik saviyasi va badiiy sifatini baholay bilish;

mashhur qo'shiq va ashulalar, yor-yorlar hamda ushshoqlarning mahalliy uslub variantlarini tinglab ajrata olish;

kuylash va tinglash madaniyatiga ega bo'lish;

musiqa naqadar qadimiy san'at ekanligi, o'zbek xalq musiqasining ildizlari uzoq davrlarga taqalib, asrlar, yillar davomida sayqal topib, rivojlanib kelganligi, shu bois xalqimizning boy madaniyatini, milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettirishini va nihoyat, o'zbek milliy musiqamiz umumbashariy jahon musiqa madaniyatining ajralmas bir bo'laki ekanligini tasavvur qila olish" [8] kabi talablar yuklatilgan.

**Xulosa.** Musiqiy ta'lim jarayonlarida ham zamonaviy innovatsion metodlar va musiqa o'qitishning yangicha tendensiyalari ko'paymoqda. Shunga qaramay musiqa fanlari o'rniga haftasiga tabiiy va aniq fanlar soatlarini ko'paytirish, san'at fanlariga “ikkinchi darajali” fan sifatida qarash kuchaymoqda. Biroq olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar musiqa o'qitishning ta'lim muvaffaqiyatlari bilan bog'liqligini ko'rsatmoqda. Dunyoda umumiy o'rta ta'lim tizimida musiqa o'qitish, musiqa darslarini dolzarbligi va uni takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, tajribalar aniq fanlarni o'zlashtirishda musiqaning o'rnini juda yuqoriligini tasdiqlamoqda. Ayniqsa matematikani musiqa bilan bog'liq holda o'rganish o'qishdagi natijalarni yaxshilashga yordam berishi kuzatilmoqda. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablari 1 – 7 – sinflari musiqa dars yuklamalarini yanada ko'paytirish, boshqa fanlarni o'zlashtirishda va samaradorlikka erishishda yordam berishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016 – 2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida” 2015-yil 20-noyabrda PQ-2435-son qarori
2. Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining 2021 – yil 20 – yanvardagi O'RB – 668 – son qonuni



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili
4. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 29.08.1997 yildagi 464-I-son
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 29.08.1997 yildagi 463-I-son
6. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida qarori, 06.04.2017 yildagi 187-son



Laylo HAMIDOVA,  
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: laylohamidova2891@gmail.com

*JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti S.Yaxyoyeva taqrizi asosida*

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI “TESKARI O‘QITISH”GA METODIK TAYYORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING TUZILMAVIY-FUNKSIONAL MODELI

Аннотация

Ushbu maqolada “Aralash ta’lim”(Blended Learning) texnologiyasining modellaridan biri bo‘lgan “Teskari o‘qitish” (Flipped Learning) modeli haqida yoritilgan. Bugungi kunda ta’lim tizimiga kirib kelayotgan ushbu yangicha o‘qitish modelini joriy etish va bo‘lajak o‘qituvchilarni “teskari o‘qitish(Filpped Learning)”ga metodik tayyorligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritib berilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida “Teskari o‘qitish” modelidan foydalanishning afzalliklari keltirib o‘tilgan hamda bo‘lajak o‘qituvchilarni “teskari o‘qitish(Filpped Learning)”ga metodik tayyorligini rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modeli ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Teskari o‘qitish, flipped learning, blended learning, ta’lim texnologiyalari, bo‘lajak o‘qituvchi.

## СТРУКТУРНО-ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К «ПЕРЕВЕРНУТОЕ ОБУЧЕНИЕ»

Аннотация

В данной статье описывается модель Flipped Learning, которая является одной из моделей технологии смешанного обучения. Освещены педагогические условия внедрения этой новой модели обучения, которая сегодня входит в систему образования, и развития методической готовности будущих учителей к « Перевернутое обучение» (Filpped Learning). Также были отмечены преимущества использования модели «Перевернутое обучение» в образовательном процессе и разработана структурно-функциональная модель формирования методической готовности будущих учителей к «Перевернутое обучение».

**Ключевые слова:** Обратное обучение, перевернутое обучение, смешанное обучение, образовательные технологии, будущий учитель.

## A STRUCTURAL-FUNCTIONAL MODEL OF THE DEVELOPMENT OF THE METHODOLOGICAL PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR "FLIPPED LEARNING"

Annotation

This article describes the Flipped Learning model, which is one of the models of the Blended Learning technology. Pedagogical conditions for the introduction of this new teaching model, which is entering the education system today, and the development of methodological readiness of future teachers for "flipped teaching" (Filpped Learning) are highlighted. Also, the advantages of using the "Flipped Learning" model in the educational process were mentioned, and the structural-functional model of developing the methodological readiness of future teachers for " Flipped Learning " was developed.

**Key words:** Flipped teaching, flipped learning, blended learning, educational technologies, future teacher.

**Kirish.** Hozirgi kundagi hayotimizning barcha jabhalarini raqamlashtirish, jumladan, oliy ta’limda raqamli texnologiyalarning o‘rni, bo‘lajak o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarning o‘rni, zamonaviy ta’limning muammolari hisoblanadi. Oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning ijobiy va salbiy tomonlari, ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlanishida raqamli texnologiyalar ahamiyati, ulardan oqilona va samarali foydalanish talablari keng o‘rganilmoqda. Shuningdek, hozirgi globallashtirish davrining muhim ehtiyoji bo‘lgan talaba yoshlarning bilim faolligini, dunyoqarashini va motivatsiyasini oshiruvchi zamonaviy o‘quv jarayoni vositasi sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli texnologiyalarni qo‘llash nazariyasi muammolari dolzarb hisoblanadi.

Ushbu texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son[1] Farmonida “Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish

hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish; ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish; ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi “E-MINBAR” platformasini amaliyotga joriy etish, ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish” kabi dolzarb vazifalari belgilangan.

Oliy pedagogik ta’limda aralash o‘qitish modellaridan foydalanish kiritilganda, aralash ta’lim turli resurslarni, xususan, yuzma-yuz o‘quv mashg‘ulotlari va elektron ta’lim elementlarini o‘zida mujassam etgan o‘qitish usuli ekanligi tushuniladi. Aralash ta’lim rasmiy o‘quv dasturi bo‘lib, unda talabalar qisman bo‘lsa ham elektron, onlayn formatda

o'qitiladi va shu bilan birga o'rganish vaqti, kursi va tezligini nazorat qilishning ba'zi elementlari mavjud.

Qisman o'qitish talabalarning uyidan tashqarida va ichkarida amalga oshiriladi. Bunday o'rganish natijasida integratsiyalashgan o'rganish tajribasini ta'minlash uchun turli usullardan foydalaniladi [2].

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda Blended learning deganda internet vasinfdagiraqamli media ta'lim imkoniyatlarining birlashishini nazarda tutadi. AQSning Innosight Institute tashkiloti 2007-yildan boshlab Amerika maktablarida aralash ta'limni amalga oshirish tajribalarini o'rganib kelmoqda. Ushbu tashkilotning har yilgi hisobotlarida maktab talabalarining natijalari keltirilmoqda va ular har doim an'anaviy ta'limda o'qitilayotgan talabalarining natijalaridan ancha yuqori hisoblanadi [3].

Respublikamizda so'ngi yillarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorligini takomillashtirish, boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda tashkil etish, kompetentli mutaxassis va kasbiy kompetensiyani rivojlantirib, raqobat-bardosh kadrlar tayyorlashning huquqiy me'yoriy asoslari yaratilmoqda.

Kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorlikni rivojlantirish vositasi talabalar tomonidan ilmiy va uslubiy bilimlarni o'zlashtirishdir. Talabalar pedagogika va psixologiya asoslarini, rivojlanish va tarbiya psixologiyasini va umumiy kasbiy davrning boshqa fanlarini o'rganayotganda ushbu kurslarda ushbu tayyorgarlikning asosi qo'yiladi. [4]. Ushbu asosiy bilimlarni keyingi o'quv kurslarida qo'llash, kasb-hunar pedagogik ta'lim bakalavriatlarini tayyorlashning asosiy tarkibiy qismi ularning uslubiy tayyorgarligiga aylanadi, natijada o'zlashtirilgan uslubiy kompetensiyalar yig'indisi hisoblanadi. Ijtimoiy fanlar tizimida "tayyorlik" tushunchasining ontologik ifodasini ko'rib chiqish va umumlashtirishda ushbu tushuncha nazariy va amaliy yondashuvlarning turli ko'rinishlarida o'rganilishini hisobga olish kerak. Shunday qilib, tadqiqotchilar bunday turlarni psixologik, axloqiy-psixologik va oddiygina "tayyorlik" deb hisoblashadi.

Tayyorlik masalasi Slastenin V.A., Kuzmina N.V., Sherbakov A.M. kabi olimlarning pedagogik faoliyatini o'rganishi bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, umuman olganda, turli xil faoliyat turlariga tayyorgarlikni rivojlantirish muammosi bo'yicha psixologik-pedagogik manbalarda yetarli materiallar yaratilgan. Shu bilan birga, bir qator olimlar insonning turli xil faoliyat turlariga tayyorgarligini rivojlantirish mumkin, deb hisoblashadi. Tayyorlik tuzilishi haqida gapiradigan bo'lsak, shuni aytishimiz mumkin, tadqiqotchilar o'nlab turli xil tarkibiy qismlarni ko'rib chiqadilar, bu esa ushbu konsepsiyaning aniqligi va ko'p qirrali xususiyati yo'qligidan dalolat beradi.

Motivatsion komponent-sub'ektning umuman kasbiy xulq-atvorining yo'nalishini, uning amalga oshirilayotgan faoliyatning muayyan jihatlariga yo'naltirilganligini, shuningdek, o'qituvchining dunyoqarashi, tamoyillari va individual shaxsiy xususiyatlarini (muloqot uslubi, hissiylik) o'z ichiga oladi.

Kognitiv komponent - bu o'qituvchining o'qitishni tashkil etishning uslubiy, maxsusilmiy, kasbiy-pedagogik asoslarini qo'llashdagi bilim darajasiga asoslanadi.

Operatsion komponent-o'qituvchining uslubiy faoliyati - kognitiv, loyiha, o'qitish, baholash va tadqiqot uchun zarur bo'lgan ko'nikma va ko'nikmalar tizimini shakllantirishni nazarda tutadi.

Refleksiv komponent-bu oxirgi komponent bo'lib, uni o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini tushunish qobiliyati, o'z rivojlanish darajasini amalga oshirish qobiliyati, buning asosida o'z ta'lim faoliyatini o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyati sifatida tushunish mumkin.

Nazariy tayyorgarlik kasbiy fikrlash qobiliyatini uslubiy jihatdan rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, o'quv faoliyatining tarkibiy qismlaridan biri sifatida uslubiy ishlarni o'z ichiga olgan holda olib borishga tayyorlikdir.

Amaliy tayyorgarlik esa kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun rivojlangan ko'nikmalar bilan belgilanadi [5].

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlardagi bir qator maktablarda ham, universitetlarda ham "Flipped Learning" texnologiyasidan foydalanish uchun resurslarni ishlab chiqish mexanizmlari tashkil qilingan. Shuning uchun ham ta'limda keng tarqalgan texnologiyalardan foydalanish ayni muddaodir. Bu texnologiyalarichida chet el ta'lim tizimida keng qo'llanilib kelinayotgan "Flipped Learning" texnologiyasi dunyo davlatlari ichida yuqori reytinglarni egallab kelmoqda.

**Tahlil va natijalar.** "Testkari o'qitish" bu oddiy o'qitish jarayonini quyidagi tarzda "aylantirish" imkonini beruvchi aralash ta'lim shaklidir. Bunda bilim oluvchilar uy vazifasi o'rniga yangi o'tilishi lozim bo'lgan mavzu yuzasidan tayyorlangan materialni tomosha qilishadi. Internetdagi qisqa video ma'ruzalardan o'quvchi nazariy materiallarni mustaqil ravishda o'rganadi va dars vaqtida asosiy e'tibor amaliy vazifalarni birgalikda bajarishga qaratiladi. Bu orqali o'qituvchi va o'quvchi fan yuzasidan amaliy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga ko'proq vaqt sarflash imkoniga ega bo'ladi. Bugungi kunda tez intilish va onlayn kontent yaratish hamkorlik va tarqatish vositalarining keskin o'sishi amaliyotchilarga testkari o'rganishni ta'minlash uchun qulay vositalar to'plamini taqdim etadi. Video yaratish (masalan, ScreenvaWebinaria) va tarqatish vositalari (masalan, Youtubeva Vimeo) osongina aylantirilgan tarkibni yaratish imkoniyatini beradi. Shu bilan bir qatorda qayta foydalanish uchun mavjud bo'lgan ko'plab ommaviy axborot vositalari mavjud (masalan, iTunesU Khan Academy va Open Yale Courses). Texnologiya zaruriy shart bo'lmasa-da (to'g'rilangan matnga asoslangan kontent xuddi video kontent kabi qimmatlidir), shubhasiz, web 2.0 texnologiyasi va o'rganish nazariyasi kesishishi testkari ta'limni aralash ta'lim spektriga qimmatli qo'shimcha bo'lishga imkon berdi [6].

Auditoriyada o'qitishning testkari modeli talabalarining odatdagi auditoriyadan tashqari faoliyati (masalan, muammoni hal qilish amaliyoti) sinfda olib boriladigan model sifatida tavsiflanadi. Auditoriyadagi mashg'ulot odatda auditoriyada qanday amalga oshirilishidan farqli o'laroq (masalan, tushuntirish, ma'lumot uzatishni o'rgatish) darsdan tashqarida va dars boshlanishidan oldin yakunlanadi. "Testkari modul" atamasi sinfni testkari tomoniga aylantirishni o'z ichiga olgan o'qitish usulini anglatadi. "Testkari modulning" ko'plab afzalliklaridan biri shundaki, u o'qituvchilarga talabalar bilan bevosita ishlashga ko'roq vaqt sarflash imkonini beradi. Talabalarni samarali baholash uchun sinfda viktorinalar yoki testlardan foydalanish talabalarining bevosita muloqotiga sarflangan vaqtni non-interaktiv baholashni foydasini kamaytiradi [6].

Olimlarning fikricha, pedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun aralash ta'limning quyidagi modellaridan foydalanish samarali natija beradi: masalan, pedagogik fanlarni o'qitish ("Pedagogik mahorat", "Pedagogika tarixi", "Qiyosiy pedagogika"): "Flipped Model", "Rotation Model", (Laboratoriya aylanish modeli). Bunda quyidagilarni inobatga olish lozim:

o'quv kursi (abituriyentlarning ta'lim va malaka darajasi);

fanning o'quv rejasidagi o'rni;

o'qitishni tashkil etish shakli (kunduzgi, sirtqi, dual);

fakultetning o'ziga xos xususiyatlari (gumanitar, texnik);

fanning maqsadi, vazifalari, kutilayotgan dasturlashtirilgan natijalari, mazmuniga muvofiqligi;

o'quv va kognitiv faoliyatni nazorat qilish shakli (og'zaki, yozma, kredit, imtihon);

moddiy-texnik jihozlar va ta'minot (internetga kirish, jihozlarning soni);

Teskari o'qitish (Flipped Learning) modeli, o'qitish jarayonini teskari tarzda tashkil etishni anglatadi, ya'ni, an'anaviy darsdan tashqarida o'rganish (masalan, ma'ruzalar va video ko'rsatmalarni uyda ko'rish) va dars vaqtidagi faoliyat (masalan, muhokamalar, amaliy mashg'ulotlar va kollaborativ ishlar) o'rtasida o'rin almashtiriladi.

**Xulosa.** Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida aralash ta'limning teskari o'qitish (Flipped learning) modeli asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda, bilim, ko'nikma, malakalarini mustahkamlashda, ularda fanga bo'lgan qiziqishni oshirishda yordamberadi. Mazkur ta'lim

texnologiyasining o'quv jarayonida qo'llanilishi ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy bosqichida mavjud pedagogic tizim funksiyalarini tubdan o'zgartirish, jumladan, o'qituvchi rolini bir shakldan boshqa shaklga o'tkazish, innovatsion va kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy qilish, aralash va masofaviy ta'lim shakllarini keng yoyish, o'quvchining mustaqil o'quv faoliyatini oshirish va uzluksiz ta'limga yo'naltirish, o'quvchining individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim berish yo'llarini izlab topishga imkon beradi. Ta'limda Flipped learning texnologiyasidan foydalanish ham iqtisodiy, ham ijtimoiy foyda beradi. Shuning uchun ham bu boradagi nazariy, uslubiy va boshqa jihatlar davr talablari asosida takomillashtirilishi bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri ekanligini unutmashimiz lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8.10.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847 sonli Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/>
2. Mingbaeva B.U. Zamonaviy ta'lim yondashuvlari asosida ta'lim samaradorligini ta'minlashda interfaol usullardan foydalanish // Ilmiy-amaliy konferensiya. -Buxoro, 2019. - B. 305
3. Madatov I.Y. Blended learning ta'lim texnologiyasi asosida talabalarning mustaqil ta'limini samarali tashkil etishni takomillashtirish. Dissertatsiya. – Samarqand, 2023. – 133 b.
4. Насырова Э.Ф., Дроздова А.А. Методическая готовность как составляющая профессиональной компетентности бакалавров профессионально-педагогического образования. *Modern Research of Social Problems*, №6(50), 2015. 281c
5. Berdiyeva M. "Teskarisinf moduli" tizimida baholash// Jamiyat va innovatsiyalar: Jurnal. Issue – 4 № 2 (2023) / <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>
6. Graham C. R. Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions. In: Bonk C. J., Graham C. R. *The handbook of blended learning: Global perspectives, local designs*. San Francisco, CA: Pfeiffer Publishing; 2006. p. 3–21



UDK: 37.06 Sh 19

Nozima SHAMURATOVA,  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tayanch doktoranti  
E-mail: nozimashamuratova9@gmail.com

O'zDSMI PhD, dotsent E.U. Shermanov taqrizi asosida

### МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной научной статье рассматриваются теоретические и научные основы самостоятельного обучения студентов в системе высшего образования, освещаются формы формирования у студентов навыков самостоятельного обучения совместно со студентами и профессорско-преподавательским составом.

**Ключевые слова:** Самостоятельное обучение, умение, цифровые технологии, образовательные платформы, инновационные методы, мотив, план, результат.

### MECHANISM OF FORMATION OF STUDENTS' SELF-LEARNING SKILLS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION.

Annotation

This scientific article highlights the theoretical and scientific foundations of students' self-learning in the higher education system and focuses on collaboration of student and professor teachers to develop the skills of Independent Education.

**Key words:** Independent Education, Skills, digital technologies, educational platforms, innovative methods, motive, plan, result.

### TA'LIM SIFATINI YAXSHILASHDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLIISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMI

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada Oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'lim olishining nazariy va ilmiy asoslari haqida to'xtalib, talaba va professor o'qituvchilar hamkorligida talabalarga mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish shakllari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mustaqil ta'lim, ko'nikma, raqamli texnologiyalar, ta'limiy platformalar, innovatsion metodlar, motiv, reja, natija.

**Kirish.** O'qituvchi yoki boshqa rasmiy o'qitish usullari ishtirokisiz mustaqil ravishda amalga oshiriladigan o'quv jarayoniga mustaqil ta'lim olish deb nomlanadi. Bunda muayyan fandan o'quv dasturida talaba o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakani o'zlashtirish darajasi belgilangan holda auditoriyadan tashqarida bajariladi. Bunda onlayn o'quv kurslaridan tortib, kitob va maqolalarni o'qish, video tomosha qilish, mutaxassislar bilan suhbatlashish, onlayn platformadan foydalangan holda mavzuni chuqurroq o'rganish barchasi kiradi. Talabalarning mustaqil ta'lim olishini takomillashtirish bugungi kunda oliy ta'lim tizimida qo'yilgan dolzarb masala hisoblanib, 2023-yil holatiga ko'ra oliy ta'limda talabalarning mustaqil ta'lim olishi 30-40 foizga yetkazilgan, konsepsiyada bu ko'rsatkich 2030 yilgacha 60 foizgacha yetkazish maqsad qilib olingan[1]. Talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayonida talabalarda tashkilotchilik qobiliyati, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish uchun ham biz mustaqil ta'lim olishni takomillashtirishga e'tibor qaratishimiz zarur.

**Adabiyotlar tahlili va metod.** Mustaqil ta'limdan ko'zlangan asosiy maqsad yuqori malakali, raqobatbardosh, xalqaro standartlarga javob bera oladigan zamonaviy kadrlarni tayyorlash bilan birga o'quv dasturidagi fanlarni o'zlashtirish uchun auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va tartibga solish, o'quv materiallarini mustaqil o'rgana olish ko'nikmasini shakllantirish, tadqiqot qila olish qobiliyatini rivojlantirish va boshqalardan iborat. Mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish uchun eng avvalo Oliy ta'lim muassasalaridagi

ta'lim jarayoni umumiy o'rta ta'lim tizimidagidan farqli o'laroq, har kuni beriladigan uy vazifalari va o'tilgan materialni takrorlash yo'q. Ikkinchidan, o'quv auditoriyalaridagi ma'ruza va mashg'ulotlar qanchalik yuqori darajada tashkil etilmasin, kunlik bilimning nazoratiga imkoniyat juda kam. Talabalar bilimining sifati, ularning mustaqil ishlashiga bevosita bog'liq. Talabani mustaqil ishi professor-o'qituvchi tomonidan aniqlaniladi va tegishli ko'rsatmalar berilib, mustaqil ishingun bajarilishi nazorat qilib boriladi. O'quv statistik ma'lumotlarga qaraganda hozirda oliy o'quv yurti tizimida mustaqil ishlarning aksariyati to'g'ri tashkil etilmaganligi, fan dasturi bilan bog'lanmaganligi, ko'p hollarda ko'chirmakashlik bilan bajarilishi, tayyorlangan mustaqil ishlar internet tarmoqlaridan olingan tayyor materiallardan referatlar topshirish holatlari uchramoqda. Bunga asosiy sabab talabalarda axborot savodxonligi, mustaqil ishlashdagi uquvsizliklaridir, mustaqil ishni bajarish internet ma'lumotlarini shunchaki ko'chirib olish degani emasligini 1-bosqichligidan tushuntirish zarurdir. Mustaqil faoliyatni amalga oshirishda albatta o'qituvchining yordami zarur hisoblanadi. Zero, talaba o'zi mustaqil axborot izlashni, saralashni, unga baxo berib taxlil qila olsa kelgusi ilmiy faoliyatda oddiydan murakkabga qarab o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtira oladi. Bejizga xitoy faylasufi Konfusiy "kishiga baliq ber va uni bir kunlik ochlikdan asra; kishiga baliq ovlashni o'rgat va uni butun umrga ochlikdan asra"[2] degan mashhur ta'limotini ilgari surmagan, insonni mustaqil ishlashga o'rgatish samarali natija berishini nazarda tutadi. O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, yurtimizdagi oliy ta'limga o'qishga qabul qilingan talabalarning 40 foizigina mustaqil

turli manbalar yordamida ta'lim olish ko'nikmasiga ega, qolgan 60 foiz talabalarimiz esa fanga aloqador bo'lgan adabiyotlardan mustaqil foydalanishni bilmaydi, berilgan topshiriqlarni bajarishi uchun ularga professor-o'qituvchilarning yordami zarur[3]. Bundan tashqari talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, auditoriyadagi mashg'ulotlar bilan mustaqil faoliyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni oshirish, mustaqil ishlarni topshirish shakllarini bir qolipga solish, hisoblanadi.

**Muhokama.** Tarixda ilk bor mustaqil ta'lim olish jarayoni yunon faylasufi Suqrot tomonidan mustaqil ta'lim olish jarayonini, axloqiy qiyofasini qurish bilan bog'ladi. Suqrot bu jarayonda nafaqat o'zini takomillashtirish imkoniyatini, balki inson baxtining manbasini ham ko'rdi. Uning izdoshlari (Platon, Aristotel) ham mustaqil ta'lim haqida o'z qarashlarida o'z-o'zini rivojlantirishda muhimligi haqida fikr bildirishgan. Masalan, Aristotel mustaqil ta'lim olish yangi bilimlarni topishga qaratilgan shaxsni shakllantirish uchun asos ekanligini yozgan[4]. Fransuz pedagog olimi Per Abelard ta'limning asosiy usuli sifatida mustaqil izlanishga alohida e'tibor qaratdi. Per Abelard o'z asarlarida bilim, birinchi navbatda, mustaqil mehnat natijasidir, deb ta'kidlagan. XVIII asrning taniqli nemis olimi va faylasufi Immanuel Kant. I. Kant o'z asarlarida tarbiya va ta'lim masalalariga katta e'tibor bergan, uning butun ta'limotiga singib ketgan. Bu ma'rifatning "Kantian" ta'rifi, bizning fikrimizcha, o'z-o'zini tarbiyalash shiori deb atash mumkin. Mustaqil ta'lim faoliyatining tarkibiy qismlari uning tarkibiy elementlari sifatida tushunilishi kerak. V. P. Davydov mustaqil ta'limni quyidagi komponentlarini e'tibor qaratgan, ular: motivatsion, orientatsiya, operatsion, hissiy-irodaviy, baholash, psikomotor [5]. Subyektning o'quv faoliyatiga qiziqishi, o'quv jarayonining xususiyatlari va shartlarini bilishi, mustaqil ta'lim faoliyatini usullarini bilishi, o'ziga ishonishi, faol bo'lishi va bo'lajak harakatlar usulini aniq tasavvur qilishi, shuningdek, o'zini o'zi boshqarish usullarini bilishi, va nazorat muhim hisoblanadi. Mustaqil ta'lim olish jarayoni bilish nazariyasi, motivatsiya nazariyasi va hatto psixanalizning asosiy tamoyillariga asoslanadi. Ushbu nazariyalarning turli yo'nalishlariga qaramay, umumiy narsa shundaki, barcha olimlarning fikriga ko'ra mustaqil ta'lim jarayoni doimiy va tizimli bo'lishi zarur.

Talabalarining mustaqil o'quv-biluv faolligini oshirishda innovatsion ta'lim muhiti asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Talabalar mustaqil faoliyatini to'g'ri tashkil etishda

o'qituvchi mustaqil ta'lim jarayonini uchlik shakliga e'tibor qaratishi lozim[6]. Bular motiv – reja (harakat) – natijadan iboratdir. Mustaqil ta'lim olishda motiv mustaqil ishi hisoblanadi, unda talaba o'quv dasturiga asosan yetarli ballni qo'lga kiritish uchun vazifani bajaradi. Mustaqil ta'limning motivi bundan tashqari ko'pincha shaxsiy o'sish istagi, ilmiy ishtiyokdan kelib chiqadi. Bunga quyidagi omillar ta'sir qilishi mumkin:

- Qiziqish – yangi bilimlarni o'rganish va yangi g'oyalarni kashf etish;

- Karyera maqsadlari – o'z kasbiga tegishli ko'nikma yoki bilimlarni egallash zarurati;

- Zamon talabiga, o'zgarishlarga mos kadr bo'lish xoxishi – kishining ko'nikma yoki bilim bazasini qayta baholash, yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil o'rganish istagi kiradi.

## 2. Reja (Harakat)

Motiv o'rnatilgandan so'ng, keyingi qadam o'rganishni osonlashtirish uchun tuzilgan rejani yaratish zarurdir. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Maqsadlarni belgilash – aniq, erishiladigan maqsadlarni aniqlash (masalan, yangi tilni o'zlashtirish, kursni yakunlash, mutaxassislik fanlaridan mavzularni chuqur o'rganish, maksimal ballni olish uchun vazifalarga e'tibor qaratish);

- Resurslarni tanlash – o'quv maqsadlariga mos keladigan kitoblarni, onlayn kurslarni, podkastlarni yoki seminarlarni tanlash.

- Jadvalni yaratish – izchillik va hisobdorlikni ta'minlash uchun o'qish va amaliyot uchun aniq vaqtlarni ajratish.

- Jamoalar bilan ishlash: bilim almashish va qo'llab-quvvatlash uchun o'quv guruhlari, tengdosh talabalar forumlari yoki ijtimoiy media guruhlariga qo'shilish kiradi.

## 3. Natija

Mustaqil ta'lim olish jarayonining natijalari turlicha bo'lishi mumkin, ammo ular odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Bilimlarni egallash – yangi tushunchalar, ko'nikmalar yoki mavzuni tushunish.

- Ishonchni oshirish – o'rganilgan narsalarni qo'llashda o'zini yanada malakali va ishonchli his qilish.

- Karyera o'sishi – yaxshilangan ish istiqbollari, aksiyalar yoki rivojlangan ko'nikmalardan kelib chiqadigan yangi imkoniyatlar.

- Shaxsiy qoniqish – ta'lim maqsadlariga erishish va erishish hissidan iborat.

**Natijalar.** Ushbu uchlik mustaqil ta'lim olishda motivatsiya bilan boshqariladigan, tuzilgan reja asosida amalga oshadigan va aniq natijalar bilan yakunlanadigan dinamik jarayon ekanligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** talabalarining mustaqil ta'limini to'g'ri tashkil etish va ularning bilim darajalarini aniqlash, o'quv jarayonida nazoratga olish, talabalarining olgan bilimlarini o'zlarining o'zlashtirish natijalariga bog'lash zarur hisoblanadi. Oliy ta'lim konsepsiyasida qo'yilgan maqsad (mustaqil ta'lim olish jarayonini 30-40 foizdan 60 foizga oshirish), innovatsion ta'lim muhitiga erishish uchun ham talabalarining mustaqil ta'lim olishlari uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, pedagog tomonidan talabalarga mustaqil ta'lim olishlari uchun bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil izlanish uchun yo'llanma berish oliy talim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida 8-oktabr 2019 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5847-son Farmoni
2. Yingling Gu. English language teaching practice in open distance learning: PhD diss. - China, 2011.
3. Садикова А.В. Организация самостоятельной работы по математике студентов педагогических вузов направления начального образования: пед. фан. ном... дисс. -Т., 2009.
4. Анисимов Ю.В. История возникновения и развития дефиниций «самоорганизация» и «самообразование»: философский и историко-педагогический аспекты / Ю.В. Анисимов, Е.В. Демкина // Вестник АГУ. – 2015. - № 3 (162). – С. 23-29.
5. Кант И. Сочинения. В 6 т. Т. 6. / Иммануил Кант; под ред. Ф. В. Амоса, Т. И. Ойзермана. – М.: Мысль, 1966. – 743 с.
6. Роль мотивации в самостоятельной работе студентов — Информлио. (n.d.).<https://www.informio.ru/publications/id6603/Rol-motivacii-v-samostojatelnoi-rabote-studentov>



UDK: 37.015.3:001.8

*Xamza ELLIYEV,*

*Qorako'l tumani hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari*

*E-mail: hamza.elliye@mail.ru*

*ToshDO'TAU katta o'qituvchisi, PhD L.Ishonxanova taqrizi asosida*

## METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF STUDENT KNOWLEDGE ASSESSMENT IN CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM

Annotation

Although providing quality education is directly related to improving its content, the main issue remains the assessment of students' knowledge. It is intended to prepare the student for communication situations that will be necessary in his current and future life. This article highlights the priority situations of student knowledge assessment in the educational system.

**Key words:** Pedagogy, interactive, normative methods, assessment task, standard, form, Finnish experience.

## МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Хотя обеспечение качественного образования напрямую связано с улучшением его содержания, основным вопросом остается оценка знаний учащихся. Он призван подготовить студента к ситуациям общения, которые будут необходимы в его нынешней и будущей жизни. В данной статье освещены приоритетные случаи оценки знаний учащихся в системе образования.

**Ключевые слова:** Педагогика, интерактивные, нормативные методы, оценочное задание, стандарт, форма, финский опыт.

## UZLUKSIZ TA'LIM TIZMIDA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotasiya

Sifatli ta'lim berish - uning mazmunini takomillashtirishga bevosita bog'liq bo'lsa-da, bunda asosiy masala o'quvchilar bilimini baholash bo'lib qoladi. O'quvchiga uning hozirgi va keyingi hayotida zarur bo'ladigan muloqot vaziyatlariga tayyorlash nazarda tutiladi. Ushbu maqolada ta'lim tizimida o'quvchilar bilimini baholashning ustuvor holatlari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Pedagogika, interaktiv, normativ usullar, baholash vazifasi, standart, shakl, Finlyandiya tajribasi.

Yangilangan Davlat ta'lim standartida nafaqat asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirish natijalariga fan talablari, balki tayanch kompetensiyalarga ham talablari mavjud. Hozirgi vaqtda kompetensiyani hosil qilish natijalarini shakllantirish va baholash muammosiga yagona yondashuv mavjud emas va eksperimental tadqiqotlar, tashxislash-diaagnostika ishlari 5-9-sinf o'quvchilari o'rtasida fanning past darajasini ko'rsatdi, bu maktab o'quvchilarida bunday ko'nikmalarni shakllantirish uchun tizimli ish zarurligini anglatadi.

Davlat ta'lim standartida rejalashtirilgan natijalarga yerishishni baholash tizimiga aniq talablar mavjud. Ularga ko'ra, baholash tizimi kerak:

1. Baholash faoliyatining maqsadlarini aniqlash:

a) natijalarga yerishishga ye'tibor qarating

- ma'naviy-axloqiy rivojlanish va tarbiya (shaxsiy natijalar),

- universal ta'lim harakatlarini shakllantirish (meta-fan natijalari),

- o'quv fanlari mazmunini o'zlashtirish (fan natijalari);

b) sanab o'tilgan barcha ta'lim natijalarini baholashga kompleks yondashuvni ta'minlash (mavzu, meta-mavzu va shaxsiy);

v) rejalashtirilgan natijalarga yerishish bo'yicha olingan ma'lumotlar asosida ta'lim tizimini tartibga solish imkoniyatini ta'minlash; boshqacha qilib aytganda, har bir sinfda, maktabda, mintaqaviy va davlat ta'lim tizimlarida o'quv jarayonlarini takomillashtirish va takomillashtirish bo'yicha pedagogik choralarni ko'rish imkoniyati.

2. Mezonlarni, protseduralarni, baholash vositalarini va uning natijalarini taqdim yetish shakllarini belgilash.

3. Baholash tizimini qo'llash shartlari va chegaralarini belgilash.

Baholash tizimi ma'lum bir DTS qanchalik muvaffaqiyatli shakllanganligini aniqlash imkonini beradi. Mezonlar ko'rsatkichlar bo'yicha hal qilinadi, ular (har bir aniq ish uchun) o'quv topshirig'ini bajarish natijasi qanday bo'lishi kerakligi haqida aniq tasavvur beradi va har qanday ko'rsatkich bo'yicha baholash o'quvchining berilgan maqsadga yaqinlashish darajasini aniqlashdir. Mezonni baholashda baholash har bir topshiriq uchun tekshirilishi kerak bo'lgan har bir to'g'ri bajarilgan element uchun ballar yig'indisi bo'yicha amalga oshiriladi. Mezonni baholash geribildirim funksiyasini bajaradi, o'quvchi o'zining muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari haqida ma'lumot oladi. Shu bilan birga, oraliq ishning eng qoniqarsiz natijalari ham o'quvchi tomonidan faqat o'z natijalarini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar sifatida qabul qilinadi. Mezonlarni baholash texnologiyasi professor-o'qituvchilar uchun juda ko'p vaqt talab qiladigan protsedura hisoblanadi, chunki hozirgi vaqtda metasubject natijalarini belgilangan mezon va ko'rsatkichlar bilan baholash bo'yicha vazifalar mavjud yemas va yutuqlarni baholashda barcha fanlar uchun yagona yondashuv zarur, chunki DTS shakllanishi har bir darsda sodir bo'ladi.

Obyektiv natijalarga erishishni baholash turli protseduralar davomida amalga oshirilishi mumkin. Metasubject natijalariga erishishni yakuniy baholashning

asosiy tartibi yakuniy individual loyihani himoya qilishdir. Shaxsiy meta-mavzu natijalariga yerishish bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar manbai barcha fanlar bo'yicha tekshirish ishlarining natijalari (odatda tematik) bo'lishi mumkin.

Matematika barcha maktab fanlari orasida alohida rol o'ynaydi, chunki uning mazmuni o'quvchi mantiqiy mulohazalar tuzadigan, farazlarni ilgari suradigan, belgilar va belgilarni qo'llaydigan va o'zgartiradigan vaziyatlarning mavjudligini nazarda tutadi.

Fan natijalarini baholashning asosiy obyekti o'quvchilarning tartibga solish, kommunikativ va kognitiv qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Boshqaruv tizimini boshqarish usullari: nazorat, dizayn, sinov.

Boshqaruv tizimini boshqarish shakllari: individual, guruhli, frontal shakllar; og'zaki va yozma so'rov; shaxsiylashtirilgan va shaxsiylashtirilmagan.

Boshqarish vositalari: DTS vazifalari, kuzatish xaritasi, test, monitoring xaritasi, o'z-o'zini baholash varog'i yoki kundalik.

DTS shakllanish darajasi quyidagi natijalar asosida sifat jihatidan baholanishi mumkin: maxsus diagnostika ishlari; turli o'quv fanlarining amaliyotga yo'naltirilgan vazifalari; meta-fan asosida murakkab vazifalar.

Darsni rejalashtirish bosqichida Davlat ta'lim standartiga muvofiqi uchun imtihondan o'tgan darsliklar mualliflari tomonidan taklif qilingan vazifalarni diqqat bilan tushunish muhimdir, chunki ushbu vazifalarning izchil bajarilishi kompilyatorlar g'oyasiga ko'ra ma'lum ko'nikmalarni shakllantirishga olib keladi. Masalan, "Natural sonlar" mavzusida (5-sinf) rejalashtirilgan meta-mavzu natijalari sifatida siz quyidagilarni ko'rishingiz mumkin: topshiriq matnini tahlil qilish va tushunish, matndan kerakli ma'lumotlarni olish, mantiqiy zanjir yaratish, natijani baholash va h.k. Bu natijalar nafaqat mavjud darslik mualliflariga, balki 5-6-sinflar matematikasi bo'yicha ta'lim dasturiga ham asoslangan.

O'z ishining natijalarini mustaqil ravishda baholash, muayyan vazifani bajarish mezonlarini aniqlash va natijaga yerishishga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash qobiliyati o'quvchining o'zini o'zi baholashning muhim yelementidir.

Darsda bunday mahoratni shakllantirish uchun siz quyidagi baholash usullaridan foydalanishingiz mumkin:

\* hukmdor: o'quvchilar chekkalarga shkala chizishadi va xoch bilan ular joylashgan darajani belgilaydilar, agar o'qituvchi rozi bo'lsa, bu natijani aylana qiladi, agar bo'lmasa, uni balandroq yoki pastroq qilib qo'yadi;

\* Svetofor: uy vazifasini tekshirishda yoki joriy ish paytida signal kartasi yordamida ishni baholash. Yashil - hamma narsa yaxshi, aniq, qizil - yordam kerak, muammolar mavjud.

\* narvon: o'quvchilar zinapoyada dars materialini qanday o'rgananliklarini belgilaydilar. Pastki qadam qiyin, men tushunmadim, o'rta qadam yordamga muhtoj, hamma narsa aniq yemas va yuqori qismi yaxshi, men buni o'zim hal qila olaman.

\* palma: yigitlar kaftlarini aylanadilar va dars oxirida kichik barmog'iga o'zlari uchun nima ishlatishini yozadilar, ismsiz - bugungi kunda yeng qiziqarli dars - o'rtada - men uchun yeng qiyin, ko'rsatkich barmog'ida - nima hayron bo'ldi va nima haqida, katta - o'zimga tilak.

\* qo'l: signallari: bosh barmoqlar - hamma narsa aniq, men boshqalarga tushuntira olaman, barmoq yon tomonga men hamma narsani tushunmayapman, menga yordam kerak va ochiq kaft - men hali tushunmayapman, ishonchim komil yemas.

\* yozish: mustaqil ishni tugatgandan so'ng, o'quvchi o'zini baholashi va o'ziga baho berishi mumkin, shundan so'ng u allaqachon o'qituvchi tomonidan baholanadi.

\* QR kod: dars tugagandan so'ng, yigitlar har doim ofisdagi stendga osilgan havolaga amal qilishadi va muvaffaqiyatga yerisha olmaganliklarini, qaysi mavzuni tushunmaganliklarini va agar hamma narsa yaxshi bo'lsa, keyingi darsda yana nimani o'rganishni xohlaysiz.

\* bashoratli baholash: dars davomida shaklni to'ldiring va agar hamma narsa aniq bo'lsa, "+" "qo'ying" "bilmayman"?" Men bunga shubha qilaman. Masalan, mavzuni o'rganayotganda siz o'z-o'zini baholash shaklini berishingiz mumkin, unda o'quvchilar konsolidatsiya darsida yangi mavzuni va shunga o'xshash mavzuni o'zlashtirish uchun har bir bo'limda o'z bilimlarini mustaqil ravishda baholaydilar. Shu bilan birga, o'qituvchi o'z bayonotini saqlaydi, o'quvchilarni og'zaki baholash bilan rag'batlantiradi va uning yutuqlariga ye'tibor qaratadi.

O'z-o'zini nazorat qilish, faoliyatingizni rejalashtirish qobiliyatini rivojlantirish uchun siz "vazifalar qatori" texnikasidan foydalanishingiz mumkin. Masalan, o'quvchi o'zi uchun tanlashi va ulardan bir nechtasini hal qilishi kerak bo'lgan bir nechta vazifalar berilgan, ammo oldindan belgilangan raqamdan kam yemas. Bir vaqtning o'zida katta massiv o'rnatilishi mumkin, masalan, o'rganilayotgan mavzu doirasida 10-12 topshiriqdan o'quvchi ulardan 4 tasini hal qilishi kerak, qolganlari esa o'z xohishiga ko'ra, bu holda rag'bat bo'lishi mumkin. O'quvchi vazifalarni hal qiladi, ehtimol bunday vazifa sinov qog'ozida uchraydi. Shu tarzda, o'quvchi o'z faoliyatini tartibga solishni o'rganadi, chunki odatda bunday vazifalar keyingi dars uchun emas, balki "bir muncha vaqt" uchun beriladi.

Darsning deyarli barcha bosqichlarida nafaqat o'z-o'zini tekshirishga, balki o'z faoliyatini o'zaro tekshirish va baholashga ham e'tibor berish muhimdir. Shunday qilib: harakatlaringizni baholash va nazorat qilish va kerak bo'lganda tegishli tuzatishlar kiritish kabi ko'nikmalar shakllanadi.

Siz obyektiv natijalarni shakllantirishga hissa qo'shadigan maxsus ishlab chiqilgan diagnostika vazifalaridan foydalanishingiz mumkin, masalan: "tuzoq" vazifalari, yotoqg'ri yechim usuli ataylab taklif qilinganda; bu vazifani boshqasi bilan taqqoslash, bu yechim uchun indikativ asosdir.

Normativ ta'lim harakatlari maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, monitoring qilish, o'z harakatlarini to'g'rilash va o'rganish muvaffaqiyatini baholash orqali bilim va ta'lim faoliyatini boshqarish imkoniyatini beradi.

Kognitiv o'quv faoliyatiga tadqiqot, izlash, kerakli ma'lumotlarni tanlash va tuzish, o'rganilayotgan tarkibni modellashtirish kiradi. Siz quyidagi turdagi vazifalarni tanlashingiz mumkin: "farqlarni topish", "ortiqcha qidirish", "labirintlar", "zanjirlar", qo'llab-quvvatlash sxemalarini tuzish, turli xil jadvallar bilan ishlash, diagrammalarni tuzish va tanib olish.

"Iborani taxmin qiling":

Maqsad: harakatlar rejasini tuzish, matematik operatsiyalarni izchil bajarish qobiliyatini rivojlantirish.

Topshiriq shakli: individual ish

Vazifaning tavsifi: u o'yin shaklida amalga oshiriladi. Sinf ikki guruhga bo'lingan. Vazifalar doskaga yozilgan. O'quvchilar (har bir guruhdan bittadan) navbat bilan chiqib ketishadi. Yechimning natijasi harfga to'g'ri keladi. Harflar alohida stolda. O'quvchi olingan xatni topadi, uning orqa tomonida iborada uning seriya raqami yozilgan. Bu ibora doskaga yozilgan. Buni tezroq bajaradigan guruh g'alaba qozonadi.

Shaxsiy o'quv faoliyati o'rganishni hayotiy maqsadlar va vaziyatlar bilan bog'lash orqali mazmunli qiladi. Shaxsiy harakatlar hayotiy qadriyatlarini anglash, tadqiq qilish va qabul



qilishga qaratilgan bo'lib, o'zingizni axloqiy me'yorlar va qoidalarga yo'naltirishga, dunyoga nisbatan hayotiy pozitsiyangizni rivojlantirishga imkon beradi.

Siz quyidagi vazifalarni taklif qilishingiz mumkin: loyihalarda ishtirok yetish; darsni yakunlash; amaliy qo'llanma bilan ijodiy vazifalar; voqealarni o'z-o'zini baholash.

“Murakkab qiziqish bilan muammolarni hal qilish” (seminar darsi).

